

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti



**ZAMONAVIY TARG'IBOT
TEXNOLOGIYALARI VA
MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLAR
SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING DOLZARB
MASALALARI**



Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

**ZAMONAVIY TARG'IBOT
TEXNOLOGIYALARI
VA MA'NAVIY-MA'RIFIY
ISHLAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING DOLZARB
MASALALARI**

2024-yil 28-mart ilmiy Anjuman materiallari

TOSHKENT 2024
MUXR PRESS NASHRIYOTI

O‘UK: 008.70 (575.1)
KBK: 71.85 (5O‘z
A -99

“ZAMONAVIY TARG‘IBOT TEXNOLOGIYALARI VA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI”: Respublika Ilmiy-Amaliy Anjumani Materiallari. Toshkent: MUXR PRESS- Nashriyoti, 2024. 481 bet.

Mas’ul muharrir:
Olimjon Davlatov
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:
Sh.To‘rayev, M.Musayev, S.Go‘furov, K.To‘rayev, A.Madraximov,
X.Serobov, N.Xusanova.

Ushbu to‘plamda **“Zamonaviy targ‘ibot texnologiyalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari”** mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. Shuningdek, to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim-yili»da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi»da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan tayyorlandi.

To‘plam siyosatshunoslik, sotsiologiya, din, falsafa, ma’naviyat, ta’lim yo‘nalishlari mutaxassisleri, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-8998-3-4

SO‘Z BOSHI

“Ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi”.

Shavkat Mirziyoyev

Dunyoda ro‘y berayotgan turli ko‘rinishdagi tahdid, xavf va xatarlar – xavfsizlikni ta’minlashga nisbatan talab va zarurat kun sayin ortib bormoqda. O‘zbekiston uchun bu shiddatli jarayonlarda nafaqat voyaga yetib kelayotgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash balki o‘zini o‘zbekman deb bilgan har bir kishini vatanga bo‘lgan muxabbat va hurmat ruhida tarbiyalash har qachongidan ham muhim vazifaga aylanib ulgurdi.

Ayni paytda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlatning oldidagi bosh masalalardan biriga aylanishi ushbu jarayonlarda uzviy dahldor hisoblangan oila, mahalla, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ta’lim muassasalari, armiya, ijtimoiy-siyosiy institutlar, kengashlar, jamiyatlarsingari Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi uchun ham davlat xavfsizligi – millat farovonligini ta’minlab beruvchi ustuvor vazifa hisoblanadi.

Dunyoning geosiyosiy manzarasi va manfaatlar to‘qnashuvi tobora avj olishi tufayli vatanparvarlik tuyg‘usini yanada takomillashtirish bilan bir qatorda jamiyatning har bir a‘zosi hisoblangan hox u o‘g‘il bo‘lsin, hox u qiz bo‘lishidan qat’iy nazar **“vatan tayanchi”** g‘oyasini qalbi va jismi ruhiga singdirib borish esa milliy o‘zlik va tarixiy haqiqatga tayangan holda amalga oshirish ertangi kun uchun zamin hozirlaydi.

Biz bugun o‘tmishga nazar tashlar ekanmiz, tarixdan to hozirgi kungacha kelajak avlod o‘rtasida o‘z o‘rnini yo‘qotmayotgan tarixiy siymolar bo‘lmish Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Sharq mutafakkirlari-yu jadidlar harakati namoyondalari singari ajdodlar xotirasi, ularning vatan oldidagi mardanavor jasratlari bora-bora afsonaga aylanib, og‘izdan-og‘izga o‘tib mangu saqlanib qolgani vatan oldidagi burch va sadoqatga sodiqlikning eng oliy mukofoti desak adashmagan bo‘lamiz. Bu o‘lmas afsonalardan biri bo‘lgan bobokalonimiz Amir Temur sarhadlarimizni har turli istilolardan saqlab, butun dunyoga har qanday davrda buyuk davlatchilikni barpo etish qanday bo‘lishini ko‘rsatib bera olganiga tarixning o‘zi guvohlik beradi. Yoki jadidlar irodasi mustahkamligi timsoli Cho‘lpon, Qodiriylarning dushman miltig‘iga tik boqishi tufayli ularning nomi bugun o‘chmas tarix zar varaqlaridan o‘rin olgani ham ayni haqiqat.

Bunday mardonavor jasratlar yurtimizda shu qadar ko‘pki, aytib adog‘iga yetalmaysan! Ammo bugun biz bu jasratlarni yangi avlod ongiga qanchalik yetkazib bera olayotganimiz yoki yetkaza olmayotganimiz tufayli

jamiyatda vatanga va vatan taqdiriga oid g‘oyalar va qarashlar to‘g‘risidagi targ‘ibot va vositalardan kishilar bezishi kabi holatlar ham jamiyatda nish urayotganiga siz va biz guvoh bo‘lib turibmiz.

Bugun inson qalbi va ongi uchun kurashlar davrida mamlakatda ma‘naviy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 22 dekabr kuni “Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi” bo‘lib o‘tdi. Mazkur yig‘ilishda belgilab berilgan vazifalar mamlakatimizda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan «Ma‘naviy jarayonlar»ning yangi bosqichini boshlab berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mazkur kengash yig‘ilishida ma‘naviyat sohasi barcha sohalardan bir qadam oldinda yurishi shartligi to‘g‘risida davlat rahbari fikrlari soha samaradorligini yanada oshirishga undaydi. Shuningdek, Markazga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududlarida “Vatanparvarlik tarbiyasi dasturi”ni shakllantirish bo‘yicha sotsiologik so‘rovlarni tashkil etish vazifasi yuklatildi. Ushbu vazifa ijrosi yuzasidan Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti “Bugun va biz” mavzusida yurtdoshlarimizning bugungi hayoti, ularni tashvishlantirayotgan muammolarni o‘rganish maqsadida 10019 nafar aholining fikr-mulohazalari o‘rganildi.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash-yili” davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida o‘tkazilgan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining 50-son yig‘ilish bayonida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar ijrosini amalga oshirish yuzasidan inson qadrini ulug‘lash, aholi manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan tamoyillar asosida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar va yangilanishlarni keng targ‘ib etish maqsadida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti tomonidan “Zamonaviy targ‘ibot texnologiyalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil etilib, ushbu konferensiyaga mamlakatning ko‘zga ko‘ringan olimlar, professor-o‘qituvchilar va amaliyotchi mutaxassislar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, doktorantlar, tadqiqotchilar jalb etildi. Bu konferensiya asosiy to‘rt yo‘nalishda faoliyat olib borib:

1. O‘zbekistonda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy-ma‘naviy muhit holatini o‘rganish va uni takomillashtirish texnologiyalari,

2. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy qarashlariga ta'siri: mediatahlil metodlari,

3. Ma'naviy tarbiyaning samarali va ta'sirchan usullari: empirik tajribalar asosida,

4. G'oyaviy kurash: tarixi, metodologiyasi, muammo va yechimlariga oid masalalarda ilmiy izlanishlar va sohaga aloqador yangiliklarni o'rganishga xizmat qiladi.

Hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni milliy qadriyatlar, tarixiy haqiqat, vatanga muhabbat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda zamonaviy usul, vosita, targ'ibot texnologiyasi hamda metodlarini ishlab chiqish bugunning eng dolzarb masalalaridan bir ekanini unutmash lozim.

Shuningdek, kishilarning hayotining bir bo'lagiga aylanib ulgurgan virtual olamda ham zamonaviy targ'ibot vositalarini harakatga keltirish, o'zbek jamiyati uchun xos bo'lgan milliy kontentlar bilan boyitib borish, yoshlar ongi va qalbini egallashga urinayotgan yot g'oyalar va mafkuralarga o'rin qoldirmaslik Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining asosiy maqsadiga aylanmog'i lozim. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning *“Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas”* degan xavotirli fikrlari harbirmizni qalbimizni, tafakkurimizni uyg'otmog'i lozim.

O'zbekiston o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan va umummillat g'oyasiga aylanib ulgurgan *“Uchinchi Renessans”* poydevorini yaratish g'oyasini amalga oshirishda Vatanparvarlik tarbiyasi jamiyatni taraqqiyotining hamma bosqichlarida, jumladan hozirgi mafkuraviy kurashlar kundan-kun avj olib borayotgan davrda ham ruhiy ma'naviy omil sifatida qudratli kuch sifatida hayotiy tajribaga ega bo'lmagan, dunyoqarashi hali mustahkam shakllanmagan, yoshlarda turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishidan omon saqlashi muqarrar.

Binobarin, Vatanparvarlik qadimiy tariximiz va madaniyatimiz jonajon Vatanimizning mustaqillik va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanishimiz, ularga munosib bo'lish bilan birga, insonning tug'ilib o'sgan va yashab o'tgan, shuningdek uning kindik qoni

to‘kilgan yerning o‘zi uchun muqaddas ekani, uni ko‘z qorachig‘idek asrsash insoniy burch ekanini anglatishdan boshlanadi.

Bu zaminni sevish, unga nisbatan fidoiy bo‘lishi har bir insonning burchi ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyalarga qarama-qarshi kuchli texnologiyalar bilan qurollangan ayrim noxolis kuchlar esa vatansizlik g‘oyalarini ilgari suruvchilar uni qadsizlantirishga keskin harakat qilmoqdalar. Ushbu g‘oyalar negizida, albatta, qanday niyatlar borligi hech kimga sir emas. Shunday ekan yosh avlodni asrab-avaylash, ularni shunchaki taqdir hukmiga tashlab qo‘ymasdan yurtimiz kelajagining ishonchli posponlari sifatida tarbiyalashga barchamiz birdek mas’ul ekanimiz, bir zum ham tin olishga haqqimiz yo‘qligini unutmasligimiz lozim.

*Otabek Xasanov,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat
markazi rahbari*

O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI YANGI BOSQICHGA KO‘TARISH, IJTIMOYIY- MA’NAVIY MUHIT HOLATINI O‘RGANISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

TARG‘IBOT KVINTESENSI – VATANPARVARLIK

Mavrulov Abduxalil,
tarix fanlari doktori, professor

“Targ‘ibot” so‘zi arabchadan tarqatish, qiziqtirish degan ma‘nolarni beradi. Uchinchi ming-yillikning eng muhim jihatlaridan biri – targ‘ibot va tashviqotning insoniyat hayoti, uning taqdirida alohida ahamiyatga ega bo‘lib borishi bilan belgilanmoqda.

Targ‘ibotni keng va tor ma‘nolarda tushunish odatga aylangan. Uni keng ma‘noda ijtimoiy faoliyatning alohida turi, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, shuningdek, milliy g‘oya va mafkuralar, qadriyatlarni targ‘ib etish ma‘nosida tushunish mumkin. Targ‘ibot jarayonida ilm-fan, san‘at, siyosat va mafkura yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi.

Targ‘ibotni tor ma‘noda mafkura va siyosatni targ‘ib etishga qaratilgan faoliyat sifatida tushunsa bo‘ladi. Targ‘ibot ilmiylik, konkretlik, xolislik kab qator tamoyillarga suyanadi. Har qanday targ‘ibot ijtimoiy hayot, undagi reallik bilan bog‘lansagina uning samaradorlik ko‘rsatkichlari baland bo‘lishi mumkin. (Qiyom Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. Ikkinchi jild. – Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2023. -284-bet).

Bugun targ‘ibot masalasi mamlakat va millatlarning hayot-mamot masalasiga aylangani aksimo. Bekorga O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari” mizni shakllantirishni talab etmoqda. Lekin, afsuski, dunyoda, yon-atrofimizda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta’sirchan va ommabop shaklda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Targ‘ibotning ilmiy asoslangan zamonaviy texnologiyalari va yangi shakllarini, tahdidlarga qarshi samarali kurash usullarini ishlab chiqadigan vaqt keldi, deb hisoblayman”, demagan edi. (Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, “O‘zbekiston”. -262-bet).

Zamonning o‘zgarishi barchadan targ‘ibot texnologiyalarini takomillashtirishni talab etmoqda. Haqiqatdan ham, bugun an’anaviy tarzda o‘tkazib kelayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlarimizning samaradorlik darajasi

juda past. Odamlarda yengil, oson tushunadigan, kerak bo'lsa "boshni qotirmasdan" tahlil etiladigan materiallarga muxtojlik kuchayib ketdi.

Biroq, mazkur masalaning o'ta dolzarb ekanligini mutlaqo inkor etmagan holda, biz uchun juda zarur bo'lgan masalalardan yana biri – biz bu jarayonda nimani targ'ib etishimiz kerakligini aniqlab olishga ham e'tiborni kuchaytirishimiz kerak, deb o'ylaymiz.

Qadriyatlarning qadrsizlanishi, milliy axloq tamoyillarining yemirilishi, an'anaviy o'zbek oilasining putur yetayotganligi kabi dolzarb muammolar orasida, nazarimizda, vatanparvarlik masalasi, uni keng targ'ib etishga zarurat kuchayib borayotganligini yoddan chiqarish aslo mumkin emas.

Haqiqatdan ham, bugungi dunyo tobora tahlikali tus olmoqda. Bugun kim do'stu kim dushman ekanligini aniqlash tobora qiyinlashib bormoqda. O'zini yaqin tutib, bir qo'l bilan "mehribonlik" qilishga va'da berib, boshqa qo'l bilan turli vositalar ila o'zining asl maqsad-muddaolarini yashirgan holda, zimdan "ish" ko'rayotgan davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosatdonlarni anglash qiyin bo'lmoqda. Bunga ommaviy axborot vositalari, turli ijtimoiy tarmoqlarda ba'zan yaltiroq qog'ozga "o'rab", ba'zan ochiqchasiga o'z niyatlarini bayon etayotgan "chiqish"lar guvoh.

Bugun barchamizning oldimizda Vatan taqdiri barcha masalalarning masalasi sifatida bo'y ko'rsatayotganini ta'kidlamaslik mumkin emas. Shuning uchun ham mamlakat rahbari bekorga o'tkazilgan kengaytirilgan kengashda mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo'ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg'usini kuchaytirish lozimligini alohida qayd etmadi.

Biz uchun vatan hissi eng muqaddas tuyg'udir. Ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz ming-yillar davomida yashab kelgan ushbu makon, ro'yi zamin har doim o'zining go'zal tabiati, moddiy-ma'naviy boyliklari, mehnatkash xalqi bilan butun dunyoni o'ziga rom etib kelgan. Shuning uchun ham bu zaminga egalik qilish barcha yaqin va uzoq "qo'shnilarimiz"ning orzusi bo'lib kelgan. Buning oqibatida biz o'z milliy davlatchilik tariximizning qariyb uchdan bir qismini mustamlakachiliklar ostida o'tkazishga majbur bo'ldik.

Endi, bas. Bu ko'hna tariximizda "hassamizni" ko'p bora yo'qotdik. Buning natijasida ota-bobolarimiz, buyuk mutafakkir-allomalarimiz tomonidan yaratilgan sivilizatsiyalar, milliy-madaniy merosimizni qo'ldan boy berdik. Bugun ko'hna tariximizni chuqur, teran, xolis o'rganish payti keldi. Uning shonli, muvaffaqiyatlar bilan bezalgan, ayni paytda uzoq vaqtlar davomida boy berilgan moddiy-ma'naviy boyliklarimiz, amalga oshmay

qolgan kashfiyotlarimiz, qo‘ldan chiqargan imkoniyatlarimiz haqida ochiq gapiradigan, ularning o‘rnini to‘ldiradigan payt keldi.

Chunki, oldimizda vatan taqdiri turibdi. Ba’zilar “bugun bizga kim ham hujum qilardi, tahdid qani?”, deyishi mumkin. Bu savolni berganlarni aslida yo uzoq tariximizni bilmaydiganlar yoki bilib turib undan xulosa chiqara olmaydiganlar yohud vatan taqdiriga befarq kishilar, deyish mumkin.

Vatan buyuk tuyg‘u. U jonsiz, ruhsiz narsa emas. Biz bor ekanmiz, har birimizning qonimizda, jonimizda, ruhiyatimizda Vatan degan milliy vijdon suvi oqadi. Vatanni unutgan har bir inson o‘rmonda yoki sahro-cho‘llarda adashgan kishi, shamchirig‘ini yo‘qotgan kishi kabi bir umr mehrga, muhabbatga zor, o‘zi mansub bo‘lgan xalqqa muxtojlikda yashaydi. U jismoniy jihatdan tirik, yashaydi. Ammo u ma’naviy jihatdan “o‘lik”, bir umr afsus-nadomatda azob chekadi.

Biz “vatanni sevish kerak”, degan so‘zni ko‘p bora ishlatamiz. Bu yaxshi gap. Ammo “bu yaxshi gap” hamma narsani ham anglatmaydi. Vatanni sevish faqat so‘zda bo‘lganda edi... Vatanni sevishning asl tuyg‘usi bu so‘zning e’tiqodga aylanishi bilan bezalishi kerak. Vatanni sevaman, deb unga xiyonat qilayotganlar kammi? O‘z xizmat lavozimida belgilangan vazifalarni sidqidillik bilan bajarmaslik ham, taraqqiyotimizga to‘siq bo‘layotgan xato, kamchiliklarni ko‘ra turib, undan ko‘z yumish ham, millat va mamlakat qiyin ahvolda qolganda o‘z fuqarolik mas’uliyatini atayin unutib qoldirgan ham, davlat va jamiyat tomonidan qabul qilingan turli me’yoriy hujjatlarning qabul qilinishida faol ishtirok etib, biroq uning ijrosida “chetga chiqib turish” ham aslida vatanga xiyonat emasmi?

“Men uchun qayerda yashash qulay bo‘lsa o‘sha joy men uchun Vatan!”, degan tushunchasini hayotiy tamoyiliga aylantirib olganlarchi? Bularning bari bizni o‘ylantirishi, “do‘ppini qo‘yib” xulosa chiqarishga undashi kerak.

Xulosa chiqarish uchun ham uzoqqa borishning keragi yo‘q. Buning uchun ko‘hna tariximizga murojaat qilishning o‘zi yetarli. Masalan, milliy tariximiz, qadriyatlar tizimimizda har doim tuproq va madaniyatimiz alohida o‘ringa ega bo‘lgan. Biz yuqorida ta’kid etganimizdek, tuproqning joni bor, u his qiladi. Unda million-yillik ajdodlarimizning hoklari, quvonchu armonlari, qo‘shiqlari, alyorlari va fig‘onu nolalari, onalarning allalari, oshiq-ma’shuqlarning dil rozlari mujassam bo‘lgan.

Vatandan uzoqqa ketayotgan, qaytib kelishi noma’lum bo‘lgan kishilar Vatan tuprog‘ini bejiz olib ketmaganlar. Shu bir kaft tuproqda Vatanning hidi, tafti, mehri mujassam bo‘lgani uchun, agarda begona yurtda umri poyoniga yetsa, o‘sha tuproqni tanasiga qo‘shib dafn etishlari uchun shunday qilishgan.

1231-yili baland tog‘ ustidagi kurdning kulbasida mudrab o‘tirgan

so‘nggi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdini nomard kurd orqasidan ilondek sudralib kelib shahid qiladi. Shohona libosdagi bu kishining katta boyligi bor, degan ilinjda u shahidni tintib ko‘radi. Qo‘ynidan charm xaltachani topib olgach, uning qonga to‘lgan ko‘zlari quvonchdan porlaydi. Xoin darhol xaltachani ochib ko‘rdi-yu hafsalasi pir bo‘ldi. Xaltachada faqatgina bir siqim tuproqdan boshqa hech narsa yo‘q edi. Ha, bu Vatanning tuprog‘i, jasur Jaloliddin yurtining bir qismi edi. Sulton Jaloliddin bu xaltachani hamisha yuragi ustida asrab yurardi. Oqibatda sulton Jaloliddin shu tuproq, shu Vatan uchun jon fido qildi. (Berdimurodov A. Vatan xaqqiga munojot. –Toshkent, 2020. -19-bet.)

Dushmanlar bilan bo‘lgan janglarda ham, ahvol tang holatga kelganda ham ushbu ikki qadriyat uchun kerak bo‘lsa jon berilgan. Xun hukmdori Metening “Tuproq millatning ildizidir, uni qanday berayin”, deyishi ham Vatan shuurining ajdodlarimizda qadimdan shakllanib, ardoqlanganidan dalolat beradi.

Xalqimiz azal-azaldan vatan va madaniyat, milliy qadriyatlarimizni egiz holda ko‘rgan, tasavvur qilgan. Vatan xalqimiz moddiy mavjudligining ifodasi bo‘lsa, madaniyat, qadriyatlarimiz shu Vatanning ma’naviy ramzi, timsollari bo‘lgan. Ming-yillar davomida shakllangan, suronli alg‘ov-dalg‘ov davrlarda ham o‘z milliy xususiyatlarini yo‘qotmasdan, zamonlar osha sayqallanib, milliy jilolarini yangi sifatlar bilan boyitib kelayotgan bunday madaniyatimizning bardavomligi ham uning Vatan tuyg‘usi bilan hamohangligidadir.

Shuning uchun ham madaniyat va san’atda Vatan mavzusi abadiy mavzu hisoblanadi. U to‘g‘risida kuylamaydigan, yozmaydigan, chizmaydigan san’atkorni topib bo‘lmaydi. Huddi shu kabi, Vatan haqida so‘z ketganda entikib hayajonlanmaydigan, ruhiyati o‘zgarmaydigan, ko‘ziga yosh olmaydigan hamyurtlarimiz ham topilmaydi.

Shu o‘rinda chin manbasida ta’kidlangan imperatorga tobe bo‘lib qolgan Ishparaxonning quyidagi so‘zlari e’tiborga loyiq: “O‘g‘limni saroyingizga yuboryapman. U sizga har-yili kelib chiqishi samoviy bo‘lgan otlar taqdim etajak. Ertayu kech amringizga tayyorman. Ammo kiyimimizning oldini ochishga, o‘rilgan sochlarimizni yoyishga, tilimizni o‘zgartirishga va sizning qonunlaringizni qabul qilishga kelsak, bizning urf-odatlarimiz juda qadimiy bo‘lgani tufayli ularni buzishga jasoratim yetmaydi. Butun elimizning yuragi birdir”. (Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. –Toshkent, 2021. -127-bet).

Darhaqiqat, qadimgi vatandoshlarimiz o‘zining Vatan haqidagi tasavvurlari, milliy qadriyatlari, urf-odatlari bilan butun dunyoda eng ilg‘orlardan bo‘lishganiga tarix guvohlik beradi. Yuqoridagi iqtibosdan uchta muhim xulosa qilish mumkin. Birinchidan, qadimgi qavmlarimiz

ota-bobolaridan meros bo‘lib kelgan milliy qadriyatlariga shu darajada sodiq bo‘lganlaridan, hattoki, bu qadriyatlarni buzishga, biror bir yangilik kiritishga jazm eta olmaganlar. Insonning bunday ruhiy holatga tushishiga faqat bir narsa sababchi bo‘lishi mumkin. Bu – Vatan tuyg‘usi, vatanni faqat so‘zda emas, amalda sevish, ardoqlash tufayli sodir bo‘ladigan ruhiy-axloqiy kechinmadir.

Ikkinchidan, ajdodlarimiz elimizning yuragini bir, deb ta’kidlaydilar. Millat va xalqni birlashtiradigan, ularni yagona maqsad sari safarbar eta oladigan fenomen hodisa ham Vatandır. Butun bir xalqning yuragini bir qiladigan, jipslashtiradigan Vataniy tuyg‘uni insoniyat tomonidan yaratilgan eng ilohiy mo‘‘jiza sifatida qabul qilinishi lozim, deb o‘ylaymiz. Uchinchidan, xalqimizni uzoq ming-yillar davomida turli balo-qazolardan saqlab kelayotgan, qanchadan-qancha bosqinchiliklaru mustamlakachiliklar asoratidan avaylab-asrab kelayotgan muhim omil – bu milliy vijdonimizdir. Shuning uchun ham xalqimiz vijdon azobisiz yashash lazzatini bu dunyodagi eng katta baxtning ko‘rinishi sifatida e’tirof etib kelgan.

Vatanni sevmok, unga sadoqat bilan xizmat qilish, uning tashvishli va quvonchli kunlarida hamdard va sherik bo‘lish har bir insonning ma’naviy-axloqiy mas’uliyatidir. Buyuk alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy janobi oliylari ham vatan to‘g‘risida kuyib-yonib ko‘p yozganlar. Uning qayd etishicha, bu dunyoda yashagan har bir kishining beshta muqaddas narsasi bo‘lishi kerak: Vatani, dini, moli, oilasi, joni. ‘‘Biz, – deb yozadi alloma, – O‘zbekiston xalqi, haqiqatda shu vatan ahllarimiz. Inson nasli yaratilib, yer ustiga qadam qo‘ygan kundan boshlab, bizning ota-bobolarimiz shu O‘zbekiston o‘lkasida yashab kelgan ekanlar, shu kunlargaacha tiriklarimizni bo‘ynida ko‘tarib, o‘liklarimizni qo‘ynida saqlamishdir. Bu O‘zbekiston vatanimizning bir qatlami biz o‘zbek xalqi ota-bobolarmizning suyaklari bilan ko‘tarilmishdir. Demak, bo‘ynida ko‘targan, qo‘ynida saqlab oq sut berib tarbiyat qilgan bu O‘zbekiston – Turkiston bizning o‘z ona vatanimizdir’’. (Alixonto‘ra Sog‘uniy. Turkiston qayg‘usi. –Toshkent, 2003. -77-bet).

Bugun barcha tinchliksevar insoniyat ma’rifatli dunyoni istaydi. Ma’rifatli dunyoda davlatlar, siyosiy kuchlar, muholifatlar o‘rtasida ma’naviy kelishuv yuzaga keladi. Ma’naviy kelishuv taraqqiyot darajasi, qaysi qit’ada joylashganligi, aholisi soni, ijtimoiy yo‘nalganlik holati, qarashlari, madaniyati, dinidan qat’iy nazar mamlakatlar, xalqlarning o‘zligini hurmat qilish, umumiy taraqqiyot yo‘lida maqsadlarini uyg‘unlashtirishdan manfaatdorlik darajasidir.

Bu holatga erishish o‘ta qiyin. Ijtimoiy rivojlanishning bugungi bosqichida dunyoda yuz berayotgan o‘zgarishlar, davlatlar, siyosiy kuchlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar, shubhasiz, bunday kelishuvga

yo‘l bermayapti. Bu juda achinarli holat. Yuqorida ta’kidlaganimiz kabi, dunyo intellektual holatining yuksakligi, insoniyat bilim va ko‘nikmalarining tobora ortib borishi, muammolarni tsivilizatsion yo‘llar bilan hal etishda yangi qoidalarning ishlab chiqilishi barobarida jahoniy muammolarning yangidan-yangi turlari ko‘payib borishi dunyo mamlakatlari va xalqlarini boshi berk ko‘chaga qamab qo‘ymoqda.

Bunday vaziyatda ayrim davlatlarning “chigal vaziyatdan” unumli foydalanib qolishga intilishlari, o‘z manfaatlarini boshqa mamlakatlar hududlari hisobiga qondirishga urinishlari barchani sergaklikka undashi tabiiy. Bu hol har birimizdan vatan degan muqaddas tushunchani borlig‘icha ongli ravishda anglab yetishga chorlashi kerak.

Allomalarimiz bot-bot ta’kidlaganlari kabi, kimki o‘z Vatanini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi. Vatanni sevish uchun katta, keng yurak lozim. Bu yurak har doim insonni haqiqiy jasoratga, Vatan yo‘lida kerak bo‘lsa, o‘z jonini qurbon qilishga hozir ekanligini amalda isbotlab turishi zarur. Insonda fazilatlar juda ko‘p. Aslida, har birimizning mazmun-mohiyatimiz ham, o‘zligimiz ham tarbiya va axloqimizda mujassam bo‘lgan turli fazilatlarda aks etadi. O‘nlab-yuzlab fazilatlar barchamizni bezab turadi. Biroq, ularning orasida eng maqbul, eng zarur fazilat – bu Vatanga sadoqatli bo‘lishning amaldagi ifodasidir.

Biz ba‘zan o‘zimizning katta va kichik qilmishlarimiz, xato, kamchiliklarimiz, bilib-bilmasdan sodir etgan hunuk “hunarlarimiz”ni haspo‘shlashga o‘rganib qolganmiz. “Katta davlat va ko‘p sonli millat orasida mening bu xatolarim arziyas narsa”, qabilida ish tutamiz. Ammo, shu kichik xato, chala ishimiz, kamchiligimiz bizning vatanga bo‘lgan sotqinligimiz, Vatan yuziga tushirgan dog‘imiz ekanligini har doim ham angalayapmizmi? Vatanni xor qilish uni sotish bilan barobar ekanligini, vatanga hiyonat esa, shu odamning o‘z vijdonidan ayrilish ekanligini bilamizmi?

Vatanni sevish juda osondek. Biroq, bu jarayon nazariy holatdan amaliyotga ko‘chmas ekan, unda biz vatanga xiyonatni odatiy hol sifatida qabul qilaveramiz, atrofimizda har kuni sodir bo‘layotgan kamchilik, xatolarga befarq munosabatda bo‘laveramiz, o‘z shaxsiy manfaatlarini vatan taqdiridan yuqori qo‘yyotganlarga loqaydligimiz tufayli tanbeh berolmaymiz.

Nazarimizda, Vatan tuyg‘usini jonimiz va qonimizga, ruhiyatimizga jo qilib, singdirib yuborishimiz uchun eng avvalo uning yaqin va uzoq tarixini bilishimiz kerak. Tarixdan bexabar inson vatan haqidagi tushunchani “bilishi” mumkin. Ammo, bu tushuncha uning sog‘lom e’tiqodiga aylanmaydi. Ko‘hna tariximizda minglab-yuz minglab vatanparvarlar shu zamin, shu yurt uchun shirin jonlarini qurbon qilishganlarini bunday odam qayerdan bilsin!

Haqiqatdan ham Vatanni sevish uchun uning tarixini, yorug‘ va qorong‘u kunlarini bilish, eng muhimi, undan to‘g‘ri xulosalar chiqarishi zarur. Dunyoda birorta davlat yo‘qki, uning tarixi faqat zafarlardan iborat bo‘lsin. Biroq, bunday hol Vatanni sevmaslikka huquq bermaydi. Masalan, yurtimizda Temuriylar hukmronligidan so‘ng – xonliklar davrida yuz bergan siyosiy parokandalik, ijtimoiy-madaniy qoloqlik, boylik orttirish dardida uzoq davom etgan urushlar buyuk Turkistonning tarixidagi qora dog‘lar hisoblanadi. Albatta, bunday ziddiyatli holatlar bizni tarixdan to‘g‘ri, xolisona xulosalar chiqarishga undamay qolmaydi.

Qolaversa, Vatan yuragiga tig‘dek sanchilgan davrlarni esdan chiqarib bo‘larmidi. Vatan, millat manfaatini o‘z shaxsiy manfaatidan ustun qo‘ya olmagan qanchadan-qancha rahbarlar, hukmron doiralarni ko‘rmadi, bu Vatan.

Vatanni so‘zda emas, amalda sevish kerakligini anglatish uchun ham tarix bizga “ustoz” ekanligini anglatadigan birgina misol keltirishni lozim topdik. Xudoyorxon Rossiya imperiyasi tomonidan Xo‘jand, O‘ratepa va Jizzaxni 1866-yil may-oktyabrda bosib olgani munosabati bilan general D.I.Romonovskiyni tabriklab, sovg‘a-salom yuboradi, uning kelajakdagi ishlariga muvaffaqiyatlar tilaydi. General Kaufmanga Samarqanddan “Hurmatli kishilar” va amaldorlar yuborgan tabriknomada shunday yozilgan: “Mahram ostonasida sizning rahbarligingiz ostidagi shonli rus qo‘shinlari erishgan g‘alaba va Qo‘qonni qo‘lga kiritganingiz haqidagi quvonchli xabarni oldik. Qo‘qonni adolatli bo‘ysundirib, siz Oq podshoning buyuk panohidagilarni norozi qilgan va ularga zulm o‘tkazganlar jazolanishini qo‘shni aholiga yana bir bor namoyish qildingiz”. (Azizov Sh., Azizova S. Ma‘rifatparvarlik – ijtimoiy-madaniy hodisa. –Toshkent, 2008. -128-bet).

Vatan, millat to‘g‘risida aytiladigan so‘zning mas‘uliyatidan ham kuchliroq narsa bo‘lmasa kerak, bu dunyoda. Yuqorida keltirilgan misolning ijtimoiy-ma‘naviy, tarbiyaviy-mafkuraviy, axloqiy ahamiyati bor. Va uni ko‘maslik har birimizda Vatan to‘g‘risidagi muqaddas tuyg‘uning mavjud emasligiga bir ishoradir. Tarixda shunday davrlar bo‘ladiki, Vatan taqdiri xalq nomidan hukm qiladiganlar, ayrim shaxslarga bog‘liq bo‘lib qoladi. Ana shunday onlarda barcha mas‘uliyatni o‘z gardaniga olmaslik, mas‘uliyatni o‘zidan soqit qilish aslida Vatanga va millatga sotqinlik, xiyonatdan boshqa narsa emas.

Afsuski, shonli tariximizda bunday ayanchli misollar ham yo‘q emas. Shuning uchun ham bizga tarix kerak. Tarix bizning tafakkar tarzimizni isloh etadi, o‘tmish bilan bugunning farqini taqqoslash asosida xulosa chiqarishga yordam beradi, ayrim odamlarning mog‘or bosgan ongi va qalbini tozalaydi, ularning ruhiyatini musaffo havo bilan boyitadi. Tarix, shuningdek, bugun

muhtaram Prezidentimiz, xalqimiz tomonidan ishonch bildirilgan, ammo nafs balosiga quloq tutgan, o'z manfaatini har narsadan yuqori qo'ygan ayrim amaldorlar, "davring keldi, davron sur" qabilida ish tutadiganlarni tarbiya qiladigan, to'xtatadigan, o'ylantiradigan, xulosa chiqarishga majbur etadigan buyuk kuch, fenomen hodisa hisoblanadi.

Xo'sh, Vatanparvarlik nima? Vatanparvarlik – har birimizning o'z tug'ilib o'sgan, kindik qonimiz to'kilgan vatan oldidagi farzandlik, fuqarolik burchimiz, ma'naviy mas'uliyatimiz, uning taraqqiy etishi, yanada gullab-yashnashi uchun o'zida fidoiylik hissini tuyish kabi ko'plab ma'no-mazmuni beradigan tushuncha.

Vatanparvarlik Vatanni shunchaki sevish, u to'g'risida she'r yozish, qo'shiq kuylash, chiroyli gapirishgina emas. Vatanparvarlik haqida minglab asarlar yaratilgan, u haqida gapirmagan odamning o'zi yo'q. Ammo, bu bilan biz vatanparvar bo'lib qolyapimizmi? Yodlangan she'r, o'qilgan badiiy asar, kuylangan qo'shiq, yoqlangan dissertatsiyada ko'tarilgan g'oyalar odamlarning avval sog'lom e'tiqodiga, so'ngra amaliy harakatiga, keyin esa bularning natijasida shu Vatan ravnaqida ham moddiy-iqtisodiy, ham jamiyatning ma'naviy-ruhiy holatida aks etmas ekan, bu g'oyalar, "nazariyalar" quruq gapdan boshqa narsa emas.

Haqiqatdan ham, vatanparvarlik bugun real kuchga aylanishi kerak. Bunga yaqin va uzoq tariximizdan misollar ko'p. Pahlavon Mahmud Hindiston xalqi tomonida turib, Hindiston dushmanlariga qarshi jangda ishtirok etadi. Jang payti o'z jonini xatarga qo'yib bo'lsada, Hind shohi Ray Cho'pani o'limdan qutqaradi. Shunda shoh Pahlavon Mahmudning bemisl bu jasorati, mardligini munosib taqdirlamoqchi bo'lib: "Tila tilagingni!", deydi.

Pahlavon Mahmud: "Ey buyuk shoh! Bundan ancha-yillar muqaddam mening vatandoshlarim – xorazmiylar bu yerga asir qilib olib kelingan. O'shalarni ozod etsangiz. Birdan bir tilagim shu!", deydi. Shoh hayron bo'lib: "Ey himmati baland pahlavon! Agar yarim davlatimni tilaganingda edi, uni gap-so'zsiz senga in'om qilgan bo'lurdim. Agar sohibjamol qizimni o'z nikohingga olmoqni so'raganingda edi, seni o'zimga kuyov etib, toju taxtimni senga bag'ishlagan bo'lardim. Zero, jasorating ulkan mukofotga munosibdir. Mayli tilagingni bajo keltirdim. Vatandoshlaring ozod! Ularni Xorazmga borgunlaricha yegulik oziq-ovqat, kiyim-bosh, ulov bilan ta'minlashni ham buyuraman!", deydi. (Sadridin Salim Buxoriy. Buyuk Xorazmiylar. –Toshkent, 1993. -9-bet).

Afsuski, bugun dunyoda sodir bo'layotgan jahoniy o'zgarishlar, qadriyatlar transformatsiyasi, axloq tushunchalarining yemirilishi davlatlar va xalqlar taqdirida ko'plab salbiy oqibatlariga sabab bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida biz uchun nihoyatda muqaddas bo'lgan vatanparvarlik tarbiyasining tag-zaminiga, uning asl mohiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Natijada vatanparvarlik o‘rniga vatansizlikni targ‘ib etish, “globalashuv degani sening dunyo fuqarosiga aylanishing”, deb talqin qilish, milliy tarixni eskilik sarqiti sifatida tan olish kabi o‘tamantiqsiz “g‘oya”lar ko‘payib bormoqda. Ushbu holat o‘z navbatida vatanfurushlik holatini yuzaga keltirmoqda.

Vatanfurushlikning real hayotdagi ko‘rinishlari juda serob. Masalan, mehnatsiz rohat ko‘rishni istash, o‘z yurtidagi o‘zgarishlar, xalq qadrini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlarni ko‘rmaslik yoki ko‘rib turib, uni tan olmaslik, o‘z baxtini o‘zga yurtlardan qidirishga intilish hissi, jamiyatdan faqat salbiy illatlarni qidirish va buning natijasida o‘zidan soxta “demokrat” obrazini yaratish, kishilar tafakkur tarzini manipulyatsiya qilish – bularning bari bugungi vatanfurushning “ijtimoiy portreti” hisoblanadi.

Ana shu holatlar shaxsda o‘zga g‘oyalarga tobelik kayfiyatini ko‘proq oshiradi. O‘zga yurtlardagi hunrezliklar, ziddiyatlar, kelishmovchiliklarni o‘zicha tahlil etish orqali jamiyatda yolg‘on tassurot uyg‘otish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Bu juda xavfli holat hisoblanadi. Soxta vatanparvarlarning paydo bo‘lishi ham shu tarzda yuzaga keladi.

Bolaning onaga nisbatan muhabbati tabiiy ravishda paydo bo‘lsa, vatanga va yurtga muhabbat uning ongiga singdirilmog‘i, o‘rgatilmog‘i kerak. Shu ma’noda Patrik Jozef Byukenen shunday deydi: “Amerikaning umumta’lim maktablari zarurat tug‘ilganda mamlakatimizni himoya qilish mumkin bo‘lgan fuqaro va vatanparvarlarni tarbiyalamog‘i darkor. Ular bolalar qalbiga Amerikaga nisbatan muhabbat tuyg‘usini jo etmog‘i zarur. Zero, buyuk kishilar tarjimai holi, tarixiy va badiiy asarlarni o‘qib, xalq qo‘shiqlarini tinglab, shonli tariximiz aks ettirilgan san’at asarlarini tomosha qilish jarayonida ularning qalbida vatanga nisbatan muhabbat tuyg‘usi mustahkalanib boradi. Bu tuyg‘u qanchalik kuchli bo‘lsa, vatanning uzviy qismi bo‘lib qolish, uning uchun jon fido qilish, butun xalqni o‘z oilasini himoya qilgandek, asrab-avaylash hissi shunchalik zo‘r bo‘ladi”. (Patrik Jozef Byukenen. G‘arbning o‘limi. –Toshkent, 2021. -178-bet).

Byukenenning ushbu fikrlaridan men qilgan xulosa bor. Bu, birinchidan, hamma orzu qilgan, butun dunyo talpingan Amerikadek davlatda ham vatanparvarlik masalasida muammo bor ekanligini anglatib turibdi. Demak, gap u yoki bu mamlakatning boy-badavlatligida emas ekan. Ikkinchidan, vatanparvarlik har bir insondan identitetlikni talab qiladi. Inson identitetligi uning milliy xususiyatlari, jamiyat bilan munosabatlari, dunyoqarashi, axloqi, olamga, odamga, o‘ziga bo‘lgan tasavvurotlarida va eng muhimi, uning Vatanparvarligida aksini topadi.

O‘z tarixiy zaminini anglamagan har qanday shaxs na o‘zi oldida, na jamiyat oldida ma’naviy mas’ullikni his etmaydi. Faqatgina aniq va ravshan vataniy, milliy, mahalliy, madaniy va oilaviy identitetga ega bo‘lgan insongina avvallari

odamlar qanday, nima uchun va nimaga asoslanib yashagani, nimaga intilib, nimaga erishganini, ajdodlari yer yuzida qanday iz qoldirganini biladi. Ana shu holat insonda yuksak ma'nodagi Vatanparvarlik hissini uyg'otuvchi, unga ma'naviy oziq berib, ushbu fenomen hodisani avval bilishga, keyin sog'lom e'tiqodga, undan so'ng esa real harakatga aylantiruvchi, har birimizdan shu yer, tuproq uchun hech ikkilanmasdan kurashga (jon berish uchun emas, unda kim kurashadi?!) otlantiruvchi kuchga aylanadi.

Uchinchidan, mazkur iqtibos bizni dunyoga yangicha nazar bilan munosabatda bo'lishga undayapti. Shu o'rinda mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyevning ilgari o'z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o'tkazish, qarama-qarshilik va to'qnashuvlar yo'liga o'tganiga hammamiz guvohmiz, degan chuqur ma'noli fikrlarini doimo yodda tutish kerak, deb hisoblaymiz.

Haqiqatdan ham, haddan tashqari tez o'zgarib borayotgan dunyoda biz o'z dunyoqarashlarimiz, hayotiy tamoyillarimizni zamonga mos ravishda o'zgartiryapmizmi? Davlat va millatning hayot-mamot masalalari kun tartibiga qo'yilgan bir paytda mayda maishiy masalalar bilan ovora bo'lib qolmayapmizmi? Biz qo'shiq qilib kuylangan she'r, g'azaldagi, o'qigan kitobdagi, eshitgan pand-nasihatdagi millatni uyg'otuvchi, uni yangi marralarga chorlovchi g'oyalarning ro'yobidan qoniqyapmizmi?

Agar har birimiz o'sha savollarni o'zimizga va bir-birimizga bersak hamda bu savollarga jiddiy javob olishga intilsak, shubhasiz, o'zgaramiz. Biz ko'pincha o'z takomilimizni dunyoqarashimiz chegarasi bilan o'lchaymiz. Ammo, ko'pincha, bizning dunyoqarashimiz (dunyoga qarash, uni keng ma'noda ko'rish, sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni teran tahlil qilish va yagona to'g'ri xulosa chiqarish) "oilalarash", "mahallalarash", "qishloqqarash", "tumanqarash" darajasida, cheklangan chegara doirasida qolib ketmayaptimi?

Bugungi dunyoda vatansizlikni, vatanfurushlikni targ'ib etayotgan tahdidlar tobora ko'payib borayotgan, turli davlatlar, xalqaro tashkilotlar o'zlarining aniq maqsadlarini chiroyli gaplar, bilim saviyasi past, tajribasiz kishilarga xush yoqadigan jozibali qoliplarga solib talqin etayotgan bir sharoitda o'zlikni, Vatanni saqlab qolishning va bu yo'lda yuksak Vatanparvarlik namunalarini ko'rsatish eng dolzarb masalaga aylandi.

Targ'ibotning samaradorligi uning hayotiyligida. Agar biz bugun mamlakatimizda va jahonda yuz berayotgan mafkuraviy-g'oyaviy kurashlar mazmun-mohiyatini xolis ravishda tahlil qila olsak, ulardan to'g'ri xulosa chiqara olsak, bunday xulosalar natijasida o'z amalmiy faoliyatimizni tashkil etsak, shubhasiz mamlakatimiz yanada rivojlanadi, jamiyatimiz ijtimoiy-ma'naviy muhiti barqarorlashadi.

DUNYONING RIVOJLANGAN MAMLAKATLARIDA MA'NAVYI-MA'RIFIY FAOLIYAT TENDENSIYALARIGA BIR NAZAR

M.Quronov – RMMM huzuridagi Ijtimoiy-
ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori
o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat tendensiyalariga oid fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning informatsion texnologiyalari tubdan o'zgarayotgan hozirgi paytda odamlarning tarqatilayotgan axborotga yondashuvlari o'zgarayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: dunyo, axborot, mamlakat, shaxs, jamiyat, ma'naviyat, mafkura, ma'rifat, targ'ibot, sivilizatsiya, emotsional.

Kirish (Introduction). Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning informatsion texnologiyalari tubdan o'zgarayotgan hozirgi paytda odamlarning tarqatilayotgan axborotga yondashuvlari o'zgarmoqda. Jamiyat tomonidan axborot moddiy tovar sifatida, shaxs va jamiyatni boshqarish vositasi sifatida, boshqarish instrumenti, iqtisodiy va siyosiy kurashdagi qurol sifatida tushunilmoqda. Axborotlashgan texnika va texnologiyaning keskin rivoji barobarida axborot hajmining ham muttasil o'sib borishi kuzatilmoqda. Shu tariqa bugun axborot zamonaviy sivilizatsiya rivojining asosiy resursiga aylandi, deyish mumkin.

Dunyoning har bir rivojlangan mamlakati o'ziga xos ma'rifat, targ'ibot tizimi tarixiga ega. Jumladan, AQSh targ'ibot tizimi o'z tarixiy rivojlanishini rasman birinchi jahon urushi talablaridan kelib chiqib, 1917-yilning 14-aprel kuni hukumat tarkibida tashkil etilgan "Kril Qo'mitasi"ning tuzilishi bilan bog'laydi. Prezident Vudro Vilsonning iltimosiga binoan ushbu ijtimoiy axborot qo'mitasi rahbarligiga mashhur publitsist, Kaliforniyalik Jorj M.Kril (George M. Creel) rahbar etib tayinlanadi. Qisqa vaqtda ushbu targ'ibot qo'mitasida xodimlar soni 150 mingdan oshib ketadi.

Qo'mita tomonidan ko'plab filmlar suratga olinib, minglab iqtidorli targ'ibotchilar ishga olinadi. Teatr, konsert zallarida, cherkovlarda ma'ruzalar qilishib, rassom va karikaturachilar turli tuman tasviriy targ'ibot mahsulotlarini yaratishga jalb qilinadi. Jumladan o'sha-yillarda suratga olingan Pershing's Crusaders, America's Answer i Under Four Flags kabi kinofilmlar "Kril qo'mitasi"ning eng mashhur filmlari hisoblanadi. Shuningdek, rassom Jon Montgomeri Flagg tomonidan chizilgan "I Want You for the U.S. Army" plakati amerikaning ramziga aylanib ketgan, desa bo'ladi. Qarshi targ'ibot yo'nalishida qilingan ishlar qatoriga nemis taomi bo'lgan Sauerkraut)

«ozodlik karami», frankfurt sosiskasini esa «issiq it» (hot dog), deb atala boshlangani kabi misollarni keltirish mumkin[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) Globallashuv va texnologik inqilob aholining bo'sh vaqti haqidagi an'anaviy ijtimoiy pedagogik paradigmani yangi bosqichga olib chiqdi. Targ'ibotning an'anaviy – “ma'lumot tarqatish”ga qaratilgan yondashuvlari yangi - axborot almashinuv, axborot ishlab chiqish, uni qayta ishlash va saqlash tomonga o'zgardi. Shu sababli bugun zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, targ'ibot texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Aholining axborot kommunikatsiyalariga e'tiborini jalb etish, qiziqtirish;

2. Odamlarning axborot, yangiliklarni tushunishi va aynano'zlashtirishlari;

3. Olingan axborot, yangilikni asl holida tushunish va talqin qilishiga erishishni oldindan ko'zda tutgan holda izohlash;

4. Ma'lumot, yangiliklarni yana qayta ishlatish uchun bazada saqlash;

5. Axborotni ta'lim va amaliy ish faoliyatida ishlatish uchun saqlash;

6. Axborot jo'natuvchining hohishiga ko'ra uni qabul qiluvchining undan foydalanishga tayyorligini asoslay olishi shular jumlasidandir[2].

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat dasturlarining ishlab chiqilishi va loyihalashtirilishida zamonaviy auditoriyaning ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlashda qiziqtirish, hordiq elementlari bilan boyitish tendensiyasi keng qo'llanilmoqda. Axborot dasturlari rivojini belgilovchi trendlardan yana biri “eskeypizm” deb nomlanib, bu “reallikdan mental va jismonan qochish” ma'nosini anglatadi va tinglovchilarning hayot tarzi va dunyoqarashiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Eskeypizmning namoyon bo'lish shakllaridan biri iste'molchining virtual dunyolarga ko'p kirib ketishi hisoblanadi. Bu esa bloggerlikning avj olishi, ko'plab ijtimoiy va sohaviy tarmoqlarning vujudga kelishi bilan izohlanadi. Ushbu tendensiya ilk bor g'arb jamiyatida vujudga kelib keyinchalik dunyoda keng tarqalgan ma'rifiy tizimga aylandi.

Ushbu ijtimoiy trendga “infoteynment” tushunchasi mos keladi. Bu termin inglizcha interteymnt informeyshn so'zidan tuzilib, xushxabar, ko'ngilochar xabarlar tarqatish ma'nolarini anglatadi. “*Infoteynment*” esa idrokni osonlashtiradi, qiziqishni orttiradi, xabarni yuzaga chiqaradi, sharoitni muvofiqlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Infoteynment informatsion-ma'rifiy faoliyatning “aylana stol”, “og'zaki jurnal” kabi eng yaxshi shakllari xususiyatlarini o'zida mujassam qiladi. Ya'ni bunda bir masalani hurmatli, taniqli va avtoritet hisoblangan odamlar uzoq vaqt davomida muhokama qiladilar. Infoteynmentning informatsion-ma'rifiy

dasturlari muvaffaqiyati ularning qanday olib borilishiga bog'liq, deb hisoblanadi.

Targ'ibotning infoteynment uslubida obraz butunlay o'zgaradi, undan butun auditoriya e'tiborini diqqatini jalb etish va ushlab turish, ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va emotsional faol holatda ushlab turish talab etiladi. Bu esa ommalashib, televizion texnologiyalar, ko'rsatuvlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda o'zidan nusxalar yaratilishiga olib keldi. Natijada targ'ibot-tashviqot dasturlarining avangardiga aylandi, ijtimoiy-madaniy soha mutaxassislarining ijodiy jarayondagi hatti-harakatlarini belgilab berdi.

Infoteynment tinglovchilar bilan bahsni do'stday, yaxshi tanishday muomala qilish orqali olib borishini nazarda tutadi. Bunda olib boruvchi shu yangilik yuzasidan yaxshiroq xabardorligi bilangina farqlanadi. Uning nutqi turli maxsus ilmiy terminlardan iborat bo'lmasligi lozim. Infoteynment muvaffaqiyati boshlovchining tashqi ko'rinishi va qobiliyatlariga bog'liq: u axborotni yorqin, mazmunli, hissiy sirli tarzda yetkaza olishi kerak. Bundan tashqari uning tashqi ko'rinishi ham maqsadga muvofiq bo'lishi, xarizmatik, tafakkur va ko'rinishi yoqimli bo'lishi, shuningdek tomoshabinni hayratga solishga, qiziqtirish, jonglyorlik va dirijyorlik qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ko'p hollarda infoteynment dasturni juft bo'lib o'tkazishni ham nazarda tutadi. Bunday juftlar erkaklar, ayollar yoki ham erkak ham ayoldan iborat bo'lishi ham mumkin. Muvaffaqiyatli juftlik olib boruvchilar jamoani ikkiga bo'lish orqali olib borishadi. Olib boruvchi har bir axborotni o'z "yuragi"dan o'tkazishi, masalaning biror jihatiga sovuqqonlik bilan qaramasligi, infoteynment ijodiy jarayon ekanligini doim hisobga olishi zarur. Buning uchun 3D modellashtirish, multiplikatsion rasmiylashtirish va boshqa maxsus effektlardan foydalaniladi. Televizion infoteynmentda noodatiy montaj, matn va videoqatorlarda turli bezaklardan foydalaniladi.

Dunyoning ayrim media mahsulotlari bozorida infoteynment - ermak, hordiq, ko'ngilochar yo'nalishlar orta bormoqda[3]. Bu mahsulotlar odamlarning tuyg'ulariga yo'naltirilgan bo'lib, ularning aqliy tahlil va tanqidiy idrok, munosabatlari yo'lini to'sib qo'yadi. Shuningdek, tuyg'u omilini suiiste'mol qilish ong ostiga qo'rquv, rohat va kerakli xulq modellarini kiritishga xizmat qiladi. Maqsad – odamlarning e'tiborini muntazam ravishda ko'ngilochar ma'lumotlar bilan to'ldirish orqali jamiyat uchun muhim masalalardan chalg'itishdir.

Tahlil va natijalar(Analysis and results). "Ma'naviy-ma'rifiy media materiallarning asosiy tarbiyaviy, mafkuraviy mohiyati nimada?", degan savol hali o'zining to'liq ijtimoiy-pedagogik javobini olmagan. O'tkazilgan tadqiqotlar va so'rovlar ularning mohiyatini yuzaki tushunish davom

etayotganini ko'rsatadi. Vaholanki, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, film, ko'rsatuvlarda ijobiy qahramonning yaratilishi, zamonamiz qahramoni xulqining modellashtirilishi yaxshilik-yomonlik, sadoqat-xiyonat, uvol-savob va boshqa ma'naviy sifatlarni, qahramonlarning munosabatlari, ishlarini ekstrapolyatsiya qilishga erishish, yaxshilik va yomonlikning kurashini tasvirlash va yaxshilik, bunyodkor g'oyalarning g'alabasini tarannum etishdir. Bizningcha, infoteynment - ommaning e'tibori va qiziqishini saqlab qolish infoteynmentning texnologiyalari ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning informatsion ma'rifiy dasturlarida faol qo'llanilishi, modernizatsiya qilinishi lozim. Bugungi Yevropada yangi texnologiyalar asosidagi ma'rifiy ma'ruzalarning mavqei o'sib bormoqda.

Bu esa ma'rifatning ijtimoiy statusi o'sishiga, jamiyat dunyoqarashining kengayishiga olib keladi. Ommaviy ma'ruzalar odamlarni o'ylashga rag'batlantirishning samarali shakli sifatida eng faol eydj texnologiyalar hisoblanadi. Zamonaviy ommaviy ma'ruzalarga kirgan odamlar yangiliklarni bilib, tushunmagan savollariga javob topib, yangi filmlarni va loyihalarni muhokama qiladilar.

Ommaviy ma'ruzalar - yuzlab odamlar ongini yuksaltirishning eng qulay vositasi hisoblanadi. Ular odamlarga o'zlarini jamiyatning bir qismi sifatida hisoblash imkonini beradi. Bu kabi ma'ruzalarga qiziqishning oshishi uni yangicha shakllarda olib borish bilan izohlanadi. Zamonaviy ommaviy ma'ruza *edyuteynment* (ing. yeducation ta'lim, intertainment ko'ngilochar shaklda, ya'ni o'yin orqali bilim tarqatish hisoblanadi. Edyuteynmentning mohiyati aslida "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", degan o'zbek xalq maqoliga borib bog'lanadi. Bu texnologiya g'arb universitetlarida rivojlangan bo'lib, professorlar mashg'ulotlarni haqiqiy shou shaklida o'tkazmoqdalar. Rossiyada hamma'ruzalar informatsion-ma'rifiy faoliyatning tobora ommalashayotgan shakliga aylanib bormoqda. Turli mavzularga bag'ishlangan, yetuk mutaxassislarining ma'ruzalari joylashtirilgan internet saytlariga kirish ham o'sib bormoqda. Bu ma'ruzalarga asosan 25-40 yoshgacha bo'lgan faol odamlar qatnashadi. Eng ommaviy fan yo'nalishlari gumanitar sohaga tegishli hisoblanadi. Shuningdek, bu ma'ruzalarning o'qish uslubi ham mohiyatan o'zgargan.

Oldindan tayyorlangan an'anaviy ma'ruza va unga xos estetika o'tmishda qoldi. Hozirda ma'ruzada erkin fikrlash tarziga, ma'ruzachining improvizatsiyasiga katta ahamiyat qaratiladi. Shu tufayli edyuteynment ma'ruzaning videoyozmasi taqdimot yoki shouni eslatadi. Bu borada ushbu metod 2018-yilning iyul oyidan boshlab, tadqiqotning eksperimental ob'ekti sifatida olingan Farg'ona viloyat axborot-resurs markazi tomonidan "Bolam baxtli bo'lsin, desangiz..." mavzusida edyuteynment ma'ruza videoroliklarini

suratga olish va tarqatish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, 2019-yil 6 aprel kuni Samarqand viloyat Paxtachi tuman tibbiyot kollejida “Paxtachi va paxtachiliklar: kecha, bugun, ertaga” mavzusida ma’rifiy edyuteynment shou o‘tkazildi.

Edyuteynment do‘stlarning noformal uchrashuviga o‘xshash norasmiy sharoitdagi uchrashuvlariga o‘xshab ketadi. Bunday ma’rifiy uchrashuvlar bar, kafe, bukkafe, park va sportzallarda olib borilishi mumkin. Ma’ruzalar, odamlarning u yoki bu sohaga umumiy qiziqishlari yoki ruhan yaqin kishilarni birlashtirgani tufayli ommabop tusga kirib bormoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Ma’ruzalar odamlarni o‘z o‘zini namoyon etish va o‘z intellektual qobiliyatlarini qondirishga xizmat qiladi. Auditoriya bilan ma’ruzaviy va o‘qituvchilik asosidagi aloqa o‘ziga xos *perfomans* (ing. performanse taqdimot). Ma’ruzachilarning auditoriya bilan muloqotiga ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot shakllari ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois perfomans muallif imrovizatsiyasiga emas, balki tinglovchining janr qonuniyatlariga asosan o‘yin qoidalari asosida o‘ynashiga o‘xshaydi. Perfomans auditoriya va muallif o‘rtasidagi chegaralarni olib tashlab birga ijodkorlik muhitini yaratadi. Media texnologiyalar rivoji ma’rifiy sohada yangi magistral texnologiyalar yo‘nalishlarini ochdi. Natijada ijtimoiy-ma’rifatning internet konferensiyalari, virtual ko‘rgazmalari va muzey ekspozitsiyalari, madaniy qadriyatlar targ‘ibotidan iborat bo‘lgan yangi shakllarining ko‘payishiga sabab bo‘ldi.

Targ‘ibot-tashviqotning informatsion-ma’rifiy texnologiyalarida Internet katta ahamiyat kasb etib bormoqda. U turli axborotlarning olishning qulay va oson usuli bo‘lib, madaniy qadriyatlardan foydalanish va keng yoyish saqlash va ko‘paytirish tizimiga aylandi. O‘ziga xos aloqalarni nazarda tutadigan, uning chegaralarini kengaytiradigan va katta ijtimoiy imkoniyatlar yarata oladigan yangi axborot maydoni yuzaga keldi. Internet nafaqat butunjahon axborot xotirasiga balki, ijtimoiy kommunikatsiyaning gorizontaal vositasiga aylandi[4].

Targ‘ibot va tashviqotning informatsion-ma’rifiy texnologiyalari zamonaviy shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning individual intilishlari, qiziqishlari, xarakteri, temperamenti, bilimlar tizimi, rivojlanish darajasi, intellektual va ijodiy qobiliyatlari va boshqalar hisobga olinishi va unga qulay shart-sharoit yaratish bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Svetkov I. Komitet Krila: rojdeniye amerikanskoj propagandy. –M.: “Orfey”, 1999. S.45.
2. Kiseleva T.G., Krasilnikov Yu.D. Sotsialno-kulturnaya deyatelnost. M., 2004. S.47.
3. Fedotova N.A. rekreativnye funktsii SMI: ideologicheskii i politicheskii kontekst. Fedotova N., PhD in philology, Institute of Journalism of the Belarusian State University, e-mail: nf333@yandex.by.
4. Bergelson M. Yazykovye aspekty virtualnoy kommunikatsii. URL:<http://www.rik.ru>.

YOSHLARDA G‘OYAVIY IMMUNITYETNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Narzula Qosimovich Jo‘rayev
Siyosiy fanlar doktori, professor

Insonda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, g‘oyaviy kurashganlik fazilatlarini shakllantirish jamiyat tubdan yangilanayotgan, turmush tarzimiz jiddiy ravishda o‘zgarayotgan bir paytda muhim ahamiyatga ega. Biroq, inson qalbi, hissiyoti, tuyg‘usi va ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan bu murakkab jarayonda eng avvalo insonning o‘zi kim, u qanday jonzot, inson fenomeni nimalardan iborat?, - degan savollarga javob topmog‘imiz lozim.

Inson butun mohiyati bilan ijtimoiy hodisa. U qanchalik xususiy – har bir inson alohida qadriyat bo‘lmasin, o‘z fe‘l-atvori, qarashlari, jamiyatda tutgan o‘rni va ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqligi jihatidan umumiydir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda biz har bir insonga alohida voqelik sifatida uning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasini, o‘tkazadigan ta‘sirini alohida nazarda tutmog‘imiz lozim.

Darhaqiqat, har bir inson makrokom ichidagi mikrokom. Ya‘ni olam ichra olam. Chunki har bir odam alohida va betakror, ayni paytda u umumiy manfaatlar doirasida bir-biriga bog‘liq, bir-birining taqdiriga dahldor bo‘lgan ulkan qadriyatdir.

Inson ijtimoiy tabiatiga ko‘ra o‘z turmush tarzini o‘zi yo‘lga qo‘yadi, o‘zini o‘zi boshqaradi. O‘y-xayollari, orzu-umidlari va maqsadlarini ruyobga chiqarish jarayonlari orqali mavhum holatlarni real voqelikka aylantiradi. Yaxshilik va yomonlik, sahiylik va baxillik, muhabbat va nafrat inson

olamining butun mohiyatini belgilaydi. Buyuk zamondoshimiz Abdulla Oripov buni katta hayrat va hayajon, afsus va nadomat bilan tasvirlaydi:

Koinot gultoji insondir azal,
Undadir eng oliy tafakkur – amal,
Hatto, u tubanlik ichra ham yakto,
Yo falak, ijoding buncha mukammal.

Ana shunday g‘oyat murakkab, ziddiyatlarga to‘la jonzot o‘z hayotini o‘zi qurishi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi turmush tarzini tanlash orqali inson o‘zini o‘zi muvofiqlashtirib turadigan, himoya qiladigan, o‘zini o‘zi tiklaydigan, o‘zini o‘zi yo‘lga soladigan va, hatto, shakllantiradigan murakkab, oliy darajadagi yaxlit tizimdir. Ana shu holatning o‘zi har bir insondan ma’naviy barkamollikka intilib, ruhiy tozaligi va axloqiy yetukligini doimiy ravishda oshirib borishini taqozo etadi.

Insonning mohiyati, tabiati, jonzot sifatidagi imkoniyatlari xususida gapirar ekan, Imom G‘azzoliy o‘zining “Kimyoi saodat” kitobida “Inson farishta va hayvon orasidagi mahluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo‘q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o‘zi pok, ilohiy nurdan iborat. Faqat insonda rivojlanish, ruhiy kamolot hislati mavjud” deydi. Demak, hayvonda shakllanishga, rivojlanishga, o‘zini o‘zi boyitishga, o‘zini o‘zi qadriyatga aylantirishga da’vat etadigan quvvat yo‘q. U qanday yashayotganini anglamaydi. Yashash mohiyatini tushunishdan begona. Farishta esa azalu abad pok bo‘lganligi uchun uning shakllanishi va rivojlanishiga ehtiyoj yo‘q. U shundoq ham toza, shundoq ham pokiza, nur yanglig‘ bezavol. Faqat insondagina ruhiy kamolotga intilish tuyg‘usi, o‘zini o‘zi rivojlantirish quvvati mavjud. Uning komillikka intilishida, yetuklik sari harakat qilishida, hayot mazmunini boyitishida, shu asnoda yaxlit kishilik jamiyatini ma’naviy qiyofasini barkamol etishiga imkoniyat bor. Ruhiy va ma’naviy kamolot tuyg‘usi inson fenomenining tayanchi, uni qadriyatga aylantiruvchi noyob qudratdir.

Xuddi ana shu fikrni ancha keyinroq atoqli nemis faylasufi K.Yaspers ham o‘ziga xos talqin etadi. Jumladan u “his-tuyg‘u mohiyati sifatida inson hayvondan yuqori, ma’naviy ruhiy jihatdan esa farishtadan pastda turadi. O‘z mohiyatining ana shu ikki tomoni bilan ularga qavmdosh bo‘lsa-da, hayvon ham emas, farishta ham emas. Ularning har ikkovidan ham ustun tomonlari bor” deydi. Demak insonning jismidagi rivojlanish quvvati, takomillashishga, shakllanishga ruhiy ehtiyojning mavjudligi barcha jonzotlardan uni keskin ravishda farqlantirib turuvchi va jonzotlar olamida alohida imkoniyatlari bilan ajralib turuvchi mo‘jizadir.

Har bir inson alohida individ, alohida olam sifatida faqat o‘zigagina xos

bo'lgan "Men"ga ega. Biroq, inson olamining murakkabligi, ziddiyatliligi faqat bitta uning "Men"igagina xos emas. Chunki ana shu har bir alohida, mustaqil "Men"ning ichida bir necha yuzlab "men"chalar yashaydiki, ular bir-biri bilan doimiy ravishda kurashib, talashib, bir-birini inkor etib, rad etib, ba'zan manfaatlar doirasida qo'llab-quvvatlab, rag'batlantirib turadigan bezovta-yu beorom olamni tashkil etadi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda inson tabiatidagi yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik tuyg'ulari kurashida yaxshilik, mehr-muhabbat va ezgulik fazilatlarining kuchaytirish zamonaviy taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. Zotan mutlaq ideal odam bo'lmagani kabi mutlaq yomon odam ham yo'q. Faqat qaysi bir insonda yaxshilik, ezgulik tuyg'ulari nisbatan ko'proq namoyon bo'lishi yoki, aksincha, boshqa bir odamda yomonlik, nafrat tuyg'ulari ustuvorlik qilishi mumkin. Insonning ana shu holatidan kelib chiqib ma'naviy barkamol jamiyat qurish yo'lida biz demak har bir insonning jismidagi, qalbidagi yaxshilik va ezgulik tuyg'ularini kuchaytirishimiz lozim.

Hazrat Alisher Navoiy inson mohiyatini "Suvaydo" iborasi orqali talqin etadi. Jumladan, Navoiy xulosalariga ko'ra inson yuragining o'rtasida "Suvaydo" degan nuqta bo'larmish. Har bir kishi ana shu nuqta – tuynuk orqali olamga qarab, ko'z orqali uni ko'rar emish. Ana shu nuqta inson fe'l-atvorini, ma'naviy qiyofasini ko'rsatadigan muhim o'lchov vazifasini bajarar emish. Kimgadir u g'araz, kimgadir havas, yana boshqa bir odamda hasad, boshqasida esa mehr-muhabbat tuynugi hisoblanarmish.

Bugun komil insonni tarbiyalash, barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng miqyosli ishlarni amalga oshirar ekanmiz, biz bevosita har bir inson qalbidagi ana shu nuqtani mo'ljalga olmog'imiz lozim. Mafkuraviy immunitet yoki g'oyaviy kurashchalik fazilati bizning nazarimizda xuddi ana shu nuqtada joylashgan. U kimdadir uyg'oq, kurashchan, behalovat u bezovta bo'lsa, kimdadir mudroq, tambal, befarq va loqaydir. Bizning vazifamiz ana shu immunitetni uyg'otish, shakllantirish asosida jamiyat ishiga daxldor, millat taqdiriga taqdiridosh, Vatan istiqboli uchun javobgar shaxsni shakllantirishdan iborat. Buning uchun mafkuraviy immunitetning vazifasini aniqlab olmog'imiz lozim. Bizningcha u quyidagilardan iborat:

- munosabat bildirish;
- ta'sir etish;
- yo'naltirish;
- javobgarlik hissini uyg'otish;
- daxldorlik tuyg'usini oshirish;
- safarbarlikka da'vat etish;

Ana shu yo'nalishlarda mafkuraviy immunitetning vazifalari, ya'ni

insonni ma'naviy-ruhiy mudroqlikdan uyg'otish, har qanday voqelikka munosabat bildira olish, unga ta'sir ko'rsatish, jamiyat va umummilliy taraqqiyot uchun javobgarlik hissini, dahldorlik tuyg'usini namoyon etish orqali o'zini o'zi umummilliy manfaat yo'lida yo'naltira olish, safarbar eta bilish fazilatlarini yorqin namoyon qilishni taqozo etadi.

Inson qalbidagi mafkuraviy immunitet va g'oyaviy ta'sirchanlikni oshirishda, albatta, qadriyatlarning o'rni katta. Har bir shaxs o'zining tasodifiy emasligini, bu keng va serqirra hayotda muallaq mavjudod emasligini, uning ajdodlari buyuk, ulkan va mahobatli madaniy-tarixiy merosga voris ekanligini anglamog'i, istqbol oldida esa mas'ul ekanligini chuqur tushunmog'i lozim. Bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yetarlicha o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, qadriyatlar tizimiga kirgan milliy axloq-odob, urf-odat va an'analar, amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan me'yorlar, ijtimoiy hamkorlik, kishilarning yoshi, kasbi, jinsi, irqiy xususiyatlarini inobatga olib munosabatda bo'lish, diniy va dunyoviy qadriyatlar turkumini bir-biriga bog'liq holda, bir-birini to'ldirib boradigan shaklda amalga oshirishni taqozo etadi.

Bunda, albatta, milliy madaniyat va san'atni chuqur tushunish, marosimlar va bayramlar orqali mafkuraviy immunitetni kuchaytirish omillaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, xalq ijodi namunalari, san'at turlari, milliy kiyinish, milliy bayramlar, jumladan, Navro'z, Mustaqillik, Xotira va qadrlash kuni, Vatan himoyachilari kuni singari ma'naviy-ma'rifiy omillardan unumli foydalanishga tug'ri keladi.

Yana shu narsaga alohida e'tibor berish lozim. Bunyodkor, taraqqiyotga da'vat etuvchi, milliy o'zlikni anglashga chaqiruvchi omillar bilan birga vayronkor va buzg'unchi g'oyalar ham mavjudki, unga befarq qarash mumkin emas. Xususan, axborot xuruji avj olayotgan, axborot-psixologik tahdid globallashib borayotgan bir sharoitda har bir fuqaroning fe'l-atvorida, turmush tarzida da'vadkor va ta'sirchan vositaga aylanmog'i lozim. Xususan, ijtimoiy hayotning turli bosqichlarida o'zini namoyon etayotgan kosmopolitizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, irqchilik, fashizm, panislomizm, panturizm, agressiv millatchilik va, qolaversa, mahalliychilik illatlariga qarshi tura oladigan, umummilliy manfaatga xizmat qiladigan mafkuraviy immunitetni, g'oyaviy kurashchanlik fazilatlarini rivojlantirmog'imiz lozim.

Insonga **g'oyaviy ta'sir etish omillari** xilma-xil. Jumladan, g'oyaviy ta'sirda vaqt omili alohida ahamiyatga ega. Bu bevoista o'qish vaqti va bo'sh vaqt bilan bog'liq bo'lgan voqelikdan iborat. **G'oyaviy ta'sir yo'nalishlari:**

- aqliy,
- ruhiy,

-axloqiy,

-mehnat,

-estetik omillardan iborat. **G‘oyaviy ta‘sir etish shakllari** ham ta‘siri, miqyosi va ko‘lamiga qarab:

-individual,

-jamoaviy,

-ommaviy yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin. Demak, ayrim hollarda alohida-alohida odamlar bilan yakka tartibda g‘oyaviy ta‘sir o‘tkazishga, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni olib borishga to‘g‘ri kelsa, jamoaviy shaklda ma‘lum bir jamoa to‘plangan joyda amalga oshirish mumkin. G‘oyaviy ta‘sir etishning ommaviy shaklida esa bevosita ommaviy axborot vositalari orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri butun jamiyatda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni qamrab oladi.

G‘oyaviy ta‘sir etish tamoyillari bizningcha quyidagilardan iborat:

-uzluksizlik;

-tizimlilik;

-kompleks yondoshuv.

Darhaqiqat, mafkuraviy immunitetni uyg‘otish va g‘oyaviy ta‘sirchanlikni kuchaytirishda doimiy ravishda uzluksiz tarzda ish olib borilmasa, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat shakllangan tizimga ega bo‘lmasa aniq natijaga erishish mushkul. Har bir inson alohida va to‘laqonli tizim ekan, uning ana shu serqirra, rang-barang va ziddiyatli olamiga mos ravishda g‘oyaviy ta‘sir kompleks tarzda, keng miqyosli, inson olamini yaxlit holda qamrab olgan shaklda olib borilmog‘i lozim. Bu vazifa bizdan yana quyidagi uchta o‘ziga xos vazifani hal etishni taqozo etadi:

– **Ta‘sirchanlik.** Bizning har bir so‘zimiz ta‘sirchan, jozibali, tinglovchi qalbinijunbushgakeltiradigan, uning ongushuuridamustahkamo‘rnashadigan, fe‘l-atvorini yaxshilik sari burishga ta‘sir o‘tkazadigan bo‘lmog‘i lozim.

– **Hozirjavoblik.** Ma‘lumki, axborot xuruji avj olayotgan bir paytda tinglovchini hayratga qoldirish oson emas. Xususan, talaba yoshlarning, keng imkoniyatlarini, internet tizimidan foydalanishga bo‘lgan katta qiziqishini nazarda tutsak, g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarda hozirjavoblik, bugunning gapini ayta olish, bugunning muammosiga ob‘ektiv yondosha olish, tinglovchini bunga ishontira bilish alohida tayyorgarlikni va qobiliyatni, yuksak bilimlar saviyasini taqozo etadi.

– **Konkretlilik.** Fikrlarimiz aniq, lo‘nda, tinglovchi ongiga tez kira oladigan, qalbin zabt eta oladigan bo‘lmog‘i lozim. Ko‘pso‘zlilik auditoriyani ziriktirib quyadi. Hozirgi tezkor va shiddatli zamon ta‘sirida shakllanayotgan

yoshlar ruhiyatini egallash uchun qisqa, aniq, lo‘nda va isbot talab qilmaydigan xulosalar bilan minbarga chiqish samara berishi mumkin, xolos.

Bu o‘z-o‘zidan juda katta bilim, zamonaviy jarayonlardan habardorlik va ular mohiyatini chuqur tushunganlik, mavjud fikr va xulosalarni yetarli darajada jozibador qilib yetkaza olish tajribasini taqozo etadi. Demak notiqlik san’ati, so‘z jozibasi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

MA’NAVIYAT – TARAQQIYOT KALITI

Sultonmurod OLIM,

*filologiya fanlari doktori, Toshkent amaliy
fanlar universiteti professori,*

Annotatsiya Ma’ruzada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi Shavkat Mirziyoyevning 2023-yilning 22-dekabrida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi atroflicha tahlil etilib, undan kelib chiqadigan vazifalar haqida mulohaza yuritiladi. Shu tariqa ma’naviyat va ma’rifat, milliy g‘oya va mafkura borasidagi qator muammolar ko‘tarilib, ularning yechimlari haqidagi takliflar ilgari suriladi.

Tayanch tushunchalar Ma’naviyat, ma’rifat, g‘oya, mafkura, kurash, dastur, vazifa, vaziyat, mas’uliyat, jadidchilik, yangi jadidchilik, G‘arb ilm-fani, milliy qadriyatlar, din, dunyoviy davlat.

Dasturiy vazifalar. 2023-yilning 22-dekabri kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisi o‘tkazildi. Uni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi Shavkat Mirziyoyev boshqardi va “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” sarlavhasi bilan katta nutq so‘zladi.

Chuqur tahlilga asoslangan, tanqidiy ruhdagi bu nutqda xalqimiz va davlatimiz oldida turgan o‘ta dolzarb ma’naviy-ma’rifiy hamda g‘oyaviy-mafkuraviy masalalar bo‘yicha dasturiy vazifalar belgilab berildi.

Albatta, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2017-yilning 3-avgusti hamda 2021-yilning 19-yanvaridagi yig‘ilishlarida ham o‘sha davrning muhim ma’naviy-ma’rifiy va g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari bo‘yicha atroflicha tahlillar qilingan hamda aniq yechimlar topilgan, shu asosda jiddiy vazifalar belgilangan edi. Ammo ma’naviyat va ma’rifat ishi to‘xtab turmaydi. Zamon bugunning talay kechiktirib bo‘lmas vazifalarini olddimizga ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.

G‘oyat murakkab va tahlikali vaziyat. Nutqdagi mana bu so‘zlar har

bir o‘zbekistonlikni o‘ylashga, xalq va Vatan taqdiriga butunlay boshqacha ko‘z bilan qarashga, yana ham ochiqroq aytilsa, kurashga undaydi: “Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur‘atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohmiz. Afsuski, bunday keng ko‘lamli va o‘ta ziddiyatli jarayonlarning ta’siri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan mamlakatimizni ham chetlab o‘tmayapti. Ana shunday g‘oyat murakkab va tahlikali vaziyatda O‘zbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan to‘g‘ri yo‘lni topish albatta oson bo‘lmayapti. Biz dunyodagi uzoq-yaqin barcha davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga harakat qilyapmiz”.

Xabaringiz–bor, Rossiyaning ayrim siyosiy doiralarida mustamlakachilik qo‘msab, o‘z mustaqilligiga erishgan davlatlar, jumladan, O‘zbekistonimizga ham qaytadan ko‘z olaytirish, xalqimiz tarixini kamsitib ko‘rsatishga urinishlar bo‘lib turibdi. Yangi rus shovinizmining Prilipin va Cmolin kabi vakillari ko‘ngillaridagi g‘arazli niyatlarini oshkor qildi ham.

To‘g‘ri yo‘lni topish mas’uliyati. Odamzod paydo bo‘libdiki, taraqqiyotga intiladi. Rivojlanishning esa yo‘llari – juda ko‘p. Afsuski, bu makon va zamon tanlaydi. Ya’ni har bir shaxs ham, har bir oila ham, har bir millat ham, har bir davlat xalqi ham har gal boshqalarnikiga o‘xshamaydigan xos yo‘llardan yurishga majbur bo‘ladi. Hatto, ko‘pincha kechagi yo‘l bugunga mos kelmay qoladi. Har makon va har zamon jamiyat oldiga taraqqiyotning to‘g‘ri yo‘lini belgilab olishni taqozo etadi.

Alisher Navoiyning buyukligiga qoyil qolmay ilojimiz – yo‘q. U shunga ham gap topgan-da: “Yo‘lni bilmay yurib bo‘lmas!” – deb yozgan.

Istiqlol va ravnaq. Mustaqillikka erishganimizga 33 yil bo‘lyapti. To‘la obdon tushunib yetdikki, istiqloлга erishishning o‘ziyoq hali: “Mamlakatda taraqqiyot yuz berdi”, – degani emas ekan. Chunki bir makonda rivojlanish yuz berishi uchun obyektiv va subyektiv omillar pishib yetilgan bo‘lishi kerak.

Ammo bunga tamoman teskari g‘oya ustimizdan bosib turaveradi: taraqqiy etmagan mamlakatni mustamlaka xavfi aslo tark etmaydi. To‘g‘ri, zamon allaqachon “bosib olib boshqarish” degan kolonial qat’iyatdan deyarli voz kechib, “yangi mustamlakachilik” siyosatiga o‘tib bo‘lgan.

G‘oyaviy-mafkuraviy raqobatbardoshlik. Ochig‘i, shu paytgacha “raqobatbardoshlik” atamasini faqat bozor iqtisodi bilan bog‘liq holda

tushunar va tushuntirar edik. Yo‘q, Shavkat Mirziyoyev g‘oyaviy-mafkuraviy raqobatbardoshlik masalasini o‘rtaga qo‘ydi: “O‘zimizga bir savol berib ko‘raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Mana, bugun ma‘naviy-ma‘rifiy sohada masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”.

G‘arb, jadidchilik va yangi jadidchilik. Yaqinda bir o‘zbek oshpazi oshga sabzi to‘g‘rashning oddiygina qurilmasini yaratib, ijtimoiy tarmoqlarga qo‘yibdi. U xuddi bir paytlar qishloqlardagi har bir hovlida bo‘ladigan yerostidan suv tortadigan quduqning o‘zginasi. Faqat bunday quduq uchun ishlatiladigan quvur diametri 10 santimetr bo‘lgan bo‘lsa, sabzito‘g‘ragichning quvuri diametri 5 santimetrcha keladi. Tagiga teshiklardan iborat metall payvandlangan. Archilgan sabzini solasiz, ustidan o‘ng qo‘l bilan anorning suvini siqadigandek porshenni bosasiz, tappa-tayyor maydalangan sabzini chiqarib beraveradi.

Shundan zavqlanib, telegramm kanalimga o‘sha videoni qo‘ydim-da, tagiga: “Biz – o‘zbeklar ham ixtirochi bo‘lyapmiz. Shukur!”, – deb yozdim. Naqd baloga qoldim-ku. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist ukamizning jon-poni chiqib ketibdi-ku: “Ustoz: “Biz – o‘zbeklar ham ixtirochi bo‘lyapmiz”, – debsiz. Bu nima deganingiz? Biz azaldan kashfiyotchimiz-ku!” – deb yozibdi. Kamina ham qo‘ymadim: “Azalda-da faqat! Hozir dunyo qaysi kashfiyotimiz mahsulini ishlatyapti? Biz ishlatayotgan narsalarning hammasini Yevropa ixtiro qilgan. Hatto, butun Osiyoning biror ixtiro mahsuli Yer yuzi bo‘ylab ishlatilayotgani – yo‘q. Bitta roltonni yaponlar ixtiro qilgan ekan, yevropaliklar uning ham rakka olib kelishini isbotlab berishdi”.

Axir, uyingizda ishlatayotganingiz narsalarni – velosiped, skuter, televizor, isitish tizimi, oshxonangizgacha oqizib kelingan gaz, mashina, telefon, xolodilnik, elektr toki, kir yuvish mashinasi, mikrovolnovka, soch quritkich, tish pastasi, tish cho‘tkasi, ustara, drel, kompyuter, ko‘zoynak, skaner apparati, printer, vanna, rakovina, jo‘mrak, darvozangiz tepasidagi videokamera... Eh-he, yana nimani sanay?

Aynan shuning uchun ham Yurtboshimiz: “Chindan ham, mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, – dedi.

Hammamiz har kuni yon-verimizda G‘arb ilm-fanining bizdan nechog‘li

oldinlab ketganini ko‘rib-bilib turibmiz-u: “Biz azaldan buyuklar yetishib chiqqan xalqmiz”, – deb o‘tiribmiz. Hamma gap shundaki, bu gap miyamizga qayta-qayta aytilaverib, quyilib qolgan. Lekin shu paytgacha: “G‘arbdan juda-juda orqadamiz”, – deb hech kim aytmagan-da.

Jadidlarning bilgani – bilgan. Yuz-yildan keyin O‘zbekiston rahbari yurtimizda yetuk kadrlar tayyorlashda yana G‘arb ilm-fani va milliy qadriyatlarimizga suyanishni alohida ta’kidladi: “Chindan ham, mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur. Lekin ularni kim tarbiyalaydi? Albatta, o‘zimiz tarix saboqlari, zamon talablari asosida tarbiyalashimiz zarur”.

Nega G‘arb ilm-fani? Tarix shunday kechdiki, Uyg‘onish davri o‘z nomiga mos ravishda Yevropani chin ma’noda uyg‘otib yubordi. Bu qit’a eli odamzod o‘z kechmishida, hatto, tushiga kirmagan ixtirolar qila boshladi. Bu esa eski, qoloq yo‘llardan voz kechib, yangi-yangilarini hayotga joriy qilish tarzida namoyon bo‘ldi. G‘arbning Xitoy va Hindistondan karvonlar orqali ming azob bilan savdo-sotiq qilishini osonlashtirish uchun Kolumb Hindistonga suv yo‘li ochish niyatida buyukdan-buyuk jasorat bilan yo‘lga ravona bo‘ldi. Xudo bu jasoratini siyladi: u o‘zi bilmagan holda Amerikani kashf etdi. Keyin, baribir, yevropaliklar Hindistonga suv yo‘lini ham ochishdi. Bu ikki buyuk yangilik amalda Amerika, Afrika va Aavstraliya qit’asini to‘liq, Osiyoning esa asosiy qismini yevropaliklar bosib olishiga zamin bo‘ldi. Dunyoning butun boyligi hududiy jihatdan eng kichik bo‘lgan shu qit’aga qarab oqdi. Taraqqiyot taraqqiyotning tegirmoniga suv quydi. Yevropada harbiy san’at ham, harbiy sanoat ham kuchayib ketdi. Hech kim yetmagan darajalarga yetdi. Oxiri aynan shu Yevropaning o‘zida dunyoni qaytadan bo‘lib olish ishtiyoqi jo‘sh urib, ikkita jahon urushi ham aynan shu qit’ada bo‘lib o‘tdi.

Lekin... Fitrat chindan buyuk daho edi. U Birinchi jahon urushining bosh maqsadi Hindistonga egalik qilish bo‘lganini ochiq yozgan.

Xumor. Tilimizda “qo‘msash” degan so‘z – bor. Lekin uning ma’nodoshi bo‘lgan “xumor” so‘zi – kuchliroq, poetikroq, ta’sirchanroq.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yer yuzida milliy ozodlik harakatlari kuchayib ketdi. Kuchli G‘arb davlatlarining mustamlakalari birin-ketin o‘z ozodligiga erisha boshladi. XX asrning oxirgi dahasi boshida navbat bizga ham yetdi. Bugun, ochig‘i, Yer yuzida mustamlakalarini qo‘lida qattiq ushlab turgan Rossiyadan boshqa katta imperiya qolmagan.

Xo‘sh, shu bilan imperiyachilik, mustamlakachilik ruju qo‘yish

to‘xtadimi?

Qayoqda?! Aslo va aslo to‘xtagani yo‘q, to‘xtaydiganga ham o‘xshamaydi. Aroqqa o‘rgangan kishiga u qayta-qayta xumor qilgani kabi, mustamlakachi davlatlarda buni xumor qiladiganlar topilaveradi.

Bir asr burun jadid bobolarimiz milliy ozodlikka erishish uchun kurashga chog‘lanish, kurashganda avval raqib bilan teng bo‘lish, keyin undan o‘zib, g‘olib kelish ilinjida yurtimizda Yevropa taraqqiyoti yo‘llarini joriy qilishga kirishgan. Axir, futbolda Osiyo chempionatida yarim finalga ham chiqa olmagan komanda bilan Yevropa chempionatida ishtirok etish mumkinmi?

Bizning 2023-yilgi yalpi ichki mahsulotning jon boshiga taqsimoti 2 ming 500 AQSH dollarini tashkil etdi. Bu borada 5,7 foiz o‘shishga erishildi. 2030-yilga borib bu ko‘rsatkichni 4 ming dollarga yetkazishni ko‘zlayapmiz. Bu marraga yetish bundan bu yog‘i har-yili o‘rtacha 10 foizdan kam bo‘lmagan darajada o‘shib borishni taqozo etadi. Hozirgi hisob-kitoblarga ko‘ra, 2024-yili bu borada 6,7 foiz rivojlanish kutilyapti. Shunda yalpi ichki mahsulotning jon boshiga taqsimoti 2 ming 700 dollarni tashkil etadi.

Nooddiy va noodatiy savollar. Bugun jamiyatimizda ma‘naviy-ma‘rifiy va g‘oyaviy-mafkuraviy vaziyat shu qadar murakkablashib, chalkashib ketdiki, qator-qator savollar o‘rtaga tushyapti. Eng muhimi, ularning hech qaysi oddiy savol emas. Har biri jiddiy, aniq-tiniq, qat‘iy javob talab qiladi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik “Shaytanat” romanida o‘zini “ko‘cha” deb ataydigan, xalq orasida “qonundagi o‘g‘ri” deb yuritiladigan, amalda jinoiy mafiya hisoblanadigan guruhlarning sho‘ro zamonida o‘zbek jamiyatidagi ko‘rinishlarini qalimga olgan. Shu kitob el orasida eng ko‘p o‘qildi. Nima deb o‘ylaysiz: xalq buni mafiyaga nafrati tufayli sevib mutolaa qildimi? Yoxud shu roman asosida ishlangan ko‘p qisimli filmda bosh qahramon rolini O‘zbekiston xalq artisti Yodgor Sa‘diyev mahorat bilan, sevib ijro etgani uchun asar shunchalar mashhur bo‘ldimi? Bilmadik, bilmadik. Lekin nega shu roman chop etilgani va u asosdagi film namoyish etilganidan keyin o‘zbeklarimiz orasida yangi tug‘ilgan bolalarga “Asadbek” deb ism qo‘yish ko‘payib ketdi? Axir, romandagi Asadbek havas qilsa arzigulik taqdir yo shaxs emas-ku? Axir, bu asarda yozuvchi sho‘ro davrida O‘zbekiston va uning xalqigina emas, hatto, mafiya ham markazga qul ekanini ochiq-oshkor ko‘rsatgan-ku. Gap shundaki, bu asarni har kim har xil ma‘naviy-ma‘rifiy daraja va turli g‘oyaviy-mafkuraviy maqsad bilan qabul qilibdi-da. Xo‘sh, badiiy asar ayrim odamlarga ezgulik emas, yovuzlik g‘oyasini targ‘ib qilib qo‘ymadimikan?

Shuning uchun ham Shavkat Mirziyoyev nutqida aytilgan mana bu fikrlarning mag‘zini yaxshilab chaqib olishimizga to‘g‘ri keladi: “Xabaringiz

bor, keyingi paytda korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha tezkor tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zini "ko'cha" deb ataydigan jinoiy guruhlar bo'ladimi, korrupsiyaga berilgan mansabdor shaxslar bo'ladimi, kim qonunga bepisand munosabatda bo'lib, davlat va jamiyatga zarar yetkazadigan bo'lsa, biz bunga hech qachon jim qarab turolmaymiz. Ko'chalarimiz, mahallalarimiz, hayotimiz tom ma'noda tinch va toza, jinoyatdan xoli bo'lishi kerak".

Prezident farzandlarimizni buzg'unchi g'oyalar ta'siridan asrashga chaqiradi: "Kelajagimizni yovuz kuchlar qo'lga berib qo'yishga aslo haqqimiz yo'q. Agar barchamiz birgalikda qat'iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz. Yangi O'zbekistonda qonun ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar bo'lishi shart. Va albatta shunday bo'ladi".

Ism bilan bog'liq yana bir og'riqli ma'naviy tanazzulni aytmaslikning hech iloji – yo'q. Ismlarda millatning orzu-maqсадlari, dunyoqarashi aks etadi, ma'lum ma'noda umumiy saviyasi ham namoyon bo'ladi. Sho'ro davrida va undan keyingi-yillarda "Erkin", "Ozod", "Baxtiyor", "Sardor", "Sherzod", "Farhod", "Alisher", "Dilshod" va boshqa shu kabi chiroyli ismlarning ayrim egalari fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo'limiga o'z otini diniy ismga almashtirib berish bo'yicha murojaat qilyapti. Aksariyati o'ziga "Abdu..." qo'shimchasi bilan boshlanadigan ismlar qo'yib olyapti.

Bu – nima holat? Zamirida nima yotibdi? Qanday kuchlarning ta'siri – bu?

Islom – muqaddas dinimiz. Ammo aholining muayyan toifasi uchun masjididan boshqa axborot manbai yo'q hisob. Masalan, bozorda mehnat qilayotgan savdo ahlining juma namozidan boshqa ma'naviy-ma'rifiy majlisi – yo'q. Gazetxonlik va jurnalxonlik kamaygandan-kamayib ketganiga ancha-yillar bo'ldi. Radioni ham faqat avtomobildagina eshitadigan bo'lib qoldik. Ko'plarimiz televideniye ko'rsatuvlarini ham avvalgidek ko'rmaymiz. Kitob o'qish esa, ochig'ini aytganda, yurtimizda allaqachon anqoning urug'i bo'lib qolgan. Yaqinda adabiyot sohasiga aloqador bir kafedra mudiri o'zi bilan ishlaydigan fan nomzodi, dots.ntdan: "Kitob tugul, loaqal, bir gazeta ham o'qimaydi-ye!.. Lekin darsga kiradi", – deb nolidi.

Holbuki, fuqaro ong-tafakkuri va qalbini egallash uchun kurash kuchaygandan-kuchayib ketgan hozirgi sharoitda aholi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, mohiyati, amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud muammolar va ularning yechimi, jahonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va hokazolardan boxabar bo'lishi kerakmi-yo'qmi?

Din va dunyoviy davlat. Ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy

jihatdan jamiyatimiz bugun shunday murakkab bir jarayonga kirdiki, ehtimol, istiqlolga erishganimizdan buyon hech qachon fikrlar qarama-qarshiligi darajasiga ko‘ra bunaqa qaltislik yuz bermagandir ham. Chunki hozirgi paytda ijtimoiy tarmoqlar kuchayib ketdi. Ochig‘i, og‘ziga kuchi yetgan ham, yetmagan ham... gapiryapti. Gapirsin. Huquqi. Demokratiya.

Biroq demokratiya, fikr erkinligi, qarama-qarshi mafkuralar kurashi degani boshboshdoqlik, provakatsiya, konstitutsion tuzumga ochiqchasiga zarba berishni anglatmaydi. Xullas, odamlar o‘rtasida qaltis savollar ko‘tarilyapti, xato pozitsiyalar ilgari surilyapti, lekin bu savollarga xolis javoblar berilayotgani, xato pozitsiyalar o‘z vaqtida inkor etilayotgani yo‘q.

O‘tgan-yili O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangilangan variantini umumxalq referendumi orqali qabul qildik. Jumladan, uning 1-moddasiga davlatimizning xususiyatini yorqin aks ettiruvchi ikki, ya‘ni “ijtimoiy” va “dunyoviy” degan yangi sifatni kiritdik. “Dunyoviy davlat” degani – “din davlatdan, davlat dindan ajratilgan, din davlatning, davlat dinning ichki ishlariga aralashmaydi, davlat qonun chiqarayotganda biror dindan so‘rab o‘tirmaydi” degani. Bu – “ikki karra ikki – to‘rt” deganday hammamizga ma‘lum bir pozitsiya.

Shavkat Mirziyoyev: “Mana, biz Asosiy qonunimizdagi fundamental prinsiplardan kelib chiqib, Dunyoviy davlat konsepsiyasini ishlab chiqyapmiz”, – dedi. So‘ng esa buning zaruratini ham bayon etdi: “O‘zingiz ko‘ryapsiz, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba‘zan, hatto, mamlakatimizning o‘zida ham Konstitutsiya va qonunlarimizga zid pozitsiyalar ilgari surilmoqda”. Bundan anglashiladiki, qaltis savollarga xolis javoblar berilishi, bunda davlat va xalqning manfaatlaridan keyilib chiqib, ya‘ni qonunlar va milliy g‘oyaga tayangan holda hukmron pozitsiyani har kuni, har yerda aytib turishimiz zarur.

Mehnat migratsiyasiga nisbatan oqilona pozitsiya. Mustaqillik dastlabki-yillarida bizdan boshqa davlatlarga ishlashga borgan mehnat migrantlariga yovqur ko‘z bilan qaradik. Hatto, eng katta darajalarda ham: “Mehnat qilaman, desa, o‘zimizda ham ish topiladi-ku” , – degan pozitsiyada turdik. Holbuki, agar xorijda ishlab yurgan fuqarolarimiz birdan Vatanga qaytsa, avvalo, buncha odamga tayyor ish yo‘q, qolaversa, birdaniga shuncha oila birdan daromadsiz qoladi. Mustaqillikning dastlabki chorak asrida mehnat migratsiyasi masalasiga nisbatan yetarli darajadagi va oqilona mafkuraviy pozitsiyamiz shakllanmadi. Davlat rahbaridan tortib ko‘pchiligimiz O‘zbekistondan ish izlab, uzoq o‘lkalarga ketganlarning ustidan mag‘zava ag‘dardik. “O‘zbekistondan jannatmonand joy yana qayerda bor? Mehnat qilgan, shu yerda ham binoiydek kunini ko‘ryapti-ku! Xorijda mehnat qilib yurgan fuqarolarimiz menga, umuman, yoqmaydi”, – dedik.

Holbuki...

Jahon bozori – bitta. U berahm, qaqshatqich, shu bilan birga, adolatli ham. Talab bo‘lsagina tovaringiz sotiladi. Bu bozorga tovarsiz yoki sifatsiz tovar bilan kirishdan ne ma’ni?

Jahon bozoriga har bir davlat xalqi o‘z tovari bilan kiradi. Bizda hozircha eksportga chiqaradigan tovarlarimiz u qadar ko‘p emas. Shuning uchun biz uchun ishchi kuchini eksport qilish hozircha o‘ta muhim masala. To mamlakat rivojlangan davlatlardek taraqqiyotga erishmas ekan, bu jarayon to‘xtamaydi. Chunki Turkiyaning taqdirida ham bu sinalgan. Garchi bu davlatda yalpi ichki mahsulotning jon boshiga taqsimoti bizdagidan 4 – 5 marta yuqori bo‘lsa ham, hozirgi paytda ham mutaraqqiy davlatlarga ishchi kuchi eksporti aslo to‘xtagani yo‘q. Farqi ulardan eng rivojlangan G‘arbiy Yevropa davlatlari, asosan, Germaniyaga ishga boriladi.

Tovar ishlab chiqarish uchun ish joyi – kerak. Iqtisodchilar bugungi kunda mamlakatimizda bir yangi ish joyi yuzaga keltirishimiz uchun o‘rtacha 10 ming AQSH dollari sarflanishi lozimligini aytishyapti. 100 ming dollar pul topgan 10 kishiga yangi ish joyi tayyorlashni o‘ylaydimi yoxud bu pulining yarmiga darhol boshqalarning ko‘zini o‘ynatadigan qimmatbaho mashina olib, yarmini hovlisiga chaplab yotgan bo‘lsa, qanday qilib ishsizlikni tez tugatamiz? Bu ham – ma’naviy masala. Ko‘ryapsizmi, iqtisodning zamirida ham ma’naviyat yotibdi.

Ishlab chiqargan tovarimiz uchun avval bozor topish – kerak. Stanogimiz yoki seximiz uzluksiz ishlab turishi uchun elektr ta’minotida uzilish bo‘lmasligi – darkor. Sifatli va yetarli xomashyo topilishidan tashqari, iqtidorli va salohiyatli ishchi kuchi ham – zarur. Va hokazo, va hokazo...

“Olma, pish, og‘zimga tush!” – degan bilan olma pishmaydi ham, og‘izga tushmaydi ham.

Ma’lumotlarga qaraganda, Buyuk Britaniyada Markziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston mehnat migrantlariga qiziqish ortgan. Ular shu paytgacha Afrikadan, Hindistondan ishchi kuchi yollab kelgan. Endi fikri o‘zgaryapti. Ochig‘i, xalqimizning umumiy madaniy darajasidan ular bir oz boxabar bo‘la boshladi. O‘rgatsa, o‘rganadigan, ish bersa, ishlaydigan xalqmiz. Bunga ko‘z tegmasin. Lekin bu ham kecha yo bugun paydo bo‘lgan fazilat emas, azaldan jahon tamadduni ravnaqiga ulkan va munosib hissa qo‘shgan xalqning davomchilarimiz. Germaniyada ham bizdan borgan mehnat migrantlariga qiziqish ortgan. Hozir, hatto, Tataristonda o‘zbek tilini o‘rganishni targ‘ib qilish boshlandi. Chunki u yerdagi ish joylariga o‘zbekistonlik migrantlarni ko‘proq jalb qilish tamoyili boshlandi. O‘zbekka tatararchani, tatarga esa o‘zbekchaga o‘rganish unchalar mushkul emas. Ish beruvchi ham, yollangan

ishchi ham bir-birini oson tushunsa, bo‘ldi-da. O‘rtadagi rus tili ham bu ikki xalqqa u qadar begona emas.

Mamlakatimizda chetga ishlash uchun yuboriladigan fuqarolarga o‘sha mamlakat tilini va aynan qaysi sohaga borayotgan bo‘lsa, o‘sha kasb sir-sinoati shu yerd–o‘zimizda o‘rgatish ishlari tartibli asosda va davlat darajasida yo‘lga qo‘yilyapti.

Qonun va milliy mafkura. Qonun – davlatniki, milliy mafkura – xalqniki. Davlat ham – xalqniki. Shunday ekan, qonun va milliy mafkura bir-biriga zid emas. Zid bo‘lishi aslo mumkin ham emas. Hech kimning qonun va milliy makuradan kelib chiqib ilgari surilgan pozitsiyani shaxsiy fikr hisoblashga haqqi ham – yo‘q. Ijtimoiy tarmoqda guvoh bo‘lingan bir narsaga diqqat qarataylik. Bir qitmir bloger g‘arazli niyat bilan o‘zbekistonlik din sohasining mas‘ul xodimiga: “Maktab o‘quvchilari masjidlarga kirtilmayapti ekan, shu rostmi?” – deb savol beryapti. Mas‘ul xodim esa: “Yo‘q, bizla makatb o‘quvchisining masjidga borishi ta‘qiqlanmagan”, – deb javob beryapti. Ketidan bloger ichki ishlar tizimi xodimlarining bolalarni masjiddan qaytarayotgani videolavhasi qo‘yib yuborilyapti.

Xo‘sh, savol – o‘rinlimi-yo‘qmi? Uni bloger beryaptimi, yaxshi niyat bilan so‘rayaptimi, g‘arazli maqsad bilanmi – buning ham unchalar ahamiyati yo‘q. Chunki hayotning o‘zida masala masalaligicha turibdi-da. Xo‘sh, davlatning va milliy mafkuraning bu masaladagi qat‘iy pozitsiyasi qanday bo‘lishi – kerak. Bu pozitsiyani kim, qaysi tashkilot xalqqa yetkazib, tez-tez uqtirib, odamlar ong-tafakkuri va qalbiga yetkazib turishi – lozim?

Din mas‘ul xodimining javobi, birinchidan, xato, hatto, yolg‘on. Albatta, u o‘zicha ehtiyotkorlik qilib, ochiqrog‘i, qo‘rqqanidan shunday degan? Lekin o‘zi nimadan qo‘rqish – kerak? Ikkinchidan, bu javob professional emas, ya‘ni qonuniy jihatdan ham – xato.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida, jumladan, aniq-tiniq qilib: “Umumiy o‘rta ta‘lim majburiydir. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta‘lim davlat nazoratidadir”, – deb yozilgan. Modomiki, umumiy o‘rta ta‘lim majburiy bo‘lsa, maktabgacha ta‘lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta‘lim davlat nazoratida bo‘lsa, maktab yoshidagi bolalarni maktabdan olib qolishga, hatto, ota-onaning ham haqqi – yo‘q. Juma – maktab uchun o‘qish kuni. Shunday ekan, kunduzi soat 13 da boshlanadigan juma namoziga o‘quvchi qanday blordai? U shu mahalda maktabda bo‘lishga majbur-ku.

Bu – hali masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni – shundan iboratki, yangilangan Konstitutsiyamizning 75-moddasiga ko‘ra, din davlatdan, davlat esa dindan ajratilgan.

Kompleks yondashuv. Ma‘naviyatni tor ma‘noda tushunishning vaqti

emas. Yuksak ma'naviyatgina bizni oxir-oqibatda tezroq rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishimiz uchun asosiy omil bo'la oladi. Modomiki, asl maqsad har taraflama mukammal shaxsni tarbiyalash ekan, ma'naviyat va ma'rifat ishiga kompleks yondashish talab etiladi. Nutqda ma'naviyat va ma'rifat sohasining barcha jabhalari qamrab olindi. E'tibordan chetda qolgan, tahlil etilmagan, munosabatdan chetda qolgan biror jihat qolmadi hisob.

Dunyoviy jamiyatda dinning o'rni va vazifasiga to'xtalindi. "...Hajga, umraga borib kelgan har bir yurtdoshimiz ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerak", – deyildi. Ochig'ini aytganda, bu – tamoman yangi bir yondashuv. Shu bilan birga, davlat rahbari: "Ziyorat bahona o'zini ko'z-ko'z qilish, manmanlikka berilish kabi bizga yarashmaydigan xunuk holatlar ko'zga tashlanmoqda. Bular albatta barchamizni o'ylantirishi kerak", – dedi.

O'zi umra va hajga ummat bandaligini butkul bo'yniga olib, o'limini obdon his etib, ehromini kafan kabi o'ranib, oyoqyalang, xalqona aytganda, shohu gado barobarligini dunyoga ko'z-ko'z qilib boradi. Lekin uyiga kelib, oyog'i ostiga darvozasidan mehmonxonasigacha bir o'ram qimmatbaho gilam poyandoz soldiradi. Ziyofatu zarofatni-ku qo'yaverasiz. U Makkayu Madinaga borib keldi-da, axir. Bu – ma'naviyat emas, ma'naviyatsizlik.

Notiq masalani jiddiy tarzda o'rta qo'ydi: "...Bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi kerak, ma'naviyat yangi kuyachga, yangi harakatga aylanishi shart". Surxondaryo viloyatidagi uchrashuvda ziyolilar tomondina bilidirilgan taklif inobatga olinib, hududlarda faoliyat olib borilayotgan 4 ta sektorga qo'shimcha ravishda ma'naviyat sektorini ham tashkil etish belgilandi.

Teatr va kinoga diqqat qaratildi. Barcha korxonalar va muassasalar uchun oyning bir kunini "Teatr kuni" deb e'lon qilish g'oyasi, yosh rejissyorlarni qo'llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot ta'sis etish taklifi ilgari surildi. Besh-yillik dasturga binoan teatrlar to'liq ta'mirlanib, eng ilg'or texnologiyalar asosida iodernizatsiya qilinishi belgilandi.

Kelgusi-yildan boshlab har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to'garak xonalari maqjud bo'lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Maqom va baxshichilik san'ati rivojlantirishga alohida diqqat qilindi. Yaqinda qabul qilingan Prezident qarori asosida Madaniyatshunoslik va nomoddiy meros instituti tashkil etiladi, "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlari hamda Farg'ona-Toshkent, Xorazm, Buxoro maqom yo'llaridagi musiqa asarlarini tadqiq etishga 28 ta maqsadli grant ajratiladi.

Bundan buyon "Bahor" raqs ansambli jamoasi ilgari Filarmoniya

joylashgan mashhur san'at saroyida faoliyat yuritadi.

Temuriylar tarixi hamda Tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi yangilanadi, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi kapital ta'mirlanadi. Mamlakatimizdagi 18 ta arxeologiya yodgorligi ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiriladi. Samarqandda Sohibqiron Amir Temur bog'lari qayta tiklanadi, "Buyuk ipak yo'li" muzeyi barpo etiladi, Bibixonim majmuasi restavratsiya qilinadi.

"Tirik tarix" seriyasida Vatanimizning shonli o'tmishiga bag'ishlangan 50 ta badiiy film yaratish bo'yicha farmon chiqariladi.

Madaniyat va san'at, kutubxona va muzeylar xodimlari oylik maoshlari bosqichma-bosqich oshiriladi. Kelgusi o'quv-yilidan milliy sertifikatga ega bo'lgan o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilariga 50 foiz ustama to'lanadi. O'zbek tilidan boshqa tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini o'qitish soatlari ko'paytiriladi. Nashriyot va matbaa korxonalarini 5-yilga soliqlardan ozod qilinadi. Prezident, jumladan, o'z sohasida ilmiy maktab yaratgan olimlarni bolalar uchun qiziqarli va sermazmun kitoblar yaratishga chaqirdi. Bu ishlarni rag'batlantirish uchun kelgusi-yili mamlakatimizda Xalqaro bolalar adabiyoti ko'rgazmasi tashkil etilishi aytiladi. Tarjimonlarni rag'batlantirish maqsadida Ogahiy nomidagi xalqarom ukofot ta'asis etish g'oyasi ilgari surildi. Mamlakatimizda Internet adabiyotini rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi. Notiq matbuot nashrlariga obuna masalasiga ham to'xtalib, Prezidentning 2022-yilning 27 iyunidagi qarorida budjet tashkilotlariga kutubxona fondi xarajatlari orqali davri bosma nashrlar, ularning elektron shakli va elektron ommaviy axborot vositalariga obuna bo'lish uchun mablag' yo'naltirishga ruxsat berilganini qayd etdi. Buxorodagi tarixi y maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi bunyod etilishi ko'zda tutilgan.

Bular – keng ko'lamli ishlar. Ular amalga oshirilsa, mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifat tizimi yangi bir pog'onaga ko'tariladi. Ammo, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi to'g'ri ta'kidlaganidek: "...Ilgari surilgan tashabbuslar faqat ma'naviyat, madaniyat va ijod sohalari rahbarlariga tegishli emas. Bularni – qayerda, qaysi lavozimda ishlamaylik, barchamizga birdek vazifalar, deb qabul qilishimiz lozim".

Biz murakkab va tahlikali zamonda yashayapmiz. Vatanni va uning istiqloqlini himoya qilish hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Bu esa bizdan oliy darajadagi hushyorlikni, ogohlikni, kurashchanlikni talab qiladi.

O‘ZBEKISTONDA MISSIONERLIK XAVFINI BARTARAF ETISHNING MA’NAVYI-AXLOQIY VA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY MEXANIZMLARI

Musayev Mansur Tursunpo‘latovich

*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti bo‘lim boshlig‘i, siyosiy fanlari doktori
(DSc) Berdimurod Xolbekov IMTI xodimi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda missionerlik xavfini bartaraf etishning ma’naviy-axloqiy va g‘oyaviy-mafkuraviy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada O‘zbekistondagi missionerlik tashkilotlarining faoliyati mamlakatimiz uchun zararli ekanligi o‘zlarining nopok niyatlarini amalga oshirishi natijasida uni faoliyati yoshlarning e’tiqodiga putur etkazishi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: missionerlik, ma’naviyat, mafkura, g‘oya, targ‘ibot, ma’rifat, axloq, odob, e’tiqod, prozelitizm.

Jamiyat taraqqiyotidan ma’lum bo‘ladiki, aynan din odamlarning ijtimoiy hayotida, axloq-odobida, oilaviy munosabatlarida asrlar davomida alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Shu o‘rinda, din insonlarning xulq-atvoriga, shaxsini shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biridir. Shu o‘rinda, inson o‘zini anglamay turib, u yoki bu tarzda din ta’sirida bo‘ladi va bu ayni haqiqat, real voqelikdir.

Har bir fuqaro, jamiyatdagi har bir shaxs, shak-shubhasiz, diniy munosabatlarga ilk bosqichdayoq noilmiy asosda duch keladi, din maxsus ta’lim orqali o‘zlashtirilmagani uchun uning asl falsafasi, obektiv asoslari o‘rganilmaydi. Natijada turli dinlar, sektalar, konfessiyalar va oqimlar u yoki bu ijtimoiy sohada o‘z-o‘zidan singib ketmoqda.

Dinning ilmiy va ob’ektiv asosda o‘rganilmaganligi dindan boshqa maqsadlarda foydalanmoqchi bo‘lgan turli siyosiy-mafkuraviy markazlar faoliyatini osonlashtiradi. Bu yerda missionerlik masalasi paydo bo‘ladi. Missionerlar u yoki bu jamiyatda yoki davlat ichida o‘z manfaatlarini ta’minlash maqsadida faoliyat yuritayotgan g‘oyaviy-siyosiy markazlar alohida shaxslarning dinga bo‘lgan ana shunday nozik munosabatidan g‘arazli maqsadlarda foydalanishga e’tibor qaratishadi. Missionerlik faoliyati natijasida ma’lum bir diniy dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxslar o‘sha mafkuraning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini anglamay turib, uni o‘zlarining ma’naviy ehtiyojlarini qondirish vositachi sifatida chin dildan qabul qiladilar. Missionerlapning asosiy maqsadi yoshlarimizni milliy zaminimizdan, azaliy qadriyatlarimiz va ma’naviyatimizdan mahrum qilish orqali manqurtga

aylantirishdir[1].

Demak, din insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida haqiqiy din sifatida emas, balki missioner tomonidan targ'ib qilinadigan mafkura sifatida qabul qilinadi. Shaxs o'zlashtirgan va din deb bilgan bu vosita uchun har narsaga tayyor. Har bir missionerlik va diniy markazning maqsadi har xil bo'lganligi sababli, ular o'z atrofidagi ijtimoiy va diniy guruhlarni turli yo'nalishga yo'naltiradi. Natijada, jamiyatda bir-biridan keskin farq qiluvchi, ayrim hollarda bir-birini qabul qilmaydigan, ayrim hollarda loqayd yoki milliy manfaatlariga sodiq bo'lgan radikal guruhlar shakllanadi. Bugun millatimiz vakillari ichida ana shunday kishilar bor ekan, demak, milliy ma'naviyatimizga nisbatan ichki tahdidlar kuchayib borayotir, deyishga to'la asoslar bor. Ularni cheklash uchun milliy birligimizni mustahkamlash amaliy ahamiyatga ega bo'ladi [2]. Zero, jamiyatning diniy-mafkuraviy asosda bo'linishi milliy hamjihatlik va birlikdan tug'ilgan milliy kuch-qudratga rahna soluvchi zarbadir. Ayniqsa, «beg'araz» iqtisodiy yordam ko'rsatish orqali missionerlik zamirida G'arbcha dunyoqarash va turmush tarzi keng targ'ib etila boshlandi. G'arbda rahnamolik qiluvchi va globallashuv harakatida qatnashuvchi oqimni g'arb ekspertlari protestantizm deb ataydi [3].

Xo'sh bugungi kunda missionerlar kimlar o'zi? Ular maxsus psixologik tayyorgarlikka ega, xorijda maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislardir. Adabiyotlarda ular ba'zan «yangi» missionerlar deb ataladi. Bular aqlli, tajribali, vasvasa usullarini yaxshi biladigan, behayo qobiliyatlarga ega odamlardir.

Bugungi kunda missionerlar tajribasini jamlagan, ularning strategiya va taktikasini tahlil qiluvchi missionerlik ta'limoti shakllangan. Missionerlarning ilmiy jurnallari, ilmiy maktablar, ikki yuzdan ortiq agentliklari mavjud. Garchi diniy va'zlar haqida bahs-munozaralar mavjud bo'lsa-da, missionerlik birlashgan harakatdir.

Missionerlik tashkilotlari vakillari ba'zi fuqarolarimizga telefon uchun flesh-karta va mikro xotira kartalarini berishmoqda. Bu holatni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Chunki ularga berilayotgan telefonlar uchun flesh-karta va mikro xotira kartalarini ko'rib chiqsak, bular nasroniylik diniy oqimlaridan biriga tegishli targ'ibot vositalari ekani ma'lum bo'ladi. Bu telefonlar uchun flesh-kartalar va mikro xotira kartalarida «musiqa parchalari bop» demasa-da, aslida turli tillarda – o'zbek, qirg'iz, rus, ingliz tillarida dinga chaqiriqlar bor. Qizig'i shundaki, telefonlar uchun flesh-kartalar va mikro xotira kartalari ichidagi audio yozuvlarni o'chirib bo'lmaydi. Agar kimdir uni ko'tarib «tarkibini o'chirib tashlayman, bu tayyor flesh-karta va telefonlar uchun mikro xotira kartasi» desa, kuyib ketadi. Ularni o'chirish uchun albatta professional kompyuter mutaxassislarini jalb qilishlari kerak.

Ba'zi fuqarolarimiz telefon uchun flesh-karta va mikro xotira kartalarini berganlardan qaysi tashkilotga mansub ekanliklari so'rashgan, ammo ular hech qanday javob bermay ketishgan. Missionerlik tashkilotlarning asosiy maqsadi odamlarni o'z e'tiqodidan voz kechdirishdir. Qolaversa, ularda zararli g'oyalarni targ'ib qilish bo'yicha tushunish murakkab bo'lgan va mahfiy targ'ibot texnologiyalari borligi sababli ham afsuski ba'zi fuqarolarni ularga ergashib ketish jarayoni oson kechmoqda. Mamlakatimizda missionerlik tashkilotlarga nisbatan biron bir chora ko'rilsa, ular buni insoniy, vijdon va diniy huquqlarning buzilishi sifatida ko'rsatadi. Shu boisdan ham o'tgan davrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita va Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining sa'y-harakatlari natijasida bu missionerlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekistondagi missionerlik tashkilotlarining faoliyati mamlakatimiz uchun zararli ekanligi haqida ko'p marotaba bong urildi. Ular yosh avlod ongini egallab, kelajakda o'zlarining nopok niyatlarini amalga oshirishi natijasida uni faoliyati yoshlarning e'tiqodiga putur etkazadi, ularni ijtimoiy-siyosiy faoliyatdan uzoqlashtiradi, yoshlarda vatanparvarlik ruhini zaiflashtiradi. O'rganishlarga ko'ra, missionerlik tashkilotlarini Amerika, Fransiya, Britaniya kabi mamlakatlarning nodavlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtirishi aniqlangan. Afsuski mamlakatimizda bu tashkilotlarga a'zo bo'lib qolgan oilalar borligi tashvishlidir. Aksariyat missionerlar yoshlarni moliyaviy vasvasaga soladigan takliflar bilan o'z g'oyalariga bo'ysundirishga harakat qiladilar.

Missionerlik tashkilotlarini dunyoning aksariyat davlatlarida uchratish mumkin. Missionerlik tashkilotlari doimo o'zlari yashab turgan mamlakatlardagi milliy nizo va diniy tarqoqlikdan, ularning buzg'unchi faoliyatidan manfaatdor bo'lib kelgan. Missionerlik bilan faoliyat yuritayotgan sektalarning aksariyati G'arbdan yordam oladi. Ular mamlakatda tartibsizliklar keltirib chiqarishdan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni buzishdan manfaatdor.

Bugungi kunda protestantizmni qabul qilganlar o'zbeklar orasida ham o'z aksini topmoqda. Protestantlar o'z duolarini o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz va uyg'ur tillarida o'qib, o'zbeklardan pastorlar tayyorlaydilar, xorijliklarga emas, o'zbeklarga diniy va'z o'qiydilar. Protestant pastorlarining aksariyati o'zbeklar tomonidan tayyorlanadi va o'zbeklarni protestantizmga aylantirish strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Shunday qilib, millat va oila dinga qarab bo'linib keta boshladi.

O'zbek ayollari o'z diniy e'tiqodlariga ko'ra nisbatan moslashuvchan bo'ladi. Bu holat yolg'izlik va stress bilan bog'liq. Eng qiyini, farzandlarini

bir dinga jalb qilishlari. Ba'zan protestantlar yashirincha ishlaydilar, jamoat fondlari, maktablar, sport seksiyalari va klublar tuzadilar. Missionerlar mazkur usullar orqali o'z g'oyalarini targ'ibot etishi natijasida diniy dunyoqarashi shakllanmagan, din to'g'risida xolisona fikrga ega bo'lmagan insonlarni o'z tuzog'iga ilintirayotganligi namoyon bo'lmoqda.

Mutaxassislar yollanishga moyil bo'lganlarni uch toifaga ajratishadi: bu – talaba yoshlar, mehnat muhojirlari va jiddiy iqtisodiy hamda ijtimoiy bosim ostida yashaydigan ishsizlar. Haqiqat shundaki, bu yoshlar nafaqat past huquqiy va siyosiy ongga egalar, balki, ularning dunyoqarashlari, bilim dapajasi bir xil saviyada, ularning aksariyati maktab va kollejlarda past baholarda o'qigan[4].

Masalan, Toshkent viloyatining Chirchiq shahrida "Iegova guvohlari" sektasi faoliyati bilan bog'liq ko'plab muammolar paydo bo'lgan. Albatta, protestantlar ertaga hokimiyatga keladigan yoshlarning dinga kirishiga katta ahamiyat berishadi. Umuman olganda, yoshlarning dunyoqarashi, siyosiy yo'nalishi va milliy pozitsiyasiga ta'sir qilish global strategiyaga aylandi.

Bugungi kunda AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya, Xitoy va boshqa davlatlarda bir qancha o'zbek talabalari tahsil oladi. Bu davlatlar nafaqat yoshlarni tarbiyalaydi, balki ular ongiga G'arb madaniy va siyosiy qadriyatlarini singdiradi. Yoshlarga ta'sir ko'rsatishning asosiy yo'llari diniy adabiyotlar, televideniya, radio, internet, reklama va e'lonlardir. Masalan, Iegova guvohlari diniy adabiyotlarni uch yuz tilda, shu jumladan o'zbek tilida ham tarqatadi. Evangelistlar o'zlarining sun'iy yo'ldoshlari orqali butun dunyoni qamrab olish imkoniyatiga ega.

Bugungi kunga kelib ham xristian, ayniqsa, protestant konfessiyalari missionerlik faoliyatida yetakchilik qilmoqda. 1970-yilda xristianlarning 2200 xorijiy missiyalarida 240000 professional missioner faoliyat yurtgan bo'lsa, 2000-yilda 4800 ta xorijiy missiyada 420000 missioner mahalliy aholi ichida targ'ibot o'tkazib kelgan»[5].

Olib borilgan ilmiy izlanishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, ko'pgina missionerlar mahalliy aholi ko'p bo'lgan hududlarda yashaydi va o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o'sha mamlakatning tili, urf-odatlarini va odob-axloqini yetarli darajada o'rganadi. Konfessiyaviy adabiyotlarda missionerlik tushunchasi o'z mamlakatida yoki boshqa davlatda xushxabar berish, cherkovlar qurish va ibodat qilish jarayonini amalga oshirishga qaratilgan diniy birlashma vakillarini anglatadi. Insoniyat taraqqiyoti tarixida missionerlar diniy e'tiqodni yoyish maqsadida xorijiy mamlakatlar va qit'alarga borganliklari ma'lum. Har bir missioner o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun turli vaziyatlarda yechim topa olgan, notiq, diniy tashviqot olib borish qobiliyatiga ega bo'lgan dindor bo'lishi kerak.

Missionerlarning asosiy maqsadi targ‘ibot yo‘li bilan odamlarni dinga kiritish edi. Shu bilan birga missionerlar insonparvarlik, tibbiy yordam, ta‘lim va xayriya fondlari orqali mahalliy aholini xristianlashtirishga harakat qildilar. Missionerlar g‘arb davlatlarining mustamlakachilik siyosatining piyodalari bo‘ldi deyishga to‘liq asoslar bor. Buning sababi shundaki, missionerlar boshqa mamlakatlarni mustamlaka qilishni maxsus maqsad qilmagan bo‘lsalar ham, g‘arb ekspansiyasi tarixi missionerlarning mustamlakachilikka hissa qo‘shganligini ko‘rsatdi. Bugungi insoniyatning asosiy qiziqishi shundaki, ular turli tillarda so‘zlashadi, turli an‘anaviy dinlarga mansub, turli madaniyat va an‘analarga sodiqdir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatimizga ko‘plab diniy missionerlar kirib kela boshladi. Ulardan ba‘zilari qonuniy faoliyat ko‘rsatsa, boshqalari noqonuniy faoliyat yuritadi. Missionerlarning bu ishlardan ko‘zlagan maqsadlari nima? Ularning rejasi azaldan musulmon bo‘lib kelgan, ya‘ni mafkurasi, urf-odati, butun boshli ma‘naviy tarixi bir xil bo‘lgan, aslida mamlakatimizning kuch-qudratini tashkil qiladigan birdamlikni, xalqimizning yuragini parchalash, zaiflashtirish, parokanda qilish va turli – tuman siyosiy va iqtisodiy bosimlar bilan o‘z holimizcha yashashga yo‘l qo‘ymaslikdir. Missionerlik faoliyati mafkuramiz uchun yot unsurgina bo‘lib qolmay, balki ma‘naviyatimiz rivoji uchun ham jiddiy to‘siqdir»[6].

Bugungi kunda faol tarzda missionerlik bilan shug‘illanayotgan «Pyatidesyatniklar» yoki «To‘liqinjilxristianlari», «Ettinchikunadventistlari», «Iegova guvohlari», «Baptistlar» ijtimoiy hayotda fuqarolarning qayg‘u-alamlari, muammolarini bartaraf etishda «beg‘araz» xayriya yordamlari ko‘rsatishga e‘tibor qaratishadi. Aslida, bu «beg‘araz» yordam orqali jamiyat hayotida o‘zlariga xayrxoh bo‘lgan fuqarolarni ko‘raytirish asosiy maqsad hisoblanadi. Insoniyat ravnaqi, dunyoda tinchlik o‘rnatish, muhtoj bechoralarga yordam berish bahonasida ko‘rsatilayotgan «beg‘araz» yordamlar zamirida aksariyat hollarda o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yotadi.

Shu o‘rinda, «saxiy», «gumanitar» yordamlar «ayrim» siyosiy markazlar ko‘magidagi missionerlik tashkilotlari u yoki bu mamlakatda diniy muvozanatni izdan chiqarish orqali «adoalatparvarlik» bayrog‘i ostida o‘zlarning ta‘sir doiralarini kengaytirishga intilishini kuzatish mumkin.

Shuningdek, ushbu o‘rinda tashvish uyg‘otayotgan faktlardan yana biri missionerlik faoliyati bilan shug‘ullanayotganlar orasida o‘zbek millatiga mansub bo‘lgan kishilarning mavjudligi hamdir[7].

Bugungi kunda o‘rganishlar natijasi va tahlillarga ko‘ra, fuqarolarimizni sog‘lom diniy dunyoqarashga ega emasligi, din to‘g‘risida xolisona fikrni shakllanmaganligi aksariyat holatlarda missionerlik va prozelitizm ta‘siriga tushishga sabab bo‘lmoqda. Missionerlik va prozelitizm harakati xalqimiz

va millatimiz ma'naviyatiga, e'tiqodiga nisbatan salbiy ta'sir etuvchi tahdidlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Missionerlik tahdidini bartaraf etishda jamiyatimiz hayotida aholining keng qatamlarini missionerlik va prozelitizmga qarshi g'oyaviy-mafkuraviy qurollantirish uchun ma'naviy qadriyatlarimizni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Har bir ongli fuqaro nafaqat o'z sog'lig'ini asrashi, balki o'z galar salomatligini ham xavf ostiga qo'ymasligi kerak. Bu qonuniy jihatdan ham, diniy jihatdan ham to'g'ri.

O'zbekiston Respublikasida missionerlik faoliyati qonun bilan ta'qiqlangan. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasi, Jinoyat kodeksining 145, 216, 216-1, 217, 244-3-moddalari va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 184-2, 201, 202-1, 240 va 241-moddalariga ko'ra respublikada missionerlik harakati man etiladi. Shu boisdan ham global o'zgarishlar sharoitda missionerlikka qarshi din sohasida axborot va ta'lim sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Targ'ibot guruhlari, ommaviy axborot vositalari orqali aholi o'rtasida doimiy tushuntirish ishlari olib borilmoqda. O'smirlar, yoshlar va xotin-qizlarni diniy ta'lim olishlari uchun maqsadli va amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishdagi ishlarning salmoqli qismi radikal va salbiy diniy oqimlar mafkurasining oldini olish chora-tadbirlariga bag'ishlangan bo'lsada, yana bir qismi bevosita ana shunday oqimlardan zarar ko'rganlarga qaratilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Mamlakat tarixi, madaniyati va ma'naviy qadriyatlariga mos kelmaydigan xorijiy diniy qarashlarni targ'ib qiluvchi har qanday oqim O'zbekiston Respublikasining an'anaviy tamoyillari va ichki bapqarorligiga putur etkazadi. Bunday ekstremal hodisalarga qarshi kurashish boshqa davlat organlari va tegishli tuzilmalarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Mamlakatda islom dini nomidan o'z qarashlarini targ'ib qilayotgan shunday guruhlar borligi sir emas. O'zining ma'naviy ildizlari, an'anaviy qadriyatlaridan mahrum bo'lgan ba'zi yoshlar ana shunday ekstremal mafkuraga aldanib, o'z millatining urf-odatlari, an'anaviy qadriyatlariga qarshi chiqmoqda.

Shu o'rinda, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «Ekstremistik faoliyat va zo'rovonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga etmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani, bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod bo'lib, ular 2 milliard kishini tashkil etishini e'tiborga olsak, masalani naqadar jiddiy ekanini tushunish qiyin emas»[8], deya ta'kidlagani ayni haqiqatdir. Binobarin, dunyoda global miqyosda inson ma'naviyatiga raxna solish orqali ekstremistik harakatlar strategiyasida tajribasiz, e'tiqodi sust, siyosiy va diniy ilmlari shakllanmagan ayrim yoshlarning qalbi va ongini zabt etish orqali o'zining

yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarini singdirmoqda. Natijada, ekstremistik harakatlar ta‘siriga berilgan yoshlar qalbi va ongida «o‘zgacha» dunyoqarash shakllantirilmoqda. Insonni alohida tashvishlantiradigan jihati, aksariyat yoshlarimizni ekstremizmning soxta g‘oyalarini to‘g‘ri anglamasdan ularni asl diniy qadriyatlar sifatida talqin qilishmoqda.

Respublikamizda e‘tiqod erkinligini ta‘minlash masalasida barcha imkoniyatlar yaratib berilgan bir paytda, makkor va qo‘poruvchi, naypangboz kuchlar, diniy mutaassib guruhlar o‘z qabih rejalarini amalga oshirish yo‘lida xalq ichida, xususan, yoshlar orasida buzg‘unchi g‘oyalarni tarqatishga urinishdi[9]. Shuni alohida qayd etish joizki, ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasi sust, mafkuraviy immuniteti bo‘sh ayrim yoshlar adashib, ekstremizm, terrorizm va missionerlik ta‘siriga berilishi barchamizdan muntazam ogohlikni taqoza etadi. Buning uchun eng avvalo, yoshlarimiz o‘rtasida siyosiy-mafkuraviy, diniy-ma‘rifiy sohada aniq maqsadga yo‘naltirilgan profilaktik tadbirlarni muntazam o‘tkazish hayot-mamot masalasiga aylanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev: “Azizlarim, tarbiyasi izdan chiqqan nopok kimsalardan ogoh bo‘laylik! Farzandlarimizni ularning buzg‘unchi ta‘siridan asraylik! Kelajagimizni yovuz kuchlar qo‘liga berib qo‘yishga aslo haqqimiz yo‘q. Agar barchamiz birgalikda qat‘iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog‘lom ijtimoiy-ma‘naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz. Yangi O‘zbekistonda qonun ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar bo‘lishi shart. Va albatta shunday bo‘ladi”[10]. Zero, davlatimiz rahbarining fikriga ko‘ra, ba‘zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi va ulardan ustun qo‘yish holatlari kuchaymoqda. Diniy e‘tiqod niqobi ostida yoshlarni ma‘rifatga emas, jaholatga undayotgan kishilar paydo bo‘lmoqda deya ta‘kidlagani bejiz emas, albatta. Binobarin, missionerlik va prozelitizm xarakati xalqimiz va millatimiz ma‘naviyatiga, e‘tiqodiga nisbatan salbiy ta‘sir etuvchi tahdidlar sifatida namoyon bo‘layotganligini har bir vatandoshimiz teran anglashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Танимов Ш. Миссионерство и прозелитизм как новая форма идеологической интервенции. Демократизация и права человека. – 1/2022. – С.145.
2. Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий – маънавий хавфсизлик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б. 301.
3. Ричард Джон Нейхауз. Бизнес и Евангелие. – http://www.krotov.info/libr_min/n/neretina/neuh_02.html.
4. Ғойибназаров Ш. Ислом терроризмга қарши. Тошкент: «O‘zbekiston» нашриёти, 2021. – Б.139.

5. Хасанбоев. Ў. Ўзбекистонда даавлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. Тошкент ислом университети. – Тошкент, 2014. – Б. 110-111.

6. <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/missionerlar-va-ularning-maqsadlari>.

7. Тўхтаров И. Ахборот алмашинув жараёнларининг глобаллашуви шароитида диний-сиёсий барқарорликни таъминлашнинг айрим масалалари. «Глобаллашув жараёнида ахборот хавфсизлиги: информацион таҳдид ва мафкуравий иммунитет масалалари». Республика илмий – амалий анжумани материаллари. – Фарғона. 2013 йил февраль. – Б. 7.

8. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – 401 б.

9. Исманова А.Бузғунчи ғояларга қарши курашишда педагогик профилактиканинг илмий-амалий масалалари. Замонавий таълим / современное образование 2016, 12. – Б. 5.

10. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.

MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI O‘STIRISHDA TARG‘IBOTCHILAR VAZIFALARI

Ravshanbek Mahmudov,
Guliston davlat universiteti professori,

Ma’naviyat insonga suv va havodek zarur. Ma’naviyatsiz hayot, kelajak kemtik (Shavkat Mirziyoyev). Ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy targ‘ibot ishlari hech qachon eskirmagan, har doim dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ma’naviyatga e’tibor kuchaydi. Chunki mafkuraviy tahdid va axborot huruji *yanada kuchayganligi sir emas*. Yoshlar ongi va qalbini egallash yo‘lidagi kurash davom etayotgani barcha jabhalarda bo‘lgani kabi o‘quv yurtlarida ham, axolining turli qatlamlarida ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy targ‘ibot ishlarini yangi bosqichga ko‘tarishni davr taqozo etmoqda.

2006-yil 25 avgustda “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 451-sonli Qaror qabul qilingan. Bugungi aql-zakovatli, iqtidorli, iste’dodli yoshlarni yurtimiz koriga yaraydigan iymonli, diyonatli, bilimli insonlar qilib tarbiyalashda o‘z sohasining yetuk mutaxassisi qilib yetishtirishda ma’naviy-ma’rifiy sohada

olib borilayotgan ishlarni ulushi benixoyat katta.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4050 sonli 2021-yil 26 martdagi qarori, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28 yanvardagi farmonida ziyolilar, targ‘ibotchi- tashviqotchilar oldiga katta vazifalar ko‘yildi.

Prezident qarori yangidan tashkil etilgan ijodiy madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchilar oldiga Prezident qarorlarini, farmonlarini, ko‘rsatmalarini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida ilgari surilgan g‘oyalarni, maqsadlarni, vazifalarni keng xalq ommasiga, ayniqsa, maktab o‘qituvchilariga, o‘quvchilariga o‘rgatish, tushuntirish singdirish vazifasini qo‘ydi. Bundan tashqari maktabdagi ijtimoiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi hamkorlikda ijodiy muhitni vujudga keltirishi zarur bo‘ladi. Chunki ming, ikki ming o‘quvchisi bor maktabda bitta targ‘ibotchi hech bir ishga ulgura olmaydi. Ijodiy muhit jamoa bilan, sinf rahbarlari orqali ijodkor o‘quvchilar aniqlanadi, to‘garaklarga ular jalb qilinadi. Tashkiliy ishlar tugaganidan so‘nggina targ‘ibotchi o‘z vazifasini amalga oshirishi mumkin.

Targ‘ibotchi o‘tkaziladigan madaniy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish bilan birga “kitobxonlik kechalari”, mushoiralar, shoirlar yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish lozim. O‘qituvchilar, xodimlar, o‘quvchilar orasidan she’r, ertak, hikoya yozadigan, rasm chizadigan, qo‘shiq aytadigan, raqs tushadigan, rol o‘ynay oladigan, she’rlarni, dostonlarni chiroyli yoddan ayta biladiganlarni aniqlab, ularni guruhlarga bo‘lib, to‘garaklarga birlashtirish kerak. Shuningdek, ularning har bir ijod namunalarini ruhlantirish, motivatsiya berish maktab targ‘ibotchisining vazifasiga kiradi. Maktab targ‘ibotchisi o‘quvchilar orasidan iqtidorli, istedadli bolalarni aniqlab, ularga alohida e’tibor berib yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Talant, iqtidorlar xalq mulki hisoblanadi. Shuning uchun ham Prezident qaroriga muvofiq mamlakatimizdagi barcha maktablarda ijtimoiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchilar shtati joriy etildi.

Targ‘ibotchi aql zakovatli, bilimli, tashkilotchi, o‘z ishiga ishqiboz yaxshi ko‘radigan bo‘lsa, yaxshi faoliyat ko‘rsatadi. Targ‘ibotchi albatta yozuvchi shoir bo‘lishi shart emas. Adabiyotni sheriyatni, ijodni, bolalar psixologiyasini nima ekanligini tushunadigan insonlar ham targ‘ibotchi bo‘lishi mumkin. Targ‘ibotchi ona tili va adabiyot fanlari o‘qituvchilari, maktab jamoasi bilan kelishib, yaxshi muomila qilib faoliyat ko‘rsatsaijodkor o‘quvchilar ko‘payadi, ijod namunalari ommaviy axborot vositalarida namoyon bo‘ladi.

Targ‘ibotchi mas‘uliyati va tashviqot majburiyati nimalardan iborat? Ular Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirishda qanday usullardan foydalanadilar?

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni, topshiriqlarni, chora-tadbirlarni amalga oshirish har bir insonga katta mas‘uliyat va majburiyat yuklaydi. Bugungi kunda mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz farovonligini ta‘minlash uchun inson avvalo, bilimli, farosatli, o‘ta mehnatkash, fidoyi, mustaqil fikrli, mas‘uliyatni bo‘yniga ola biladigan ijodkor bo‘lishi talab etiladi. Inson hayotda mazmunli hayot kechirishi uchun ham yangiliklarni, innovatsiyalarni hayotga tadbiq eta oladigan ijodkor bo‘lishini bugun hayot taqozo qilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz maktabga, ta‘lim-tarbiyaga bag‘ishlangan videoselektorida “Najot - maktabda, najot – bilimda, najot tarbiyada” degan purhikmat fikrni ilgari surdilar.

Avvalo, har bir inson ijodkor bo‘lishi zarur.

Negaki, o‘z ishiga ijodiy yondashishni bilishi kerak. Ijod – nima? Ijod – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib – “yaratish, kashf etish ma‘nolarini bildirib-badiiy, ilmiy, amaliy asar yoki moddiy boyliklar yaratish, vujudga keltirish” ma‘nolarida keladi. “Ijod-mazmunan yaratuvchilik faoliyati bo‘lib, inson ma‘naviyatining amaldagi ko‘rinishini ifoda etadi.

Ijod-insondan xis-tuyg‘u, bilim va tafakkur orqali moddiy va ma‘naviy boyliklar yaratilishiga asos bo‘ladi.

Ijod – badiiy tafakkur, ilmiy tafakkur, ilmiy faoliyat bilan uzviy bog‘liq.

Ijod – umuman murakkab ruhiy jarayon. Ijod mahsuli esa, avlodlardan avlodlarga o‘tib, sayqallanib boradigan badiiy asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, maqollar, matallar, hikmatli so‘zu-iboralar, xattotlik, raqs, musiqa, kulolchilik, me‘morchilik, naqqoshlik, zardo‘zlik san‘ati kabi ijodiy ishlar mahsuli bo‘lishi mumkin

XI asrda yaratilgan Kaykovusning “Qobusnoma” kitobida targ‘ibotchi-tashviqotchilar oldidagi vazifalar belgilab berilgan: “Xosga xos so‘z, omiga omi so‘z deg‘il, toki u hikmatga muvofiq bo‘lsun va eshitg‘on kishiga og‘ir kelmasun, yo‘qsa so‘zingni dalil va hujjat bila ham eshitmag‘aylar. Undan so‘ng ularning rizo-siga qarab, so‘zlag‘il, to salomat bo‘lg‘aysan... har kishiga so‘z aytur bo‘lsang qarag‘il, ul sening so‘zningga xaridormu yoki xaridor emasmu. Agar uni so‘zingga xaridor topsang unga so‘zingni sotgil. Yo‘q ersa, ul so‘zni qo‘yib, shundoq so‘z deg‘ilkim, unga xush kelsin va sening so‘zingga xaridor bo‘lsun. Lekin inson bila inson bo‘lg‘il, odamiy bila odam bo‘lg‘il, nedinkim, inson boshqa odamiy boshqadur”. Falsafiy nuqtai-nazarga ko‘ra “odam” biosotsiologik mavjudot.

Targ‘ibotchi, tashviqotchilarning o‘zlari ham el-yurt o‘rtasida obro‘-e‘tibor qozongan, yuksak saviyasi, ko‘pni ko‘rgan, jonkuyar, otashin, odamlarning yuragiga haqqoniy so‘zi, yorqin fikrlari bilan yo‘l topadigan halol insonlar bo‘lmog‘i kerak. Targ‘ibotchi “Avesto”dagi “Ezgu niyat, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyiliga mos shaxs bo‘lmog‘i lozim.

Targ‘ibot-tashviqot ham ta‘lim-tarbiyaning bir ko‘rinishidir. Targ‘ibotchi birinchi galda voiz bo‘lishi shart. Targ‘ibotchi har bir aytayotgan gapini, fikrini o‘ylab, yetti o‘lchab keyin ifodalashi zarur. Targ‘ibotchining har bir so‘zi, gapi tinglovchilar uchun muhim ahamiyat kasb etishi, mas‘uliyati va majburiyati bo‘lishi kerak.

Targ‘ibotchi og‘zidan chiqayotgan har bir so‘ziga katta mas‘uliyat bilan yondashishi lozim. Negaki, so‘z otilgan o‘q kabidir. So‘z insonni mamnun qiladi, so‘z insonni mahzum qiladi, har bir so‘zni joni, tili bor. Targ‘ibotchi tiliga ehtiyot bo‘lish zarur.

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni amalga oshirishda qanday vazifalar amalga oshiriladi: Birinchidan, jamoani birlashtirishi, ijtimoiy muhitni yaxshilashi; Ikkinchidan, fuqarolarni odob-ahloqini yaxshilanishiga, salomlashishga, kiyinish madaniyatiga o‘rgatishi lozim. Uchinchidan, yoshlarni qiziqadigan ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha fan to‘garaklari faoliyatini yaxshi ishlashini ta‘minlashi; To‘rtinchidan, qanday saviyada bo‘lishidan qat‘iy nazar, so‘zlarni qalashtirib qofiyalashga harakat qiladigan o‘quvchilarni targ‘ibotchi rag‘batlantirishi, maqtashi, ruhini ko‘tarishi, motivatsiya berishi, ijod olamiga olib kirishi lozim. Beshinchidan, endigina qayerlardandir ko‘chirib kelgan yoki o‘zlashtirgan yoki o‘g‘irlagan so‘z tizmalarini “zo‘r she‘r bo‘libdi” deb yolg‘ondan maqtamaslik kerak. Yasama “zulfiyachilar” yaratmaslik lozim. Ijod ilohiyne‘matekanligini, she‘r, hikoya, ertak to‘qish uchun avvalo, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Fuzuliy, Rumi, Bedil, Oybek, Mirtemir, Abdulla Qahhor, Erkin Vohidov, O‘tkir Hoshimov, Abdulla Oripov, Rauf Parpi, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo, To‘ra Sulaymon, Halima Xudoyberdiyeva, Mahmud Toir, Alisher Nur kabi ijodkorlarning asarlarini o‘qigan, uqqan, yodlagan bo‘lishlari lozimligini tushuntirish kerak bo‘ladi. So‘z aytish, odamlarga ma‘qul qilish ilohiy nemat ekanligini tushuntirish zarur bo‘ladi.

Targ‘ibotchi, ustoz ijodkorlar tarjimai holi, asarlari, ijod laboratoriyasi, asar yozish jarayonlari haqida eng yaxshi qiziqarli ma‘lumotlarni o‘quvchilarni o‘qishiga o‘rgatish kerak. Shuningdek, ijodkorlarning asarlarida ilgari surilgan asosiy g‘oyalarni tahlil qilgan tanqidchilar Ozod Sharafiddinov, Abdug‘ofir Rasulov, Hamidulla Boltaboyev, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Bahodir Karim kabi adabiyotshunos olimlarning tanqidchilikka oid asarlarini ham o‘quvchilarni o‘qishlariga tavsiya etish kerak.

Xulosa qilib aytganda, Uchinchi Renessans bunyodkorlarini tarbiyalashda

zamonaviy targ‘ibot texnologiyalarini qo‘llash orqali ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yanada yaxshilash, yetuk, barkamol, zamon talabiga javob beradigan mutaxassislar qilib tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biridir. Shu jihatdan olganda, O‘zbekistonda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy-ma‘naviy muhitni yaxshilashda targ‘ibotchilarning roli kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: 2021.
2. Mirziyoyev. Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. “Tasvir” nashriyot uyi. – T.: 2021.
3. Ma‘naviyat, asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. G‘.G‘ulom nomidagi nasho‘riyot-matbaa ijodiy uyi. – T.: 2016.
4. Muhammad Quronov. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. – T.: 2021.
5. Ravshanbek Mahmudov. Ijodiy targ‘ibotchi mas‘uliyati va tashviqot majburiyati. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”. 2022

ILM-FAN, TA‘LIM VA TARBIYA - MA‘NAVIYATNING USTUVOR MASALASIDIR

Usmonjon Bo‘tayev

*O‘zbekiston Milliy universiteti Siyosatshunoslik kafedrasini
mudiri, siyosiy fanlar doktori, dotsent*

2023-yil 22 dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda ma‘naviyat va madaniyat faollari, adabiyot va san‘at namoyandalari, shuningdek, Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi vakillari, vazirlar va hokimlar ishtirok etdi. Ma‘lumki, respublikamizda ushbu Kengash raisi Prezident, hududlarda esa birinchi rahbarlar hisoblanadi. Chunki ilm-fan, ta‘lim va tarbiya, ma‘naviyat ustuvor masaladir.

Mazkur yig‘ilishda sohalar oldidagi ustuvor vazifalar muhokama qilib, 9 ta yo‘nalishda o‘z fikrlarini bildirib, muhim tashabbuslarni ilgari surdi. To‘qqiz yo‘nalishda bildirilgan takliflar jamiyatimizni ma‘naviy qiyofasini tubdan o‘zgartirishga xizmat qiladigan konseptual asoslar hisoblanadi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishlar qatorida asosiy ustuvor konsepsiya sifatida avvalo, ma‘naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturiy hujjat

ishlab chiqish lozimligi ta'kidlandi. Bu bugungi tahlikali davr uchun o'ta muhim vazifa hisoblanadi. Milliy g'oyamizni rivojlantirishga doir nazariy asoslarni ishlab chiqilishi, mamlakatimiz suverenitetini asrash, xalqimizni pirovard maqsadlar yo'lida safarbar qilish, uni uyushtirish va jipslashtirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu yo'nalish bo'yicha o'tgan davr mobaynida muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi, "milliy g'oya" turkumidagi o'quv fanlari shakllandi, darsliklar, o'quv qo'llanmalar hamda bu yo'nalishdagi maxsus institutsional tuzilmalar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Davlatimiz rahbarining mazkur nutqidagi ustuvor yo'nalishlar borasida bildirgan fikr-mulohazalarining zamiridagi ilmiy yechim ta'lim-tarbiya jarayonlariga bog'liq ekanligi namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jaryonida milliy g'oyani ta'sirchanligiga oliy ta'lim sohasida to'siq bo'layotgan muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, "milliy g'oya" turkumidagi ijtimoiy fanlarning oliy ta'lim tizimida-yildan-yilga o'quv rejasidan chiqarib tashlanishi, davlat siyosatini targ'ib qiluvchi fanlarga ajratilgan soatlarning keskin qisqartirilishi tizimda dunyoqarashi keng, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan har tamonlama yetuk yoshlarning kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Natijada mamlakatimizda mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash dolzarblashib borishiga sabab bo'lmoqda. Insonda qadriyatlarni shakllanishi asosan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq. Bugun jamiyatimizda-yillar mobaynida shakllanib kelingan milliy qadriyatlar tizimi ta'lim tizimida davlat siyosatini targ'ib qiluvchi gumanitar fanlarni o'qitishda bo'lgan munosabat natijasida, o'zgarishlarga uchramoqda. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida qit'iyatlilik, fidoiylik, vatanparvarlik tuyg'ulari kamayib ketishi natijasida "kosmopolitizm" tuyg'usini rivojlanib borishiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot davomida **O'zbekiston Respublikasi OTMlarda 2001-2021-yillar (20-yil mobaynida) oralig'ida amalda bo'lgan o'quv rejasidagi** gumanitar va ijtimoiy - iqtisodiy fanlar bloki tahlil etildi. Ushbu tahlil quyidagilarni aks ettirdi:

2001-yildan 2011-yilga qadar barcha ta'lim yo'nalishlarida 15 ta **15 ta** fan davlatimizni siyosatini targ'ib etuvchi fanlar o'qitilgan bo'lib ularni umumiy soati **1836 soatni** tashkil etgan. **2011-yildan 2017-yillarda** barcha ta'lim yo'nalishlarida **13 ta** fan bo'yicha davlatimizni siyosatini targ'ib etuvchi fanlar o'qitilgan bo'lib ularni umumiy soati **1704 soatni** tashkil etgan. 2017-2018-yillardan boshlab OTM larda o'quv rejalarini xorij tajribalarini inobatga olgan holda qayta ishlab chiqish jarayoni boshlandi. Unda, yangi ishlab chiqilgan o'quv rejalarida ijtimoiy-gumanitar va iqtisodiy

fanlar hisobiga, mutaxassislik fanlariga alohida e'tibor berilish boshlandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejasidagi fanlarning soni, 2018-2019 o'quv-yiliga qadar **46-50 tani** tashkil etgan bo'lsa, shu-yildan boshlab, o'quv rejalaridagi fanlar soni tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan **36-40 tagacha** kamaytirilib, optimallashtirilgan. O'quv rejada o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari **24 haftadan 30 haftagacha** ko'paytirilgan.

2020/2021 o'quv-yilidan boshlab OTMLar kredit modul - tizimiga o'tishi munosabati bilan amaldagi o'quv rejalar qayta ishlab chiqildi va o'rnatilgan tartibda tasdiqlandi. Yangi o'quv rejalarida ijtimoiy fanlar sifatida **O'zbekistonning eng yangi tarixi va Falsafa, Dinshunoslik fanlari mavjud**. Fikrimizcha global jarayonlarni tahlil qilish, ularga nisbatan yoshlarga immunitetni shakllantirishda bu 3 ta fanni o'zi yetarli hisoblandi. Kechagi yig'ilishda davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Ba'zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi qo'yish, dunyoviy qadriyatlarni harom deb bilish holatlari afsus bilan qayd etishi" aynan, bugun kun jamiyatimizda bu dolzarb muammo ekanligini ko'rsatadi.

2020/2021 o'quv-yilidan boshlab amalga kirgan o'quv rejalarida barcha ta'lim yo'nalishlarida **7 ta** fan ijtimoiy fanlar bo'lsada (ularni umumiy soati 930 soatni tashkil etgan, bu fanlar O'zbekiston yangi taraqqiyotida yoshlar ongida milliy g'oyani rivojlantirishga yetarli emas degan xulosani beradi. Qolaversa, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini hamda bu boradigi fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning pasayishiga olib keladi. Natijada, oliy ta'lim tizimida barcha ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalariga ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish holati **2001-yilga nisbatan 50%ga kamayganligini** ko'rsatmoqda.

Bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak, – dedi Prezident. Shunday ekan, bugun g'oyaviy-tarbiyaviy masalalarni hal qilish bo'yicha, milliy manfaatlarimizni targ'ib qiluvchi ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimini yanada takomillashtirish, mafkuraviy xavfsizlik tizimini mustahkamlash bo'yicha maxsus tizimni yaratish va uning faoliyati yo'lga qo'yilishi lozim.

Xorijiy tajriba

Dunyoning eng rivojlangan demokratik mamlakatlari tajribasiga nazar solinsa, mazkur mamlakatlarda yosh avlodning g'oyaviy tarbiyasiga ham ma'naviy, ham moliyaviy jihatdan kuchli e'tibor qaratilayotganligiga guvoh bo'lish mumkin. XX-asar oxiri XXI-asar boshida AQShning jahon siyosatida «pan amerika» g'oyasini kuchayishiga: siyosatshunoslik hamda sotsiologiya

fanlarining roli va ahamiyati kuchli bo‘lgan.

La Sapiyensa nomidagi Rim universiteti (Italiyada – 1, QS reytingida – 182 o‘rinda, Akademik reputatsiya bo‘yicha – 83 o‘rinda) turadi. Ushbu universitet o‘quv rejasida Italiya davlat siyosatini targ‘ib qiluvchi *tarix, iqtisod, falsafa va siyosatshunoslik* fanlari birinchi blok fanlari sifatida barcha yo‘nalishlarga kiritilgan.

Belorusiya davlat universiteti o‘quv rejasida *siyosatshunoslik, tarix, falsafa, sotsiologiya, iqtisodiyot nazariyasi* fanlari birinchi blok fanlari sifatida barcha yo‘nalishlarga kiritilgan.

Sank-Peturburg davlat universiteti o‘quv rejasida *Rossiya tarixi, korporativ etika, sohada raqamlashtirishni joriy etish va intellektual faoliyat, muloqot qilish madaniyati, biznes asoslari, pedagogik faoliyat asoslari hamda kasbiy kompetentlik tahlili* fanlari birinchi blok fanlari sifatida barcha yo‘nalishlarga kiritilgan.

Taklif va tavsiyalar

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, yangilanishlar natijasida jamiyatimiz hayoti, odamlarning ongu tafakkuri o‘zgarib bormoqda. Oliy ta‘lim tizimida gumanitar fanlar 1-2 kurslarga o‘tilishi hamda oradagi uzilishi natijasida 4-kurs bitiruvchi talabasi ongida mafkuraviy bo‘shliq yuzaga kelmoqda. Ana shu jarayonda yoshlar ongida kuchli milliy g‘oya hamda Vatanga bo‘lgan sodiqlikka ehtiyoj sezmoqda. Milliy g‘oya sog‘lom fikrlaydigan har bir shaxs va fuqaroda milliy g‘urur-iftixor, or-nomusni uyg‘otadigan, o‘zlikni anglatadigan, xalqning maqsadi va orzu umidlariga kuch-qudrat, g‘ayrat baxsh etadigan, millatni harakatga keltiradigan qudratli omildir.

Aynan shuning uchun ham har bir o‘zbekistonlikning, demak, har birimizning taqdirimiz shu davlat va jamiyat rivojiga bog‘liq ekanini chuqur anglatish, bu tuyg‘uni ularda amaliy harakatga, hayot tarziga aylantirish milliy g‘oyaning eng muhim xususiyatidir.

Taklif va tavsiyalar

Mamlakatimizni taraqqiy ettirish bo‘yicha qabul qilingan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish hamda yoshlar ongida Vatanparvarlikni mustahkamlash bo‘yicha quyidagi fundamental masalalar taklif etiladi:

1. Ijtimoiy-gumanitar fanlar va ularning mutaxassilariga nisbatan (davlat boshqaruvi organlari hamda ta‘limning boshqaruv tizimida) ijobiy munosabatni

shakllantirish, qadr-qimmatini oshirish hamda ular tomonidan yaratilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari (fundamental, amaliy va innovatsion grantlar va b.) qo‘llab-quvvatlash lozim.

2. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi negizda ijtimoiy-gumanitar fanlar falsafa, sotsiologiya va siyosatshunoslik yo‘nalishlarida ilmiy-tadqiqot olib boruvchi maxsus markaz tashkil etish va uning faoliyatini davlat budjeti tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

3. OTMlarni bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarini o‘quv rejasiga **“Davlat boshqaruvi asoslari (g‘oyaviy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy)”** fanini kiritish va 3-4 kurslarda o‘qitishni yo‘lga qo‘yish.

4. Barcha ta‘lim yo‘nalishlariga **“Konstitutsiya”** fanini bilish darajasi bo‘yicha Davlat attestatsiyasini joriy etish.

5. OTMlarning barcha magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun **“O‘zbekistonning davlat siyosati”** fanini kiritish.

SHARQDA UYG‘ONISH ILDIZLARIGA QAYTIB...

Baxtiyor Omonov,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori,
siyosiy fanlar doktori.

Annotatsiya: ushbu maqolada Sharqda Uyg‘onishning paydo bo‘lishi va inqirozi sabablari, jamiyatda e‘tiqodni tarbiyalashning orqaga chekinganligi, Nafs va Aldov texnologiyalari kuchayganligi, milliy yuksalishni tashqi kuchlar va sun‘iy texnologiyalardan emas, Uchinchi Uyg‘onish davrining bosh ijodkori bo‘lgan Insondan boshlash zarurligi masalalari tahlil etiladi va ilmiy xulosalar chiqariladi.

1. Sharqda Uyg‘onishning paydo bo‘lishi va inqirozi

Bugungi kun matbuotida Renessans haqida ko‘p yozilmoqda. Renessans” so‘zi lug‘aviy fransuzcha renaissance – “qayta yuzaga kelmoq”, “yangidan tug‘ilmoq” ma‘nolarini anglatadi. Uyg‘onishning asosiy alomatlari: tafakkurda va ilmu ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o‘tib, insonni ulug‘lash, uning iste‘dodi, aqliy, fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdir. Osiyo markazida joylashgan Movarounnaxr, Xuroson va Eronda Renessansni keng tarqatgan Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9–12-asr) ulkan madaniy ko‘tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot rivojlangan. Bu davr dunyo ilm-fanida “Islomiy Uyg‘onish” (A. Mets) yoki “Sharq Uyg‘onishi” (N.I.Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda.

Bizning nazarimizda, Markaziy Osiyoda muqaddas **Qur'oni Karim kitobining to'liq, mo'jizakor sirru sinoatlarini anglashdan boshlangan fikriy uyg'onish** Islom tamadduni nomi bilan rivojlanib, XVI asrgacha jahon ilm-fani va g'oyalari markaziga aylandi, desak to'g'ri bo'ladi. Islom bilan yaqindan oziqlangan Osiyo jamiyatlari o'zlari ilgaridan ega bo'lgan boy madaniy boyliklarni islomiy g'oyalar bilan uyg'unlashtirgan holda o'zgacha bir yuksak madaniyatni yaratdilar. Xususan, diniy e'tiqod, yashash tarzi va qadriyatlari baland bo'lgan Movarounnahr xalqlari IX-XII asrlarda birinchi uyg'onish davrini boshlab berdilar. "Ilm" so'zi Qur'oni karimning 850 joyida turli ko'rinishlarda kelgan, demakki, ilmiy ko'tarilishning ildizida islom dini turardi. Shu bois, islomni qabul qilgan jamiyatlar avvalo, o'qish-o'rganish va ta'limga katta ahamiyat berish baravarida, ta'lim-tarbiya tuzilmalarini shakllantirishga ham dadil kirishgan edilar.

1004-yildan boshlab Gurganjda «Dorul hikma va maorif» («Majlisi ulamo») nomini olgan ilmiy muassasa to'la shakllandi. Bu ilmiy muassasada xuddi Afinadagi «Platon», Bag'doddagi «Bayt ul-hikmat» akademiyasi faoliyatiga o'xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko'p manbalar to'plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan; hind, yunon, arab olimlarining ishlari o'rganilgan. Ma'rifatparvar al-Ma'mun tashabbusi va faol harakati bilan Renesansning asosi bo'lgan Ma'mun akademiyasi **atigi o'n uch-yil (1004-1017) faoliyat ko'rsatgan** bo'lsa-da, u XI asrda Markaziy Osiyo Uyg'onish markaziga aylanishini ta'minlab berdi. Shunday qilib, Movarounnahr mintaqasida dunyo tan olgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o'nlab buyuk allomalarimiz o'zlarining ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bilan umumjahon taraqqiyoti va ilm-fan rivojiga beqiyos hissalarini qo'shdilar. XIII asr boshidagi mo'g'ul istilosi tufayli ilmiy jarayon bir muddat to'xtab qoldi, ammo bu uzoqqa cho'zilmadi. XIV asrning ikkinchi yarmida sohibqiron Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi bilan mintaqada yuksalish qaytadan boshlandi va Temuriylar davlatining qaror topishi bilan o'lka yangidan madaniyat, ilm-fan, san'at va adabiyot markaziga aylandi.

Ilmning avloddan avlodga yetkazilishi sababli, ummat o'zini adashishdan saqladi, milliy qadriyat va muqaddas qadamjolarini dushman bosqinidan himoya qilishga bel bog'lab kelgan. Yevropa mamlakatlari o'rta asr johiliyat botqog'ida botib yotgan vaqtida musulmon madrasalari tabiiy fanlarni o'rganish markazi bo'lgan. Uyg'onish davrida kuchli diniy bilimlar huquqshunoslikka, kalomdan falsafaga, adabiyotdan psixologiyaga, matematikadan astronomiyagacha bo'lgan sohalarda buyuk asarlarni vujudga keltirishga zamin hozirlagan. Bu **bilimlarning paydo bo'lishiga**

ko‘maklashgan tashkiliy tuzilma madrasalar bo‘lib, ular o‘rta asrdagi islomiy madaniyat va ilm-fanning haqiqiy markazi, poydevori vazifasini o‘tagan. Madrasalar uzoq vaqtgacha islomiy ilmlar bilan birga, tibbiyot, astronomiya, jamiyatshunoslik va iqtisodiyotni o‘rganish markazi mavqeini saqlab kelgan. Samarqand davlat universiteti rektori, professor Rustam Xolmurodov 2020-yil fevral oyida O‘zA saytida e‘lon qilingan «Samarqand universiteti qachon tashkil topgan?» maqolasida Turkiston hududidagi madrasalarning islom dunyosi va dunyo tamadduni taraqqiyotiga qo‘shgan hissasiga to‘xtalib, Samarqand dorilfununi Mirzo Ulug‘bek madrasasining bevosita davomi ekani haqidagi fikrlarini ilgari surdi. Haqiqatan ham, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qo‘qon kabi shaharlaridagi madrasalar tizimi dunyoviy va diniy bilimlar, tibbiyot, astronomiya, aniq fanlar hamda huquq-falsafa yo‘nalishlaridagi ta‘limda tengi yo‘q muassasaga aylangani haqiqat edi.

Mirzo Ulug‘bekning Samarqand madrasasi nafaqat ilm-fan markazi, balki o‘sha davr ulamolari uchun o‘ziga xos akademiya bo‘lgan, deyish mumkin. Bu qutlug‘ dargohda Turonu Erondan 200 dan ziyod olim faoliyat olib borgan. Samarqand madrasasi 1420-yilda qurib bitkazilgan. Ikki qavatli, burchaklaridagi to‘rtta darsxona ustida to‘rtta gumbaz va to‘rtta minora bo‘lgan. Madrasaning birinchi qavatida 25 ta, ikkinchi qavatida 25 ta hujra bo‘lib, har birida 2 nafardan talaba yashagan. Madrasa Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumi, Jamshid Koshiy va Ali Qushchi kabi yetuk olimlar rahnamoligida madaniyat, ilm-fan sohasida ikkinchi Uyg‘onish davriga shohid bo‘lgan. Ulug‘bekning 1447-yilda vahshiylarcha qatl etilishidan so‘ng, Samarqand madrasalaridagi olimlar asta-sekin boshqa mintaqalarga tarqalib ketdilar. Shundan keyin ham yuz-yillar davomida madrasalar Turkislom ilmining rivoji yo‘lidagi xizmatini davom ettirdi.

Musulmonlar sivilizatsiyasi gullab-yashnagan davrlarda tolibi ilm, eng avvalo, Qur‘oni karimni o‘rganar, ya‘ni u o‘n yosh atrofida birdaniga ikkita ilmni o‘zlashtirar edi. Nozil bo‘lgan kunidan boshlab Oxirat kunigacha bu oxirgi **Muqaddas kitob insoniyat uchun yagona yo‘riqnomaga bo‘lib qoladi.** Allohning kitobida “Holbuki, u (Qur‘on barcha) olamlar uchun eslatmadir” (“Qalam” surasi, 52- oyat), deb xabar qilinadi. Yana muhim bir gap: inson miyasi o‘z tabiatiga ko‘ra, moyillik xarakteriga ega va uning bir qismidagi yaxshi aloqalar atrofda gillarning vazifalariga bilvosita ta‘sir etadi. Yoshligidan Qur‘oni karimni o‘rgangan bola ko‘rish qobiliyatiga aloqasi bo‘ladi, til, mehnat xotirasi, yodda saqlash, eshitganlarini tahlil qilish, diqqatli bo‘lish, qobiliyatlarni o‘zlashtirish, rejalashtirish kabi vazifalarni miyasida mashq qildiradi. Bunday odam boshqa fanlarni o‘rganishga kirishsa, nima bo‘lishini endi tasavvur qilavering! Masalan, imom Muhammad G‘azzoliy (1058-1112)

yunon falsafasini ikki-yil ichida, ilm olishdan bo'sh vaqtlarida o'rgangan. Musulmonlarning ilm-fanga qo'shgan ulkan ulushi siri ta'lim tizimida eng muhim element bo'lgan Qur'oni karim tufayli, degan xulosaga kelmoqda tahlilchi olimlar. Ushbu kuchli tizim o'zgarganida esa, ular yetakchilikni boshqalarga boy berib qo'yishdi. XVIII asrning oxiri, XIX asr boshlarida, afsuski, madrasalardagi ta'lim sifati tushib keta boshladi, din va ilm-fanni shaxsiy manfaati yo'lida foydalanishni istagan kishilar ta'sirida diniy hukmlarni hamda dunyoviy ilmlarni xato tushunuvchi va tushuntiruvchi, bilim va san'atga e'tibor bermaydigan avlod paydo bo'ldi.

Qalbni anglash – yuksalish sari qo'yilgan qadam

Bizga ma'lumki, XVII asrdan G'arb istilochilari dunyoni, jumladan, Sharq mamlakatlarini birma-bir bo'ysundirgach, birinchi navbatda *Qur'onning nufuzi, maqomi pasaytirildi*. Ruhiyat ilmi, qalb fikrlari, komillik, donolik, to'g'rilik sari intilish ikkinchi darajaga tushib, Nafs texnologiyalari birinchi o'ringa chiqarildi. "Sening biring ikki bo'lmaydi, ma'naviy boy bo'lish kimga kerak: bolalaring ertaga och qoladi. Sen moddiy boy bo'lgin, qalb tarbiyasini yig'ishtir, moddiyunchilikka intil, yagona yo'l shudir", degan g'arbona g'oyani singdirish jarayoni kuchaygandan kuchaydi. Qur'ondan asta-sekin chekinish boshlandi, chunki odamlar ochko'zligi tufayli ozgina boy bo'la boshlagan edi. G'arb g'oyalari va texnologiyalari baribir kuchli chiqdi! Sharq olami qalb va nafsning o'zaro kurashida boshi yerga tegdi va yutqazdi. Shunda Sharqning ma'naviy tanazzuli chuqurlasha boshladi.

Qur'on qalbni tarbiyalaydi, insonni kuchli, ilmli, iymonli bo'lishga asta-sekin hozirlaydi. Qalb eng kuchli shunday qurilmaki, unga butun dunyoni sig'dirish mumkin. Dunyo bunday rivojlanish cho'qqisiga qay yo'l bilan erishdi va qanday muammolar orasida tentirab yuribdi – buni faqat yurak sezadi, his qiladi va ohangini topib, o'zi hal qilish chorasini topadi. Ha, faqat o'zi, boshqa hech kim emas. Axir, jamiyat ham, davlat ham shaxslarning umumlashmasi emasmi va unga suyanib ish ko'rmaydimi? Biz ta'limda ham, jamiyat hayotida ham, davlatni boshqarishda ham ishni qalbgga yo'l topa bilmaganimiz, inson mo'jizakor kuch va imkoniyatga ega ekanini mensimasligimiz, nohaqlikka ko'p yo'l qo'yganimiz sababli, yana gunohlarimiz oshgani hisobiga jamiyatda olg'a siljish ro'y bermayotir.

Shaxs va davlatni o'limga yetaklovchi Nafs texnologiyasi ulkan kuchga qodir! Nafs domiga tushgandan keyin, kishi hech narsadan tap tortmaydi, harom-xarishdan hazar etmay, boshqalar hisobiga bo'lsa ham yaxshi yashashni o'ylaydi. Oqibatda u zolim, berahm riyokor bo'lib qoladi, – deb yozgan edi ustozim, taniqli olim Najmiddin Komilov "Tasavvuf" (1999) nomli kitobida. – Shuning uchun

tasavvuf talab etgan tiyilish, qanoat, sabru faqirlik tariqida gap ko‘p. “Dunyoga bir marta kelasan, oladiganingni olib qol”, – ilgaridan ma’lum falsafa bu. Kommunistlar buni: “Men insonman, demak menga hamma narsa ravo” deb o‘zgartiradilar, ammo maqsad o‘sha: ilojini topgin-da, yaxshi yasha, boshqalar bilan ishing bo‘lmasin. “Hamma narsa ravo” falsafasi odamni iymonu e’tiqoddan ayirib, yulg‘ichlik va talon-tarojga fatvo beradi, vahshiylik instinktini kuchaytiradi”. Endilikda, mustaqil davlat qurgandan keyin sun’iy yaratilgan qoliplarni sindirib tashlash, tasavvufga oid asarlarining qaymog‘ini, durlarini yig‘ib, maktab, institutlarning gumanitar fanlar predmetlariga bosqichma-bosqich kiritish, “Tasavvuf falsafasi”ni fan sifatida kiritish uchinchi Uyg‘onish asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Aqliy mehnatga o‘rgatish - rivojlanishning bosh maqsadi

“To‘rt muchang soz, aqling butun bo‘lsa gar, hargiz iltimosga kuning qolmasin”, deydi buyuk shoirimiz Abdulla Oripov. Qadimdan xalqimiz o‘ta mehnatkash, irodali bo‘lgan, mehnat qilish shaxs shakllanishi asosiy omili deyilgan. Hayot sinovidan o‘tgan mazkur tamoyilni muomaladan chiqargan davlatlar iqtisodiyoti va jamiyat hayotida ko‘p narsani yo‘qotishdi. Ammo keyingi-yillarda jamiyatda mehnat qilmasdan niyatga yetish, obro‘ olish, osongina mablag‘ topish illatlari vujudga kelishini kuzatmoqdamiz.

Yoshlarni aqliy mehnatga o‘rgatish, shu yo‘l orqali kamolga yetish tamoyili ustuvor bo‘lishi tarafdorimiz. Afsus, sho‘rolar hokimiyati aqlli va o‘rtacha odamning nufuzini tenglashtirdi, boy odamni qo‘llash, imkonidan foydalanishni emas, balki uni jisman yo‘q qilishni xohladi. Jamiyatda 70-90-yillarda yon atrofimizda qo‘rqoq, tobe olomon shakllandi, hattoki ular davlatning qilg‘iliklaridan ko‘zini yumdi. Aqlli odamlar hokimiyatga yaqinlashtirilmadi. Natijada inson huquqlari bilan bog‘liq muammolar qalashib ketaverdi.

Davlat hokimiyatining asosiy maqsadi o‘z fuqarolarining mehnat qilishi, hayotini o‘nglab olishi uchun yetarli shart-sharoitni ta‘minlab berishdan iborat. Aks holda, xalq boshqa yengil-elpi, qing‘ir, yolg‘onchilik ko‘chasini tanlaydi, hatto harom luqma bilan farzandlarini boqish (davlatdan najot qolmasa, boshqa iloji qolmaydi,) yo‘liga rozi bo‘ladi. Eng yomoni, kelgusi zurriyodlari bo‘lgan bolalari shu luqma qayerdan kelayotganini ko‘ra bila turib yashashga majburdir. Islom ta‘limoti qoidasi bo‘yicha bu zalolat, jaholatga teng hodisa.

Tahlillarimizga ko‘ra, XVI asrlardan boshlab, Sharq noto‘g‘ri yashash va ishlash yo‘lini tanladi. Bu nomaqbul yo‘l Islom olamini adashtirdi. Qaysi vosita bo‘lishidan qat’i nazar, pulingni ko‘paytir, odamlarning ichiga nifoq

sol, foyda kelishini bilsang, yolgʻon soʻzla, lafzingni buz, deb oʻrgatdi ayrim gʻarb taʻlimotlari. Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq xalqlari oson aldandi, ammo Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlar Nafs texnologiyasini qabul qilmadi. Masalan, Kunchiqar yurt “Yapon ruhiyati va gʻarb texnologiyasi” nomli “vakon yosay” gʻoyasini qoʻlladi. Sobiq samuray va hukumat amaldori S. Sudzuki (1579–1655)ning dzen-buddaviylikka asoslangan etikasida “Mehnat –sabr-toqat, qanoatga teng, mohiyatiga koʻra, xudojoʻylik darajasida, mehnat qilish – haqiqiy iymon-eʼtiqodning yoʻli boʻlishi kerak”, degan gʻoyani olgʻa surishdi. Bu taʻlimot Bahouddin Naqshbandiyning doimo mehnat bilan band boʻlish, M. Veberning protestantcha etika gʻoyalariga oʻxshaydi. Asosiy farq shuki, Veber va Sudzuki taʻlimoti Yevropa va Yaponiya ijtimoiy hayotini yaxshilab, yuqori pogʻonaga koʻtardi, oʻlkamizda Naqshbandiy taʻlimoti esa bir chetga surib qoʻyildi?! Sayyid Muhammad Bahouddin ibn Sayyid Jaloliddin Naqshband (1318-1389) taʻlimoti oʻzining ixcham ifodasini “Dil ba yoru dast ba kor” hikmatida anglatgan. Yaʼni “Diling Allohda, qoʻling ishda boʻlsin”. Bunday oltin qoida dunyoda bironta millatda yoʻq. Oʻsha paytlar taʻlimot soddaligi va qulay qabul qilinganligi tufayli butun mintaqadagi 30 ga yaqin Sharq mamlakatlariga tarqaldi. Mavlono Yahub Charxiyning “Risoi unsiya», Abul Muhsin Muhammad Boqirning «Mahomoti Xoja Bahouddin Nahshband», Faxruddin Ali Safiyning «Rashahotu ayni-l-hayot» kabi risolalarida Xoja Bahouddinning hayoti, tariqati, taʻlimoti, taʼsiri va suluki haqida maʼlumotlar keltirilgan. Yor inoyatining koʻmagisiz Maqsadga yetib boʻlmaydi, deb hisoblaydi Xoja Bahouddin va tasavvufiy tolibi ilmlarni shu yoʻlning qiyinchiliklariga qadamba-qadam hozirlaydi. Aytar edilar: «*Amti-l-aza ani-t-tariqi*» («*Aziyat beradigan narsalarni yoʻldan yoʻqoting*») *dan murod shuki, nafsingizni Haq yoʻlida yoʻqoting.*

Sobiq ittifoq davrida odamlarda davlat hamma tashvishlarimni amallab qilib beradi, degan boqimandachilik kayfiyati va ruhiyat psixologiyasi paydo boʻlgandi. Boqimandachilik psixologiyasi ajdodlar va bizning genlarimiz, qolaversa, boshqaruv madaniyatida, jamiyat hayotida hanuz yoʻqolmagan. Yangi Uygʻonishga tayyorgarlik jarayonlarida (u 5, 10, 20-yilga choʻzilishi mumkin) oʻzgaras dasturlarni tuzish chogʻida Naqshbandiyning oltin qoidalari asosida mukammal taʻlimotni zamon bilan uygʻunlashtirib, Mehnatga oʻrgatish zamonaviy usul va mexanizmlarini ishlab chiqishga zaruriyat kuchayib bormoqda, deb hisoblaymiz. Nega? *Jamiyatimizda koʻpincha boqimandalik kayfiyati gʻolib kelmoqda. Inson oʻzini toʻla namoyon etishiga, mehnat insonni ulugʻlashi va boy-badavlat qilishi tamoyillarini singdirishda muammolarga duch kelmoqdamiz.* Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, maʼnaviy sohalarida, taʻlim tizimida yoshlarning mehnatga munosabati salbiy tomonga oʻzgarib, yengil yoʻllar bilan pul topishga intilish

vujudga kelmoqda. Yuqoridagi ilg'or g'oyani, ajoyib fikrni nega ilgari surmoqdamiz? Sababi shuki, u chetdan ta'lim texnologiyalari, usullarini, odam resurslarini talab qilmaydi, hukumat va davlatdan ortiqcha mablag' so'ralmaydi. **Muammoning yechimi Insonning o'ziga borib taqaladi va u bilan birgalikda yechimini topadi! Davlat va Shaxs o'rtasida konsensus, ahdlashuvga erishilsa, og'ir tosh joyidan asta qo'zg'aladi.** Buning uchun davlat hokimiyati fuqaroga ish joyini tayin etadi va unga yetarli shart-sharoit yaratadi, fuqaro esa halol mehnat qiladi, moddiy va nomoddiy mahsulot chiqarib, korxonasiga foyda keltiradi. Boshida korxonalar iqtisodiy qiynalsa, Xitoyda 1980-1985-yillarda kechgan **Den Syaopin** islohotlariga o'xshab, davlatimiz qishloq va shahardagi korxonalar qaramog'ida 20 foiz mahsulotni qoldiradi, ma'lum vaqt o'tib, ularni qimmat bozor narxida sotib oladi. Shuning hisobiga ishchi-xizmatchi daromadga ega bo'lib, tezda oyoqqa turishadi. **Manfaatdorlik** evaziga mahsulotlarning sifati birdan yuksaladi. Ishlab chiqarish dastgohlarini davlat barcha korxonalarga yoppasiga subsidiya badaliga topshiradi. Bunday vaziyatda korrupsiyaning yo'llari anchagina berkiladi. Texnika dastgohlarini regionlarga yetkazib berishdek amaliy takliflarga Xitoy, Turkiya kabi iqtisodiy hamkorlarimiz ko'mak berishadi...

Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik, degan xalqimiz maqolining mag'zini chaqib ko'raylik.

E'tiqodni tarbiyalash –Uyg'onishning bosh yo'li

Yurtimizda islom diniga e'tiqod qo'ygan dindorlar miqdori, nufuzi, jamiyat hayotidagi o'rni oshib borayotganligi tufayli mazkur texnologiyaga ehtiyoj o'sib boradi. Din azaldan tartibni, halollikni yoqtiradi, demak, mamlakatimizda milliy taraqqiyotni ta'minlash yo'lida to'siq bo'lgan korrupsiyani jilovlash, temir intizomni o'rnatish va adolatning tantana qilishida (sohibqiron Amir Temur bobomiz shu yo'l orqali adolat bayrog'ini ushlab, tarixga o'zining nomini muhrladi) Islom tartib-qoidalari nihoyatda katta rol o'ynaydi. Bugungi yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasi holatiga ob'ektiv baho berib, Naqshbandiyning mehnat etikasi ta'limotini jamiyat hayotiga, davlat va nodavlat tuzilmalariga joriy qilish mexanizmi mukammal ishlansa, biz ota-bobolarimiz boshlab bergan Uyg'onish hodisasini munosib davom ettirish sharoitini qo'lga kiritamiz! G'arb texnologiyalariga ko'r-ko'rona ergashsak, vaziyat qo'ldan chiqib ketadi. Biz yana begona ta'lim va tarbiyaga qaram bo'lib, texnologiyalarga muhtoj, o'zimiz o'zbek, ammo qarashlarimiz g'arbniki, tilimiz baynalmilal, yashash tarzimiz qorishmadan iborat jo'n odamga aylanamiz.

Din – jamiyat va inson hayotida, shubhasiz, katta o'rinni egallaydi.

Din – e'tiqod, to'g'ri yashash yo'lini ko'rsatadi. Din – haq yo'li demak. U – korrupsiyaga, aldash va aldanish, birovning molini o'g'irlash, maddohlik va muttahamgarchilikni yoqtirmaydi.

Sharqda Amir Temur saltanati boshlagan Ikkinchi Uyg'onishdan keyin (15-16 asrlar) nega bayroqni qo'ldan chiqardik? Buning asl boisi nimada? Tarixning guvohlik berishicha, Islom dini rivoji, fuqarolarning o'zaro ahilligi, jamiyatdagi tinchlik va osoyishtalik, boriga qanoat qilishi, sabr-irodaliligi G'arb olamiga yoqmasdi (bu masalada shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning 2019-yilda chop etilgan "Olam va odam, ilm va din" nomli kitobida o'nlab dalillarning tahliliga duch kelamiz –B.O.). **Shayxning yozishlaricha, XVI asrgacha Yevropada na maktab-madrasa, na tibbiyot, na boshqaruv, na iqtisodiyot tizimi yaxshi ishlagan. Sharq ancha oldinda bo'lgan! Bundan alamzada bo'lgan g'arbliklar sharq odami psixologiyasini o'zgartiradigan maxsus texnologiyani o'ylab topish harakatiga tushadilar.** Ko'rganida inson ko'zi quvonadigan texnika va texnologiyalarni ko'paytirib (aslida bunga muhtojlik va zaruriyat ham u qadar katta bo'lmagan), uning bozorini to'ldirib tashladilar. Arab, fors tillarida bitilgan nodir qo'lyozmalarni bosqinchilik va ayg'oqchilik yo'llari bilan o'g'irlab ketishdi-da, "nozik" joylarini o'zgartirib va fan laboratoriyalarida qayta to'ldirib, yana o'zimizga qaytarib berishdi. XIX- X asrlarga kelib, televizor, kompyuter (bular ichida eng foydalisi), mobil aloqani ishlab chiqarib "sovg'a" qilishdi. Integral sxemalarda, matematik modellarda Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy kabi Sharq allomalari g'oyalari asos bo'lib xizmat qilardi... Ammo endi Sharq odami fikrlashdan, rivojlanishdan to'xtadi, uning uchun texnika o'ylay boshladi. Jonli misol keltiramiz: birgina texnika o'zbek jamiyatida qancha muammolarni paydo qilganiga o'zimiz shohidmiz. 1990-yillarda estrada san'atiga kiritilgan fonograma (og'iz kuchaytirgich) asbobi ovozi yo'q, ona tilini bilmagan havaskorlarni taniqli xonandaga aylantirishi oqibatida qo'shiqchilik san'atida iste'dodli bilan iste'dodsiz shaxsning farqi qolmadi. Iste'dodsiz odam san'atkor maqomiga erishdi va fonogrammada qo'shiq kuylab, Xalq artistiga aylandi. Bu, axir, madaniyatimizning fojiasi emasmi?! Kino, televideniye, radioda ham texnika asbob-uskunalariga keng eshiklarning ochib berilishi, ochig'i, soxtalik va iste'dodsizlarni ko'paytirdi.

E'tiqodni tarbiyalash va qadrlash mexanizmini ilm, madaniyat, san'at, maktab va institut ahli, jamiki yoshlar ommasiga tezroq singdirgan taqdirda, biz yangi Uyg'onishni qurish manziliga shu qadar osonroq erishamiz. Negaki, din qalb bilan ishlaydi, qalbni tarbiyalaydi, u ta'limda ham, televideniya ham, davlat boshqaruvida ham, islohotlar jarayonida ham inson ruhini, qalbini uyg'otish va olovlantirish uchun harakat qiladi. Qalbning prizmalari to'g'ri chertilsa, ikki tomon ruhan yaqin, hamfikir, hammaslak bo'lsa, davlat islohotlari

bardavom va samarali kechadi (bu dunyo tajribasida isbotini topgan). **Fuqaro kecha-yu kunduz mehnat qilsa va vazifasini halol ado etsa-yu, rohat-farog‘at ko‘rmasa, rag‘batni ko‘zi bilan ko‘rmasa, qo‘li bilan ushlamas, axiyri, u qo‘lini siltab, davlatni aldashga o‘tadi.** Shunda amalda emas, balki qog‘ozda vazifamni bajardim, deydi aldab, aslida esa yarmini bajargan bo‘ladi. Bu ham Aldov texnologiyasi deyiladi va shaxs uning ishtirokchisiga aylanadi.

Davlat siyosiy, iqtisodiy, ma’rifiy sohada inqilobiy islohotni boshlar ekan, unda xalq bevosita bosh figura bo‘lib qolaveradi. SSSRda Din tamoyillari tagzamini buzilib, Nafs texnologiyasi jamiyat qatlamlarida tarqala boshlagandan so‘ng, inson fikri zalolatga, botqoqlikka botdi. Dunyoda Nafs texnologiyasi tizimi g‘alabasini to‘la ta’minlashga islom hamon xalaqit berardi. Shuning uchun Islomni parchalash texnologiyasi ishga tushdi. Bu zafarli kunni uzoq vaqt poylashdi. Nihoyat, vaqt yetildi, chog‘i, 2001-yil 11 sentyabrda AQShning Nyu-York shahri Manxetten maydonidagi aka-uka egizak binolar portlatildi. G‘oya muallifi bo‘lganlar o‘z irqdoshlarini bir kun oldin binodan chiqarib yuborishdi. Osiyolik g‘azablangan jangarilar bizday gegemon davlatdan qattiq o‘ch olish uchun shunday harakatni amalga oshirdilar. Dunyoga yolg‘on axborot yashil tezligida tarqatildi... G‘arbliklar gullab-yashnagan Arab dunyosida fuqarolar bilan rahbariyat o‘rtasida jarlikni yasab, bir-biriga mehri bo‘lgan kishilarni raqibga, hatto dushmanga aylantirdi. Eng dahshatlisi tinchgina namozini o‘qib, neft zaxirasi boyligidan farovon yashayotgan aholini diniy ekstremist, terroristga chiqardi yoki Ben Laden Amerikada o‘qib, yurtiga maxsus topshiriq bilan jo‘natildi. Ana, G‘arbning texnologiyalari qanday yovuz ishlarga bosh qo‘shgandi. Islom dunyosini boshqargan, g‘oya va qarashlarini singdirgan, Muhammad s.a.v.ni yetishtirgan tabarruk zaminda diniy ahillik, birdamlik shu tariqa yo‘qoldi.

O‘zbekiston geosiyosiy qulay va nozik nuqtada joylashganini hisobga olsak, bu masalada o‘ta ziyrak va ehtiyotkor bo‘lishimiz kerak. Din ta’limotini tushuntirishda, ibodat soatlarida, ta’lim dargohlarida o‘tadigan ochiq darslarda qalbni poklash, mehnatni qadrlash, ilmni o‘rganish mexanizmlarini sodda tilda singdirishni har kuni amalga oshirishimiz lozim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sa’y-harakati evaziga uchinchi Uyg‘onishga yo‘llar ochib berilmoqda. Xalqimizga ishonch, umid, ishtiyoq tuyg‘ulari singdirilishini eshitgan o‘zbek ziyoli qatlami hozirdan fikran uyg‘onib, faollik sari dadil qadamlarini tashladi.

Uchinchi Uyg‘onish davrining bosh ijodkori, ijrochisi Inson ekanligidan kelib chiqib, inqilobiy yuksalishning oldinga siljishini tashqi kuchlardan, sun’iy texnologiyalardan qidirib o‘tirmasdan, **Shaxsning faqat o‘zidan boshlash kerak, deb bilamiz.** Mamlakatni yer osti boylıkları, qazilma konlar emas, inson kapitali taraqqiy qildiradi. **Qachon biz inson kapitaliga e’tiborni**

kuchaytiramiz?! So‘nggi yuz-yilda boshimizdan ko‘p ko‘rgilik va qaramlik fojialarini o‘tkazganimizdan so‘ng, do‘ppini stolga qo‘yib, yo‘qotishlar sababiga bir javob izlaylik. Axir, G‘arb texnika va texnologiyalari turmushimizni yaxshilagan bo‘lsa-da, qalbimiz va mehnatga munosabatimizni o‘zgartira oldimi? Turkiston, bugungi O‘zbekiston G‘arbning begona g‘oyalari ko‘r-ko‘rona ergashib, inqirozga botmadimi? Mustaqillikka erishgan yosh davlatlarga andoza bo‘layotgan Janubi-Sharqiy Osiyodagi Malayziya, Singapur, Yaponiya, Xitoy keyingi 50-yilda texnologiyani chuqur o‘zlashtirgach, unga mahliyo bo‘lmasdan, aksincha, uni raqiblarga qarshi ishlatish quroli deb bilib, yuksak texnologiyaga ega mahsulotlarida yapon, xitoy, singapur, koreys ruhiyatini saqlash, ta’limda sifatga erishish orqali ulkan yutuqlarga erishmadimi? **Biz ham ilmga va ilmlilarga kuchli e’tibor, rag‘bat yo‘li orqali ulkan maqsadlarga erishamiz!**

Yurtboshimiz olg‘a surgan “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” g‘oyasi atrofida birlashgan mamlakatimiz insoniyat sivilizatsiyasining boy tarixiy, diniy, madaniy merosiga ega qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Sharq va G‘arb chorrahasida joylashgan mintaqamiz ko‘p asrlar davomida madaniyatlar, ilmiy g‘oyalar, tillar va dinlar muloqoti, o‘zaro ta’siriga katta turtki bergan. Shunday ekan, bugungi ulkan imkoniyatdan foydalanishda birinchi va ikkinchi Uyg‘onish rivojlanishi ildizlariga qaytishni xayrli ish, deb hisoblaymiz. **QALB, MEHNAT, E’TIQOD – insonni yuksak cho‘qqilarga yetaklagan ushbu uchta omilga suyangan tizimni yaratish**, uni kundalik hayotimizga olib kirish, yoshlarni ilmga, aqliy mehnatga o‘rgatish, ichki ruhni tarbiyalash orqali buyuk maqsad – Uyg‘onishga keng yo‘llar ochiladi. Agarda biz ilmi, irodali, tarbiya ko‘rgan yoshlarni milliy rivojlanishga safarbar eta olsak, shubhasiz, kutilgan samaraga erishamiz.

XX ASRDA NATSIZM MAFKURASINING ASOSIY G‘OYAVIY TAMOYILLARINI TAHLILI

Ernazarov Dilmurod Zuxriddinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedراس
dotsenti. Siyosiy fanlar doktori bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrda natsizm mafkurasining vujudga kelish sabablari va tarixiy sharoiti xaqida fikr yuritilgan. Germaniyada natsional-sotsialistlarning g‘oyalari va mafkurasining targ‘bot usullari va asosiy maqsadlari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Germaniya, natsional-sotsialistlar, gʻoya, mafkura, targʻibot usullari, asosiy maqsadlari.

Ikkinchi jahon urushidan soʻng, qolaversa XXI asrda ham natsizm mafkurasini oʻrganish bugingi kun nuqtai nazardan hamda tarixiy jihatdan juda muhim oʻrin tutadi. Xozir biz natsizm nafaqat fashistlar harakati va uning mafkurasini tarixini, balki natsizmning siyosiy tizimi tarixini, uning muvaffaqiyatlari va harbiy magʻlubiyatining sabablarini tahlil qilishimiz lozim. Chunki, jamiyatlar barqarorligiga salbiy taʻsir qiluvchi gʻoyalarda ham uning elementlari koʻrinadi.

Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan natsizm harbiy yoʻl bilan magʻlub etildi, uning siyosiy tizimi yoʻq qilindi, militarizm va boshqa xalqlarni talon-taroj qilishga qaratilgan iqtisodiy dastur barbod boʻldi. Natsizmning magʻlubiyatdan keyingi barcha-yillarda hamon taʻsirini saqlab qolgan yagona narsa - bu mafkura boʻldi. Natsizm mafkurasini jahon xalqlari tarixida eng kuchli va taʻsirchan mafkuralardan biri sifatida tarixda oʻz izini qoldirdi. Buning asosiy sababi mafkura targʻibotining oʻta kuchli va taʻsirchan mexanizmga ega ekanligi.

Natsizm mafkurasining nazariy asoslari ancha mukammal edi. Hamma joyda targʻibot-tashviqot va ommaviy ongga taʻsir qilishiga urgʻu berildi. Shuning uchun ular dunyoni ijtimoiy qayta qurish boʻyicha keng koʻlamli dasturni taklif qildi. Natsistlar rejimi ommaviy tashviqot tufayli nemis aholisining koʻpchiligining qoʻllab-quvvatlashiga tezda erisha oldi, uning asosiy jihati nemis xalqi, uning barcha xalqlardan ustunligi «Yuksak inson - Übermensch» gʻoyasiga ergashdi.

Natsizm mafkurasini XX asrda dunyoga oʻziga xos, tajovuzkor qarashni yuklaydigan asosiy natsist gʻoyalarning gʻoyat hayotiyliigi bilan izohlanadi. Tarixning eng qora sahifalarini ham nafaqat eslab qolish, balki chuqur oʻrganish ham zarur. Tarixiy oʻtmish, ayniqsa gʻoyalar va mafkuralar tarixi, hozirgi va kelajak bilan chambarchas bogʻliq. Ikkinchi jahon urushi natijasida fashizmning asosiy kuchlari magʻlubiyatga uchragan boʻlsa-da, fashizmni faqat oʻtmish deb hisoblash xato boʻladi. Chunki uning elementlari boshqa mafkuralar asosiga singdirilmoqda.

XX asrda turli jamiyatlarining rivojlanishiga qaramay, neofashistik partiyalar va tashkilotlar nafaqat «anʻanaviy» fashizmning forposti boʻlgan, balki fashistik tipdagi partiyalar va tashkilotlar faoliyat yuritadigan koʻplab mamlakatlarning siyosiy hayotida doimiy salbiy taʻsir koʻrsatadi. Mafkura va terror fashizmga hokimiyat yoʻlida hamroh boʻlgan, keyin esa fashistik tuzum oʻrnatilgan mamlakatlarda mavjud boʻlgan keng zoʻravonlik apparati yordamida amalga oshirilayotgan doimiy amaliyotga aylangan. Fashizmning asosiy gʻoyalari sekin asta millatchilik, shovinizm, irqchilik, gʻayriinsoniy amaliyotlarga aylanib borishiga olib keldi.

Natsizm nomi bilan mashhur bo'lgan milliy sotsializm (nem. Nationalsozialismus) — 1919—1945-yillardagi nemis totalitar, ekstremistik, o'ta o'ng, irqchilik va antisemitizm mafkurasi va harakati, fashizmning bir ko'rinishi edi. Siyosiy etnik millatchilikning ekstremal shakli bo'lgan. “Oliy irq- ya’ni Oriylar” g’oyasini, uning “pastki” deb qaraladigan boshqa irqlardan biologik va madaniy ustunligini, irqiy kamsitilishni anglatadi. “Oriylar”ning dushmani, nemis millatining asosiy dushmani sifatida “jahon yahudiylari” va boshqa millatlarga qarshi bo'lgan g’oyalar majmuasidan tashkil topgan. Mafkuraning asoslari Adolf Gitlarning “Mening kurashim” (1925-1926), Alfred Rozenbergning “XX asr afsonasi” (1930) va boshqa kitoblarida bayon etilgan. National-sotsialistik Germaniya ishchilar partiyasi mafkurasi. (nem. NSDAP, NSDAP), 1920-yildan 1945-yilgacha mavjud bo'lgan va harakatga rahbarlik qilgan. Fashistlar Germaniyasining rasmiy siyosiy mafkurasi, Germaniyadagi fashistlar tuzumining asosini (1933-1945) tashkil etgan. Milliy sotsializm uzoq vaqt davomida farovon yashash uchun zarur bo'lgan hamma narsaga ega bo'lgan “Oriylar” ning “irqiy jihatdan sof” davlatini yaratish va barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi (“ming-yillik Reyx”). [1]

Natsistlar mafkurasi birinchi navbatda insonning o'zgarishiga qaratilgan edi va bu jarayonning natijalari haqida muhim ma'lumotni sobiq natsistlarning xotiralaridan olish mumkin; shuningdek, Germaniyaning oddiy aholisi va ayniqsa natsistlar kontslagerlarining sobiq asirlari. Memuarlarni mualliflarining maqomiga ko'ra guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiqdir. [2]

Natsional sotsializm mafkurasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Irqchilik. Natsional sotsializmning asosiy printsiplari shundaki, nemis irqi ustundir va boshqa irqlardan ustun bo'lishi kerak. Natsional-sotsialistlarning yahudiylarga bo'lgan munosabati ayniqsa dushman edi va ular Germaniya oldida turgan barcha muammolar uchun ularni javobgar deb hisobladilar.

2. Millatchilik. Natsional-sotsialistlar Germaniya birlashgan va qudratli davlat bo'lishi kerak, deb hisoblashgan. Ular barcha nemis yerlarini birlashtirish va milliy g'ururni himoya qilishdi.

3. Avtoritarizm. Natsional sotsialistlar demokratiyaga qarshi edilar va mamlakatni kuchli rahbar va avtoritar rejim boshqarishi kerak, deb hisoblardi. Bu Germaniyada diktaturaning o'rnatilishiga olib keldi.

4. Sotsializm. Natsional sotsializm Germaniyada davlat hokimiyatini mustahkamlash va ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan sotsializm elementlari ham mavjud edi. Natsional sotsialistlar ishsizlikka qarshi kurash choralarini ko'rdilar va bir qator sanoat korxonalarini milliylashtirdilar.

5. Militarizm. Natsional sotsialistlar Germaniyaning milliy manfaatlarini

himoya qilish uchun kuchli armiya zarur deb hisoblardi. Imperializm. Natsional-sotsialistlar nemislar yashaydigan barcha yerlarni qamrab oladigan imperiya yaratishga intilishdi. Ular Lebensraumni - nemis mustamlakachilari tomonidan aholi uchun bosib olinishi kerak bo'lgan yangi yerlarni yaratishni rejalashtirdilar.

6. Antisemitizm. Natsional sotsialistlar yahudiylarni nemis xalqining dushmani deb hisoblashgan va yahudiylarning fitnasi va boshqa antisemitizm nazariyalari bilan bog'liq g'oyalarni kuchli targ'ib qilganlar.

7. Shaxsga sig'inish. Natsional-sotsialistlar Adolf Gitler atrofida shaxsga sig'inishni yaratdilar, u nafaqat yetakchi, balki ilohiy xabarchi ham hisoblangan.

8. Demokratik institutlarning yo'q qilinishi. Natsional sotsialistlar diktatura sharoitida keraksiz deb hisoblangan demokratik institutlar va fuqarolar huquqlariga tahdid soldi.

9. Ekspansionizm. Natsional sotsialistlar Germaniya chegaralarini kengaytirishga intilishdi, bu esa Ikkinchi jahon urushining boshlanishiga olib keldi.

Natsional sotsializm mafkurasi jahon tarixidagi eng dahshatli voqealardan birini - Germaniyaning natsistlar rejimini tug'dirdi, buning natijasida millionlab natsistlar jinoyatlari, jumladan Xolokost va Ikkinchi Jahon urushi qurbonlari bo'ldi. Bugungi kunda natsional sotsializm o'ta xavfli va axloqsiz mafkura sifatida qaraladi, bu salbiy uyushmalarni keltirib chiqaradi va har qanday shaklda yoki ko'rinishda mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas. "Yuksak inson" - "Übermensch" g'oyasi Natsional sotsialistlarning asosiy g'oyasiga aylandi. Chunki, aynan ular "Yuksak inson" - "Übermensch" maqomiga to'g'ri keladi. Qolgan xalqlar ularning farovon hayot kechirishi uchun xizmat va mehtat qilishi nazarda tutilgan. Ular nemis xalqi dunyoni boshqarishi va uni "quyi" irqlardagi xalqlardan tortib olishi kerak degan g'oyani ilgari suradi.

Natsional sotsializmning bu g'oyalari insoniyatga qarshi ko'plab jinoyatlarga olib kelgan diktatura rejimini yaratish uchun ishlatilgan. Natsistlar yahudiylarni, lo'lilarni, rivojlanishdan orqada qolgan xalqlarni, nogironlarni va "g'ayritabiiy" deb hisoblangan boshqa ko'plab odamlarni ta'qib qilishdi va o'ldirishdi. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar natsional sotsializmga qarshi kurashning davomi bo'lgan millatchilik va irqchilikka qarshi kurash choralari ko'rmoqda.

Taklif va tavsiyalar.

- G'oyalar tarixini tizimli o'rganish.

- G'oyalar va mafkuralrni insonlar ongiga singdirishning metodologiyasi

va mexanizmlarini o‘rganish hamda tadqiq qilish.

- Samarali mexanizmlarni bugungi kun talablari asosida foydalanish yo‘llari va usullaridan foydalanish.

Natijada, urush tugagandan so‘ng Nyurnberg sudlarida Natsional sotsializm mafkurasi qoralangan va misantropik deb tan olingan, bu xalqaro huquq va turli davlatlarning qonunchiligida o‘z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9D%D0%B0%D1%86%D0%B8%D0%B7%D0%BC>

2. Höß R. Kommandant in Auschwitz. Autobiographische Aufzeichnungen. Stuttgart, 1958;

MA’NAVIY XAVFSIZLIK TIZIMI MILLIY XAVFSIZLIGI OMILI SIFATIDA

Eshmurodov Akbar Tolliboyevich,
Renessans ta’lim universiteti
“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrası
dotsenti v.b., s.f.f.d. (PhD)

Jamiyat hayotining barcha sohaları o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, zamonaviy global dunyoda bu bog‘liqlik juda muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror iqtisodiyotsiz siyosatda barqarorlik bo‘lmaydi va aksincha, siyosiy hayot sohasi tizimli tartibga solinmasdan, yuksak ijtimoiy rivojlanish va samarali iqtisodiyotni yaratish mumkin emas. Biroq insoniyatning rivojlanish tarixidan ma’lumki, har qanday jamiyat taraqqiyotining negizida ma’naviy yuksalish jarayonlari yotadi. Deyarli barcha davrlarda jamiyatning ma’naviy hayot darajasi, madaniyatning rivojlanishi yoxud pasayishiga qarab jamiyat taraqqiy etgan yoki tanazzulga uchragan.

Biz kundan kunga globallashayotgan, ya’ni o‘zaro bog‘liq bo‘lib borayotgan “chegarasiz dunyo”da yashamoqdamiz. Globallashuv o‘zida butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy yaqinlashuv va birlashish jarayonlarini aks ettirmoqda. Natijada global mehnat taqsimoti, inson va ishlab chiqarish resurslarining butun sayyora bo‘ylab migratsiyasi, qonunchilikni, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlar madaniyatlarining yaqinlashuvi ro‘y bermoqda. Ayni

paytda globallashuv dunyoda yangi ziddiyatlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Boisi, zamonaviy sivilizatsiya shu darajada keskin nuqtaga kelmoqdaki, agarda dunyoda ma'naviy-axloqiy negizlar rivojlantirilmasa, sanoat inqiloblari va texnologiyalarning rivojlanishi insoniyatni muqarrar ravishda halokatga olib kelishi mumkin. Chunki zamonaviy dunyo inson ma'naviyati, uning ma'naviy hayotini yana bir bor sinovdan o'tkazmoqda.

Ma'lumki, ma'naviy soha shaxs, millat va jamiyatning ma'naviy munosabatlar, jarayonlar, aloqa va muloqotlari majmui bo'lib, unda millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari shakllanadi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "... g'ururi baland xalqning qadr-qimmatini ham baland, ma'naviyati, irodasi kuchli bo'ladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga yetish mumkin. Aynan ana shunday fazilatlarimizga tayanib, biz boshqalarga ergashuvchi emas, aksincha, doimo ergashtiruvchi xalq bo'lib kelganmiz. Bilim, ma'rifat, madaniyat bilan boshqalarga o'rnak bo'lganmiz. Bu – bizning qon-qonimizga, zotu zurriyotimizga singib ketgan, milliy qadriyatimizga aylangan fazilat" [1,10]. Demak, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatuvchi ma'naviy soha xavfsizligini ta'minlash har qanday millat va davlatning mavjudligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuni unutmaslik kerakki, inson o'z milliy-madaniy o'zligini anglamay turib, to'laqonli ma'naviy shaxs, axloqiy jihatdan sog'lom, izchil rivojlanib borayotgan jamiyat bo'lishi mumkin emas. Inchinin, ma'naviy xavfsizlik tizimi milliy xavfsizlik negizidir.

Ma'lumki, jamiyatning ma'naviy faoliyati natijalari insonning ma'naviy shaxs sifatidagi faoliyatini aks ettiradi va yangi g'oyalar, nazariyalarning tug'ilishi, yangi timsol hamda qadriyatlarning shakllanishida namoyon bo'ladi. Ma'naviy faoliyat turli ijtimoiy munosabatlar, ya'ni jamiyat hayotining diniy, estetik, axloqiy, ilmiy, siyosiy va huquqiy sohalarida shaxslar hamda ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning turli shakllari orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy inson har doim o'zini o'zi ijodiy anglash, ma'naviy qadriyatlarni yaratish, ularni boshqalarga taqdim etish va tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlarni kuchaytirish orqali almashishga intiladi.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash negizi sifatida ma'naviyat sohasini, avvalo, qadriyatlar, timsollar, g'oyalar, maqsadlarning tegishli tizimini saqlash, anglash va tanlashga asoslangan ma'naviy munosabatlar (odamlarning o'zaro munosabatlari, ularning his-tuyg'ularini amalga oshirish, shaxsiy va ijtimoiy borliqni idrok etish asoslari) majmui sifatida ko'rish kerak. Ayni vaqtda yurtimiz olimlari shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash muhimligini ta'kidlamoqdalar, chunki bu taraqqiyotning kalitidir. Siyosatshunos olim T.Alimardonovning fikricha, ma'naviy xavfsizlik tizimi – bu millat ruhiyati, salohiyati, irodasini ifoda qilib, uning madaniyati, tarixi, o'zbek davlatchiligi

asoslari to‘g‘risidagi tushuncha va qadriyatlar tasavvuri yig‘indisidir [2, 127].

Ayni davrda barchamiz globallashtayotgan dunyo, axborot asri, ma‘naviy tahdid yoki ma‘naviy xavfsizlik kabi tushunchalarini ommaviy axborot vositalari orqali bot-bot eshitayotganligimiz bejiz emas. Chunki hozirgi davrda dunyoga hukmronlik qilish, urush texnologiyalarining shakli o‘zgarib, ular asosan inson ongu va tafakkuriga qaratilganligi bilan xavfli hisoblanadi. Faylasuf olim M.Qahhorova ham jamiyatimiz axloqiy muhitiga, milliy qadriyatlarimizga salbiy ta‘sirlarni umumlashtirib, shunday ta‘kidlaydi: “ayni paytda dunyoning hozirgi rivojlanish jarayoni, o‘zga jamiyatlarda ham kuzatilayotganidek, bizning jamiyatimiz axloqiy muhitiga ham ikki jihatdan salbiy ta‘sir ko‘rsatish ehtimoli bor:

birinchidan, ba‘zi oqimlar tomonidan milliy axloqiy qadriyatlarimizga daxl qilishga doir urinishlar. Bunda “ommaviy madaniyat” niqobi ostida mutaassiblik, behayolik, fahsh kabi ma‘naviy va axloqiy tubanlik illatlarini tiqishtirishga urinishmoqda;

ikkinchidan, globallashtirish bahonasida umuminsoniy qadriyatlarni mutlaqlashtirishga urinish. Bunda “erkin hayot” niqobi bilan murtadlik (prozelitizm), ayirmachilik (radikalizm), xudbinlik (nigilizm), vatansizlik (kosmopolitizm) kabi illatlarni umumiy axloq g‘oyalari sifatida targ‘ib qilishga urinish bor” [3, 26].

Shu boisdan, globallashtirish jarayonlari ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlash, xalqimiz va uning davlatchiligining mavjudligi, rivojlanishining asosini tashkil etadigan urf-odatlar va an‘analarni, tarixi va tilini, madaniyatini saqlash uchun shart-sharoitlar muhitini yaratish zarurligini anglatadi. Biz, avvalo, bu borada jamiyat ma‘naviy sohasi (ma‘naviy xavfsizlik)ning milliy xavfsizligini ta‘minlashdagi asosiy maqsadlarni aniqlashimiz zarur. Ushbu maqsadlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o‘zbek xalqini ma‘naviy birlashtirish, yurtimizda yashovchi millat va elatlarning milliy madaniyatini qo‘llab-quvvatlash hamda mamlakatimizda yagona ma‘naviy makonni yaratish va saqlash;

- bugungi geosiyosiy sharoitda o‘zbek tilini halokatli ta‘sirlardan himoya qilish va mamlakatda yagona muloqot vositasiga aylantirish;

- milliy, madaniy va diniy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish orqali jamoatchilik ongini halokatli axborot va psixologik ta‘sirlardan himoya qilish, millatning milliy ruhi va vatanparvarlik ongini yuksaltirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish lozim deb, hisoblaymiz:

- davlat va fuqarolik jamiyati institutlariga respublika va hududiy darajada ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha samarali hamkorlik

qilishga imkon beradigan tizimni yaratish;

- jamoatchilik ongiga salbiy ta'sir qiluvchi buzg'unchi g'oyalar, qarashlar va harakatlarni aniqlash, doimiy ravishda monitoring qilish hamda bartaraf bo'yicha qilish chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- jamiyat ma'naviy xavfsizligini ta'minlash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, jumladan axloqsizlik targ'iboti bo'yicha javobgarlikni kuchaytirish;

- jamiyat ma'naviy sohasining xavfsizligini ta'minlash muammolarini o'rganish, tahlil etish va takliflar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini ko'paytirish;

- xalqimizni ma'naviy-madaniy saviyasini yuksaltirish bo'yicha kompleks dasturlarni, jumladan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, fuqarolarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish kabi dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish.

So'ngi so'z o'rnida ta'kidlash zarurki, jamiyatimiz hali ham yetarli ma'naviy salohiyatga ega. Ammo zamonaviy tamaddun davrida yangidan yangi tahdid va xatarlar ko'paymoqda, ayniqsa, axborot inqilobi natijasida ularning ta'sir doirasi yanada kengayib bormoqda. Jamiyatning ma'naviy xavfsizlik tizimi milliy xavfsizlikni ta'minlash negizi bo'lganligi bois, globallashuv sharoitida yurtimizda ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalariga kirib boradigan va samarali ishlaydigan ma'naviy xavfsizlik tizimini shakllantirishimiz kerak. Mazkur ma'naviy xavfsizlik tizimi globallashayotgan dunyo ma'naviy makonidagi tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash va unga qarshi kurashishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir [Matn]. Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2021-y. – 10 b.

2. Alimardonov T. Erkinlik ruhi. – T.: "Nishon-noshir", 2015. – 127 b.

3. Qahhorova M. Ma'naviy ideal. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 26 b.

YOSHLAR TARBIYASIDA AXBOROT OLIISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Ruzieva Ruhsora ,

*International school of finance technology
and science institutining «Ijtimoiy fanlar»
kafedrası professori, falsafa fanlari doktori*

Respublikamizda ta'lim islohotlarini amalga oshirish uchun axborot-kommunikasiya texnologiyalari ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Bugungi kunda gazeta, jurnal, radio, televideniya, kino, internetlar son jihatdan ko'payib, ularning rivojlanishida kompyuter, har xil rusumdagi qo'l telefonlari, elektron pochta, parabolik antenna kabilar o'zining samarali ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'tgan-yillar davomida yurtimizda iqtisodiy islohotlar bilan birga madaniy-ma'rifiy, ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish vazifalari ham belgilab olindi. Chunki ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarning xalqimiz hayotida o'zni kattadir. Yoshlarimiz kelajagini o'ylab, izchillik va qat'iyat bilan amalga oshirilayotgan umummilliy dasturlarimiz yagona bir maqsadni ko'zda tutadi. "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdashlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[1]

Maktab, kollej va liseylarda, oliy ta'lim muassasalarida yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida mediata'limdan unumli foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Bu darslarni o'qituvchi tomonidan yangi pedtexnologiyalar (mediapedagogika) asosida olib borishda o'z aksini topmoqda. Zamonaviy va mukammal bilimga ega bo'lgan pedagoglar yoshlar qiziqishi va bilimni oshirish uchun nazariy bilimlarni zamonaviy texnika vositalaridan foydalanib o'tishga harakat qilmoqdalar. Bu esa talabalarni dars jarayoniga qiziqtirib, ularning faolligini yanada oshirmoqda, ularni ijodiy tafakkur qilishga undamoqda.

Shunga qaramay, bugungi global axborotlashuv barcha sohalar kabi mediata'limga ham o'zining ijobiy ta'siri bilan birga salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Mediata'lim takomillashgan sari axborotlardan to'g'ri va unumli foydalanish muammosi paydo bo'lmoqda. Har xil axborotlarning

tarqalishini nazorat qilishning imkoniyati qolmayotganini nazarga olgan holda, yoshlar tarbiyasi buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik yo‘llarini izlash, bu sohada mukammal tizim yaratish zaruriyati davr talabiga aylanmoqda.

Ma’lumki, bugungi kunda axborot bazasini yaratish va axborot tarqatish mas’uliyatini hamma ham his qilavermaydi. Shuning uchun axborot bazasini yaratish tizimini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot yozish va tarqatishda savodli bo‘lish mashaqqatli mehnatni talab etadi. Muallif eng avvalo axborot tarqatishdan maqsadi nima ekanligini anglab olishi lozim. Bizning xalqimizda so‘zlarni ketma-ketlikda, har xil chiroyli iboralar bilan tuzish madaniyati azaldan mavjud. Hatto yozuvni biladiganlarning barchasi bosqinchilar tomonidan osilgan va yozma manbalar yo‘q qilingan davrlarda ham ajdodlarimiz faqat xotirasigagina tayanib, madaniy merosimizni afsonalar, dostonlar, rivoyatlar orqali keyingi avlodga bera olganlar. Afsonalar, dostonlar, rivoyatlar shu tarzda avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Ota-bobolariiz xalq maqollarini yaxshi bilganlar va ulardan hayot tarzlarida unumli foydalanganlar. Har xil bo‘lar-bo‘lmas gaplarni gapirib, boshqalarning vaqtini ham olmaganlar, kayfiyatini ham buzmagalar. Vaqt ulug‘ hakam ekanligini anglaganlari uchun har bir lahzaning qadriga etganlar.

Moziyga nazar tashlaydigan bo‘lsak, xalqimizning axborot olish madaniyati ildizi nihoyatda chuqur ekanligining guvohi bo‘lamiz. Zardushtiylik dini shakllanishi davri bo‘ladimi, ilk o‘rta asrlarmi, Amir Temur va temuriylar madaniyati davrimi yoki ma’rifatparvarlar davrimi, har bir davrda axborot olish madaniyatiga katta e’tibor berilgan. Inson bolaligi va yoshligidan nimaga quloq solishi, nimaga qarashi, nimani gapirishi mumkinligi qoidalari ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda veb-saytlarga kirib, ba’zida gangib qolish hech gap emas. Orfografik xatolardan tashqari o‘ta g‘aliz jummlar o‘sha axborotni o‘qishni davom ettirishga hojat qoldirmaydi. Axborot qanchalik savodli yozilganda esa maroq bilan, qoniqish his qilib o‘qiladi. Chunki har qanday davlatning qudrati eng avvalo uning savodxonligiga borib taqaladi. Bilimli inson ham bilimni takomillashtirib bormasa, ertaga o‘rtamiyona holatga tushib qolishi mumkin.

Globalashuv jarayoni odamlar muloqoti, ilm-fan va madaniyat rivoji uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib berish bilan birga axborot texnologiyalaridan ba’zi bir yovuz kuchlar o‘zlarining manfur maqsadlari yo‘lida foydalanayotganlari sir emas. Bu yovuz kimsalar bugungi kunda internet orqali odamlarning osuda hayotlariga raxna solib, yoshlar ongini zaharlab, ularning porloq kelajagiga to‘siq qo‘ymoqdalar. Yoshlarimiz va yurtimiz kelajagi, uning tinch-farovon hayotini ta’minlashda zamonaviy kommunikasiya texnologiyalardan maqsadli foydalanish yo‘llarini topish,

ta'lim sohasini mediata'lim texnologiyalari bilan takomillashtirish asosida talaba va o'quvchilarni intellektual salohiyatini oshirish asnosida ularni buzg'unchi va tajovuzkor g'oyalar tuzog'idan asrash bugungi kun dolzarb muammosi bo'lib, bu muammoga qarshi tizim ishlab chiqish yoshlarimizni turli mafkuraviy tajovuzlardan asraydi.

Milliyligimizga yot, buzg'unchi g'oyalar farzandlarimiz uchun nihoyatda xatarli bo'lib, bu illatlarni bartaraf qilish farzandlarning bolaligidan, eng avvalo, oilada shakllantirish zarurligini esdan chiqarmaslik kerak. Buning uchun oilalarga kirib borish kerak. "Har qanday o'zgarish avvalo, odamlar tafakkurida, ongida boshlanib, tillariga, qo'llariga, amallariga ko'chadi. Shuning uchun ota-onalarning tafakkurini o'zgartirishimiz kerak. Sog'lom avlod uchun kurash nima uchun qilinayotganinii keng jamoatchilikka tushuntirishiiz zarur"[2]

Farzandga ba'zilarga arziyas bo'lib ko'rinsa ham bolaligidan sog'lom jamiyatga asos bo'ladigan salomlashish, ovqatlanish, so'zlash, ijozat so'rash, qay yo'sinda hazillashish, kasal ko'rishga borish, mehmondorchilik kabi odoblarni o'rgatib, ular ongida shakllantirib borish kerak.

Kelajakda tayanchimiz bo'lgan farzandlarimizga xuddi shunday milliy qadriyatlar asosida tarbiya berilsa, ertaga u internetda o'tiradimi, xorij filmlarini ko'radimi, ularning o'zgacha dunyo vakillari ekanligini his qiladi. Ularga o'z qarashidan kelib chiqib, begonasirab qaraydi. Unda shakllangan ma'naviy immunitet to'g'ri yo'lni tanlashiga, adashmasligiga yaqindan yordam beradi. Ular ota-onalari va ustozlarni o'zlariga eng yaqin do'st, deb biladilar. Buning uchun ularni ha, deb tanqid qilavermaslik, ba'zi bir kamchiliklaridan ko'z yumish, kerak payt ularni do'stona qo'llab-quvvatlash va asta-sekin ularni yo'lga solib borish lozim. Jamiyatimiz bo'g'ini bo'lgan har bir oilada ana shunday ahillik, inoqlik bo'lsa, har qanday xavfni engish mumkin.

Xulosaqilibaytganda, farzandlarimizta'limvatarbiyasidamaktab, mahalla, oila hamkorligining o'rni muhim. Birgalikdagi harakat yoshlarimizning barkamol inson bo'lib voyaga etishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish, millatning taqdiri va istiqbolini ta'minlash kabi jiddiy muammolarni hal qilishning ilmiy asoslari va amaliy yo'llarini yaratishda buyuk ajdodlarimizning ibratli ishlari, ta'limotlarini hayotimizga tatbiq etish, ayniqsa, bugungi kun talab etadi. .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.. – Toshkent: "O'zbekiston", NMIU, 2019 –

145-146-b.

2. Baxtli bola ma'naviyati. Uzluksiz ma'naviy tarbiya trilogiyasi. II qism.
Tuzuvchi-mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov va boshq. Toshkent, “” nashriyoti, 2018.
264-b.

TARBIYA SAODAT MASALASIDIR *(ozodlik ham, obodlik ham o'zi kelmas)*

Siddiqova Shoxida Isoqovna

*Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), JDPU “Olima ayol” uyushmasi raisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'naviy tarbiyada milliy g'oya, milliy g'ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi ekanligi haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, yoshlar qalbiga tarixni anglash va qadrlash, o'tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g'ururlanish tuyg'ulari singdirish ustuvor masala bo'lishi xususidagi mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekistonning taraqqiyot dasturi, ma'naviy tarbiya, jadidchilik, milliy g'oya, milliy manfaat, o'zbek pedagogikasi.

Shonli tariximizda o'zining jasorati, aql-zakovati, millat ma'naviyati uchun qayg'urgan vatan fidoyilarini hamisha ehtirom bilan tilga olar ekanmiz, XX asrning I choragida birinchilar qatorida vatanimiz istiqboli uchun, yurt sharafi uchun bayroq ko'targan asl o'zbek farzandlarini ham e'tirof etish joiz. Xususan, Abdulla Avloniyning millat farzandlari taqdiri haqida qayg'urib yaratgan bebaho asarlari hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

Bu o'rinda, avvalo, ma'naviyat haqida fikr yuritmoq maqsadga muvofiqdir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimgi va abadiy qadriyatdir. Yurtboshimiz ta'kidlanganidek, ma'naviy tarbiya masalasida xushyorlik va sezgirlik, qat'iyat va mas'uliyat yo'qotilsa, bu o'ta muhim ish o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, muqaddas qadriyatlarga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan minglab-yillik milliy-etnik asoslarga ega millat ma'naviyati va tarixiy xotirasidan ayrilib, oxir-oqibatda umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishi mumkin. O'zbekistonning taraqqiyot dasturi, uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma'naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar

qoldirgan o‘lmas merosni chuqur o‘rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho‘qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa qilib olingan. Chunki, ertaga kattalar o‘rnini bosadigan yoshlar aynan shunday oziqlangan zaminda voyaga yetgan taqdirdagina komil insonlar bo‘lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, yengilmas ma‘naviy kuchga aylanib, jahon maydonlarida har qanday bellashuv va sinovlarga tayyor tura oladilar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar ma‘naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o‘tadi.

Har qanday ma‘naviy tarbiya ta‘lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki, ta‘lim va ma‘lumot olish jarayonida shaxsning bilimi ko‘payibgina qolmay, balki ma‘naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Shu bois ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilm-u ma‘rifat, ta‘lim-tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti hamda garovi deb bilganlar. Ma‘naviy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, uning o‘sishi va taraqqiyoti uchun moddiy va ma‘naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni yaratishda o‘z ajdodlaridan yuqori darajaga ko‘tarilmog‘i darkor. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida ma‘naviy tarbiya turlicha izohlab kelingan.

Jahon axborot maydoni kengayib borayotgan sharoitda, bolalar, yoshlar ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma deb bir tomonlama tarbiya berish, ular atrofni axborot davrida temir devor bilan o‘rab olish, zamon talabiga, jamiyat maqsad-muddaolariga ham to‘g‘ri kelmaydi. Demak, yoshlarni ma‘naviy jihatdan shunday tarbiyalash lozimki, ular internet – axborot bozoriga kirganda faqat o‘zi, el-yurti uchun zarur, foydali, ma‘naviy asoslarga daxl qilmaydigan narsani olsin. Yoshlarga internetdan, axborotdan foydalanish, axborot iste‘moli madaniyatini o‘rgatishda dunyoning qaysi burchagidan qanday ma‘lumot kelmasin, qanday ma‘naviy tajovuz tahdid solmasin, har qanday holatda ham ma‘naviy-ruhiy jihatdan ogoh va xushyor, turli axboriy xurujlardan o‘zlarini yo‘qotib qo‘ymaydigan barkamol shaxslarni shakllantirish bu sohadagi ma‘naviy tarbiyaning asosiy mezonini bo‘lmog‘i lozim. Shu boisdan ham o‘sib kelayotgan avlodning ma‘naviy tarbiyasiga javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi doimo oila, mahalla, maktab va ta‘lim muassasalari, umuman, barchaning diqqat-markazida turmog‘i lozim [1].

Bu xususda XX asrning birinchi choragida millatni ma‘rifatga undagan, jadidchi Abdulla Avloniy “Ilm o‘qumak har bir mo‘min-u er-u xotunga farzdur”, demishlar. Bizlar na uchun harakat qilmaymiz, qimirlamaymiz. Boshqa millatlarning o‘g‘ullari, qizlari kecha demay, kunduz demay, qish

demay, yoz demay ilm yo'lida jonlarini fido qilub, quvulub, yugurushub, ko'zlarimizni qamashdirub turgan bir zamonda bizlar hamon uyqudan, g'aflatdan boshimizni ko'tarmaymiz, ibrat olmaymiz. Payg'ambarlarimiz: "Olim bo'l, ilm talab qiluvchi bo'l yoki ilmni eshituvchi bo'l. Hech bo'lmasa, shularga muhabbat qiluvchi bo'l, beshinchisi bo'lma, haloq bo'lursan" demadilarmu?

*Topar ilm ila odam o'g'li kamol,
Yeturmas kamola jamol ila mol
kerak o'rtanur ilm uchim sham'dek.*

Tanimoq xudoni ilnisiz maqol... – deb yoshlarga pand-u nasihatlar qilarkan, u navqiron avlodda o'zining "istiqboldan orzular"ini amalga oshiruvchi kuchni ko'rgan edi. Uning fikricha, xoh yigit, xoh qiz bo'lsin bolaligidanoq ijtimoiy foydali, mustaqil fikr yuritishni o'rgansin. Shuning uchun ham u yoshlarni, "...aziz umrimizni o'yin-kulgi, safsata, maloya'ni kabi behuda so'zlar ila o'tkarmay, har xil kitob, gazeta va jurnallarni o'qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmak lozimdur", – deb ogohlantiradi. A.Avloniy yoshlarning fikriy tarbiyasiga to'xtalar ekan, bu – muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur, "fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur" – deydi. A.Avloniy bolalarni mustaqil mantiqiy fikrlashga o'rgatishda ularni adolatparvar, rostgo'y, insonparvar, vijdonli qilib tarbiyalash zarurligiga alohida to'xtalib, "insonning mohiyati vijdonidan bilinur" deydi. Uning fikricha, adolatli odamni doim vijdon harakatga keltirib turadi. Lekin kishi qanchalik adolatli bo'lmasin, yolg'iz o'zi hech bir natijaga erisholmaydi: "Kishi adolat va insoniyat vazifasini yolg'uz o'zi buzuvchi ishlardan saqlanmak ila ado qilolmas. Balki o'zi bilan barobar jinsdoshlarining xato va fanoliqlarini tuzatmas va yaxshi joyga sa'y qilmak ila ado qila bilur" [2].

Yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalashda zamonaviy tibbiyot, pedagogika, psixologiya fanlari tavsiyalarini har bir oilada joriy qilish ayniqsa zarur. Har bir oila, ota-ona, eng avvalo, bola timsolida shaxsni ko'rishi, uning uchun shaxsga tegishli barcha huquq va erkinliklarni ta'minlashi borasida o'zining mas'ul ekanligini doimo his etib turishi nihoyatda muhim.

A.Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari ichida "Turkiy guliston yoxud axloq" asari ta'ahmiyatga molik axloqiy va ta'limiy-tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan qaytaruvchi ilm-axloq haqida fikr yuritiladi.

Shuningdek, u bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib: "Agar bir kishi yoshligida nafs buzulub, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmak kabidir"

[3] – deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy hislatlarning tarkibi to‘g‘risida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolalarning atrofidagi kishilar ahamiyatga ega. O‘zbek pedagogikasi tarixida Avloniy birinchi “Pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fanidir” deb ta’rif berganlar. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo‘limga ajratadi:

1. *Tarbiyaning zamoni.*
2. *Badan tarbiyasi.*
3. *Fikr tarbiyasi.*
4. *Axloq tarbiyasi hamda uning ahamiyati xususida fikr yuritadi.*

“Tarbiyaning zaamoni” bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi. Avloniy, tarbiya xususiy ish emas, milliy ijtimoiy ishdir. “*Alhosisil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir*” [4], – deb ta’kidlaydi.

Xullas, ma’naviy tarbiyaning qirralari juda ko‘p. Ma’naviy tarbiyada milliy g‘oya, milliy g‘ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarning har biri – ta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Umuman olganda, ma’naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati, o‘z mas’uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo‘lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma’naviy-ruhiy muhitni, soxta aqidalar, vayronkor g‘oyalar va ma’naviy tajovuzlar bilan buzish qiyin. Ularni o‘zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlaridan chalg‘itib ham bo‘lmaydi. Hozirgi davrda ma’naviy tarbiya yo‘nalishida mamlakat oldida turgan muhim vazifalarni bajarish, el-yurtga fidoyi va sadoqatli, haqiqiy vatanparvar, chuqur bilimli va ma’nan barkamol shaxslarni tarbiyalash bu borada xizmat qiladigan ziyoli va xizmatchilar, o‘qituvchilar va mutaxassislar, umuman, barcha ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlarining muqaddas burchiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://oyina.uz/uz/teahouse/1888>
2. Atayeva S., Rasulova F., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O‘quv qo‘llanma. I kitob. T.: “Fan va texnologiya”, 2012, B. 563-564
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T: Yoshlar nashriyot uyi., 2019. B.6
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T: Yoshlar nashriyot uyi., 2019. B.11

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA ZARURATI

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
dotsenti falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Global o'zgarishlar davrida g'oyaviy kurash tobora kuchayib borar ekan, u o'z navbatida ma'naviyatni yanada yuksaltirishni taqozo qiladi. Shu boisdan ham ma'naviyat, uning metodologiyasini, xalqimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hamda ajdodlarimizning donishmandlik an'alarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, ma'naviyat targ'iboti kutilgan samaralarni berishi uchun uni jamiyatning barcha a'zolari manfaati nuqtai nazaridan muttasil ravishda rivojlantirib, globallashib borayotgan zamon talablariga moslashtirib borish talab etiladi. Chunki ma'naviyat xalqimizning kelgusi taraqqiyot yo'llarini ko'rsatib beruvchi umummilliy dastur bo'lib, unda jamiyatimizning rivojlanish dialektikasi o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, davlat, jamiyat, axborot, texnologiya, innovatsiya, kommunikatsiya, universallashuv, integratsiya, kapital, texnogen, antropogen, millat, g'oya, ma'naviyat, mafkura, madaniyat, axloq, qadriyat, ma'rifat, iymon-e'tiqod, urf-odatlar, an'ana, ekstremizim, xuruj.

Insoniyat taraqqiyotining bugungi bosqichida eng katta masshtabdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan biri, shubhasiz, globallashuv jarayonlari deyishimiz mumkin. Globallashuv jarayonlari jamiyatning siyosiy, iqtisodiy sohalari bilan bir qatorda ijtimoiy-ma'naviy jabhalariga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda, ijtimoiy ongning turli ko'rinishlari yangicha mohiyat kasb etib, mutlaqo boshqacha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar, jadallashuv jarayonlari bir so'z bilan "globallashuv" deb nomlanmoqda.

Globallashuv haqida xorij olimlari tomonidan turli qarashlar bayon etilgan. Xususan, amerikalik olim va siyosatchi Charlz Tilli bu jarayon tarixan ancha ilgari boshlangan, deb hisoblaydi. Uning fikricha, "...dunyoda davlatlar sarhadi paydo bo'lib, o'lkalar o'rtasida mol ayirboshlash kengaygan davridayoq globallashuv kurtak yozgan"[1]. Globallashuv shunchalik uzoq tarixiy jarayonni bosib o'tibdimi, kelajakda yanada taraqqiy etib boraverishiga tabiiy hol sifatida qarash, bizningcha, to'g'ri bo'ladi.

Tadqiqotchi Devid Harvi hamkasbi nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlab, "... globallashuv kapitalizmning uchinchi bosqichi, degan fikrni ilgari suradi"[2].

Bizning fikrimizcha, Charlz Tilli va Devid Harvilar globallashuvni iqtisodiy kategoriya sifatida tahlil qiladilar. Ammo bugungi kunda bu hodisa

ijtimoiy-siyosiy sohalarda ham o‘ziga xos jihatlarni qamrab olmoqda.

Bugunga kelib global o‘zgarishlar muqarrar va ortga qaytarib bo‘lmas jarayonga aylandi. Dunyoda o‘zaro bog‘liqlik tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda inson jahonda sodir bo‘layotgan muammolardan ayri holda mavjud bo‘la olmasligini anglab yetdi. Global o‘zgarishlar hammaga birdek o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Yer shari aholisining taqdiri tobora o‘zaro mahkam va chambarcha

Ko‘rib turganimizdek, globallashuv shunday jarayonki, unda kuzatuvchi maqomida bo‘lish uning ta‘siriga ko‘proq tushishga sabab bo‘ladi. Bunday g‘ayri ixtiyoriy ta‘sir esa ko‘pincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Bu haqida professor S.Otamurodov, “globallashuv” jarayon bo‘lib, ayni paytda, uning “mavhum” tushuncha ekanligi, fan, texnika, texnologiyaning jadal ommalashib ketishi bilan moddiy borliqqa aylanib boradi, - deb xulosa qiladi. Olimning fikricha, bu jarayoni milliy ong va milliy o‘zlikni anglashning susayib borishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi”, [3] – deb ta‘kidlaydi. Shuningdek, “globallashuv, bir tomondan, insoniyat intellektual salohiyati taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lishi bilan ijobiy jarayon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, rivojlanayotgan va kam taraqqiy qilgan millatlarning yuksak taraqqiyotga erishgan millatlarga bog‘lanib qolishiga olib keladigan salbiy jarayondir” [4]– deb globallashuv tushunchasiga ko‘pqirrali jarayon sifatida tavsif beradi.

Bizning fikrimizcha, S.Otamurodovning qarashlarida globallashuv natijasida milliy mentalitetimizdagi akseologik va gnoseologik tafakkur tarzini turli salbiy ta‘sirlardan saqlash davrimizning muhim muammolardan biriga aylanayotganligiga nisbatan ishorani ko‘rish mumkin.

Tadqiqotchilarning globallashuv bo‘yicha bildirgan fikr-mulohazalari asosida biz mazkur tushunchaga o‘z mualliflik ta‘rifimizni quyidagicha ilgari surdik: globallashuv bu – taraqqiy etgan insoniyat hamjamiyatida ob‘ektiv ravishda sodir bo‘ladigan, axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan va jamiyatdagi barcha sohalarning takomillashuvi, universallasuvi va integratsiyalashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Zero, insoniyat tarixida, xususan, globallashib borayotgan bugungi dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar tadrijini kuzatish kishiga jahonda kuzatilayotgan tabiiy, madaniy-ma‘rifiy, siyosiy va boshqa sohalardagi islohotlar jarayonlarini tanqidiy tahlil qilish asosida xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq, avvalo, ma‘naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g‘oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega”, [5] deb ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, Ma‘naviyat va milliy g‘oyaning global o‘zgarishlar davrida eng xarakterli xususiyatlaridan biri axloqiy munosabatlar

va me'yorlar ijtimoiy ahamiyatining ortishi hamda mintaqaviy xususiyatlar ahamiyatining sezilarli darajada oshib borayotganligida ko'zga tashlanadi.

Ma'naviyatning o'ziga xos tomoni shundaki, u har qanday jamiyatning qadriyatlar tizimida o'zining o'rniga ega va aynan qadriyatlar axloqiy me'yorlarga amal qilinishida eng muhim omillardan biri bo'lib, ma'lum bir mintaqa yoki ijtimoiy guruhning boshqalaridan ajratib turuvchi asosiy xususiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Bizningcha globallasuv jarayonida ma'naviyatning qadri, uning ahamiyati va tamoyillari tobora susayib bormoqda, jamiyatni boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib borishda an'anaviy qoidalar o'rnini doimiy ravishda tavakkalchilikka asoslangan, ma'naviy tahdidlar, g'ayriaxloqiy yengil-yelpi hayotni targ'ib qiluvchi "ommaviy madaniyat" egallab bormoqda. "Axloq insonlarning faqatgina ma'naviy-ruhiy olamida aks eta boshladi, globallasuv davrida esa qadriyatlar, asosan moddiy ehtiyoj va talablardan kelib chiqib baholanadi"[6].

Hozirgi kunda global o'zgarishlar davri yangi-yangi hudud va mintaqalarni, inson faoliyatining barcha sohalarini o'z domiga tortmoqda. Rus tadqiqotchisi M.Reshetnikov globallasuvning vujudga kelishi va rivojlanishida axborot texnologiyalarining o'rnini katta ekanligini ta'kidlaydi. Olim globallasuv jarayonidagi asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida "yuqori texnologiyalarning rivojlanishi, axborot uzatish tezligining o'sishi va shaklining murakkablashib borishini ko'radi"[7]. Darhaqiqat, axborotlashuv jarayoni global o'zgarishlar davrining xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, globallasuv jarayonlari eng ilg'or, zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi insonlar uchun cheklanmagan imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. Shu bilan birga, global o'zgarishlarning hozirgi dunyoda bir qator ixtilof va ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgan jihatlari ham mavjud. Bular qatorida, avvalo, madaniyat va uning o'q ildizini tashkil etgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabat masalasini keltirishimiz mumkin. Shu jihatdan global o'zgarishlarga butun dunyoni qamrab olgan madaniy inqilob, deya ta'rif berish ham mumkin. Bugungi kunda, global o'zgarishlardan samarali foydalanilgan taqdirda, har qanday mamlakat, xususan, O'zbekiston uchun ham olg'a harakat qilishning samarali sharti, kuchli davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga bo'lgan umid tayanchi sifatida qarash mumkin.

Bizning fikrimizcha, global o'zgarishlar davrida g'oyaviy kurash tobora kuchayib borar ekan, u o'z navbatida ma'naviyatni yanada yuksaltirishni taqozo qiladi. Shu boisdan ham ma'naviyat, uning asosiy mazmun-mohiyati, birinchi navbatda, xalqimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, mustaqil O'zbekiston davlatini barpoetishda ajdodlarimizning donishmandlik an'alarini

yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, ma'naviyat targ'iboti kutilgan samaralarni berishi uchun uni jamiyatning barcha a'zolari manfaati nuqtai nazaridan muttasil ravishda rivojlantirib, globallashib borayotgan zamon talablariga moslashtirib borish talab etiladi. Chunki ma'naviyat xalqimizning kelgusi taraqqiyot yo'llarini ko'rsatib beruvchi umummilliy dastur bo'lib, unda jamiyatimizning rivojlanish dialektikasi o'z aksini topgan.

Shunday qilib, ma'naviyat jamiyatni jipslashtiruvchi, uni ijtimoiy taraqqiyot ko'ndalang qo'yayotgan masalalarni hal qilishga, chetdan bo'layotgan g'oyaviy tahdidlardan himoyalashga qaratilgan vositadir. Globallashuv jarayonlari unga bo'lgan ehtiyojni keskin oshiradi. Aslini olganda, globallashuv jarayonlarining salbiy jihatlari ma'naviyatga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu jarayonsiz har bir millatning ma'naviyati o'zicha mavjud bo'lar va imkoniyat darajasida rivoj topardi. Tashqi ta'sir va tahdidning bo'lmasligi ma'naviyatga ehtiyojni ham bugungidek dolzarblashtirmas edi.

Shu ma'noda, global o'zgarishlar davrida zamonaviy texnologiyalarning paydo bo'lishi va shu asosida ma'naviyatni yuksaltirish jarayoni borasidagi ma'lumotlarni jamlash va tahlil qilish tadqiqotimiz mohiyatini ochishda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Bu haqda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Albatta, xalqaro maydonda munosib o'rin egallash yo'lida zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan islohotlarni amalga oshirish milliy taraqqiyot strategiyamizning ustuvor jihatidir"[8], - deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ilm-fan, texnika va texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan globallashuv davrida buzg'unchi g'oya va mafkura targ'ibotchilarining odamlarni axloqsizlikka undovchi harakatlari tufayli kelib chiqayotgan yangi tipdagi mafkuraviy beqarorlik, g'oyaviy zaiflik va parokandaliklarning oldini olish, mafkuraviy yakkahokimlikka, g'oyaviy mutaassiblik, g'oyasizlikka qarshi kurashish, uning o'q ildiziga zarba berish uchun zamonaviy texnologiyalar asosida ma'naviyatni yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirishning zamonaviy usul va vositalar orqali targ'ibotini yanada oshirishni davr taqozo etmoqda. Buzg'unchi g'oyalarning oldini olish, har qanday ko'rinishdagi mafkuraviy tajovuz, g'oyaviy ziddiyat, g'oyaviy qaramlik kabi holatlarga qarshi kurash borasida ilgari surilayotgan innovatsion g'oyalar shu asosida ishlab chiqilgan usul va vositalar yuksak axloqiylik va ezgulikka, adolatni qaror toptirishga yo'g'rilgan bo'lishi kerak. Ana shundagina, zamonaviy xarakterdagi g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy-ma'naviy hayotiga tatbiq etilishi ularni bunyodkor g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash va boshqarish ishlarining samarali tarzda tashkil etilishiga erishgan bo'lamiz.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ulug' strategik maqsaddan kelib chiqqan holda g'oya va mafkuralarga nisbatan yangicha munosabat shakllandi, ya'ni milliy mafkuramiz millatimizning azaliy

an'alariga, qadriyatlariga, xalqimizning tafakkur tarziga asoslanishi, shu bilan birga, umumbashariy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi va Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishi, turli xil fikr va mulohazalar bilan o'z mazmunini boyitib borishi hamda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilmasligi lozimligi e'tirof etildi. G'oya va mafkuralarga bo'lgan bunday munosabat jamiyatimizning barcha sohalarida ham o'z aksini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tilli Ch. Coercion, Capital, and European states, AD 990-1992. Blackwell, 2015. – P.67.
2. Harvey D. Brief Historiy of Neoliberalism. W. Ross MacDonald School Resource Services Library, 2014. – P 37.
3. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. –B. 70.
4. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. –B. 73.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi // Xalq so'zi, 2021-yil 20 yanvar № 13.
6. <http://conflictmanagement.ru/globalizaciya-i-mesto-morali>.
7. Решетников М.М. Глобализация - самый общий взгляд. Часть 1. –Спб.: Восточно-Европейский институт психоанализа, 2002. – С. 76.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B 304.

JAMIYAT HAYOTINI ERKINLASHTIRISHDA GENDER TENGLIKKA AMAL QILISHNING O'RNI

Shuxrat Otaqulov
MTTDMQTMOI "Ijtimoiy fanlar"
kafedراسи dotsenti

So'nggi-yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida inson qadri va manfaatlarini himoya qilish, har qanday holatda ham uning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi turibdi. Xususan, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning jamiyat hayotining

barcha jabhalarida o‘z imkoniyatlari hamda qobiliyatlarini erkin namoyon qilishlari uchun sharoit yaratish, xotin-qizlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida gender tengligiga erishish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuningdek mamlakatda gender tenglikni ta‘minlashga va xotin-qizlarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirishga doir islohotlar olib borilmoqda. Xotin-qizlar huquqlarini kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo‘yicha umume’tirof etilgan xalqaro normalarni milliy qonun hujjatlariga implementatsiya qilish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan xalqaro hujjatlar normalarining amaliyotga joriy etilishi hamda unda belgilangan tavsiyalar ijro qilinishi yuzasidan monitoring olib borish, davlat organlari mansabdor shaxslarining gender tenglikni ta‘minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, turmush sharoitlarini yaxshilash, mehnat kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlarni alohida ta‘kidlash zarur.

Xususan, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Tijorat banklari mikrokredit bazasi mijozlarining 30 foizidan ortig‘ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Tijorat banklari mablag‘lari hisobidan 172 mingdan ortiq xotin-qizlarga 4,9 trillion so‘m miqdorida kreditlar ajratildi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan xotin-qizlar soni bir-yilda 45 ming nafarga ko‘paydi.

2019-yildan boshlab aholining ish bilan ta‘minlanishi va yangi ish o‘rinlari yaratilishi davlat buyurtmasi asosida amalga oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. O‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarga vaqtincha mehnat guvohnomalarini berish va ularning ish stajini qayd etish tartibi joriy etildi. Natijada norasmiy sektorda band bo‘lgan xotin-qizlarning ulushi 30 foizga yetdi.[1]

Respublikaning chekka hududlarini rivojlantirish, qishloqlarni obodonlashtirish, qishloqlarda yashovshi xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash orqali kambag‘allikni qisqartirishga ham alohida e‘tibor qaratildi. Qishloq xo‘jaligining turli sohalarida 1,5 milliondan ortiq xotin-qizlar mehnat qiladi. Tadbirkorlik sub’ektlarining 20 foiziga, shu jumladan, fermer xo‘jaliklarining 7,3 foiziga ayollar rahbarlik qiladi.

2017-yildan boshlab sog‘liqni saqlash tizimida tub o‘zgarishlar amalga oshirilib, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, fuqarolarni

sogʻlom farzandlar tugʻilishiga ongli va masʻuliyatli munosabatda boʻlishga oʻrgatish, xotin-qizlar va erkaklarning reprodktiv huquqlarini amalga oshirishda teng imkoniyatlarni yaratish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Soʻnggi oʻn-yillikda butun dunyo hamjamiyatida demokratik meʼyor va tamoyillarni qaror toptirish uchun kurashning dolzarblashuvi munosabati bilan gender tengligi muammosi tobora keskinlashib bormoqda. Gender tengligi asosiy ijtimoiy qadriyat sifatida umumiy tenglik konsepsiyasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Gender strategiyasining asosiy maqsadi - irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qatʼiy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini taʼminlashdan iboratdir.

Gender strategiyasining asosiy vazifalari va maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

xotin-qizlarning yer va mulkka nisbatan egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, taʼlim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qoʻllab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari ushun teng imkoniyatlarni yaratish;

xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi oʻrni bilan bogʻliq salbiy qarashlarni oʻzgartirish, aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek, munosib ish oʻrinlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga boʻlgan imkoniyatlarini kengaytirish;

xotin-qizlar va erkaklarni butun umri davomida oʻqishga boʻlgan imkoniyatlarini ragʻbatlantirish, ularning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyatini oshirish va reprodktiv salomatligini mustahkamlash, ular oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini yuksaltirish, odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish;

tazyiq va zoʻravonlikni oldini olish, ularni aniqlash va barham berish boʻyicha samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish, oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila aʼzolarining masʻulligini oshirish, erta nikoh, yaqin qarindoshlar oʻrtasidagi nikoh, erta tugʻruq hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish;

gender tenglik tamoyillarini ilgari surishda, xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarini teng amalga oshirishda buydjetni rejalashtirish;

gender masalalarini buydjet jarayonlariga integratsiyalash, gender statistikasi yuritilishini takomillashtirish, gender tenglik, ayollar tadbirkorligi,

xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini baholovchi xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekistonning o‘rmini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi gender tenglikni ta‘minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish milliy maqsadlariga erishishda parlament, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, gender tenglik sohasidagi xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga mos bo‘lgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.[2]

Darhaqiqat mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligini ta‘minlash, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi rolini oshirish, ularni turli mas‘uliyatli lavozimlarga tayinlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada mustahkam huquqiy baza shakllantirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq imkoniyatlarini ta‘minlashi belgilab qo‘yildi (58-modda). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan 100 ta maqsadni o‘z ichiga olgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta‘minlash mazkur hujjatda 25-maqsad qilib belgilandi. Gender tenglikni ta‘minlash siyosatini davom ettirish borasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan muhosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash masalalari alohida o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://mamainthesity.ru/Business_Mom/Sareer/issledovanie-udovletvorennosti-rabotoy-zhenshshinu-shuvstvuyut-sebya-na-rabotesshastliveeshem-muzh
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 22 fevraldagi BMT Inson huquqlari bo‘yicha sammitining 46-sessiyasida so‘zlagan nutqi // <https://president.uz>

FUQAROLARNING SIYOSIY ONGI VA SIYOSIY MADANIYATINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Astanov Axunjon Raubovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU

“Siyosatshunoslik” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada siyosiy ong tushunchasi, siyosiy jarayonlar haqidagi siyosiy tasavvurlar, qarashlar, ko‘nikmalar va bilimlar. Siyosiy madaniyat tushunchasi va u bilan bog‘liq muammoning dolzarbligi. Siyosiy madaniyat faqat oddiy fuqarolargagina emas, balki hammaga – davlat idoralari, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga ham taalluqliligi. Fuqarolar va jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqida bir qancha fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Siyosiy ong tushunchasi, siyosiy madaniyat tushunchasi, insonparvarlik, siyosiy jarayon, siyosiy tasavvur, siyosiy tizim, huquqiy layoqat, demokratiya.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida inson huquq va erkinliklarini hamda manfaatlarini himoya qilish mujassamdir. Jumladan huquqiy islohotlarning ham bosh maqsadi insonparvar demokratik davlat barpo etishga qaratilgan bo‘lib, islohotlarning tub negizida inson manfaatlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish, bir so‘z bilan aytganda, haqiqiy fuqarolik jamiyatini barpo etish yotadi.

Olib borilayotgan islohotlarni idrok qila olish, siyosiy ong va siyosiy madaniyatni talab qiladi. Siyosiy ong va siyosiy madaniyatga ega shaxslargina voqelikni bilish, anglash, baho berish va unda faol ishtirok etishga harakat qiladi. Siyosiy qarashlariga ega fuqarolar o‘zlarini jamiyat va davlat oldida nafaqat huquq va erkinliklari mavjudligini, balki burch va majburiyatlari borligini ham unutmasligi lozim. Sababi, fuqarolarning o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini bilishi va uni hayotda qo‘llay olishi hamda qonunlarga og‘ishmay rioya etishi davlatning rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda siyosiy ong nima ekanligiga to‘xtalib o‘tamiz.

Siyosiy ong deganda, siyosiy jarayonlar haqidagi siyosiy tasavvurlar, qarashlar, ko‘nikmalar va bilimlar majmui tushuniladi. Siyosiy jarayonlar birinchi navbatda davlat hokimiyati, uning siyosiy boshqaruvdagi faoliyati va unda kechadigan siyosiy munosabatlar bo‘lib, u bir maromda rivojlanishi, turg‘un holatga tushishi yoki yuqori darajaga ko‘tarilishi mumkin. Ularning qanday kechishi davlat hokimiyatining siyosiy boshqaruvni qaysi darajada tashkil etishiga bog‘liq holda kechadi.

Siyosiy ong davlat paydo bo'lishi bilan unda yashayotgan shaxslarda shakllana boshlaydi. Buning negizida davlatning manfaatlarini nazarda tutuvchi siyosatni olib borishi yoki olib bormasligi muammosi turadi. Shaxs ana shu ikki holatda ham davlat hokimiyatining siyosiy boshqaruvidagi faoliyatiga nisbatan o'z munosabatlarini shakllantiradi. Davlat obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, shaxsning ehtiyojlarini to'la qondira olmaydi, buning imkoniyati ham yo'q. Chunki, shaxs qancha farovon yashasa, uning ehtiyojlari ham shu darajada oshib boraveradi. Bu obyektiv jarayon, xuddi ana shu ehtiyojlarning oshib borishi mamlakat va shaxsni taraqqiyotiga yetaklovchi omildir. Agar ehtiyojlarning oshib borish jarayoni to'xtasa, bu taraqqiyotning ham to'xtashiga olib keladi. Bu jarayonda siyosiy ong rivojlanishi davlat hokimiyatining siyosiy boshqaruvda siyosiy ehtiyojlarining unga nisbatan o'z munosabatlarini bildirish vaziyatini yuzaga keltiradi. Ana shu holatda shaxsda davlat hokimiyatining siyosiy faoliyatiga nisbatan qarashlari, tasavvurlari va ko'nikmalari vujudga kela boshlaydi. Ular davlat hokimiyati taraqqiyotiga muvofiq rivojlanib boraveradi.[1]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki siyosiy ong qonunlar va siyosatni amalga oshirishni bilish imkonini beradi, insonning atrof-muhitga va siyosiy hayotga munosabatini shakllantiradi, davlat siyosatining maqsad va mazmunini tushunishga yordamlashadi.

Fuqarolarda siyosiy ongning shakllanishi orqali ularda bir qancha siyosiy bilimlar hosil bo'ladi.

- 1) fuqaro sifatidagi huquq va majburiyatlarni bilish;
- 2) o'ziga bildirilgan fikr va e'tirozlarga huquqiy munosabatda bo'lish;
- 3) jamiyatdagi ziddiyatlar yoki muammolarda faol bo'lish;
- 4) o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik;
- 5) farovonlik va jamiyat taraqqiyoti haqida qayg'urish;
- 6) ijtimoiy va siyosiy ma'lumotlarni bilish;

Shuning uchun ham mamlakatimizda fuqarolarning siyosiy ongini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyat va davlat hayotida faqat siyosiy ong rivojlanishining o'zi siyosiy barqaror taraqqiyot uchun yetarli emas, buning uchun albatta, siyosiy madaniyatning ham barqaror taraqqiyoti katta ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham jamiyatda siyosiy madaniyatning rivojlanganlik darajasiga qarab, siyosiy tizimining qanchalik mukammal tashkil qilinganligiga baho berish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy va huquqiy jihatdan layoqatlilik darajasini ifoda etib, jamiyatda siyosiy va davlat institutlarining shakllanishi, faoliyat ko'rsatishiga, shuningdek, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tashkil qilinish jarayoniga katta va hal qiluvchi, ta'sir o'tkazuvchi omil

sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bois “Siyosiy demokratiyani vujudga keltirish ishtiyoqida bo‘lgan davlat arboblari ko‘pincha asosiy e‘tiborni demokratik hukumat institutlarining rasmiy majmuini tuzish va konstitutsiya yozishga qaratadilar. Vaholanki, barqaror va samarali demokratik boshqaruv rivojlanishi uchun hukumat tuzilmalari va siyosiy jarayonning o‘zi kifoya qilmaydi. U... siyosiy madaniyatga bog‘liqdir. Agar bu madaniyat demokratik tuzumni qo‘llab quvvatlashga qodir bo‘lmasa, mazkur tuzumning muvaffaqiyat qozonishi juda mushkul”. [2] Bu haqiqat hozirgi O‘zbekiston uchun ham juda dolzarbdir. Mamlakatimizda mavjud siyosiy madaniyat demokratiyaning qad rostlashi va rivojlanishiga qanday hissa qo‘shadi? Umuman bu ikki tushuncha bir-biriga qay darajada bog‘liq? Siyosiy madaniyat bilan bog‘liq muammoning dolzarbligi hozirgi kunda uning saviyasi ancha pastligi bilan izohlanadi. Bu faqat oddiy fuqarolargagina emas, balki hammaga – davlat idoralari, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga ham taalluqlidir. Ko‘pchilik jamiyatshunos olimlarning fikricha, davlatning rivojlanishi aynan siyosiy madaniyatning ahvoli bilan bog‘liq bo‘lib, siyosiy madaniyatning rivojlanganlik darajasiga qarab, jamiyat siyosiy tizimining qanchalik mukammal tashkil qilinganligi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin. Ya’ni, siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy va huquqiy layoqatini ifoda etuvchi, siyosiy institutlarning shakllanishiga, faoliyat ko‘rsatishiga, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning tashkil qilinish jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Siyosiy madaniyat haqida siyosatshunos olimlar turli xil ta’riflarni berib o‘tganlar. Jumladan, “mustaqillik” izohli ilmiy ommabop lug‘atida keltirilganidek, “siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim turi, jamiyat a’zolari, millat, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaroning davlatning ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o‘z xatti-harakatlarini belgilash hamda ularni amalga oshirish madaniyati. Oldindan ko‘ra bilish iste’dodi, harakat yo‘nalishini o‘zgartirish, nazariy va amaliy yo‘nalishlarini aniqlay olish, tarafdorlar topish, ijtimoiy jarayonlarning tezligiga ta’sir o‘tkazish siyosiy madaniyatning jihatlaridan sanaladi” [3] degan ta’rif berilgan.

Demak, siyosiy madaniyat shaxsning siyosiy boshqaruvda majburiy buyruqbozlikka emas, balki siyosiy vazminlik, adolatlilik, o‘zaro ishonch tamoyillarida namoyon bo‘ladi. Lekin bu masalada shuni ham hisobga olish kerakki, siyosiy madaniyat siyosiy ongdan oldin shakllanmaydi va rivojlana olmaydi. Mana shu oraliq masofada muvozanat buzilib ketishida siyosiy ongning ahamiyati katta. Ya’ni, fuqarolarning siyosiy bilimiga ega

bo‘lmasdan turli siyosiy jarayonlarga aralashib ketishi, ziddiyatlarning paydo bo‘lishi individlarning ongiga bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni, siyosiy ongning siyosiy madaniyatga nisbatan keskin rivojlanishiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kerak. Agar siyosiy ong , siyosiy madaniyat bilan bir vaqtda rivojlantirilmasa, mamlakat siyosiy ziddiyatlar girdobiga tushib qolishiga olib kelish xavfi tug‘iladi.

Siyosiy ongning siyosiy madaniyatdan oshib ketishi professor S. Otamurodovning fikriga ko‘ra, jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarning vujudga kelishi barcha aholi, jumladan, yoshlar o‘rtasida ishsizlikning yuzaga kelishiga, shuning bilan birga iqtisodiy ahvoldning yomonlashuviga olib keladi. Har bir davlat yoshlarning talab-ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniq ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan davlat dasturiga ega bo‘lishi lozim. Agar bu davlat faoliyatida hisobga olinmas ekan, yoshlarning davlatga nisbatan ishonchi barbod bo‘ladi va bu jarayonning zimdan rivojlanib ketishi, kuni kelib birdan yuzaga qalqib chiqishiga olib keladi. Mana shu holat barqaror rivojlanib kelayotgan siyosiy madaniyatning yuzaga kelgan vaziyatni “yumshatishga” kuchi yetmay qolishini, uning o‘rniga siyosiy ongning keskin o‘tib ketishini tezlashtirib yuboradi.[4]

Demak, siyosiy ong va siyosiy madaniyatning o‘zaro munosabatlarida muvozanatning doimiy amal qilishiga erishish – davlat siyosiy faoliyatidagi muhim masala hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda fuqarolarning siyosiy ong va siyosiy madaniyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini oshirishning ahamiyati juda katta. Bu, demokratik jamiyatning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Siyosiy ong, fuqarolar uchun siyosiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bu, fuqarolar uchun demokratik jarayonlarda ishtirok etish, o‘z fikrlarini ifoda qilish, hukumat faoliyatini hisobga olgan holda ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Fuqarolar siyosiy tashkilotlar orqali jamiyat ishlarida qatnashish, hukumat tashkilotlari va idoralarga murojaat qilish orqali o‘z manfaatlarini muhofaza qilish va jamiyatni rivojlantirishga o‘z hissasini kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Siyosiy madaniyatning oshirilishi esa, fuqarolar o‘rtasidagi siyosiy mafkuraviy muhokamalar va g‘oyalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu orqali, muhokama va tanqidlar siyosiy jarayonlarga hissa qo‘shish, yangi fikrlar va g‘oyalarni rivojlantirish, jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy adolatni ta’minlash imkoniyatini yaratadi.

Siyosiy ong va siyosiy madaniyatning rivojlanishi, fuqarolar uchun jamiyatdagi muhim ishtirok va qatnashishni ta’minlaydi. U bu bilan birga demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishga, o‘z fikrini ifoda qilish

va hukumat faoliyatiga ta'sir qilish imkoniyatini beradi. Shu sababli fuqarolar siyosiy ong va siyosiy madaniyatni oshirishga e'tibor berish, o'z manfaatlarini muhofaza qilish va jamiyatni rivojlantirishda aktiv ishtirok qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo'tayev U.X. "Siyosatshunoslik": Darslik. – T.: Info Capital Books, 2024. –B. 301
2. Odilqoriyev X.T., G'oyibnazarov Sh,G', Siyosiy madaniyat. – T., 2004. – B. 7.
3. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. –T.: Sharq, 1998. –B. 191
4. Otamuratov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. –T.: O'zbekiston, 2015, — B. 71.

O'ZBEKISTONDA HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY VA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

Xolikov Yuldosh Tuychiyevich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
boshlig'ining tarbiyaviy va mafkuraviy
ishlar bo'yicha o'rinbosari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarimizning kasbiy va ma'naviy-axloqiy madaniyatini rivojlantirishda hayotiy va professional ko'nikmalarini ilm-ma'rifat asosida tarbiyalashning ayrim ko'rsatgichlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: xizmatchilarimizning kasbiy va ma'naviy-axloqiy madaniyat, harbiy xizmat, sadoqat, milliy qadriyatlar, axloq-odob qoidalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"ga 2018-yil 4-avgust kunidagi PQ-3898 sonli qaroriga muvofiq bugungi kunda Mudofaa vazirligi tarkibidagi barcha xizmatchilar bir tanu bir jon bo'lgan holda milliy armiyamizda faoliyat yuritayotgan harbiy xizmatchilarning hayotiy va professional ko'nikmalarini ilm-ma'rifat asosida qalbi va ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini

oshirib borish, yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondoshish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalarida to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishda hamjihat va hamkor bo‘lishimiz lozim. Biz harbiylar o‘zimizning ma‘naviy-axloqiy jihatdan yanada komillik sari borishimizda qanday asoslarga tayanishimiz kerak bo‘ladi.

Eramizdan oldingi zamonda yashab, meros qoldirgan bobolarimizdan boshlab, “Avesto”da bitilgan qadriyatlarimizdan boshlab, islom dini bilan, xalqimizni Vatan uchun jon berib jon olgan, tarixi davomida shakllangan va ommaviylashgan qadriyatlarimiz bilan birgalikda umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni o‘rnatishga e’tiborimizni qaratishimiz kerak bo‘ladi.

Jahonda Buyuk Britaniya, AQSh va boshqa yetakchi davlatlar o‘zlarining davlat manfaatlarini doimo qattiq turib himoya qilishadi, sayyoramizda o‘z ta’sirlari bo‘yicha doimo yetakchi bo‘lish uchun harakat qilishmoqda. Hozirgi kunda Milliy xavfsizlik kontseptsiyasi va Mudofaa doktrinasi doirasida ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Yuz berishi mumkin bo‘lgan harbiy harakatlar teatri va uning real xususiyatlari, ilg‘or xorijiy tajribalar har tomonlama hisobga olinib, shu asosda ixcham, yaxshi ta’minlangan, yuksak jangovar ruhga ega bo‘lgan milliy armiyamiz barpo etildi.

Ayni damda mudofaa sohasidaga asosiy vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha turli yo‘nalishlarda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Mazkur vazifalarni bajarish uchun esa, barcha pog‘onadagi harbiy xizmatchilarimiz albatta, ma‘naviy-axloqiy jihatdan har tomonlama yetuk insonlar darajasida bo‘lishini ta’minlash kerak.

Qo‘shinlarda o‘tkaziladigan islohotlar, albatta xalq qiziqishlari bilan bolg‘iq bo‘lishi lozim, buni doimo xotirada tutish kerak, ayniqsa, ma‘naviy-axloqiy sohada islohotlar o‘tkazganda. Zaruriy o‘zgarishlar samaradorligi birinchi navbatda harbiy fan qonunlariga va qurolli kurash va urushning ma‘naviy qonunlariga qanchalik suyanishiga bog‘liq bo‘ladi. Faqat mana shundagina O‘zbekiston harbiy tashkilotining sifatiiy parametrlarini sifatiiy jihatdan aniqlash, uni ma‘naviy-axloqiy an’analar asosida yaratish mumkin bo‘ladi.

Harbiy xizmatchining ma‘naviy qiyofasiga zid bo‘lgan illatlar deb: hayotdan uzilganlik, befarqlik, loqaydlik, qattiqqo‘llik, mas’uliyatsizlik, bilimsizlik, qo‘pollik, xo‘jako‘rsinlik, sansolarlik, ta’magirlik va boshqalar.

Inson ruhi, ma‘naviyati nimaligi azaldan insonlarni qiziqtirib kelgan. Bu borada minglab tariflar mavjud. Ammo aniq javob yo‘q. Bu buyuk sir-sinoatdir. Ma‘naviyatning mohiyatini aql-zakovat bilishga qodir emas.

O‘zbek adibi Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “ma’naviyatni bir so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. U qudratli, boy va biz uchun azizdir”, deb yozgan.

Yangi O‘zbekiston sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarimiz, armiya va xalqning faol hamkorligi natijasida Qurolli Kuchlarimiz tom ma’noda jamiyatning ajralmas qismiga, mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining ishonchli kafolatiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylanib bormoqda.

Biz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk vatandoshlarimiz bo‘lgan jasur, el-yurtga sadoqatli o‘g‘lonlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Armiya va xalq birligini ta’minlashga qaratilgan mutlaqo yangi tuzilma – harbiy-ma’muriy sektorlar barcha hududlarda samarali faoliyat yuritayotgani g‘oyat muhim ahamiyatga egadir.

Ana shunday islohotlar tufayli “Armiya va xalq – bir tanu bir jon!” degan olijanob g‘oya va amaliy harakat barcha bo‘g‘indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ta’lim-tarbiya muassasalari faoliyatini, keng jamoatchilik hayotini qamrab olmoqda. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharaflig burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Biz davlatimiz mudofaa qudratini har tomonlama oshirish, yetuk va malakali harbiy kadrlarni tayyorlashga, Vatan himoyachilari, ularning oilalari uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishga bundan keyin ham alohida e’tibor qaratilayotgan davlat siyosatimizning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib turibdi.

Xalqimizning “Bilagi zo‘r birni yengadi, bilimi zo‘r – mingni” degan maqolida chuqur ma’no bor. Shu nuqtai nazardan, Qurolli Kuchlarimizni modernizatsiya qilish, xususan, harbiy ta’lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur.

Ayni vaqtda shaxsiy tarkib o‘rtasida milliy o‘zlikni anglash va jangovar ruhni, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish doimo e’tiborimiz markazida bo‘lishi lozim. Shu maqsadda yosh askar va kursantlar uchun Vatanga qasamyod qabul qilishdan avval “Temur tuzuklari” kitobi bo‘yicha sinov o‘tkazish tartibini yo‘lga qo‘yish borasidagi sa’y-harakatlar keng miqyosda amalga oshirish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Bu esa ular qalbida Vatanga sadoqat, elga hurmat va ajdodlarga munosib voris bo‘lish tuyg‘usini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, yangi O‘zbekiston sharoitida harbiy xizmatchilar

shaxsining ma'naviy-axloqiy qiyofasi tubdan o'zgardi. Qurolli Kuchlar tizimi kuchli va mustahkam ma'naviy-axloqiy fazilatlarsiz yuksala olmaydi. O'tgan 2020-yil mamlakatimiz halqi bir qancha og'ir sinovlarni boshidan o'tkazdi. Koronavirus pandemiyasi, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida sodir bo'lgan texnogen ofatlar so'zimizning isbotidir. Shunday qiyin bir vaziyatda harbiy xizmatchilarimiz xalq bilan yelkama-yelka turib, bor kuch-g'ayratlari va shijoatlari bilan yordamga shoshildilar. Bu jarayonda har bir harbiy xizmatchi o'zining yuksak ma'naviy va axloqiy qiyofasini yaqqol namoyon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4 avgust kunidagi PQ-3898-sonli Qarori.
2. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga o'tamiz. "O'zbekiston", 2016.
3. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami). –T; "O'zbekiston", 1997. B.198. Komilov T., Abidova S. Milliy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. O'R FA, "Fan", 2000. B.20; Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. - T; "O'zbekiston", 1997.
4. Tarbiya ensiklopediyasi. 2010. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".

YANGI QADRIYATLAR TIZIMINING SHAKLLANISHI.

Inagamova Feruza Xurshitovna,
*"Oila va xotin-qizlar" Ilmiy-tadqiqot
instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Yangi O'zbekistondagi yangi qadriyatlar tizimining shakllanishi, qadriyatlarning transformatsion xususiyatlarini ham doimiy faol ma'naviy harakatda ekanligini anglashimiz mumkin. Mazkur tendensiyani bugungi kunda zamonaviy o'zbek jamiyatidagi qadriyatlarni tizimlashtirishga harakat qilayotgan ilmiy doiralarning faoliyatida, tadqiqotlarining natijalarida ham kuzatishimiz mumkin.

Kalit so'z: Qadriyatlar, ma'naviy meros, yangi qadriyatlar, qadriyatlar tizimining transformatsiyasi, tendensiya.

Qadriyatlar transformatsiyasi yangi qadriyatlar tizimining shakllanishiga olib keladi. Yangi qadriyatlar tizimining shakllanishida yuqorida tilga olingan ikki jihat – qadriyatlarning tadrijiyligi, ma'naviy merosga tayanishi

hamda yangilanishning obyektiv zaruriyat ekanligi inobatga olinishi lozim. Umuman olganda yangi qadriyatlar tizimining vujudga kelishi bir necha bosqichlarda amalga oshadi. Faylasuf olim X.To‘xtayevning fikricha, Yangi O‘zbekistonda yangi qadriyatlar tizimini vujudga kelish jarayoni quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

“a) ijtimoiy hayotda yangilik vujudga kelib, takomillashib borgani sari, eskilikning amal qilish imkoniyatlari kamayib boradi;

b) eski qadriyatlarning qarama-qarshiligi bo‘lsa-da, reallikka aylanayotgan yangi qadriyatlarning amal qilish uchun shart-sharoitlar yetilib boradi, eski qadriyatlar tizimi inkor etila boradi;

d) eski qadriyatlarning miqyosi o‘zgaradi, ta‘sir doirasi kamayadi, avval xususiy, so‘ngra esa umumiy sifatiy o‘zgarish ro‘y beradi;

e) eski qadriyatlar tizimi amal qilishdan to‘xtashi bilan yangi tizim uni inkor etishni tugallash jarayoniga kiradi;

f) shu bilan birga yangi tizimning to‘liq shakllanishi, eskidan qolgan jihatlarni sarhisob qilish jarayoni boshlanadi;

g) shakllanib kelayotgan yangi tizim jamiyatdagi yangiliklarni o‘zlashtirishi bilan birga yangi ehtiyojlar, maqsadlar va qiziqishlarni ham vujudga keltiradi;

h) yangi tizimning barqaror holga kelishi uchun muayyan yo‘l, usullarni tanlash, chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatga aylanadi.[1]”.

Shu bilan birga, qadriyatlar tizimining transformatsiyasini “eski” va “yangi” qadriyatlar tizimining to‘g‘ridan to‘g‘ri, o‘zaro almashinuvi, birining to‘xtashi va ikkinchisini boshlanishi deb tushunmaslik kerak. Fikrimizcha, jamiyatdagi qadriyatlar transformatsiyasi uzluksiz sodir bo‘luvchi jarayon bo‘lib, barcha ijtimoiy-ma‘naviy hodisalarda bo‘lgani kabi uning konkret chegaralari, yangilanishining aniq davrini belgilashning imkoniyati mavjud emas. Yangi qadriyatlar tizimini ham faqatgina real vaqt rejimida anglash, his qilish mumkin. Shu bilan birga yangi qadriyatlar tizimi ham turg‘un (statik) emas, balki harakatchan (dinamik) hodisa, u ham doimiy o‘zgarishlarga uchraydi. O‘zgarishlarning ba‘zilari sifatiy ahamiyatga ega bo‘lsa, ba‘zilari xususiy, individual darajada sodir bo‘lishi mumkin.

Yangi O‘zbekistondagi yangi qadriyatlar tizimining shakllanishi, qadriyatlarning transformatsion xususiyatlarini ham doimiy faol ma‘naviy harakatda ekanligini anglashimiz mumkin. Mazkur tendensiyani bugungi kunda zamonaviy o‘zbek jamiyatidagi qadriyatlarni tizimlashtirishga harakat qilayotgan ilmiy doiralarning faoliyatida, tadqiqotlarining natijalarida ham kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, Respublikamizdagi yetakchi “aql markazlari”dan biri bo‘lgan Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

tomonidan xalqimizning boy tarixi, ma'naviy merosi, turmush tarzi, hayotiy qarashlari va e'tiqodidan kelib chiqqan holda muhim milliy qadriyatlarimiz ro'yxati e'lon qilingan. Mazkur ro'yxatga ota-onaga ehtirom, tozalik, harakatda baraka (mehnatsevarlik), o'zbek tili, diniy bag'rikenglik, erkin va mustaqil fikrlash (so'z erkinligi), lafz (qonun, burch va kelishuvga sadoqat), yelkadoshlik, mehmondo'stlik va rozi-rizolik qadriyatlari kiritilib, milliy va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti sifatida talqin etilgan [2]. Mazkur qadriyatlarning ro'yxatiga e'tibor qaratsak, ularning barchasi o'zbek xalqi uchun azaldan ijtimoiy ahamiyat kasb etgan qadriyatlar ekanligini ko'rish mumkin. Bu esa yangi qadriyatlar tizimi keskin sifatli o'zgarishlardan ko'ra, tarixiy taraqqiyotning ma'lum davridagi ijtimoiy talablardan kelib chiqib, mavjud qadriyatlar tizimidagi asosiy qadriyatlarning joyi almashinuvi, ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojning qondirilishi mahsuli ekanligini ko'rsatadi.

Misol uchun, urush sodir bo'lib turgan vaqtda vatanparvarlik, jasorat, mustabid tuzum davrida ozodlik, erkinlik, millat global taraqqiyotdan ortda qolayotganda esa ilmparvarlik, millatparvarlik, innovatsion fikrlash eng asosiy qadriyat darajasiga ko'tariladi. Bu holat o'sha vaqtda boshqa qadriyatlarning mavjud qadriyatlar tizimidan to'liq chiqib ketishini anglatmaydi, balki ijtimoiy ehtiyojdan kelib chiqib qolgan ularlarning nisbatan qadrsizlanishini, "sahna ortiga o'tishi" sodir bo'lishini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, qadriyatlarning transformatsiyasi, yangi qadriyatlar tizimining shakllanishi jarayonlari evolyutsion xarakterda bo'lib, keskin o'zgarishlar faqatgina miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuniyatiga mos holatda, keskin ijtimoiy bo'hronlar, jamiyat hayotidagi favqulodda sodir bo'lgan hodisalar tufayli yuzaga keladi. Ko'pincha qadriyatlar transformatsiyasi bu mavjud qadriyat tizimidagi asosiy, "yadro" qadriyatlar, ideallar va tamoyillarning tizimdagi boshqa qadriyatlar bilan almashinuvi jarayoni hisoblanadi. Ya'ni, yuqorida aytganimizdek, ijtimoiy zarurat qadriyatlar tizimining markaziga qaysi qadriyat kelishini belgilab beradi.

O'zbekiston misolida qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarni tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, Eng yangi tariximizga e'tibor qaratadigan bo'lsak, har bir o'n-yillikda jamiyatda mavjud qadriyatlar tizimida o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'rish mumkin. Xususan, 1940-yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston SSSRdagi ijtimoiy hayotda Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq tarzda jasorat, vatanparvarlik, sabr-toqat kabi ideallar asosiy qadriyatlarga aylangan. 1950-yillarda dastlab global patsifistik kayfiyatga monand tinchlik, totuvlik asosiy qadriyat sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, 1960-1970-yillarda xalqlararo hamkorlik, mehnatsevarlik, ishonch va birdamlik kabi ideallar

qadriyatlar tizimida markaziy o‘rinni egallagan. 1980-yillardagi siyosiy bo‘hronlar, kommunizm mafkurasining yemirilib borishi ma’naviy hayotga ham ta’sir ko‘rsatib, erkinlik, mustaqillik, milliy uyg‘onish, milliy o‘zlik kabi ideallar ideosferada “yadro qadriyatlar”ga aylandi. Mazkur qadriyatlar 1990-yillarda ham asosiy qadriyat sifatida e’tirof etilib, qadriyatlar tizimi endigina erishilgan mustaqillik mafkurasining mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Shuningdek, bu davrda insonparvarlik, demokratiya, milliy va diniy qadriyatlarga alohida e’tibor berila boshlandi. 2000-yillarda milliy g‘oya tizim holatiga keltirildi va bu qadriyatlar tizimida ham o‘z aksini topdi.

Yurt tinchligi, xalq farovonligi, vatan ravnaqi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik qadriyatlari qadriyatlar tizimining asosiga aylandi. Oxirgi 10-yillikda mazkur qadriyatlar qatoriga insonparvarlik, ilmparvarlik, innovatsion fikrlash, tadbirkorlik va omilkorlik kabilar ham qo‘shilib bormoqda. Umuman olganda, qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar jamiyat va davlat hayotida sodir bo‘layotgan ijtimoiy, siyosiy, huquqiy islohotlar bilan hamohang tarzda sodir bo‘ladi, qadriyatlar transformatsiyasi mavjud ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlar tufayli amalga oshadi hamda yangi ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlarni yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. To‘xtayev H. Zamonaviy O‘zbekiston rivojining hozirgi bosqichida yangi qadriyatlar tizimining shakllanishi // Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 5. – №. NUU Conference 2. – B. 728-738.
2. Obidxo‘jayev U. Milliy qadriyatlar haqida // Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti – 10.05.2023. – (murojaat sanasi 19.01.2024) https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/Milliy_qadriyatlar_haqida
3. O‘zbekistonda-yillar https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_yillar
4. Mustafayev U. Yangi O‘zbekiston: qadriyatlar va falsafiy fanlarning dolzarb muammolari bo‘yicha ayrim mulohazalar // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Toshkent, vol.1, issue 10, 2021. – B. 568-577.

IJTIMOIIY DAVLAT BARPO ETISHDA DAVLAT XIZMATCHISI MA'NAVIIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISH BORASIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI AHAMIYATI

Maxbuba Xoliyarova Sottorovna,
*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy davlat barpo etishda davlat xizmatchisi ma'naviy qiyofasini shakllantirish, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligi asosida yo'lga ko'yish, davlat xizmatini to'g'ri tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha sharq mutafakkirlarining davlat boshqaruvi to'g'risidagi qarashlarning ahamiyati to'g'risida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zi: ijtimoiy davlat, "Fozil odamlar shahri", nazorat, adolat, kasblar, mutaxassislar, axloq va tarbiya.

Har bir jamiyat taraqqiy etishi yoki aksincha inqirozga uchrashi kadrlar masalasi davlat xizmati bilan uzviy bog'liq hodisa sanaladi. Shuni unutmaslik kerakki davlat tarbiyalagan, ishonch bildirib xizmat vakolati topshirilgan davlat xizmatchisi ilmiy salohiyati, yuksak ma'naviy qiyofasi vatanparvarlik g'oyalari bilan to'yintirilganligi nafaqat jamiyat balki, mamlakatning ertangi taqdirini ham belgilab beradi. Mamlakat rivojida davlat xizmati faoliyati adolat va qonun ustuvorligi asosida yo'lga ko'yish muhim o'rin tutadi. Davlat xizmatini to'g'ri tashkil etish va amalga oshirish davlat apparatining boshqaruviga bevosita ta'sir etib, davlat o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishadi. Bunga insonlarning davlatchilikning tashkil topishi, taraqqiy etishi, inqirozga yuz tutishiga oid boshqaruvdagi bir necha yuz-yillik tajribasi yaqqol misoldir.

O'zbekiston istiqloq sharofati ila milliy huquq tizimining o'zgarishi jarayonida, davlat xizmati faoliyatini tartibga solishga doir normativ huquqiy hujjatlar takomillashib bordi. Shuningdek, davlat xizmatining yuridik tabiati o'zgarib, normativ qoidalarni o'z ichiga olgan kompleks huquq hamda ijtimoiy, siyosiy institutlar sohalar kesimida tashkil topa bordi. Mamlakatda farovon turmush tarzi hamda adolatli ijtimoiy davlat qurish yo'lida davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, Prezident Sh.Mirziyoev "Davlat xizmati institutini isloh qilish, korrupsiyaga qarshi ta'sirchan kurash mexanizmlarini joriy etish kerak" [1] Bugun davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishning asosiy omili hisoblangan davlat fuqarolik xizmatchisi ma'naviy qiyofasini isloh etish jarayonida avvalo, fuqarolik xizmatchisi odob-axloqi, yurish-turishi, fuqarolar bilan munosabatdagi muomala madaniyati, yechim izlab kelgan kishilarning

og'irini yengil qilish, kasbiy ma'suliyat, tashabbuskorlik kabi alohida fazilatlar bilan boshqalardan ajralib turishi hamda shaxsiy namuna bo'lishi zarur. Ayniqsa hozirgi globalashuv sharoitida yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik g'oyalari, milliy qadriyatlarga hurmat, jamiyatdagi jarayonlarga daxldorlik ruhida tarbiyalashda ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda davlat xizmatida faoliyat olib boruvchi davlat xizmatchilar faoliyat jarayonida davlat organlarining huquqiy manfaatlarini himoya qiluvchi, uning tashkiliy-boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshiruvchi hamda xizmat majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan shaxs hisoblanadi.

Inson paydo bo'libdiki birgalikda o'zini qurshab turgan olamda yashab qolish uchun birgalikda hayot kechirishadi. Bilamizki, urug', qabila, qabilalar ittifoqi va davlatt tashkil topgan. Davlatchilikning paydo bo'lishida o'sha maknda istiqomat qiluvchi kishilarning barchasiga biriktirilgan vazifasi bo'lgan. Masalan: Oqsaqollar kengashi davlat boshqaruviga, dehqon va chorvadorlar oziq ovqat ta'minoti uchun, jangchilar esa hudud xavfsizligiga javob bergan. Aynan shu davlatda jamiyacht a'zolarining farovon turmush kechirishi va davlat boshqaruvi hususida qadimiy manbalardan biri bo'lgan Avesto [2] kitobi, Sharqning buyuk mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy [3], Abu Rayhon Beruniy, Maxmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Amir Temur, Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixiy ajdodlar, o'zining asarlarida davlat, davlat boshqaruvi, hukmdor, davlat xizmatchisiga oid juda ko'plab manbalarda o'z qarashlari va g'oyalarni ilgari yozib qoldirishgan. Aynan shu manbalarning o'rganilishi davlat xizmati va davlat xizmatchisi tushunchasi kelib chiqish va rivojlanish tarixini o'rganish, bu tushuncha mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashda yordam beradi.

Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy [4] mashhur islom faylasufi va mutafakkiri hisoblanib, falsafa siyosat va fanga katta hissa qo'shgan. Uning asarlarida davlat boshqaruvi haqidagi nazariyalar mavjud bo'lib, ularda u boshqaruvning turli shakllarini aniqlagan va samarali boshqaruv tamoyillari haqida so'z yuritgan. Forobiy nazariyasiga ko'ra jamiyat farovonligini ta'minlash uchun bilim, donolik va axloqiy rahbarlik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak bo'lgan ideal hukmdor g'oyasini ilgari surib, hukmdor va xalq o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqidagi g'oyalarni ham ko'rib chiqib, qaror qabul qilishda adolatli bo'lish, aholi bilan maslahatlashish muhimligi xususida fikr yuritgan. Shuningdek, Al-Farobiy davlat xizmati va davlat xizmatchisiga oid masalalar eng mashhur asarlari: "Tanlangan asarlar", "Fozil odamlar shahri" [3], "Davlat boshqaruvining pirovard maqsadi haqida", "Ideal davlat

kitobi”, “Ruh haqida”, Aristotelning “Nikomaxeyning siyosati va axloqi” [5] kabi asarlariga sharhlaridagi fikr g‘oyalaridan kelib chiqib quyidagicha xulosalarga kelamiz:

Ta’lim va malaka: davlat xizmatchilari yuqori darajadagi bilim va bilimga yega bo‘lishi kerak, deb hisoblagan. Ular o‘z vazifalarini samarali bajarishlari uchun o‘z sohalarida malakali bo‘lishlari kerak.

Jamoat manfaati uchun sadoqat: davlat xizmatchilari jamoat manfaatlariga sodiq bo‘lishi kerak. Ularning faoliyati faqat shaxsiy manfaatlar uchun yemas, balki butun jamiyat farovonligi va farovonligiga yerishishga qaratilishi kerak.

Axloq va tarbiya: davlat amaldorlarining xatti-harakatlarida axloq va axloqning muhimligini ta’kidlagan. Ular yuksak axloqiy me’yorlarga amal qilishlari, adolat va halollik tamoyillariga amal qilishlari kerak.

Adolat va qonun: Boshqaruv adolat va qonun asosida amalga oshirilishi kerak. Hukumat amaldorlari qonunlarga rioya qilishlari va jamiyatda ularni amalga oshirishlari kerak.

Kasbiylik va tajriba: Al-Forobiy davlat xizmatida professionallik va tajribaga urg‘u bergan. Mulohazalarni muvaffaqiyatli hal etish va o‘z vazifalarini bajarish uchun mansabdor shaxslar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy tajribaga ham ega bo‘lishi kerak. Al-Forobiyning bu tamoyillarida nafaqat davlat boshqaruvining muhimligi, balki davlat xizmatchilarining jamiyat barqarorligi, adolati va farovonligini ta’minlaydi deb hisoblagan.

Beruniy [6] qarashlari ham Forobiylikiga bir muncha o‘xshash bo‘lib u, o‘zining “Hindiston” [7] hamda “Qadimgi xalqlar xronologiyasi” asarlarida keltirilgan ma’lumotlarni o‘rganish davrida xalqlar madaniyati, tili hududi, e’tiqodidan tashqari davlat boshqaruvi, hukmdorlar, hukmdorga xizmat qiluvchi kishilar to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘rganar ekanmiz, Beruniy ham o‘z g‘oyalarida davlat xizmati va boshqaruv masalalariga to‘xtalib o‘tganiga guvoh bo‘lamiz. Uning fikriga ko‘ra davlat boshqaruvining turli jihatlari, jumladan, davlat apparati tuzilishi, mansabdor shaxslarning vazifalari, davlat boshqaruvining asoslanishi va samaradorligi oqillik, axloq, tabaqalanish, diniy boshqaruv, ta’siri yuqori bo‘lgani to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Sohibqiron bobomiz Amir Temur hukmdorlik boshqaruvi davlat boshqaruvi xizmatning qanday tashkil etilishiga oid ma’lumotlar esa davlat xizmati tushunchasini yanada chuqurroq anglash va tarixiy taraqqiyotini o‘rganishga xizmat qiladi. Uning davlat idorasi va davlat xizmati o‘zining mukammal va puxta tuzilishi yer yuzidagi barcha hududlarni nomini eshitganda larzaga keltiruvchi Temuriylar saltanatini tarix zar varaqlarida

muhrladi. Xizmat faoliyatini o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar saltanati boshqaruv nazariyasi quyidagilarni inobatga olish shart hisoblangan. Bular:

Qo‘l ostidagi eng muhim vakolatli amallarga: eng qobiliyatli va malakali kishilarni tayinlashda professionallik va hukmdorga sadoqat,

Xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirishda: xizmat vazifalarini samarali bajarishlari uchun zarur bilim va ko‘nikmalar bilan ta‘minlashga katta e‘tibor berib, bu kadrlar zahirasi yaratish va davlat boshqaruvida barqarorlikni ta‘minlash imkonini bergan.

Nazorat: Hukmdor o‘z ko‘rsatmalari va davlat siyosati asosida o‘z xizmat vazifalarini bajarilishini ta‘minlash maqsadida o‘z xodimlarining faoliyatini qattiq nazorat qilgan. Bunga muntazam tekshiruvlar va hisobotlar kiradi.

Mukofot va jazolar: Temur o‘z xodimlarini rag‘batlantirish va jazolash tizimini yaxshi yo‘lga qo‘ygan. O‘z sadoqatini davlat xizmati faoliyatida namoyish etgan davlat xizmatchilari imtiyozlar va mukofotlar berish orqali muvaffaqiyatga erishdi. Shuningdek, amirga yoki saltanat va saltanat boshqaruviga nisbatan salbiy natijalar yoki vazifalarni bajarmagan xizmatchilar keskin jazo choralar qo‘llanilib, u qolgan xizmatchilar faoliyati uchun ibrat funksiyasini bajargan.

Sadoqat va ishonch: Saltanat hukmdori tomonidan qadrlangan eng oliy fazilatlardan biri bo‘lib, Temur o‘z xodimlarining rahbar sifatida unga sodiq va sodiq bo‘lishini ta‘minlashga intildi. U kengashda birlik va barqarorlikni ta‘minlovchi kuchli jamoaviy ruhnishakllantiruvchi g‘oya va mafkuraviy majburiyatni yaratish va qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor qaratadi. Bu tamoyillar Amir Temurga o‘z saltanatini samarali boshqarish, uning barqarorligi va farovonligini ta‘minlash imkonini bergan. U adolatli boshqaruv, sifatli va sodiq xizmat muvaffaqiyatli hukumatda muhim ahamiyat kasb etishiga ishongan.

Bundan tashqari, Amir Temurning “Temur tuzuklari, [8]” Sharofiddin Ali Yazdiyning Zafarnoma [9], Jon Xourining “Temur va uning davri” haqida, Djina Kingning “Tamerlan: velikiy zavoevatel” [10] asari, L.N.Gumilyovni “Tamerlan: strategiya zavoevaniy i gosudarstvennoe ustroystvo” nomli kitoblarida g‘arb davlatlarida Tamerlan nomi bilan mashxur bo‘lgan Temurning hukmdorligi, davlat xizmati va boshqaruv faoliyati usullari tashkil etishga oid ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Temurning davlat boshqaruvi va Temuriylar saltanatiga oid xorijiy olimlar qalamiga mansub kitoblarning yuzdan ortiqni tashkil etib, ularni aksariyati o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan.

Mahmud Qoshg‘ariy [11] siyosiy nazariya va ijtimoiy fanlarga oid

“Davlatsozlik va Islom”, “Islom va demokratiya”, “Siyosat”, “Islom va modernizatsiya”, “Davlatsozlik va siyosiy taraqqiyot” (Davlat boshqaruvi va siyosiy taraqqiyot) kabi mashhur asarlari bo‘lib, musulmon dunyosida siyosiy nazariyasiga katta ta‘sir o‘tkazgan. U o‘zining kitoblarida hukmdora va xizmatchilarda bo‘lishi kerak bo‘lgan xususiyatlarga zaruriy bilim, ko‘nikma va tajriba, samaradorlik, o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda qat‘iyat va qat‘iyatlilikka, vatanga va kasbiga sodiqlik, ma‘suliyat, axloq va huquqiy me‘yorlardan chetga chiqmasdan halol va buzilmas bo‘lishi, diniy qadriyatlar va tamoyillarni faoliyatga moslab qo‘llash kabi ma‘naviy fazilatlarni keltirib o‘tgan.

Jamiyatda farovon turmush tarzi albatta davlat faoliyati va davlat xizmatida ishlovchi xizmatchilar orqali amalga oshirish mumkin degan g‘oyalarni ilgari surgan Alisher Navoiy adabiyot, falsafa, ijtimoiy fanlar sohasida davlat va xizmat mavzusidagi asarlari orqali o‘z fikr mulohazalarini keltirgan:. Bularga quyidagi fikrlar kiradi:

1. Muhaqamat al-Lujayn (“Muhakamat al-Lujayn” XV asr oxiri, taxminan 1498-1501-yillar oralig‘ida yozilgan) Asar ijtimoiy hayotning turli jabhalariga bag‘ishlangan mashhur asarlardan biri, jumladan, “Muhakamat al-Lujayn” boshqaruv va adolat.

2. “Mulakot” (Suhbatlar XV asr oxirida, taxminan 1499-yillar) kitobi zamonaviy davlat boshqaruvi va boshqaruv muammolari bilan bog‘liq ko‘plab falsafiy va ijtimoiy g‘oyalar mavjud.

3. “Devon” (“Devon” she‘rlar to‘plami 1483-1485-yillar) to‘plamida davlat xizmatiga kimlar faoliyat yuritishi to‘g‘risida fikrlari jamiyatdagi muammolarni sher ko‘rinishida tahlil qilib bergan.Navoiy davlat xizmati faoliyatida ishlovchi kishilar albatta quyidagi talablarga javob berishi lozim bo‘lgan:

- Davlat lavozimlariga tayinlashda malaka va tajribaga katta ahamiyat berib, samarali boshqaruvga faqat vakolatli kishilargina qodir, deb hisoblagan.

- Odamlarga adolatli munosabatda bo‘lish, qonun oldida tenglik zarurligini ta‘kidladi.

- Ta‘lim-tarbiyaning qudratiga ishongan va jamiyatning barcha qatlamlari o‘rtasida bilimning tarqalishiga da‘vat etgan. Bilimli insonlar mamlakatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi, deb hisoblardi.

- Jamiyat barqarorligi va farovonligini ta‘minlashda davlat institutlarining barqarorligi va samaradorligi haqida o‘z g‘oyalarini ilgari surdi.

Yuqoridagi izlanishlardan ko‘rinib turibdiki, dunyoda davlatchilikning ilk shakllari paydo bo‘lishi hamda davlat sifatida shakllanishidan boshlab davlat xizmatchisi uchun ehtiyoj yuzaga kelishi barcha davrlar uchun xos

xususiyat hisoblanadi. Shuningdek davlat chilik paydo bo‘lgan davrdan boshlab davlat xizmatchisi tushunchasi davlat boshqaruv faoliyatining bir bo‘lagi sifati davlat xizmati jamiyat boshqaruvini ta‘minlash, boshqaruv funksiyalarini bajarish va davlat tuzilmalarida tartibni saqlash zaruriyati zamonaviy dunyoda davlat xizmati davlat siyosatini amalga oshirish, huquq-tartibotni ta‘minlash, davlat xizmatlarini ko‘rsatish va fuqarolar manfaatlarini himoya qiladigan ijtimoiy davlat barpo etishda asosiy o‘rin tutadi.

Bugun islohotlar davrida O‘zbekiston “Ma‘rifatli jamiyat barpo etish” yo‘lida davlat xizmatchilarining ma‘naviy qiyofasini shakllantirishda tarixiy ma‘naviy merosni bugungi kun xususiyatlariga moslab transformatsiya qilishning samarali yo‘llarini o‘rganishi, jamiyatning zamonaviy boshqaruvi va faoliyatida yaxshi natijalarga erishishga yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.М.Мирзиёев. «Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир». 2-жилд.—Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 90
2. Мирсодиқ Исҳоқов таржимаси. Авесто: Яшт китоби. — Т.: «Шарқ», 2001 — 20 б.
3. Абу Наср Форобий. “Фозил одамлар шахри”. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ маданий мероси нашриёти. 1993.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Forobiy>
5. Хайруллаев М. М., Forobiy va uning falsafiy risolalari, Т., 1963;
6. Агеенко Ф. Л. Абу Рейхан Мухаммед ибн Ахмед аль-Бируни // Словарь собственных имён русского языка. Ударение. Произношение. Словоизменение. — М.: Мир и Образование; Оникс, 2010. — С. 57. — 880 с. — ISBN 5-94666-588-Х, 978-5-94666-588-9
7. С.А.Юлдашев. Антик Фалсафа. www.ziyouz.com kutubxonasi. Б.13-14.
8. Алихон Соғуний ва бошқалар таржимаси. «Темур тузуклари». Тошкент-1991. Гофур Хулом нашриёти. Б9-10-23.
9. Алиев М., Мухамедьяров Ш. Ф. Шараф-ад-дин Йезди // Советская историческая энциклопедия : в 16 т. / под ред. Е. М. Жукова. — М. : Советская энциклопедия, 1976. — Т. 16 : Чжань Вэнь-Тянь — Яштух. — Стб. 128.
10. http://loveread.ec/read_book.php?id=44050&p=1
11. E. Van Donzel, ed (1997). “Al-Kâshgharî” (inglizcha). The Encyclopedia of Islam. IV. Leiden – New York: E. J. Brill.

MA'NAVİY MEROSIMIZ – BEBAHO BOYLIGIMIZ

Jo'rabek Xidirov,

*RMMM huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy
tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi*

Annotatsiya. Maqolada ma'naviy meros, uning ta'rifi, turlari, saqlanishi va zamonaviy jamiyatga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Ma'naviy meros, madaniyat, san'at, turizm.

Tashqi olam inson aql-zakovati bilan obod bo'lsa, inson ichki olami uning xulqi, yaxshi muomalasi, bir so'z bilan aytsak, ma'naviyati bilan obod bo'ladi. Tashqi olam chiroyi ayni shu ichki olamdagi yorug'likdan boshlanadi.

Jamiyat ma'naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi.

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor bosqinchilar hujumiga duchor bo'lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning natijasida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlar qadrsizlanishiga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzimi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi. Mustaqillik-yillarida ana shu boy ma'naviy-madaniy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasida olib borilmoqda.

Ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Ma'naviy qadriyatlar, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo'lib qoladi. Ma'naviy meros bashariyat rivojlanishining uzoq davrlar mobaynida tarkib topgan, inson aql-zakovatining ifodasidir. Madaniy-ma'naviy meros xalqning bebaho boyligi bo'lib, yosh avlodni tarbiyalash va kamol toptirish, yangi davlatchilikni shakllantirish uchun zarurdir.

Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon tamadduni taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan Imom Buxoriy, At-Termiziy, Bahouddin Naqshbandiy, Yassaviy, Ibn-Sino, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabi buyuk mutafakkirlarimiz ma'naviy merosi chuqur o'rganila boshlandi[1], ularning tavallud topgan

tarixiy sanalari xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Buyuk allomalarimiz yubileylari munosabati bilan ularning o'nlab noyob asarlari turli tillarda, turli davlatlarda nashr etildi, ularga atab yodgorliklar o'rnatildi, ziyoratgohlar yaratildi. Bu jihatdan yurtimiz dunyoning qadimdan ilm-fan, madaniyat, adabiyot, san'at va boshqa ko'plab sohalar yuksak darajada rivoj topgan makonlaridan biri ekanligini isbotlab kelmoqda.

Yurtimiz o'zining boy tarixiy o'tmishiga ega mamlakatdir. Markaziy Osiyo mintaqasining hech bir hududida mamlakatimizdagidek ko'p ma'naviy meros, tarixiy obidalar, qadimiy madaniyat uchramaydi. Mamlakatimiz hududi eng qadimiy insoniyat tamaddunining beshigi hisoblanadi.

Qadim va boy tarixga ega yurtimizda tarixiy obida hamda madaniy yodgorliklar ham juda ko'p. Ular xalqimizning o'tmishini o'zida mujassam etgan milliy qadriyatlarimiz namunasi, xalqimizning bebaho mulki hisoblanadi. Qolaversa, yurtimizdagi yuzlab ko'hna va betakror obidalar asrlar davomida jahon sayyohlarini lol qoldirib o'ziga ohanrabo misol tortib kelmoqda.

YUNESKOning umumjahon ro'yxatidagi moddiy madaniy merosdan 4 ta meros O'zbekistondan kiritilgan bo'lib, Ichan qal'a (1990-yilda); Buxoro shahrining tarixiy qismi (1993-yilda); Shahrisabz shahrining tarixiy qismi (2000-yilda); Samarqand shahri (2001-yilda), 8 ta meros esa YUNESKOning nomoddiy madaniy meroslari ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, Boysun tumani madaniyati (2008-yilda); Shashmaqom (2008-yilda); Katta ashula (2009-yilda); Askiya san'ati (2014-yilda); Navro'z (2016-yilda); Palov tayyorlash (2016-yilda); Marg'ilon hunarmandchiligi (2017-yilda), Xorazm lazgisi (2019-yilda) ana shular jumlasidan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, dunyoning yetakchi nashrlari va tashkilotlari xususan, Forbes, Crescent Rating, Halal Trip, The Guardian, the Independent, Sondé Nast Traveler, Berliner Telegraph[2] va boshqalar tomonidan O'zbekiston sayohat qilish uchun eng qulay mamlakatlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Milliy tiklanish va taraqqiyotning asosi bo'lgan ma'naviy meros, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, tarixiy xotira xalqimizga qaytarilib, ana shu boy imkoniyatlarni, barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni xalqimiz taraqqiyoti sari yo'naltirish uchun sharoit yaratildi. Shunday ekan, milliy ma'naviyatni rivojlantirish yo'lida ma'naviy merosga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, asrab-avaylash va undan unumli foydalanish zarurdir. Ma'naviy merosni asrab-avaylash va muhofaza qilish jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib, ular bizga tarix va madaniyatimizni tushunish va qadrlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurullaeva, N. K. Vozrojdenie natsionalno-duhovnykh i obshechelovecheskix sennostey — neobxodimoe uslovie stroitelstva demokraticeskogo obshestva v Uzbekistane / N. K. Nurullaeva. — Tekst: neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. — 2016. — № 9 (113). — S. 940-942. — URL: <https://moluch.ru/archive/113/29508/>
2. <https://daryo.uz/k/2022/04/21/madaniy-merosimiz-bebaho-boyligimiz>

JAMIYAT MA'NAVIY QIYOFASI VA IJTIMOY MUHIT BILAN ALOQADORLIK.

Shahlo Ahrorova,
*falsafa fanlari doktori(PhD),
ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti katta ilmiy xodimi*

Annotatsiya. Jamiyat rivojini ma'naviy-ma'rifiy islohotlar tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonida ijtimoiy ma'naviy muhitning o'rnini aniqlash ham muhim sanaladi. Jamiyatning ma'naviy qiyofasi va ijtimoiy muhit aloqadorligi maqolaning asosiy mavzusi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, tarbiya, jamiyat, ma'naviy qiyofa, ijtimoiylashuv, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy muhit, shaxslashuv, inson.

Ijtimoiy ma'naviy muhitni yaratishda jamiyatning ma'naviy hayoti va unga ta'sir ko'rsatuvchi unsurlar, qolaversa, fuqarolarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Shaxsiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ijtimoiylashib, jamiyat qadriyatlarini tusini oladi va jamiyatda o'ziga xos muhitni vujudga keltiradi. Xo'sh, kishilarning ma'naviy qiyofasi qanday namoyon bo'ladi? Kishilarning ma'naviy qiyofalari ularning havtti-harakatlari, shaxsga va jamiyatga munosabtlari, bir so'z bilan aytganda ijtimoiy munosabatlarini zohir bo'ladi. Demak, kishilarning ma'naviy qiyofasi ularning ijtimoiy munosabatlarida ma'naviy asos vazifasini o'taydi. Ma'naviyatning o'zi nima, degan savolga javob beramiz.

“Mening nazarimda, - degan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, - insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi”. [1.B-267]

Ma'naviyat - kishilarning o'zaro aloqa-munosabtlari, o'zlashtirgan ta'lim-tarbiyalari, bu kishilarning hayoti davomidagi tajribalari asosida

shakllangan hamda botiniy dunyolaridan namoyon bo'lgan qarashlari, tuyg'ulari, ichki haqiqatlarining natijasi o'laroq yuzaga keladigan hatti-harakatlari, munosabatlarining yaxlit majmuidir. Ma'naviyat jamiyat hayotining jamiki sohalari va jamiki munosabatlarining organik tarkibiy qismidir [2, B-3]. Inson ma'naviyat orqali o'z-o'zini, mohiyatini hamda hayotiy mazmunni anglaydi, o'zini o'rab olgan jamiki borliqni chuqurroq va nozikroq hissiyotlar orqali ko'radi. Umuman olganda odamning o'zi fiziologik, psixologik va ma'naviy tarkiblardan iborat yaxlit mavjudotdir. Ma'naviy tarkib uni odamdan insonga aylantiradi, uni jamiyat ichiga olib kiradi va shaxslashtiradi. Har bir odam o'zini jamiyatning bir bo'lagi tarzida anglaganidan boshlab, umrining so'ngiga qadar ma'naviy qiyofasini shakllantirib va rivojlantirib boradi. Demak ma'naviy olamda insonning jamiki qobiliyatlari, uning tafakkuri asnosida ro'yobga kelgan fikru-xulosalari hamda maqsadlari ham namoyon bo'ladi. Boshqacha so'z bilan ta'riflaganda, ma'naviy olam o'zida botiniy dunyoni aks ettiradi.

Ma'naviy olam o'z navbatida moddiyatga ham aylanishi mumkin. Bu shaxsning ma'naviy qiyofasida shakllangan qadriyatlari uning hatti-harakatida, oilasi va jamiyatga, yurti hamda millatiga, umuman, o'zidan o'zgalarga bo'lgan munosabatlarida aks etadi. Elda yaxshi fazilatlarni insoniylik deya sifatlaydilar. Demak, ma'naviy yetuklikda xuddi mana shu insoniy fazilatlarning tizimli va yaxlit tarzda namoyon bo'ladi, desak yanglishmaymiz.

Ma'naviyat insonlardagi yuksak darajada takomillashgan insoniylik fazilatlarning yig'indisidir. Demak insonning kamoloti uning nafaqat jismonan sog'lom kamol topishi, balki unda sog'lom ruhiyati bilan sog'lom tafakkurining uyg'unlashuviga erishuvi hamdir. Komillikka erishgan shaxs, el ta'biri bilan so'zlaganda, o'z "bama'niligi" bilan xushfazilatlarini namoyon qilishi, dil va til birligiga erishuvi, nojo'ya harakat va nojo'ya munosabatlardan, yoki ma'naviy qusurlardan o'zini tiya olishi bilan ko'rinadi. Prezidentimiz aytganidek, "ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir". [1, b-268] Xuddi shu poydevor ustida ma'naviy makon va ma'rifatli jamiyat bunyod bo'ladi. Bu ma'naviy makonda esa jamiyatning barcha a'zolari uchun xos bo'lgan milliy hamda ma'naviy birlik ro'yobga chiqadi.

Masalan, xuddi mana shu kabi birlikni 2011-yilda Yaponiya davlatida sodir bo'lgan sunami hamda yuqori balli zilzila paytida yaponlarning matonatli harakati misolida ko'rsak bo'ladi. Albatta, Yaponiya davlatidagi favqulodda

vaziyatlarda tezkor choralar ko‘rishning mukammal tizimi ham muhim o‘rin tutgan, biroq yapon xalqiga mansub o‘ziga xos milliy xususiyatlar, ularning ma’naviy olamida asosiy o‘rin tutadigan vatanparvarlik xususiyatlari, o‘z manfaatlari va yurt manfaatlarini uyg‘unlashtira olish fazilatlarini o‘sha sunami voqeasi bilan bog‘liq bo‘lgan og‘ir oqibatlarini yengishda asosiy o‘zak bo‘lib xizmat qilgani shak-shubhasiz. Boshqa so‘z bilan aytsak, Yaponiyadagi ushbu voqelik ma’naviy komillik har qanday ofatdan ustun kela olishini isbotlab berdi. Talofat vaqtida yaponlar bir-biriga ko‘mak berish uchun shoshildi, ayrim joylarda, masalan Turkiyada sodir bo‘lgan zilzila vaqtidagi singari, ola-tasirdan foydalanib, o‘zgalarning mulkiga ko‘z olaytirish yoki o‘sha vaqt uchun lozim buyum va oziq-ovqat narxlarini oshirib yuborish holatlari ro‘y bermadi, hech kim o‘zgalarning falokatidan o‘z manfaati yo‘lida foydalanmadi. Bu holatlarda yapon millatiga xos ma’naviy birlik namoyon bo‘ldi, deyish mumkin.

Demak, har bir insonning ruhiyatida ma’naviy borliq bo‘y ko‘rsatadi. Avvalambor ma’naviyat, alohida namoyon bo‘ladigan shaxsga oid tushuncha. Lekin bu shaxsni jamiyatdan ajratib bo‘lmaydi, u barcha yaxshiyu-yomon amallarini jamiyat ichida sodir etadi, jamiyatdan tashqarida uning har qanday komilligi o‘z mohiyatini yo‘qotadi, bu xuddi inson bo‘lmasa, barcha qadriyatlar o‘z mohiyatidan mosuvo bo‘lganiga o‘xshashdir. Demak ma’naviy qiyofa shaxsning o‘zgalarga, jamiyatga, yurtga, umuman borliqqa daxldorligi bilan aks etadi. Bu jihat esa ma’naviyatni ijtimoiylashtiradi, jamiyatning ma’naviy muhitiga dahl qiladi. Demak, inson ijtimoiylagib, shaxsga aylansa, uning ma’naviy qiyofasi ijtimoiylashib, jamiyat muhiti bilan tutashadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, birinchidan, ma’naviyat – insonning ma’no-mag‘zi, siyrati. Shu ma’noda ma’naviyat insonning mohiyati va hayoti mazmunini belgilaydi. Ikkinchidan, ma’naviyat – har bir insonning o‘z haqiqati. Inson hayotiy voqeliklar ichida ishtirok etish mobaynida uni anglaydi, o‘z tafakkuri tarozisida tahlil etadi, bu voqeliklarga nisbatan o‘z tuyg‘ularini namoyon qiladi. Mana shu jarayonda o‘zi to‘g‘ri, deb topgan xulosalardan o‘zining haqiqatini yaratadi. Inson yaratgan haqiqatiga asoslanadi, shu asosda hayotiy mo‘ljallari oladi, o‘z yo‘lini belgilaydi hamda shu mo‘ljallari atrofida o‘z his-tuyg‘ularini gavdalantiradi. Agar u yaratgan shaxsiy haqiqat ijtimoiy haqiqat bilan muvofiq kelsa, u jamiyat ichida komillik topadi. Va uchinchidan, ma’naviyat – inson nomoddiy qadriyatlarining tizimli majmui. Inson voqeliklar ichida ishtirokini namoyon qilarkan, bu voqeliklarga munosabati va qarashlari asnosida uning qadr darajasini o‘lchaydi va belgilaydi. Uning bu o‘lchovi asosida qaysidir voqeliklar, obyektlar, fazilatlar, gohida esa ayrim illatlar ham qadr topadi. Biroq u bunday illatlarni illat sifatida ko‘rmaydi, buni g‘oya va qarashlari, maqsadlari bilan asoslantiradi va o‘zi uchun

qadriyatga aylantiradi. Uning ichki olamidagi bu qadriyatlar tizimi uning ma'naviy qiyofasini bunyod etadi. Demak, inson ma'naviy qiyofasida faqat fazilatlarga emas, balki illatlar ham ishtirok etadi. Bunday illatlar inson ma'naviy qiyofasini tubanlashtirishga olib kelishi mumkin. [2, B-5]

Prezidentimiz “Bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak,”[3]-deb ta'kidladi respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining 2023-yil 23-dekabrda bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida.

Demak, ijtimoiy-ma'naviy muhit – muayyan jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasidir.

Jamiyat aslida ijtimoiy ehtiyojlar natijasida vujudga keladigan, turli subyektlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabat va aloqalardir. Turgan gap-ki, bu aloqa va munosabatlarda ham ma'lum bir tartibot talab qilinadi. Bu esa yaxlit holda boshqaruvni toqazo etadi. Boshqaruv yordamida barcha munosabat, aloqa va faoliyatlar tizimlashtiriladi va shu tariqa jamiyat yuzaga keladi. Yuqorida qayd etganimizday, mana shu jamiyatga aloqadorlik ijtimoiylik demakdir. Hatto axloq ham garchi shaxsga tegishli bo'lsa-da, u jamiyat ichida amal qilib, o'z ta'siri bilan ishtirok etarkan, ijtimoiy axloq statusini oladi. Inson ham jamiyat ichida ijtimoiylashadi va shaxsga aylanadi. U jamiyat ichidagi har qanday munosabat va faoliyatlarini shaxs sifatida amalga oshira boshlaydi.

Buning natijasida har bir jamiyatda mavjud tizim, vaziyat, geografik joylashuv, shaxslar va ularning guruhlari ta'sirida o'ziga xos ijtimoiy muhit yuzaga keladi. O'zbekiston Milliy Ensklopediyasida ijtimoiy muhit – inson hayot kechirishi jarayonida uni o'rab olgan ijtimoiy, moddiy hamda ma'naviy shart-sharoitlardir, deb keltirilgan.[4] Keng ma'noda jamiyatdagi yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy tizimni tashkil qiluvchi muhit nazarda tutilsa, tor ma'noda, insonni bevosita o'rab turgan va makromuhitdan ta'sir oladigan mikromuhit tushuniladi. Yana bir manbada “ijtimoiy muhit – individ, shaxs, ijtimoiy guruhlarning mavjud bo'lishi, shakllanishi va faoliyati kechadigan ijtimoiy (moddiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy) shart-sharoitlar”,[5] -deb keltiriladi.

Demak, ijtimoiy muhit deganda kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi o'zaro ijtimoiy munosabatlarining ma'lum tarzda tartiblangan yoki shakllangan tizimi hamda mana shu jarayonlar ta'siri o'laroq yuzaga kelgan shart-sharoitlar jamligi tushuniladi.

Insonning ruhiyati, idroki qanday bo'lsa, u yashayotgan, tegrasida yaratayotgan moddiy va ma'naviy olam ham shunga mutanosib bo'ladi. Demak, ma'naviyatni insondan ajratib olib bo'lmaydi, bu uning doimiy va

ajralmas sifati bo‘lib, insoniylik qiyofasi chizgilarini namoyon qilish bilan birga, uning qanday shaxs sifatida shakllanishini belgilaydi. Bu degani, har bir insonning ma’naviy o‘ziga xosligi bor. Boshqacha aytganda, insonning shaxsiy ma’naviy qadriyatlari uning ijtimoiylashuvida, ya’ni o‘zaro aloqa va munosabatlarida aks etadi hamda uning atrofida o‘ziga xos ijtimoiy-ma’naviy muhitni yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2021 y.
- 2.Shahlo Ahrorova. Ma’naviyat eng ta’sirchan va qudratli qurolimizdir. “Ma’naviyat” nashr. T.-2022y.
- 3“Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2023-yil, 23-dekabr, 267-son.
- 4.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.1000 savolga 1000 javob. Metodik qo‘llanma. 5.U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. 1000 savolga 1000 javob. Metodik qo‘llanma. Toshkent 2012. B.-75.

II. IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIGA TA'SIRI: MEDIATAHLIL METODLARI

MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA – BARQAROR DAVLAT VA JAMIYAT POYDEVORI

Sarvarjon G'afurov,
*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti bo'lim boshlig'i,
siyosiy fanlar doktori, professor*

Annotatsiya: Maqolada yoshlar tarbiyasida Vatanni sevish, uni qadrlash, e'zozlash, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, har zamon va makonda xalq manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslarni yetishtirish mamlakat taraqqiyoti, barqarorligi, va eng muhimi, davlatimiz xavfsizligi va mustaqilligi garovi bo'lib xizmat qilishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, ma'naviyat, axloq, jamiyat, ma'naviy qadriyat, badan tarbiyasi, tafakkur tarbiyasi, axloq tarbiyasi, ruhiy tarbiya.

Davlat va jamiyatning barqarorligini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri bu – mamlakat fuqarolari. Yoshidan qat'iy nazar har bir fuqaro jamiyatning mustahkam individiumi, uning ajralmas bo'lagi. Ana shu bo'lakning dunyoqarashi, ongi, tarbiyasi, axloqi, bilimi, o'z o'rnida, jamiyatning bir tekis taraqqiy etib borish jarayonlarida ishtirok etadi. Aholining savodxonlik darajasi, ma'naviy barkamolligi davlat va jamiyatning rivojida muhim o'rin tutishi tayin.

Bugungi globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan vaqtda har bir shaxs o'zining munosib o'rnini egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega. Yuqori ma'naviy axloq egasining jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi qanchalik aniq bo'lsa, tarbiyaviy ozuqadan mosuvo qolgan shaxsning salbiy ta'siri ham izesiz qolmaydi. Biz ana shu voqe'likni zamonaviy sharoitlarda ko'p kuzata boshladik. Jamiyat a'zolarining, xususan yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi, tarbiyaviy jihatlari tez-tez muhokama mavzusiga aylanib borayotganligi ham bejizga emas.

Davlatimiz rahbarining har bir chiqishlarida e'tibor qaratilayotgan mavzulardan biri ham aynan yetishib kelayotgan avlod – yoshlar tarbiyasi, axloqi, vatanparvarligi to'g'risida ekanligi ham mazkur sohaning davlat e'tiboridagi strategik masalalardan ekanligini anglatadi. *“Chindan ham mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan*

hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G'arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur", deya ta'kidlamoqda Prezidentimiz.

Ma'naviyat insonning ruhiy olami ko'zgusi. Har bir shaxs o'zining umri davomida hayotdan zavqlanib, ma'no izlab yashashi, jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, o'zidan yorqin xotira qoldira oladigan umrni yashab o'tishi lozim. Insonni inson qiladigan uning ma'naviyati, ma'naviy-axloqiy tarbiyasidir. Hayotda moddiy narsalar odamga jismoniy ozuqa va rohat bersa, ma'naviyat uning ruhiy kamolotiga yetkazadi. Yetuk kamolotga intilish ruh va ong egasi bo'lmish odamizotga xos fazilatdir.

Ma'naviy tarbiya to'g'risida ulug'larimiz ko'p va xo'b yozishgan. Bu mavzu zamon va makon tanlamaydi. U doimo dolzarb va ahamiyatli. Ma'naviyat –millatning, shaxsning hayotiy, ruhiy kechinmalari, ongi, dunyoqarashi, axloqi, qobiliyati, idroki majmui. Ma'naviyat – shaxs va jamiyatni bog'lovchi vosita, inson va borliqni o'zaro bog'lovchi, hayot mazmunini belgilovchi tushuncha.

Bugungi kunda ma'naviy sohaning rivojlanishi muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sohaning, hayot tizimining shakllanib borishi, o'zgarishi, taraqqiyoti yoki inqiroziga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ma'naviy soha taraqqiy etgan jamiyat ravnaq topadi, va aksincha, undan uzoqlashgan jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Bunga tarixda misollar bisyor.

Oxirgi-yillarda mamlakatimizda ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, yoshlarning axloqiy tarbiyasi masalalariga munosabat tubdan o'zgardir. Davlat rahbariyatining katta say'i-harakatlari, qo'llab-quvvatlashi ortida ham yoshlarimizning ma'naviy dunyosini shakllantirish, ma'rifat buloqlariga yetaklash, ulug' ajdodlarmizning bebaho ilmiy-ma'rifiy merosidan ruhiy oziqlantirish, jamiyatimizni bilimli va ma'rifatli avlodga qoldirishga intilishni anglash mumkin. Har bir davlat va jamiyat uchun uning avlodlari, yoshlari tarbiyasi ana shu davlat va jamiyatning kelajagi, barqarorligi, sharafi uchun mas'uliyatli kurashidir. Ma'naviyatsiz buyuk davlat poydevorini qurib bo'lmaydi.

Ma'naviyat keng tushuncha. U ma'rifat, madaniyat, axloq va tarbiya tushunchalarini ham o'z atrofiga qamrab oladi. Har bir davlatning o'ziga xos ma'naviyati, ma'naviy-ma'rifiy poydevori bo'ladi. Bu negiz asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an'analar, qadriyatlar, urf-odatlarda o'zini namoyon etadi. Huddi shuningdek, jamiyatning ma'naviyat egalari, ulug' siymolari bo'ladi. Bular millatning buyuk farzandlari, buyuk tarixiy shaxslar, ilm-fan va ma'rifat, adabiyot va san'at, madaniyat vakillaridir.

Ulug' ajdodlarimiz o'zlarining ilmiy-ma'rifiy merosi bilan nafaqat

millatning, shuningdek, jahon ma'rifatining kamolotiga o'zining bebaho hissasini qo'shib kelgan. Millatni tarbiyalashda ana shu jihatga e'tibor qaratish, ulug' ajdodlar yorqin xotirasi, hayoti va ijodi, hayotiy tajribalarini ma'naviy, axloqiy tarbiya jarayonlariga singdirish muhimdir. Hozirgi kunda jamiyatimizni barqaror kelajakka yetaklashning eng muhim omili ham – aynan tarbiyali, ma'naviyatli, axloqli avlodni yetishtirishdan iborat.

Tarixiy jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatning texnologik taraqqiyoti ana shu jamiyat a'zolari – fuqarolarning ma'naviy-axloqiy kamolotini to'liq ta'minlashga qodir emas. Aksincha, ma'naviy komillik mavjud bo'lmagan jamiyatda moddiy boyliklarning ortib borishi xatarli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bugungi globallashuv jarayonlarida iqtisodiy-texnologik taraqqiyot ma'naviy barkamollikdan o'zib ketdi. Bu o'zining natijasini ko'rsatmoqda. Jamiyatda, xususan yoshlar tarbiyasida ko'plab muammolarning yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Turli bema'ni trendlar, ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlariga berilishi oqibatida axloqsizlikning ortishi mazkur jarayonlarning natijasidir.

Har qanday shaxs, millat, jamiyat, davlat o'z-o'zini isloh qilishi, ma'naviy o'zaklarga tayanishi, tarbiyaning ta'sirchan usullarini qo'llashi jiddiy ijobiy samaralar berishi tayin. Ulug' jadid bobolarmiz ta'biri bilan aytganda, “... tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”. Ushbu da'vat bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy sohamiz, barcha bosqich ta'lim yo'nalishlarimiz, boringki, jamiyatning barqaror rivojining bosh tamoyili bo'lishi lozim. Axloqiy yuksaklikning eng yuqori cho'qqisi esa, ma'naviy-ruhim tarbiya olish, va albatta unga amal qilishdir.

Tarbiyani oiladan boshlanishi tabiiy. Farzand o'z oilasida ko'rgan tarbiyasi bilan ko'chaga, jamiyatga chiqadi, odamlarga qo'shiladi. Keyingi tarbiya bosqichlari maktab, oliygoh, mahalla va jamiyatda davom etadi. Inson o'z umrining oxirigacha ta'lim-tarbiya olib yuradi. Ko'rganini o'rganadi, bilmaganini so'raydi, o'qiydi, izlanadi va oxir-oqibat jamiyatda o'zining munosib o'rnini topadi.

Tarbiya shartli to'rt qismga bo'linadi: badan tarbiyasi, tafakkur tarbiyasi, axloq tarbiyasi va ruhiy tarbiya. Bu to'rt yo'nalish o'zaro bir-biri bilan bog'liq, bir-birini to'ldiradi. Fikr, dunyoqarash, tafakkur va axloq tarbiyasi shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi. Ruhiy tarbiya uning ongi, fazilatlarini, inson sifatidagi borlig'ini yaratadi. Axloqiy-ruhiy tarbiya keng tushuncha. U shaxsni jamiki yomonliklardan, baxsulqlikdan qaytaradi, komil inson bo'lib yetishishiga yetaklaydi. Komil insonning axloqi uning – so'zi, amali, odobi, madaniyati, ma'naviyati, ma'rifati, sabri, qanoatida namoyon bo'ladi.

Tarbiyaning katta kichigi, eski yangisi, muhim muhimmasi bo'lmaydi.

Tarbiyada har qanday holatga ham jiddiy e'tibor qaratish, barcha yo'nalishni muhim deb bilish kerak. Tarbiya yosh tanlamaydi. Tarbiyani yoshlikdan berish esa, kelajakda oqil jamiyat vakillarini yetishtirishning eng birinchi shartlaridan. Yoshlar tizginsiz bir daryo misoli. Uni to'g'ri oqimga yo'naltirilsa, borgan joyini obod qiladi, bog'i-bo'stonga aylantiradi. Yoshlarning bilim olish, xotira qobiliyati, imkoniyati keng, ular g'ayratga, shijoatga, quvvatga to'la, ular qiziquvchan va shu bilan birga juda ta'sirchan bo'ladi.

Ma'naviy tarbiya jamiyat barqarorligining muhim tayanchi. Bunga tarixda ko'plab misollar mavjud. Shu o'rinda, Sharqning ikki davlatini ibrat sifatida keltirib o'tish mumkin.

Birichi misol, buyuk Xitoy devori. Xitoyliklar dushmanlar hujumidan saqlanish, o'zlarini ixotalash uchun devor qurdilar. Bu devorning mahobati, bardoshlilik asrlar davomida uni qurgan xalqqa shuhrat keltirdi. Biroq, bu devor xitoyliklarni dushmanlar hujumidan xalos qila oldimi, yo'q. Chunki, xitoyliklar toshlardan devor qurish bilan ovora bo'lib, uni himoya qiladigan, uning ortida yashaydigan xalq, uning yoshlari tarbiyasiga e'tiborsiz qolishdi. Oqibatda nima bo'ldi, dushmanlar bu buyuk devorni buzib o'tirishga ortiqcha vaqt ham, kuch ham sarflab o'tirishmadi. Ular devor qo'riqchilarini muayyan manfaatdorlik evaziga o'zlariga og'dirib, devor eshiklaridan osongina kirib kela qolishdi. Buyuk Xitoy devori ma'naviy-ruhiy tarbiyaning naqadar muhimligiga o'ziga xos namunasi bo'lishga loyiq.

Ikkinchi misol, yaqin tarixda Liviya arab mamlakati misolida ko'rinadi. Liviya uglevodorod zaxiralari eksporti bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlardan birini egallar edi. "Qora oltin" – neftni sotishdan olinadigan daromad Liviya yalpi ichki mahsulotining 40 foizini, mamlakat umumiy eksportining 95 foizini tashkil etadi. Neft hisobiga Liviya iqtisodi arab davlatlari ichida yetakchi o'rinlardan birini, Afrika qit'asida esa, eng boy mamlakat maqomini oldi. M.Qaddafi davrida kishi boshiga yalpi ichki mahsulot 12 ming dollardan oshdi.

Muammar Qaddafi davrida iqtisodiy sohaga katta e'tibor qaratildi, mamlakat taraqqiy etgan iqtisod asosiga qurildi. Biroq, ma'naviy tarbiya, millat birdamligi, milliy an'analarni e'zozlash, yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish anchagina e'tibordan chetda qoldi. Xalq mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashgan Umar Muxtor kabi buyuk millat qahramonlarini unutdi. Va bu holat, o'z navbatida, jiddiy salbiy oqibatlarga olib keldi.

Liviya tez fursatda fuqarolar urushi girdobiga tushib, millat parokandalikka yuz tutdi, jamiyat tanazzulga uchradi. Ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni tarbiyalash, shakllantirishga e'tiborning susayishi jamiyatda faqatgina o'z manfaatini o'ylaydigan – hudbin shaxslarning ortishiga olib

keldi. Aholi mamlakat mustaqilligi, millat birdamligini saqlab qola olmadi.

Bu kabi misollar tarixda ko‘plab uchraydi. Ulardan tegishli saboq olish, yoshlar tarbiyasining davlatning strategik yo‘nalishlaridan biriga aylanishi lozimligini ko‘rsatadi. Davlatimiz rahbarining ma‘naviy taraqqiyot, yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlar, an‘analar, ajdodlar merosi, boy ilmiy-ma‘rifiy xazinamizdan iste‘foda etish borasida jon kuydirib gapirishi ham bejizga emas. Uning har bir fikrida ulug‘ ma‘nolar mujassam.

Yoshlar tarbiyasida Vatanni sevish, uni qadrlash, e‘zozlash, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, har zamon va makonda xalq manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslarni yetishtirish mamlakat taraqqiyoti, barqarorligi, va eng muhimi, davlatimiz xavfsizligi va mustaqilligi garovi bo‘lib xizmat qiladi. Bu Yangi O‘zbekiston strategiyasida yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq yondashuvlarida o‘z aksini topmoqda.

Bugun ma‘naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma‘naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!, deya ta‘kidlamoqda davlatimiz rahbari. Bu chaqiriq barchaga, ularning qaysi soha vakili bo‘lishi, millati, dini, mutaxassisligi, eng muhimi yoshidan qat‘iy nazar hammaga birdek taalluqli. Ma‘naviy sohaning ma‘rifat, tarbiya, ta‘lim sohalari oldida turgan avangard ekanligini to‘g‘ri anglagan taqdirimizda uning to‘liq kuchi va imkoniyatlarini tarbiyaviy sohaga yo‘naltirishga muvaffaq bo‘lishimiz mumkin.

YOSHLAR IJTIMOIIY-INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIIYLASHUVNING AHAMIYATI

Otamuratov Sarvar Sadullaevich
*Sotsiologiya fanlari doktori (DSc),
Toshkent Moliya instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasida mudiri*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar ijtimoiy-innovatsion faolligini oshirishda ijtimoiylashuv jarayonining ahamiyati tahlil etilgan bo‘lib, unda dunyoda taraqqiy etgan davlatlarda ushbu jarayonning kechishi haqida misollar keltirilgan, mamlakatimizdagi yoshlarni faollashtirish uchun ijtimoiy hamkorlik ishlarini kengaytirishi lozimligi qayd etilgan.

Tayanch so‘zlar: yoshlar, ijtimoiy, innovatsiya, faollik, jamiyat, guruhlar, tabaqalar, hamkorlik.

Yoshlarning ijtimoiy-innovatsion faolligini oshirishda jamiyat hayotida ijtimoiylashuvi, ya'ni umumiy maqsadlar yo'lida ijtimoiy sinflar, guruhlar va tabaqalar bilan hamkorligining mustahkam bo'lishi, yagona kuch sifatida harakat qilishi masalasi tashkil qiladi. Zero, jamiyatdagi sinflar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o'rtasida yakdillik bo'lmasa, ularning har biri o'z manfaatlari yo'lida tarqoq holatda harakat qilishsa, umum maqsadlar va manfaatlar yo'lidagi harakatlar ham besamar bo'lib qolaveradi. Albatta, bu yerda gap ularning har birining o'ziga xos manfaatlarini inkor qilish haqida ketayotgani yo'q, balki ularni umummanfaatlar bilan uyg'un tarzda olib borish zarurligi haqida ketmoqda.

Jamiyatda sinflar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o'rtasida milliy taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik ular har birining ijtimoiy-innovatsion faolligi oshishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Ezgu maqsadlar yo'lidagi hamkorlik har doim taraqqiyotga olib kelgan bo'lsa, begonalashuv inqirozlarga sabab bo'ladi. Ayniqsa, hamkorlik ahamiyati insonlar ongi va qalbida individualizm va kosmopolitizm ruhiyatlarini rivojlanayotgan bugungi kunda tobora dolzarblashib bormoqda. Prezidentimiz bugungi kunda hamkorlikning ahamiyati haqida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "...nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik institutlari bugungi kunda aholini o'ylantirayotgan muammolarga davlat idoralari e'tiborini qaratib, o'zlarining asoslangan takliflarini berib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun mamlakat va hududlar darajasida nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklikni keng yo'lga qo'yib, grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni ko'paytirishimiz kerak. Vazirlik va idoralar ham bir chetda tomoshabin bo'lib o'tirmasdan, bunday ijtimoiy hamkorlik ishlarini kengaytirishi lozim" [1]. Ya'ni bugun faqat hamkorlik orqali ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin.

Chindan ham, davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlari o'rtalaridagi hamkorlik aloqalari tufayli innovatsion g'oyalar paydo bo'ladi, ularni amalga oshirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Agar bu tizimni sinflar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar kesimida qarasaq, ularning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlanishi imkoniyatlarining kengayishiga, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlanishiga, yuzaga keladigan turli ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarning oldini olishga imkoniyat tug'diradi.

Bugun mamlakatimizda demokratik qadriyatlarining rivojlanishi jarayonida jamiyatimiz ijtimoiy tuzilmasida yangi ijtimoiy guruhlar, tabaqalar va nodavlat tashkilotlari kirib (shakllanib) kelmoqda. Ularning har birining o'ziga xos manfaatlari mavjud bo'lib, ularni o'zaro uyg'unlashtirish va umumiy maqsadlarga yo'naltirish zaruriyati masalasi kelib chiqmoqda. Mazkur vazifani ilmiy jihatdan o'rganish, tahlil qilish va umummaqsadlarga

yo'naltirishning mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy takliflarga ehtiyojlar oshib bormoqda. Bu o'ta muhim sohani fundamental tarzda o'rganadigan ilmiy markazlar va guruhlar tashkil etish hamda ular faoliyatining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kutilayotgan samaraga erishish imkonini beradi. Ular nafaqat maqsad va manfaatlarni o'zaro uyg'unlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqadilar, shu bilan birga, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o'zaro hamkorligini rivojlantirish bilan bog'liq mexanizmlarning samarali ishlashiga ijobiy ta'sir o'tkazadilar.

Taraqqiy topgan mamlakatlar, xususan, Yaponiya, Xitoy, Singapur va Malayziya kabi mamlakatlarning innovatsion faollikni rivojlantirish tajribalaridan ma'lumki, ularda har qanday yangi innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy qilishda uning samarasiga e'tibor berilishi bilan birga samara bermasa ham samara beradigan yangi g'oyalarni ishlab chiqishda "turtki" berishini nazarda tutgan holda munosabat bildiriladi. Ya'ni, ularni butunlay inkor qilmasdan "tavakkalchilik" asosida amaliyotga tatbiq qilinadi. Bu yana yangi innovatsion g'oyalar ishlab chiqish jarayonlariga qiziqishning ortishiga va faollikning oshishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Taraqqiy topgan mamlakatlarning ana shu tajribasini yosh tadqiqotchilarimiz va amaliyotchilarimiz ongiga singdirish bugun taraqqiyotimiz oldida turgan vazifalarni amalga oshirish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugun yoshlarimizda yangi innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga bo'lgan qiziqish ortib borayotganligini e'tirof etish zarur. Bu borada davlatimiz ham ularni qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Ammo, xorijiy mamlakatlar taraqqiyot tajribalarini xalqimiz hayotiga tatbiq qilishga to'la o'tib oladigan bo'lsak, yangi milliy innovatsion g'oyalarga ehtiyoj qolmasligini chuqur o'ylab ko'rishimiz kerakka o'xshaydi. Chet el yutuqlarini amaliyotimizga tatbiq qilgan holda xalqimizni birligini mustahkamlashga yoshlarimizning kosmopolitchilikka mahkum etadigan g'oyalardan ogoh bo'lishimiz zarur. Agar bu masalani hisobga olmasak, yoshlarimiz ongida yangi innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga bo'lgan qarashlar va intilishlar so'nib boradi hamda ularning xorijiy mamlakatlarning, an'anaviy hayotimizga zid bo'lsa ham "tayyor" g'oyalarni amaliyotimizga tatbiq qilish yo'ldan borishiga olib keladi. Bu o'ta jiddiy masalaga aylanmoqda.

Keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, jamiyatimizda kechayotgan modernizatsiya jarayonida yangi innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilishda yoshlarimiz faolligini kuchaytirish murakkab muammo sifatida real hayotimizda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy ehtiyojlarning oshib borayotganligi, ularni qondirish yo'lidagi harakatlar

kuchayayotgani bir qator mamlakatlar yoshlarini iqtisodiyot orqali o‘zlariga qaram qilishga harakatlar oshayotgani bugungi kunda ularda innovatsion faollikni kuchaytirish zarurligini o‘rtaga qo‘ymoqda.

Biz yoshlarning faolligini rivojlantirish haqidagi g‘oyalarni ilgari surar ekanmiz, ular ongi va tafakkurida ijtimoiy-innovatsion g‘oyalarni rivojlantirish hamda amalga oshirishning yetakchi kuchiga aylantirish mamlakat taraqqiyotining omili haqidagi xulosaga kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Xalq so‘zi”, 2020-yil 25 yanvar`.
2. Mirziyoev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2021. - 54-55-b.
3. Xolbekov A., Idivov U. Sotsiologiya (izohli lug‘at - ma’lumotnoma). – Toshkent, Abu Ali ibn Sino, 1999.
4. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ilm-fan va innovatsiyalarning o‘rni. Taraqqiyot strategiyasi markazi// <https://strategy.uz/index.php?news=1814>.

SUN’IY INTELLEKTNING XALQARO TERRORIZM VA KSTREMIZMGA QARSHI KURASHDAGI AHAMIYATI

G‘oyibnazarov Shuxrat G‘oyibnazarovich,
*siyosiy fanlar doktori, professor,
G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universitetining Toshkent filiali direktorining
ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari*

Annotatsiya: Global tahdid va xatarlar keskinlashgan hozirgi zamonda Internet omma ongiga ta’sir etishning eng samarali vositasi bo‘lib qoldi. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, jinoyatchilikni fosh etish, oldini olish va profilaktikasidagi ahamiyati.

Kalit so‘zlar: Internet ijtimoiy tarmoqlari, terrorizm, ekstremizm, sun’iy intellekt texnologiyalari va algoritmlari, BMTning global antiterror strategiyasi, “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasi, kiberjinoyatchilik kiberxavfsizlik, internet kontent, xufyona internet, sun’iy intellekt savodxonligi va madaniyatini shakllantirish.

Shuni alohida ta’kilamoqchimizki, deb yozgan edi, o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida Prezident Shavkat Mirziyoev, - terrorizm

va ekstremizm xavfi hamda tahdidlariga qarshi kurashish O‘zbekiston Respublikasi uchun birinchi navbatdagi vazifalardan biri bo‘lib, mintaqa davlatlari va halqaro hamjamiyatning sa’y-harakatlarini birlashtirishni taqozo etadi.”[1]

Globalashuv sharoitida insoniyat uchun eng xavfli tahdid va xatarlar sifatida kishilik jamiyatining yovuz kushandalari bo‘lgan terrorizm va ekstremizm hodisalari hanuzga qadar unga doimiy hamroh bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa ,hozirgi zamonda ular o‘z saflarini kengaytirish maqsadida eng zamonaviy IT texnologiyalaridan, internet messenjerlar, turli tarmoqlardagi saytlardan o‘z qabih rejalarini amalga oshirish maqsadida foydalanayotganliklari insoniyatga jiddiy xavf solmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O‘zbekiston yoshlarining ayrim vakillari ularning “qopqonlari”ga tushayotganligi sir emas. Bunday xatarlar haqida BMT Bosh Assambleyasi 2006-yilning 8 sentyabrida qabul qilgan “BMTning Global antiterror strategiyasi 60/288 rezolyutsiyasining “Terrorizm oldini olish va unga qarshi kurashish choralarning II-qism 12-a bandi belgilanidek, a’zo davlatlar”tegishlicha, Birlashgan Millatlar bilan hamkorlik qiladi, maxfiylik tamoyillariga rioya qilish, inson huquqlarini hurmat qilish va xalqaro huquq tomonidan yuklangan boshqa manburiyatlar usullari va vositalarini o‘rganish:

a) xalqaro miqyosda amalga oshiriladigan sa’y- harakatlarni muvofiqlashtirish va mintaqaviy darajalarda terrorizmning barcha shakllariga qarshi kurashish;

b) Internetdan kurashish vositasi sifatida foydalanishni taqiqlash terrorizmning tarqalishni davlatlar tan olgan holda bu masalalarda yordamga muhtoj mamlakatlarga ko‘mak berish kabi masalalardir.

Xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda muhim vosita bo‘layotgan sun’iy intellektning (SI)ning imkoniyatlari nihoyatda keng bo‘lib, hayotning turli sohalariga kirib kelgan yangi texnologiyalari, huquqiy asoslari, maqsad, vazifalari, mavjud ta’siri kabi masalalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida “Raqamli O‘zbekiston 2030 Strategiyasi qabul qilinishi bilan bir vaqtda sun’iy intellektni o‘rganish va tadbir etish texnologiyalari dasturi ishlab chiqildi, bosqichma bosqich amalga oshirilmoqda, ushbu muhim sohada Prezidentimizning tegishli Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, normativ hujjatlar asosida xos uning qonuniy bazasi yaratilmoqda.

Jumladan,O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” 2022-yil 15 aprelida O‘RQ-764-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2020-yil 15 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining axborot tizimlari va resurslarini himoya qilish davlat tizimni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6007-son Farmoni hamda 2020 15 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishiga doir qo‘shimga chora-tadbirlar to‘g‘ridagi PQ-4751-son qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot tuzilmasi kiber xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha yagona davlat siyosatini yuritishni samarali yo‘lga qo‘yish kabi muhim masalalar bo‘yicha qarorlar kabul qilib, ularning ijrolari ta‘minlayotganligi tufayli davlatimiz o‘z fuqarolarini , avvalambor yosh avlodni turli zararli oqimlardan, xalqaro uyushgan jinoiy guruhlar tajovuzidan himoya qilish bo‘yicha ko‘rayotgan maqsadli chora-tadbirlari bunda misoldir.

Ma‘lumki, jahonda terrorizm va ekstremizm hodisalariga, ularning tahdid va xatarlariga qarshi kurashishda sun‘iy intellekt yutuqlari, usul va texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti ham shakllangan. Hozirgi zamonda sun‘iy intellektning shunday texnologiyalari mavjudki, ular orqali huquqni muhofaza etish organlariga SIning algoritmlari orqali terrorizm va ekstremizm jinoyatlari bo‘yicha gumonlanuvchilarning feyslari (yuzi)dan aniq ajratib olish, ma‘lumotlardan terrorchilik yoki ekstremistik tarmog‘ini yoki shubhali faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarni fosh etishda, fil‘trlashni qo‘llash orqali ob‘ektlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlili, turli tasvir va ovozlarni bilish va boshqa murakkab holatlarni aniqlashda qo‘l kelmoqda. SI sohasidagi texnologiyalar tufayli hatto bo‘lajak terrorchilik va ekstremistik voqealarni bashorat qilish, gumondorlarni identifikatsiya qilish, alohida nazoratga olingan guruh faoliyati, ularning Internetga ulanishlari, manzili, ijtimoiy tarmoqdagi faoliyati va boshqa murakkab modellarni tahili va tartibsizlik keltirib chiqarish ehtimollari ham aniqlanadi va ular asosida o‘rnatilgan tartibda qonuniy choralar ko‘riladi.

Ta‘kidlash joizki, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa omillar ta‘sirida aynan yoshlarda radikal g‘oyalar va e‘tiqodlar tez shakllanadi. Asosan Internet tarmoqlari orqali ayrim yoshlarimiz terrorchi va ekstremistik guruhlar safiga qo‘shilib bir qator siyosiy va diniy yetakchilarning g‘arazli maqsadlari qopqonlariga tushib qolmoqdalar.

Hozirgi zamonda umumjahon Internet ijtimoiy tarmoqlarida terrorchilarning 7 mingdan ziyod saytlari mavjud bo‘lib, shundan 150 dan ziyodi rus tilida, shuningdek o‘zbek tillarida - kirill va lotin yozuvlari shakllarida o‘z materiallarini mutassil joylashtirib kelmoqdalar. Dunyoning turli nuqtalarida gibrid urushlari, turli siyosiy, harbiy mojarolar bo‘lib o‘tayotgan paytda SI algoritmlarini faol qo‘llash orqali yuqori samaralarga erishish mumkin. Masalan, “Oslo shahrida Yevropada ilk marta odamlarning

MorpnoFace yuzyb bilish tizimi o‘rnatildi. Chegara nazoratining boshqa tizimlar, nafaqat, kelish, jo‘nab ketish, balki Norvegiya, Yevropadagi va xalqaro hamkor davlatlar manfaatlar uchun masofaviy monitoring o‘tkaziladi. [6]

Bunday SI tizimlari jamiyat uchun xavfli shaxslarning xush-atvorini bashorat qilish va ularga nisbatan tegishli chora-tadbirlar ko‘rishda asqotadi.

Shuningdek, xavfsizlikni ta‘minlash va ekstremistik elementlarni aniqlash bilan birga ulardan (SI) nafaqat kiberxavfsizlikni ta‘minlash, balki kurolli kuchlarning jangovor shayligini oshirish va texnologik va favqulodda tabiiy holatlar haqida ogohlantirish, o‘z vaqtida ularning oldini olish holatlarida qo‘llash mumkin. Xitoy SI sohasida ham yetakchilikka erishmoqda, masalan, ular video orqali kuzatuvni mamlakatning barcha maktab, turmalari, jamoat joylari, qariyalar uylari va savdo markazlarida nafaqat odamning feys-yuzining belgilash moduli orqali balki, uning emotsiya-his-tuyg‘ulari moduli orqali ham ajratib olishga ham erishdilar. “2017-yilda Omdia global texnologiyalar markazi tadqiqotlari tahliliga ko‘ra, SI sohasidagi jahon bozori mahsulotlari 485 mlrd., 2019-yilda-917 mlrd, 2021-yilda 38 trln.dollardan oshib ketishi bashorat qilingandi. [3]

Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda, tobora globallashib borayotgan dunyoda milliy xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida Facebook, Microsoft, Twitter va YouTube kabi ijtimoiy tarmoqlar 2017-yilda Internetdagi terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda o‘zaro birlashdilar. Ushbu yirik internet kompaniyalar shunday bayonot berdilar: “Terrorizm va ekstremizmning tarqalishi bizlar uchun global xarakterga ega bo‘lgan muammo va tahdiddir”. [2]

Ushbu kompaniyalar terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi o‘z resurslarida choralar ko‘ra boshladilar va ushbu uchta asosiy “texnologik yechimlar”, “tadqiqot ishlari” va “axborot almashinuvi” yo‘nalishlarida mujassamlashgan. [4]

Shu bilan birga BMT Bosh Kotibining o‘rinbosari, BMT aksilterror boshqarmasi Direktori Vladimir Voronkovning fikricha, “Internet deyarli har kuni o‘z texnologik chegaralarini kengaytirib, sun‘iy intellekt, blokcheyn, additiv ishlab chiqarish va biotexnologiyalari bilan BMTning barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qilmoqda, biroq ushbu texnologiyayutuqlardan terrorchi va ekstremistlar ham keng va ustalik bilan foydalanmoqdalar: ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar, “darknet” xufiyona internet – ingl. Insonga qarshi mafkura, mablag‘ yig‘ish va yo‘llash, yoshlarni radikallashtirish va o‘z saflariga yollash, terrorchilik hujumlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish kabilardir. Terrorchilik va ekstremistik guruhlar hozirgi kunda o‘tgan-yillarga nisbatan yaxshi ta‘minlanganlar. Terrorchi va ekstremistlarning Internet-

kontentini aniqlash topish hamda o‘chirib tashlash algoritmlar orqali bor-yo‘g‘i 15-20 daqiqada amalga oshiriladi, terrorchilarning yashirincha biologik qurollar ishlab chiqarib, ximiyaviy biologik yoki radiologik materiallarni uchuvchisiz dronlar orqali yo‘llashni uyushtirsalar, holatni hatto tassavur qilish qiyin bo‘ladi.”[5]

Dunyo bo‘ylab SI yuqori tezlikda rivojlanib davlat sektoridan boshlab sanoat, iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, moliya energetika, transport, harbiy, ijtimoiy logistika, savdo kabi sohalarga o‘z texnologiyalari bilan faol kirib kelib, ushbu sohalarda transformatsiya jarayonlarini boshlab yuborgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, mamlakatimizda ham SI texnologiyalarini qo‘llash va rivojlantirishga oid huquqiy normativ baza asoslari shakllantirilgan bo‘lib qonunchilimizga tegishli o‘zgartirilar bosqichma-boskich kiritilib borilmoqda. Ayniqsa, SI savodxonligi va madaniyatini shakllantirish va fuqarolarni, avvalambor, yoshlarni ushbu texnologiyalarni o‘zlashtirishga keng jalb etish sohasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligini ta’kidlashimiz zarur. Ko‘rinib turibdiki, ushbu sohada yangiliklarni joriy etish bilan barobar SI tomonidan tarqatiladigan global g‘arazli maqsadlar buzg‘unkor, xavf-xatarlar, zararli g‘oya va mafkuraviy bosimlardan SI iste’molchilarini, ayniqsa yoshlarni asrashimiz, himoyalashimiz zarur deb hisoblaymiz. Zero, O‘zbekiston ham global raqamli dunyoning bir bo‘g‘ini sifatida o‘z taraqqiyotida SI texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llash orqali samarali yutuqlarga erishish uchun hamma chora-tadbirlarni ko‘rmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2021 y. -B. 414.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish milliy strategiyasi. [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/5491628> (ko‘rilgan sana:29.02.2024)
3. Andriyanov I.A. Sun‘iy intellekt raqamlashtirish vositasi sifatida. [Elektron resurs]. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyy-intellekt-kak-instrument-tsifrovizatsii-tamozhennyh-organov> (kirish sanasi: 28.02.2024)
4. Fedunenko E., Xvostik E. Eng yirik IT kompaniyalari antiterror koalitsiyasini tuzdilar. [Elektron resurs]. URL: <https://www.kommersant.ru/doc/3337096> (ko‘rilgan sana:29.02.2024)
5. Minskda V. Voronkov YXHTning terrorizmga qarshi konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. [Elektron resurs]. URL: https://www.tvr.by/news/glavnyy-efir/antiterroristicheskaya-konferentsiya_obse_proshla_v_minske/ (ko‘rilgan sana:29.02.2024)
6. Oslo aeroporti Evropada birinchi bo‘lib tizimni joriy qildi yuzni aniqlash IDEMIA MorphoFace. [Elektron resurs]. URL: <https://www.ixbt.com/news/2018/07/30/ajeroport-oslo-pervym-v-evrope-vnedril-sistemu-raspoznavaniya-lic-idemia-morphoface.html> (kirish sanasi: 28.02.2024)

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING YOSHLAR HAYOTIGA TA'SIRINI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI

Ravshanov Fazliddin,
siyosiy fanlar doktori, professor,
“Renessans” ta’lim universiteti professori

Annotatsiya. Zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalarini axborotlashtirish sharoitida axborot oqimlarining asosiy tarqatuvchisi ommaviy axborot vositalari bo‘lib, bu ularning fuqarolar, ayniqsa, yoshlar hayoti uchun mas’ulligidan dalolat beradi. Ayni paytda OAV jamiyat hayotining eng muhim institutiga aylanib, siyosiy me’yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtirishga ta’sir ko‘rsatuvchi, shuningdek, yosh avlodning ijtimoiy-siyosiy faolligi modellarining tashabbuskori bo‘lmoqda. Aynan ushbu maqolada ommaviy axborot vositalarining yoshlar hayotiga ta’sirini va uni tartibga solish yo‘nalishlari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: OAV, yoshlar, mafkura, qadriyat, axborot, jamiyat.

Yosh avlodning ijtimoiy-ma’naviy, siyosiy hayoti uning qadriyatlari yo‘nalishlari, siyosiy sub’ektivligi, tabiati va rivojlanish darajasini aks ettiradi. Yoshlarda zarur ijtimoiy-siyosiy bilimlar, qarashlar, ishonch-e’tiqod va siyosiy kompetentlikni shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotida siyosiy ishtirokni ta’minlash zamonaviy siyosiy hayotining eng muhim vazifalaridandir.

Bugungi jamiyat hayotining barcha sohalarini axborotlashtirish sharoitida axborotning asosiy tarqatuvchisi OAV bo‘lib, bu ularning fuqarolar, ayniqsa, yoshlar hayoti uchun mas’ulligidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan ijtimoiy salohiyatni faollashtirishning samarali mexanizmlarini izlash, yoshlarning yuksak fuqarolik madaniyatini shakllantirish bugungi kunda zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Yoshlarning milliy-madaniy taraqqiyot davomchilari sifatida rivojlanishi O‘zbekistondagi dinamik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar xususiyatlari bilan belgilanadi. Ko‘plab siyosiy kuchlar ommaviy axborot vositalari orqali raqobatda o‘z ustunliklarini ta’minlash uchun yosh avlod qarashlarining beqarorligidan foydalanadilar. O‘zbekistonning ushbu sohalaridagi davlat siyosatiga ta’sir etuvchi bunday zohiriy omillar, masalan: G‘arb mafkurasining tajovuzkorligi, siyosiy va iqtisodiy sanksiyalar, evromaydon davri va Ukrainadagi dramatik voqealar, Suriya, G‘azodagi qirg‘inlar va boshqalarni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Bunday sharoitlarda yoshlarda risoladagidek madaniy-axloqiy mo‘ljal (pozisiya), siyosiy xatti-harakatlarning faol shakllari, bunda birinchidan, yoshlarning kasbiy o‘shish imkoniyatlari, ikkinchidan esa, O‘zbekiston yoshlar jamiyatini modernizatsiya qilishning qonuniy (legitim) usullariga qaratilgan siyosiy hayotning yuqori

darajasi talab etiladi.

Ommaviy axborot vositalari navqiron avlodni axborotlashtirish orqali ularning hayot yoʻnalishlarini, jamiyat manfaatlarini aniqlash koʻnikmalari, oʻzi va jamiyat pozitsiyasini himoya qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bundan kelib chiqadiki, ommaviy axborot vositalari jamiyat oldidagi muayyan majburiyatlarni bajaradi: ular fuqarolarni xabardor qilish, turli sohalardagi hayot motivlarini tarqatish, aholini oʻzini ijtimoiy-madaniy namoyon qilishi va amaldagi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarning asosiy vositasiga aylanishiga hissa qoʻshadi. Bunda oʻz faoliyatida yoshlar auditoriyasiga yoʻnaltirilgan ommaviy axborot vositalarining bir vaqtning oʻzida targʻibot-tashviqotning uchta tarkibiy qismi: axborot, ishontirish va koʻngilochar komponentlardan foydalanishini tushunish muhimdir.

Shuni ham taʼkidlash kerakki, ommaviy axborot vositalari nafaqat dunyoning izchil madaniy, mafkuraviy va siyosiy manzarasini shakllantirishga hissa qoʻshadi, balki yoshlarga mafkuraviy jihatdan har xil, lekin faollikni oshirishning ijtimoiy jihatdan maqbul modellarini taklif qiladi. Bu oʻrinda ommaviy axborot vositalarining oʻzi shunday modellarni taklif etishga tayyormi degan savol, muhim ahamiyatga ega. Yoshlar qadriyat yoʻnalishlarini shakllantirish, ularning mamlakatda hayoti sifatini oshirish alohida ahamiyatga ega, chunki aynan yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida kelajakdagi Oʻzbekiston jamiyatining potensial intellektual va ijtimoiy asosi hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, Oʻzbekiston mass-mediiasi hozirgi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga mos ravishda yoshlar auditoriyasi bilan tarbiyaviy, maʼrifiy va madaniy ishlarni yangilashi va yaxshilashi zaruriyat hisoblanadi.

Bugungi kunda zamonaviy Oʻzbekiston sharoitida yoshlar hayotini tahlil qilishning metodologik asoslari toʻliq shakllanmagan. Shunga koʻra, zamonaviy yoshlar muammolari ustuvor yoʻnalishlarini belgilashda qadriyatlar evolyusiyasi masalalari va yoshlar hayotini transformasiyalash sharoitlarini tushuntiruvchi yangi yondashuvlarga etarli ehtiyoj bor.

Ommaviy axborot vositalari (mass-media) ning yoshlar hayotini shakllantirishga taʼsiriga doir xususiyatlar borasida koʻplab ilmiy tadqiqotlar qilingan va qilinmoqda. Ammo ular ilgari surgan taklif va tavsiyalarni yaxlit tahlil qilish, muhim xulosalarni umumlashtirib, ustuvor maqsadlarga birlashtirish deyarli eʼtiborsiz qolayapdi. Zamonaviy jamiyatda esa axborot maydonining kengayishi sharoitida yoshlar qadriyatlari, dunyoqarashi, munosabati va pozitsion yoʻnalishlari, yoshlarning taraqqiyot jarayonlaridagi roli va madaniyati omillarini shakllantirishda OAV ning oʻrnini oʻrganishga konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish allaqachon obʼektiv zaruratga aylangan.

Yangi media madaniyatini shakllantirish sharoitida yoshlarning ongi va xulq-atvor namunalarini shakllantirishning o'ziga xosligi turli yoshlar submadaniyatlarida namoyon bo'ladi. Yosh avlod turmush tarzi, jamiyat rivojining turli bosqichlarida ular ijtimoiy-siyosiy ongining shakllanib borishi masalalariga qaratilgan qator mualliflik ishlari e'tibordan mutlaqo chetda qolmoqda.

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning faol sub'ektlari sifatida qarashda O'zbekistonning etakchi ilmiy jamoatchiligi, Yoshlar agentligi, Yoshlar ittifoqi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, uning qoshidagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, Yoshlar muammolarini o'rganish instituti va boshqalarning g'oyalari ayniqsa salmoqli ahamiyat kasb etadi. Lekin ular tavsiya etgan konsepsiyalar hamisha ham strategik ahamiyat kasb etmayapdi.

Ommaviy axborot vositalari ta'sirida fuqarolarning jamiyat siyosiy sohasiga integrasiyalashuvi muammosini o'rganishda E.Dennis, M.Xorkxaymer, T.Adorno, J. Xabermas, yoshlar auditoriyasining ommaviy axborot vositalariga munosabati, televizion ma'lumotlarning yoshlar qadriyatlar va munosabatlarini rivojlantirishga ta'siri, OAV ning yoshlar borasida jamoatchilik fikriga ta'sirini o'rganish masalalarida esa E.Noel-Noyman, D.Gerbner, D.Makkueyl va boshqalarning g'oyalariga ham e'tibor qaratish kerak. Shu kabi, mass-medianing mamlakat siyosiy jarayoni dinamikasiga ta'sirini o'rganishga yangi yondashuvlar, yangi ommaviy axborot vositalari va axborot-kommunikasiya texnologiyalarining zamonaviy davlatning demokratik amaliyotiga ta'siri borasidagi V.V. Ognevoy, D.N. Nechaev, T.V. Naumenko, I.I. Lukashuk va boshqalarning qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. Yoshlar madaniyati o'zgarishlarini tushunishga konseptual yondashuvlar masalalarida esa S.Verba, L.Pay, I.Gerder, S.Xantington va boshqalarning strategik yondashuvlari mavjud va ulardan bu borada ustuvor yo'nalishlarni shakllantirishda unumli foydalanish mumkin.

Shu kabi, yoshlar dunyoqarashiga axborotlashgan jamiyat, axborot tahdidi, axborot xurujlari, dunyoning mafkuraviy manzarasi, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri borasida M.Musaev, Sh.To'raev, Sh.Murodova, R.Nizomova, Z.O'lmasxo'jaev, A.Madrahimov kabi mahalliy tadqiqotchilar izlanishlari xulosalari, taklif va tavsiyalariga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlar hayotining asosiy kategoriyalarini tizimlashtirish, ular ijtimoiy madaniyatining tuzilishi, vazifalari, tipologiyasi tizimli tahlil qilinishi lozim. Mazkur qarashlar O'zbekiston yoshlarilarining ijtimoiy hayotini qayta qurish yoki transformasiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, yangi ommaviy axborot vositalari, ularning onlayn va elektron shakllarining yoshlar hayotiga ta'siri muammosi to'liq o'rganilmagan.

Shu tufayli ijtimoiy tarmoqlarning yosh avlod qarashlari va ongiga ta'sirini o'rganishdek ob'ektiv zarurat mavjud. Chunki, ommaviy axborot vositalari mamlakatdagi rivojlanish jarayonida zamonaviy yoshlar ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy faoliyatining muqobil yoki interaktiv shakllariga ta'sirini batafsilroq baholashi muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy axborot vositalarining yoshlar hayotiga ta'sir qilish sub'ekti sifatida har tomonlama tahlil qilish va mamlakatdagi jarayonlarda yosh avlod imtiyozlari va ijtimoiy-madaniy faolligiga ommaviy axborot vositalarining ta'sir qilish mexanizmlarini tizimlashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini asoslash bugungi kunning dolzar masalalari qatoriga kiradi. Ushbu maqsad yo'lida quyidagi vazifalarni hal qilish muhim ahamiyatga ega:

birinchidan, ommaviy axborot vositalarining yoshlar siyosiy hayotiga ta'siri haqidagi asosiy konsepsiyalarni amaliy sosiologik so'rovlar vositasida o'rganib chiqish kerak;

ikkinchidan, O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining rolini aniqlashtirib olish lozim;

uchinchidan, yoshlar turmush tarzi va faoliyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining ta'sir vazifalarini aniq strategik rejalar shakllarida ishlab chiqish zarur;

to'rtinchidan, O'zbekiston yoshlari dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirishga ommaviy axborot vositalarining informasion ta'sir texnologiyalari va mexanizmlarini tatbiq etishni reallashtirish;

beshinchidan, zamonaviy O'zbekistonda yoshlar hayotini o'zgartirish jarayonida ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlarini tahlil asosida qayta ko'rish lozim;

oltinchidan, mamlakatdagi turli jarayonlarda yoshlarning sezuvchan ijtimoiy-siyosiy faolligi va bunda media muhitning ta'sirini tartibga solishning yangi yo'nalishlari shakllantirishi kerak.

Bunda maqsad axborotning globallasuvi va sifatsizlashuvi jarayonlari, ommaviy axborot vositalarining tijoratlashuvi va qadrsizlanishi zamonaviy yoshlarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini qayta baholashga, ularning ijtimoiy hayotda ishtirok etishning muqobil, yangi shakllariga intilishiga yordam berishidan kelib chiqadi. Shu tufayli O'zbekistonda davlat axborot siyosati konseptual takomillashtirilishi erkinlik tamoyillari va normalari muvozanatiga, shuningdek, media makonidagi ishtirokchilarning mas'uliyatiga asosan qayta ko'rib chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dennis E., Merril D. Besedy o mass-media. - M.: Vagrius, 1997. - 139 s.

2. Xorkxaymer M., Adorno T. Dialektika prosvesheniya. Filosofskie fragment/ Per. M. Kuznesov. - M.-SPb: Izdatelstvo: Medium, Yuventa, 1997. - 312 s.
3. Xabermas Yu. Moralnoe soznanie i kommunikativnoe deystvie / Per. s nem. pod red. D.V. Sklyadneva. - SPb., 2000. - 380 s.
4. Noel-Noyman E. Obshestvennoe mnenie. Otkrytie spirali molchaniya. Per. s nem. N.S. Mansurova. - M.: "Progress-Akademiya", 1996. - 352 s.
5. Gerbner G. et al. Living with television: The dynamics of the cultivation process // Perspectives on media effects. - 1986. - R. 17-40.
6. McQuail D. Mass Communication and Public Interest: Towards Social Theory for Media Structure and Performance. In: Cmwley D., Mitehell D. Communication Theory Today. – Polity Press, 1994. - P. 241-254.
7. Naumenko T.V. Sotsiologiya massovyx kommunikasiy. - SPb.: Piter, 2005. - 288 s.
8. Lukashuk I. I. Sredstva massovoy informasii, gosudarstvo, pravo. - M., 2001. - 322 s.

IJTIMOIIY INSTITUTLAR TIZIMIDA YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING VAZIFALARI (FALSAFIY MEDIATAHLIL)

Tuychiyev Berdikul Turakulovich,

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
“Huquqiy fanlar” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori*

Xo‘jaxonov Islomxo‘ja Abdulloxon o‘g‘li,

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
“Huquqiy fanlar” kafedrasi tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda ijtimoiy institutlarning xususan ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati o‘rganilib falsafiy tahlil qilingan. Unda yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatining rivojlanmaganligi ko‘rsatib o‘tilgan va uning yechimi sifatida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Huquq ong, huquqiy madaniyat, ijtimoiy institut, internet, ijtimoiy tarmoq, ijtimoiy normalar, islohot, axborot.

Yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb muammosidir. Ularning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy institutlar o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy institutlar haqida turli xil fikrlar mavjud. XIX asr sotsiologi Spenser birinchilardan bo‘lib ijtimoiy tizim, ijtimoiy institut, ijtimoiy nazorat tushunchalarini fanga olib kirdi. Sotsiolog

E.Giddens “Ijtimoiy institut bu - jamiyat hayotining birligi, yaxlitligi hamda ularning tashkillashtiruvchi mexanizm ekanligini ta’kidlaydi”.[4] Ijtimoiy institutlar deganda kishilarning ijtimoiy faoliyatlari tashkillanadigan va amalga oshiriladigan muassasalar va ularda ijtimoiy fe’l-atvor, harakatlarning muvofiqlashtiriluvi tushuniladi. Ijtimoiy institutlarning tarkibiy funksional tahlili haqida gap ketganda, ijtimoiy normalar va ularning ijtimoiy hayotidagi roliga ham e’tibor etish lozim bo’ladi. Ijtimoiy normalar mamlakat aholisining ijtimoiy jarayoniga hamda ularning kayfiyatiga ham ijobiy ta’sir etadi va mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini yanada oshiradi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgarigidek, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari - mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o’rin egallaydi”. [1] Ijtimoiy institutlar negizi hisoblangan yuridik, siyosiy va iqtisodiy hokimiyat organlari mavjud bo’lib ular ushbu faoliyat jarayonlarini o’ziga xos regulyatori hisoblanadi. Bu institutlarning asosiy maqsadi muammolarni hal qilish, fuqarolarda yuksak ma’naviy e’tiqodini shakllantirish ularning huquqlarini muhofaza qilishga yordam berishdan iborat bo’ladi. Ijtimoiy institutlarga yana quyidagi tashkilotlarni kiritishimiz mumkin. Masalan: Oliy Majlis, davlat idoralari va tashkilotlar, sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar va boshqalar. Ular millat va mamlakatimiz fuqarolarining jinsi, diniy e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar ularning farovonligi hamda mamlakatimizda adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy institutlardan biri ommaviy axborot vositalaridir. Mamlakat hayotini demokratlashtirish jarayonlarining istiqboli asosan yoshlarning huquqdanxabardorligi darajasigabog’liq. Buborada OAV yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning huquqiy ongi va fikrlar xilma-xilligi ta’minlash, yoshlarda ijtimoiy faollikni oshirish, demokratik davlat barpo etilishida muhim vosita hisoblanadi. Zero Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgarigidek, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari - mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o’rin egallaydi, deb ishonamiz” degan fikrlari OAVga berilgan yuqori ishonchdir. [2] Uchinchi renessans poydevorini qurishda ijtimoiy, siyosiy, madaniy harakatlarni yoritishda va odamlarning huquqlarni himoya qilishda OAV yetakchi o’rinda hisoblanadi.

Globalashuv jarayonida ommaviy axborot vositalari insonning ongiga

tafakkuriga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Axborot informatsion texnologiyalar, blogerlar va jurnalistlarning ba'zan huquqiy madaniyatining pastligi ularning o'ziga xos deformatsiyalashuvi ham huquqiy ong shakllanishida salbiy rol o'ynaydi. Ko'plab maqolalarda, chiqishlarida OAV larning axloqsizlik madaniyatsizlik kabi illatlar ko'zga tashlanadi. Gap shundaki bu salbiy holat huquqiy bilimlarda emas balki bu bilimlarning jamiyatning muayyan qatlamlarida yetishmasligi, huquqiy bilimlar, huquqiy normalarni hayotga joriy etish ko'nikmalarni yeishmasligi deb aytish mumkin. OAVlar ba'zi holatlarda huquqiy normalar huquqiy normalarni inkor etish yoki tan olmaslik shaklida ham namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida yoshlarda huquqiy infantilizm huquqiy nigilizm kabi dunyoqarashni shakllantiradi. Bularning asosiy sabablaridan biri internet tizimidan to'g'ri foydalanmaslikdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra "Telegram"da 18million, "Odnoklassniki"da 16,7million, "Facebook"da 4,7 million, "Instagram"da 3,7 million, "Vkontakte"da 2,6 million, "LinkedIn"da 288 ming, "Twitter"da 51,6 ming nafar O'zbekistonlik foydalanuvchi mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligini yoshlar tashkil qiladi. [5] 2021-yilning dekabr holatiga ko'ra, milliy domen makonidagi 289 ta veb-saytda pornografiya, 91 ta veb-saytda esa behayolik va ma'naviy buzuvchi targ'ibotiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan holat aniqlangan va 2097 ta qonunbuzarlik holati qayd etilgan.[6] Birgina 2021-yilning dekabr holatiga ko'ra milliy domen hududidagi 289 ta veb-saytda (1734 ta qonun buzilish) pornografiya, 91 ta veb-saytda esa (363 ta qonun buzilish) behayolik va ma'naviy buzuvchi targ'ib qiluvchi holatlar aniqlangan bo'lib, 2097 ta qonun buzilishi holati qayd etilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek segmentida ma'naviy buzuvchi targ'ib qiluvchi 130 ga yaqin guruh, sahifa va kanallar mavjudligi aniqlangan bo'lib, ularda 2646 ta material (foto, video, matnli va boshqalar) tarqatilgan. Ushbu materiallarning aksariyati "Odnoklassniki" (55 ta guruhning 1962 ta materiali) va "Instagram" (60 ta guruhning 684 ta materiali) ijtimoiy tarmoqlarning hissasiga to'g'ri keladi. 2021-yilda axloqsizlik, behayolikni targ'ib qiluvchi 1650 ta veb-saytdan mamlakat hududida foydalanish belgilangan tartibda cheklangan. Eng ommabop bo'lgan "Telegram" messenjeridagi 35 ta faol kanalda odob-axloq talablariga mos kelmaydigan o'zbek auditoriyasiga qaratilgan 7738 ta material mavjudligi aniqlangan. Birgina "Telegram" messenjeri va "TikTok" videoplatformasining O'zbekiston auditoriyasi uchun yo'naltirilgan resurslarida fahsh yoki pornografik kontent orqali auditoriya to'plash va reklama hisobidan daromad topishga qaratilgan 7 ta kanal aniqlangan (umumiy obunachilari soni - 120721 nafar). "Telegram" messenjerida umumiy obunachilari soni 44479 nafar bo'lgan aqidaparastlik yoki ekstremistik mazmundagi virtual 43 ta resurs mavjudligi, xuddi shu mazmundagi


materiallarning tarqatilishi va targ'iboti bilan "TikTok" videoplatformasida 20 ta profil faoliyat ko'rsatayotgani, uning umumiy obunachilari soni 25458 nafarni tashkil etayotgani achinarli holatdir. "Instagram" tarmog'ida qurol-yarog'lar targ'iboti bilan shug'ullanuvchi 2 ta sahifa mavjud bo'lib, kanalning umumiy a'zolari soni 17924 nafarni tashkil etadi.[5]

Mamlakatimiz yoshlarining internetdan foydalanish odobi yetarli emasligi bugungi kunning og'riqli jarayonlaridan biridir. Bu haqda O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Ba'zi yoshlarimizda Internetdan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi va madaniyati yetarli emas. Ayrim yigit-qizlar Internetni axborot, bilim va ma'rifat manbai deb emas, balki shunchaki ko'ngilochar vosita deb bilishadi" degan fikrlari o'rinlidir. [7]

Internet resurslari va ijtimoiy tarmoqlarda buzg'unchi materiallarni tarqatganlik uchun aybdorlarga nisbatan ba'zan jazo choralari qo'llanilmasdan qolmoqda. Prezident Sh.Mirziyoyev "Hozirgi kunda butun dunyoda terrorizm, ekstremizm va boshda tahdidlar Internet makoniga kirib, moslashib olgan. Shuning uchun ularga qarshi kurashish oson kechmayapti" deya ta'kidlagan edi [3]. Internet tarmog'idan bo'layotgan mafkuraviy hujumlarga qarshi tura oladigan yoshlarni shakllantirish kerak. Internet tarmog'idagi yoshlarning soni ortib borishi albatta bu tabiiy xol. Lekin ularning bu boradagi ya'ni internet madaniyatini rivojlanmagani achinarli holat. Buning natijasida yoshlar turli huquqbuzarliklarni keltirib chiqarmoqdalar. Ularning huquq va majburiyatlari haqidagi bilimlarining yetarli emasligi mamlakatdagi huquqbuzarlikni sonini oshirmoqda. Buning uchun huquqiy targ'ibot va tashviqotni ommalashtirish zarur. Tadqiqotchi I.Xo'jaxonov tomonidan o'tkazilgan "O'z huquqlaringiz haqidagi ma'lumotlarni qayerdan olasiz" ? deb nomlangan sotsiologik so'rovnomada qatnashgan 12-30 yoshgacha bo'lgan 850 nafar yoshlarning natijalariga e'tiborini qaratish lozim. Respondentlarning 49% huquqiy savodxonligini oshirishda internet manbalaridan foydalanishni, televediniye 9%, bosma davriy nashrlardan 11%, siyosiy partiyalarning tarqatmali materiallaridan 3%, radio ma'lumotlari esa 2%, ijtimoiy tarmoqlardan 8%, do'stlarim, hamkasblarim, qarindoshlarimdan 12%, va boshqa turli ommaviy tadbirlarda bevosita ishtirok etish orqali egallangan huquqiy ko'nikma va bilimlar 4%, boshqa turli xil ma'lumotlardan 2% ni tashkil etgan. (1-rasm)

Olib borilgan sotsiologik so'rovnomalar natijalari shundan dalolat beradiki, O'zbekistonda huquqiy madaniyat muammosi fundamental muammolardan biri bo'lib jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi va uning strategik vazifalarini bajarilishi aynan ana shu muammoning yechimi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham huquqiy madaniyat huquqiy mazmunga ega bo'lgan bilimlar majmui bo'lib har bir fuqaro kundalik hayotda huquqiy normalar talablarga rioya qilish lozim. Yoshlarning yuksak huquqiy

madaniyatini shakllantirish oliy qadriyat bo‘lib inson haq-huquqini real ta’minlash omili hisoblanadi. Huquqiy madaniyatni rivojlanganlik darajasi fuqarolarning huquqiy faolligi bilan belgilanadi. Har qanday ijtimoiy hodisa kabi huquqiy madaniyat ham mamlakatimiz tarixi O‘zbek xalqining milliy urf-odatlarini va ma’naviyati bilan uzviy bog‘liq.



1-rasm

Demokratik davlat qurishda, aholini huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirishda OAVda huquqiy mavzularni yoritish, yoshlar orasida keng muhokamaga sabab bo‘layotgan huquqiy muammolarni gazeta va jurnallarda, televideniye va radio eshittirishlarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng tushuntirish kerak. OAV yoshlarning huquqiy madaniyati yuksaltirishda quyidagi faoliyatlarini yanada rivojlantirilsa maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Birinchi, OAVning o‘zi qonun doirasida faoliyat yuritishi, yoshlarga to‘g‘ri va ishonchli ma’lumotlarni yetkazib berishi hamda yoshlarni qonunga bo‘lgan hurmatini yanada yuksaltirish.

Ikkinchi, OAV o‘z-o‘zini boshqarishda iqtisodiy jihatda erkin bo‘lishi zarur. Qonuniy ravishda daromad olish va uni mamlakat rivoji yo‘lida sarf etish. Olib borayotgan faoliyati xolisligini ta’minlash.

Uchinchi, OAVni huquq va erkinliklarini qonun asosida himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish. Qonun doirasida olib borilayotgan faoliyatni yoritishga yetarli darajada imkoniyat yaratib berish.

To‘rtinchi, OAV-yilda bir marta xalq oldida olib borgan faoliyati to‘g‘risida hisobot berishini yo‘lga qo‘yish. Xalq tomonidan berilgan fikr-mulohazalar yuzasidan kelajakda amalga oshirish bo‘yicha rejalarini takomillashtirish.

Beshinchi, OAV ning davlatimizda olib borayotgan faoliyati sog‘lom raqobatga asoslanishi zarur. OAV asosiy maqsadi davlatimizdagi ochiq va oshkoralikni ta’minlash. Faoliyati doirasida milliy qadriyatlarimizga sodiqlik prinsipini doimo o‘z dasturining maqsadi qilib olishi zarur.

Mamlakatda qabul qilinayotgan qonunlarni xalq muhokamasiga qo'yilishi ayniqsa demokratik davlatning belgisi sifatida tan olib borilmoqda. Ushbu jarayonlarni yoshlarga yetkazish hamda uni hayotga tatbiq etishda OAV turli xil metodlardan foydalanishi va yoshlar ongiga singdirilishi kerak. Hozirda yoshlarning harakatlarini va huquqiy dunyoqarashini o'rganish natijasida quyidagilarni ta'kidlash lozim bo'ladi. Respublikamizda chop etilayotgan gazeta va jurnallar yoshlar tomonidan kam o'qilmoqda. Radio va televizor tomosha qilinayotgan vaqtni qisqarib borishi va shiddat bilan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayoni kengayib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Axborotlashgan jamiyatda istiqomat qilayotgan ekanmiz yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini OAV tomonidan yangi innovatsion metodlar asosida singdirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017-y. 58-bet.
2. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.:O‘zbekiston -2017, 1-jild, 141-bet.
3. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. –T.:2021. – B. 47-46
4. Giddens A. Sociology. Oxford, 1989. P. 381.
5. <https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekistonda-ijtimoiy-tarmoq-foydalanuvchilari-qancha>
6. [https://daryo.uz/k/2022/01/31/ijtimoiy-tarmoq-va-messenjerlardan qancha-ozbekistonlik-foydalanishi-malum-qilindi](https://daryo.uz/k/2022/01/31/ijtimoiy-tarmoq-va-messenjerlardan-qancha-ozbekistonlik-foydalanishi-malum-qilindi)
7. <https://lex.uz/docs/5867519>

IJTIMOYIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVYIY-AXLOQIY QARASHLARIGA TA'SIRI: MEDIATAHLIL METODLARI

Sultonov Fozil Xojiyevich,
O‘zbekiston FAA akademigi,
Akbarqulova Ziyodaxon Ummataliyevna,
RMMM yetakchi mutaxassisi mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qiz farzandning nafaqat qadriyat sifatida, balki millat murabbiysi, millat onasi, kelajak avlodni tarbilashga mas'ul shaxs ekanligi, uning

tarbiyasi bevosita kelajak avlodning ma'naviy omili sifatida muhim ahamiyat kasb etishi, ijtimoiy tarmoqlarda qizlar axloq-odobiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ma'naviy tahdidi haqidagi fikrlar Tik-tok, Telegramm va Instagramm kanallari misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Qiz farzand, ma'naviy omil, qizlar axloq-odobi, ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlari, ijtimoiy tarmoqlarning tarbiyaga ta'siri.

Inson o'z naslini davom ettirish maqsadida farzand tarbiyalaydi. O'g'il farzandga mard va jasur, el-yurt koriga yaraydigan bo'lsin, qiz farzandga esa ibo-hayoli, oqila bo'lsin, deb niyat qilinadi. "Yaxshi niyat — yarim mol", degan gapning hikmati ortidan "Harakatda — barakat" hikmati ergashishi ham bejizmas.

Zero, farzand tarbiyasi ham nozik, ham mas'uliyatli vazifa. Ayniqsa qiz farzand tarbiyasi har bir o'zbek oilasi uchun or-nomus masalasidir.

Qiz farzandning yelkasida otasining, aka-ukalarining g'ururi, or-nomusi turadi. Qiz bolaning nomiga tushgan dog' uning umriga tatishi mumkin.

Yigitlar tarbiyasida jasur, qo'rqmas qahramonlarga murojaat qilsak, qiz bolalar tarbiyasida To'maris, Barchinoy, Bibixonim, Nodirabegim kabi oqila, o'zini millat onasi, deb bilgan, matonatli o'zbek ayollari timsollariga murojaat qilamiz.

O'g'il farzand millat davomchisi sifatida talqin etilsa, qiz farzand millat tarbiyachisi degan maqomda sharaflanadi.

Kuni-kecha muhtaram Prezidentimiz 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'zbekistonlik ayollarga qilgan murojaatida ayolga nisbatan jamiyat tarbiyachisi, millat onasi, deya mulohaza yuritgani, ayol rozi bo'lgan jamiyatda taraqqiyot bo'lishi, obodlik bo'lishiga urg'u bergani bejizmas.

Bugungi geosiyosiy davrdamafkuraviy tahdidlarkunsayinkuchayayotgan zamonda aholimizning katta qismini yoshlar tashkil etib turgan ayni damda farzand tarbiyasi eng dolzarb masalaga aylanmog'i zarur.

Insoniy fazilatlar, ma'naviy qadriyatlar haqida so'z ketsa, ayni shu xususiyatlar qiz bolada eng oliy darajada bo'lishi talab qilinadi. Millatning ko'rki, millatning kelajagi bo'lgan qiz farzandga nisbatan qo'llaniladigan ushbu sifatni asrlar va zamonlar o'chira olmaganidan ko'rinib turibdiki, millatning kelajagi biz tarbiyalayotgan avlodga, ayniqsa, qiz farzandlar sifatiga bog'liq.

O'zbek xonadonida qiz farzand milliy qadriyatlarimiz, urf odatlarimiz, diniy va dunyoviy bilimlarimiz asosida tarbiyalanadi. Bo'lajak ona, yurt davomchilarini dunyoga keltiruvchi xilqat ham jisman, ham ma'nan yetuk bo'lishi shart.

Afsuski, globalashuv inson ongu shuuriga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. “Ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi g‘arb madaniyati tobora qizlarni o‘z domiga tortib bormoqda.

Keyingi vaqtlarda qizlar tarbiyasida uchrayotgan nuqsonlarni bartaraf etish ota-onalar zimmasiga ulkan mas‘uliyat yuklamoqda. Globallashuv avj olayotgan bugungi kunda milliy tarbiyaning strategik yo‘nalishini keng ma‘noda ma‘naviyatimizni millatimizga yot bo‘lgan turli zararli ta‘silardan himoya qilish, uni yoshlarimizni ongi, qalbi, dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish tashkil qiladi.

Milliy tarbiya oiladan boshlanadi, mahalla va ta‘lim tizimida davom ettiriladi.

Bugun turmushimiz va hayotimizning barcha sohalariga o‘zga xalqlar madaniyati kirib kelmoqda. Biz bu madaniyatlar ichidan maqbul bo‘lganlarinigina qabul qilamiz. Afsuski, ular orasida farzandlarimiz tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan illatlar nihoyatda ko‘p. Salbiy illatlarni bartaraf qilish biz ma‘naviy soha vakillariga alohida mas‘uliyat, vazifalar yuklaydi.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar kontentining katta qismini yoshlar tashkil etayotgani mazkur tarmoqlarda milliy ruhdagi yoshlar, xususan, qizlar kontentini shakllantirishni talab etadi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda o‘ziga xos madaniyat shakllantirish, qiz bola odob-axloqi har qanday axborotning negizida turishini ta‘minlash bugunning ehtiyojidir.

Instagram, Tik-tok, Telegram deb nom olgan kanallarning ommalashayotgani ularning yoshlar ongini zaxarlash imkonini oshirib boradi. Hech kimga sir emas, ushbu dasturlar yordamida har xil harakatlar, o‘yinlar, iboralar, bir so‘z bilan aytganda xit darajasiga chiqqan barcha narsa yoshlarning, jumladan qizlarning ongini bevosita egallaydi va o‘rnashadi. Xavfli tomoni xit darajasiga chiqayotgan axborotlarning asoslanmagani, qolaversa “yoshlikning beboshliklari” kabi talqin etilayotgan axloqsizliklarning chegaradan behad oshib borayotganidir.

Bundan bir asr oldin, jadidchilik g‘oyalari ilgari surilgan davrda ayolga, qiz bolaga buyum sifatida qarash aks etadi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi timsoli. Hukm o‘qilayotgan Zebining shom qorong‘isida uyga tezroq yetib olishdan ko‘ra muhim tashvishi yo‘qligi, “Qor qo‘ynidagi lola”da voyaga yetmagan, bobosi tengi cholga uzatilayotgan Sharofatning to‘yi kuni ko‘chada dugonalari bilan o‘ynab yurishi.

Fitrat, Behbudiy, Cho‘lpon, munavvarqori Abdurashidxonov, Qodiriy kabi zabardast o‘zbek o‘g‘lonlarini tuqqan, tarbiyalagan ayolning jamiyatda nafaqat millat onasi, balki, oila bekasi sifatidagi sifatleri, qadr-qimmat

qolmaganini o‘sha davr misollarida ko‘rishimiz mumkin.

Prezidentimiz tashabbusi bilan maydonga chiqqan “Ezgulik — shiorimiz, ma’rifat qurolimiz” degan bosh shior bugunning dolzarb shioriga aylanmas ekan, har bir ishni ezgu niyat bilan ma’rifatli tarzda amalga oshirmas ekanmiz, ijtimoiy tarmoqlarda o‘z husnidan boshqa ko‘z-ko‘z qiladigan sifatlari, behayo qiliqlaridan boshqa nazokati, qadri yo‘q qizlarimizning Sharofatdan, Zebidan nima farqi qoladi?!

Qiz farzand axborot asrida o‘z ustida ishlamas ekan, kompyuter asri bilan tillashmas ekan, u kelgusi avlodning shunchaki onasi bo‘lib qoladi, xolos.

Ijtimoiy tarmoqda behayoligi va buni targ‘ib etishni o‘ziga “brend” qilib olgan qizlarni kuzatarkanmiz, ular zamon talabini umuman his etmayotgani yetmagandek, o‘zlarining ortidan bir qanchasini ergashtirib ketayotgani bizni dahshatga soladi.

“Kis-kis, chiki-chiki, aaa!”, “Diqqat savol: 2 ta odamning ishqalanishi natijasida 3-chi odam paydo bo‘larkan, sizlarda shunday bo‘lganmi?” kabi videoroliklarning mamlakatimiz hududida yaratilgani videolavha qahramonlarining o‘z kontentimizdan ekanligidan dalolat beradi. Agar ularni obektiv jihatdan baholasak, ular muomala layoqatiga ega, aqlu xushini tanigan, ammo ularning hatti-harakatlari, kiyinish odobi, video ostidagi yozuv bizning milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, mentalitetimizga, or-nomus, ibo-hayo tushunchalariga mutlaqo xilof.

Biz har qanday lavhani tarbiyaning ta’sir omili sifatida baholashimiz va o‘zining tarbiyasilgi bilan o‘zgalar tarbyuiyasiga salbiy ta’sir etayotgan vositalarni chegaralashimiz lozim.

Insonning ongi va qalbi zaxarlangach, u manqurt sifatida o‘zligidan ajraladi. O‘zligidan ayrilgan inson g‘ayriixtiyoriy ravishda har qanday tuban topshiriqning ham ijrochisiga aylanib boraveradi.

Shu o‘rinda Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyovning fikriga e’tibor qaratish zarur: “Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – G‘arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba’zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy”.

“O‘z obunachilarini kuldiraman”, - deb o‘zlarini har kuyga solayotgan, boshqalarga mazax bo‘lsa-da, “layk” to‘plash uchun turli xil video va roliklar joylayotgan yosh ota-onalarni ko‘rganimizda, tarbiya borasidagi kamchiliklar

ko‘zga tashlanadi. Ijtimoiy tarmoqlar va virtual olam kirib borayotgan dunyoda oila a‘zolarini yangi qadriyatlar bilan tanishtirib, o‘zga madaniyat va turmush tarzini targ‘ib qilayotganligi, uning salbiy ta‘siri natijasida yo‘qotayotgan o‘zligimiz, asta-sekinlik ila bo‘hronlarga uchrayotgan, yoinki boshqasiga almashtirayotgan qadriyatlarimiz qarshisida, «ertaga ne deb javob beramiz?»- degan haqli savol tug‘iladi.

Achinarlisi shuki ota-onalarning shunday bema‘ni hazillarni yosh bolalar bilan birgalikdagi sahnalarda amalga oshirayotganidir. Farzand har doim birinchi navbatda o‘z ota-onasidan andoza oladi. Uning yurish-turishidan, muomalasidan o‘rnak oladi. Farzand kitob o‘qib o‘tirgan emas, balki kechayu-kunduz telefon bilan ovora bo‘lib o‘tirgan ota-onasini ko‘rib ulg‘ayadi. Qarabsizki farzand real va virtual hayotni bir-biridan ajrata olmay, hayotda o‘z o‘rnini yo‘qotib qo‘yadi.

Virtual hayotni tahdid sifatida qaraladigan tomonlaridan biri bu avlodlar orasidagi aloqalarning uzilib qolishidir. Bunday muhit kirib borgan xonadonlarda avlodlar yirtasidagi munosabatlar kun-sayin kamayib bormoqda. Bunday xonadonlarda ota-onalar va bolalar soatlab yonma-yon ytirishadi, ammo internetdan uzilib, bir-birlariga bir og‘iz gapirishga fursat topisholmaydi.

Bugungi kunda ota-ona va bolalar davra qurib ytirib, oilaviy va boshqa masalalarda shirin va ibratli suhbatlar quradigan xonadonlarni kamdan-kam uchratamiz. Endilikda, afsuski ota-ona va farzandlar yirtasidagi munosabatlar sovub bormoqda. Bunga sabab qilib ijtimoiy tarmoqqa qaramlikni aytish mumkin. Nafaqat yosh avlod balki, katta yoshlilar ham bunday qaramlikka tushib qolishgani juda achinarli.

Ma‘lumki, mul‘tfilm bolalarni harxasha qilganda tinchlantirish va ma‘lum vaqtga band qilib qo‘yish uchun ota-onalarga yordamchi bo‘ladi. Lekin rang-barang personajlardan tashkil topgan multfilmlarning hammasi har xil ta‘sir qilishi va bolaning tasavvuri noto‘g‘ri shakllanishiga, o‘zini to‘qima qahramonlardek tutishiga olib kelishi mumkin. Masalan, televideniya va ijtimoiy tarmoqda 2009-yildan beri bolalarning sevimli

“Qizaloq va maymoq” multfilmini olaylik: multfilmning bosh qahramoni Mashaning harxashalari, injiqliklari, yomon odatlari, mutaxassislarining fikricha bolaning tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin — bola bunday harakatlarni odatiy holday qabul qiladi:

Mazkur multfilmda quloqsiz Masha ayiqni surobini to‘g‘rilaydigan xatti-harakatlar bajarishiga qaramay, jazosiz qolishi, bolada bu “odatiy hol” ekan,- degan tushuncha shakllanishiga sababchi bo‘lishi mumkin. Agar bolaga ota-onasi tomonidan multfilmlar bo‘rttirilgan voqe‘lik ekani, haqiqiy hayotda

bunday harakatlar hech kim tomonidan ragʻbatlantirilmagligi tushuntirilmasa, bolaning, vaqt oʻtishi bilan aytganni qilmay, chegaradan chiqishi mumkin boʻladi. Malumotlarga koʻra «Qizaloq va maymoq» multfilmi Rossiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Indoneziya, shuningdek Sharqiy mamlakatlarda ham juda mashhur.

Yoki quyidagi xorijda ishlab chiqarilgan «Vinks» multfimini tahlil qilsak:

Mazkur multfilmdagi qahramonlarning ochiq-sochiq liboslari va tashqi koʻrinishi bola ongida yolgʻon goʻzallik standartlari shakllanishiga olib keladi. Bola va qizlar, oʻzlarini bu koʻrinishlardagi qahramonlarniki kabi emasligidan, oʻzlaridan kamchilik qidira boshlaydi. Shuningdek, qahramonlarning kamtarlik va rahm-shafqat kabi xususiyatlar ustidan kulishi va uy ishlarini parilar oʻrniga, ularning yordamchisi bajarishi ham bolaga ijobiy taʼsir qilmaydi.

“**Maxluqlarmaktabi**” multfilmqahramonlarining oʻqishga mensimasdan munosabatda boʻlishi hamda bemaʼni (jargon) soʻzlardan foydalanilishi multfilmning katta kamchiligi hisoblanadi. Shuningdek, mazkur multfilm oilaviy qadriyatlar, kattalarga hurmat va doʻstlik haqidagi tushunchalarni bolada notoʻgʻri shakllanishiga sababchi boʻladi. Yuqoridagi mulohazalarni «Monstr Xay», «**Gubka Bob**» mult-filmlari haqida ham aytish mumkin.

Yaqinda, poytaxtimizda Respublika Maʼnaviyat targʻibot markazi, «Oʻzbekkino» milliy agentligi hamda Xalq taʼlimi vazirligi hamkorligida bolalarning maʼnaviy kamolotida multfilmlarning oʻrniga bagʻishlab oʻtkazilgan anjumanda shular haqida soʻz bordi. Tadbirda tegishli vazirlik va idoralar vakillari, multfilm yaratuvchi rejissyorlar, rassomlar, bolalar yozuvchi va shoirlari, sanʼatshunoslar, pedagoglar, maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlari, bolalar nashrlari ijodkorlari ishtirok etdi. Demak, milliy multfilmlar yaratish, rivojlangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari natijasida xorijdan kirib kelayotgan multfilmlarning mafkuraviy, tarbiyaviy va maʼnaviy-maʼrifiy jihatlarini har tomonlama oʻrganish va tahlil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Hammamizga maʼlumki, yoshlarning maʼnaviy olamini bolalikdan boshlab ezgu gʻoyalar asosida shakllantirish va kamol toptirishda qoʻgʻirchoq va oʻyinchoqlarning oʻrni beqiyos. Oʻyinchoqlar obrazi bolaning murgʻak tasavvuriga bamisoli toshga oʻyilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Goʻdakning ulgʻayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yoʻldan borishi, oʻzining hayot tarzini qanday axloqiy-maʼnaviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday oʻyinchoqlar bilan oshno boʻlib oʻsgani bilan belgilanadi. Bolalar oʻyinchoqlari – bu xalq hayotini aks ettiruvchi, uning maʼnaviy qadriyatlari va madaniy tajribasini

asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga yetkazib beruvchi asosiy badiiy vositalardan biridir. Bugun mamlakatimizda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, ularning ma'nan va jismonan sog'lom, barkamol bo'lib ulg'ayishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ular sirasiga bolalar o'yinchoqlariga bo'lgan e'tibor ham kiradi. Sababi, bolalar o'yinchoqlari xalq hayotini aks ettiruvchi, uning ma'naviy qadriyatlarini va madaniy tajribasini asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga yetkazib beruvchi badiiy vositalardan biridir. Olamga o'z nigohlari bilan boqayotgan, endigina dunyoni o'rganayotgan go'dak nigohi xorij qo'g'irchoqlariga tushganda, uning ochiq-sochiq kiyimdagi qomatini jajji qo'llari bilan ushlaganda ong ostida begona g'oya, yot unsurlar paydo bo'la boshlaydi:

Bu esa o'z-o'zidan bola ruhiyatiga ta'sir qilib, o'zi bilmagan holda g'arbona uslubda ishlangan qo'g'irchoqlarga taqlidan kiyinishga, yurish-turish, pardozi-andozga ko'nika boshlaydi. Xorijiy o'yinchoqlar og'ushida ulg'aygan bola milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularidan uzoq, aksincha, g'arbona dunyoqarash va tarbiyaga moyil tarzda voyaga yetadi. Ravshanki, bunday tarbiya ertamiz egalarining kelajagiga soya soladi. Bolalarning ilk taassurotidagi narsa bir umr yodidan chiqmaydi. Ilmiy xulosalarga ko'ra, inson butun umri davomida oladigan barcha ma'lumotning 70 foizini besh yoshgacha qabul qilar ekan. Ilk hayotiy tasavvurlar, inson tafakkurida poydevor bo'luvchi tushunchalar bolalar ongiga aynan shu paytda singadi. Demak, besh yoshgacha bo'lgan bolalarning turli o'yinchoqlardan olgan taassurotlari ham uzoq muddat ularning ongida saqlanib qoladi. Xorijda ishlab chiqarilgan, bizning mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan qo'g'irchoq va o'yinchoqlar bola ongi tafakkuriga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Ayniqsa, Barbi qo'g'irchoqlari haqida alohida to'xtalib o'tish joiz. Multfilmlarning namoyish etilishida televideniyaning ayblasa bo'lar, biroq barbi qo'g'irchoqlarini ota-onalarning o'zlari farzandlariga sotib olib berishmoqda. AQShda 1959-yilda ixtiro qilingan, bir qarashda beozor ko'rinadigan bu o'yinchoqdan yopirilayotgan xatarni ota-onalar bilishmaydi. Barbining tarixi haqida to'xtaladigan bo'lsak, uning muallifi amerikalik Rut Xandler sanaladi. Qo'g'irchoqlarni tadqiq qilgan professor M.Lord shunday yozadi: "Barbining ilk o'tmishdoshi qo'g'irchoq Lillidir. Lilli birinchi marta 1952-yilning 24 iyulida paydo bo'lgan va juda tez ommalashib ketgan. Unga prototip bo'lgan yengiltak ayol – Lilli ikki narsani – ko'ngilxushlik va pulni xush ko'rar, puldor jazmanlarini tez-tez almashtirib turardi". Hattoki g'arblik ruhshunoslar ham Barbi qo'g'irchoq'i qizaloqlarda shaxs va jamiyatga zarar yetkazadigan xulq-atvorni shakllantirishi mumkinligidan jiddiy xavotirdalar. Qizchalarning ruhiyati o'zgara boshlaydi, ularda bolalarga xos bo'lmagan istig'no, sovuqlik va erta ulg'ayish belgilari namoyon bo'ladi. Barbisini

yasantirar ekan, murg‘ak qizaloq o‘z hayotiy maslagini tuza boshlaydi – u ham kimningdir qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lishni xayol qiladi.

Avvallari qizchalar qo‘g‘irchog‘i bilan “qiz-ona” o‘yinini o‘ynardi. Qo‘g‘irchoq go‘dak ko‘rinishida bo‘lgani uchun murg‘ak qizaloqqa yaqin va tushunarli edi. Va u qizginani eng asosiy vazifaga – ona bo‘lishga tayyorlardir. Endi esa bu o‘yin butunlay o‘zgacha tus olayapti. Barbi qo‘g‘irchog‘i qizchalarni ona rolini o‘rgatmaydi. Bu yerda ota-ona bilishi shart bo‘lgan eng muhim jihat shuki, Barbiga enagalik qilish kerak emas, uni yasantirish kerak. Bolaligidanoq qizchalarga qandaydir o‘rtamiyona go‘zallik ideali singdirilishi oqibatida ular sal ulg‘aygach, o‘zlari o‘ynagan “sohibjamol”ga o‘xshashga intiladilar. O‘ta ozg‘in, ramaqijon, hurpaygan sochli Barbi qo‘g‘irchog‘i go‘yo zamonaviy manekenchi ayollarning qiyofasini masxara qilayotganday...

Hozirda, yurtimiz savdo peshtaxtalarida, afsuski, homilador qo‘g‘irchoqlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi qo‘g‘irchoqlar bola psixologiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatibgina qolmay, bola tarbiyasini ham izdan chiqaradi. Bolalarda erta jinsiy hayot va erta nikoh g‘oyalarini targ‘ib qiladi:

Aslida farzandga qanday o‘yinchoq yoki qo‘g‘irchoq sovg‘a qilish kerak? Uni tanlashda nimalarga e‘tibor qaratish lozim? Farzandingizga xalqimiz mentaliteti aks etgan, uning ma‘naviy olamiga mos o‘yinchoq hamda qo‘g‘irchoqlarni sovg‘a qiling. Shunda uning ma‘naviy dunyosi, umuman, kelajagi haqida o‘ylagan bo‘lasiz...

Albatta, bugungi kunda mamlakatimizda chet el o‘yinchoqlaridan qolishmaydigan darajada milliy o‘yinchoq va qo‘g‘irchoqlar ishlab chiqarilmoqda. Soha mutaxassislari, ota-onalar o‘yinchoq ishlab chiqarishda ko‘proq milliy-ma‘naviy merosimizga, xalq og‘zaki ijodiga murojaat etishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero, qizlarimiz mini yubka kiygan “Barbi” bilan emas, uzun atlas ko‘ylakli Barchinoylar bilan do‘stlashsa, o‘g‘il bolalar xorijiy avtomarkalarni emas, o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan avtomashina o‘yinchoqlarini o‘ynasa, haqiqiy millat qahramonlarini bilsa farzandlarimizda vatanparvarlik tuyg‘ulari yanada teranroq shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosaqilib aytganda, qizlarimiz va yosh bolarimiz orasida behayo suratlar va video roliklarni ixtiyoriy tashabbus bilan tasvirga tushirish hamda internet tarmoqlarda tarqatish ommaviylashmoqda, g‘arbning “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi multfilmlari va qo‘g‘irchoqlari kirib kelishi orqali bolalar ongi zaxarlamoda. Ularning bu harakatlari esa yengil moddiy manfaatdorlikka erishish yo‘lida g‘arb behayoligiga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish orqali, o‘z shaxsiy dunyo qarashini buzilishiga olib kelmoqda. Ikkinchi tarafdin esa, minglab-yillar davomida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan ma‘naviy-

axloqiy qadriyatlarimizga misli ko‘rilmagan zarar yetkazilmoqda. Axloqiy qadriyatlarimiz bo‘lgan uyat, hayo, ibo kabi tushunchalar yemirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, millat kelajagiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid solmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi O‘zbekiston strategiyasi, Shavkat Mirziyoyev, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021y.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi, Xalq so‘zi. 2017-yil 5 avgust.
3. <https://youtu.be/1Q0vHykrvTg> <https://youtu.be/Y-GL317-sgw>

SHARQ ALLOMALARINING AXBOROT TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARI TRANSFORMASIYALASHUVI

Akbar O‘tamurodov

*O‘zbekiston Milliy universiteti
“Huquqiy fanlar” kafedrasida professori*

Annotatsiya: Maqolada Bugungi kunda yoshlarning ma‘naviy tafakkurining sog‘lomlik darajasi, jismoniy hamda ruhiy yetukligi, har bir ishga ogoh va fidoyi bo‘lishi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega ekanligi va axborot psixologik ma‘naviyati hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirish zamon talabi ekanligi to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: axborot, xabar, xavfsizlik, tahdid, psixologik xavfsizlik, zararli axborot, ruhiyat, qadriyat, tanqidiy fikrlash.

Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlarning taraqqiyot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, ularning aksariyati milliy tarixiy o‘zlik hamda milliy qadriyatlaridan voz kechmagan holda amalga oshirganligining guvohi bo‘lamiz. Masalan, Xitoy davlati – milliy qadriyatlar va tarixiy xotiradan voz kechmasligi va davlatning barcha islohotlarida xitoy xalqining madaniyatini saqlab qolish g‘oyasini birinchi o‘rinda turishi, Yaponiya davlatida esa “yapon ruhi” g‘oyasining har bir yapon qalbiga asrlar davomida singdirib yuborilganligi yoki qardosh xalqlarimizdan Turkiyaning rahnamosi bo‘lgan “Ota turk” ilgari surgan g‘oyalarning har bir turk oilasining qalbidan joy olganligi millatning tarixi va kelajagi milliy qadriyatlar va tarixiy o‘zliksiz amalga oshirib bo‘lmasligi haqida so‘zlaydi.

Mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy va milliy qadriyatlarni tiklash va bugungi zamon talablariga ham ohang holda yetishib

kelayotgan kelajak avlodni tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu islohotlarni amalga oshirish jamiyat va davlat oldida turgan ustivor vazifalardan biri hisoblanadi. Buni amalga oshirish esa uzliksiz ta'lim tizimini milliy qadriyatlar bilan transformatsiya qilish orqali amalga oshirish lozim.

Globalashuv sharoitida esa har bir taraqqiy etayotgan katta yo kichikligi, tarixiy mavjudligi, madaniy merosi va ma'naviy o'zligidan qat'iy nazar yer yuzidagi barcha millatlar uchun birdek xavotir tuyg'usini uyg'otmoqda. Yer yuzida kim axborotga egalik qilsa o'sha hukmronlik ham uning qo'lida bo'ladigan davrlar yetib keldi. Bu borada yurtimizda ham yetarlicha muammolar kuzatilmoqda. Yoshlarimiz o'rtasida har qanday axborotni hech qanday tahlil va uning manbalarisiz to'g'ridan to'g'ri is'temol qiluvchi yoshlar guruhi asta sekinlik bilan shakllanib kelmoqda [1]. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa mamlakatimizdagi fuqarolar va yoshlarning axborot va axborot madaniyatini shakllantirish va ularda "axborot psixologik xavfsizligini ta'minlash" muammosi yuzaga kelmoqda.

Ayni paytda yurtimizda yoshlarni axborot psixologik xavfsizligini ta'minlash, zararli axborotlar tahdidini bartaraf etish muammosining me'yoriy huquqiy asoslari 2002-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinliklari prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, 2003-yil 11-noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, 2016-yil 16-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevralda PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 11 avgustda "Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5148-son, 2018-yil 19-fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son, 2019-yil 2 fevralda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4151-son shuning bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 707 sonli "Butunjahon internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida o'z aksini topgan. Milliy qonunchiligimizda yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalash mexanizmlari mavjud. Misol uchun, "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlar orasida odob-ahloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ'ib qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda esa behayolik, shafqatsizlik va zo'ravonlik haqida hikoya qiluvchi,

inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishlariga sabab bo'luvchi adabiyotlarni tarqatish, filmlarni namoyish etishning taqiqlanishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan. Dunyoning geosiyosiy manzarasi va davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ziddiylashuvi esa bu amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bilan cheklanish kerak emasligini ko'rsatadi. Bu jarayonlarda yoshlarning boy tarixiy ma'naviy va madaniy merosimizni ularga yangicha usul va vositalar orqali o'rgatish yo'li bilan tadbiriq etish samarali natijalar beradi.

Yoshlarning ma'naviy tafakkurining sog'lomlik darajasi, jismoniy hamda ruhiy yetukligi, har bir ishga ogoh va fidoyi bo'lishi jamiyat taraqqiyotida muhim omil hisoblanishi va bu haqida Alisher Navoiyning **"Lison ut-tayr"** kitobida inson ma'naviy dunyosining boy bo'lishi dunyo bilimlariga egalik qilishi va odillik fazilatlariga ega bo'lish to'g'risidagi falsafiy qarashlari. Abu Rayhon Beruniy asarlarida keltirilgan **"Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg'onlik tusini oladi"** ya'ni axborotning rost yoki yolg'on bo'lishi uni yetkazib beruvchining maqsad va muddaolaridan kelib chiqib belgilanishi to'g'risidagi fikrlari, Abu Ali ibn Sino **"Tib qonunlari"** asarida insonda avvalo ruhning sog'lom bo'lishi jismning keyingi faoliyatini belgilab berishi haqidagi fikrlari, Abu Nasr Forobiyning **"Fozil odamlar shahri"** asaridagi davlat va jamiyat boshqaruvi, fuqaro majburiyati, hukmdor fazilatlarini, ular o'rtasidagi munosabatlar, vazifalarning aniq va ravshan berilishi hamda Muhammad G'azzoliyning **"Thyo ulum ad-din"**ning **Tavba** kitobida "Ruh – ko'zga ko'rinmas, takomillashuvchi modda va u miyada turg'un bo'lishi, Qalb – sezgi va his-tuyg'ular makoni ekanligi to'g'risidagi ijtimoiy falsafiy qarashlari orqali insonga har qanday tashqi yoki ichki ta'sirlar avvalo uning ongi tafakkuri, qalbi, ruhiyati, yashash sharoiti hamda milliy qadriyatlaridan kelib chiqib ta'sir qilish mumkin degan xulosaga kelamiz [2].

Shuni aytish lozimki, kishilik jamiyati paydo bo'lgandan beri inson xabar ya'ni axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko'rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi mavqei yanada oshishiga olib keldi. Hozirgi yashayotgan asrimiz "Axborot asri" - deb nom olganligi esa uning bugungi kunda qanday darajani egallab turganligini ko'rsatib turibdi. Haqiqatdan ham, ayni paytda mutaxassislar har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan birga mudofaa qudrati ham axborot tizimi va texnologiyalariga bog'liqligini ta'kidlashmoqda. Shu o'rinda, jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kommunikatsiyalar, elektron ko'rinishdagi ma'lumotlar ba'zasi, raqamlashtirilgan axborot tizimi, nano texnologiyalar sohasidagi aql bovar yutuqlar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar

bilan bir qatorda, ijtimoiy turmush tarzimizda ayrim xato va kamchiliklarga duch kelmoqdamiz.

Yoshlar xulq-atvoriga bugun buzg'unchilik maqsadida ta'sir etishni ko'zda tutuvchi yangi "axborot quroli" ning ta'siri kuchayishiga olib kelayotganini aytib o'tish joiz. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizning kiber xavfsizlik tizimini kuchaytirish, axborot resurslari va telekommunikasiya tarmoqlarini noqonuniy maqsadlarda ishlatishga qarshi himoya choralarini ko'rish va ularning benuqson faoliyatini ta'minlash chora-tadbirlarini ta'minlashni taqozo etmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonida zararli axborotlar tahdidining talabalarning xulq-atvori va ruhiyatiga ta'siri, zararli axborotlar tahdidi muammosi nazariy asoslanib, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish pedagogik asoslarini ishlab chiqish, voqelikka o'zining holis munosabatini bildirish, "men" konsepsiyasi ishlab chiqaruvchilari tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni to'liq tushinib yetishi hamda unga munosib javob bera olishi, har qanday sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga tanqidiy fikrlashni shakllanganligi. Kirib kelayotgan yot g'oya va axborotlardan himoyalani uchun munosib refleks vazifasini bajarishi orqali turli axborot tahdidlaridan himoya mexanizmi sifatida ishga tushadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 20 ga yaqin davlatlarda yadro quroli ishlab chiqarish bo'yicha ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa 120 dan ortiq davlatlarda axborot xurujlarini uyushtirish ustida ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bugungi axborot xurujlari markazida yoshlarning ma'naviy ongini egallash asosiy maqsad hisoblanadi. G'arazli maqsadlarni amalga oshirayotgan kuchlar tomondan bu yo'lda turli usul vositalarni qo'llaniladi. Axborot xurujlarini yuzaga keltirish quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi.

- ✓ Yolg'on axborot tarqatish,
- ✓ Ijtimoiy ongi manipulatsiya qilish,
- ✓ Milliy ma'naviy qadriyatlarni yo'q qilish,
- ✓ Millat mentaliteti uchun mutlaqo yot bo'lgan begona qadriyatlarni targ'ib qilish va singdirish,
- ✓ Milliy va tarixiy xotirani o'zgartirish va buzib ko'rsatish,
- ✓ E'tiqod va milliy qadriyat sifatida shakllangan urf-odat an'ana va qadriyatlarning o'zgartirish va norozilikni atayin keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlarni o'z o'chiga oladi.

Eng achinarlisi shundan iboratki, hozirda yoshlar axborot manbai sifatida boy ma'naviy meros manbaiga emas, balki "internet manbasi"ga yuzlanishi tarixiy haqiqatning o'zgarishi va milliy ma'naviy merosning asta sekinlik yo'qlikka yuz tutishiga olib kelish xavfi butun dunyodagi millat vakillarini

birdek tashvishga solmoqda. To‘g‘ri, bu tarmoqning qulay axborot manbai sifatida foydalanish va siz istagan narsangizni bir lahzada topa olishi, olishingiz mumkinligi, soniyalar ichida dunyoning narigi chekkasi bilan bog‘lanish imkoniyatlari mavjudligi muhim. Ammo, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bu cheksiz imkoniyatlaridan yot va g‘arazli maqsadlarda foydalanuvchilar ham kundan kunga oshib bormoqda. ***Muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida aytganlaridek*** “Globalashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob’ektiv tan olish kerak - bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma’noda, globalashuv – bu, avvalo, hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”[3]. Darhaqiqat, XXI – asr turli mamlakatlar iqtisodiyoti, ichki va tashqi siyosati, madaniyati, ma’naviyati, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tobora murakkablashib ta’sir doirasi kengayib borayotgan bu globalashuv jarayonida axborot texnologiyalar sharofati bilan dunyoda ro‘y berayotgan voqea hodisalarning kuzatuvchisi va ishtirokchisi sifatida ishtirokchisiga aylanib qolishimiz mumkin.

Lekin, masalaning yana bir nozik tomoni borki, texnik imkoniyatlarning va telekommunikatsiya tizimiga kirishning kengayishi, elektron axborot vositalarining rivojlanishi, ularning Internet bilan mos kelishi va onlayn rejimida muloqot qilish yo‘llarining ko‘pligi voyaga yetmaganlar o‘rtasida axborot xurujlarini ortishi va milliy qadriyatlarning yo‘q qilishga bo‘lgan urinishlar uchun qo‘l keladi. Bunda g‘oyaviy ta’sir yo‘naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o‘rganilgan holda, asosiy e’tibor kishilar ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o‘zgartirishga, ularning “regulyator”lik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo‘qqa chiqarish vazifasi ilgari suriladi.

Internet orqali kirib kelayotgan xavflarning yoshlardan ham ko‘ra bolalar ongiga ko‘proq ta’sir qiluvchi usuli — bu kompyuter o‘yinlaridir. Bugungi kunda kompyuter o‘yinlarining eng ommalashgan janrlari, masalan, «Call of duty», «Mortal Combat», «Sylend Hill», «CLASH OF CLAN» kabi o‘yinlar yoshlarning ongini zaharlashga ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, «CLASH OF CLAN» nomli o‘yinning qaysidir bosqichlaridan birida musulmonlar e’tiqod qiluvchi joy “Ka’ba”ga o‘xshatib qurilgan binoni vayron qilish vazifasi yuklatilgan. O‘yin ishtirokchisi, uni oddiy

o‘yin topshirig‘i deb qabul qilib shartni bajaradi ammo, bu bilan o‘yin ichida e‘tiqod va ruhiyatga bo‘lgan g‘oyaviy xurujlarning sug‘orilganligi to‘g‘risida o‘ylab ham o‘tirmaydi. Yoshlar ongini zaharlashga, ularning ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishga qaratilgan ma‘naviy xurujlarning kirib kelish yo‘llarning bu oddiy bitta usuli siz va biz bilgan va bilmagan yana qanchadan qancha yo‘llari mavjud. Shuningdek o‘smirlar va bolalar uchun shunday mazmundagi o‘yinlar borki, unda «sen o‘ldirmasang, seni o‘ldiradilar» aqidasi ilgari surilgan. Shuning uchun, zamonaviy media-makonida voyaga yetmagan foydalanuvchilarning soni oshib borayotganligi, o‘z navbatida, ularning jismoniy va ma‘naviy-ahloqiy jihatdan himoya qilish muammosining dolzarbligini ham oshirmoqda. Bir tomondan, har bir bolaning imkoniyatlari maksimal tarzda amalga oshirilishi va hayotiy salohiyatni shakllantirish, ta‘lim, tarbiya va faoliyatning ijtimoiy pozitiv turlarida o‘zini ko‘rsata olishi uchun sharoit nafaqat maktabda balki oilada bola qadam tashlab borgan bog‘chadagi tarbiya jarayonlarini milliy qadriyat va an‘analar bilan boyitib borish zarur. Biz qadriyat deganda faqat urf-odatlarini tushunmasdan balki, insoniy fazilatlar, yaxshilik, shirinso‘z, vatan, oila, nikoh va farzand kabi tushunchalarni qadriyat darajasiga ko‘tarishimiz va uni yo‘qolib ketmasli va jamiyat taraqqiyoti aynan shu tushunchalarsiz mavjudlikka, taraqqiyot cho‘qqisiga erishib bo‘lmasligini kelajak avlodlarga tushuntirish yo‘llarini zamon bilan hamnafas holda singdirishning yangi metod va usullariga murojaat qilish zarurligi hamda yangicha texnologiyalarni ishlab chiqish orqali insoniy qadriyatlarni saqlab qolishning chora-tadbirlarini ko‘rish orqali biz ilgari surayotgan ma‘rifatli jamiyatning poydevorini qo‘ya olamiz. Zero, milliy qadriyat va tarixiy o‘zligimizni bilmay turib ertangi kunni barpo etib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. – T: O‘zbekiston» nashriyoti, 2022. – B. 440.
2. Muhammad G‘azzoliyning “Ihyo ulum ad-din”ning Tavba kitobi.
3. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma‘naviyat.2008

YOSHLARNING INNOVATSION TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Xudoynazar Qo‘chqorov

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori

PhD Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar

instituti bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarning innovatsion tafakkurini shakllantirish mexanizmlari va uning istiqbollari haqida fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bugungi zamon talabi intellektual salohiyatli, kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratish borasidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, innovatsiya, tafakkur, tarbiya, boshqaruv, salohiyat, mexanizm, yetakchi, globallashuv, intellektual.

Bugungi kunda globallashuvning shiddatli tus olishi mamlakatimizning taraqqiy etishi eng avvalo, yoshlarda innovatsion tafakkurini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bugungi zamon talabi intellektual salohiyatli, kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash borasida teran fikrlashni taqoza etmoqda. Bu haqda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “...biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz”[1], -deya ta‘kidlagani bejiz emas, albatta. Zero, bugungi tezkor rivojlanayotgan globallashuv sharoiti yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirishda yanada jadal va shijoat bilan ishlash vazifasini qo‘ymoqda. Dunyo tajribasidan ma‘lumki, tarbiya va ta‘limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi. Bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma‘naviyatli, intellektual salohiyati yuqori, innovatsion tafakkurga ega, bilimdon, zukko, dunyoqarashi keng bo‘lgan zamonaviy kasb-xunarni egallagan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak” Binobarin, hozirgi zamon talabi dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob berish strategik vazifaga aylanib bormoqda. Zero, dunyo tamaddunidan ma‘lumki, taraqqiyotning poydevori ham, mamlakatni qudrati, millatni buyuk qiladigan kuch bu albatta, ilm-fan, ta‘lim va tarbiyaga qaratiladigan e‘tibor bilan belgilanadi. Shu bilan birga har qanday mamlakatni ertangi kuni kelajakdagi yorug‘ istiqboli, eng avallo, yoshlarni ta‘lim -

tarbiyasiga qaratilayotgan istiqboli bilan bevosita bog‘liq. - Tahlil va natijalar (Analysis and results) Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash, mamlakatimizning strategik vazifalaridan biri sifatida e‘tibor qaratilayotgani bejiz emas, alabatta. Bu borada har tomonlama teran fikrlaydigan, aqlli, dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisa va jarayonlarga nisbatan mustaqil fikr yuritib, to‘g‘ri pozitsiya tanlay oladigan yoshlar - millatimiz buyukligi, yurtimiz mustaqilligi, tinchligi va osoyishtaligini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, yoshlarimizni ona yurtga sadoqat, vatanga fidoyi etib tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish bugungi kunning dolzabr vazifalari qatoriga kiradi. Shu o‘rinda, sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida yoshlarga ta‘lim-tarbiya berish, ularni ma‘rifat va madaniyatga yetaklashga alohida e‘tibor qaratishgan. Buyuk allomalarimiz o‘z asarlarida mudarrislar kasbining nozikligini, mas‘uliyatligini, murakkabligini, shu bilan birga sharafligi ekanligini ta‘kidlab o‘tishgan. Uyg‘onish davrining buyuk allomalari Abu Nasr Forobiy, Shayx Sa‘diy Sheroziy, Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Davoniy kabi ilm-fan arboblarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda bo‘lajak murabbiylarga muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Ular avlodlardan avlodlarga o‘tib, o‘z qimmatini yo‘qotmagan mudarrislarini, tarbiyachilarni tayyorlash tajribalarini umumlashtirib, boyitib borishgan [3]. Zero, bugungi globalashuv sharoitida yoshlar tarbiyasiga e‘tibor qaratish, ularni sog‘lom, barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun dunyoviy bilimlarni puxta egallashi yurt ravnaqi uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga innovatsiyalarni qo‘llash ijtimoiy hayotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida yangilik kiritish, yangi fikr, mulohazalar doimo ilm-fan diqqat markazida turadi. Innovatsiya bu davr talabi va taqozosidir. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta‘biri bilan aytganda: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” deya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida [4] alohida to‘xtalib o‘tilgan. Binobarin, Prezidentimiz fikriga ko‘ra, jamiyatning barcha sohalarida tub isloxotlarini amalga oshirish bilan jamiyatimizda insonlarning fikrlashini innovatsion tarzga o‘tkazish va ularni ham shunday fikrlashga o‘rgatishimiz kerakligini

bugungi davr va zamon taqoza etmoqda. Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga innovatsiyalarni qo‘llash va tatbiq etish tobora kuchayib bormoqda. Xususan, yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirish orqali o‘z ishiga vijdonan yondashuv, o‘ziga bo‘lgan ishonchni his etish, o‘zining ilg‘or g‘oyalari ortidan ergashtira olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun O‘zbekistonda zamonaviy, innovatsion g‘oyalar, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, davlatni izchil va barqaror rivojlantirishda hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Bunday yangicha qarash albatta ta‘limga bo‘lgan an‘anaviy munosabatni tubdan o‘zgartirishga zamin yaratdi. Binobarin, bugungi taraqqiyot zamiriga teran nigox bilan nazar tashlar ekanmiz, dunyoning eng rivojlangan davlatlarining bugungi taraqqiyoti albatta, ta‘lim, ilmga asoslangan modernizatsiyaga tayanib hozirgi zamon darajasiga erishgan. Hozirgi globallashgan dunyoning rivojlangan mamlakatlarida texnik-texnologiya, fan va iqtisodiyot, siyosiy-ma‘naviy va ijtimoiy faoliyat sohalarining yuksalishiga kuchli ta‘sir etgan innovatsion tushunchasini kengroq tadqiq etishga e‘tiborni jalb etdi. Shu o‘rinda, ilmiy adabiyotlar va olimlarning iliy tadqiqotlarida innovatsiyaga shunday tarif berilgan: “Innovatsiya - deb yangi turdagi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasi” [5] tushuniladi. Ilm-fan olamiga innovatsiya tushunchasi fanga XX asrning birinchi choragida iqtisodiyot sohasi va fanining terminologik tushunchasi sifatida kirib kelgan. Innovatsiya tushunchasining ingliz tilidan tarjimasi “innovation” – kiritilgan yangilik, ixtiro ya‘ni, iqtisodiyotda ilm-fanda yoki boshqa soxalarda qo‘llanilib kelinayotgan usul va uslublarni, texnikalardan mutloqo farq qiluvchi usul va uslublarni kiritish, ularni amalda qo‘llashni anglatadi. Zero, bugungi zamon talabi shuni taqoza etmoqdaki, qaysi davlatning intellektual salohiyati va potensial kuchli bo‘lsa, o‘sha davlat rivojlangan, taraqqiy etgan, xalqining farovon va baxtli hayot kechirishiga zamin yarata olgan hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga bergan javoblarida alohida to‘xtalgani bejiz emas, albatta. Davlatimiz rahbari qayd etganidek: “Yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko‘lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarini, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o‘rin tutadi. Ma‘lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod

vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at va sport sohasidagi iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz... Buyuk allomalarimiz ana shunday hikmatlarga amal qilib, ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlarni amalga oshirganlari va umumbashariy tafakkur rivojiga beqiyos hissa qo'shganlari tarixdan yaxshi ma'lum. Ana shunday qutlug' an'analarni davom ettirib, yurtimizda yangi xorazmiylar, farg'oniylar, beruniylar, ibn sinolar, mirzo ulug'beklar, navoiylarni tarbiyalab yetkazish – nafaqat vazifamiz, balki tarix va kelajak oldidagi muqaddas burchimizdir” [6], deya ta'kidlab o'tgan edi. Shu o'rinda davlatimiz rahbari o'z fikrida davom ettirar ekan: “Biz bu yo'lda katta ishlarni boshladik. Mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatdosh kadrlar tayyorlash maqsadida oliygohlar soni 141 taga yetkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining filiallari ochildi. Holbuki, 2016-yilda respublikamizdagi oliygohlarning soni 77 ta edi. Qisqa muddatda bu borada qariyb ikki barobar o'sishga erishganimiz, hech shubhasiz, yoshlarimiz, butun jamiyatimizning intellektual salohiyatini oshirish, zamonaviy bilim, kasb-hunarlariga yanada yaqinlashtirish yo'lidagi harakatlarimiz natijasidir. Keyingi besh-yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy-yilda 182 ming nafar yoshlar uchun talaba bo'lish imkoniyati yaratildi. Bu – umumiy qamrov 28 foizga yetdi, deganidir. O'zingiz qiyoslab ko'ring, 4-yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi. Bu borada davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtaga ko'paytirilgani, o'tgan-yilgi tajribamizni yangi bosqichga ko'tarib, ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga bu-yil oliygohlarga kirish uchun alohida grantlar ajratilgani yoshlarimiz kelajagini ta'minlashga qaratilgan amaliy e'tiborimiz namunasi” [7], -deya alohida ta'kidlab o'tgani bugungi kunda mamlakatimiz yoshlariga qaratilayotgan e'tiborni yuksak e'tirofda ekanligini anglatadi. Zero, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev raisligida 2019-yil 23 avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so'z borgan edi. Mazkur yig'ilishda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to'xtalar ekan: “Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi” [8], - deya alohida ta'kidlab o'tgani bejiz emas. Zero, bugun yoshlarimiz o'z

milliy tarixini o‘rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf- odat va an‘analarining qayta tiklanib borayotgani ularni o‘zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani bizning asosiy muhim yutug‘imizdir. Bugun yoshlar nafaqat milliy-ma‘naviy qadriyatlarini o‘rganish balki, uni dunyo xalqlari erishgan yutuqlari bilan birgalikda bahramand bo‘layotgani albatta bizni behad xursand etadi. Xorijiy davlatlarda o‘qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg‘or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘layotgani albatta quvonchlidir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18 yanvardagi 23-son “Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori konseptual asos vazifasini o‘taydi. - Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasidan ma‘lumki, jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo inson tafakkuri, uni o‘zgartirish masalasiga asosiy e‘tiborni qaratish mamlakatimiz va xalqimizning taqdiri va kelajagi – aynan yosh avlodning qanday ta‘lim va tarbiya olishi, ular uchun qanday shart-sharoit yaratish, bugungi kunda islohotlarimiz talabi, hozirgi kunda yangicha va mustaqil va innovatsion fikrlaydigan, mas‘uliyatli, tashabbuskor, vatanparvar yoshlarimiz jahon maydonlarida millatimiz va xalqimiz ornomusi uchun kamarbasta bo‘lish lozimligini teran angalash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O‘zbekiston. 2018. B-15.
2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat‘iy davom ettiramiz. Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi-asosida-demokratik-islohotlar-yolini-qat'iy-davom-ettiramiz_318163
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.T.: “IQTISODMOLIYA” nashriyoti, 2010. B.27-28.
4. <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>:
5. Научно-технический прогресс / Словарь. Сост. Горохов В.Г., Халипов В.Ф. – М., 1987: с.80
6. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>
7. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar

mamlakatiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>

8. Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur <https://uza.uz/oz/politics/maktab-talimini-rivozhlantirish-umumkhal-arakatiga-aylanishi-23-08-2019>

MEDIAMAKON: YOSHLAR MA’NAVIY – AXLOQIY QARASHLARIDAGI SALBIY O‘ZGARISHLAR

Hojiyev Farhod Jumaboevich,
*O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi,
O‘zMTRK “O‘zbekiston 24” telekanali
bosh muharriri,*
Sultonov Fozil Hojiyevich,
Jamoat arbobi, Turon FA akademigi

Annotatsiya: Televidenie va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan axborotlar, ularning yoshlar ongi va tafakkuriga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil etilgan. Jumladan, xorij seriallariga singdirilgan mafkuralar, uning milliy ma’naviyatimizga yetkazayotgan zarari yoshlar tarbiyasi misolida asoslab berilgan. Shuningdek, tegishli takliflar ilgari surilgan. Bundan tashqari, internet tarmoqlar orqali kirib kelayotgan turli xil xorij o‘yinlarida yashiringan g‘arazli maqsadlar, uning yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayotgan xatarli ta’siri va undan himoyalaniish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: internet, axborot makoni, ommaviy madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar, serial, suitsid, yoshlar, milliy manfaat, tafakkur.

Ma’lumki, dunyoda kechayotgan voqea va hodisalar, jarayonlar haqidagi so‘nggi axborotlarni tezkor tarqatishda internet tarmoqlari peshqadam. Ommaviy axborot vositalarida(OAV) e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, Facebook ijtimoiy tarmog‘i, jahonda eng ko‘p abonentlar va foydalanuvchilarga ega. Twitter, Instagram, YouTube, Telegram dasturlari ham aholi orasida ommalashmoqda. Ta’kidlash lozim, ushbu ijtimoiy tarmoqlardan turli g‘oyaviy kuchlar mafkurasini targ‘ib qilib, o‘z manfaati yo‘lida vosita sifatida foydalanishga intilayapti.

Mamlakatimizda yoshlarimiz qo‘lidagi planshetlarning deyarli barchasi internetga ulangan. Ular ijtimoiy tarmoqlardagi muayyan g‘arazli kuchlar

ishlab chiqqan, aniq maqsadli turli axborotlar iste'molchisiga aylanmoqda. Bunday tahdidlar paydo bo'layotgan sharoitda axborot xavfsizligi masalalari, axborot makonida ong va tafakkur uchun kurash dolzarb ahamiyat kasb etayotgan qaltis sharoitda yosh avlodni asrash, ularda milliy immunitetni shakllantirish juda ham zarur. Bunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan OAVlari milliy mediamakonda xalqimiz milliy manfaatlarini himoya qilish uchun maydonga chiqishi kerak. Afsuski, bu vazifani bajarishda sustkashlikka yo'l qo'yilayapti. Ayrim xususiy OAVlari tijorat maqsadida milliy ma'naviyatimizga xos bo'lmagan, aholi tafakkurini zaharlaydigan axborotlarni tarqatayotganligi kishida tashvish uyg'otadi. Masalaning yana bir jiddiy jihati bor.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning quyidagi fikrlariga e'tiboringizni qaratamiz: "Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar "ommaviy madaniyat" tahdidi faqat chetdan – G'arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o'zimizdan, o'z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo'q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba'zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo'shiq va raqslarni kuzatib, sog'lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy"[1].

Televidenie orqali ko'rsatilayotgan xorij seriallarning ko'pchiligi milliy ma'naviyatimizdan yiroq, qaysidir millat, xalqning madaniyatini targ'ib etmoqda. Milliy seriallarimiz esa yengil-elpi, maishiy masalalar atrofidagina o'ralashib qolganligini guvohi bo'layapmiz[2]. Xorij seriallaridagi mafkuraviy g'oyalar ustamonlik bilan yoshlar ongiga singdirilayotganligi sari ma'naviy himoya tizimimiz borgan sari sustlashayapti. Seriallardagi qahramonlarga o'xshab soch, soqol qo'ygan, hatto so'zlashuvlarda ham ularga taqlid qilayotgan yoshlarimiz soni ko'payib borayapti.

Ayrim xotin-qizlarimizda kalta yupka, ochiq kiyinish, oldi ochiq kalta kiyimni tanaga yopishibtirib kiyib yurish, o'ta kalta soch turmaklari va turli xil ranglarga bo'yash, behayo serial qahramonlariga o'xshash harakat qilishni kuzatish mumkin. Bundan tashqari seriallardagi "ommaviy madaniyat" illati - farzandlarning xohlagan, ko'ngli tusagan ishlarni qilib yashash, ortiqcha hashamdor hayot, molparastlikka havasni uyg'otuvchi targ'ibotni ko'rayapmiz.

Oilaviy munosabatlarga ham buning salbiy ta'siri sezilmoqda. Barcha oilaviy ishlarni tashlab televizor ekraniga mixlanib o'tiradigan uy bekalarimiz xorij seriallari orqali eriga sovuqqon bo'lishni va mensimaslikni o'rganmoqda.

Ayrim yurtdoshlarimiz dini, tili, mafkurasi yetti yod begona serial qahramonlari ismlarini o'z farzandlariga qo'ymoqda. Xullas, aksariyat xorij

seriallariagi milliy ma'naviyatimizga yot, g'ayriaxloqiy sahnalar aholi ongi va ruhiy dunyosiga negativ ta'sir o'tkazmoqda. Tashvishlisi, bu seriallar aholi ko'rishga juda qulay paytda, kechki dasturlarda, ertasiga takroriy hamda yakshanba kuni haftalik qismlarni barchasida berilmoqda (takrori 3 marta). Telekanallarning bu seriallarni efirga berish orqali iqtisodiy manfaat topayotganligi hech kimga sir emas. Ammo, o'z xalqining milliy ma'naviyatiga xiyonat qilib, ulg'ayib kelayotgan avlodning tarbiyasini buzayotganligini, o'zligidan uzoqlashtirayotganligini oqlab bo'larmikan?! "Ommaviy madaniyat"ning tegirmoniga suv quyayotganlar o'shalarku. To'g'ri, davlat OAVlarida "ommaviy madaniyat" illatiga qarshi kurashish yuzasidan axborot siyosati yuritib kelinmoqda. Jumladan, olimlar, ziyolilar, soha mutasaddilari ma'rifiy fikrlarini aytayapti. O'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlari yoritilayapti. Ammo, aksariyat xususiy OAVlarida buning aksini ko'rayapmiz. Mulohaza qilib ko'raylik, bu holatda yana qanday natija, samarani ko'rish mumkin?! Tashvishlisi, tarbiyasi buzilayotgan yoshlar soni oshsa oshayaptiki, kamaymayapti.

Bu muammoning yechimi yuzasidan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Saviyasiz, yengil-elpi, real hayotdan yiroq, maishiy masalalardagi milliy seriallarni suratga olishni to'xtatib, xorijiy seriallarga raqobat qila oladigan milliy seriallarni yaratishda samarali tizimni yaratish, jumladan milliy, tarixiy seriallarni tasvirga olishni moliyaviy rag'batlantiruvchi choralarni ko'rish;

- OAVlarida (televidenie, radio, bosma OAVlari, internet nashrlari va tarmoqlari) tarqatilayotgan har qanday axborot materiallari jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, xalqning milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, axloqiy fazilatlariga zarar yetkazishning oldini oluvchi tegishli huquq normalarni qonun hujjatlarida aks etirish va uning doimiy monitoringini yo'lga qo'yish;

- "Ommaviy madaniyat"ni xalqimiz milliy ma'naviyatiga yetkazayotgan zarari qamrovini chuqur o'rganish va ekspertizasini o'tkazishni tashkil etish, uni bartaraf etish hamda himoyalani bo'yicha aniq ilmiy asoslangan takliflarni tayyorlash. Uni ushbu yo'nalishda davlat siyosatini yurituvchi mutasaddi idoralarga navbatdagi strategik rejalarni ishlab chiqish uchun taqdim etish.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, agar biz diniy, milliy va axloqiy qadriyatlarimiz, shuningdek, tarixiy qahramonlarimiz hayoti haqida o'tkir syujetli seriallar va filmlar yaratmas ekanmiz, ertaga ham kimlardir tomonidan suratga olingan va katta mablag' evaziga xarid qilingan xorijiy seriallarning jamiyatimizga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri haqida nolib o'tiraveramiz.

Kezi kelganda yana bir xatarli holatga e'tiboringizni tortamiz. Bir kunlik vaqtimizning aksariyat qismini kompyuter(nootbuk), smartfon, planshetlarda

o‘tkazamiz. Xuddi shunday holat o‘smir-yoshlarning kundalik hayotida ham kuzatilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumotlarni almashish, kompyuter o‘yinlarini o‘ynash – informatsion texnologiya vositalariga qaramlik holatini keltirib chiqarmoqda. Bu – narkomaniya qaramligidan kam emas. Eng yomoni, o‘smir-yoshlar real hayotdan uzoqlashib, xayoliy virtual makonga bog‘lanib qolmoqda. Bu esa, ongning real voqelikni qabul qilish jarayonini izdan chiqarib yuboradi. Asta-sekin uning onggi bu dunyoni qabul qilishdan uzoqlashadi, hayotiy jarayonlarga nisbatan paradoksal munosabatlar paydo bo‘ladi. Hattoki, ongli munosabatlarni qurish va anglash jarayonlari zanjiri uziladi.

Shaxsning organizm faoliyati kunlik rejalashtirish jarayonida butunlay buziladi. Buning o‘rniga u virtual olamda(chatlarda, kompyuter o‘yinlarida, virtual munosabatlar) yashay boshlaydi. Kompyuter qaramligiga tushib qolgan o‘smir-yoshlarda, ongning dunyoviylikni qabul qilishini, shaxslararo munosabatlarini boshqaruvchi jarayonlarining o‘zgarishini izdan chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida, unda g‘ayriinsoniy dunyoni qabul qilish va munosabatlarni qurish jarayonlari yuz beradi. Shaxsga xos xislatlar tubdan o‘zgaradi.

Internet tarmoqlarida kundalik asosiy vaqtini o‘tkazayotgan, unga bog‘lanib qolgan yoshlarning ruhiy-ma’naviy ahvoli kishida tashvish uyg‘otishi lozim. Internetda turli o‘yinlarni tonggacha o‘ynagan bolalarning ahvolini mana ko‘rayapmiz. O‘qishni qo‘ya turing, hatto ota-onasining gapini eshitishni xohlamayapti. Xorijda ishlangan ba’zi o‘yinlar hatto bolani o‘z joniga qasd qilishga undayapti. Yoshlar orasida suitsid rivojlanayapti. Xorijdan ishlab chiqarilayotgan bunday o‘yinlarga muqobil, milliy qadriyat va ma’naviyatimizga mos nega o‘yinlar tayyorlanmayapti?

Holbuki, o‘tmishimizdagi buyuk xalq qahramonlarining yurt, vatan uchun qilgan fidoyi xizmati, ulardagi mardlik, jasorat, matonat, xullas ibratli fazilatlarini aks ettirgan milliy kompyuter o‘yinlarini yaratish mumkin.

Masalaning yechimi yuzasidan takliflar:

- vahshiylik, odam o‘ldirish, bir so‘z bilan aytganda qotillikni targ‘ib qiluvchi o‘yinlar o‘rniga, tarixchi olimlar va dasturchi mutaxassislar bilan hamkorlikda Shiroq, To‘maris, Spitamen, Temur Malik, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi milliy qahramonlarimizning milliy ozodlik harakatini tasvirlovchi stsenariylar yaratish va shu asosida milliy o‘yinlarni tezroq yaratish;

- qizlarimizda odob-axloq, chevarlik, pazandalik, kashtachilik, mehmon kutish, ro‘zg‘or tutishni o‘rgatuvchi, yoshlarimizning topqirlik, ziyraklik, fahm-farosatini, fikrlashini rivojlantiruvchi milliy o‘yinlarni ishlab chiqish;

- Xorijdan kirib kelayotgan o‘yinlarning xatarli, milliy o‘zligimizga yot

jihatlarni yoshlarga yetkazishda maktab – ota-ona – jamoatchilik tizimini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa shuki, bugun har bir yurdoshimiz, ayniqsa yoshlar mahalliy va dunyo media makonida berilayotgan axborotni ongli ravishda saralashi, oqini-oqqa, qorasini-qoraga ajrata bilishi zarur. Axborot makonida milliy manfaatimizni, o‘zligimizni, o‘zbekligimizni munosib himoya qilishi zarur.

Eng asosiysi mamlakatimiz OAVlari tashqaridan bo‘layotgan mafkuraviy xurujlar, g‘arazli axborotlarga tengma –teng bas kelib, milliy mediamakonini ularga berib qo‘yishi kerak emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident SH.Mirziyevning O‘zbekiston ijodkor ziyilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2017 -yil 5-avgust.

2. Ommaviy axborot vositalari (televideniye, ijtimoiy tarmoqlar va matbuot) da tarqatilayotgan ijtimoiy-siyosiy materiallar ilmiy tahlili. Sultonov F.X., Hojiyev F.J. Toshkent, «ART VERNISSAGE» nashriyoti, 2023-yil, 232 b.

YOSHLAR MA’NAVIYATI VA TARBIYASIDA AXBOROTDAN FOYDALANISH MASALALALARI

Mirazimova Gulbahor

Jizzax politexnika instituti o‘qituvchisi

Germanova Tatyana Vitaliyevna,

t.f.n., dotsent, Rossiya Federtsiyasi,

Tyumen industrial universiteti,

Annotasiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ma’naviy mohiyati, ularning yoshlar ma’naviyati va tarbiyasida namoyon bo‘lishida axborot madaniyati shakllantirish va himoyalalanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Axborot, taraqqiyot, ma’naviy rivojlanish, milliy qadriyatlarga mutanosiblik, fuqarolik burchi, jamoatchilik fikri, milliy yuksalish.

Bizga ma’lumki, Ma’naviyatga qaratilgan har qanday tahdid jamiyatni inqirozga olib kelishi muqarrar. Butun yer yuzi yagona axborot makoniga aylangan bir paytda bir davlat hududi, yohud alohida olingan bir millat o‘z qobig‘iga o‘ralgan holda ushbu jarayonlardan o‘zini saqlashi mumkinligi haqidagi fikr Robert Ouenning utopiya haqidagi fikrlariga monanddir. Jamiyat erkin fikrlash qobiliyatiga ega ekan uning axborot olishga bo‘lgan

extiyoji ortib boraveradi. Axborot orqali atrofda sodir bo‘layotgan harakat va hodisalarni anglashga intiladi. Uzatilayotgan axborotlar esa har doim ham ishonchli axborot bo‘lmasligi mumkin. Shundan kelib chiqib, ma‘lumotni qabul qiluvchi ham unga turlicha reaksiya bildiradi. Ya‘ni, ma‘lumotga to‘g‘ridan to‘g‘ri ishonadi va qabul qiladi, boshqasi esa yangilikni qabul qiladi va tekshirish uchun boshqa bir axborot manбайдan foydalanib ko‘radi, hamda ishonchli qismini olib qolib ishonchsiz qismidan kechadi. Ishonchsiz axborotga boyitilgan bilim birnecha istemolchilarga yetib boradi va jamiyatni ravon harakatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘ladi. Ishonchli axborotga ega bilimlar jamlammasi saqlanishi uzoq va ijobiy ta‘sir kuchiga ega bo‘ladi. Zero XXI asrda biron bir mamlakat yoki hudud taraqqiyotni tezkor axborot almashinuvisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu ma‘noda axborotlashuvni geosiyosiy jarayonlar bilan bog‘lanib ketayotganligini ham kuzatish mumkin. Bu borada Rossiyalik faylasuf S.A.Modesovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli. Uning fikricha, “axborotlashgan makon yangidan-yangi geosiyosiy munosabatlardagi raqobatni shakillantirib, ya‘ni jahon tartiboti jarayonida ayrim davlatlarda axborotlashtirishni takomillashtirish asosida kattaroq mavqega ega bo‘lib boradi” [3]. Shaxs jamiyatda va uning a‘zolari orasida muayyan harakatda bo‘lgan ma‘lumotlar, xabarlar, maxsus bilimlar, ommabop axborotlarga ega bo‘lgan taqdirdagina o‘z davrining ziyoli kishisi sifatida shakillanadi. Shuningdek, yuqoridagi axborot vositalari mazmuni, mohiyatini bilish va ulardan o‘z faoliyatida informatsion yondashishi asosida samarali foydalana olish axborot madaniyatini tashkil etadi [4].

Endi esa axborotni faol tarqatuvchi vositalarga e‘tibor qaratsak:

Internet – hozirgi kunimizda axborotni juda tez, keng ko‘lamda va nazorat qilib bo‘lmas darajada tarqatayotgan vosita. Internet orqali ham foydali, ham zararli ma‘lumotlarni tarqatish oson, qulay va arzon. Siz internet orqali yangilik tarqatishingiz uchun ma‘lum bir makonga, ko‘plab jixozga va katta mablag‘ga ega bo‘lishingiz shart emas. Kamida internet tarmog‘iga ulana oladigan telefoningiz bo‘lsa bo‘lgani, siz faol axborot qabul qiluvchi va tarqatuvchiga aylana olasiz.

Televideniya – faol axborot axborot tarqatuvchi soxalardan biri. Televideniya orqali ma‘lumotlar tarqatish alohida bir makonni, yo‘nalishni va mablag‘ni talab qiladi albatta. Ammo bu soxa mablag‘ keltiruvchin soxa bo‘lganligi uchun axborotlaning ko‘lami keng, xalqchil va tezkor bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratiladi.

Bosma axborot vositalari – hozirda yuqoridagilarga nisbat passiv harakatlanuchi axborot tarqatuvchi soxaga aylandi. Nisbatan o‘z ma‘lumotlari yo‘nalishi va chegarasi mavjudligi bilan yuqoridagi ikki soxadan ajralib turadi. Bularga gazeta, jurnal, kitob va shu kabi bosma materallari kiradi.

Sanab o‘tilgan axborot tarqatuvchi soxalar qanchalik jamiyatga ta‘sir etmoqda?

Internetning ta‘siri shu darajaga yetdiki, bunday rivojlanishni barcha yo‘nalishlarda uning aralashuvini kuzatish mumkin bo‘lib qoldi. Internet makoni kengayib borishi axborotlarni filtrlash, yashirish, bo‘g‘ib qo‘yish imkonini toraytirib boryapti. Terorestik guruhlarni tashkil etish, teraktlarni amalga oshirish, pornografiya, “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qilish, davlat to‘ntarilishlarini uyushtirish va shu kabi vayronkor g‘oyalarni amalga oshirishda internetni roli beqiyos bo‘lmoqda. Oddiygina “Youtube” sayti orqali portlovchi modda yasash uchun yuzlab video ma‘lumotlar bor. Minglab pornografik materiallar tarqatuvchi saytlar mavjud. Har safar nomi o‘zgarib turuvchi domin ostida teroristik guruhlarning internet manzillari ish olib bormoqda. Bu esa internet olamining ijobiy xarakteri ostiga yashiringan daxshatli qiyofasidir. Masalan, ayni paytda internet tarmog‘ida o‘z joniga qasd qilishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi to‘qqiz mingta, salbiy mazmundagi to‘rt mingtadan ziyod saytlar mavjud. Undagi 49 foiz kompyuter o‘yinlari zo‘ravonlik va yovuzlikni targ‘ib qilayotir. 42 foiz bolalar va o‘smirlar onlayn tizimi orqali tarqatiladigan virtual hayot ta‘siriga butunlay qaram bo‘lib qolgan. Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38 foiz bola zo‘ravonlik ruhidagi saytlarni, 26 foiz bola millatchilik tusidagi veb sahifalarni muntazam kuzatib borishini aniqlashgan.

Hozirgi televidiniya ham internetdan qolishmaslikka harakat qilmoqda. Huddi internetda bo‘lgani kabi faxishga asoslangan ko‘rsatuvlar soni ortib bormoqda, ilmiy ko‘rsatuvlar o‘rnini mantiqsiz shou dasturlar egallashi, adabiy til meyorlarini ochiqchasiga buzush holatlari tabiiy xolatga aylanib bo‘ldi. Faqatgina yurtimizdagi kuchli nazorat sababli bosma ommaviy axborot vositalari ananaviy yo‘nalishida davom etmoqda. Ammo, bu bilan soxa ijobiy deb aytib bo‘lmaydi. Sababiki, axborotni uzatishdagi o‘ta g‘alizlik, oddiy narsalarni ko‘kka ko‘tarish, bo‘rttirib ko‘rsatish kabi sarqitlar aynan bosma axborot vositalarida kuzatishimiz mumkin. Bu esa mushtariyni bezishiga olib kelmoqda.

Yoshlarga oid milliy qonunchiligimizga ma‘naviy tahdidlar, axborot xurujlarining oldini olishga qaratilgan zarur o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritish darkor. Bu borada Angliyada «O‘zini tutish kodeksi» va «Xavfsiz tarmoq» mustaqil jamg‘armasi zararli, noqonuniy axborotlar oqimini nazorat qiladi. Ayrim Yevropa davlatlarida qonun asosida nomaqbul saytlarni yopib qo‘yish (blokirovka qilish) belgilab qo‘yilgan bo‘lsa Germaniya bu masala sud qaroriga ko‘ra, Rossiyada esa turli axborot xurujlariga qarshi kurashish maqsadida «Xavfsiz internet markazi» tashkil etilgan. Umuman olganda, Yevropa Ittifoqi tomonidan bu borada bir nechta qonun hujjatlari

qabul qilingan va «Xavfsiz internet» dasturi ishlab chiqilgan. Ammo shu narsani unutmaylikki, agar jamiyatni devor bilan o‘rab qo‘ysak, uning ortiga qiziquvchilar ko‘payadi. Jahon tajribasini olish kerak, lekin bizda ulardan kuchliroq narsamiz bor, bu – ma’naviyat. Ma’naviy tarbiyada biz yoshlarga axborotlarni ham tahlil qilishni o‘ragata olsakgina, axborot xurujlarining xavfini kamaytira olamiz. Endi nimaga boshqa fan sohalari emas aynan ma’naviyat fani axborot xavfsizligi, axborotning turlari, uning maqsadlari, kelajakdagi ta’sirlari haqida tushuntira oladi. Axborotni qanday qabul qilish kerakligi haqida ma’lumot bera oluvchi va insonda axborotga nisbatan kuchli immunitet hosil qildiradi oluvchi yagona vositaga aylandi.

Shunday ekan, axborot xurujlarini yoshlar ongiga ta’sirini tushuntirishni ma’naviyatshunoslik fanlari tizimiga yuklash kerak va tizimli ravishda dastur ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Buni quyidagicha chizma asosida tizimlash maquldir:

Umumiy olanidagan axbarotlarni taxlili qanchalik sodda bo‘lsa, o‘shandagina himoya mexanizmi tezroq ishlaydi. Bu borada I.A.Karimov aytganlaridek, axborot omili yadroviy poligonlardan ham dahshatli omilga aylanib borayotir. Agar mazkur omilga alohida e’tibor berilmas ekan, u borgan sari kuchayib boradi. Natijada, ayrim kuchlar qo‘lida asosiy “qurol”ga aylanadi. Bu esa nafaqat davlatlar yoki mintaqalarda keskin vaziyat vujudga kelishiga sabab bo‘ladi, balki xalqaro miqyosda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Mamlakatning kelajagini o‘zgartirib tashlash qudratiga ega bo‘lgan axbarot kuchi nazorat qilinmas ekan jamiyatning ertasi qorong‘ulashib ketishi hech gap emas. Shu o‘rinda ulug‘ alloma Abu Rayxon Beruniy merosidagi ayrim fikrlarga e’tiborni qaratmoqchiman. Alloma bundan ming-yil burun shunday yozib ketganlar: “Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg‘onlik tusini oladi. Chunki, odamlarning maqsadlari xilma-xil xalqlar o‘rtasida tortishish va talashish ko‘p. Shunday kishilar ham bo‘ladiki, ularning tabiatiga yolg‘on xabar tarqatish o‘rnashib qolib, go‘yoki unga shu vazifa yuklangandek bo‘ladi va xabar tarqatmasdan tinchiy olmaydi. Bu yomon xohishlardan va tabiatiga buzuq fikrlarning joylashganligidan kelib chiqadi” [5]. Qarang bundan o‘n asr avval yashab o‘tgan bobokalonimiz bugungi kun voqeligi, ayniqsa, o‘zini adolatparvar, inson huquqlari himoyachisi, oddiy so‘z bilan aytganda, “jurnalist” deb yurgan ayrim kimsalarga tarif berib o‘tgan ekanlar. Axborotni himoyalash masalalariga rivojlangan mamlakatlar katta ahamiyat beradi.

Hozirgi paytga kelib xalqaro munosabatlar yangi axborot texnologiyalari asosida shakllanayotgani bois, axborotni himoyalash va yoshlarni axborot psixologik xavfsizligini ta’minlash jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Foydanilgan adabiyotlar

1. мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуклари тараққиётнинг муҳим омили /“Халқ сўзи”. 2016, 31-декабр.
2. Мирзиёев Ш.М. «Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш, юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови». Ўзбекистон нашриёти, 2017.
3. Модесов С.А. Информационное пространство как фактор геополитической конкуренции. –М.1997.
4. З.Арслонов. Ёшларда ахборот маданиятини шакллантириш. илмий-оммабоп рисола. Dadaxon Nur Print. Фарғона – 2017
Globalashuv jarayoni va axborot xavfsizligi

TEXNOGEN SIVILIZATSIYA SHAROITIDA SHAXS AXLOQI

Avlakulov Aktam Mavlonkulovich,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent kimyo-texnologiya instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada texnogen sivilizatsiya va uning inson ma'naviy kamoloti hamda axloqiga ta'siri, texnogen jamiyatda inson bilan texnika o'rtasidagi bog'liqlik ochib berilgan. Globalashuv jarayonida inson omilining ahamiyati va bunda texnogen sivilizatsiyaning ta'siri va uni namoyon bo'lishi, texnika vositalarining inson hayotidagi o'rni hamda ahamiyati adabiyotlarga asoslangan holda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sivilizatsiya, texnogen sivilizatsiya, texnogen jamiyat, texnogen ong, texnosfera, globalashuv, axloq.

Texnogen sivilizatsiya imkoniyatlarining oshib borishi, birinchidan, inson hayotida misli ko'rilmagan qulaylik, bo'sh vaqt va umrni uzaytirishga olib kelgan bo'lsa, ikkinchidan, texnika vositalari insonning ta'lim va intellektual darajasiga, uning ijtimoiy faoliyatida, umumiy hayot tarzidan chuqur o'rin egallab, axloqiy masalalarda turli salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. “Bugungi kunda insonni texnologiyalash jarayoni vujudga keldi, bu insoniyat mavjudligining texnik vositalar va ularning ishlash natijalariga bog'liqligida namoyon bo'ladi”[6].

Globalashuv jarayoni tobora avj olib borayotgan davrda insoniyat texnogen sivilizatsiya natijasida biosferani, noosferani va inson hayotini butkul vayron etayotgan regressive jarayonni boshdan kechirayotgani haqidagi haqiqatga ro'para keldi. Fan va uning asosida avj olgan texnologiyalarning salbiy oqibatlari keng oshkor bo'ldi, inson axloqini saqlab qolish esa eng

dolzarb muammolarga aylandi. Bu esa, o'z navbatida, inson ma'naviy madaniyati, uning ichki dunyosi, ruhiyati masalasiga jiddiy e'tibor berishga, inson o'zining nobarkamolligini bartaraf etishi va barkamol jamiyat qurishi kerakligi haqidagi g'oyalarning oldinga surilishiga olib keldi.

So'nggi yuz-yil ichida jamiyat mavjud bo'lgan har qanday vaqtga qaraganda texnologiyaga ko'proq bog'liq bo'lib qolmoqda. Hayotni yaxshilashi va soddalashtirishi mumkin bo'lgan yangi texnologiyalar bizni ko'proq ularga qaram bo'lib qolishimizni kuchaytirmoqda.

“Texnika rivoji ta'sirida u o'zining ijtimoiy mohiyatidan tobora uzoqlashib, an'anaviy turmush tarzining tarix sinovlaridan o'tgan ma'naviy-axloqiy jihatlarining ko'pidan maxrum bo'lib bormoqda. Hozirgi zamon texnikasi odamlarning muayyan ixtisoslik bo'yicha uyushgan jamoasidan chuqur bilim, yetuk malaka va qattiq intizomni taqazo etadi. Shu tuqayli individ tor, cheklangan soha bilimdoni va malakali ish bajaruvchi bo'lishga intilib, uning hayot ma'nosi va maqsad-muddaosi to'g'risidagi tasavvurlardan cheklanib qolmoqda”[5]. Hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi, u xuddi texnogen jamiyat singari faqat va faqat oldinga siljiydi, olg'a intiladi.

Taraqqiyot har qanday samarali faoliyatning eng kuchli dvigatelidir va odamlar o'zlarining ixtirolari bilan hayotni soddalashtiradigan va har qanday ishni bajarishga sarflanadigan vaqtni qisqartiradigan yangi texnologiyalarning imkoniyatlarini izlamoqda. Endi olimlar ishlab chiqarish sohalarining aksariyati, shuningdek robotlashtirilgan korxonalar uchun sun'iy intellekt yaratishga intilmoqda[1]. Ayni paytda ko'plab korxonalar avtomatik ishlaydigan mashinalar va robotlar bilan jihozlangan va shu bilan odamlarni ushbu ishlarga jalb qilish, inson mehnatiga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Bir tomondan, robotlashtirish muhim ahamiyatga ega, ya'ni ishlab chiqarish korxonalarida biror baxtsiz hodisa yuz berganda, qurbonlar soni ancha kamayadi, inson omili ham chiqarib tashlanadi, har qanday mahsulotni ishlab chiqarishda xatolarga yo'l qo'yish ham kuzatilmaydi, ushbu ishlab chiqarish uchun vaqt sezilarli darajada qisqaradi. Ammo shunga qaramay, bitta kamchilik bor, ya'ni texnologiyaning jadal rivojlanib borishi tufayli ko'p odamlar o'zlarining doimiy ishlaridan mahrum bo'lishi va natijada ishsiz qolishlari mumkin, ko'plab kasblar egasiz bo'lib qoladi va ko'plab mutaxassislar o'rnini o'rgatilgan, aqlli robotlar egallaydi.

Hozirgi vaqtda rivojlanib borayotgan texnogen sivilizatsiya qarama-qarshi ikkita qutbning tutashgan joyida turibdi: insoniyat manfaati uchun takomillashib borayotgan ilmiy taraqqiyot va tabiatni yo'q qilish. Bu yangi texnologiyalar va ularning imkoniyatlaridan foydalangan holda inson-tabiiyat munosabatlarida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirish uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ehtimol, yaqin-yillarda inson o'zi yaratgan texnologik

vositalarning salbiy ta'sirini minimallashtirishga, shu yo'l bilan biosfera va texnosfera muvozanatini tiklashga erishar.

Ayniqsa texnogen jamiyatning dolzarb muammosi texnogen sivilizatsiya ta'sirida inson o'zligini saqlash, milliy ruhiyatini asrab qolish, o'z milliy mentalitetiga sodiq qolish imkoniyatlarining kamayib borish muammosidir. Texnik rivojlanishning har bir yangi bosqichida milliylikni saqlab qolish tizimi yanada murakkablashadi va shu bilan birga inson hayoti ham o'zgaradi. "Texnogen sivilizatsiya insoniyatga juda ko'p yutuqlar keltirganday bo'lgan edi..., – deydi V.S.Stepin. – Ko'pchilik odamlar yaxshi kelajakka bo'lgan o'z orzu umidlarini shu sivilizatsiya taraqqiyoti bilan bog'lagan edilar. Atigi yarim asr oldin aynan texnogen sivilizatsiya insoniyatni o'zini o'zi halok etadigan, jar yoqasiga olib kelib qo'yadigan global krizisga duchor etishini hech kim hayoliga keltirmagan edi"[4]. O'sib kelayotgan yosh avlod vakillari bugungi kunning yutuqlaridan bahramand bo'lish bilan birga uning salbiy ta'sirlaridan himoyalanih jarayonlariga nisbatan innovatsion yondashuvni shakllantirishni taqazo qilmoqda.

Umuman olganda esa, texnogen sivilizatsiya asriga (XXI asr boshlanishiga) kelib nafaqat faylasuf mutafakkirlar, balki olimlar ham global inqiroz, insoniyat va madaniyat xalokati to'g'risida ilmiy xulosalarni oldinga surmoqdadar. Masalan, Kembrij universiteti matematika va nazariy fizika kafedra rahbari bo'lgan, Nobel mukofoti sovrindori Stiven Xoking Yer aholisi sonining keskin ortib ketishi va texnologik taraqqiyot oqibatida insoniyat hayoti berk ko'chaga kirib qolganini e'lon qildi [7]. Endilikda, uning fikriga ko'ra, insoniyat oldida ikki yo'l – yo yadro urushi, yoki insoniyat O'rta asrlar davrida yashagandek yashashga o'tishi qoldi. "Lekin men pessimist emasman, shuning uchun fan olimlari bu muammoning yechimini topadi deb o'ylayman"[4] – deydi u.

S.Xokingning hisob kitoblariga ko'ra, insoniyat hayotidagi yalpi inqiroz kompyuter texnologiyalari taraqqiyoti tufayli ham sodir bo'lishi mumkin. Ya'ni, uning tushuntirishicha kompyuterlarning intellekti inson intellekidan orqada ekanida xatar yo'q, lekin keyinchalik uning "miyasi" tobora yaxshi va tez ishlaydigan vaqt keladi. Shunda kompyuter ongi inson biologik ongini boshqarishga o'tadi. Bu esa insonning "aqlli inson" sifatidagi inqirozidir. Buning oqibatida kompyuter planeta hayoti uchun eng muhim barcha manba va vositalarni – energiya, transport, mudofaa, informatsiya va boshqalarni - o'z nazorati ostiga oladi[3].

Umuman olganda, fan-texnika va texnologiya qanchalik kuchli taraqqiy etmasin, qanday kashfiyotlar qilmasin, undan turli manfaatdor kuchlar o'zlarining mafkuraviy maqsadlari yo'lida noxolis foydalanishga o'rinmasin, baribir yangi texnologiyalar fanning yutug'i va u inson aql-zakovatining

natijasi hamda kashfiyoti bo‘lib qolaveradi. Ular insonlarning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida doimo takomillashib boraveradi.

Bugungi kundagi zamonaviy texnika vositalarining takomillashuvi insoldan texnikadan foydalanishda yuqori texnologik bilim va salohiyatni talab etadi. Yuqori salohiyatga ega bo‘lgan odamlar jamiyatning innovatsion g‘oyalarni bera oladigan eng kerakli mutaxassislardir. Bunday insonlarni tarbiyalash va ularning intellectual imkoniyatlarini mamalakat taraqqiyotiga yo‘naltirish bugungi kunning, zamonning talabidir.

Texnika inson uchun faqat yordamchi kuch bo‘lib qolaveradi. Uning yangi imkoniyatlari kun sayin ko‘proq namoyon bo‘lmoqda, bu ayniqsa zamonaviy inson shaxsiyatining axborot texnologiyalariga bog‘liqligi misolida yaqqol namoyon bo‘ladi[2].

Xulosa qilib aytganda, bugun insoniyat juda ulkan imkoniyatlarga ega. Bunday imkoniyatlardan samarali foydalanishning yagona yo‘li – inson va tabiat munosabatlarida chuqur o‘ylangan, aniq maqsadlarga qaratilgan, qat’iy choralarni aql yordamida amalga oshirishdir. Shu yo‘l bilan texnogen taraqqiyotni yuksak bosqichlarga ko‘tarish, insonning insoniy mohiyatini, uning axloqini go‘zal holatda, tabiatni esa asl ko‘rinishini saqlab qolishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баева Л.В. Образ киберчеловека в современной науке и культуре // Философские проблемы информационных технологий и киберпространства. – 2015. – №1. – С. 56-69. Храпов С.А. Пределы технологизации человека: проблема искусственного интеллекта // Каспийский регион: политика, экономика, культура. – Астрахань: Издательский дом «Астраханский университет». – 2012. – №2. – С. 195-200.

2. Вялова Е.Г. Идентичность молодежи в контексте современных философских исследований // Вестник Калмыцкого университета. – 2016. – №2 – С. 126-132.

3. Махнач В. Л. «Свет во откровение языков». Очерки православной традиции. — М., 1998.

4. Степин В.С. Философия в эпоху перемен // Вестник Московского университета. Серия 7. Философия. №4. 2006. С. 18- б.

5. Фалсафа: энциклопедик луғат. ЎЗР ФА И.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти. Т.: “Ўбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2010. 259-б.

6. Храпов С.А. Техногенный человек: проблемы социокультурной онтологизации // Вопросы философии. – 2014. № 9. – С. 66-75.

7. Қаранг: <http://www.smolensk.ru/user/sgma/MMORPH/N-6-html/MAKHNACH/makhnach.html>

IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI MILLIIY MA'NAVIYATGA TAHDIDLAR

O'lmasxo'jayev Zoirxo'ja,

*Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD),
RMMM huzuridagi Ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar
instituti ilmiy xodimi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoq tushunchasi mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, turli ijtimoiy tarmoqlardagi ijtimoiy-siyosiy, diniy-mafkuraviy, ommaviy madaniyatning turli ko'rinishlari va uning jamiyat xavfsizligiga ta'siri masalalari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: jamiyat, xavfsizlik, tahdid, globallashuv, internet, ijtimoiy tarmoq, siyosiy dunyoqarash, axborot, siyosiy madaniyat.

Milliy ma'naviyatlarga xavf-xatarlar har doim mavjud bo'lgan, ular tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida tahdidlar darajasiga ko'tarilgan. Ularning ta'siri ham turli darajalarda sodir bo'lgan. Ammo ular milliy ma'naviyatlarning butunlay barbod bo'lishiga olib kelmagan. Bugun avj olayotgan globallashuv esa milliy ma'naviyatlarga qarshi xavf-xatarni emas, balki to'g'ridan-to'g'ri katta kuchga ega bo'lgan tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Ularning oldini olish imkoniyatlarini izlab topish va ilmiy asoslash dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Chunki bugungi tahdidlar real kuch sifatida milliy ma'naviyatlarning yemirilishini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda mamlakatimizda yashayotgan barcha insonlarning o'zaro jipsligi, turli tahdidlarga qarshi yagona kuch sifatida harakat qilishga erishilishi bilan bog'liq imkoniyatlarimizdan samarali foydalanishimiz lozim. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yanada ogoh va sergak bo'lish eng asosiy boyligimiz bo'lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko'p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir". Ana shunday tuyg'ularning mustahkam bo'lishi milliy ma'naviyatlarga nicbatan yuzaga keladigan tahdidlarning oldini olishda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlarda sodir bo'lmoqda

Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, odob-ahloqni yemiruvchi

manfur illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi aniq.

Keyingi paytlarda internet bilan bog'lik buzg'unchiliklar, global tarmokdan qabih maqadda foydalanayotganlar ko'payib bormoqda. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda.

G'alamis kimsalar yoshlarni o'z tuzoqlariga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O'zlarini "yaqin do'st" yoki "hidoyatga chorlovchi" sifatida tanitib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itmokda. Aslida, ularning din va shariat haqida umuman ilmlari yuq, faqatgina to'da boshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o'tmaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu johilligi bilan boshqalarni ham jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog'orasiga uynayotganini bilmaydilar. Bundaylar avval dinu diyonat, ibodat, jannat haqida turli jozibali so'zlarni gapirib, g'o'r yoshlarni yo'ldan urib, oxir-oqibatda, razolat qurboniga aylantirmoqda.

Internetdan olingan narsa to'g'ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilish kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar internet orqali tarqatilgan har qanday ma'lumot-xabarlarini haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga soladi.

Bizga ma'lumki, islom talimoti buzg'unchilikni, odamlar qalbiga vahima, dushmanlik va fitna urug'larini sochishni qattiq qoralaydi. Ma'lumki, so'nggi-yillarda dinni o'zlariga niqob qilib olgan oqimlar, toifalar paydo bo'ldi. Ular g'arazli maqcadlari yo'lida jamiyatda buzg'unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to'kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda.

Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan shaxs vaqt, umr g'animat ekanini doimo yodda saqlamog'i lozim. Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo'lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o'tkazib yuborishi mumkin.

Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongu shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab qiladi. Bizga ma'lumki, ko'plab sayt va tarmoqlar katta mablag'lar evaziga filtrlab qo'yilgan va bu holatni ko'plab davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta, taqiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni Internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo'lishi mumkin. Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Axborot va

matbuot erkinligi, fuqarolarning o‘z xohish-irodasi erkin bildirishi, davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi - Yangi O‘zbekistonning sifat ko‘rsatkichlaridan biriga aylandi”.

Taassufki, bugun yoshlarimizning akcariyati globallashuv tufayli Yevropa va xorijiy ma’naviy-madaniy oqimlar ta’siriga ko‘proq ishtiyoqmand bo‘lib, milliy ma’naviyatimizning hayotbaxsh, yuksak axloqiylikka asoslangan tamoyillarga ixlosmandligi sust kechmoqda. Inson qadri, mas’uliyati, axloqiga bepisandlik ba’zi yoshlarning kiyinishi, fe’l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko‘zga tashlanib qolmoqda. Bizning nazarimizda inson qadriyati uning axloqiylikka yo‘nalgani bilan belgilanishi kerak. Darxaqiqat, bugun axborot chunonam ko‘p va tez kirib kelayaptiki ularni “hazm” qilish uchun teran tafakkur va keng dunyoqarash talab etiladi. Ayniksa internet olami farzandlarimiz e’tibori va qiziqishini tortib borayotgan bugungi davrda ayrim kompyuter o‘yinlari haqida ham shunday misollarni ketirish mumkin. Mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra, internet orqali tarqatiladigan kompyuter o‘yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo‘ravonlik va yovuzlik ko‘rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o‘yinlarda esa o‘yin qahramoni o‘z maqsadiga yetishish uchun shunday zo‘ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o‘yinlarda ana shu zo‘ravonlik va yovuzlikning o‘zi bosh maqsad hisoblanadi. Turli jangovar, mentalitetimizga mos bo‘lmagan, ba’zan qahramonlik vahshiylikka o‘tib ketadigan bu kabi o‘yinlar farzandlarimiz axloqiy-estetik tarbiyasiga to‘g‘ri ta’sir ko‘rsata oladi deya olmaymiz. Bir qarashda ular oddiy o‘yindek ko‘ringani bilan zo‘ravonlik g‘oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg‘otishi juda ko‘p salbiy oqibatlariga olib kelgani xususida hayotiy misollar ko‘plab topiladi.

Yoshlarimiz ongini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlarimizga raxna solishga, ma’naviyatimizga tajovuz qilishga, umrimiz mazmuni bo‘lgan tarixiy xotiramizni buzishga urinayotgan g‘arazli kuchlarga karshi doimo ogoh turishimiz darkor. Ana shundagina bizni hech kim, hech narsa o‘z tanlagan yo‘limizdan ortga qaytara olmaydi va biz ko‘zlagan ulug‘vor maqsadlarimizga albatta yetamiz.

MA'NAVIY-MA'RIFIY JARAYONLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI

O'razov Bobir Baxtiyorovich

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

BuxDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlar, uni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari, shu jumladan oila institutining ma'naviy-ma'rifiy ishlardagi o'rni borasida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Insoniylik mohiyati, o'zini o'zi anglash, tafakkur mayog'i, davlatning kuch-qudrati, milliy ong, milliy tuyg'u, milliy g'urur, qadr-qimmat, aql-zakovat, salohiyat, ma'naviyat yo'li-ko'p bosqichli, axloqiy qarash, huquqiy qarash, falsafiy qarash, oila.

Hozirgi darvda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar umumiy aholining taxmiman 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 64 foizini tashkil etadi. Shu sababli yoshlarning tarbiyasiga, kamolotga yetishiga huquqlarini himoya qilishga e'tiborni qaratish davlat siyosatining ustivoryo'nlislaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"[1].

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ma'naviyatning mohiyatini chuqur anglash muvafaqqiyat garovidir. Chunki ma'naviyat-insonning insoniylik mohiyati, shaxsdagi ijobiy fazilatlar majmui, insonning zohiriy va botiniy qiyofasi. U inson hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko'nikmalar, odatlar tizimidir. Ma'naviyat – har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darajasi, unga yetaklovchi, undovchi imkoniyat. U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol toptiruvchi, ko'rkamlashtiruvchi beqiyos hayotiy omil. Ma'naviyat – yaxshilik va ezgulikka moyil, yomonlik va yovuzlikdan tiyilish, nafosat va haqiqatga, halollik va rostgo'ylikka intilish, o'zi mansub jamiyatning axloqiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy mezonlariga amal qilish hissidir. U insonning umrguzaronlik mohiyati, faoliyatining tabiatini belgilab bergan va faoliyatida gavdalangan ijobiy, go'zal fazilatlar majmui. Ma'naviyatda inson qalbi, shuuri, aql-zakovati, tabiati, bilimi, madaniyati aks etadi.

Ma'rifat esa insonning o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi kamol toptirish, imkoniyatlarini harakatga keltirish yo'lida bilim, tarbiya, madaniyat boyliklaridan bahramand bo'lishini kafolatlovchi omildir.

Ma'naviyat va ma'rifat davlatning ichki hayotidagi muammolarni hal qilishning muhim omili bo'lishi bilan birga, u davlatning xalqaro hayotdagi obro' – e'tiborini oshiradi, uning katta imkoniyatlarga ega ekanligini va barqaror taraqqiy etayotganligini tasdiqlaydi. Bu o'z navbatida davlatning xalqaro hayotda harakat qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Islom Karimov ta'kidlaganidek “agarki biz o'zimizning ma'naviy burchimizni oqlashni istasak yoshlarga otalarcha g'amxo'rlik qilishimiz kerak. Ana shu maqsadda biz ularning mamlakatimiz va chet ellardagi nufuzli ilmiy markazlarda ta'lim olishi uchun mablag'lar ajratdik”[2:80].

Ma'naviyat – shaxsning ruhiy hayot tajribasi, ruhiy olamini, dunyoqarashini, aqliy salohiyatini o'zida mujassamlashtiradi. U shaxsning va millatning o'zligini anglashi, milliy g'urur, milliy iftihar, vatanparvarlik, davlatga hurmat, jamoa an'analariga xayrixohlik, diyonat, mehr-shafqat, poklik, halollik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, kamtarinlik kabilarni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat yo'li – bosqichma-bosqich o'tiladigan yo'l. Inson aqlini tanigandan boshlab, tafakkur, ahloq va ma'rifatda kamolotga intiladi. Jamiyat ma'naviyati, uning rivoji ham uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning natijasi hisoblanadi. Jamiyat asta-sekin rivojlanib borgan sari inson ma'naviyati ham tarkibiy jihatdan mukammallashib borgan. Ma'naviyatning eng qadimgi asoslarini axloqiy, diniy va badiiy qarashlar tashkil qiladi. Davlatning yuzaga kelishi bilan ma'naviyatning siyosiy, falsafiy va ilmiy shakllari yuzaga kelgan. Shunday qilib, ma'naviyatning tarkibiy tizimini quyidagilar tashkil qiladi:

- axloqiy qarashlar va axloqiy ta'lim;
- diniy qarashlar va diniy ta'lim;
- badiiy qarashlar va badiiy ta'lim;
- falsafiy qarashlar va falsafiy ta'lim;
- siyosiy qarashlar va siyosiy ta'lim;
- huquqiy qarashlar va huquqiy ta'lim;
- ilmiy qarashlar va fan;
- jami tabiiy va gumanitar fanlar ham shu guruhga kiradi.

Bularning har qaysisi tadqiq predmetiga ega. Ular ma'lum ijtimoiy vazifani bajarishga da'vat etilgan bo'lib, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviyatli komil insonni tarbiyalashda muhim mavqe tutadi.

Oila – ma'naviyatning ilk va daxlsiz beshigi. Insonning ma'naviy komillik maqomlariga ko'tarilishida oilaviy muhit bilan birga jamoatchilik,

ta'lim tizimi, milliy mafkura va davlat faoliyati muhim o'rin egallaydi. Ularning real harakatlari quyidagi yo'nalish va shakllarda namoyon bo'ladi:

Oila – jamiyatning negizi va davlat taraqqiyotining ilk manbai.

Oila – shaxs, jamoa, ijtimoiy guruh dunyoqarashlari shakllanishi va ijtimoiy munosabatlar vujudga kelishining bosh asosi hisoblanadi. Muayyan imkoniyatlar oilaning mamlakat ma'naviyatini shakllantirish, uning mavjudligini mustahkamlash, turli xalqlar va mamlakatlar o'rtasida ma'rifiy munosabatlar qaror topishini ta'minlaydi. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" kitobida aytilganidek "yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardim" [2].

Oilaning yuksak madaniyatli shaxsni shakllantirish va davlat tizimidagi tutgan muhim o'rnidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

a) oilani shakllantirishda jamoatchilik boshqaruv institutlari rahbarlik faoliyatini kuchaytirish;

b) o'zbek xalqining ko'p bolalikka moyilligi va aholining asosiy qismi qishloq joylarda istiqomat qilayotganligi, o'ziga xos urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarning milliy taraqqiyotda muhim o'rin va mavqega egaligidan oilani ijtimoiy himoya qilishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida davom ettirishni ta'minlash;

v) aholining o'zi yetishtiradigan mahsulotni qayta ishlab chiqarishni keng joriy qilish, yoshlarning ish bilan ta'minlanmagan qismidan Respublikaning yirik qurilishlarida, qishloq xo'jaligida foydalanish va ularning xorijiy mamlakatlarga shartnoma asosida yuborishni ta'minlashni jamoat tashkilotlari va davlat institutlari faoliyatining yetakchi vazifasi qilib belgilash;

g) xotin-qizlarning farzand tarbiyasi va oilani mustahkamlashdagi alohida o'rnini hisobga olib, ularning homiladorlik va bolani tarbiyalash davridagi belgilanadigan ta'tillar muhlatini kengaytirish, ko'p farzandli ayollarga tegishli imkoniyatlar beruvchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish, soliqlarni imkoniyat darajasida qisqartirib borish;

d) davlat tomonidan qabul qilingan sog'lom avlod dasturini hayotga tatbiq etishda oilaning mas'uliyatini oshirish. O'z sohasi bo'yicha ishlash qobiliyatini saqlab qolgan mutaxassislardan foydalanishning me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Oilani yoshlarimizni ma'naviy tahdiddan himoya qiluvchi qo'rg'onga aylantirish.

Shunday qilib, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mohiyatini, maqsadi, vazifalarini va asosiy yo'nalishlarini to'g'ri tushunishi, yoshlarning

mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda bor imkoniyatlarni ishga solish muhim umumdavlat ishidir. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida belgilab qo‘yilganidek “bu borada ma’naviyat-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ta’sirchanligini ta’minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo‘llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishlari zarur”[2].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29 dekabr.
2. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”, T.: Ma’naviyat, 2008 80-bet

OMMAVIY MADANIYATNING JAMIYATGA TA’SIRI

B.Qodirov, *tarix fanlari nomzodi, dotsent, RMMM huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i*

J.Xidirov, *RMMM huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada “ommaviy madaniyat”ning paydo bo‘lish sabablari, oqibatlari, shuningdek, yoshlarda ushbu hodisaga qarshi g‘oyaviy immunitetni shakllantirish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar. “Ommaviy madaniyat”, mafkuraviy hujum, or-nomus, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, yoshlar, ommaviy axborot vositalari.

XXI asr insoniyat oldiga bir qator global muammolarni qo‘ymoqda. Mamlakatimiz Prezidenti milliy va xalqaro miqyosdagi maydonlarda so‘zlagan nutqlarida mamlakatimiz, umuman, dunyo hamjamiyati yuzmayuz kelayotgan ijtimoiy-siyosiy bo‘hronlar to‘g‘risida fikr yuritib, jumladan terrorizmni hech qanday chegara bilmasligi, muayyan bir mamlakatdagi ma’naviy inqirozlar faqatgina shu davlat doirasida qolib ketmasligi haqida dunyo jamoatchiligini ogohlikka chaqirib keladilar.

Darhaqiqat, bugungi davrda insonlarning ongi-shuurini egallash uchun davom etib kelayotgan, milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan turli xil ma’naviy-mafkuraviy kurashlar butun dunyo hamjamiyatini birdek xavotirga

solib qo‘ymoqda.

Qadriyatlarimizga mutlaqo yot g‘oyalar, behayolikni madaniyat deb targ‘ib etish, san‘at deya axloq normalariga to‘g‘ri kelmaydigan zo‘ravonlik, fahshni ko‘rsatish kabi mafkuraviy hujum turlari kundan-kunga ortib borayotgani hech birimizga sir emas.

Bugun ushbu hujumlar girdobiga aksariyat yoshlar tushib qolishmoqda. Ma‘lumki, bugungi kunda yoshlarning ma‘naviy olamini kengaytirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davrning muhim masalasi bo‘lib qolmoqda. Hozirgi davrda jahon miqyosida kechayotgan globallasuv jarayonlari Yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar, butun insoniyat, ayniqsa, yosh avlod uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratib berganini hech kim rad eta olmaydi. Biroq, inson aqlining yorqin misoli bo‘lgan bunday yutuqlar ayni paytda katta kuch-quvvat va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan ba‘zi siyosiy kuchlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlatilayotganini nazardan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Mustaqillik davrida kechgan tarixiy hayotimiz shuni ko‘rsatadiki, vayronkor, buzgunchi g‘oyalar birinchi navbatda yoshlar ongini zaharlashga qaratiladi. Ommaviy axborot vositalarida, ta‘lim-tarbiya muassasalarida bundan tashqari, mahalla va ota-onalarimiz tomonidan yoshlarimizga “ommaviy madaniyat”ning zararli ko‘rinishlari va oqibatlari to‘g‘risida tushuntirishlar olib borilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan, ba‘zi yoshlarimizda uning zararli ta‘siri kuzatilmoqda. Xo‘sh, “ommaviy madaniyat” o‘zi nima? U nimasi bilan xatarli?

“Ommaviy madaniyat”ning insoniyatga zararli ko‘rinishi, avvalo, ko‘p hajmda sanoatlashgan usulda ishlab chiqariladigan madaniyat elementlarining butunjahon ehtiyojlarini qondiruvchi majmuidir. Bu turmush tarzimizga OAV va boshqa vositalar orqali targ‘ib qilinadi. XXI asr boshlarida axborot texnologiyalari ta‘sirining kuchayishi bilan yoshlarning rivojlanishi va ularga ommaviy madaniyatning ta‘siri bilan bog‘liq bir qancha tendensiyalar kuzatilmoqda. Ulardan biri globallasuv orqali yuzaga keladigan yosh avlodning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini birlashtirishdir. Boshqacha qilib aytganda, xulq-atvor shakllari va yoshlar rivojlanishining universallasuvi. Ikkinchi tendensiya – axborot va kompyuter texnologiyalari bo‘lib, ular ijtimoiy muloqotda muhim o‘rin tutadi, yoshlar nafaqat bo‘sh vaqtlarini internetda, balki ish vaqtini ham shu global tarmoqda o‘tkazadilar. Natijada jonli muloqot qobiliyatlari yo‘qoladi. Ommaviy madaniyat ta‘sirida shaxsiyat standartlashtiriladi va individual farqlar o‘chiriladi. Fransuz sotsiologi A.Mol ommaviy axborot vositalarining tarqalishi bilan jamiyat va shaxsning o‘tmishdagi madaniy merosi o‘z mazmunini yo‘qotadi. Televidenie va radioda aytilgan, bosma ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan mediamahsulot shaxs uchun katta rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, shaxsga ta‘siri doimiydir[1].

Darhaqiqat, ommaviy madaniyatning o'sishi jamiyatning ommaviy kommunikatsiya texnologiyalari tizimining rivojlanishi bilan bog'liq. Ushbu texnologiyalar tizimi madaniy mahsulotlarni tarqatish imkonini bir necha bor oshiradi. Misol uchun bugungi kunda ko'pgina yoshlar kiyinish, muomala madaniyatini asosan sanoatlashgan ommaviy madaniyatning tiyiqsiz mahsulotlari orqali olishmoqda. Qolaversa, urf bo'layotgan yangi yo'nalishdagi (rep, pop, jaz) qo'shiqchilik, rang-barang musiqiy shoular, kassabop kinofilmlar, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kompyuter o'yinlari yoshlar ma'naviyatiga ta'sir qilmoqda va destruktiv moyilliklarni keltirib chiqarmoqda. Demak, ommaviy madaniyatning salbiy jihati shundaki, u insonning erkin fikrlashiga qarshi turadi. U shaxsning ijtimoiylashuviga imkon qoldirmaydi, aksincha, tevarak-atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga loqayd, Vatan taqdiriga befarq avlodni shakllantiradi, bir so'z bilan aytganda, jamiyatda beparvolik kayfiyati hukm surishiga xizmat qiladigan har qanday jarayonni rag'batlantiradi.

Ommaviy madaniyat, bir tomondan, ma'rifatparvarlik vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, qadriyatlarni inqirozga olib keladi. Aytish kerakki, madaniyatning ommaviylashuvi va "Ommaviy madaniyat" tushunchalari bir xil ma'noni bermaydi. Birinchisi, madaniyatlar almashinuvi, milliy madaniyatlarning rivojlanishi va uning elementlarini ommaviylashuvini bildirsa, ikkinchisi, g'oyaviy ta'sir vositasi, milliy madaniyatning kushandasi sifatida namoyon bo'ladi[2]. Globalashuv jarayonlarida turli g'oyalar kurashi, mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlari tobora avj olayotgani sir emas. "Ommaviy madaniyat" soyasida kirib kelayotgan axloqsizlik, zo'ravonlik, behayolik kabi illatlar Yer yuzidagi hech bir xalqning milliy madaniyatiga ham, umumbashariy qadriyatlariga ham to'g'ri kelmaydi. Zero, madaniyat so'zi biz uchun "sivilizatsiya", "taraqqiyot" degan ma'nolarni anglatadi. Demak, madaniyat bu taraqqiylashish, yuqorilashish demakdir.

"Ommaviy madaniyat" G'arbda o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G'arbda "pop-kultura" deb atashgan. Garchi madaniyat deb atalsa-da, aslida, tub mohiyatiga va maqsad-vazifasiga ko'ra "ommaviy madaniyat" chinakam madaniyatning kushandasidir. Misol uchun, "Ommaviy madaniyat" G'arbda yoshlarning oila va nikohga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Bugungi kunda millionlab G'arb davlatlari xotin-qizlari feminist ayollarning qarashini qabul qilib, turmush qurish va bola tug'ishdan voz kechmoqda. Shu sababli P. Byukenen Amerika xalqiga qarata deydi: "1950 --yillarda boshlangan "ommaviy madaniyat" harakati 1990 --yillarga kelib millatimizni naslsizlik balosiga duchor qildi"[3]. "Ommaviy madaniyat"ni targ'ib qilayotgan g'arazli kuchlarga aslida madaniyat va inson ma'naviyati, axloqiy qadriyatlarning umuman keragi yo'q. Ularning

strategik reja va siyosiy maqsadlariga erishish uchun “ommaviy madaniyat” bir vosita, xolos.

Xalqimizni turli g‘oyaviy tahdidlardan asrash, jamiyatimiz a‘zolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun ularni, eng avvalo, milliy g‘oya, istiqlol mafkurasi bilan qurollantirish zarur. Bu borada davlatimiz rahbarining 2021-yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori negizida ilgari surilgan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy sohalarda olib borilayotgan yangilanishlar asosi bo‘lib xizmat qiladi. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar orqali biz o‘z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish masalasini qo‘yar ekanmiz, ushbu masalani samarali hal etish, eng avvalo, o‘z kelayotgan yosh avlodning axloqiy barkamolligiga, g‘oyaviy-siyosiy yetukligiga, milliy o‘zligini chuqur anglab olganligiga bog‘liq. Mustaqil fikrlay oladigan, dunyoqarashi va tafakkuri keng barkamol insonlar yurtimiz taqdirini hal qiluvchi kuchlardir. Xususan, buyuk Turon zaminida tug‘ilib o‘sgan, jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan Imom Buxoriy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi bir qancha buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy-madaniy meros bugun ham o‘z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda. Xalqimizning go‘zal ma’naviy qadriyatlariga yo‘g‘rilgan vatanparvarlik, or-nomus, uyat, sharm-hayo kabi tushunchalar hayotimizga singib ketgan. Ayniqsa, ota-onaga hurmat, ayolga ehtirom, mardlik va jasurlik singari tuyg‘ularimiz butun dunyo xalqlarini rom etib keladi. Shunday ekan, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy va ma’naviy merosni, mardlik va jasoratni allaqanday “ommaviy madaniyat”ga almashtirmaslikka barchamiz birdek mas’ulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Golovanova N.F. Obshaya pedagogika.: uch.posobie. SPb.: 2005. S.43.
2. Ibragimov S. “Ommaviy madaniyat” tushunchasi va uning yoshlar tarbiyasiga tahdidi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. No. 11, 2023.
3. Byukenen P. G‘arbning halokati. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2007, 1-son, 35-bet.

MA'NAVIY EKSTREMIZM TARG'IBOTCHILARI

Abduhamidov Muhammadjon Abduhalim o'g'li,

Farg'ona davlat universiteti dotsenti,

islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlar orasida tobora urfga aylanib ulgurgan zo'ravonlik va tajovuzkorlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi o'yinlarining salbiy oqibatlari, bu kabi o'yinlarning milliy mentalitetga hamda yoshlar tarbiyasiga o'tkazayotgan ta'siri, shu bilan bir qatorda bu muammolarning yechimi yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. Internet, onlayn o'yinlar, ma'naviy ekstremizm, ma'naviy xurujlar, kibersport, zo'ravonlik, tajovuzkorlik, texnologiya.

XXI asrni "Kompyuter texnologiyalari asri", "Tezlik asri", "Texnika asri", "Internet asri" va shunga o'xshash turlicha nomlanmoqda. Ammo afsuski, bu asr ma'naviy xurujlar asri ham ekani, bugun hech kimga sir emas. Dunyoda yakkahokimlik o'rnatmoqchi bo'layotgan davlatlar tomonidan turli yo'llar bilan o'zga xalqlarning turmush darajasiga kirib borish, ularning ijtimoiy va ma'rifiy hayotiga aralashish, kishilar ongini ayovsiz zaharlash avj oldi. Bu xurujlar esa insonga ruhan ta'sir etuvchi vositalar orqali olib borilmoqda.

Shayton odam bolasini aldash uchun, uni gunoh qilishga majburlamaydi, balki o'sha gunohni uning ko'ziga chiroyli qilib ko'rsatadi. G'oyaviy urushlar ham iblisning shu tamoyiliga asoslangan. Siz o'z farzandingizning har kuni odam o'ldirishini tasavvur qila olasizmi? Buni hatto aqlingizga ham sig'dira olmaysiz-a? Lekin bu haqiqat bo'lsa-chi? Ha, sizning bolangiz kimnidir pichoqlamoqda, avtomatdan otmoqda, zaharlamoqda, faqat "o'yin"da. Kompyuter o'yinlari esa bugunga kelib, bolalarning ajralmas mashg'ulotiga aylandi.

Endi ular varrak uchirishni, bobolariga qo'shib nihol ekishni xayoliga ham keltirishmaydi. Darsdan keyin yoki darslardan qochib bo'lsa ham boradigan joyi – kompyuter o'yinxonalari, kundalik turmushlaridagi eng muhim mavzu – kompyuter o'yinlari bo'lib qolgan. Bu o'yinlarning to'qson foizida personajlar o'ta shafqatsiz. Bu, o'z-o'zidan bola ongiga virtual salbiy ta'sir ko'rsatadi. Virtual o'yinning qahramoni uning yaqin kishisiga aylanadi. Turli xil janglardan va qiyinchiliklardan, ana o'sha "yaqin kishi" sini tirik olib o'tish uchun, o'sha bola qanchadan-qancha "qon to'kadi", "shafqatsizliklar" qiladi. To'g'ri, bularning bari virtual olamda sodir bo'lmoqda, lekin keyinchalik mana shu bolaning hech narsadan tap tortmaydigan, sovuqqon, beshafqat insonga aylanib qolishi ayni haqiqat. Kompyuter o'yinlari, ayniqsa 10-16 yoshli bolalar ongiga oson ta'sir ko'rsatadi.

Tan olamizmi-yo‘qmi, ana shu kompyuter o‘yinlari g‘oyaviy urushlarning eng muhim qurollaridan biridir. Amerikalik kinoustalar tomonidan suratga olingan “Povorot ne tuda” kinokartinasining umumiy budjeti 48 million AQSH dollarini tashkil etgan. Olti oyda ushbu film yig‘ib olgan jami mablag‘ esa 901 million AQSH dollarini tashkil etdi [1]. Tasavvur qiling, 901 million dollar. Bu birgina filmning daromadi. Xo‘sh, nimaning hisobiga? Siz-u bizning bolalarimiz qiziqishi hisobiga.

Aytaylik, sizdan 70 kilometr uzoqlikda joylashgan to‘yxonada yaqiningiz to‘y qilsa, borasizmi? Albatta, borasiz. Erinmasdan, bazm uchun alohida tayyorgarlik ko‘rasiz. Lekin bolangiz har kuni qatnayotgan internet kafega bir marta bo‘lsin, kirganmisiz. U yerda bolalar nimalar qilishadi, qanday mavzularda suhbatlashishadi, bexabarsiz. Mana, eshiting, internet kafelarning aksariyatida bolalar shunday so‘zlashishadi: “...Ot! Otsang-chi!.. Meni o‘ldirishdi. Nega imillaysan? He onangni... O‘v, pichoq bilan so‘yishamiz. Avtomat ishlatganning onasini pismadon qilamiz!.. Orqasidan granata ot!.. Malades! Kim snayper olgan? Men snayperman... Poylab turib peshonasidan otsang, darrov o‘ladi... Imillama, o‘ldir!..”.

Etingiz junjikib ketdi-a? Bu so‘zlarni maktabdan chiqiboq kompyuter o‘yinxonalariga shoshiladigan, ota-onasidan bir soatlik kompyuter o‘yini uchun “arzimas” pul olgan, ko‘rinishidan beozorgina bolalar aytishadi.

Internet kafe yoki kompyuter klublardagi shovqin-suronlar, so‘kinishlar, u yerdagi havoning iflosligi va gigiyenik notozalik u yerda o‘tirgan bolaning asab sistemasiga juda katta shikast yetkazadi. Kompyuter o‘yinlariga mukkasidan ketgan bola ulg‘aygan sari odamovi, asabiy, qo‘pol, qahri qattiq bo‘ladi. Jismoniy kasallanadi: qo‘li titraydigan, boshi tez-tez og‘riydigan, ovqat hazm qilish sistemasining buzilishi oqibatida sal narsaga qayt qiladigan bo‘lib qoladi. Lekin shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi o‘yinlarning bolaga yetkazadigan ma‘naviy zarari bundan bir necha barobar ko‘proq. Bir so‘z bilan aytganda bu kabi faoliyat bilan shug‘ullanadiganlarni ma‘naviy ekstremizm targ‘ibotchilari, deyish mumkin.

Xo‘sh, bolalar o‘ynaydigan o‘yinlar qanday nomlanadi? Agar siz ham ushbu o‘yinlarning nomini bilib va hatto yodlab olsangiz, tabiiyki, ularga kompyuter oldida soatlab o‘tirishga ruxsat bermaysiz.

Bukabi salbiy illatlarning oldini olish maqsadida milliy qonunchiligimizda yoshlarni nosog‘lom axborotlardan himoya qilish mexanizmi ishlab chiqilgan. “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda, yoshlar orasida shafqatsizlik, hayosizlik va zo‘ravonlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar ma‘n etilishi, “Bola xuquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda esa zo‘ravonlikni, shafqatsizlikni va pornografiya mahsulotlarini namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi,

bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va qonunni buzish kabi xunuk ishlarga olib keluvchi vositalardan foydalanish, shu kabi adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish qat'iy an taqiqlanishi belgilab qo'yilgan.

Davlatimiz tomonidan bu salbiy holatlarga qarshi yetarlicha choratadbirlar ko'rib kelinmoqda. Ammo... bu qonunlarni mensimaydiganlar ham topiladi. Ayrim internet kafelarining tadbirkorlik niqobida ish olib borayotgan egalari, kibersport nomi ostida musobaqa tashkillashtirayotganlar shular jumlasidandir. Ularning "o'yin" nomi ostidagi, bola ma'naviyatini, ongini buzadigan yovuzliklarni targ'ib etishi insoniy qadriyatlarga ham, umumbashariy odob-axloq qoidalariga ham ziddir. Ta'lim muassasalaridagi nazoratning kuchsizligi, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi sustkashligi, mahallalarning o'z hududlarida faoliyat yuritayotgan bunday "urushxona"larga befarqligi, ayrim ichki ishlar xodimlarining yoshlar bilan olib borayotgan tarbiyaviy ishlarining shunchaki qog'ozda qolib ketayotgani yoshlarni ma'naviy va ma'rifiy qoloqlik botqog'iga botishlariga katta zamin hozirlashini unutishga hech kimning haqqi yo'q.

Qolaversa, bu kabi o'yinlarni ta'lim muassasalarida "kibersport" nomi ostida musobaqa tashkillanishi odamni yanada xavotirga soladi. To'g'ri, XXI asrning shiddati tez, sho'xlik qoni mavj urib turgan yosh avlod esa yangilik va g'aroyibotlarga o'ch. Tabiiyki, bu holat ularni kompyuter o'yinlari tomon yetaklaydi. Demak, o'z-o'zidan milliy ruhda tayyorlangan, xalq og'zaki ijodi obrazlari yoki ertak qahramonlari qatnashgan o'yinlarni ko'proq yaratishga ehtiyoj seziladi. Vatanimiz tarixidan so'zlovchi o'yinlar esa bolalar bilimni oshirish bilan bir qatorda, ularda Vatanga muhabbat tuyg'usini ham tarbiyalaydi. Turli xil topishmoq va aqliy o'yinlar ham ular uchun koni foyda. Faqatgina taqlidchilikdan chekinib, zo'ravonlik va tajovuzkorlikdan iborat o'yinlarni targ'ib qilmasdan mutaxassislar tomonidan milliy ma'naviyatimizga, milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga mos o'yinlarni mukammal, qiziqarli qilib ishlash lozim. Buning uchun esa barcha sharoitlar va texnologiyalar yetarli. Biz zamonamiz AKT mutaxassislari tomonidan qisqa muddat ichida ana shunday aqlni charxlaydigan, yoshlarni zo'ravonlikka emas, ilm-ma'rifatga yo'llaydigan o'yinlarni kutib qolamiz.

IJTIMOIIY TARMOQLAR: BUNYODKOR VA VAYRONKOR G‘OYALAR KURASHI

Madraximov Alisher Usubjon o‘g‘li,

*Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi,
instituti mustaqil tadqiqotchisi.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda butun dunyoda, ayniqsa yoshlar o‘rtasida keng istemolga aylangan ijtimoiy tarmoqlardagi bunyodkorlik va vayronkorlik g‘oyalarning tarqalishi hamda ta‘siri borasida so‘z yuritiladi. Ertangi kuni va kelajagini o‘ylagan har qanday mas‘uliyatli shaxs ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan vayronkor g‘oyalarga befarq bo‘lmasligi lozim.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoq, bunyodkorlik, vayronkorlik, veb-sayt, facebook, TikTok, telegram, axloq.

Olimlarning fikrlariga ko‘ra, insoniyat o‘z kashfiyotining to‘qson foiziga XIX asrdan so‘ng erishgan deb hisoblaydi. Chindan oxirgi ikki asrda hayotimizda mislsiz o‘zgarishlar ko‘p bo‘ldi. Hamon taraqqiyot pillapoyasidan jadal ildamlab bormoqdamiz. Yangi-yangi ixtirolar, kashfiyotlar ustida bosh ko‘tarayapmiz. Odanning og‘irini yengil qiladigan olamshumul o‘zgarishlar quvonarli, biroq ular ortidagi xatarlar juda tashvishli. Xususan bunga internet va ijtimoiy tarmoqlarni misol qilib keltirish mumkin.

Shu o‘rinda internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng ko‘lamda foydalanib kelayotgan ommaviy axborot vositalari uch maqsaddan birini ko‘zlab tashkil etilishi borasidagi fikrlarni keltirsak. Birinchisi, ezgu g‘oyani targ‘ib qilish, ikkinchisi yovuz g‘oyani targ‘ib qilish va uchinchisi qanday g‘oya bo‘lishidan qat‘iy nazar targ‘ib qilish orqali moliyaviy mablag‘ga ega bo‘lish. Ana shu ikkinchi va uchinchi maqsadga xizmat qiladigan OAV vositalarini mutlaqo yo‘qotib, faqat birinchi maqsad uchun xizmat qiladiganlarining sonini ko‘paytirish bizningcha o‘rinlidir. Chunki aynan ular milliy g‘oyamizni targ‘ib qilishga yordam beradi. Qolgan ikkitasi esa o‘zga g‘oyalarni targ‘ib qilish ehtimoli kattadir.

Texnika taraqqiyotining rivoji insoniyatni jamiyat oldidagi mas‘uliyatini oshirmoqda va biroz mushohada qilishga undamoqda. Biz ba‘zan o‘zimiz yaratgan narsalarni foydali taraflaridan ko‘ra zararli jihatlaridan ko‘proq foydalanamiz, ya‘ni hayot haqiqatini unutamiz nafsimizning quliga aylanamiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta‘biri bilan aytganda: “Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsad – ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin. Agar bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g‘oya va ta‘limotlar

bilan yovuz va zararli g‘oyalar o‘rtasida azaldan kurash mavjud bo‘lib kelganini va bu kurash bugun ham davom yetayotganini ko‘ramiz” [1]. Ana shu kurashda ijtimoiy tarmoqlar manfaatlar ustunligini keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.


Merriam-Webster lug‘atida ijtimoiy tarmoqlarni “elektron aloqa shakllari (ijtimoiy tarmoqlar va mikro-bloglar uchun veb-saytlar kabi)” [2] deb ta’riflaydi, ular orqali foydalanuvchilar ma’lumot, g‘oyalar, shaxsiy xabarlar va boshqa kontentni (masalan, videolar) almashish uchun onlayn hamjamiyatlarni yaratadilar. Hozirgi kunda ma’lumot almashish uchun hech qanday xat yoki telegramma kerak emas. Bu tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda global miqyosda fikr almashish uchun tezkor vosita hisoblanadi.

Tahlillarga qaraganda, yoshlarning 90 foizi asosiy axborot manbai sifatida internetga, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga salbiy ta’siri bevosita yoshlarning o‘zidan bilish va ularning bu boradagi qarashlarini o‘rganish maqsadida oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida onlayn so‘rovnoma tashkil qildik.

Mazkur so‘rovnomada 1502 nafar respondent ishtirok etdi. Jumladan, ishtirok etgan respondentlar foiz hisobida hududlar kesimida – Qoraqalpog‘iston Respublikasi 5 foiz, Andijon viloyati 25 foiz, Buxoro viloyati 2 foiz, Farg‘ona viloyati 7 foiz, Jizzax viloyati 12 foiz, Namangan viloyati 16 foiz, Navoiy viloyati 2 foiz, Qashqadaryo viloyati 5 foiz, Samarqand viloyati 7 foiz, Sirdaryo viloyati 2 foiz, Surxondaryo viloyati 5 foiz, Toshkent shahri 6 foiz, Toshkent viloyati 4 foiz, Xorazm viloyati 2 foizni tashkil etdi.

O‘tkazilgan so‘rovning maqsadlaridan biri – bu yurtimiz yoshlarning qaysi ijtimoiy tarmoqlarda faol ekanligini bilish edi. Shu maqsadda taqdim etilgan “Siz bugungi kunda qaysi ijtimoiy tarmoqda faolisiz?” savoliga quyidagicha munosabat bildirilgan (1-rasm).

Siz bugungi kunda qaysi ijtimoiy tarmoqlarda faolisiz? (bir nechta variantlarni belgilashingiz mumkin)



1-rasm. Yoshlarning qaysi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi

Respondentlarga taqdim etilgan bir nechta javoblarni belgilash imkoniyati o'tkazilgan tadqiqotimiz aniqligini ta'minladi. Telegramni messenger ekanligini inobatga olsak mamlakatimiz yoshlarining eng ko'p qismi Instagramda faol ekanligini va keyingi o'rinlarda Facebook va TikTok egallashini aniqladik.

Bugun ana shunday yoshlarimiz qiziqib, intilib foydalanayotgan ijtimoiy tarmoqlar turli mafkuralar, g'oyalar, insonlarni qarashlari, fikrlari va munosabatlari aylanuvchi joyga aylandi. Uni ayni vaqtda turli bunyodkor va vayronkor mafkura hamda g'oyalar kurashiga olib boruvchi poligonga qiyoslash mumkin. Ushbu poligondagi janglarning maqsadi va natijasi ma'lum hududni egallash emas, balki, undagi insonlarning ongi va qalbiga ega chiqishdir.

Ijtimoiy tarmoqlarda bunyodkor g'oyalarni targ'ib etish insonlarni ulug'lash, uning kuch-g'ayrati va salohiyatini oshirish, xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etish, o'zida mehnat, taraqqiyot, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etish demakdir.

Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat sivilizatsiyaga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy taraflari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- dunyoqarashning kengayishi va zamonaviylik;
- obyektiv va negativ axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilish imkoniyati (bunda foydalanuvchining axborotga “to‘q bo‘lishi” va ularni saralay olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Agar unda axborotga bo‘lgan “did” bo‘lmasa, u axborot oqimida “cho‘kib” ketishi mumkin ya’ni, ta’siriga berilib ketishi);
- masofaviy o‘qishlarda ishtirok etish;
- tezkor axborot almashinuvi;
- axborotlarni tanlash imkoniyati borligi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi bunyodkorlikka qaratilgan g'oyalar va harakatlarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin, unda sodir bo'layotgan vayronkor g'oyalarning targ'ib etishga qaratilgan harakatlarni anglab olish mushkul sanaladi.

Bunday keng imkoniyalardan unumli foydalanishga intilayotgan g'arazli kuchlar o'zlarining vayronkor g'oyalarni ayni ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etishga intilmoqdalar. Vayronkor g'oyalar – bunyodkor g'oyalarga

zid bo'lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuasini ifoda etadigan tushuncha. Jamiyatni tubanlikka yetaklab, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g'oyalar (o'zining shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlarini o'zgalar hisobiga qondirish, bosqinchilik, talonchilik va boshqalar). Aqidaparastlik va jangari irqchilik (rasizm). Buyuk davlatchilik shovunizmi va ashaddiy millatchilik, fashizm, bolshevizm, terrorizm kabi mafkuralar vayronkor g'oyalar jumlasiga kiradi [3].

Ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etilayotgan vayronkorlik g'oyalarni quyidagi toifalarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Tabir joiz bo'lsa, ularni tahdid sifatida baholash mumkin.

Birinchi toifa. Jamiyatda mavjud bo'lgan tartibotni buzishga qaratilgan g'oyalar.

Ikkinchi toifa. Milliy mentalitet va o'zlikka xos bo'lmagan g'oyalar.

Uchinchi toifa. Axloqsizlikni targ'ib etuvchi axborotlar.

To'rtinchi toifa. O'z isbotini topmagan, tekshirilmagan, biz uchun neytral bo'lgan axborotlar.

Jamiyatda mavjud bo'lgan tartibotni buzishga qaratilgan g'oyalar. Bir qarashda buni iloji yo'qdek ko'rinadi. Asta sekinlik bilan olib borilayotgan mazkur harakat ba'zida o'zining salbiy holatlarini keltirib chiqarmoqda. Buni terrorizm, ekstremizm, millatchilik, irqchilik, sadizm va kabi g'oyalarni jamiyatga tiqishtirish orqali namoyon bo'lmoqda.

Milliy mentalitet va o'zlikka xos bo'lmagan g'oyalar. Mazkur g'oyalarni keng tarqalishini "ommaviy madaniyat", g'arbona yashash va hayot kechirish tarzi hamda boshqa holatlarda ko'rishimiz mumkin.

Mazkur holat bo'yicha Saudiya Arabistonida yuz bergan holatni mislo qilib keltirsak. Saudiya Arabistoni teokratik davlat sanalib, u yerda ayollarga transport vositasini boshqarish qonuna ta'qiqlangan edi. Dunyoda yuz berayotgan voqealar Arab dunyosida bo'layotgan hodisalarni tarmoqlar oraqli kuzatgan arab ayollari Facebook tarmog'ida o'z sotsial uyushmasini tuzishadi. Bu uyushmada ularni bir g'oya birlashtirdi, ya'ni ayollarni avtomobil boshqarish va bu boradagi barcha ta'qiqlarni yo'q qilish edi. Harakat natijasida 2017-yili Saudiya Arabistoni podshohi Salmon ibn Abdulaziz as-Saud ayollarga haydovchilik guvohnomasini olish va avtomobil boshqarishga ruxsat beruvchi farmonni imzoladi. Unga ko'ra, ayollar 2018-yil iyunidan boshlab haydovchilik guvohnomalarini olishi mumkin bo'ldi [4].

Axloqsizlikni targ'ib etuvchi axborotlar. Albatta bugungi davr axborot asri davri. Kim axborotga egalik qilsa, dunyoga egalik qiladi. Bu borada ijtimoiy tarmoqlarda ustunlikka ega bo'lgan siyosiy kuchlarning qo'li baland kelmoqda. Tarmoqlardagi hattoki kattalarning ham aqlini shoshirib

qo'yadigan pornografik video kontentlar, "LGBT" g'oyalarini ilgari suruvchi g'oyalar chinakam tahdidga aylandi.

UNICEF ma'lumotiga ko'ra, internet foydalanuvchilarining uchdan bir qismi 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlardir. Ana shunday bir holatda, global tarmoqda o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 ming, shahvoniy mazmundagi 4 mingdan ziyod sayt mavjudligi aniqlangan. Shuningdek, UNICEF o'tkazgan so'rovlar internetdan foydalanadigan o'smirlarning 90 foizi axloqsiz surat va videolarga duch kelishi, 60 foizi esa bu turdagi axborotni izlaganini ma'lum qilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekistonda internet foydalanuvchilarining 35 foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilari va ularning aksariyati aynan yoshlar, shuningdek, bolalar ham hisoblanadi [5].

O'z isbotini topmagan, tekshirilmagan, biz uchun neytral bo'lgan axborotlar. Bugun tarmoqlarda asosli yoki asossiz, teshirilgan yoki tekshirilmagan axborotlar juda ko'p sanaladi. Ma'lum bir kuchlar o'zlarining g'oyaviy maqsadlarini amalga oshirish borasida o'z isbotini topmagan, tekshirilmagan, biz uchun ba'zida neytral bo'lgan axborotlarni tarqatmoqda. Shu ma'noda, mafkurada "mafkuraviy vahima" degan tushuncha mavjud. Mafkuraviy vahima (ingl, Moral panic, moral – "mafkura, axloq", panic – "vahima, qo'rquv"). Mafkuraviy vahima bu jamiyatdagi mavjud tinchlik holatiga rahna solish xavfi bilan aholini qo'rqitish maqsadida muammolarni taqdim etishdir. "Folklor (mahalliy) iblislar va mafkuraviy (ma'naviy va axloqiy) vahima" asari muallifi Stenli Kohenga fikriga ko'ra: "Mafkuraviy vahima – jamiyat qadriyatlarini va qiziqishlariga xavf va qo'rquv soladigan vaziyat, voqea, kishi yoki kishilardan iborat guruhlarining paydo bo'lishi natijasida sodir bo'ladi. Jamiyatga, madaniy qadriyatlarga xavf keltirib turuvchi shaxslar "folklor iblislar" deb atala boshlandi. Mafkuraviy vahima tortishuv va ijtimoiy tanglikni o'z ichiga qamrab olgan qarama-qarshilikdir, bunda murosasozlik qiyindir" – deydi [6].

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash mumkinki, ijtimoiy tarmoqlar qanchalik tez ommalashib borishi natijasida, vayronkor g'oyalarning ham tez va ko'laming kengroq tarqalishiga olib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: "Маънавият", 2008. – Б.112.
2. Social network. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/social%20network>
3. Қуроноф М., Даминов И. ва бошқалар. Дунёнинг мафкуравий манзараси. –

Тошкент: Муҳаррир, 2017. – Б.8-9.

4. تاعاطقلاو ةفلتخملا لامعلا تاعاطق يفو عمدتجملا يف ةيدوعسلا ةأرمل رود .
ةيموكحل . https://www.fac.gov.sa/web/upload_dir/content/1614589525.pdf

5. Мирўктамова Ф. Виртуал оламдаги болалар. Ҳуқуқ ва бурч. №1/2020.

6. Маврулов А. Тўраев Ш. Маънавият тарғиботчисининг ёрдамчи китоби. –
Тошкент: Муҳаррир. 2017. – Б.183-184.

IJTIMOIIY TARMOQLAR VA MEDIAOLAMNING JAMIYATGA TA’SIRI

Xurshid Serobov,

*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti
kichik ilmiy xodimi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar va mediaolamning jamiyatga ta’siri, ijobiy va salbiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Ijtimoiy tarmoqlarning real hayotdan uzoqlashtirish va inson his-tuyg‘ularining ta’sirchanligini pasaytirishga olib keladigan asosiy omillari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: media, social network, ijtimoiy tarmoq, jamiyat, foydalanuvchi, onlayn, virtual makon, informatsiya, faktcheyking, jamoatchilik fikri.

Ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ular muloqot qilish, axborot almashish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi va turli sohalarda qo‘llaniladi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tomonlari bilan birga uning jamiyatga salbiy ta’siri ham bor ekanini qayd etish joiz.

Avvalo, ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizdagi ijobiy o‘rnini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Ular odamlarga masofa va chegaralardan qat’i nazar, bir-biri bilan bog‘lanib qolishlariga imkon beradi. Ijtimoiy tarmoqlar tufayli odamlar do‘stlari va oila a’zolari bilan qulay muloqotda bo‘lishi, yangiliklar, fotosuratlar va videolar almashishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar jamiyatning faol qatlamiga biznesi va shaxsiy brendini targ‘ib qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi, bu esa yangi mijozlar yoki ish topishga yordam beradi.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga, xususan omma dunyoqarashiga salbiy ta’sirini ham hisobga olish kerak. Internetga ulanish va ijtimoiy tarmoqlarga doimiy kirish imkoniyati tufayli odamlar virtual dunyoga ko‘proq

qaram bo‘lib qolmoqda. Bu aqliy va jismoniy salomatlikning yomonlashishiga, haqiqiy jamiyatdan ajralib qolishga va shaxsiy munosabatlardagi muammolarga olib kelayotgani bot-bot ta’kidlanmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik fikriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va yuqori sifatli axborot madaniyatini shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan soxta yangiliklar, manipulyasiya va keraksiz ma’lumotlarni tarqatish platformasiga aylangan.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar jamiyatga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni har qanday minusi bilan birga plyus jihatlari borligini doim yodda tutish lozim. Shuning uchun bu vositalarni imkoniyatlari va cheklovlarini hisobga olgan holda oqilona foydalanish zarur bo‘ladi. Haqiqiy munosabatlar va shaxsiy muloqotning ahamiyatini esga olish, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlarni tanqidiy baholashda mediaolamdagi har bir voqelikdan xabardor foydalanuvchi bo‘lish muhimdir. Bu virtual va real dunyo o‘rtasidagi uyg‘unlikka erishishning yagona yo‘li sifatida ko‘rilmoqda.

Dunyo ijtimoiy tarmoqlar davriga o‘tdi. Endilikda uning jamiyatga ta’sirini sarhisob qilmaslik mumkin emas. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylandi, uning dinamikasi va o‘zaro ta’sirini tubdan o‘zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga ta’siri ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishi mumkinligini kundalik misollarda ko‘rishimiz mumkin. Ijobiy jihatlari qatoriga axborotni osonlik bilan yetkazish va tarqatish imkoniyati, yangi aloqa tarmoqlarini yaratish, aholining barcha qatlamlari uchun axborot va onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash kiradi. Biroq, salbiy oqibatlar ham bor: ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, ma’lumotlarning maxfiyligi bilan bog‘liq muammolar, soxta yangiliklarning paydo bo‘lishi va kiberbulling. Ushbu maqolada biz ushbu mavzuni to‘liqroq tushunish uchun ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga ta’sirining asosiy ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rib chiqamiz.

Ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklari: yaxshilangan aloqa va ma’lumotlarga kirish haqida so‘z yuritsak, ijtimoiy tarmoqlar jamiyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va uning asosiy afzalliklaridan biri aloqani yaxshilashdir. Ijtimoiy tarmoqlar tufayli odamlar uzoqdan do‘stlari va qarindoshlari bilan osongina aloqada bo‘lishlari, shuningdek, butun dunyo bo‘ylab yangi tanishlar topishlari mumkin. Ular real vaqt rejimida muloqot qilish, fotosuratlar, videolar va boshqa ma’lumotlarni almashish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar ajoyib ma’lumot manbai. Foydalanuvchilar dolzarb yangiliklarni olishlari, hayotning turli sohalaridagi so‘nggi tendensiyalarni kuzatishlari, tajriba almashishlari va yangi voqealar haqida bilishlari mumkin. Bu, ayniqsa, o‘rganish va kasbiy rivojlanish uchun

ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi mumkin bo'lgan talabalar va mutaxassislar uchun foydalidir.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning barcha afzalliklariga qaramay, ba'zi kamchiliklar mavjud. Anonimlik imkoniyati kiberbulling, yolg'on ma'lumotlarning tarqalishi va shaxsiy hayotning buzilishi kabi bir qator muammolarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardan tez-tez foydalanish doimiy qaramlikka olib kelishi va odamlarni haqiqiy dunyodan chalg'itishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga ta'sir qiladigan bir qator kamchiliklari bor. Ulardan biri shaxsiy daxlsizlik masalasidir. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari ko'pincha ular joylashtirgan ma'lumotlar keng jamoatchilikka ochiq bo'lishi mumkinligini anglamaydilar. Bu shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishiga va maxfiylikning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish doimiy qaramlikka olib kelishi mumkin. Ko'p odamlar haqiqiy aloqalarni rad etib, virtual dunyoda ko'p vaqt sarflashadi. Bu ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga, shuningdek, haqiqiy hayotdagi munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, shuningdek, konsentratsiyani yo'qotish va samaradorlikni pasayishiga olib kelishi mumkin. Odamlar mazmunliroq ishlarni qilish o'rniga, yangiliklarni aylanib chiqish yoki postlarga izoh berish kabi foydasiz ishlarga ko'proq vaqt sarflashlari mumkin. Natijada odamlar vaqtni qadrlamay qo'yadilar. Bu esa insonni dunyoni absurdlashgan holda ko'rishga o'rgatadi. Ma'nosizlik ijtimoiy hayotda depressiyani ko'paytiradi. Odamlar hayotdagi faol pozisiyalarini boy bera boshlaydilar.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarning kamchiliklari maxfiylik muammolari va doimiy qaramlik bilan bog'liq. Insonlar hayotiga va umuman jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik uchun ushbu xavflardan xabardor bo'lish va ijtimoiy tarmoqlardan mohirona foydalanish yo'l-yo'riqlarini ommaga singdirib borish lozim.

Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga yana bir ta'siri ijtimoiy normalar va qadriyatlarining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy tarmoqlar va mediaolam jamiyatgakattata'sir ko'rsatadi, axloqiymе'yorlar va qadriyatlarga o'zgarishlar kiritadi. Ushbu hodisaning afzalliklaridan biri odamlar o'rtasidagi aloqani yaxshilash imkoniyatidir, ular bir-birlari uchun ochiq va qulayroq bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar ham ma'lumotlarning tarqalishiga yordam beradi, bu esa fuqarolarning xabardorligiga va ijtimoiy sharoitlarning yaxshilanishiga olib keladi.

Biroq, salbiy tomoni ham bor ekaniini unutmazlik lozim: ijtimoiy

tarmoqlar haqiqiy muloqot o'rnini bosadigan yuzaki munosabatlarning shakllanishiga hissa qo'shishi mumkin. Odamlar smartfonlar oldida ko'proq vaqt o'tkazmoqda, yuzma-yuz uchrashuvlar va suhbatlar soni kamaymoqda. Bu yolg'izlik va depressiya holatiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar ba'zan tasdiqlanmagan ma'lumotlar yoki soxta xabarlarning tarqalishiga imkon beradi, bu esa jamiyatga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar orqali noto'g'ri ma'lumotlarni keng tarqatish va jamoatchilik fikrini manipulyasiya qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Ijobiy jihatlari va kamchiliklarni muvozanatga keltirish uchun dunyo sosiologlari turli qo'llanmalarni ishlab chiqmoqda. Ular ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish bo'yicha maslahatlar berarkan, har bir inson ijtimoiy tarmoq va media olamdan foydalanish madaniyatini o'rganishi lozimligini ta'kidlashadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq odamlar ko'p vaqt sarflamoqda va bu foydali bo'lishi mumkin bo'lsa-da, uning salbiy ta'sirini ham hisobga olish kerak. Ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish uchun mutaxassislar bir nechta tavsiyalarga amal qilish kerakligini uqtirishadi.

Birinchi, foydalanuvchilar o'z vaqtidan xabardor bo'lishi va uni ijtimoiy tarmoqlarda qanday iste'mol qilishiga cheklovlar qo'yishi kerak. Ular yangiliklar tasma-sini cheksiz aylantirishdan va sahifani doimiy ravishda yangilab turishdan qochishi kerak. Buning o'rniga, har bir daqiqadan onlayn foydalanishning maqsadga muvofiqligi haqida o'ylashi tavsiya qilinadi.

Ikkinchi, shaxsiy ma'lumotlarga ehtiyot bo'lish kerak. Xakerlar va turli buzg'unchi kishilar undan fribgarlik yoki shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash uchun foydalanishlari mumkin. Ishonchli odamlar uchun profilga kirishni cheklash va maxfiy ma'lumotlarni joylashtirishdan qochish oqilona yechim sifatida taklif etiladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar insonning jismoniy holatiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Doimiy qaramlik ham o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Buning bir qancha muhim sabablari bor.

Birinchi sabab, ijtimoiy tarmoqda vaqt o'tkazish inson miyasidagi zavqlanish nuqtalarini bezovta qiladi. Foydalanuvchi har safar fotosurati ostidagi izohni o'qiganida yoki kimdir ijodi haqida yoqimli sharh qoldirganda, u ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechiradi. Ushbu his-tuyg'ularni yana qabul qilish istagi odamni ijtimoiy tarmoqlarning keng doirasiga qayta-qayta jalb qiladi va uni tarmoqda ko'proq bo'sh vaqt o'tkazishga majbur qiladi.

Ikkinchi sabab – ko'p foydalanuvchili tarmoqlarda ishlashda ma'lumotni singdirish usuli. Masalan, tarmoqda faol bo'lgan odam qisqa vaqt ichida kichik

dozalarda juda ko‘p ma’lumotlarni oladi: u xabarga javob beradi, sharhni ko‘radi, darhol yangiliklar tasmasini ochadi, u yerda qiziqarli ma’lumotga duch keladi. Bular uni cheksiz informatsiya sari boshlayveradi. Bu kabi minglab informatsiyalar insonni bora-bora ta’sirlantirmay qo‘yadi. Uning his qilish qobiliyati zararlanadi.

Yana bir salbiy nuqta – e’tiborning pasayishi. Bu axborot integratsiyasi falsafasi tufayli paydo bo‘lgan nojo‘ya ta’sir: bitta tarmoq resursi bilan ishlashda muloqot, audioyozuvlarni tinglash, video tomosha qilish, muhokama qilish kabi ko‘plab funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Foydalanuvchi hamma narsani bir vaqtning o‘zida boshlash va bir vaqtning o‘zida bir nechta jarayonlarni amalga oshirish vasvasasiga tushadi.

Bu insonning fikrlash qobiliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Uzoq vaqt davomida biror narsaga e’tiborini qaratish qiyinroq bo‘ladi, masalan, uzun maqolani o‘qishga erinadi.

Bu muammo ayniqsa yosh avlod uchun dolzarbdir. Bolaning fikrlashi kattalarnikiga qaraganda ancha moslashuvchan va shuning uchun salbiy jihatlarni tez o‘zlashtira oladi. Axborotning uzluksiz oqimi va ketma-ket hissiy taassurotlar rejimida ishlaganda, miya juda charchaydi va tana stressni boshdan kechiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy platformalarda ishlayotganda nima o‘qishdan qat’i nazar, ruhiy toliqishga olib keladi.

Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda har bir inson o‘z hissiy holatini faol kuzatib borishi tavsiya qilinadi. Salbiy sharhlar yoki argumentlar stress va depressiyaga olib kelishi mumkin. Salbiy informatsiyani filtrlashni o‘rganish va ijobiy tomonlarga e’tibor berish muhimdir. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi rolini ham unutmaslik kerak.

TIK TOK IJTIMOY TARMOG‘INING BUGUNGI YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA’SIRI

Shermatov Avazbek G‘ofur o‘g‘li,
*RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti kichik ilmiy xodimi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda dunyo va O‘zbekiston yoshlari orasida keng ommalashgan Tik Tok ijtimoiy tarmog‘ining ayrim jihatlari haqida so‘z yuritiladi. Yoshlar dunyoqarashini sog‘lomlashtirish, ularni ma’rifatli qilib tarbiyalashda

ijtimoiy tarmoqlarning, ayniqsa Tik Tokning tutgan o‘rni, uning ayrim salbiy jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, Tik Tok, “klipli fikrlash”, yoshlar, ma’naviyat, zamonaviy texnologiyalar, sog‘lom dunyoqarash.

“Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”.

Shavkat Mirziyoyev

Hozirgi paytda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida juda keng tarqalgan. Ularning har xil yo‘nalishdagi yangi turlari ko‘payib bormoqda. Dunyoda bo‘lganidek, mamlakatimizda ham ijtimoiy tarmoqlar yurtdoshlarimiz kundalik turmushiga keng kirib borgan. Ayniqsa, yoshlar hayotida ular chuqur o‘rin egallaydi.

Bugun Instagram, Facebook, Telegram, Tik Tok kabi tarmoqlar yoshlarimiz asosiy vaqtini o‘tkazadigan virtual platformalar sanaladi. Jumladan, Tik Tok ijtimoiy tarmog‘ining faoliyati O‘zbekistonda shaxsga doir ma’lumotlar subyektlari huquqlarini buzuvchilar reyestriga kiritilib, rasman cheklangan[1] bo‘lishiga qaramay millionlab o‘zbek yoshlari proksi serverlar(VPN) orqali taqiqni aylanib o‘tib, bu platformaga kirishda davom etishmoqda. Dunyo bo‘ylab har oylik tashrif buyuruvchilar soni allaqachon 1 milliard kishilik dovardan oshgan mazkur “azamat” ijtimoiy tarmoq o‘zining qiziqarli interfeysi, soddaligi, tanilishning, obunachi yig‘ishning nisbatan osonligi sababli ham ijtimoiy tarmoq ixlosmandlari orasida bozori chaqqon. Uning asosiy yutug‘i - bugun tobora klipli fikrlashga(ingliz. “*Clip thinking*” – qisqa fikrlash) o‘tib borayotgan yangi avlod qiziqishlariga ko‘ra, qisqa va qiziqarli videolarga ixtisoslashganidir. Ammo, keng tarqalgani, qiziqarliligiga qaramay bugungi kunda Tik Tok platformasi yurtdoshlarimizning, ayniqsa yoshlarimizning axloqiga, tarbiyasiga, dunyoqarashiga bir qator salbiy ta’sirlarni o‘tkazmoqda. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida mazkur tarmoq xavfsizlik nuqtai nazaridan rasmiy va norasmiy tarzda cheklovlarga duch kelayotgani bejizga emas. Afsuski, ko‘plab Tik Tok foydalanuvchilari e’tibor jalb qilish, obunachi yig‘ish, moddiy daromad topish, “layk”lar yig‘ish ilinjida axloqsizlikni, bema’nilikni, hayosizlik va savodsizlikni ommaviy ravishda targ‘ib qilmoqda.

Tik Tok ijtimoiy tarmog‘i o‘zining auditoriyasi safini 2020-yilgi Covid-19 pandemiyasi davrida uyda qamalib o‘tirishga majbur bo‘lgan yosh o‘spirinlar safidan keskin kengaytirishga erishdi. Shu tariqa soatlab vaqtini tarmoqda qisqa videolar ko‘rib o‘tkazishga sarflaydigan qatlam vujudga keldi. Bu ta’sir esa pandemiya nihoyasiga yetkan bo‘lsa ham davom etmoqda. Yosh

avlod o‘z qiziqishlari, istaklarini aks ettiruvchi kontentni tarmoqqa joylashda va boshqalarning ham kontentlarini tomosha qilishda bugun juda faol. Reallikdan uzoq bo‘lsada, Tik Tokning virtual realligi yoshlarni ohanrabodek o‘ziga chorlamoqda. Jimjimador, qiyinchiliklarsiz hayot, ideal ko‘rinish, to‘kis baxtni tasvirlovchi yoqimli kontentlar tarmoqni egallab olgan.

Afsuski, bugun yoshlar real hayotga ijtimoiy tarmoqda tasvirlangan jimjimador hayot prizmasi orqali qarashni boshlamoqda, hayotning past-balandliklardan iboratanligini, haqiqiy hayot virtual olamdako‘rsatilganidan farq qilishini anglashga kech qolishmoqda. Qaysidir mashhur shaxsning ehtirosiga berilib aytgan nosog‘lom mantiqqa ega gaplari absolyut haqiqatdek talqin qilinmoqda. Subyektiv mazmundagi, mizoginistik g‘oyaga yo‘g‘rilgan motivatsion gaplar o‘smirlar orasida virus kabi tez ommalashmoqda. “Zaharli mardlik”(ingliz. “toxic masculinity”) mavzusi bunga yaqqol misol bo‘la oladi[2]. Endryu Teyt ismli firibgarning Tik Tok tarmog‘ida erkak kishi qanday bo‘lishi haqida, ayollarning qadrini yerga urib aytgan motivatsion so‘zlari keng muhokamalarni keltirib chiqardi. Firibgar esa oxir-oqibatda qamoqqa ham olingan. Aksariyat yoshlar shu kabi firbgarlarning so‘zlarini oliy haqiqatdek qabul qilayotgani bor gap. Tik Tok esa bunday kontentlarni saralash, moderatsiya qilishda sust harakat qilmoqda. Quyida tarmoqning yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta’sir qiluvchi ayrim jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Tik Tokda keng tarqalgan ko‘plab “chellenj”lar qayta bajarish uchun jismonan katta xavf tug‘dirib, ko‘p hollarda axloqsiz mazmundagi videolarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Mashhurlik, obunachi yig‘ish yoki o‘zini ko‘z-ko‘z qilish maqsadida o‘smirlar tomonidan hayotini xavf ostiga qo‘yib turli chellenjlarni bajarish borgan sari avj olmoqda[3]. “Yugur yoki o‘l” nomli tuturiqsiz chellenj bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bunda maktab yoshidagi bolalar harakatlanib ketayotgan yuk mashinalari, yengil mashinalar yo‘liga to‘satdan yugurib chiqib, haydovchini keskin tormozlanishga majburlash, oxirgi lahzalarda o‘zini olib qochishga urinadi. Aksariyat hollarda bunday chellenj qatnashchilari og‘ir oqibatlariga duchor bo‘lishadi. Afsuski, esini hali to‘liq tanib ulgurmagan yoshlar orasida rozetka bilan tryuk qilish, transport vositalariga ilashish, ko‘prik ustidan poyezdlar ustiga sakrash, o‘zini o‘zi bo‘g‘ish kabi o‘ta xavfli harakatlar chellenj sifatida bajarilmoqda. “O‘zini bo‘g‘ish” yoki “nafas ushlab turish” nomli chellenjni bajarish davomida ko‘plab o‘smirlarning halok bo‘lgani va ularning otionalari ijtimoiy tarmoqni xavfli kontentni yoshlarga tarqatishda ayblab sudga bergani bilan bog‘liq ko‘plab holatlar ma’lum[4].

Tik Tokning salbiy ta’sirlaridan yana biri uning foydalanuvchi qiziqishlari doirasida kontentlarni taklif qiluvchi algoritmlaridir. Sun’iy intellekt texnologiyasi asosida ishlovchi mazkur algoritmlar foydalanuvchini

qiziqtirgan, eng ko‘p tomosha qilinadigan mavzularda videolarni ketma-ketlikda namoyish qiladi. Foydalanuvchi o‘ziga eng qiziq va muhim bo‘lgan mavzulardagi videolar ketma-ket taklif etilishi oqibatida soatlab ekranga mixlanib qolganligini sezmay qoladi.

Qisqa va qiziqarli videolarga ixtisoslashgan tarmoqning yoshlar ruhiy salomatligiga ham ta’siri katta. Tarmoq yoshlarning diqqatni jamlay olmaslik, kitob o‘qishga qiziqishning so‘nishi kabi muammolari yanada chuqurlashishiga “hissa qo‘shmoqda”.

G‘arblik psixiatr doktor Aleksandr Lapa o‘tkazilgan tadqiqotlarga asoslanib shunday deydi: “TikTokning ommalashuvi yoshlar uchun tobora ortib borayotgan muammoga aylanmoqda. Ilovadan foydalanish va ruhiy salomatlik bilan bog‘liq tashvishli holatlar o‘rtasida ehtimoliy bog‘liqlik mavjud. Bu, ayniqsa, uzoq muddatli ta’sirlarga chidamsiz bo‘lgan yoshlar o‘rtasida ko‘p uchraydi[5].

“TikTok’dan keng foydalanish yoshlarda xotira muammolari belgilarini ham ko‘rsata boshladi – ilova o‘ziga qaram qilib qo‘yib, uzoq vaqt konsentratsiya yoki o‘zaro ta’sirni talab qilmaydi. Oxirgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yoshlarning TikTok kabi ijtimoiy media platformalariga qaram bo‘lib qolish xavfi katta, bu esa biz hammamiz jiddiy qabul qilishimiz kerak bo‘lgan xavfli muammodir”[5].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Tik Tok ijtimoiy tarmog‘i cheklangan bo‘lishiga qaramay, O‘zbekistonda ham keng tarqalgan. Afsuski, tarmoqning o‘zbek tilidagi segmentida ijobiydan ko‘ra salbiy ta’sirga ega kontent ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda.

Hozirda Tik Tokning o‘zbek tili segmentida tarmoqning “battle”, ya’ni “jang” yo‘nalishidagi kontentlar keng tarqalgan. Tarmoqda boshqa foydalanuvchilar bilan jonli efirlar qilish, efir davomida turli musobaqalar tashkil qilish mumkin. Bunday jonli efir musobaqalari foydalanuvchilar orasida “battle” (*jang*) nomi bilan mashhur. Bunda jonli efiarda qatnashayotgan foydalanuvchilar efirni olib borayotgan shaxslarga layklar, Tik Tokdan sotib olingan turli xil pulli sovg‘alar bilan ovoz berib, qo‘llab-quvvatlashadi. 5 daqiqalik efir yakunida ko‘proq ovoz yig‘gan musobaqalashuvchi g‘olib deb topiladi va yig‘ilgan layklar, platformaning “sovg‘a”lari unga platforma tomonidan haqiqiy pulga konvertatsiya qilib beriladi. Natijada, moddiy rag‘bat ilinjida bunday “battle”, janglarni o‘tkazish Tik Tokda juda keng tarqalgan. Platformaga kirgan odam kunning istalgan vaqtida bunday jonli efir “jang”lariga duch kelishi mumkin. Bu turdagi “battle”lar aksariyat hollarda shartlar asosida o‘tkaziladi. Ya’ni, g‘olib tomon mag‘lub ishtirokchidan o‘zining bir nechta shartlarini bajarishni talab qiladi. Masalaning eng og‘riqli tomoni ham shunda. Bunday shartlarning aksariyati axloqsiz, bema’ni,

hayosiz va tuturiqsiz mazmundagi shartlardir. Ularning ayrimlarini aytishga ochig‘i, til bormaydi. Saviyasiz Tik Tok “yulduz”lari efir davomida shallaqilik, hurmatsizlik, so‘kinish, og‘ziga kelganini so‘zlash kabi axloqsizliklarni tap tortmay bajarishadi. Achinarlisi, bunday tarbiyasizlikka to‘la efirlarni minglab, millionlab yoshlar bemalol tomosha qilmoqda.

Bugungi kunda o‘zbek Tik Tok “yulduzlari” o‘zining saviyasiz va tuturiqsiz kontentlari uchun javobgarlikka tortilishni boshlagan. Jumladan, “*Sardor Gangster*” nomi bilan Tik Tokda tanilgan qashqadaryolik Sardor Safarboyev Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 183-moddasi (mayda bezorilik) va 184-3-moddasi (milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish)da nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan deb topilib, unga nisbatan 10 sutka ma‘muriy qamoq jazosi tayinlangan[6]. Endilikda bu kabi holatlar takrorlanmasligi uchun boshqa saviyasiz tik tokerlarning ham faoliyati tanqidiy ruhda o‘rganilishi kerak.

Zamonaviy interfeysga, vizual effektlarga ega Tik Tok so‘nggi bir necha-yilda ijtimoiy tarmoq, internet makonida haqiqiy inqilob qilishga ulgurdi. Milliardlab insonlarni o‘ziga jalb qilgan tarmoq vaqtni chog‘ o‘tkazishga imkon berish bilan birga auditoriyaning, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashiga bir qancha salbiy ta’sirlarni o‘tkazmoqda. Yoshlarni xavfli chellenjlar o‘tkazishga undovchi kontentlar bilan ta’minlash, diqqatni jamlay olmaslik va xotiraning susayishi kabi salbiy ta’sirlar, saviyasiz va savodsiz kontentning haddan tashqari ko‘pligi, bachkana va axloqsiz mazmundagi jonli “battle”lar, shu kabi aks ta’sirlar ayni damda tarmoqning yoshlarga solayotgan eng jiddiy xavflaridir. Ulardan ogoh bo‘lish, salbiy ta’sirlarga ko‘z yummaslik – davr talabi.

Bugungi kunda Davlat rahbari yurtdoshlarimizni milliy kontentni yaratishga, axborot makonida milliy media mahsulotlarni ko‘paytirishga chaqirayotgan bir paytda Tik Tokda milliy qadriyatlar, ma‘naviy qarashlarning oyoqosti qilinib, axloqsizlikning targ‘ib qilinishi har birimizni sergaklikka chorlashi lozim. Milliy kontent deganda esa o‘zbek tilidagi har qanday mazmunga ega axborot emas, balki ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy mazmunga ko‘proq urg‘u berilgan media mahsulotlar tushunilishi kerak. Vaholanki, ayni paytda Tik Tok platformasining o‘zbek segmentidagi kontentning aksariyati saviyasiz, mazmunsiz harakterga ega bo‘lib uni milliy kontent deb atash imkonsiz. Milliy kontent bugungi yoshlarimizning talab-istaklariga hamoxang bo‘lib, ularning ma‘rifatli shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero, bugunimiz va ertamiz avvalo, sog‘lom ma‘naviy dunyoqarashga ega, bilimli va zamonaviy yoshlarning tarbiyasiga bog‘liq. Sog‘lom tarbiyani shakllantirish ishini esa birinchilardan bo‘lib, Tik Tok ijtimoiy tarmog‘ining yoshlarga bo‘lgan salbiy ta’sirlarini kamaytirishdan

boshlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shaxsga doir ma'lumotlar subyektlari huquqlarini buzuvchilar reyestri, URL: <https://pd.gov.uz/spoiler/?type=spoiler>;
2. Time to banish toxic masculinity, URL: <https://www.childrenssociety.org.uk/what-we-do/blogs/how-toxic-masculinity-affects-young-people>;
3. 8 опасных трендов из тиктока, о которых нужно знать, URL: <https://www.parents.ru/article/8-opasnykh-trendov-iz-tiktoka-o-kotorykh-nuzhno-znat/>;
4. The TikTok 'blackout challenge' has now allegedly killed seven kids, URL: <https://www.theverge.com/2022/7/7/23199058/tiktok-lawsuits-blackout-challenge-children-death>;
5. Infographic: The Effects of TikTok Addiction, URL: <https://oceanrecoverycentre.com/2022/06/the-effects-of-tiktok-addiction/>;
6. Sardor gangster taxallusli shaxs qamaldi, URL: <https://xabar.uz/uz/post/sardor-gangster-taxallusli-shaxs-qamaldi?category=huquq>

INTERNET AXBOROT RESURLARIDAN O'RINLI FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Rasulov Azizkhon Mukhamadkodirovich,
*Farg'ona davlat universiteti, Falsafa va milliy
g'oya kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tizimida elektron darsliklar, video va audiodarslar, interaktiv va animatsiyali virtual laboratoriya ishlari, ta'limiy o'yinlar va boshqa qo'shimcha ta'lim resurslarining foydali jihatlari. Shuningdek, axborot-ta'lim portallariga barcha yaratilgan elektron resurslar joylashtirilishi, texnologiyalarining rivoji – oddiy aloqadan tortib, to hamkorlikda ish olib borish qurilmalarigacha sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarilganligi o'rganilgan. Internet, elektron pochta, mobil telefonlardan o'rinli foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Internet, matn, video, audio resurslar, udiodarslar,vebsayt, chatlar, forumlar dasturiy vositalar, kiber suhbat, internet xavfsizligi, treninglar, interaktiv xizmatlar, animatsiya, virtual laboratoriya.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etishda mavjud gipermatn, gipermedia, videotasvir, grafika, animatsiya, ovoz va boshqa veb dasturlaridan foydalanish katta samara bermoqda. To'plagan

tajribalar tahlil qilinganda axborot kommunikatsiya-texnologiyalarining dasturiy vositalari o'qitishda yangi sifat vositalari o'quv jarayonini jadallashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lib, an'anaviy o'qitish vositalaridan tubdan farq qiladi. Ta'lim resurslari asosida o'qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter texnikalar asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini tahrir qilish, o'quvchilarning topshirgan nazorat natijalarining tahlil qilish, o'quvchilarga ta'lim resurslari orqali dars o'tishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Ayni vaqtda yurtimizda yoshlarimizni turli xil noxolis ma'lumotlardan himoya qilish maqsadida "ZiyoNet" jamoat axborot ta'lim tarmog'i tashkil etilgan. Ular elektron axborot ta'lim resurslari va internet tarmog'i bilan ta'minlangan. Bu esa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini bermog'da. Ta'lim tizimida elektron darsliklar, video va audiodarslar, interaktiv va animatsiyali virtual laboratoriya ishlari, testlar, ta'limiy o'yinlar boshqa qo'shimcha ta'lim resurslari yaratilgan. www.eduportal.uz axborot-ta'lim portaliga barcha yaratilgan elektron axborot-ta'lim resurslar joylashtirilgan. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji – oddiy aloqadan tortib, to hamkorlikda ish olib borish qurilmalarigacha sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarildi. Internet, elektron pochta, mobil telefonlar va kishilarning o'zaro muloqotini ancha tezlashtirdi va osonlashtirdi.

Internet – bu jahon kompyuter tarmoqlari majmuidir. Yanada soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, jahondagi kompyuterlararo o'zaro aloqa o'rnatib, turli xil ma'lumotlar almashinishga imkon beruvchi yagona tarmoqdir. Oddiy matn, video, audio resurslar, turli dasturlar va boshqa ma'lumotlar nihoyatda katta hajmda shu tarmoq orqali almashiniladi, uzatiladi va qabul qilinadi. Ma'lumot olish va uni tarqatishda hozirgi kunda internet tarmog'i asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda.

“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasi talablarigako'ra, qonungaxilofravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta'sir ko'rsatishga, uni chalg'itishga yo'l qo'yilmaydi. [1.1] “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakat man etilishi belgilab qo'yilgan. [2.1] “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasi talablariga ko'ra, har bir voyaga yetmagan mushtariy ommaviy axborot vositalarida axloqiy va ma'naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborot olish huquqiga ega.

«Internet» soʻzi «xalqaro maʼlumotlar toʻri» degan maʼnoni anglatadi. Ammo bu nom ixtiyor qilinganidan keyin internetning tinmay rivojlanishi oqibatida u faqat maʼlumotlar taqdim va qabul qilish bilan cheklanib qolmay, bundan ham katta hajmdagi ishlarni olib borishga xizmat qiladigan boʻldi. Hayotning barcha sohalarida internet yordamida osonlik, arzonlik va tezlik foydalari koʻzlanadigan boʻldi. Tasavvur qilish uchun birgina misol keltirishning oʻzi kifoya qiladi, deb oʻylaymiz. Havo yoʻli bilan safarga chiqmoqchi boʻlgan inson oddiygina chipta olish uchun chiptaxonaga borishi, navbatda turib, chipta olishi, agar chipta u istagan kunga topilmasa, ortiga qaytib ketishiga toʻgʻri keladi. Xuddi shu ish internet orqali amalga oshirilsa, juda koʻp foyda koʻriladi, yaʼni uyda oʻtirib, chipta sotib olinadi, vaqti kelganda, aeroportda uchishdan oldin avtomatdan elektron chiptasini oladi. Bu ish avvalgisiga solishtirib koʻrilsa, vaziyat ayon boʻladi. Chiptaxonaga borib, ovora boʻlinmaydi. Navbatga turilmaydi. Ustiga-ustak, arzonga tushadi. Chunki chiptaxona binosi, chiptachi, binoni isitish, sovutish, yoritish uchun ketadigan, yoʻlkira va shunga oʻxshash xarajatlar tejab qolinadi.

Bungaoʻxshash foydalar juda koʻp boʻlib, biz keltirganimiz oddiy birmisol edi. Shuning uchun hozirda hamma xalqlar internetni rivojlantirish borasida qoʻlidan kelgan barcha choralarni koʻrmoqda. Bu ishga toʻgʻanoq boʻluvchi omillardan xalos boʻlish yoʻllarini axtarmoqda. Internetdan foydalanuvchilar kun sayin koʻpayib bormoqda. Internetda foydali maʼlumotlar bilan bir qatorda zararli maʼlumotlar ham tarqalmoqda. Aqiydaga putur yetkazuvchi, fohishabozlik va behayolikni targʻib qiluvchi, axloqsizlikni tarqatuvchi va shunga oʻxshash insonga or keltiruvchi ishlarni targʻib qiladigan saytlar afsuski koʻpayib bormoqda. Aynan Internet orqali nafaqat axloqiy buzuvchiliklar, balki siyosiy, ijtimoiy, moliyaviy, ilmiy va boshqa koʻpgina sohalarda ham jinoyatlar sodir etilmoqda. Shundan koʻrinib turibdiki, Internet ham ikki tarafdin – ham yaxshilikka, ham yomonlikka xizmat qilishi mumkin vositaga aylandi. Internetdan foydalanishdan oldin ish rejasini yaxshilab tuzib olish kerak. Har bir ishdagi kabi, internetdan foydalanishda ham yaxshilab tuzilgan reja asosida ish yuritish lozim.

Internetda chat, forum kabi oʻzaro aloqa olib borishga xizmat qiluvchi vositalar orqali kishilar bir-birlari bilan yozishma, soʻzlashma, suratli muloqotlar olib borish imkoniyatlariga ega boʻlishgan. Ular ushbu imkoniyatlarni ishga solib, maʼlumot almashish, yangi doʻstlar orttirish kabi koʻpgina manfaatlarga ega boʻlishadi.

Internetdagi ushbu tarmoqlar orqali vaqtni zoye qiluvchi koʻngilxushliklarga oid narsalar, ovozli va suratli yozuvlar tarqatilmoqda. Turli oʻyinlar va musobaqalar, targʻibot-tashviqot tadbirlari ham joriy qilinadi. Shuningdek, internetdagi ushbu tarmoqlar orqali ilmiy va moliyaviy

muomalalar ham keng miqyosda olib borilmoqda.

Texnologiyani kundalik hayotimizdagi vosita va yoki jarayonlarning ko‘p jihatlarni yaxshilash hamda soddalashtirishga qaratilgan qo‘llanish asboblari sifatida ta’riflash mumkin. Axborot texnologiyalari va qo‘l telefonlari xuddi shunday texnologiyalar sifatida qaraladiki, ular o‘zaro aloqalarni yaxshilash vositasi va axborotlarni olish vaqtini axtarishni qisqartiradilar. Internetning asosiy afzalligi shundaki, u millionlab kompyuterlar va boshqa elektron asboblarni o‘zaro bog‘lashga qodir bo‘lib, axborot va bilimlarni keng yoyilishini ta’minlab, xizmat ko‘rsatishni bir lahzada amalga oshiradi. Mazkur texnologiyalarning paydo bo‘lishi ko‘p afzalliklar qatori, afsuski, muayyan muammolarni ham kelib chiqishiga ham sabab bo‘ldi. Ulardan eng sezilarlisi havfsizlikka va kishilarning shaxsiy hayotiga tahdiddir. Ayniqsa aholining putur yetishi oson qismi bo‘lgan yoshlarga ta’siri ko‘proqdir. Negaki, ular o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘lgan sabablarga ko‘ra, eng ko‘p darajada shavqu zavq va tashabbus bilan mazkur texnologiyalardan foydalanadilar. Elektron makondan (jumladan, ijtimoiy tarmoqlardan) foydalanishning salbiy oqibatlari sifatida nafaqat odam savdosi va yoshlarni terroristik tashkilotlarga jalb qilish kabi tahdidlar ham mavjud.

Keyingi-yillarda ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar faqat O‘zbekistonda emas, balki xorijda ham olib borilmoqda. AQSH va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda mazkur kiber tahdidlarga qarshi qaratilgan va ularni oldini olishga mo‘ljallangan maxsus ta’lim dasturlari qabul qilinmoqda. «Kiber tahdid» istilohi ijtimoiy tarmoqlar bo‘lgan veb saytlar, tekst axborotlari, chatlar va forumlar uchun dasturiy vositalar (axborotlarni va fikrlarni ayriboshlash) va boshqa turdagi veb saytlarni qo‘llash vositasida elektron texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Ko‘p hollarda, yuqorida aytilganlardan tashqari, kiber tahdid taktikalari amaliyotida quyidagilar ham qo‘llaniladi:

Alanganlanish – qo‘rqinch, jahl, haqorat va boshqa salbiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaruvchi xabarlar;

Ta’qib qilish – davomli ravishda haqoratli va dag‘al xabarlarini to‘qib chiqarib, ularni tarqatish bilan qo‘rqitish;

Buhton – inson haqida unga ziyon yetqazish va uni obrusiga putur yetqazish maqsadida xabar tarqatish yoki uni nashr etish;

Taqlid qilish – o‘zining kimligini yashirgan holda boshqalarning akkauntini sindirish orqali ular qiyofasini buzib ko‘rsatish vositasida ularning obrui va havfsizligiga ziyon yetqazish;

Firibgarlik – kimnidir o‘zi biladigan qandaydir xabardan uni ham ogoh qilishga yoki tasvirlashga majburlab, uning roziligisiz keyinchalik bu xabarni

Internet orqali tarqatib yoki tekst xabari vositasidama'lum qilish;

Chiqarib tashlamoq – qurbonlarga nisbatan to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita ularni xafa qiladigan xabarlarni yuborish va unda shuni qayd etishki, ular ijtimoiy faoliyatning qismi emaslar, yoki ularga nisbatan dushmanlik va g'azab uyg'otish yoki bo'lmasa ularni boshqalar tomonidan surib chiqarish;

Kiber suhbatlar – qurbonlarga nisbatan to'xtovsiz ravishda qo'rqituvchi xabarlarni yuborish yoki ularning hayotlari xavfsizligiga va ularning qarindoshlari va yaqinlariga nisbatan tahdid qilish.

Ko'proq ko'ngildagidek foyda olish jihatidan ma'muriyat o'quvchilarga ularga muvofiq keladigan treningni tavsiya qilishi mumkinligi, bunda ham axborot texnologiyalari manbalaridan to'g'ri foydalanish ko'zda tutiladi. Agar yoshlarga tez-tez texnologiyalardan foydalanish siyosati bo'yicha treninglar o'tqazish tavsiya qilinsa yoki Internetdan foydalanishning xavfsizligiga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlansa, o'quvchilarning uni tushunishi osonlashadi va ular qayd etilgan protokollarga aniqroq rioya etadilar. Bundan tashqari, masalan, oldini olishning quyidagicha qo'shimcha choralarini qabul qilish mumkin.

Kiber tahdidga duchor bo'lgan o'quvchilarga shuni ma'lum qilishki, bunda ularning aybi yo'q va ular hamma vaqt xodimlarning yordamidan bahramand bo'lishiga umidvor bo'lishlari mumkinki, ular bilan trening o'tqazishlari yoki bunday hollarda nima qilishlari lozimligi yoki bo'lmasa yashirin psixolog yoki o'qituvchilarga murojaat qilishlari lozim;

Faol talabalar orqali yosh o'quvchilarga foydalanish qoidalarini maxsus axborot sessiyalari orqali yetqazish, bunda shuni qayd etish lozimki, o'quv yurtida barcha o'quvchilarga nisbatan madaniy munosabat mavjud bo'lib, barchaga hamma vaqt va har yerda onlayn meyorini qo'shgan holda hurmat ko'rsatiladi;

Kiber tahdidlarni oldini olish masalalarida tadqiqotchilar shuni tavsiya qiladilarki, internet xavfsizligi bo'yicha treninglar o'tqazish bilan chegaralanmaslik kerak. Negaki, ular muayyan mavzuda bir marta bo'ladigan ma'ruzalar kabi foydasi kam bo'lib, yoshlar ongida hamma vaqt ham qolavermaydi. Bunga qarama-qarshi holda ular shuni tavsiya etadilarki, ta'limning shunday yo'nalishini kuchaytirish kerakki, unda hayotiy ko'nikmalar, kitob o'qishning foydasi, ijtimoiy o'zaro faoliyat va emotsional holatlardan xabardor bo'lmoq lozim.

Umuman aytganda, ta'lim-tarbiya xodimlari, siyosatchilar va ekspertlar orasida shunday keng tarqalgan tushuncha mavjudki, ta'lim-tarbiya tizimi shunday talabalarni chiqarishi kerakki, ular asosiy o'quv mavzularidan yaxshi xabardor bo'lib, boshqalar bilan yaxshi ishlash qobiliyatiga ega

bo‘lib, o‘zlarining kasb qilib olgan ijtimoiy va his-tuyg‘uli ko‘nikmalarini namoyish etishga, sog‘lom xulq-atvorlarini amalda qo‘llab, atrofdagilarga nisbatan ma‘suliyatli munosabat va hurmat-e‘tiborda bo‘lishlari lozim.

Kengmiqyosdagi uzliksiz tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, foydali ravishda ijtimoiy va his-tuyg‘uli salohiyatga ega bo‘lish eng yaxshi o‘zlashtirishga hamroh bo‘lib, ko‘rsatilgan ko‘nikmalarga yetarlicha e‘tibor bermaslik turli xil shaxsiy, ijtimoiy va o‘quv muammolarining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ko‘plab klinik va oldini olishga qaratilgan yoshlar taraqqiyotiga doir tadqiqotlarning natijalari shunday ta‘sir o‘tqazuvchi deb atalmish dasturlarni ishlab chiqishga turtki berdiki, ular yoshlarni shu yo‘nalishdagi ijtimoiy va his-tuyg‘uli ma‘lumotlarini (IHM) davom ettirishga yo‘naltirilgan.

Xulosa qilib, shuni qayd etmoq lozimki, mashg‘ulotlar va tadbirlar bilan to‘la bo‘lgan talabalar xayoti na faqat kiber tahdidlardan havfsizlikni ta‘minlaydi, balki umuman noma‘qul xatti-xarakatlarni bartaraf etib, elektron makondan tashqari bo‘lgan jismoniy xayotdagi ko‘ngilsizliklarni ham oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-y., 1-son, 2-modda; 2015-y., 52-son, 645-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 2-son, 80-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 102-modda; O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 25-son, 287-modda; 51-son, 514-modda; 2008-y., 52-son, 513-modda

3. <https://lex.uz/acts/-1297315>

4. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D. & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions.

5. Finkelhor, D. (2014). Child Development, 82(1): 405–432 Commentary: Cause for alarm? Youth and internet risk research—a commentary on Livingstone and Smith (2014). Journal of Child Psychology and Psychiatry <http://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/jcpp.12260/full>

6. Gaiman N. (2013). Why our future depends on libraries, reading and daydreaming <https://www.theguardian.com/books/2013/oct/15/neil-gaiman-future-libraries-reading-daydreaming>

7. Williams L. (2015) Cyberbullying & Cyber Threats to Young People. <https://www.nonprofitrisk.org/resources/articles/cyberbullying-cyber-threats-to-young-people>.

MEDIALAR TALQINIGA YONDASHUVLAR

Ibraximov Barotjon Botirovich,
Namangan davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada turli mediamahsulot yoki timsolni tahlil qilishda tayanch sifatida xizmat qilishi mumkinligi, detallashtirilgan tahlilda esa medialarning aniq ko'rinishi tabiatini e'tiborga olish zarurligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Media, unsur, axborot, savodxonlik, mediamatn, xabar, axloq, material, mazmun, tahlil.

Media va savodxonligining tarkibiy unsurlaridan biri – medialar turli voqealar tarixini, axborotni qanday yaratilishini, omma uchun taqdim etilayotgan materialning qabuli qilinishi murakkab bo'lmasligi maqsadida qanday usullardan foydalanishni anglab yetish hisoblanadi. Muhimi, medialar qo'llaydigan turli uslub, kodlarni tushunish va talqin etish ko'nikmalariga ega bo'lishdir.

Media va axborot savodxonligiga ega bo'lish uchun medialarning timsol va reprezentatsiyalarini o'rganish, bunda nafaqat tasvir yoki matnni tahlil qilish, balki e'tibordan chetda qolayotgan kontekstni ham yoddan chiqarmaslik zarur.

Jamoatchilik fikrini yo'naltirish va jamiyat oldiga dolzarb masalalarni ko'ndalang qo'yish borasida kuchli hokimiyatga ega bo'lgan medialar ijtimoiy hayotni yoritishini va amalda biz kutadigan hamda qabul qilishga tayyor bo'lgan voqea va timsollarni taqdim etishini nazarda tutish zarur. [2:58.]

Mediamatnni tanqidiy tahlili jarayonida biz odatda unda qaysi siyosiy guruhning nuqtai nazari aks etganiga e'tibor qaratamiz. Jumladan, medialarning ta'siri kimning nuqtai nazari va qarashini ifoda etishida, nima haqida va qanday rakursda xabar berishida, nima haqida esa sukut saqlashida ham namoyon bo'ladi. Medialar o'z hukmronligini qanday axborot (masalan, yangiliklar)ni haqiqat sifatida taqdim etishi hamda qaysi mavzularni e'tiborsiz qoldirishida ham namoyon etadi.

O'smirlik davrida shakllanadigan abstrakt tafakkur mediamatnni tanqidiy va tahliliy o'rganishning asosi hisoblanadi. Axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq ikkilanish va savollar yoshlarda tabiiy ravishda yuzaga keladi: medialar va reklama bunday mushohadalar uchun cheksiz va xilma xil materiallarni taqdim etadi. Ushbu bo'lim medialar va ular tomonidan yaratiladigan timsollarning ta'siri masalasiga bag'ishlangan. Unda shuningdek, axborotning ishonchliligi bilan bog'liq masalalar ham

ko‘rib o‘tilgan. Bundan tashqari, unda media matnlarini tahlil qilish bo‘yicha amaliy tavsiya va maslahatlar o‘rin olgan.

Medialar axborotni turli uslubda taqdim etishi mumkin. Bizni o‘rab turgan madaniy muhit timsol va tasvirlarga juda boy: har kuni medialar tomonidan veb- saytlar, kino, yangiliklar va kitoblar orqali taqdim etiladigan axborot bilan to‘qnash kelamiz. Aksariyat hollarda bizning tanlovimiz beixtiyor bo‘ladi. Reportyor, muallif, tele va videotasvirchilar, noshir va kinoprodyusserlar aniq hodisa yoki aniq bir masalaga bag‘ishlangan axborotni taqdim etish uchun tasvir, ovoz va matndan foydalanadi. O‘z taxminlarini tayyorlash va ilgari surish asnosida ular vaqt, makon, resurs va h.k.ning yetishmovchiligi bilan bog‘liq muammolarga duch keladi. Shunday qilib, ular taqdim etishga harakat qilayotgan xabarning mazmuniga qarab, aksariyat hollarda asosiy qahramonlarning irqi, jinsi, yoshi yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan detallarni nazarda tutgan holda voqelarni “tasavvur etish” zarur bo‘ladi. [2:60.]

Jamoatchilik e‘tiboriga havola etiladigan kontent, shubhasiz, medialarda faoliyat yuritayotgan insonlar tomonidan tanlanadi. Ularning tanlovi esa subyektivlikdan xoli emas. Bu, o‘z navbatida, yorliqlar “yopishtirilishi”ga, ma‘lum bir tasavvurlarning jurnalist yoki muallifning o‘zi xoxlamasa-da, asoslashga olib keladi. Bundan tashqari, ba’zida o‘quvchi yoki tomoshabin tasvir yoki matndan unga muallif singdirmagan mazmunni ham chiqarib olishi mumkin.

“Yashirin ma‘noni o‘qish” uchun mediamatnlarda axborotni taqdim etishning texnik usullarini tahlil qila olish zarur. Bunda mazkur usullardan voqea-hodisa talqinining tayanch nuqtasi sifatida foydalanish mumkin bo‘ladi. Matnlarni diqqat bilan o‘qish axborot iste‘molchisiga voqea va syujetlar qanday tuzilganini hamda mediamexanizmlar qanday ishlashini anglab olish imkonini beradi. Ushbu bo‘limda mediamatnlarni diqqat bilan o‘qish metodikasini o‘zlashtirish yuzasidan ayrim model va mashqlar keltirilgan. Matnni tahlil qilish uchun muayyan nuqtai nazarni yoki uslubni tanlash foydalidir. U matnni tahlil qilishda o‘quvchining diqqatini yo‘naltirishga xizmat qiladigan muhim omildir.

Matn tahlilini boshlashda birinchi galda uni mavzu va reprezentatsiya qilinishi usullari jihatidan o‘rganish zarur. Tahlil jarayonida qaydlar yuritib borish va quyidagilarga e‘tibor qaratish tavsiya etiladi:

- tasvir, tovush va matndan qanday foydalanilgan?
- qaysi mavzu nisbatan qiziqarli tarzda taqdim etilgan? [2:60.]

Mediamatn tarkibini aniqlash uni tasniflash, shakli- tuzilishi jihatidan miqdori va sifatini baholash kabilarni nazarda tutadi. Shuningdek, axborotni taqdim etishning turli usulini, masalan, metaforalarni ham e‘tibordan

qochirmaslik zarur. Shundan so‘ng bevosita tahlil bosqichi boshlanadi. Ushbu bosqichda kuzatuvlar mazmunini mushahada qilish zarur bo‘ladi. Masalan, quyidagi savollarga javob izlash mumkin bo‘ladi:

- matnda kimning nuqtai nazari markaziy hisoblanadi?
- voqeaning “ma’nosi” nimada? U qanday taqdim etilgan?
- qanday axborot mavjud emas?

Yuqorida ko‘rsatilgan savollar turli mediamahsulot yoki timsolni tahlil qilishda tayanch sifatida xizmat qilishi mumkin. Detallashtirilgan tahlilda esa medialarning aniq ko‘rinishi tabiatini e’tiborga olish zarur.

Jurnalistlar axborot xilma-xilligi sharoitida to‘g‘ri yo‘nalish olishi, uni yorqin va ifodali tarzda taqdim etish masalasini ham hal etishlari zarur bo‘ladi.

Bu, o‘z navbatida, muhokama etilayotgan masalalarni to‘g‘ri tushunish va anglash borasida har xil qobiliyatga ega bo‘lgan turli auditoriya vakillarini e’tiborga tutgan holda amalga oshiriladi. Mazkur vakillar qabul qiladigan qarorlar, yangiliklarda yoritishga loyiq bo‘lgan voqeani hamda axborotni taqdim etish usulini tanlashga ham taalluqli bo‘ladi. Ushbu usullar tabiiy ravishda jurnalist tajribasi va dunyoqarashini ifoda etadi. Shu bois auditoriya bu haqda tasavvurga ega bo‘lishi va uni tanqidiy qabul qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yangiliklarning tartibi quyidagicha tuziladi:

1) medialar ko‘plab voqea-hodisalar orasidan o‘zlari relevant deb hisoblaganini tanlab oladi. Auditoriya uchun u qadar qiziq emas, deb hisoblangan voqealar esa chetga surib qo‘yiladi;

2) muayyan yangilik uchun ajratilgan vaqt va makon turlicha bo‘lishi mumkin;

3) aynan medialar qaysi voqea-hodisa boshqalarga nisbatan muhimroq ekanini belgilaydi va yangiliklar tartibini shakllantiradi;

4) insonlar medialar belgilab bergan ustuvorliklar izchilligini o‘zi belgilagan sifatida qabul qiladi. [2:61.]

Yangiliklar – dunyoda sodir bo‘layotgan muhim voqea va hodisalar haqida ma’lumot olish mumkin bo‘lgan xabarlar. Yangilik faqat voqeani tasvirlashdan iborat, degan tasavvur dunyoni holis tasvirlash, voqelikni tipografiya bo‘yog‘i va baytlar vositasida ko‘rsatish mumkinligi haqidagi taxminga asoslangan. Garchi yangiliklar jurnalistikasi holis va betaraf bo‘lishga intilayotgan bo‘lsa ham, yangilik matnining yozilishi, unda bayon etilayotgan nuqtai nazarni va uni taqdim etish usulini tanlash jurnalist tomonidan amalga oshirilishini unutmazlik zarur. Yangiliklar matni va dasturi ham ma’no va voqelikni shakllantiradi. Xatto yangilik uchun mavzu tanlash ham ahamiyatga ega: masalalardan biri yoritishga loyiq, boshqasi esa noloyiq deb topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.В.Федоров. Медиаобразования и медиаграмотность. Учебное пособие. М. 2018 г
2. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жиҳатлари. Ўқув-амалий қўлланма. - Extremum-press, 2017-142.б
3. Н.С.Қосимова. Интернет журналистиканинг технологик асослари. Ўқув қўлланма. -Т.: 2012
4. Я.Маматова, С.Сулаймонова. Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Ўқув қўлланма. Extremum-press, 2015-94. Б
5. Б.Б.Ибрахимов. Политические условия демократии и общественное доверие. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2021 № 4 646-652 с

YOSHLARDA AXBOROT PSIXOLOGIK XURUJLARGA QARSHI IMMUNITET SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Zulfiya Komilova,

“University of economics and pedagogy”

NOTM o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda jamiyatda ro‘y berayotgan informatsion xurujlar, ularning oqibatlari va mafkuraviy immunitet hosil qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim tizimi, ma’naviyat, internet tarmog‘i, tahdid, axborot xurujlari

Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlar jamiyat va davlat xamda uzliksiz ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bulardan biri respublikamiz fuqarolarini va yoshlarini axborot psixologik xavfsizligini ta’minlash muammosidir. Mamlakatimizda axborot jamiyatini shakllanishi, axborot erkinliklari, axborot ko‘lamining ortib borishi, birinchi navbatda axborot psixologik xavfsizligi tahdidini keltirib chiqarmoqda.

Yoshlarning ma’naviy sog‘lomlik darajasi, jismoniy yetukligi, har bir ishga ogoh va fidoyi bo‘lishi jamiyat taraqqiyotida g‘oyat muhimdir. Ushbu fikrlar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlar asarlarida alohida ta’kidlanadi. Shu o‘rinda ulug‘ alloma Abu Rayxon Beruniy merosidagi ayrim fikrlarga e’tiborni qaratmoqchimiz. “Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg‘onlik tusini oladi. Chunki, odamlarning maqsadlari xilma-xil xalqlar o‘rtasida tortishish

va talashish ko‘p. Shunday kishilar ham bo‘ladiki, ularning tabiatiga yolg‘on xabar tarqatish o‘rnashib qolib, go‘yoki unga shu vazifa yuklangandek bo‘ladi va xabar tarqatmasdan tinchiyolmaydi. Bu yomon xohishlardan va tabiatiga buzuq fikrlarning joylashganligidan kelib chiqadi”.

Globalashuvning avj olishi millat “chegaralarini” yo‘q qilib yubormoqda, ommaviy ma’naviyatni shakllantirishga olib kelmoqda. Buning natijasida har bir millatga xos bo‘lgan urf-odat, an‘ana, qadriyatlar o‘z ahamiyatini “yo‘qota” borish xavfi yuzaga kelmoqda. Bu millatning ma’naviy qashshoqlashuvi sodir bo‘lishga, ularning o‘zligini anglamaydigan manqurtlariga olib keluvchi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot globalashuvi va yoshlar ma’naviyati, har qanday axborot oqimining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri, zararli axborotlar tahdidi xususida so‘z yuritganimizda avvalo bu masala zamirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutishimiz lozim. Zero bu mavzuda so‘z yuritar ekanmiz avvalo ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi: birinchisi axborot oqimi-mafkuraviy tahdid; ikkinchisi – yoshlar ma’naviyati, ya’ni turli xildagi axborotlarga nisbatan yoshlarimizda shakllangan immunitet masalalaridir.

Bugungi zamon globalashuvi jarayonida kimki axborotga egalik qilsa, o‘sha dunyoga hukmronlik qiladi, degan ibora bejiz paydo bo‘lgani yo‘q. Darhaqiqat, hozirgi kunda yadro quroli ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda 20 ga yaqin davlatda harakatlar davom etayotgan bo‘lsa, 120 ga yaqin davlat esa axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib bormoqda. Ular buning uchun hatto million-millionlab dollar mablag‘ sarflashdan ham tap tortishmayapti. Ayniqsa, ma’naviy tahdidga, yoshlar ongini egallashga qaratilgan axborot xurujlari avj olsa olaptiki, aslo pasaymayapti. Ba’zi bir g‘arazli kuchlar tomonidan bu borada turli usul va uslublardan foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa, axborot xurujlarining yolg‘on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetga mutlaqo yot bo‘lgan begona qadriyatlarni targ‘ib etish, xalqning tarixiy xotirasini buzish va o‘zgartirish, kiberterrorizm kabi turlari keng tarqalmoqda. Eng achinarlisi, yosh avlodning 90 foizi asosiy axborot manbai sifatida “o‘rgimchak to‘ri” deb nom olgan internet tarmog‘iga murojaat qilmoqda. Albatta, bu tarmoqning qulay axborot manbai ekani, istagan narsangizni undan bir zumda topa olishingiz mumkinligi, soniyalar ichida dunyoning narigi chekkasi bilan bog‘lanish imkoniyati mavjudligi muhim omil. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bu cheksiz in’omidan o‘z g‘arazli manfaatlari yo‘lida foydalanuvchilar soni ham ortib borayotganidan ko‘z yuma olmaymiz. O‘zbekistonda ham internetdan foydalanuvchilar soni kun sayin o‘sib, hozirgi paytda 10 milliondan oshgani, ularning aksariyati yoshlar ekanini hisobga olsak, bu holat barchamizni yanada ogoh va sergak bo‘lishga undaydi.

Darhaqiqat, bugun global axborot makoniga real ko‘z bilan qararak, jamoatchilikni xavotir va tashvishga solib kelayotgan muammolardan biri, shubhasiz, axborot makonida nosog‘lom manfaatlar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ta‘siridagi agressiv, milliy axborot makonimizga, ma‘naviy qadriyatlarimizga va barkamol avlodni tarbiyalashdek ezgu g‘oyamizga mutlaqo zid bo‘lgan axborotlar oqimining kirib kelayotganidir. So‘ngi-yillarda axborot sohasi liberallashtayotgan bir paytda, uzoq va yaqin mintaqalardagi turli xil siyosiy, mafkuraviy va boshqa kuchlar o‘zlarining chirkin manfaatlarini yo‘lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanib, axborot erkinligini suiiste‘mol qilib, axborot tahdidlari orqali hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagani farzandlarimizni chalg‘itish, ularning ongi va qalbini egallash yo‘lidagi harakatlarni kuchaytirayotgani sir emas. Shunday ekan, bugungi yoshlarimiz hamma sohaga qiziquvchan, yangiliklarni bir zumda o‘zlashtirib oladigan, har qanday axborotni tez qabul qiladigan xislatlarga egaligini hisobga olib, ularni turli manbalardan, yot maqsadlarni ko‘zlab tarqalayotgan axborotlardan munosib himoyalay olishimiz darkor.

Milliy qonunchiligimizda yoshlarni nosog‘lom axborotlardan himoyalash mexanizmlari mavjud. Misol uchun, “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlar orasida odob-ahloqni buzishga, shu jumladan, zo‘ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ‘ib qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda esa behayolik, shafqatsizlik va zo‘ravonlik haqida hikoya qiluvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta‘sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishlariga sabab bo‘luvchi adabiyotlarni tarqatish, filmlarni namoyish etishning taqiqlanishi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, davlat idoralari, fuqarolik institutlari, jamoat tashkilotlarining aholi, ayniqsa, yoshlar bilan muntazam muloqotda bo‘lishlariga erishish, internet tarmog‘ini milliy qadriyat va an‘analarimizni o‘zida aks ettiruvchi veb-saytlar bilan boyitish, ta‘lim muassasalarini internet tarmog‘iga ulashda odob-ahloq qoidalariga muvofiq bo‘lmagan veb-saytlardan foydalanishga cheklovlarni joriy etish, yoshlarda axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur. Aholining xolis va haqqoniy axborotga ega bo‘lishini ta‘minlash-, har bir fuqaro tafakkurida mafkuraviy immunitetning shakllanishiga sharoit yaratish, g‘oyaviy muxoliflarimizning harakatlariga qarshi ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibotni kuchaytirish, voyaga yetmagan yoshlarga oid milliy qonunchiligimizga ma‘naviy tahdidlar, axborot xurujlarining oldini olishga qaratilgan zarur o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritish darkor.

Shunday ekan, yoshlarimiz ongini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlarimizga raxna solishga, ma‘naviyatimizga tajovuz qilishga, umrimiz mazmuni bo‘lgan tarixiy xotiramizni buzishga urinayotgan

g‘arazli kuchlarga qarshi doimo ogoh turishimiz darkor. Ana shundagina bizni hech kim, hech narsa o‘z tanlagan yo‘limizdan ortga qaytara olmaydi va biz ko‘zlagan ulug‘vor maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Xulosa qilib shuni alohida takidlash lozimki yoshlarda zararli axbortlarga qarshi kurashishni bir usuli sifatida biz tanqidiy fikrlashni yoshlar ongida shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 6 fevraldagi Farmoni // Xalq so‘zi gazetasi. – 15.02.2014. – №139.

2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. 2007.

3. Samarov R., Nazarov D. Terrorizm - ma‘naviy mahdudlik oqibati “Jamiyat va boshqaruv”. – 2006, №1.

VIRTUAL O‘YINLARGA QARAMLIK VA ULARGA QARSHI KURASH

Xaydarova Dilorom Abduxamidovna,
*Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq
ta‘limi kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Virtual o‘yinlarning mazmun mohiyati, ularning ommalashuvi sabablari va xatarlari, yoshlar ongini zaharlab, ularni manqurtga aylantirayotgan kompyuter o‘yinlari naqadar xavfli ekanligi, bugungi kunda farzandlarimiz kompyuter o‘yinlariga muhtalo bo‘lib, undan ajralolmay, mute bo‘lib qolayotgani bayon etiladi. Ba‘zi farzandlar kundan-kunga kompyuter o‘yinlari qullariga aylanib borishayotgani ta‘kidlanadi. Bunday o‘yinlarning salbiy oqibatlari faqatgina farzandlarimizning ruhiyati bilangina emas, balki ularning jismoniy holatlariga ham xavf solayotgani hayotiy vaqealar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlari: virtual, vizual, kompyuter, zo‘ravonlik, tafakkur, faxsh, shavqatsizlik, multfilm, igromaniya

Ta‘lim sohasining mutaxassisi sifatida davrimiz kichkintoylarining kompyuter dasturlari va mobil telefonlari funksiyalarini juda tez o‘zlashtirib olishlarini ko‘rib, hayratlanganlarni ko‘p uchratamiz. Kompyuter o‘yinlarini bir ko‘rishdayoq tushunib olgan va berilib o‘ynayotgan bolakaylar kattalarni

ham hayron qiladi, ham tashvishga soladi. Shunday bo'lsada, ko'pchilik farzandlariga go'daklik chog'idayoq elektron o'yinchoq olib beradi. O'yinchoq do'konlarda turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bunday o'yinchoqlar bugungi kunda yurtimizning istalgan nuqtasidan topish mumkin va talaygina. Zamonaviy axborot texnologiyalari, eng so'nggi turdagi kompyuterlar bugun ko'pchilikning uyidan joy olgan, ulardan voz kechib bo'lmaydi. Chunki, virtual olam odamni, ayniqsa, yoshlarni ohangraboddek o'ziga tortmoqda. Eng so'nggi turdagi texnik vositalarni puxta o'zlashtirib, zamon bilan hamnafas bo'lib bormoq kerak, aks holda, taraqqiyotdan ortda qolib ketish hech gap emas. Ammo tanganing ikki tomoni bo'lganidek, zamonaviy texnologiyalarning ham salbiy oqibatlarini bo'lishi mumkinligini unutmaslik lozim. Virtual olamda bolalar ruhiy holati hamda kompyuter qarshisida kattalar kabi o'zini tutishi nomoyon bo'lgan. Ming afsuski, bolalar o'zlarining beg'ubor va takrorlanmas bolalalik degan bebaho dunyosini virtual olamga almashtirib qo'yimoqdalar. Qanday bo'lmasin, bir narsa aniq: kompyuter o'yinlariga qaramlik mavjud, bu fantastika emas va mavjud bo'lmagan muammo atrofidagi shov-shuv emas. O'yinchilarning o'zlari uchun o'yin haqiqiy muammolarga olib keladigan haqiqatdir. O'yin siz chiqish joyini topishingiz mumkin bo'lgan dunyoni yaratadi, shu bilan birga u hayotga aralashadi va odamni pariyaga aylantiradi – o'yinchi kompyuter o'yinlariga ko'p-yillik qaramlikdan keyin aynan shunday bo'lib qolish xavfini tug'diradi. Nima qilish kerak? Kompyuter o'yinlariga qaramlikni qanday oldini olish mumkin? Najotni qayerdan izlash kerak? Davosi bormi? O'yin kompyuteriga qaramlikni qanday aniqlash mumkin? Bu savollarga javob berishdan oldin, quyidagilarni bilib olaylik.

1. Kompyuter o'yinidan chalg'itishni istamaslik;
2. O'yindan majburiy chalg'itish bilan tirnash xususiyati;
3. Eyforiya yoki shunchaki kompyuterda va o'yin o'ynashda o'zingizni yaxshi his qilish;
4. O'yin seansining oxiri va kompyuterda o'tkaziladigan vaqtni rejalashtirmaslik;
5. Kompyuterda o'yin davomida uy va ish vazifalari, o'qishlar, kelishuvlar, rejalashtirilgan uchrashuvlar haqida unutish;
6. Qurilmalar va kompyuter dasturlarini doimiy yangilashni ta'minlash uchun katta pul mablag'lari;
7. Uyquga, gigienaga, sog'likka e'tibor bermaslik, o'yinda imkon qadar ko'proq vaqt sarflash foydasiga;
8. Oddiy ovqatlanishdan bosh tortish, kompyuter oldida tartibsiz, monoton ovqatlarning mexanik "so'rilishini" afzal ko'rish;

9. Psixostimulyatorlarni suiiste'mol qilish: kofe, turli energetik ichimliklar;

10. Hech bo'lmaganda biror narsani tushunadigan har bir kishi bilan kompyuter o'yinini muhokama qilishning obsesif istagi.

O'yinlarning salbiy oqibatlari farzandlarimizning ruhiyatiga ham ta'sir qilmoqda. Kompyuter nuri nafaqat bolalarni, hatto kattalarni ham ruhan, ham jismonan toliqtiradi. Afsuski, bola kerakli fiziologik quvvatni texnika yonida soatlab o'tirishi natijasida yo'qotadi. Bola organizmi o'sishni istaydi, lekin kuchi yetmaydi. Shundan u so'lg'in, ruhan jizzaki, odamovi bo'lib qoladi. Bolalar uchun kompyuter o'yinlarining zarari ayniqsa sezilarli bo'lib, ular orasida o'smirlar alohida xavf guruhidir. Bir necha kun ichida ularning mo'rt ruhiyati o'yinlarning salbiy ta'siriga berilib ketadi va ota-onalar farzandini kompyuterdan qanday uzib qo'yish kerakligi haqidagi o'tkir muammoga duch kelishadi. Bolalarning ko'p vaqtlarini kompyuter olamiga bag'ishlashi ularning organizmida ba'zi fiziologik o'zgarishlarga, hatto jiddiy kasalliklarga olib kelishi hech kimga sir emas. Tezda holdan toyish, umurtqaning qiyshayish holatlari, bosh miya va tanada qon aylanishining buzilishi, ruhiy toliqish va tez asabiylashish holatlari kuzatiladi. Eng asosiysi, insonning ko'rish qobiliyati pasayadi. Kompyuter o'yinida g'alabaga intilayotgan bola o'z maqsadiga erishmaguncha soatlab harakat qiladi. Bu undagi xudbinlikni (egoizm) kuchaytiradi. Televizor yoki kompyuter ekranidan chiqayotgan sun'iy nur bizning ko'zimizga zararli ta'sir etadi. Eng xavflisi – bolalarning qiziqish doirasi torayadi, o'zining shaxsiy olamini yaratishga intilish hamda real borliqdan uzoqlashish hollari vujudga keladi. Kattalarning gapi, nasihati ularga xuddi ortiqcha gapdek tuyuladi va qanday bo'lmasin o'z so'zini o'tkazishga harakat qilishadi. Atrofdagilarga bemehr bo'ladi. U o'yinda dushmani o'ldiradi. Natijada hayotda odamlarga befarq bo'lib qoladi. Ularga maxluq sifatida qaraydi. Internet klublarida yoshlar ayni o'qib ilm hosil qiladigan paytlarida vaqtlarini bekorchi o'yinlarga, ijtimoiy tarmoqlarda mutloqo notanish shaxslar bilan tanishishga sarflayotgani tashvishli holat albatta. Shuning uchun, kompyuter o'yinlariga qaramlikni davolashning faqat bitta usuli bor - bu oson emas. Ovozli odamni faqat uning ichki savollariga javob berish orqali o'yindan chiqarib tashlash mumkin “nima uchun?” va yana nima uchun?” Aytgancha, siz qaram odamni kompyuter o'yinlaridan bir necha daqiqada chalg'itishingiz mumkin, shunchaki u bilan hayotning ma'nosi mavzusida suhbatni boshlash va uning bu boradagi fikrlarini diqqat bilan tinglash. Va u, albatta, ularning ko'piga ega bo'ladi va ularning ko'pchiligi yomon va tushkunlikka tushadi, bu tushkunlikka tushgan ovoz muhandisi uchun ajablanarli emas. Ammo uning e'tiborini savollar bilan jalb qilish, uni “o'lja” bilan bog'lash, bu javob mavjudligini aniq ko'rsatish

orqali siz uni asta-sekin qimor o‘yinlari chuquridan chiqarib, boshqa hayotga olib borishingiz mumkin. Kompyuter o‘yinlariga qaram bo‘lgan odam virtual haqiqatda yashaydi, faqat vaqti-vaqti bilan oflayn rejimga o‘tadi. Ayniqsa, o‘quvchi yoshlar uchun bilim olish, maktabga borish, sport bilan shug‘ullanish, uy ishlariga qarashish kabi vazifalar ikkinchi darajali bo‘lib qoladi. Bu esa yoshlarning aqlan va jismonan rivojlanishiga salbiy ta‘sir etmay qolmaydi. Jumladan yurtimizda Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart” degan hayotiy da‘vat har birimizning ota-onalar va keng jamoatchilik ongi va qalbidan mustahkam o‘rin egallagan.[1] O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma‘naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Jumladan Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi. Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta‘kidladi Prezidentimiz.[2]Jumladan, yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini singdirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi. Bularning barchasi yoshlarning virtual olamdan oqilona foydalanishiga zamin yaratmoqda.

Xulosa Inson ilm, aql, tajriba va farosatda boshqalardan ustun bo‘lishi kerak. U ishlarning qaysi biri foydali, qay biri zararli ekanini oldindan ko‘ra bilishi lozim. Agar siz kompyuterda uzoq vaqt o‘tirsangiz, o‘yin o‘ynasangiz, individualligingizni yo‘qotishingiz mumkin. Kam miqdordagi kompyuter o‘yinlari hayotni yanada qiziqarli qiladi, aksariyat hollarda ular yashash istagini yo‘q qiladi Agar siz doimo virtual haqiqatda yo‘qolib qolsangiz, siz kimnidir xursand qilishingiz mumkin emas. Siz birinchi navbatda o‘zingizni

baxtli qila olmaysiz. Shuning uchun, har bir narsada oltingugurtni ko‘rishingiz kerak, va haddan oshmang, chunki bundan yaxshi narsa bo‘lmaydi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘yinlarning zarari asosan uzoqdir. Agar siz o‘yinga o‘yin sifatida qarasangiz, u jiddiy xavf tug‘dirmaydi. Aksincha, oqilona yondashuv bilan u sizga foydali narsalarni ham o‘rgatishi mumkin. Ammo o‘ynab, haqiqiy dunyo haqida unutib qo‘ymang. Bu har qanday virtual olamga qaraganda ancha qiziqarli va hayratlanarlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev “ Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent, O‘zbekiston.2016-yil 13 bet
2. Shavkat Mirziyoyev Itimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqi 15 iyun MAnba: O‘zA
3. Ixtisoslashgan jurnalistika. (ilmiy-ommabop nashr), J.9, –T., “O‘zbekiston” NMIU., 2019. -784 b.
4. Nazira Qurbon, Karim Bahriyev Zamonaviy bosma OAV muommolari: xalqaro va milliy tajriba Toshkent “O‘zbekiston” 2020.
5. Nargis Qosimova, Xilola Fayzullayeva “ Media etika”
6. Internetdagi tahdidlardan himoya Muhammad Amin Yahyo 2016

YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIGA IJTIMOIY TARMOQLARNING TA’SIRI

Nazarov Ravshan Nazarovich,

Osiyo texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada yoshlar dunyoqarshining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri, jamiyat hayotidagi tutgan o‘rni va roli hamda ijtimoiy tarmoqlar ijobiy va salbiy tomonlarining shaxs ma’naviy qiyofasiga ta’siri tahliliy asosda o‘rganilgan. Shu bilan birgalikda, axborot olishning ahamiyati, axborotlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatish borasida shakllangan qarashlar turli jihatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiy tarmoq, axborot xurujlari, buzg‘unchilik, qabih maqsadlar, axloqsizlik, ma’naviyatsizlik va madaniyatsizlik, loqaydlik, axborot urushi, ma’naviy tahdid.

“Farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan

o‘tgan, yuksak ma’naviyat manbai bo‘lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida yemas, balki biz uchun yot bo‘lgan g‘oyalarni yoshlarimiz ongigi singdirayotgan zararli axborotlar asosida shakllanishiga men mutlaqo qarshiman”.[1]

Bugun hayot tez suratlarda shakllanib tobora rivojlanib bormoqda, bunda esa ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni benihoya katta ahamiyatga ega. Ayni paytda yoshlar dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ham sezilarli darajada ko‘zga tashlanib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar dunyoqarashiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir qilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan ijobiy jihatlariga qaraydigan bo‘lsak, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni ma’lum bir qobiqqa o‘ralib qolimaslikka xizmat qilsa yana bir jihati esa o‘z fikrini dunyoqarashlarini bemalaol bayon qilishga xizmat qiladi.

Bugun dunyoda jadallik bilan rivojlanib kelayotgan axborot texnologiyalaridan yer yuzidagi deyarli barcha insonlar foydalanib kelmoqda. Bir tomondan bu yutuqlarning yoshlar dunyoqarashiga balki butun insoniyat rivojiga ulkan hissa qo‘shib kelayotgani bo‘lsa, ikkinchi tomondan insoniyatning milliy ma’naviyatiga va urf-odatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, kelinayotganligi bilan alohida ajralib turadi. Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki ijtimoiy tarmoqlar axborot xurujlarining rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning aksariyat qurbonlarini yoshlar tashkil qiladi. Chunki ular bu jarayonlarda eng faol hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ishlar osondek tuyuladi va buning ta’siriga tushib qolayotganlarning aksariyatida turli xil buzg‘unchilik, qabih maqsadlar, axloqsizlik, ma’naviyatsizlik va madaniyatsizlik kabi illatlar ko‘payib, jamiyatda tartibsizliklar kuchayib, bormoqda. Bundan tashqari terroristik harakatlarini keng targ‘ib qilishga ijtimoiy tarmoqlar juda qulay va samarali vosita hisoblanadi. Shunisi juda achinarliki yoshlar umuman loqayd bo‘lib bormoqda.

“Loqaydlik tobora kuchayib, sekin –asta ijtimoiy ahamiyat kasb etishi ham mumkin. Kecha bolasining axloqsizligiga indamagan ota bugun jamiyat a’zolarining jinoyatlariga ham ko‘z yumushi, o‘g‘lining odob – axloqi haqida qayg‘urmagan oila boshlig‘i bugun ayrim yurtdoshlarining adashgan oqimlar, missionerlar tuzog‘iga osongina ilinayotganiga beparvo bo‘lishi mumkin”[2].

Bugungi globallashuv jarayonlarida ma’naviy tahdidning xavfli jihati tobora ortib bormoqda. Ma’naviy tahdid umuman olganda til, din, millat tanlamaydi u hamisha ma’aviyati qashshoq, dunyoqarashi tor bo‘lgan kishilarni o‘z domiga tortib keladi. Internet tarmoqlari esa bu boradagi juda qulay, arzon va oson vosita hisoblanadi. Har qaysi millatning milliy

ruhini, qadriyatini, urf–odatini va eng muhimi milliy ma’naviyatini yo‘qotsa, u millatni o‘zligidan ayirsa o‘sha jamiyatda o‘zining g‘arazli niyatlarini bemalol amalga oshirishga imkoniyat yaratiladi. Lekin bunday salbiy jarayonlarga qarshi insonlarning ma’naviy olamini boyitib borish juda muhim vazifa hisoblanadi. Bunda esa oilaning o‘rni juda katta I.A.Karimov ta’kidlaganidek “Hammamizga ayon bo‘lishi tabiiyki, oila sog‘lom ekan – jamiyat musahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir”[3]. Shuning uchun ham milliy ma’naviyatni oilalar rivojlantirib kelgan. Bunday salbiy hodisalarni oldini olish uchun eng avvalo oilalarda milliy ma’naviyatga bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakillantirish kerak bo‘ladi. Globallashuv jarayonlarida axborot xurujlarining tobora kengayishi natijasida yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik darajasining yuqorligicha qolayotgani achinarli hol bo‘lib qolmoqda. Bunday holatga sababchi bo‘lib qolayotgan omil sifatida, odamlarning aksariyatida eski tafakkur qoliplaridan voz kechmayotganligi bilan bog‘liq bo‘lgan hodisadir. Mamlakatimizning birinchi prezidenti bu boradagi ishlar haqida ma’lumot berib o‘tganlar “O‘zining shakshubhasiz haqliligiga, haqiqatni faqat o‘zi bilishiga ishonch hissi so‘ngi choralarga – zo‘ravonlik harakatlariga moyilligibilan ajralib turadigan diniy ekstemizmning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi”[4] Bundan ko‘rinib turibdiki jamiyatimizdagi barcha insonlarni milliy g‘oyaga, milliy ma’naviyatga, milliy qadriyatga va milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan munosabatlarini, his tuyg‘ularini shakillantirish eng ustuvor maqsadlarimizdan biri bo‘lishi shart. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida global tahdid tobora kuchayib bormoqda. Buning oqibatida “Ommaviy madaniyat” ning ham rivojlanib borayotganligi achinarli hol bu esa axborotlashgan jamiyatda internet vositalarining o‘rni juda katta. Bu bevosita milliy ma’naviyatga juda katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Muxtasar aytganda, hammamizga ayon bo‘lishi tabiiyki, oila sog‘lom ekan–jamiyat musahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir. Biz oldimizdagi eng oily maqsadimiz barcha ma’naviy tahdidlar va barcha axborot xurujlariga qarshi kurash olib borishimiz uchun bizda mafkuraviy immunitet shakilangan bo‘lishi shart.

Ma’lumki bugun axborotga egalik qilish axborotni izlab, topib, yaratib ,tahlil etib, tarqata biladigan odam dunyoga ham egalik qiladi degan qarash haqiqat darajasiga ko‘tarilgan. Ammo aksariyat holatlarda ular ijobiy emas aksincha salbiy maqsadlarda foydalanib kelmoqda. Axborot izlab topuvchilar , yaratib tarqatuvchilar o‘z manfaatlari uchun qabih maqsadlarini amalga oshirib kelishyapti. Bu – dunyoda “Axborot urushi” demakdir. “Axborot urushi” u o‘zi nima? U shunday narsaki ijtimoiy tarmoqlarga turli xil o‘yinlar orqali insoniyatning ma’naviy olamiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Axborot olamida Fleshmob degan tushuncha tez-tez uchrab turadi. Bu

soʻzning lugʻaviy maʼnosi “lahza” “olomon” degan maʼnoni anglatadi. Bundan koʻrinib turibdiki butun olomon orqali hammani tahlikaga solib qoʻyish, olomon orqali turli maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari internet vositalarida turli xil kinolar ishlab charilmoqda bu esa yoshlar ongini va qalbini turli xildagi yod gʻoyalar bilan toʻldirish orqali ham milliy maʼnaviyatga juda katta taʼsir koʻrsatadi. Afsuski internet tarmoqlari orqali uzatilayotgan va targʻib qilinayotgan kinolarning koʻpchilligi insonlarning xulqiga, maʼnaviyatiga, madaniyatiga va albatta axloqiga taʼsir koʻrsatib kelayotganligi hech kimga sir emas. Buning natijasida yoshlarda xudbinlik kayfiyati shakillanib qolmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar dunyoqarashiga turlicha taʼsir koʻrsatadi. Jamiyatda shaxslarning dunyoqarashi turlicha va xilma – xil koʻrinishga kelib qolayotganligi bilan ham izohlash mumkin. Bu esa oʻz navbatida turli muammolarni keltirib chiqarishga xizmat qilib kelmoqda. Masalan: hamma oʻzini aqlli deb bilishi; oʻzaro hurmat tushunchalarining yoʻqolib borishi; oʻzini hammadan ustun deb bilishi; hamma oʻzini haq deb hisoblashi; kabi salbiy muammolar yuzaga chiqayotganligini kuzatish mumkin. Bundan koʻrinadiki, “manmanlik” kabi salbiy jarayon yuzaga kela boshlaydi va shaxs oʻzining “men”ini hamma narsadan ustun qoʻya boshlaydi. Bunday jarayonlarda millat gʻururi, shaʼni, qadr-qimmatini hattoki millat tili ham hech qanday ahamiyat kasb etmay qoladi. Jamiyatda tilga boʻlgan eʼtibor nihoyatda ahamiyatsiz koʻrinishga kelib qoladi. Bu esa oʻz navbatida jamiyatning porakanda boʻlishiga asos boʻlib xizmat qiladi va buning natijasida shaxs maʼnaviyatida beqarorlik vujudga kelib qoladi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy tarmoqlarning juda koʻp koʻrinishlari paydo boʻlib borayotganligi yoshlar dunyoqarashiga juda katta taʼsir koʻrsatayotganligini koʻrishimiz mumkin. Buning natijasida maʼnaviy qullik va dunyoqarashning nihoyatda torayib borishi va bunda inson oʻzining butun umri mobaynida, oʻz oldiga qoʻygan maqsadlariga erishishda oson va hech qanday maʼsuliyat hissini bilmasligi bilan izohlash mumkin. Aslida inson oʻzini qurshab turgan ijtimoiy va tabiiy muhit taʼsirini his etib, turishi shart. Boshqacha aytganda, oʻzining kamol topish jarayonida u doim ham subʼekt, ham obʼekt ekanligini his qilib turishi hamda jadallik bilan rivojlanib kelayotgan dunyoda ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishi talab etiladi. Bu shaxsning oʻz imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishi va hayot mazmunini izlashi bilan bogʻliq boʻlgan yana bir muhim falsafiy muammo yuzaga kelishini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoev. Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq. Simpoziumlar saroyi. 2016-yil 24-noyabr.

2. Aydarbek Tulapov “Internetga in qurgan o‘rgimchaklar” Toshkent-2014
3. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” Toshkent “Ma’naviyat” 2008
4. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T: “O‘zbekiston” 1997

TALABALARNI “OMMAVIY MADANIYAT”NING SALBIY TA’SIRIDAN HIMOYALASH

Dilrabo Shodmonovna Xudoyqulova,

Renessans ta’lim universiteti katta o‘qituvchisi

Yusupov Javohir Farhod o‘g‘li,

Renessans ta’lim universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarni ommaviy madaniyatning salbiy ta’siridan himoyalash, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali metodlar, rivojlantiruvchi texnologiyalar asoslanadi, talabalarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’siridan himoyalashda mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi takomillashtiriladi hamda amaliy –metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ommaviy madaniyat, oila va oliygoh hamkorligi, fidoyilik

“Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming-yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan [1]

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men judajuda istardim. Mana, ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq”. Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” degan turli baloqazolarning tobora kuchayib borayotganligini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo‘ladi. (Sh.M. Mirziyoyev)

Madaniyat jamiyat ijtimoiy hayotining muhim tarkibiy qismi, mustaqil sohasi hisoblanadi. Odatda jamiyat taraqqiyotini belgilashda ijtimoiy madaniyatning mavjud darajasi hisobga olinadi. Qolaversa, jamiyat ijtimoiy madaniyatini mavjud darajasi ertangi ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli insoniyat o'zi erishgan madaniyatni moddiy va ma'naviy tarzida guruhlangan holda qadriyat sifatida e'zozlaydi.

Ommaviy madaniyat chuqur ijtimoiy va madaniy ildizlarga ega. Ommaviy madaniyat mentalitetimizga zid kontentlar orqali milliy madaniyatimizni borgan sayin surib chiqarmoqda. Bu esa albatta yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etish orqali milliy qadriyatimizni, o'zbek millatini azal-azaldan shakillanib kelgan milliy g'urur va iftixorini obro'sizlantiradi.

Insoniyat taraqqiyoti tajribasining ko'rsatishicha, milliy madaniyatni u mansub bo'lgan xalq, millat yoki elat tomonidan qadriyat sifatida e'zozlansada, biroq, uni o'ziga tobe' qilmoqchi bo'lgan millat uchun «o'tkir qurol» sanaladi. Shu sababli gegemonlikka intilayotgan xalq, eng avvalo, o'zi tajovuz qilayotgan millatni ana shu o'tkir quroldan mahrum etishni rejalashtiradi. Globallashuv sharoitida gegemonlikni qo'lga kiritish istagida bo'lgan millat axborot «sun'iy» madaniy g'oyalarni har qanday milliy madaniyatni barbod etish vositasi sifatida qabul qilib, unga nisbatan ma'naviy tahdidni uyushtiradi. Ma'naviy tahdidning ijtimoiy mohiyatini ochib berar ekan birinchi prezidentimiz I.A.Karimov quyidagilarni bayon etgan. «Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim».[2]

Ayni o'rinda, shuningdek, ma'naviy tahdidning ijtimoiy salbiy oqibatlari ham ko'rsatib o'tiladi «Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanadi va oxir-oqibatda jamiyatni³ inqirozga olib kelishi mumkin» [3]

Darhaqiqat, «ommaviy madaniyat»ning dastlabki ko'rinishlari G'arb mamlakatlari XVIII da namoyon bo'la boshlagan, bugungi kunda esa «ommaviy madaniyat», «pop madaniyat» («populyarnaya kultura») iborasining qisqartirilgan ko'rinishi «submadaniyat» lotincha («sub»-ostida), «sultura» - madaniyat, rus tilida esa u «podkultura» tarzida ifodalanadi, ma'nosi «madaniyat ostidagi yanada aniqrog'i ichidagi madaniyat») demakdir) nomlari bilan yuritilayotgan ijtimoiy hatti-harakatlar ta'sirida milliy madaniyat va qadriyatlar orqali ulug'lanib kelingan yuksak insoniy

g'oyalar, ma'naviy-axloqiy hamda estetik me'yorlarga nisbatan «yangicha» salbiy yondashuv kuzatilmoqda.

Ommaviy madaniyat-bu muayyan jamiyatda aholining keng qatlami o'rtasida ommalashib, ma'lum mavqe'ga ega bo'lib borayotgan madaniyat sanaladi. U maishiy turmush, ko'ngilochar tomoshalar (sport, musiqa), ommaviy axborot vositalari va boshqalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ommaviy madaniyat mazmunida aholining katta qismi hayotini tashkil etuvchi kundalik voqea-hodisalar, hayotiy intilish va ehtiyojlar aks etadi. «Ommaviy madaniyat» tushunchasi Frankfurt sotsiologiya maktabining vakillari tomonidan olib boriladigan tadqiqotlar tufayli keng ommalashdi.

«Ommaviy madaniyat» sanoatning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda shakllangan g'ayrioddiy «madaniyat» ko'rinishi sanaladi. Tabiiy ravishda omma madaniyati yuksak ma'naviy-axloqiy hamda estetik talablardan holi bo'lib, asosan, og'ir turmush va mehnat sharoiti, doimiylik kasb etgan moddiy yetishmovchilik, qashshoqlik hamda ruhiy zo'riqlardan ma'lum vaqtga bo'lsa-da holi bo'lish, ya'ni ko'ngil ochishga yordam berardi. Qolaversa, «ommaviy madaniyat» haqiqatdan ham hech qanday ma'naviy-axloqiy, estetik qarashlar va milliy-madaniy qadriyatlarni tan olmaydi, aksincha, u bir guruh ijtimoiy qatlamning g'ayrioddiy «istak, ehtiyojlari»ni namoyish qilish, targ'ib etishga yo'naltiradi. Omma uchun mo'ljallangan madaniyatda ustuvor o'rin egallayotgan g'oyalar-bu ko'ngilxushlik, erkin muhabbat, bir jinsli nikoh, fahsh, ijtimoiy va jismoniy zo'ravonlik, giyohvandlik, tashqi qiyofada vulgarlikka erishish, erkak hamda ayollarda qarama-qarshi jins vakillari xususiyatlari, xususan, biologik xususiyatlarning aks ettirishga intilish, «transfer», qotillik, suitsidni targ'ib qilish kabilardan iborat bo'lib, u o'z-o'zidan shaxsni tubanlikka olib boradi.

«Ommaviy madaniyat» ta'sirida ulg'aygan shaxs qiyofasida quyidagi salbiy illatlar shakllanadi. O'zi mansub bo'lgan millat madaniyatini tan olmaslik, uni inkor qilish va ochiqdan ochiq hurmatsizlik bildirish, milliy g'urur, or-nomusdan moddiy manfaatlarni ustun qo'yish, milliy o'zlikni anglay olmaslik, axloqsizlik qilib bo'lsa-da, moddiy farovonlikka, to'kin hayotga intilish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida qashshoq dunyoqarash va axloqsiz xulq-atvorga egalikni namoyish qilish, tartibsiz hayot kechirish, milliy madaniyatni mensimaslik va hakovolar.

Yoshlarni «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta'siridan himoyalashda tizimli, majmuaviy pedagoik chora-tadbirlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi tizimli tadbirlarning tashkil etilishida oliy ta'lim muassasalarining faoliyati ham alohida o'rin tutadi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta'siridan himoyalashning puxta asoslangan dastur hamda mexnazimning ishlab chiqilishi ana shu

maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyating samarali, izchil va uzluksiz tashkil etilishini ta‘minlaydi.

Talabalarni «ommaviy madaniyat» ning salbiy ta‘siridan himoyalashning pedagogik shart sharoitlarini o‘rganish orqali ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish lozim

1. Talabalarni «ommaviy madaniyat» salbiy ta‘siridan himoyalashning pedagogik omillari va ularning imkoniyatlarini aniqlash.

2. Talabalarni «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta‘siridan himoyalashning ijtimoiy-falsafiy va psixologik jihatlarini yoritish.

3. Talabalarni «ommaviy madaniyat» ning salbiy ta‘siridan himoyalash tizimi, andozasi va mexanizmini ishlab chiqish.

4. Talabalarni «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta‘siridan himoyalashning amaliy-texnologik asoslarini yoritish.

5. Talabalarni «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta‘siridan himoyalanganlik darajasini baholovchi mezonlarni ishlab chiqish.

6. Talabalarni «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta‘siridan himoyalashda yuqori samaradorlikka erishishni ta‘minlovchi ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

7. Talabalar ongida «ommaviy madaniyat»ning milliy-etnik madaniyat inqirozini ta‘minlashdagi roli, ijtimoiy-salbiy oqibatlari to‘g‘risidagi tushunchalarni shakllantirish.

8. Talabalarda “ommaviy madaniyat”ga nisbatan murossasiz munosabatni qaror toptirish texnologiyasini yaratish.

9. Talabalarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta‘siridan himoyalashda ijtimoiy fanlar, oila hamda yoshlar tarbiyasiga nisbatan milliy yondoshuvni o‘rnini ochib berish

10. Talabalarni «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta‘siridan himoyalashning amaliy asoslari yoritilib, bu borada yuqori samaradorlikka erishishni kafolotlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish

Ommaviy madaniyatning salbiy jihatlaridan talabalarni himoyalash uchun avvalo har bir talabani shaxsiy madaniyatiga milliy mafkuramizni singdirish va bu orqali ular ongida endi ildiz otayotgan yod g‘oyalarni chiqarib tashlashimiz, milliy va yagona tizimli kontent yaratishimiz kerak

Xulosaqilib aytganda Talabalar ongida «ommaviy madaniyat»ning milliy-etnik madaniyat inqirozini ta‘minlashdagi roli to‘g‘risidagi tushunchalar hosil qilinib, unga nisbatan murossasiz munosabatning shakllantirilishiga erishilsa, talabalarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta‘siridan himoyalash tizimi yaratilib, puxta mexanizmi asoslansa talabalar ongida «ommaviy

madaniyat»ning salbiy ta'siridan himoyalashga erishiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor nutqidan 19.01.2024
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch-T. Ma'naviyat 2008-yil 13,14-betlar
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch-T. Ma'naviyat 2008 12-bet
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, 1993-yil
5. "Ommaviy madaniyat"-ma'naviy tahdid sifatida. O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti Toshkent 2017.

“INSON – JAMIYAT – DAVLAT” IYERARXIYASIDA DAVLAT XIZMATCHISI KASBIY MA'NAVIYATINING ROLI

Dilshod Ismoilov

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada “inson – jamiyat – davlat” iyerarxiyasida davlat xizmatchisi kasbiy ma'naviyatining roli haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada “Yangi O'zbekiston - 2030” strategiyasidagi 7 ta ustuvor yo'nalishdagi 100 maqsadi mamlakatimiz rivoji bilan bog'liq eng o'tkir, eng og'riqli, eng dolzarb masalalarning yechimi haqidagi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: dunyo, axborot, mamlakat, shaxs, jamiyat, ma'naviyat, mafkura, ma'rifat, tapg'ibot, sivilizatsiya, emotsional.

Kirish (Introduction). “Yangi O'zbekiston - 2030” strategiyasida 7 ta ustuvor yo'nalishdagi 100 maqsad jamlangan. Zalvori va salmog'iga ko'ra bu maqsadlardan qaysi biri birlamchi yoki muhimroq ekanini belgilash amri mahol. Chunki bu maqsadlarning barchasi mamlakatimiz rivoji bilan bog'liq eng o'tkir, eng og'riqli, eng dolzarb masalalarning yechimiga qaratilgan. Yangicha tendensiyalar ifodalangan, yangicha yondashuvlar bo'y ko'rsatgan, yangi qadriyatlar ilgari surilgan. Muhimi, “**Inson qadri uchun**” tamoyili islohotlarning o'zak g'oyasi, o'zgarishlarning yo'lchi yulduzi sifatida e'tirof etilgan.

“Inson qadri” shunchaki chiroyli soʻz emas, mubolagʻa ham, boʻrttirish ham yoʻq bu tushunchada. Aslida “qadr” soʻziga “qimmat” soʻzi qoʻshib ishlatiladi. Shu jihatdan, inson qadri bebaho va muqaddasdir. Prezidentimiz tomonidan bu savolga aniq-tiniq javob berilgan: “Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini taʼminlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat koʻrsatish, sifatli taʼlim, ijtimoiy himoya tizimi, sogʻlom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz[1]”.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Har bir inson, u jamiyatda qanday oʻrin egallaganidan qatʼiy nazar qadrlil boʻlishni, hurmat qilib, hurmat koʻrishni istaydi. Bu — isbot talab qilmaydigan haqiqat. Inson qadri insonga munosabatda koʻrinadi.

Shaxsning huquq, manfaat va ehtiyojlariga yuqori baho berilishi, uning har tomonlama eʼzozlanishi, undan vaqtni, mablagʻni, mehnatni ayamaslikda inson qadri boʻy-basti bilan namoyon boʻladi.

Muhimi, insonga oʻzgarishlarni amalga oshiruvchi vosita deb emas, oʻzgarishlar maqsadi sifatida munosabatda boʻlish talab etiladi. Boshqacha aytganda, “Inson davlat uchun emas, davlat inson uchun”. Shu nuqtai nazardan, yangi bosqichdagi barcha xatti-harakatlarimiz “Inson qadri” gʻoyasi mantigʻiga boʻysundiriladi. Yurtimizdagi barcha islohotlarning markaziga inson qoʻyiladi, unga barcha oʻzgarishlarning mezon sifatida qaraladi, yangilanishlar inson uchun, unga munosib hayot sharoitini yaratish maqsadida amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz avvalo biz – rahbarlarning faoliyatidan rozi boʻlishi kerak. Buning uchun har bir rahbar oʻz aravasini oʻzi tortishi, oʻz sohasidagi ishlarning ahvoli uchun oʻzi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda oʻzgarish boʻladi, rivojlanish boʻladi[2]”. Ushbu metodologik yondashuv mamlakatimizda rahbar kadrlarga xalq ishonchi ortishiga, boshqaruv faoliyatining samaradorlik darajasiga, amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligiga ijobiy taʼsir koʻrsatishi muqarrar.

Tahlil va natijalar(Analysis and results). Oʻzbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida davlatchilik qadriyatlarini demokratik, ijtimoiy, huquqiy davlat talablaridan kelib chiqib, “Inson – jamiyat – davlat” tamoyili

asos topdi. Bu o‘ta muhim, siyosiy, huquqiy prinsip tufayli inson bilan davlat birlashdi. Ushbu tamoyil asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy rivojlantirish bo‘yicha alohida-alohida dasturlar ishlab chiqilmoqda. Har bir tarmoq va hudud bo‘yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi yuzasidan rahbarlarning hisobot berish tizimi izga tushdi. Buning natijasida “Inson – jamiyat – davlat” munosabatlarida vertikal munosabatlardan gorizontal munosabatlarga o‘tildi. Inson, uning hayoti, farovonligi mamlakatning eng katta boyligi sifatida e’tirof etildi. Davlat inson manfaat-ehtiyojlarini qondirishni o‘zining ustuvor vazifasi deb bilmoqda, jiddiy loyihalarni amalga oshirishda unga kuchli sherik sifatida murojaat qilmoqda, muammolarning yechimini topishda uning ekspertlik salohiyatiga tayanmoqda.

“Inson – jamiyat – davlat” munosabatlarini amalga oshirish kadrlar siyosati bilan chambarchas bog‘liq. Zero, kadrlar siyosatida o‘zgarish qilmasdan turib, boshqa sohalardagi islohotlarda muvaffaqiyat qozonish mumkin emas. Negaki, taraqqiyotning bugungi bosqichida inson omili belgilovchi rol o‘ynaydi.

Har qanday strategik hujjatning ro‘yobi ham, avvalo, davlat fuqarolik xizmatchilarining ishga vunosabatiga, mehnatining samarasiga bog‘liq bo‘ladi.

«Inson - jamiyat - davlat» iyerarxiyasining gumanistik mohiyati inson va uning farovonligiga markaziy ahamiyat berilishini, jamiyat va davlat inson manfaatlari yo‘lida mavjud bo‘lib, uning huquqlari, erkinliklari va farovonligini ta’minlashini anglatadi. Ushbu iyerarxiya davlat va jamiyat shaxsning manfaatlari va ehtiyojlariga xizmat qilish uchun mavjud va uning gumanistik mohiyati quyidagi asosiy jihatlarida namoyon bo‘ladi:

1. Markazdagi odam: inson ushbu iyerarxiyaning markazi hisoblanadi va uning qadr-qimmati, huquqlari va farovonligi eng muhim qadriyatlar sifatida tan olinadi. Gumanizm shaxsga va shaxs erkinligiga hurmatni ta’kidlaydi.

2. Jamiyat atrof-muhit sifatida: jamiyat odamlar o‘zaro ta’sir qilishi, hamkorlik qilishi va rivojlanishi mumkin bo‘lgan muhit sifatida qaraladi. Ushbu iyerarxiyada jamiyat jamiyat a’zolarining ehtiyojlarini ta’minlash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va birdamlik uchun sharoit yaratadi.

3. Davlat vosita sifatida: Davlat qonun va tartibni ta’minlash, fuqarolarning huquqlari va adolatini himoya qilish uchun jamiyat tomonidan yaratilgan vosita sifatida qaraladi. Davlat shaxs va jamiyat manfaatlari xizmat qilishi, uning vazifalari farovonlik va adolatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Ushbu gumanistik konsepsiya jamiyatdagi kuch va resurslardan inson manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda foydalanish kerakligini, inson hayoti va qadr-qimmati daxlsiz qadriyatlar ekanligini anglatadi. Gumanistik

iyerarxiya fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga, shuningdek, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashga e'tibor beradigan Davlat va huquqiy tizimlarning ko'plab modellari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

2017-yilda oliy ta'lim muassasalari uchun tayyorlangan "Davlat xizmatchisi etikasi va imiji" o'quv q'llanmasida davlat xizmatchisiga shunday ta'rif beriladi: "davlat xizmatchisi deganda, davlat organlarining huquqlarini r'yebga chiqarish b'y'icha tashkiliy-boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi, fuqarolar uchun huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi yuridik ahamiyatga ega b'ylgan harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs nazarda tutiladi. Mansabdor shaxslarda siësiy xislatlar bilan bir qatorda axloqiy fazilatlarni shakllantirish zaruriy holdir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi"[3]. Ko'rinib turganidek, shaxsiy ma'naviy-axloqiy fazilatlar davlat xizmatida muhim rol o'ynaydi, chunki ular davlat xizmatchilarining samaradorligi va professionalligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davlat xizmatida muvaffaqiyatli martaba uchun muhim bo'lgan ba'zi asosiy shaxsiy fazilatlar:

1. Halollik: Davlat xizmatchilari halol, halol va ishonchli bo'lishi kerak. Ularning harakatlari va qarorlari axloq normalari va qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

2. Kasbiy javobgarlik: Davlat xizmatchilari o'z vazifalarini yuqori darajada mas'uliyat bilan bajarishlari, yeng yaxshi natijalarga intilishlari va kasbiy standartlarga rioya qilishlari kerak.

3. Tahliliy ko'nikmalar: tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyati faktlar va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhimdir.

4. Muloqot qobiliyatlari: Davlat xizmatchilari turli manfaatdor tomonlar, shu jumladan fuqarolar, hamkasblar va rahbarlar bilan samarali muloqot qilishlari kerak.

5. Yetakchilik: menejerlar yoki menejerlar rovida davlat xizmatchilari jamoani boshqarish va ilhomlantirish qobiliyatiga yega bo'lishi kerak.

6. Moslashuvchanlik: Davlat xizmatlari ko'pincha o'zgaruvchan sharoitlarga va yangi muammolarga duch keladi. O'zgarishlarga moslashish va ularga tezda munosabat bildirish qobiliyati muhim sifatdir.

7. Maxfiylik: Davlat xizmatchilari ko'pincha maxfiy ma'lumotlarga yega va maxfiylikni saqlash qobiliyati juda muhimdir.

8. Etika: davlat xizmatchilari uchun yuqori axloqiy me'yorlarga rioya qilish va manfaatlar to'qnashuvidan qochish muhimdir.

9. Hamkorlik qilish qobiliyati: Davlat xizmatchilari umumiy maqsadlarga yerishish uchun jamoada ishlashga va boshqa organlar bilan hamkorlik

qilishga tayyor bo‘lishi kerak.

10. Stressga chidamlilik: Davlat xizmatchilari yuqori darajadagi stress va bosimga duch kelishi mumkin, shuning uchun stressni boshqarish va xotirjamlikni saqlash qobiliyati muhimdir.

Ushbu fazilatlar davlat xizmatchilariga o‘z vazifalarini yanada samarali bajarishga yordam beradi, davlat xizmatlarini sifatli ko‘rsatishni ta‘minlaydi va davlat muassasalariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi qiyofasini belgilashda asosiy mezonlardan bo‘lgan yuksak ma‘naviyat, mas‘uliyat va madaniyatlik darajasi ham muhim o‘rin tutadi. Bu nafaqat bugungi global davrning taqozosi, balki O‘zbekistonning buyuk kelajagini ta‘minlay oladigan, unga xizmat qilishga qodir bo‘lgan davlat xizmatchisi tushunchasining mazmun-mohiyatini belgilovchi omil hisoblanadi. Shu bois zamonaviy rahbar xodim barcha fazilatlari bilan o‘z jamoalariga yetakchi, fidoyi, namuna, o‘rnak va ibrat bo‘la olishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”.T.: O‘zbekiston. 2017. –B.78.

2. Mirziyoyev.Sh.“Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”.T.: O‘zbekiston. 2017. –B.78.

3. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji.Ŷquv qŶllanma.– Toshkent, “Universitet”, 2017. 264 b. 4 b.

YOSHLARNI MAFKURAVIY MANIPULYATSIYA TA’SIRLARIDAN HIMOYA QILISH DOLZARB MASALA SIFATIDA

Atavullayev Elyorbek Baxtiyor o‘g‘li,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarning mafkuraviy manipulyatsiya ta’sirlaridan himoya qilish, ommaviy madaniyat tushunchasi haqida olimlarning qarashlari, tobora globallashib borayotgan axborot jamiyati, yoshlarda mafkuraviy immunitet hosil qilish masalalari bo‘yicha to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, mafkuraviy immunitetni hosil qilish uchun amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tavsiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: yoshlar, mafkura, Ikkinchi dunyo, anarxiya, manipulyator, milliy qadriyatlar, milliy maʼnaviyat.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan globalizatsiya davrida yoshlarni har taraflama asrash, ularni turli mafkuraviy manipulyatsiya taʼsirlaridan himoya qilish dolzarb vazifalardan biri boʻlib qolmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va ularda tarqatilayotgan turli xil manipulyatsion mazmundagi axborotlarga nisbatan moyillik darajasining ortib borishi hamda yoshlarning vaqtni behuda sarflash koʻlami kengaymoqda. Natijada yoshlar doimiy ravishda band boʻlib, haqiqiy muhitda ularga qiyin ekanligi toʻgʻrisida fikr yuritishadi hamda tarmoqlardagi manipulyatsiya taʼsirida ular oʻzini tashqi dunyodan yopib qoʻyishadi.

Aslini olganda Internet dastlab olimlar va tadqiqotchilar oʻrtasida aloqa vositasi sifatida yaratilgan boʻlsa-da, hozirda u keng qamrovli xususiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarga taqdim etilayotgan yangi imkoniyatlar ularni oʻziga butunlay qaram boʻlib qolishiga sabab boʻlmoqda. U orqali inson oʻz imkoniyat va qobiliyatini virtual darajada cheksiz oʻstirish imkoniga ega boʻldi. Bu esa oʻz navbatida, Internet tomonidan yaratilgan “Utopik dunyo” yoki “Ikkinchi dunyo” nomi bilan ataladigan virtuallikdir.

Ikkinchi dunyo bu – uch oʻlchamli muhit boʻlib, unga har bir kishi kompyuter yoki smartfon qarshisida oʻtirgan holda kirishi mumkin. Bu metaforalarga toʻla dunyoda kishilar koʻrgazmalarga tashrif buyuradi, turli xil mahsulotlar buyurtma beradi, konsertlar, kinolarga boradi va bir-birlari bilan oʻzaro suhbat qurishadi. Shu tariqa insonlar hulq-atvoridagi asosiy oʻzgarishlar shaxsiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan axborot kommunikativ texnologiyalar paydo boʻlishi bilan sodir boʻldi[1].

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, Internet orqali axborot olish borasidagi aholining eng faol qismi yoshlar hisoblanadi. Maʼlum darajada ijtimoiy foyda keltirayotgan axborotlarning isteʼmolchilar, yaʼni yoshlar tomonidan izlanishi ijobiy boʻlsa-da, hech qanday asosga ega boʻlmagan, odamlarga zarar yetkazishga, oʻz hayotini qurbon qilishga, hattoki, insoniyatga qarshi qurol koʻtarishga undovchi manipulyatsion mazmundagi axborotlarni qabul qilish, uni tarqatishning asosiy qismi aynan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda.

Gohida ijobiy boʻlib koʻringan maʼlumot ham keyinchalik yoshlarning maʼnaviyatiga salbiy taʼsir etishi mumkin, yaʼni baʼzan oddiy boʻlib koʻringan reklama ham muayyan mafkuraviy maqsadlarni oʻzida ifoda etadi.

“Manipulyatsiya” soʻzi, “qoʻl harakati” degan maʼnoni bildirsa ham, hozirgi paytga kelib axborot tizimi butun jahonni qamrab olgan sababli uning tub mohiyati oʻzgarib bomoqda. Internet, smartfonlar, gadjetlar, radio

va televideniye umumjahon miqyosida keng tarqalib borgani sari xalqlar, mintaqalar, qit'alar hamda insonlararo aloqalar jadallashdi. Insoniyatning muvaffaqiyatlari ham, muammolari ham global xarakter kasb etdi. O'z mafkurasini yoyish, uni targ'ib qilish, yer yuzining turli nuqtalarida madaniy gegemoniya o'rnatish orqali o'zga hududlarni o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida manipulyatorlar tomonidan manipulyatsiya turlari samarali qo'llanilmoqda.

G'arbda yoshlarni turli mafkuraviy g'oyalar bilan manipulyatsiya qilinayotgani haqida ko'p yozishgan. Bu esa "ommaviy madaniyat"ning ilk ta'siridan boshlangan. Bu haqda ispan faylasufi Ortega Gaset: "Ko'pchilik odamlarda fikr yo'q. Xalq hech qachon, hech qanday fikrga ega bo'lmagan. Chunki u borliqni nazariy anglay olmaydi. Bu esa uning to'g'ri qarorlar qabul qilishiga halaqit beradi. Shunday ekan, fikr odamlarning miyasiga tashqaridan, xuddi mashinaga moy quyilgani kabi bosim bilan kiritilishi kerak"[2], degan edi.

Olim jamiyatga fikrni bosim ostida, zo'rlab singdirish yaxshi emasligini biladi. "Biroq, – deydi u, – odamlar manipulyatsiya qilinmasa, jamiyatda anarxiya[3] paydo bo'ladi. Bu esa jamiyatni inqirozga olib keladi. Jamiyat nuraydi, yemiriladi".

Manipulyatorlar tomonidan yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy bilimlari yetishmasligini inobatga olgan holda ularga nisbatan muayyan g'oyalarni ong osti tuzilmalariga singdirish mexanizmidan keng foydalanmoqdalar.

O'z-o'zidan, tabiiy ravishda sodir bo'ladigan istalgan odam yoki hayvonda biror-bir narsa, voqea yoki hodisaga nisbatan istakni yuzaga keltiruvchi psixologik mexanizmning ishlash tartibi nihoyatda oddiy bo'lib, bir jins, bir xil mazmun yoxud shakldagi narsa yoki axborotni ketma-ket uch martadan ko'p ko'rsatish va eshittirish yoki uqtirish avvaldan rejalashtirilgan samarali natijalarni beradi.

Shaxsga ko'rsatilgan maqsadli ta'sir esa ong osti tuzilmalarida muayyan vaqt mobaynida to'plangan ma'lumotlarni tasdiqlash yoki inkor etish jarayonlarining boshlanishiga, boshlanganda ham o'ziga xos avtomatik tarzda, ya'ni inson irodasidan tashqari holda boshlanib ketishiga asos bo'ladi. Bu yerda motiv, ya'ni nimaga inson ko'proq moyil bo'lgani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Inson, ayniqsa, o'zi xohlagan narsaning tasdig'iga erishishga intiladi. Shu boisdan o'z mafkurasni targ'ib etuvchi manipulyatorlar qaysi ma'lumotlarni berishdan ham ko'ra ularni qanday tarzda yetkazish, asosan, suhbatdoshda istak, mayl uyg'otishga alohida diqqatini qaratadi. Ayniqsa, manipulyatsiyaning ta'siri va oqibatlarida soxta diniy tashkilotlar, aqidaparast guruhlar faoliyati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bunda avvalo, odamlarning ongiga ta'sir etib, ularning xatti- harakati (individual jismoniy hayotni boshqarish, tobelik va bo'ysunuvchanlikni paydo qilish), olinayotgan ma'lumotning haqiqiy holatini yashirish yoki voqelikni buzib ko'rsatish, tanqidiy ma'lumotlarni ta'qiqlash, muayyan g'oyani majburan singdirish, voqelikdagi voqea- hodisalarni "yaxshi" va "yomon"ga ajratish, hissiyotlarni (shaxs hissiyotlarini zaiflashtirish, unga aybdorlik tuyg'usini singdirish, uni gunoh, kamchilik va xatolarni rasman tan olishga undash, undagi qo'rquv hissidan foydalanish) nazorat etish orqali har qanday vazifa yoki topshiriqni bajaradigan, muayyan g'oya va mafkuraga tobe etilgan, mustaqil fikrlashdan mahrum bo'lgan kimsalar shakllantiriladi.

Bunga qarshi turishda sergak va bilimli bo'lish talab etiladi. "Ommaviy madaniyat"ning yomon tomoni shundaki, u odamzodning shaxsiy fikr yuritishiga butunlay qarishilik qilishga intiladi. Aslida, bir qaraganda "ommaviy madaniyat" fikr erkinligi, inson huquqlari tarafdoridek ko'rinadi, aslida uning tub mohiyatiga e'tibor berilsa, insonning fikrlashiga, tafakkur qilishiga mutlaqo qarama-farshi ekanligi ma'lum bo'ladi.

Shunday qilib, ularning asl maqsadlarini amalga oshirish uchun insonlarning tafakkurini chalg'itish yo'li bilan ularni ma'no-mazmunsiz hayotga yo'naltirishga intiladilar. Shu bilan birga, ular odamlarning ixtiyorlarini o'ziga bo'ysundirish oqibatida – o'zlari xohlagan g'oya-mafkurasini singdirishga urinadilar.

Axborot makonida globallashtirish va kuchli raqobat sharoitida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yosh avlodning media savodxonligi va internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, milliy segmentni rivojlantirish, yoshlarni axborot-psixologik xurujlardan ximoya qilish texnologiyalarining nazariy asoslarini takomillashtirish amaliy ahamiyatga ega. Bundan ko'rinadiki, yosh avlod zamonaviy axborot xurujlarining bevosita obyektini sanaladi. Shu bois o'smirlar ongini zaharlovchi zid g'oyalar ta'siridan asrash va bu kabi axborotlarning to'riga ilinmaslik maqsadida axborotni xolisona baholash, axborotlar tizimida ijobiy va salbiy ta'sirga ega xabarlarini "filtr"lash – ya'ni, foydali axborotni qabul qilib, zararli axborotlar ta'siriga berilmaslik ko'nikmalarini shakllantirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Bu kabi zararli oqibatlarni oldini olish hamda yoshlarda manipulyatsiya ta'sirlariga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun amalga oshirish zarur bo'lgan bir qancha ishlar mavjud. Xususan:

-yoshlarimizni miliy qadriyatlarimizga mos ravishda ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish;

-ommaviy axborot vositalarida milliy ma'naviyatimizga mos hamda mafkuraviy manipulyatsiyaning zararli ta'sirlari aks ettirilgan ko'rsatuvlar,

serialar, kino va badiiy filmlar namoyishini omma etiboriga doimiy ravishda taqdim qilish;

-internet tizimida mavjud bo'lgan milliy saytlar sonini va sifatini oshirib borish.

Xulosa o'rnida hozirgi kunda jamiyatimiz hayoti fan-texnologiyalar rivoji bilan tobora uyg'unlashib borayotgan bir davrda aholini, ayniqsa, yoshlarni milliy metalitetimizga yot va zararli bo'lgan mafkuraviy manipulyatsiya ta'sirlaridan asrash, ularga to'g'ri yo'lni tanlashda amaliy yordam berish zarur. Zero, aynan ma'naviy va mafkuraviy jihatdan yetuk bo'lgan barkamol avlod mamlakat kelajagini belgilab beradi. Ma'naviy barkamollik esa jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sanjar Norbekov. Manipulyatsiya haqida nimalar ma'lum?. <https://jizzaxnews.uz/uz/>.
2. Anastasiya Krig. Xose Ortega-i-Gasset. <https://pandia.ru>.
3. <https://www.wikipedia.org/>.

IJTIMOIY TARMOQLARDA RADIKAL G'OYALAR XAVFI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

Namozova Maftuna Shokir qizi
*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti tayanch doktoranti*

Globalashuv davri barcha davlatlar, xalqlar hayotida ko'plab ijobiy o'zgarishlar olib kelgani bilan bir qatorda, turli global muammolarning vujudga kelishi bilan ham yodga qolmoqda. Shunday global ma'naviy muammolardan biri ijtimoiy hayotda internet orqali ijtimoiy tarmoqlarda radikal g'oyalar, yot mafkuralarning ko'payishi hamda bu go'yalar qurboni asosan voyaga yetmagan, oq-qorani tanimagan yoshlar ekanligi achinarli holatdir. Mazkur muammo, afsuski, mamlakatimizni ham chetlab o'tmagan. Shu tufayli yoshlarni radikallashuv va zararli mafkuralardan asrashda har bir davlat xizmatchisi, jumladan, mahalladagi xotin-qizlar faolining roli muhim hisoblanadi. Mamlakatimizning mazkur yo'nalishda pozitsiyasi aniq belgilangan. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, —Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan

zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaymiz! [1]

Yoshlar radikallashuvining oldini olish hamda mazkur jarayonning ijtimoiy salbiy oqibatlarini tahlil qilishdan oldin mazkur tushuncha ta'rif berib o'tish lozim. Radikallashuv atamasi turli fan sohalari, ijtimoiy hayotning turli yonalishlarida turlicha qo'llanilib kelinadi. Ma'lum hodisaning radikal yoki radikal emasligini aniqlashda ushbu hodisa sodir bo'layotgan joy, holat, vaziyat (kontekst)ning o'ri judayam muhim [2]. Umuman olganda, radikallashuv shaxs yoki guruhning mavjud siyosiy, ijtimoiy yoki diniy holatga nisbatan borgan sari radikal ya'ni keskin qarashlarni qabul qilish jarayoni hisoblanadi. Aksariyat holatlarda radikallashuvning oqibati ekstremizm va terrorizm hisoblanadi [3]. Shuningdek, radikalizm – mavjud ijtimoiy yoki siyosiydan tashqari madaniy vaziyatni ham tubdan va keskin o'zgartirish istagini ham o'zida aks ettirishi mumkin [4]. Ta'riflardan ko'rinib turibdiki, radikalizmning ko'rinishlari, shakllari turfa xil bo'lib, aksariyat holatlarda mavjud ijtimoiy tartibga nisbatan shakllangan radikal munosabatni ifodalaydi.

Internetdagi radikalizm - zo'ravonlikni qamrab oluvchi matnlar, terroristik hujumlarni qanday qilib eng yaxshi yo'lga qo'yish kerakligi to'g'risidagi ko'rsatmalar, ekstremistik filmlar yoki ovoqli kliplar, forumlarda odamlar va muassasalarga tahdidlarni qamrab oladi [5]. Bugungi globallashuv davrida turli xalqaro tashkilotlar axborot texnologiyalarining jinoiy maqsadlarda qo'llanmasligini va ularning umumbashariy tinchlikka xavf solish uchun ishlatilmasligini ta'minlashga urinmoqda. 2001-yilning 25-noyabrida Yevropa kengashi internet jinoyatlariga qarshi kurashish uchun konvensiya qabul qildi. Konvensiya axborot texnologiyalaridagi jinoyatlariga qarshi umumiy choralar ko'rishga, zarur qonunlar qabul qilishga va muammoga qarshi xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga chaqirganligini ko'rishimiz mumkin.[6] Shuningdek, "Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konvensiya" birinchi xalqaro shartnoma hisoblanib, Internet va kompyuter jinoyatlari borasidagi milliy qonunlarni uyg'unlashtirish, internetda tarqatilayotgan radikal g'oyalarni aniqlash va xalqlar o'rtasidagi hamkorlikni oshirish orqali muammolarni hal qilishga intiladi. Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konvensiyaga qo'shimcha protokolga ko'ra qo'shimcha protokolni ratifikatsiya qilgan davlatlardan irqchi va ksenofobik materiallarni internet tizimlari orqali tarqatish ta'qiqlandi. Shuningdek irqchilik yoki ksenofobiya tahdidlari uchun jinoiy javobgarlikka tortish talab qilinadi. Konvensiya quyidagi jinoyatlarni oldini olish uchun imzolanganligini ko'rishimiz mumkin:

- Internet va boshqa kompyuter tarmoqlari orqali sodir etilgan jinoyatlar;
- radikal g'oyalar va tarmoq xavfsizligini buzishni oldini olishga;
- mualliflik huquqini buzish;

-kompyuter bilan bog‘liq firibgarlik;

- virtual bolalar pornografiyasini oldini olishga qaratilgan birinchi xalqaro shartnomadir.[7]

Konvensiyaning asosiy maqsadi jamiyatni kiberjinoyatchilikdan himoya qilishga qaratilgan. Xususan internetga tegishli qonunlarni qabul qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali jamiyatni tinchligini asrashga qaratilgan. Konvensiya Yevropa va xalqaro ekspertlarning to‘rt-yillik mehnati mahsulidir. 2016-yil iyul oyidan boshlab Yevropa Kengashiga kirmaydigan davlatlar Avstraliya, Kanada, Isroil, Yaponiya, Panama, Shri-Lanka va AQSh ushbu shartnomani ratifikatsiya qilganlar. Misr Konvensiyani imzolamagan bo‘lsada Misr Prezidenti Al Sisi hukumati 2018-yilda kompyuter jinoyati bilan bog‘liq asosiy qonunni qabul qildi. Facebook va Twitter singari ijtimoiy tarmoqlarda soxta yangiliklar va terrorizmni targ‘ib qiluvchilarni qonun hujjatlari asosida jinoiy javobgarlikka tortish nazarda tutiladi. [8] Strategik aloqa, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ekstremistlarning manipulyatsion xabarlarikatta muvaffaqiyatlarga erishdi. Odamlarni, ayniqsa yosh ayollar va erkaklarni o‘z saflariga jalb qilishdi. Radikalizatsiya ko‘p jihatdan milliy chegaralarni kesib o‘tadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt davlatlarga o‘ziga xos majburiyat yuklaydi. Paktning 20-moddasida milliy, irqiy diniy nafratni tashkil etuvchi har qanday tashviqot va diskriminatsiya, adovat yoki zo‘ravonlikka undash qonun bilan ta‘qiqlanishi aks etgan. Bunday cheklovlarning ko‘pgina misollari Internetga taalluqlidir. Agar ushbu cheklovlarning buzilishi (ya‘ni noqonuniy tashviqot) sodir bo‘lsa, og‘irlashtiruvchi holat deb hisoblanadi. Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shimcha protokol 2013-yil 28- yanvar Strasburgda kiritildi. Konvensiyada internet tizimlari orqali tarqatiladigan irqchi va ksenofob, radikal materiallar uchun jinoiy javobgarlikka tortish belgilandi.

Radikalizatsiyalashgan kontentni tartibga solish hozirgi paytda bir nechta mamlakatlarda faol ravishda olib borilmoqda. Buyuk Britaniyada “Terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha Internet-ma‘lumot bo‘limi” (CTIRU) tashkil etilgan bo‘lib, 2010-yilda terrorchilik harakatlarini rag‘batlantiruvchi yoki ulug‘laydigan 49000 dan ortiq kontentni olib tashlagan. London politsiyasi har hafta 1000 dan ortiq ekstremistik veb-sahifalarni olib tashlaydi. 2014-Iyilda jugendschutz.net kontenti nafrat bilan gapiradigan barcha huquqbuzarliklarning 58 foizini olib tashlashga erishdi. [9] 2015-yil 13-noyabrda Fransiya hukumatining iltimosiga binoan Facebook qirg‘in bilan bog‘liq 32000 ta xabarni o‘chirib tashladi. Fransiyada 2015-yil 5-fevraldagi 125- sonli farmon bilan Fransiya hukumati veb-saytlarni blokirovka qilishga imkon beradi. Daniyada sud qaroriga binoan politsiya messenjdagi kontentlarni yopishi mumkin. Birlashgan Qirollik va Tunisda ogohlantirishlar

beriladi va filtrlash qo‘llaniladi. Hindistonda Internet-provayder litsenziyasini blokirovka qilish bilan bir qatorda to‘xtatib qo‘yish ham buyurilishi mumkin. Avstraliyadamessejterterroristikharakatlarni targ‘ib qilish, axloqme‘yorlarini buzish, jinoyat yoki zo‘ravonlik masalalarini targ‘ib qilish, rag‘batlantirish yoki ko‘rsatma berish sodir etsa, profil hamda kanal aniqlangan taqdirda olib tashlanishi mumkin. Komissar terroristik harakatlarni targ‘ib qilish uchun topilgan materiallarni Avstraliya Federal Politsiyasiga xabar qiladi. Saudiya Arabistonidagi “Sakinah Kampaniyasi” radikal g‘oyalarga qarshi kurashishda muhim dasturlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Sakinah mustaqil nodavlat tashkilot tomonidan yuritiladi. Islom ishlari vazirligi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Diniy qarashlarga radikal qarashni targ‘ib qilish uchun Internetdan foydalanadigan shaxslarni tog‘ri yo‘lga solishga intiladi. Dialog va qarama-qarshi dalillar yuqori darajada olib boriladi. Qirollikdagi boshqa radikalizatsiyaga qarshi kurashish strategiyalariga o‘xshab, Sakinah Kampaniyasi diniy bilimlarni izlayotgan shaxslar bilan onlayn aloqada bo‘lib, ularni ekstremistik manbalardan uzoqlashtirishga harakat qiladi. Milliy internetni filtrlash va monitoring qilish tizimi Ar-Riyodda joylashgan. Internet xizmatlari bo‘limi Ichki ishlar vazirligi boshchiligidagi xavfsizlik qo‘mitasining ko‘rsatmalariga asosan veb-filtrlashni boshqarish uchun javobgardir. Hozirgacha bloklangan saytlarning aksariyati noqonuniy yoki axloqsiz kontentga tegishlidir. Saudiya Arabistonida Internetning joriy etilishi qirollikda jihodchi adabiyot va targ‘ibotning tarqalishini sezilarli darajada kengaytirdi. Ruxsatsiz fatvolar chiqarilishini cheklash uchun so‘nggi qadamlar qo‘yildi. Hozirda faqat davlat homiysi bo‘lgan Islom Ulamolari Kengashi bilan bog‘liq bo‘lgan ulamolar fatvo chiqarishi mumkin [10] . Amerika tadqiqotiga ko‘ra bir nechta davlatlar Qirollik Internetdagi ekstremizmga qarshi qanday kurashayotganiga qiziqishmoqda. Bunda bu dasturning ahamiyati katta. AQSh Harbiy akademiyasining Terrorizmga qarshi kurash markazining har oylik nashr etilgan nashrida aytilishicha, Internetda ekstremizm va zo‘ravonlik tarqalishi butun dunyo bo‘ylab Qirollikning Sakinah kampaniyasi radikal g‘oyalarga qanday kurashyotganiga bo‘lgan qiziqishiga olib keldi .[11]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak inertet orqali ijtimoiy tarmoqlarga joylanadigan axborotlar xavfi bugungi kunda hech bir davlatni chetlab o‘tayotgani yoq. Ijtimoiy tarmoqlarda radikal kayfiyatga ega bo‘lgan ma‘lumotlar, film, vidiyo hamdaroliklarni ko‘plab yoshlarimiz hamda aholimiz mediamakondan tahlilsiz qabul qilmoqdalar. Bu esa o‘z o‘rnida ko‘plab salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Shuni alohida ta’kidlashimiz lozimki, radikallashuv ijtimoiy kasallik sifatida, jamiyatning turli yot g‘oya radikal g‘oyalar, oilani nostandardlashuvi bilan bog‘liq go‘yalar va mafkuralarga

nisbatan immunitetini susaytiradi, terrorizm, mutaassiblik, ekstremizm va buzg‘unchilikning boshqa shakllariga yo‘l ochadi. Radikalizm — bu mutaassiblikning bir ko‘rinishi. Radikalizm dunyoviylikni, demokratiyani, inson huquqlarini, plyuarizmni, toqatlilikni, tolerantlikni, gumanizmni, madaniyat xilma xilligini rad etadi. Radikalizmda opponent bo‘lmaydi. Bu maksimalizm – yo sen mening fikrimga qo‘shilasan, agar qo‘shilmasang dushmansan. Dushman va men, degan tushuncha bor. Radikalizm murosani inkor etadi. Radikalizm o‘zining qarashlarini konstitutsion qonunchilikdan ustun qo‘yadi [12].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Маърифат ўрнини радикаллашув ва жаҳолат эгаллашига йўл қўймаймиз» — президент. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/20/extremism/>
2. Schmid A. P. Radicalisation, de-radicalisation, counter-radicalisation: A conceptual discussion and literature review //ICCT research paper. – 2013. – Т. 97. – №. 1. – С. 22.
3. Borum R. Radicalization into violent extremism I: A review of social science theories //Journal of strategic security. – 2011. – Т.
4. – №. 4. – С. 7-36. 4. Радикализм // Большой толковый словарь русского языка. Гл. ред. С. А. Кузнецов. Первое издание: СПб.: Норинт, 1998
5. Muhammad A. Y. Internetdagi tahdidlardan himoya. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2016. – В.590.
6. Jugendschutz.net is a platform on which any individual can report violations of youth protection laws (<http://www.jugendschutz.net/en/hotline/>).
7. <https://ctc.usma.edu>. Christopher Boucek. Campaign and Internet CounterRadicalization in Saudia Arabia. August 2008.
8. rm.coe.int. CETS 185-Convention on Cybercrime-Coe.
9. Jugendschutz.net is a platform on which any individual can report violations of youth protection laws (<http://www.jugendschutz.net/en/hotline/>)
10. <https://ctc.usma.edu>. Christopher Boucek. Campaign and Internet Counter-Radicalization in Saudia Arabia. August 2008.
11. <https://carnegieendowment.org>. Christopher Boucek. The Sakinah Campaign and Internet Counetr-Radicalization in Saudia Arabia. August 25, 2008.
12. <https://www.xabar.uz/tahlil/jamiyatda-mustaqil-fikr-bogilsa>

CHEGARA QO‘SHINLARI QISM VA BO‘LINMALARI DISLOKATSIYASINI OPTIMIZATSIYA QILISH

Razzoq Shaymardanov Nuraliyevich,
*Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi
bo'lim boshlig'i, iste'fodagi podpolkovnik*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng, jamiyatning barcha sohalarda tub islohotlar boshlangani, mamlakatimiz sarhadlarining daxlsizligi va hududiy yaxlitligini asrash, el-yurtimizning osuda hayotini ishonchli himoya qilishda Chegara qo‘shinlari oldiga katta vazifalar qo‘yilgani haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Xavfsizlik, fidoyilik, Vatan himoyachilari, qurol-aslaha, vatanparvarlik, harbiy qism, yangi davr, professional milliy armiya, ma'naviyat, qadriyat, matbuot.

Mustaqillik barcha sohalarda taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Milliy qadriyat va an'analar qayta tiklandi. Vatan tuyg‘usi va vatanparvarlik tushunchalari o‘zining asl ma’nosini topdi. Ular yosh avlod ongi va shuurida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga, shuningdek, har bir kishini o‘zligini anglashga samarali ta’sir eta boshladi. Vatani va xalqi tarixini, otabobolarining, ajdodlarining kimligini yaxshi bilgan kishi o‘zligini, Vatanning muqaddasligini chuqur anglaydi. Mamlakatimiz sarhadlarining daxlsizligi va hududiy yaxlitligini asrash, el-yurtimizning osuda hayotini ishonchli himoya qilishda Chegara qo‘shinlari oldiga katta vazifalar qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi IV bobi, 17-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ektidir. O‘zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik printsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa printsip va normalariga asoslanadi ” [1] deb belgilab qo‘yilgan.

2023-yili 13-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-868-sonli yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi. [2]

Senatning o‘ttiz to‘qqizinchi yalpi majlisida senatorlar “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qonunni (2023-yili 6-aprel) ko‘rib chiqishda jamoatchilik vakillari, vazirlik va idoralar takliflari, fikr va mulohazalari inobatga olingan holda ishlab chiqilganligi alohida

qayd etdilar. [3] Xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka tahdid solayotgan xavf-xatarlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi xavfsizligini ta’minlash samaradorligini yanada oshirish borasida yangi talablarni belgilash, amaldagi Qonunda bir qator huquqiy kamchiliklar mavjudligi turli muammolarni yuzaga keltirayotgani ta’kidlandi.

Davlat chegarasini belgilash va o‘zgartirish O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Shuningdek, Davlat chegarasini delimitatsiya, demarkatsiya va redemarkatsiya qilish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish O‘zbekiston Respublikasi va chegaradosh davlatlarning vakillaridan iborat bo‘lgan hukumatlararo komissiya tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilmoqda.

Qonunda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar hamda transport vositalarining chegara zonasiga va o‘tkazish punktlariga kirishi (chiqishi), o‘tishi, bo‘lishi (yashashi), harakatlanishi tartiblari hamda Davlat chegarasida, chegara mintaqasida va o‘tkazish punktlarida xo‘jalik va boshqa faoliyatni olib borish, xususan, dehqonchilik qilish yoki chorvachilik bilan shug‘ullanish bilan bog‘liq qoidalar batafsil belgilanmoqda.

Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilishni amalga oshirishda qurolni, harbiy texnikani, maxsus vositalarni, jismoniy kuchni va xizmat hayvonlarini qo‘llash sharoiti va tartibi kiritilgani, shuningdek, Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilishda ishtirok etayotgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy-huquqiy himoyasining me‘yorlari belgilangani e‘tirof etilgan.

Qonun senatorlar tomonidan ma‘qullandi, deya xulosa qilinadi xabarda. 2021--yildan boshlab Davlat chegaralarini himoya qilishga fuqarolarni ixtiyoriy tarzda jalb qilish Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan joriy qilindi. Unga asosan chegarachilarga ko‘maklashuvchi «Chegara posbonlari» otryadlari tuzildi, otryad a‘zolariga tegishli imtiyoz va maqomlar berildi. Ular yordamida fuqarolarning faolligi oshirilib, Vatan manfaatlari xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirildi. [4]

Davlat chegaralarini qo‘riqlash va himoya qilish tizimini yanada mustahkamlash, qo‘shinlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, jangovar tayyorgarlikni tashkil etish samaradorligini oshirish, Qurolli Kuchlarni eng yangi qurol-yaroq va texnikalar bilan ta’minlash, mamlakatimiz mudofaa-sanoat kompleksini rivojlantirish bo‘yicha faol olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish zarur. [5]

Davlat sarhadlarini himoya qilishning birinchi eshelonini tashkil etuvchi

DXX Chegara qo‘shinlari O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan qo‘yilgan vazifalarni bajarishda asosiy yo‘nalishlar quyidagilarga qaratilgan:

- Chegara qo‘shinlari qism va bo‘linmalari dislokatsiyasini optimizatsiya qilish;

- ularning tashkiliy shtat-tizimini takomillashtirish;

- tarbiyaviy ishlar shakllarini ravnaq toptirish va harbiy jamoaning axloqiy-ruhiy holatlarini sog‘lomlashtirish;

- moddiy-texnika ta‘minotini yanada yaxshilash;

- davlatlar va xalqaro tashkilotlarning tegishli idoralari bilan hamkorlikni amalga oshirish.

- ta‘lim-tarbiyani har tomonlama rivojlantirib, harbiy xizmatchilarda yuksak vatanparvarlik, kasb mahorati va axloqiy-ruhiy fazilatlarni shakllantirish;

- qo‘shni davlat bilan bo‘lgan chegaradagi delimitatsiya va demarkatsiya tadbirlarini tugallash, redemarkatsiya qilish;

- chegara qo‘shinlarini zamonaviy qurol turlari, aloqa vositalari, radiotexnika razvedkasi va kuzatuvi, shuningdek, kema va katerlar bilan ta‘minlashni davom ettirish;

- modellashtirish, simulyatsiya, kompyuterga o‘rgatish va boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holdagi kadrlar tayyorlanishining yangi usullarini joriy qilish.

Hozirgi kunlarda yaqin va yiroqda nobarqaror vaziyat sodir etilayotgan bir paytda xalqaro terrorizm, narkotrafik va boshqa odamlar tinchligi va osoyishtaligiga xavf solib turuvchi tahdidlar ko‘payib bormoqda. Davlatimiz milliy xavfsizligiga real tahdidlar mavjud bo‘lgan vaziyatda biz jahonning barcha mamlakatlari bilan o‘zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rishimiz kerak.

Jahonda, Markaziy Osiyo mintaqasida yuzaga kelayotgan harbiy-siyosiy vaziyat davlat chegaralarini qo‘riqlashga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Hukumatimiz tashabbusi bilan mamlakat Qurolli Kuchlari, jumladan DXX chegara qo‘shinlarida amalga oshirib kelinayotgan islohotlarning ham pirovard maqsadi – ixcham, ammo zamonaviy bilimlarni egallagan, Vatan himoyasiga doimo jismonan, ruhan shay turadigan harbiylardan iborat shaxsiy tarkibni tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2023 y., 03/23/868/0699-son.
3. Xalq so'zi. 2023-yil 6 aprel. <https://xs.uz/uzkr/post/davlat-chegarasi-tog-arisidagi-qonun-ko-rib-chiqildi>.
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2021 y., 09/21/35/0062-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son.
5. Sh.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – T: O'zbekiston» nashriyoti, 2022. – B. 383.

IJTIMOYIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI

Ahmedov Husniddin Ixtiyorovich,
Termiz davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Internet va ijtimoiy tarmoqlarning insonlarga xususan yoshlarga ta'siri va va ularning hayotida tutgan o'rni, ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek ularning ma'naviyatiga ta'sirini falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Axborot, global, mafkura, internet, ma'naviy tahdid, ijtimoiy tarmoq, virtual muloqot, modernizatsiya, ma'naviyat.

Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilish juda mushkul. Internetning ommalashib borishi bir qancha qulayliklarning kashf qilinishini, xayot sur'atlarining tezlashishini va turli ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xos yangiliklarning kirib kelishiga, tarqalishiga sabab bo'ldi. Ijtimoiy tarmoqlar bugun qudratli axborot qurolga aylangan ekan, dunyo miqyosida mafkuraviy-g'oyaviy tahdidlarni targ'ibot va tashviqot etishda muhim omil vazifasini o'tamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida yoshlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunga kelib, internet tizimining ijtimoiy tarmog'ida ma'naviy, axloqiy tubanlikni "targ'ib" etuvchi sahifalarning soni bir nech yuz miliondan oshayotganligi insoniyatni yanada tashvishlantiradi. Darhaqiqat, bugun axborot ko'p va tez kirib kelayaptiki ularni "hazm" qilish uchun teran tafakkur va keng dunyoqarash talab etiladi. Albatta, ushbu muloqot jarayonlarining ijobiy tomonlarini inkor etib bo'lmaydi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda faqat ezgu niyatni ko'zlagan insonlar o'tirmasligini o'nlab misollar bilan asoslash mumkin. Ayniqsa, yoshlarda bunday holat ko'proq

yolg'iz qolish istagining kuchayishida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasiga ega bo'lmagan insonni topish qiyin. Ayniqsa, bu holatning yuqori darajasini yoshlar orasida ko'rish mumkin.

Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo yoshlari, jumladan mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod asosiy vaqtining taxminan 50 foizi virtual muloqotga sarflanmoqda. 2022-yil yanvarida dunyo bo'yicha undan internet foydalanuvchilar soni yer yuzi aholisining 62,5 % [4] tashkil etmoqda va bu ko'rsatkich-yildan-yilga oshib bormoqda. Mamlakatimizda 2022-yilning yanvar oyi ma'lumotlarga ko'ra internetdan foydalanuvchilar soni (mobil internet foydalanuvchilari bilan qo'shib hisoblaganda) 27,2 milliondan oshiqni tashkil etgan.[5]. Internetning bugungi kundagi rivoji aholi ongiga, ayniqsa yoshlarga g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'laminin keskin darajada o'sishiga olib keldi. Undan ba'zi mamlakatlar siyosiy bosim o'tkazish vositasi sifatida foydalansa, ba'zilari uchun madaniy ta'sir o'tkazish vositasi, mafkuraviy qurol sifatida, terroristik kuchlarga targ'ibot vositasi tarzda, yoki maxfiy aloqa vositasi sifatida qulay imkoniyat tug'dirmoqda. Qo'shtirnoq ichidagi ba'zi "ixtirochilar" undan bironing pulini olishni yoki uning oilasiga tegishli sirlarni ham bilish va hatto tajovuz qilish yo'llarini ham o'ylab topishdi. Shunday ekan yoshlarni, kelajak avlodni bunday xavfu-xatardan asrash doimo diqqat, e'tiborni, sergaklikni talab qiladi. Ta'bir joiz bo'lsa birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek "Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televideniye, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi"[2:71]. Shunday ekan internet bu zamon talabi. Uni inkor etish mumkin emas, ammo internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga umuman yoshlarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Bunday imkoniyatlarning virtual olamda kengayib borishi, bugungi kunda insonlardan yanada hushyorlikni talab qiladi. Chunki, hozirgi vaqtda dunyo bo'ylab keng foydalanilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotlar chegara bilmayapti. Silliq qilib aytganda, virtual hayot kundalik turmushimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, virtual olam insonning o'z qobig'idan chiqishi dunyoni yolg'on va soxta nigohlar bilan ko'rishiga ham sabab bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlar odob-axloq chegarasini buzib o'tmoqda. Bu o'zgacha olam insonni ishdan

chalg'itayotgani bir masala bo'lsa, soxta muhabbat va do'stlik munosabatlari ko'plab oilalarning buzilishiga olib kelayotgani achinarlidir. Bu tuzoq nafaqat yoshlarni, balki halihanuz o'zini anglamagan katta va o'rta yoshlilarning ham hayotiga chuqur kirib kelmoqda. Juda ko'p odamlar virtual muloqot deb, haqiqiy voqyelikdan voz kechmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, virtual muloqot ummoni katta-kichikni birdek qa'riga tortayotir. Virtual olam ta'sirida haqiqiy hayot bilan virtual borliqni almashtirib qo'yamoqdamiz. Internetdagi rasmlaru izohlar, shirin so'zlari uchun "sevib" qolgach, ko'pchilik yengilyelpi munosabatlarga o'rganib qolayapti. Hamma narsa haqiqiy hayotdagiga nisbatan juda oson. Tez tanishasan, osongina do'stlashasan va tezda ajrashish ham mumkin. Nima bo'layotganini hatto o'ylab o'tirish ham shart emas. Keyinchalik nimadir yoqmay qolsa, unutib yuboraveradi. Hayotda turli qiyinchiliklar va muammolarga uchrayotganlar ijtimoiy tarmoqlarda juda faol. Shu o'rinda bir gap. Ijtimoiy tarmoqlar asosan o'z hayotidan norozi bo'lgan odamlarni birlashtirayotgandek ko'rinadi. Ammo o'sha olamda sizni qo'llab-quvvatlab turgan insonlar sizga do'st bo'la oladimi? Og'ir kunda yoningizda turadimi? Kezi kelsa-yillar davomida tanigan-bilgan "yaqinlar"ingiz pand beradi. Ko'p hollarda bir-birini tanimaydigan odamlar nima haqida suhbatlashadi? Tanishuv saytlarida vaqtini o'tkazayotganlar maroqli suhbat qurayotgandek bo'ladi. Hamma narsa o'z me'yorida bo'lishi kerak. Bu maroqli suhbatlar natijasi shaxsiy hayotingizni buzmayaptimi? Tanishuv saytlarida kulib turgan, yangi topgan "tanishlar"ining "suratlar"iga, undan kelgan chiroyli so'zlargayu, chiroyli guldastalarga mahliyo bo'lib, haqiqiy muhabbatni virtual muhabbatga almashib qo'yayotganlar yo'q deb o'ylaysizmi? Afsuski bunday holatlar, ayniqsa yoshlar orasida uchrab turibdi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin"[1] deb ta'kidlashi ayni haqiqatdir. Virtual olam insonni manipulyasiya qilmoqda. Manipulyatsiya – bu fikriy qaramlik orqali o'ziga bo'ysundirish demakdir. Mutaxassislar fikricha, virtual olamda insonning vaqtni idrok qilish tizimi buziladi, ijtimoiy faolligi kamayadi. Eng dahshatlisi, bu jarayonda virtual vositalarning salbiy ta'siri ma'naviy-axloqiy tanazzul bilan chegaralanib qolmay, ko'p kasalliklarni ham keltirib chiqarar ekan... Bu ma'lumotlarning ilmiy asoslari amerikalik shifokorlar Gvenn va Klarke o'z tadqiqotlarida tahlil qilib, "ijtimoiy tarmoqlardan ko'p foydalanish unga o'rganib qolish va natijada undan uzoqlashish esa ruhiy tushkunlikni, yakkalanib qolishni, o'zini baxtsiz his qilishini va bu muammolar jismoniy

kasalliklarni ham keltirib chiqarishini” asosli ta’kidlashadi.”[3]

Axborotlashgan jamiyatda aholini, ayniqsa yoshlarni kiberjinoyatchilikdan himoya qilish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Shunday ekan ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ma’naviyatiga katta ta’sir o’tkazishini esdan chiqarmaslik lozim. Buning uchun har bir yosh, o’smirlar o’z vaqt taqsimotini nazorat qilila bilishi, ma’lum bir ezgu maqsad sari harakat qilishi va o’z ilmini muntazam boyitib borishi lozim bo’ladi. Chunki ko’pgina inson axloqiga zid ma’lumotlar bo’sh vaqtdan to’g’ri foydalanishni bilmaydigan, ilmsiz kishilarni o’z domiga tortadi. Virtual olamdan foydalanishda me’yorni bilish va undan oqilona foydalanish kerak. Buning uchun, avvalo, ta’lim dargohlarida internetdan foydalanish madaniyatini o’rgatuvchi mashg’ulotlarni yo’lga qo’yish, otanalar farzandlarining bo’sh vaqtlarini nazoratga olishi va bolaning yoshiga qarab, unga ijtimoiy tarmoqdan foydalanishga ruxsat berishi lozim.

Xulosa o’rnida aytmoqchimanki, hozirgi kunda jamiyatimiz hayoti fan-texnologiyalar rivoji bilan tobora uyg’unlashib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Shunday ekan, har birimiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatiga amal qilishimiz, o’z navbatida, uni atrofdagilarga ham o’rgatish foydadan xoli bo’lmaydi. Binobarin, yoshlarning ruhiy-ma’naviy olamini zararli unsurlardan, turlixil buzg’unchi, yod va zararli g’oyalardan himoya qilish orqali taraqqiyot poydevori yaratiladi. Zero, ma’naviy barkamol, intellektual salohiyati yuqori avlod tarbiyasi nafaqat O’zbekistonda, balki butun jahonda eng muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo’lmoqda. Aynan ma’naviy barkamol avlod mamlakat ertasini belgilab beradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy g’oya targ’iboti va mafkuraviy jarayonlarning amaliy ishlari va ijobiy natijalarini yoshlarga tushuntira bilish, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi” ekanligi to’g’risidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarur. XXI asrda davlatimizning ravnaqi, uning kuchi hamda salohiyati ko’p jihatdan xalq ma’naviyatining yuksakligi va pokligiga, yoshlarimizning intellektual savodxonligiga, ular ongi, ichki dunyosi va qalbida milliy g’oyaning rivojlanganligi bilan chambarchas bog’liqdir. Bunda esa internet tizimining ijtimoiy tarmog’idan tarqatilayotgan turli xil yot g’oyalarga qarshu mafkuraviy immunitetning nechog’liq shakllanishiga bevosita aloqadordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko’taramiz. T. O’zbekiston.2017

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Gwenn Schurgin O'Keeffe, Kathleen M. Clarke Clinical Report-The Impact of Social Media on Children, Adolescents, and Families // PEDIATRICS March 2011,127(4):800-4
4. www.wearesocial.com
5. www.review.uz

YOSHLARNING MA'NAVY-AXLOQIY E'TIQODLARINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOYIY TARMOQLARNING O'RNI: MEDIA TAHLIL

Murtazina Diana Rahibovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Pedagogika tarixi va nazariyasi” yo‘nalishi magistri

Murtazin Emil Rustamovich

Jizzax politexnika instituti, assistent

Annotatsiya: Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib, ularning ma'naviy-axloqiy qarashlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'sirini o'rganish kompleks yondashuvni va ommaviy axborot vositalarini tahlil qilishning turli usullaridan foydalanishni talab qiladi. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlariga ta'sirini tahlil qilishning kontent tahlili, qiyosiy tahlil, sharh tahlili va mavzuni modellashtirish kabi asosiy usullari muhokama qilinadi. Ushbu usullarni tushunish tadqiqotchilar va amaliyotchilarga ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarda qadriyatlar va axloqiy munosabatlarni shakllantirishga ta'sirini baholash va tahlil qilishda yordam beradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, ma'naviy-axloqiy qarashlar, media tahlili, kontent tahlili, qiyosiy tahlil, sharhlar, mavzuni modellashtirish.

Bugungi axborot jamiyatida ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib, ular bilan muloqot qilish, axborot almashish, o'z fikrini bildirish uchun zamin yaratmoqda. Biroq ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yaqqol ijobiy jihatlari bilan bir qatorda yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy-axloqiy qarashlar - bu dunyo haqidagi qadriyatlar, axloqiy munosabatlar va g'oyalar tizimini tashkil etuvchi shaxsning asosiy tarkibiy qismlari. Ijtimoiy tarmoqlarning bu jihatlarga ta'siri sezilarli va ahamiyatli bo'lib bormoqda.

Shunday ekan, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlarini qanday shakllantiradi, o'zgartiradi yoki mustahkamlaydi, buni aniq tushunish zarur. Ushbu muammoni o'rganish ijtimoiy tarmoqlarning mazmunini va uning yoshlar hayotining psixologik va ijtimoiy-madaniy jihatlariga ta'sirini tahlil qilish imkonini beradigan media tahlilining turli usullaridan foydalanishni talab qiladi. Ushbu maqolada biz ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlariga ta'sirini tahlil qilishning asosiy usullarini, jumladan, kontent tahlili, qiyosiy tahlil, sharh tahlili va mavzuni modellashtirishni ko'rib chiqamiz [1].

Ushbu usullarni tushunish media-ta'lim va ijtimoiy ish bo'yicha tadqiqotchilar, o'qituvchilar va amaliyotchilarga ijtimoiy medianing yoshlar o'rtasida qadriyatlar va axloqiy munosabatlarni shakllantirishga ta'sirini yaxshiroq tushunishga va tegishli aralashuv va ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Zamonaviy dunyoda ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ular muloqot qilish, ma'lumot almashish, aloqalarni yaratish va saqlash imkoniyatini beradi. Biroq, shu bilan birga, ular yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlari va qadriyatlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Media tahlili bu ta'sirni o'rganishning samarali vositasi bo'lib, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar auditoriyasiga xos bo'lgan tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi [2].

Media tahlilining asosiy usullaridan biri sifatli kontent tahlilidir. Ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, sharhlar, fotosuratlar va videolarni o'rganish orqali yoshlarning xohish-istaklari, qiziqishlari va qadriyatlarini aniqlash mumkin. Masalan, ba'zi postlar yoki xeshteglardagi sharhlar mavzusi va ohangini tahlil qilib, foydalanuvchilar orasida qanday qadriyatlar va e'tiqodlar keng tarqalganligi haqida xulosa chiqarish mumkin [3].

Maxsus dasturiy vositalar yordamida siz katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishingiz va statistik ahamiyatga ega tendensiyalarni aniqlashingiz mumkin. Misol uchun, siz ma'lum bir mavzu bo'yicha nashrlar soni yoki muayyan postlar ostidagi yoqtirishlar va repostlar sonining o'zgarishi dinamikasini o'rganishingiz mumkin.

Media tahlilining asosiy jihatlaridan biri ommaviy axborot vositalari orqali shakllangan stereotiplar va xulq-atvor namunalarni aniqlashdan iborat. Kontent-tahlil yordamida ijtimoiy tarmoqlarda jamoalarda qanday obrazlar va ideallar ustunlik qilayotgani, ular yoshlarda qadriyat yo'nalishlarining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash mumkin [4].

Ommaviy axborot vositalarini tahlil qilishning qo'shimcha usuli qiyosiy tadqiqotdir. Turli xil ijtimoiy tarmoqlarning mazmunini taqqoslash orqali

axborotni taqdim etish va qadriyatlarni shakllantirishga yondashuvlardagi farqlarni aniqlash mumkin. Masalan, siz turli xil ijtimoiy tarmoqlarda qanday mavzular va qadriyatlar dolzarbligini va bu foydalanuvchilarning ma'naviy va axloqiy qarashlari va e'tiqodlariga qanday ta'sir qilishini tahlil qilishingiz mumkin.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlariga ta'sirini o'rganishda media-tahlil usullari muhim o'rin tutadi [5]. Ular ommaviy axborot vositalari orqali shakllangan tendensiyalar, naqshlar va stereotiplarni aniqlash, shuningdek, ularning yoshlar auditoriyasida qadriyat yo'nalishlari va xulq-atvor namunalarini shakllantirishga ta'sirini baholash imkonini beradi [6].

Ushbu maqolada biz ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlariga ta'siri va tadqiqotchilar va amaliyotchilarga ushbu ta'sirni baholashda yordam beradigan media tahlil usullarini ko'rib chiqdik.

Ijtimoiy tarmoqlar dunyoni idrok etish va idrok etishga ta'sir etuvchi kuchli axborot kanali bo'lgani uchun yoshlarning qadriyatlar tizimi va axloqiy munosabatlarini shakllantirishda asosiy rol o'ynashini muhokama qildik. Ijtimoiy tarmoqlar dolzarb ijtimoiy muammolarni muhokama qilishdan tortib, madaniy g'oyalarni fosh etishgacha bo'lgan davrda yoshlarning ma'naviy-axloqiy e'tiqodlari shakllanadigan va o'zgartiriladigan muhitni yaratadi [7].

Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'sirini o'rganishda qo'llaniladigan turli media tahlil usullarini ko'rib chiqdik, masalan, kontent tahlili, qiyosiy tahlil, sharhlar tahlili va mavzuni modellashtirish. Ushbu usullar tadqiqotchilarga ijtimoiy media xabarlarining mazmuni va ta'sirini tahlil qilish, tendensiyalarni aniqlash, asosiy mavzularni aniqlash va ushbu platformalar orqali yoshlar o'rtasida qanday ma'no va e'tiqodlar bo'lishishini tushunish imkonini beradi [8].

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlariga ta'sirini tushunish va media-tahlil usullaridan foydalanish nafaqat zamonaviy yoshlar madaniyatini yanada chuqurroq anglash, balki yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlarini saqlashga qaratilgan samarali ta'lim va tarbiya strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. raqamli asrda yoshlar o'rtasida sog'lom qadriyatlar va axloqiy munosabatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kuziev, B. N., Murtazin, E. R., & Kholmuminova, D. A. (2016). Introduction information technologies to educational process. Ucheniy XXI veka, (3-1 (16)), 26-28.
2. Karshiboev, Sh. A., & Murtazin, E. R. (2021). Izmeneniya v sifrovoy kommunikatsii vo vremya globalnoy pandemii COVID-19. Molodoy uchenyy, (21), 90-92.

3. Kuziev, B. (2023). *iskusstvenniy intellekt v obrazovanii. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari*, 1(1), 14-17.
4. Kuziev, B. N., & Murtazin, E. R. (2023). *Obrazovanie i iskusstvenniy intellekt. Ekonomika i sotsium*, (5-2 (108)), 786-789.
5. Kuziev, B. N., Xolmuminova, D. A., & Murtazin, E. R. *Elektronnoe obuchenie kak chast obrazovatel'nogo protsessa. Ucheniy XXI veka*, 1, 43.
6. Murtazina, D. R. (2023). *Metodiki prepodavaniya i izucheniya angliyskogo. Science and innovation*, 2(Special Issue 14), 139-145.
7. Shakirova, L. F., & Murtazina, D. R. *Primenenie audirovaniya v obuchenii. Uchyoniy XXI veka*, 77.
8. Emil, M. (2023). *Oblasti znaniy dlya robototexnicheskogo proektirovaniya. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari*, 1(1), 18-20.

YOSHLARNING IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHIDA MEDIATARBIYANING O'RNI

Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va

huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: bugungi ijtimoiy tarmoqlar jadal ommalashib borayotgan zamonda ko'pchilik yoshlar tarbiyasida internet tarmoqlaridan foydalanishda bo'shliq kuzatilmoqda. Mazkur maqolada yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishida mediatarbiyaning o'rni va ahamiyati haqida fikrlar, amaliy takliflar va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, axborot xuruji, media, mediatarbiya, OAV, mentalitet, axborotlashgan jamiyat.

Bugungi hayotimizni ijtimoiy tarmoqlar, internet manbalarisiz, umuman, texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Insoniyat hayoti shu qadar rivojlanib, o'zgarib ketdiki, inson o'zi yaratgan texnika yoki texnologiyani hayotining bir qismiga aylantirib oldi. Bu tarmoqlar, aloqa vositalari o'z navbatida insonning og'irini yengil, uzog'ini yaqin qildi. Uni ma'lum qiyinchiliklardan forig' etdi. Ammo texnologiya vositalariga insoniyatning haddan ortiq ruju qo'yishi va mukkasidan ketishi, afsuski, har doim ham yaxshi oqibatlarga olib kelmayapti. Buni yon-atrofga bir bor nazar solsak,

juda ko‘p holatlarda uchratishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, odamzot o‘zi yaratgan gadjetlarning “qurbon”i bo‘lmoqda. Globallashuv jarayonlari yuqori sur‘atda kechayotgan bugungi kunimizda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmaslikning iloji yo‘q, albatta. Ammo bu butunlay uning ta‘siriga tushib qolish kerak, degani emas.

Ijtimoiy tarmoq—bu qiziqishlari o‘xshash yoki oflayn aloqaga ega bo‘lgan odamlar o‘rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko‘ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma. Mazkur ta‘rifdan ko‘rinadiki, ijtimoiy tarmoqlar asosan odamlar orasida o‘z qiziqishlarini ro‘yobga chiqarish, bir-biri bilan muloqotga kirishish va boshqa maqsadlarga ishlatiladigan platforma hisoblanadi. Internetda ijtimoiy tarmoqlar 1995-yilda Classmates.com AQSh portali paydo bo‘lishi bilan mashhurlikka erisha boshladi. Loyiha juda muvaffaqiyatli bo‘ldi, bu keyingi sanoqli-yillarda bir necha o‘nlab shunga o‘xshash xizmatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Lekin ijtimoiy tarmoq “portlash”ining rasmiy boshlanishi 2003-2004-yillarda AQShda LinkedIn, MySpace va Facebook ishga tushirilgani hisoblanadi.[1]

Ayni zamonda juda ommalashib ketgan Facebook, Instagram, YouTube, Twitter, Telegram, TikTok va boshqa shu kabi ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning qimmatli va asosiy vaqtini egallab olishga ulgurdi. Ayrim yoshlar asosiy vaqtini shu tarmoqlarda “kezish” bilan o‘tkazmoqda. Eng achinarlisi, yoshlar bu tarmoqlarning ta‘siriga qattiq berilib, undagi har qanday xabar va ma‘lumotlarni qabul qilmoqdalar. Ijtimoiy tarmoqlardan milliy mentalitetimizga, o‘zligimiz va qadriyatlarimizga zid bo‘lgan va ko‘ngilochar maqsadlarda foydalanmoqdalar. Bu esa ular tarbiyasining izdan chiqishiga, milliy qadriyat va an‘analarimizning poymol etilishiga, yoshlar ongi va qalbining har xil zararli g‘oya va fikrlar bilan to‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Ana shunday holatlar kuzatilayotgan bugungi sharoitda yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishida mediatarbiyaning o‘rni juda muhim hisoblanadi.

“Media” tushunchasi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Yuqorida ta‘kidlangan ijtimoiy tarmoqlar ham umumiy holatda mediani bildiradi. Hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta‘siri-yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda.-yildan-yilga medialarning zamonaviy ko‘rinishlari vujudga kelib, ularning qamrov darajasi ham kengayib bormoqda. Media—ommaviy axborot vositalari ham keng ham maxsus auditoriyaga mo‘ljallangan, ko‘ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va boshqalarni tarqatishga yo‘naltirilgan ko‘p sonli va serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya kanallaridir. Bugun ana shu kanallarda omma e‘tiboriga havola etilayotgan

mahsulotlarning insonlarga o'tkazayotgan ta'siri kuchli bo'lmoqda.

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan noto'g'ri foydalanishi oqibatida kelib chiqayotgan salbiy holatlar:

- ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik;
- internet tarmoqlari va ommaviy axborot vositalaridagi axborot va ma'lumotlarning ishonchli yoki ishonchli emasligini tahlil qila olmaslik;
- ijtimoiy tarmoqlarda “moda”ga aylangan holatlarning yoshlar tomonidan ko'r-ko'rona qabul qilinishi;
- media vositalariga mukkasidan ketish oqibatida yoshlarda loqaydlik, beparvolik kabi xususiyatlarning paydo bo'layotganligi;
- ijtimoiy tarmoqlardagi “ommaviy madaniyat” unsurlarining milliy qadriyatlarimizni poymol etayotganligi;
- yoshlar tarbiyasida milliylikdan yiroqlashish va chet el madaniyatiga yaqinlashish holatlarining kuzatilayotganligi va boshqalar.

Bilamizki, ayni zamonda insonning ongi va qalbini egallash, uni puch va yolg'on ma'lumotlar bilan to'ldirib, o'z domiga tortish va to'g'ri yo'ldan ozdirish kabi maqsadlarga qaratilgan mafkuraviy tahdidlar va uning turli ko'rinishlari namoyon bo'lmoqda. Ana shunday tahdidlardan biri axborot xurujlari orqali amalga oshirilmoqda. Axborot xuruji – ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali turli buzg'unchi g'oyalarni tarqarish va singdirishga qaratilgan tahdiddir. Bugungi axborotlashgan jamiyatda insonlarning ma'lumotlarni olishga bo'lgan ehtiyojlari ortib borayotgan ekan, axborot xuruji, turli tahdidlar ham ko'paymoqda. Bunda asosiy e'tibor yana yoshlarga qaratilgan. Chunki yoshlar ishonuvchan, qiziquvchan va ergashuvchan bo'ladi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlar, media va axborot-kommunikatsiya vositalari orqali ularni osongina yo'ldan urish imkonini bermoqda.

Globalashuv jarayonida axborot xuruji yoshlarimizning ongiga, jamiyat taraqqiyotiga, milliy mentalitetiga tahdid solmoqda. Ochiq axborotlar tahdidi sharoitida yoshlarni to'g'ri yashashga, vatanparvar va insonparvar, erkin fikrli bo'lishga o'rgatish orqali ularda mafkuraviy immunitetni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Zero, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarlarida ta'kidlaganlaridek: “Yoshlarning iste'dodi va qobiliyati, ezgu initalishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo'lib qoladi”[2]

Ana shunday maqsadlar ko'zlangan bugungi jamiyatimizda media vositalaridan foydalanishda, to'g'ri va ishonchli axborotlarni qabul

qilishda, har xil yot va zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolmasliklarida mediatarbiyaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Mediatarbiya – bu media, axborot-kommunikatsiya, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy va internet tarmoqlari orqali uzatiladigan ma'lumotlar, axborotlarni qabul qilishda har bir shaxsda tahlil qilish ko'nikmasining shakllantirilishi, ularni milliy madaniyatimizdan uzoqlashtiradigan salbiy holatlar ta'siriga tushib qolishiga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar orqali uzatilayotgan xabarlar nafaqat yoshlarning, balki barchamizning tuyg'ularimizga, tafakkurimizga, qadriyatlarimiz tizimiga, fe'l-atvorimizga ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sirlar esa inson dunyoqarashiga ijobiy yoki salbiy iz qoldirishi mumkin. Shu bois har bir shaxs eshitayotgan, o'qiyotgan yoki ko'rayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishida salbiy holatlarning oldini olish uchun umumiy takliflarim quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy va internet tarmoqlaridan foydalanishda yosh jihatdan kelib chiqqan holda ma'lum cheklovlarni joriy etish;

- ijtimoiy tarmoqlarda uzatilayotgan xabarlar va axborotlarning to'g'riligini ta'minlash uchun aniq va tizimli rejalar ishlab chiqish;

- yoshlarning bo'sh vaqtini gadjetlarga qaramlik bilan o'tkazmasligini qat'iy nazorat ostiga olish;

- ota-onalarga yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri va aniq maqsadlarda foydalanishini muntazam nazorat qilish vazifasini yuklash;

- ijtimoiy tarmoqlarda milliylikimiz va qadriyatlarimizni tarannum etuvchi xabarlarni ko'proq uzatish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, ertangi kunimiz, taraqqiyotimiz poydevori bo'lgan yoshlarning bo'sh vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlardan foydasiz ma'lumot va xabarlarni ko'rib o'tkazishiga, ularning begona g'oyalarga qaram bo'lib qolishiga aslo yo'l qo'ymasligimiz kerak. Axborotlashgan bugungi jamiyatda nafaqat yoshlarda, balki kattalarda ham mediatarbiya, mediasavodxonlik va shu kabi tarbiyaviy jihatlarni qaror toptirishimiz lozim. Ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xil muammolar kelib chiqishiga imkon qoldirmasligimiz zarur. Bugun har bir inson, har bir shaxs o'zini mediatarbiya orqali qayta tarbiyalashi lozim. Ana shunda yoshlarimiz orasida, umuman jamiyatimizda turli xil ko'ngilsiz hodisalar, unga salbiy ta'sir etuvchi voqealar kuzatilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 - 416 bet.

2. O.M.G'aybullayev. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. – T.: "Fan va texnologiya",

2019, 576 bet.

3. Catherine D. Marcum. History of Social Networking // Social Networking as a Criminal Enterprise. CRC Press, 2014.

4. <https://uz.m.wikipedia.org>.

IJTIMOYIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVYIY-AXLOQIY QARASHLARIGA TA'SIRI: MEDIA TAHLIL METODLARI

Qo'qonboyeva G. S.

*Alisher Navoiy nomidagi
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy qarashlariga ta'siri haqida qisqacha ma'lumotlar va statistic.com orqali hozirgi kunda keng miqyosda foydalanila yotgan ijtimoiy tarmoq haqida ko'plab fikrlar berilgan. Yoshlar hayotida ijtimoiy tarmoqni ijobiy va salbiy tomonlari haqida ham to'xtalib o'tilgan. Hali voyaga yetmagan maktab o'quvchilari bu tarmoqlarga bog'lanib qolishi natijasida huquq buzarlilar sodir etishi haqida yoritilgan.


Kalit so'zlar: internet, ijtimoiy tarmoq, media, OAV.

Bugungi kunda yanada rivojlanib, o'zining yangi yo'nalishlariga ega bo'lib borayotgan internet ya'ni ijtimoiy tarmoq haqida gapirar ekanbiz, biz yashayotgan XXI asrni bu siz tassavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, yoshlar hayotida internet kuning-yilning va asrning eng ilg'or ixtirosi-xalqaro o'rgimchak to'ri bizning hayotimizning bosh qahramoniga o'zimizdan ham oldin aylanib bo'ldi. Shu o'rinda "Internet" tushunchasining mohiyatiga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Internet global kompyuter tarmog'i bo'lib, u World Wide Web (WWW) deb ham ataladi [1]. Mazkur zamonaviy manba orqali bugungi kunda kinoteatr yoki san'atkorlar konsertiga borish, kutubxonada o'tirish, bozor yoki savdo markazlarida xaridlar bilan ovora bo'lish shart emas, balki kompyuter qurilmasidagi monitor yoki smartfonlar orqali barcha kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud. Ko'pgina yoshlar ijtimoiy tarmoqdan ko'ngilochar vosita sifatida foydalanmoqda, uning qimmatli bilimlar manbai ekanligi hamda o'quv faoliyatida yordamchi qurolligi ikkinchi o'ringa tushib qoldi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Aslida "Ijtimoiy tarmoq" tushunchasi 1954-yilda paydo bo'lganini va albatta, internetga hech qanday aloqasi

yo‘qligini hamma ham bilmaydi. Olimlarimiz bu hodisani o‘tgan asrning 30-yillarida o‘rganishni boshladilar. Konsepsiyani sotsiolog Jeyms Barns kiritgan: “Ijtimoiy tarmoq” – bu ijtimoiy ob’ektlar va ular o‘rtasidagi aloqalar bo‘lgan tugunlar guruhidan iborat ijtimoiy tuzilma va hozirgi kunda internet bilan birgalikda qo‘llanilmoqda [2].

Yoshlar orasida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni-yildan-yilga ortib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ayni vaqtda respublikada 46 million bo‘lib, tarmoqdan foydalanuvchilarining aksariyatini yoshlar va voyaga yetmaganlar tashkil etadi. Ijtimoiy tarmoqlardan Oylik faol foydalanuvchilar soni bo‘yicha 2024-yil yanvar holatiga ko‘ra dunyo bo‘ylab eng mashhur ijtimoiy tarmoqlar.



Bundan ko‘rinib turibdiki, insonlar qanchalik bu ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolganligi. Ayniqsa, yoshlarimiz bu tarmoqlarga mukkasidan ketmoqda. Qaysi yoshdagi insonlarni ko‘rmaslik ularning qo‘llarida smartfonlari orqali har xil sayt va ijtimoiy tarmoqlarda o‘tirganini kuzatamiz. Xattoki ota-onalar farzandlari yig‘lamasligi va ularning ish faoliyatida halaqit bermasligi uchun ularga smartfonlar olib bermoqda. Bu o‘ziga kelayotgan yoshlarning ma’naviy-axloqiga qanchalik yomon tasir qilayotganini OAV vositalari orqali kuzatib boramiz. Men bu tarmoqlarni yomon yoki yaxshi deb aytmayman faqatgina inson o‘ziga hamma narsani chegara va me‘yorini belgilab olishlari lozim.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining “Ijtimoiy odoblar” kitobida “Jumladan, matbuot va axborot vositalaridan foydalanishning ham me‘yori bo‘lishi kerak. Ulardan o‘ziga, oilasiga, xalqiga va vataniga foydali bo‘ladigan narsalar haqida ma’lumotni olish mumkin.

Buning uchun rejali ish yuritish kerak bo'ladi. Ma'lum soatlarda ma'lum narsani ko'rish, o'qish yoki eshitish mumkin" [3]. Odam yuz-yil yashasa ham umr qisqa. Uni ilm olish va o'rganishga sarflagan ma'qul. Virtual olamdan ham ilm yo'lida yaxshilik maqsadida foydalansak, o'z-o'zidan bu qurilmalar bizga xizmat qiladi. Aksincha, biz unga asir bo'lamiz. Ta'limni barcha bo'g'inlarida yoshlarning fe'l atvori, ayniqsa odobi, ya'ni salom alik qilishi va xushmuomilasi zamonaviy tarbiyaviy jarayonda xal qiluvchi omillardan biriga aylandi. Mazkur muammoning kundan kunga murakkablashib borishini O'zbekiston Respublikasi "Oila" markazi ma'lumotlarida kuzatish mumkin. Markaz 2017-yilda 20 mingdan ortiq jinoyat voyaga yetmagan yoshlar, jumladan 310 nafari maktab o'quvchilari tomonidan sodir etilganini alohida takidlab o'tgan. Mutahassislar fikricha, 769 holatda maktab o'quvchilari tomonidan huquqbuzarlik va bezoriligining oldini olish bilan bog'liq talablar bajarilmagan [4].

Yoshlarimiz orasida yuzaga kelayotgan bunday ayanchli holatning yana bir sababi bu yoshlarimizning ijtimoiy tarmoqlarga tobeligidir. Chunki, ijtimoiy tarmoqlar ayniqsa o'smir yoshlarga ma'naviy va psixalagik jihatdan kuchli ta'sir etadi. O'smirlarda ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketish va virtual olamga moyilligi oqibatida odamovilik jizzakilik va asabiylik vujudga keladi. Demak, bundan ko'rinib turibdiki yoshlarimizning huquqbuzarlik va jinoyat ko'chalariga kirib qolishiga sabab inson ongi va qalbi va ruhiyatiga ta'sir o'tkazayotgan ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqalgan axborot xurujlari sanaladi. Ijtimoiy media butun dunyo bo'ylab doimiy ravishda kengayib, rivojlanib borayotgani bu tarmoqlardan foydalanuvchilarning umumiy soni 2027-yilga borib 5,85 milliarddan ortiq kishiga yetishi kutilmoqda, bu esa dunyo aholisining yarmidan ko'pini tashkil qiladi deb ma'lumot beradi statista.com. [5] Ijtimoiy tarmoq, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiya olishida ijobiy tomonlarini ham ko'rib o'tish muhim vazifani bajaradi.

Tarbiyaviy mavzu va manbalar: Ijtimoiy tarmoq, internet, ommaviy tarmoqlar, ilmiy maqolalar va hokazo orqali yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiyani taqdim etishi mumkin. Bu manbalar orqali tushunchalarni o'stirish, mavqelarni tushunish, odob-ahloq qoidalarini o'rganish va yaxshi o'zara aloqalar qurishning o'rnini o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Ma'naviy ta'lim platformalari orqali yoshlarga ma'naviy axloqiy topshiriqlar, darslar, testlar, ma'naviy ta'lim o'yinlari, o'qitish materiallari va qo'shimcha resurslar orqali yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakillantiradi.

Ijtimoiy tarmoq, yoshlarga o'zlariga ta'sir qiladigan yaxshi namunalar va rol modellar bilan ta'minlaydi.

Bu tarmoqlarni o'rganishda, ota-onalar, o'qituvchilar va jamoat institutlari

bilan hamkorlik qilish muhim hisoblanadi. Kelajak yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakillantirishda biz kattalarni o'rni juda muhim.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, hayotimizda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni katta. Lekin bizning bosh maqsadimiz kelajagimiz bo'lmish yoshlarimizga sifatli ta'lim berish bilan birgalikda vatanparvarlik, insoniylik g'oyalari singdirishdan iboratdir. Biz yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalana bilishimiz lozim. Bir ustozim shunday deganlar ya'ni Hindiston milliy-ozodlik harakati rahbarlaridan biri Maxatma Gandi so'zlarni aytganlar ular shunday degan ekanlar "Men uzoq umr ko'raman deb chang g'uborlardan o'zimni saqlash uchun bir xonaga kirib oynalarni ham bekitib olmayman chunki, yashashim uchun havo ham kerak degan ekanlar". Bu biz hamma narsani cheklab tashlay olmaymiz faqatgina yoshlarni qanday ijtimoiy tarmoqdan foydalanayotgani kuzatib ularga to'g'ri yo'l namo berishimiz lozim. Kelajagimiz bo'lmish yoshlarga befarq bo'lmagan holda ularning ma'naviy-axloqiga zid ijtimoiy tarmoqlarni cheklashimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismailova Nigora Axtamovna "Proceedings of International Educators Conference"
2. Ibroximov Nodirbek "Yosh Tadqiqotchi Jurnal" <https://doi.org/10.5281/zenodo.6590831>
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad yusuf "Ijtimoiy odoblar" Hilol nashir T: 2012 b 253
4. Oila davrasida. -№ 21 -2018 24 mart
5. <https://www.statista.com/markets/424/topic/540/social-media-user-generated-content/#statistic1>

III. MA'NAVY TARBIYANING SAMARALI VA TA'SIRCHAN USULLARI: EMPIRIK TAJRIBALAR ASOSIDA

INSON RUHINING INJENERLARI YOHUD UCHINCHI RENESSANS LOKOMOTIVLARI

V. Qo'chqorov,
Toshkent iqtisodiyot universiteti
professori, siyosiy fanlar doktori,
Baxtiyor Omonov,
O'zbekiston Milliy universiteti professori,
siyosiy fanlar doktori

Bugungi dorilomon zamonda ustoz kim, tarbiya nima, tarbiyalanuvchi kim, ustozning jamiyat hayotidagi o'rnini qanday, uning mavqei, martabasi nima bilan belgilanadi, degan savollar tez-tez uchrab turadi. Ustoz o'z oldiga qo'ygan sharaflil vazifani qanday bajarmoqda? O'z imijini mavqei va maqomini oshirish uchun qanday ishlar, izlanishlar olib bormoqda? Uning obro'yi, maqomi nimalarga bog'liq? Muallim davlat va jamiyat oldidagi burchini qanday ado etmoqda va uning shon-shuhrati, mavqeini ko'tarishda davlat, nodavlat tashkilotlarining o'rnini qay daraja sezilmoqda? Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida uchinchi Renessans poydevorini yaratish va shunga monand bo'lgan, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga o'z hissasini qo'sha oladigan bugungi kunda zamonaviy ustozga qanday talab va mas'uliyatlar yuklatiladi. Quyida shu savollarga birgalikda javob izlashga harakat qilamiz.

Hazrat Alisher Navoiy bir hikmatlarida:

*O'z vujudingga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen, o'zungdin istagil.*

degan ekanlar. Inson zoti dunyoga kelishi hamon umri davomida yaxshi amallar bilan o'zining el va xalq yumushini oson qilishi tufayli, qurgan binolari-yu yozgan kitoblari, ekkan daraxti-yu, yaratgan bog'-rog'lari bilan izzat-ehtirom topadi. Xalqning, elning nazariga tushadi va uzoq davr el-yurtning qalbidan, tafakkuridan joy oladi. Kimdir bir umrlik ustoz sifatida shogirdlari qalbida yashasa, yana boshqasi, qurgan ko'prigi, chiqargan suvi bilan el hurmatini qozonadi. Dunyoda kasblar ko'p, ammo shunday kasb borki, uning o'rnini hech bir kasb bosa olmaydi.

Ma'lumki, har bir davrda ustozga o'zgacha munosabatda bo'lib

kelingan, hattoki, chaqirganlarida, muomala madaniyatiga xos iliq soʻzlar bilan “ustoz”, “domulla”, “murabbiy”, “muallim”, deb murojaat qilishgan. “Biz ustozni otaday ulugʻ deb bilgan, doimo ardoqlagan maʼrifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham oʻqituvchi, muallim deganda oʻzim uchun eng aziz va hurmatli boʻlgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va taʼlim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, deb taʼkidlaydi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev: – Bugungi kunda Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin koʻmakchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir”. Aslida ham davr va zamon zalvorini zimmasiga olgan XXI asr ustozlari – yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar hisoblanadi. Bunday avlodni tarbiyalashda ustoz-murabbiylarning xizmati cheksiz.

1997-yildan buyon har-yili mamlakatimizda “1 oktabr – Oʻqituvchi va murabbiylar kuni” umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Zotan, yosh avlodni komil inson etib tarbiyalash yoʻlida mehnat qilayotgan oʻqituvchi va murabbiylarni har qancha ardoqlasak, hurmat qilsak arziydi. Inson, eng avvalo, unga bilim va maʼrifat dunyosi sari yoʻl ochib bergan, qalbiga yuksak insoniy fazilatlar hissini singdirib zahmat chekkan ustoz va murabbiylariga nisbatan koʻnglida hamisha minnatdorlik tuygʻusini asrab-avaylaydi. Maktab ostonasiga ilk qadam qoʻyganimizda qoʻlimizga qalam tutqazib, alifboni oʻrgatgan birinchi ustozimiz siymosini, fidokorona mehnatini doimo minnatdorlik bilan eslaymiz va qalbimizda ularga nisbatan hurmat-ehtirom hissini tuyamiz. Holbuki, olam gultoji inson boʻlsa, ular orasida suyuqlisi ustoz-muallimdir.

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” gʻoyasi asosida odimlayotgan yangi Oʻzbekiston oldida turgan eng muhim maqsad-vazifa: taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun erkin va farovon hayot qurishdan iborat. Ana shunday sharafli vazifani uddalaydigan ishonchli, kuchli, oʻz bilimi va isteʼdodiga suyangan, hech kimdan kam boʻlmagan, jamiyat hayotiga dadil kirib borayotgan navqiron avlodni esa ustozlar tarbiyalab yetishtiradi. Ularning bu sharafli va masʼuliyatli kasbidan kelib davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev 2021-yil 9 sentabr kuni Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasining X sʼezdidagi nutqida: “Ijodkor ziyolilarga doimiy eʼtibor qaratish, ularni moddiy va maʼnaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlashga, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlarni ushbu sohadagi siyosatimizning muhim yoʻnalishlari sifatida davom ettiramiz”, degan fikrni taʼkidlab oʻtdilar. Chindan ham, bu borada oʻta masʼuliyatli vazifani oʻz zimmasiga olgan,

fidokorona mehnat qilayotgan o‘qituvchilar va murabbiylarning zahmati har qancha maqtovgga loyiq, ijtimoiy siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Bugun xalqaro maydonda, rivojlangan mamlakatlarda ustozmuallif sifatiga qanday baho berilmoqda, degan haqli savol tug‘ilsa, aslo ikkilamasdan jonkuyar soha fidoyilari yuksak e’tirofga munosib ekanligini kuzatamiz. Misol uchun, Yaponiya imperatoridan bu davlatning shunchalar ildam rivojlanish siri nimada degan savolga, u: «Men o‘qituvchiga prezident obro‘cini, bosh vazir maoshini, diplomat himoyasini berdim» degan ekan. Bundan 3-yil muqaddam Germaniya kansleri Angela Merkelga bir guruh shifokorlar maoshlari ustozlarinikidan kam ekanligi uchun shikoyat qilganda, unga javoban kansler: “Men sizlarga ustozlaringizdan ko‘p pul to‘lashimga umid ham qilmanglar. Axir men sizlarga ustozingizdan qanday qilib yuqori maosh to‘layman” deydi. E’tiborli jihati, kunchiqar mamlakatda eng obro‘li xonadonga qo‘shni bo‘lish niyatida ustoz bilan qo‘shni bo‘lishar ekan. Shvetsiyalik bir obro‘li xonadan vakilidan “Siz nasib qilsa farzandingizni qayerda o‘qitmoqchisiz?” deb so‘rashsa, u “biror-bir yaxshiroq joyda, ya’ni, iloji bo‘lsa o‘qituvchi bo‘ladi”, deb javob qaytaradi.

Ustoz maqomi tarix silsilasida

Ustozsiz hech bir jamiyat, inson kapitali shakllanib kamolga yetmagan. Qolaversa, ustozning ham ota-onadek haqlari bor. Farzandlarimizni ustozni hurmat qilishga o‘rgatishimiz lozim. Shunda ular harf o‘rgatgan, yomon yo‘llardan qaytargan kishining qadriga yetadi, Hasan Basriy roziyollohu anhu aytadilar: Ustozlar, olimlar yulduzlarga o‘xshaydi. Agar ko‘rinib tursa, odamlar ular bilan yo‘l topishadi. Agar ko‘zdan yo‘qolib zulmatda qolsa, qayoqqa yurishini bilmay, hayron qolishadi. Olimlar o‘limi bilan Islomda bo‘shlik paydo bo‘ladi. Vaqt o‘tsa-da bu bo‘shliqni biror narsa to‘ldira olmaydi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Otaning yuziga qarash – ibodatdir, Mushafga (Quron) qarash – ibodat, Ka’batullohga (qiblamiz)ga qarash ibodatdir. Olimning yuziga qarash ham ibodatdir.” Tabiiyki, muallimni hurmatlab, uning mehnatini daraxtga, yani mevali daraxtga o‘xshatishadi. Shogird har doim ustoziga tavoze’li bo‘lishi, har ishda undan maslahat olishi lozim. Ustoz oldida o‘zini hokisor tutishi ham, kibrlanmaslik ham farz va shartdir. Imom Shofeiyy roziyallohu anhu: “Molikning huzurida u kishini hurmatlab, qog‘ozning shitirlashini eshitmasin deb, kitobni sekin varaqlardim dedilar.”

Abu Lays Samarqandiy roziyallohu anhu aytadilar: “Kim olim oldiga kelib, u bilan birga o‘tirsas, uning ilmiga qodir bo‘lmasa ham unga 7 yaxshilik bordur: 1. Ta’lim oluvchilar fazilatiga erishadi; 2. Olim bilan o‘tirishda

davom etsa gunohlar va xatolardan hxoli bo'ladi; 3. Uyidan chiqsa unga Allohning rahmati bo'ladi; 4. Olimning oldida o'tirganlarga rahmat tushadi, demak unga ham shu rahmatdan nasiba bor; 5. Olimni eshitib turish – unga yaxshilik (savob) bo'ladi; 6. Maloikalar olimlardan rozi bo'lib, ularni qanotlar bilan o'raydi. Tabiiyki o'sha yerda o'tirgan ilmsiz kishi ham bundan nasiba oladi; 7. Har bir qo'ygan qadami gunohlari uchun kafforot bo'ladi.

Imom A'zam Abu Hanifa roziallohu anhu shunday deganlar: "Ustozim Hammodning hurmati uchun uning uyi tomonga oyog'imni uzatmayman, holbuki uning uyi bilan mening uyim orasida 7 ko'cha bor edi. Ustozim Hammod vafot etgach, qachon namoz o'qisam, har safar ota-onamga qo'shib unga ham mag'firat so'rganman."

Alisher Navoiyning ustoziga bo'lgan munosabatini quyidagi rivoyatdan bilsa bo'ladi: Bir kuni podsho Husayn Boyqaro bilan otda ketayotgan Alisher 3-4 yoshli bolakayning qum o'ynab o'tirganiga ko'zi tushib uni darhol tanib qoladi. Otdan tushib 4-5 qadam piyoda yurib, uni quchoqlab, suyub ust-boshiga o'rnashgan tuproqlarini qoqib, hurmat ko'rsatadi. Bundan ajablangan Husayn Boyqaro "Mavlono nechuk siz bu yosh bolaga katta iltifot ko'rsatursiz. Sababi nedur?" deb so'raydi. "Bu yosh bola ustozim Abdurahmon Jomiyning nabiralari bo'ladi", deb javob beradi Navoiy...

Ustoz-murabbiylarning inson taqdiri, ta'lim-tarbiyasi xususida tarixdan misollar bisyor. Tarixda nom qoldirib dunyoning 4/3 qismini egallagan makedoniyalik Aleksandr (Iskandar Zulqarnayn) bir umrga ustozni Aflotundan qarzdorligini aytgan. Qolaversa, sohibqiron bobomiz Amir Temur o'z pirlari Said Barakani qanchalar hurmatlagani hech kimga sir emas.

Ustoz-muallimlar jamiyat binosining binokorlari, ong-u tafakkur muhandislari va ma'rifat bog'ining bog'bonlari! Ustoz va muallim hayot bo'stonidagi niholning baquvvat daraxtga aylanishi uchun beqiyos zahmat chekadi, sabr va mehr bilan parvarishlaydi. Dunyo-yu oxiratda ulug'lik, manfaat va najot keltiradigan yo'lga yo'llab qo'yadi. Bunga qo'shimcha ravishda shogirdining salohiyati uchun tun-u kun duoda bo'ladi. Natijada uning qo'liga nihol bo'lib kelgan o'quvchi va talaba sovuq urmasdan, zulmatlarda abgor bo'lmasdan unib-o'sadi va vaqti kelib bshu nihol hayot bo'stonidagi serbarg va muhtasham daraxtga aylanadi. Keyin u ham, o'z navbatida, ma'naviyat bog'iga o'zining sarhil mevalarini ulashadi.

Zero, ustozu muallimlar to'g'risida, ularning sermashaqqat mehnatlari sharafli kasblari to'g'risida qanchalar gapirsak, shunchalar ozlik qiladi. Ular go'yoki ma'naviyat osmonida musaffo ziyo taratib turgan yo'lchi yulduzdirlar. Nainki, ular tufayli odamlar to'g'ri yo'lni topadilar, ularning sharofati bilan jaholat zulmatlaridan omonlik qirg'og'iga yetishadilar. Binobarin, ustoz-muallimlarni risoladagidek hurmatlamay, haqlarini munosib ado qilmay

turib, farzandlarimizdan mahalla-kuy, el-yurt, qolaversa, butun dunyo uchun foydasi tegadigan yetuk shaxslar, olim-u ziyoli, shifokor-u muhandis, xodim-u tadbirkor kabi kishilik jamiyatiga foydasi tegadigan kerakli va fidoyi insonlarni kutish mushkul ish. Bu – bamisoli urug‘ni yerga qadamasdan turib hosil kutishdek gap.

Zamon va davr ustozlari: amaliy hayot va tarixga nazar

Bugungi kunda o‘qituvchi deganda ko‘z oldimizga kim keladi? Avvalo, muammoga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashsak, shu narsa ayon bo‘ladiki, o‘qituvchilar katta mahobat egasi, hayot maktabini o‘tagan ibrat namunasi bo‘lgan zotlar, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz shunday ustozlar qo‘lida tahsil olganmizki, hattoki ular bergan bilim hamon esimizda, xotiramizda muhrlangan. Hech mubolag‘asiz, hozir ham doskada o‘nlab fizika, ximiya va matematikaga tegishli bo‘lgan formulalarni yozib berish darajasiga xotiramizda qolgan. Ustozimiz ximiya yoki fizika fanidan bir kun amaliy tarzda reaksiya qo‘yib, dars o‘tmasalar, “bolalarim meni kechirasizlar, bugun darsimiz ko‘ngildagidek bo‘lmadi», deb hisoblab, kamchilikni o‘z bo‘yniga olardilar. Gey-Lyussak, Nyuton, Edison, Boyl Mariot va Kulon qonunlari deysizmi – barcha-barchasi hamon kechagiday yodimizda.

O‘tgan asrda yashab, faoliyat olib borgan allomalaridan biri, Amin Umariy ta’kidlaganidek: “Sen o‘zingdan shunday shogirdlarni tarbiyalaginki, sening qarigan chog‘ingda ham sen bergan tarbiya sezilib tursin”. Darhaqiqat, mazkur fikrni keltirib o‘tishimizdan maqsad shuki, qaysi bir ustoz bergan saboq bir umrga tatiydi, yana qaysi beri bergan bilim ma’lum bir muddatga tatiydi, yana boshqasiniki, o‘sha kuniyoq qumga quyilgan suvday izziz yo‘q bo‘lib ketadi. Albatta, bu yerda kimdir zamon allomasi sifatida jamiyat o‘qituvchisi, yana kimdir maktab o‘qituvchisi va yana kimdir sinf o‘qituvchisi sifatida gavdalanadi.

Ne ajabki, istiqlolning ilk-yillarida ziyoliga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Ammo u o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan ishlar og‘usida qoldi. Bu kasb egalariga ikkinchi darajali maqom sifatida qaraldi. O‘qituvchining o‘zi darsda bo‘lsada, xayoli, fikr-u zikri qaysidir savdo rastasida, tirikchilik og‘ushida – oilaviy tashvishlar girdobida bo‘lib qoldi. Fikr, bilim qalbdan chiqib, qalbgaga yetib bormadi. Natijada fikr, bilim bir umrga muhrlanmadi. Zotan, allomalar ta’kidlaganlaridek, kim nima bilan uzoq shug‘ullansa, shunga ko‘nikadi va maqomi ham shu darajada qolib ketadi...

Ustoz o‘z kasbi, bilimi va hayotda to‘plagan tajribasi bilan obro‘ topadi. Qars ikki qo‘ldan deganlaridek, bir tomondan o‘qituvchi ma’lum ma’noda obro‘yi va imijining tushishiga o‘zi sababchi bo‘lib qoladi. O‘z ustida

muntazam ishlamaslik, ilm va ijodda, pedagogik faoliyatda innovatsion g'oyalarga asoslanmaslik, konservativ tarzda kasbiga yondashish, albatta, salbiy asoratlar qoldiradi. Ikkinchidan, o'qituvchiga va, umuman, har qanday kasb egasiga nisbatan imkon qadar munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash va shundan keyin talabni qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, eng avvalo, davlat va jamiyat tomonidan amalga oshirilishi kerak. Bunga tarixdan o'nlab misollarni keltirish mumkin. Hazrat Alisher Navoiy, sohibqiron Amir Temir, Mirzo Ulug'bek bobolarimizning ustozlarga otalarcha g'amxo'rlik qilganlarini unutmashimiz kerak. Ayrim murabbiylarning yetishmovchilik tufayli shogirdi oldida mulzam bo'lishi, ular hurmatidan mosuvo bo'lishi zaminida iqtisodiy-ijtimoiy ta'minlanmaganlik muammosi yotadi. Shu o'rinda bu haqda tarixdan misollar keltirish joiz. Imom Navaviy aytadilar: "O'quvchi muallimiga itoatkor va royish bo'lishi, uning so'ziga quloq solib, o'z ishlarida u bilan maslahatlashib turishi va oqil bemor mohir tabib so'zini qabul qilganidek, u ham o'z muallimining so'zini qabul qilmog'i lozim. Shuningdek, muallimiga ehtirom ko'zi bilan boqishi, uning o'z ishida komil iqtidor va malaka sohibi ekanligi va boshqa ustozlardan ustunligiga ishonmog'i lozim. Ana shunda undan manfaat olishi oson bo'ladi". Allomalarimiz aytganidek, talaba o'z ustozining kamoli ahliyat va iqtidor sohibi ekanligiga, o'z ishining mohir mutaxassisi ekanligiga e'tiqod qilib, qattiq ishonishi, u haqda faqat yaxshi fikrda bo'lishi lozim. Agarchi, ustozidan diyonatga ochiq-oydin ters keladigan xatti-harakatning guvohi bo'lsa ham, uni faqat yaxshilikka yo'yib, yaxshi gumonda bo'lishi kerak. Aks holda, uning barakasidan mahrum bo'ladi. Yana Imom Navaviy "Al-majmu'"da yozishicha, qadimda o'tgan ulug'larimizdan birlari har safar muallimining huzuriga ketayotganda yetim-esirlarga sadaqa va xayr-ehson qilar ekan. So'ng, qo'llarini duoga ochib: "Iloho, muallimimning aybini mendan yashirgin! Va uning barakasidan meni mahrum qilmagin!", deya iltijo qilar ekan. Demak, o'qituvchi ham "ilmdan o'zga najot yo'q" degan hikmatga asoslanib, chuqur asosli bilimlar bilan qurollanishi va yuksak ma'naviy-axloqiy omillar orqali o'zining ijtimoiy-ma'naviy dunyosini boyitib borishi darkor. Ya'ni, tamagir bo'lmasligi, sofdil, xushxulq, o'z mas'uliyati va vazifasini vijdonan bajara oladigan, diyonatli, o'z kasbiga sodiq va bolalarni sevadigan ustoz bo'lishi nazarda tutiladi.

Manbalarda muallimlarga nisbatan rioya qilish lozim bo'lgan odoblar sanalganda ayrim diqqatni tortadigan jihatlarga duch kelamiz: "O'quvchi agar muallimini bir to'da insonlar ichida uchratib qolsa, jamoaga salom bergach, muallimiga alohida salom berib, mulozamat qilishi kerak". Zotan, haqiqiy ilm sohibi ichi boshqa, tashi boshqa bo'lmaydi.

Ammo o'qituvchi yaxshi bilmagan, o'zlashtirmagan va oxiriga yetmagan

masalalarda o‘zicha hukm chiqarmasligi lozim. Bunda bilmagan narsalarini biladiganlarga havola qilish, bilmaganini “bilmadim” deyishdan tortinmaslik maqbulroq. Shogirdlarga bergan ilmini minnat qilmasligi lozim. Muallimning odoblaridan yana biri – o‘zi mutaxassis bo‘lgan ilmdan boshqa ilmlarni qoralamaslikdir. Haqiqiy olim, ustoz murabbiy shogirdlarini barcha foydali ilmlarga targ‘ib qiladi. Hamma darslarni birdek o‘zlashtirishga chorlaydi. Muallim o‘z talabasini qo‘liga topshirilgan omonat, deya bilmog‘i zarur.

Ustoz-murabbiy – uchinchi Renessensni yaratuvchi lokomotiv

Tabiiyki, bugungi kunda yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida, barcha muammolar, oxir-oqibat raqobatlashgan mehnat bozorida kadrlar masalasiga kelib taqaladi. Buning uchun nima qilmoq kerak va ustozlar oldida turgan ziyolilik mas’uliyati nima bilan o‘lchanadi, degan savol paydo bo‘ladi. Zero, tarbiyali millat, tarbiyali jamiyatgina har qanday tahdidlarga bardosh bera oladi va barqaror taraqqiyot kafolati hisoblanadi. Ochig‘ini aytganda, so‘nggi besh-yilda haqiqatni tan olishsh kerakki, Prezident Shavkat Mirziyevov tomonidan zamon talabi asosida o‘ta mas’uliyatli, zalvorli va sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Sohaga aloqador yangi xujjatlardan tortib ustoz maoshining oshirilishi, mavqeining ko‘tarilishi tufayli ustoz nomi e‘zozlanib, u yana jamiyat hayotiga, maktab bag‘riga qaytdi. Keyingi-yillarda birgina xalq ta’limi tizimiga 160 mingdan ziyod erkak o‘qituvchi qaytgani quvonarli hodisa, albatta. Zero, bugun jamiyatimizda bilim berishdan ko‘ra, yoshlar tarbiyasi oqsayotgani va shunga jiddiy ahamiyat berish zarurligi kechiktirib bo‘lmaydigan vazifamizga aylandi.

Yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi asosiy omil ustozlarning o‘rni va roli bilan o‘lchanadi. Aytish joizki, sifatli ta’lim, xalqona tarbiya, o‘zlikni unutmaslik va yoshlarni Vatanga ishonch va muhabbat ruhida tarbiyalash zamirida ulkan aql, yuksak malaka va mahorat yotadi. Sifatli ta’lim haqida bejiz eslatmadik, barcha ishlarimizdagi muvaffaqiyatsizlik garovi sifatsiz ta’limga borib taqaladi. Janubiy Afrika mamlakatlaridan birining oliy o‘quv yurti peshtoqiga “Sifatsiz ta’lim mamlakat beqarorligi kafolatidir”, deb yozib qo‘yilgani bejiz emas.

Uchinchi Renessans haqida gapirar ekanmiz, shunga mos tarzda bu jarayonda ustoz-pedagogning kasbiy mahorat maqomini belgilashda jamiyat bugun ustoz-murabbiydan nimani kutadi? Bu borada gap kasbiy, ma’naviy, pedagogik, qolaversa, ilmiy-nazariy jihatdan mezonlarni belgilash haqida ketmoqda. Uzoq-yillar mobayni pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish va jarayonni ichidan kuzatish, uni ikir-chikirlariga qadar bilish hamda bir qator chet mamlakatlarida (Janubiy Koreya, Germaniya, Rossiya, Ukraina va boshqalar) tashriflarimizdan kelib chiqib sohaning ayrim jihatlari

bo'yicha fikr bildirish o'rinli, deb hisoblaymiz. Birinchidan, fikrimizcha, kadrlarni chetdan olib kelish masalasini o'ylab ko'rish lozim. Ularga bu yerda anchagina pul to'lanishini nazarda tutsak, shu pulni ular oqlaydimi, degan masala ko'tariladi. Bir vaqtlar turk maktablarini ochganimizda yoki yoshlarimizni u yurtga jo'natganimizda mafkuralashtirish qanday oqibatlariga olib kelganligini yaxshi bilamiz. Chet elda bir qator ustozlar bilan malaka oshirganimiz yoki xizmat yuzasidan borganimizda, u yoqdagi kadrlardan ko'ra, bizning ustozlarimiz bilimi va malakasi, axloq va ma'naviyati yuqori bo'lganligiga amin bo'lganmiz. Keling, yaxshisi buni aniq misollarda tushuntiray. 2001-yil Janubiy Koreyaning Inchon shahriga bir oylik malaka oshirish kursiga borganimizda faqat ingliz tili bo'yicha ikki nafar xorijlik ustozlar (Kanada va AQShdan) ikki soatdan oshiq dars o'tisha olishmadi. Hijolat bo'lganlaridan boshqa kirmadilar. Chunki, bizni o'qitishga tajribasi va bilimi yetishmasligi ayon bo'luvdi. Shu yerlik ijtimoiy fanlar bo'yicha olimga "Koreys xalqining tarixiy ongini nimalar va qanday mezonlar tashkil qiladi?" hamda "Tarixiy ong va xotira masalalari qanday ishlangan?" degan savolimizga bir haftadan so'ng deyarli qoniqarli javob bera olmasdan "Siz ingliz tilidan tashqari, boshqa fanlardan ham bilimingiz yaxshi ekan" degan. Shunday holat yaponiyalik axborot texnologiyasi bo'yicha professor bilan uchrashuvda bizning talabalarimiz tomonidan berilgan savolga asosli javob berolmaganda, "Sizlarda turli fanlardan ham bilim olishlaringiz koni foyda ekan", deb qoyil qolgan edi. Bunday misollarni ko'plab keltirib o'tish mumkin. O'ylaymanki, ustozlarga bundanda yaxshi maosh to'lansa, chet ellikdan ziyoda o'tishga va milliyligimizni saqlab qolishga ishonamiz.

Xulosa o'rnida

Chindan ham, har bir o'quvchi, yosh-avlodota-onasi va jamiyat tomonidan ustozning qo'liga topshirilgan buyuk omonat! Bu borada ustozning zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklatilgan bo'ladi. Ustoz o'quvchi-talaba shaxsiyatining shakllanishi, fikrlarining o'sishi, nafsining tarbiyalanishi, ilm olishi, ma'rifat hosil qilishi kabi bir qancha o'ta ahamiyatli narsalarda mas'uldir. Zero, ustoz sharafi uning aql-idroki, bilimi, madaniyati va ma'naviyati bilan go'zal. Ustozi qanday bo'lsa, uning shogirdi ham shunday sifat va xislatlarga ega bo'lib ulg'ayadi. Hatto, xusnixati boshlang'ich sinfda chiroyli bo'lmagan ustozdan chiroyli xusnixatga ega shogirdni tarbiyalab bo'lmaydi. Komil va kamolga yetgan ustozgina o'zidan kuchli, barkamol shaxsni tarbiyalaydi. Alloma bobomiz Abu Ali ibn Sinoning yoshlik chog'larida ustoz uyiga kelib mashg'ulot o'tsa-da, besh-olti saboqdan so'ng bo'lajak allomaga dars berolmasdan, uning zehniga qoyil qolgan ekan. Bu shundan dalolat beradiki, bugungi talabga javob beraman, degan ustoz tinmasdan, muttasil

o‘z ustida ishlashi va shu orqali shogirdlarga ham ma‘nan, ham ilm borasida bahsga kirisha olish san‘atini o‘rgatishi, bilim bilan oziqlantirishi kerak. Har bir mamlakatning taqdiri muallimga, ta‘lim tizimining sifatiga bog‘liq. Maktab shaxslarni tarbiyalaydi, bilim beradi, voyaga yetkazadi. Bolalik va o‘smirlikda olingan bilim umr bo‘yi insonga do‘st, hamroh bo‘lib xizmat qiladi. Biz tarbiyalayotgan shaxs jamiyatda yetakchi kuch, ammo fikrlay boshlasagina, u davlatga suyanchiq bo‘la oladi.

Yurtboshimiz 2020-yil 29 dekabrda Parlamentga Murojaatnomasida yoshlar va ilm-ma‘rifatli avlod masalasiga bu qadar jiddiy e‘tibor qaratganliklarini kontent tahlil asosida 47 marta “Yoshlar” so‘zi ishlatilganidan bilsak bo‘ladi. Murojaatnoma mazmun-mohiyati jamiyat qatlamlariga yoyish maqsadida 2021-yilda 10 ta Prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika, axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan 197 ta maktab faoliyat boshlashi, pedagoglarning “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida malakasini uzluksiz oshirib borishi yo‘lga qo‘yilgani, ularga toifa berish mezonlari qayta ko‘rib chiqilayotgani, bolalarda mehnat ko‘nikmalarini maktab davridan boshlab shakllantirib borish maqsadida “kasbga o‘rgatish tizimi” joriy etilishi hamda pedagog, metodistlar mehnatiga munosib haq to‘lash maqsadida xalq ta‘limi xodimlarini rag‘batlantirish hududiy jamg‘armalariga 330 milliard so‘m yo‘naltirilishi – bularning barchasi mushtarak maqsadga, ya‘ni uchinchi Renessansga ishonchli tamal toshi qo‘yilayotganiga ishora sifatida baholash mumkin. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2021-yil 9 sentabr kuni Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining X qurultoyidagi nutqida: “Yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – bizning oliy maqsadimizdir”, degan fikrlari soha va uning jonkuyarlarining sharfli mehnati orqali ularni bugunning chinakam qahramonlariga aylantirish maqsadi yotganini anglab yetmoqdamiz. Ha, muallimlar – Inson ruhining injenerlari yohud uchinchi Renessans lokomotivlari hisoblanadi. Yurtboshimiz tili bilan aytganda, o‘qituvchi – kelajak bunyodkori!

O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI YANGI BOSQICHGA KO‘TARISH VA BU JARAYONDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISH MASALALARI

Babajanova Diloram Babajanova,
tarix fanlari doktori, professor
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotasiya: Maqola O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini o‘rganish va uni takomillashtirish borasida davlat tomonidan yuritilayotgan siyosat doirasida amalga oshirilib kelinayotgan yangilanish jarayonlaridagi tub islohotlarda yoshlarning ma’naviy yuksalish yo‘lidagi faolligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish jarayonida olib borilayotgan ilmiy-ijodiy faoliyat bilan yoshlarni tanishtirish hamda ularni beqiyos ta’sir kuchiga ega bo‘lgan milliy-tarixiy qadriyat hayotidan ibrat olish va saboq chiqarishga undash hamda ijtimoiy foydali ishlar bilan shug‘ullanishga yo‘naltirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlar, yangilanish jarayoni, ma’naviy yuksalish, tub islohotlar, yoshlar masalasi, ilm-fan.

Uzoq-yillar davomida xalqimiz orziqib kutgan istiqlolning 33-yilligini nishonlash arafasida turar ekanmiz, ayniqsa, so‘nggi olti-etti-yilda, har kuni, har haftasi-yillarga teng bu davrda iqtisod, siyosat, ma’rifat, ma’naviyat sohasida qanday natijalarga erishganimizni sarhisob qilib ko‘riladigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Biz endi kechagi odamlar emasmiz. Xalqimiz ham kechagi xalq emas. Tarixdan ma’lum: vaqtni – imkoniyatga, imkoniyatni – yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq – buyuk xalqdir”[1]. Har bir millatning o‘ziga xos jihatlari, xususan, ma’naviyatini yuksaltirishda eng avvalo, beqiyos ta’sir kuchiga ega bo‘lgan milliy-tarixiy qadriyatining o‘rni katta. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy, diniy va tarixiy qadriyatlarning qayta tiklanishi, buyuk zotlar, xususan, buyuk allomalarning tarbiyaga oid ta’limotlarining o‘rni va ahamiyati katta.

O‘zbekistonda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, o‘tgan buyuk ajdodlar xotirasini yodda saqlagan holda, e’zozlab, yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatish, ularni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Binobarin, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 25 avgustda “Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-361-son qarorining qabul qilinishi [2] va unga ko‘ra, buyuk ajdodimiz yubiley tantanalarini

nishonlashga jiddiy tayyorgarlik ko‘rilishi va munosib nishonlashga doir vazifalarning belgilanishi ayni muddao bo‘ldi. Jumladan, 2022-2023-yillarda buyuk qomusiy olim, majmuasi qurilishi, bog‘ barpo etilishi, kitoblarining chop etilishi va shu kabi ezgu ishlar amalga oshirildi.

Dunyo ilm-fani rivojiga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgan ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniyning nomi mangulikka daxldor bo‘lib, uning ilmu ma‘rifat o‘rganish orqali olamni ezgulikka, taraqqiyotga yetaklash maqsadida avlodlarga qoldirgan buyuk merosi insoniyat uchun bebaho xazina, shu bilan birga, kelajak avlodlarga qoldirgan ilmiy va ma‘naviy merosi beqiyosdir. Yangilanayotgan O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyot yo‘lida xalqning eng katta boyligi bo‘lgan ulkan intellektual va ma‘naviy salohiyat egalaridan bo‘lmish yoshlar ma‘naviyati va huquqiy madaniyatini yuksaltirishdagi o‘rni yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik bergan buyuk ne‘matlardan biri ham shundaki, millatimizni o‘tmishi kamida uch ming-yilga borib taqaladigan haqqoniy tarix bilan qurollantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk ajdodlarning tarbiyaga oid ta‘limotlarining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixning o‘tgan qisqa muddati davrida biz o‘zligimizni, o‘z g‘oyamiz, milliy g‘ururimiz va tafakkurimizni anglash tuyg‘usini boshimizdan kechirmoqdamiz. Bu tuyg‘uning ildizi bo‘lgan o‘tmish esa bugungi kunga hamohang buyuk ajdodlar g‘oyalari, tafakkuri bilan ma‘naviy bog‘liqdir.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma‘naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosining keng o‘rganilishi, yoshlar qalbi va ongiga milliy g‘oyaning chuqur singdirilayotganligi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbekistonning bugungi yoshlari sharoit va yangi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk allomalar va ustozlardan ibrat olib ish yuritsalar, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlarini to‘liq egallaydilar, mamlakat taraqqiyoti, yuksalishi uchun yetuk va malakali kadrlar bo‘lib yetishadilar. O‘zbekistonda yoshlarning ma‘naviy tafakkurini yuksaltirish, buyuk ajdodlar xotirasini yodda saqlagan holda, e‘zozlab, yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatish, ularni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Binobarin, Yangilangan Konstitutsiyaning 78-moddasida keltirilganidek, “davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”[3]. Zero, buyuk siymolarimiz nomlari dunyo ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘shganliklari bois, mangulikka daxldordir. Ularning ilmu ma‘rifat o‘rganish orqali olamni

ezgulikka, taraqqiyotga yetaklash maqsadida avlodlarga qoldirgan buyuk merosi insoniyat uchun bebaho xazinadir.

Hozirgi kunda Yangi O‘zbekiston atalmish jannatmakon yurtga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyati va ma’naviy qadriyatlarini jahon ahli tan olayotgan bir davrda ajdodlari qoldirgan boy milliy qadriyatlarni avaylab-asrash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shunda o‘tmishdagi buyuk zotlar: “Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o‘z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g‘oyalarida mujassam bo‘ldi”[4.16], deb aytish mumkin. Ular qoldirgan ulkan ma’naviy merosdan o‘rnak va ibrat olib, bu g‘oyani yoshlar ongiga tezroq yetkazish hamda ularning ilmga, mamlakat tarixiga bo‘lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirish, ularda milliy g‘urur shakllanishiga imkon yaratilishi, yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda buyuk bobolar merosining nechog‘lik qimmatli ekanligini ko‘rish mumkin.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ilmiy meros, milliy, diniy va tarixiy qadriyatlarning qayta tiklanishi, buyuk zotlar, xususan, buyuk allomalarning ilm-fan rivojiga oid ta’limotlarining o‘rni va ahamiyati katta. Zero, taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan Yangi O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – **Uchinchi Renessans** davriga poydevor yaratilayotgan bir paytda, ajdodlarimizning bebaho merosi – abadiyatga daxldor ma’naviy xazina ekanligini chuqur anglansa, bu jarayonda yoshlar qanchalik salohiyatli, ma’naviyati va huquqiy bilimi yuksak bo‘lsa, ilm-fan yanada taraqqiy etadi. Prezidentta’kidlaganidek, “bugun biz intilayotgan Yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish oson emas. Bunday ulug‘ vazifaning sharti va mezonlari ko‘p. Ammo eng muhim va hal qiluvchi omil – bu demokratik islohotlar yo‘lidir. Shu bois xalqimiz manfaatiga to‘la javob beradigan bu yo‘ldan hech qachon ortga qaytmaymiz. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, faqat oldinga qarab boramiz”[5]. Bu borada yoshlar ta’lim-tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ta’sirchanligini yanada oshirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada turli ta’lim tizimi tashkilot va idoralarining qo‘shadigan hissalarini yanada oshirish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ayniqsa, “milliy ma’naviyatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ allomalimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo‘lyozmalarini o‘rganish, mavjud nusxalarini yurtimizga olib kelish, atroflicha tadqiq qilib, xalqimizga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilishi”[6.34] yo‘lida amaliy harakatlarga undab kelmoqda.

O‘tmish ajdodlar o‘rtasidagi vorislik tuyg‘usini, ularning bir-

biriga daxldor ekanini, hayotning bamisoli uzviy xalqlar kabi ketma-ket bog‘lanishini anglash, allomalarning tarbiyaga oid ta‘limotlaridan xulosa chiqarib, bugungi kun uchun to‘g‘ri yo‘l tanlash, ota-mutafakkir bobolarimizning ruhi poklariga hurmat bilan qarash, milliy qadriyat va an‘analarimizni toptashga yo‘l qo‘ymaslik, ularni ko‘z qorachig‘idek asrash, yangilanayotgan bugungi kunda ana shu noyob va mo‘‘tabar merosning qay darajada saqlanib, avaylanib kelinayotgani, uni har tomonlama o‘rganish, keng omma, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, jahon jamoatchiligiga targ‘ib etish borasida amaliy ishlar faol olib borilmoqda. Vatanimiz kelajagi bo‘lgan barkamol avlodni yetishtirish uchun millatimizning har bir vakili o‘z farzandini milliy g‘oyamiz, qadriyatlarimiz, tilimiz, qadimiy tariximiz, madaniy boy o‘tmishimizda chuqur iz qoldirgan buyuk siymolarimizga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash bilan birga, o‘zbek millatining o‘zigagina xos bo‘lgan insonparvarlik, baynalmilallik, samimiylik va bag‘rikenglik ruhida ham tarbiyalash, bugungi kunda har qachongidan ham muhimroqdir.

Xulosa shuki, mamlakatimizda boshlangan ezgu ishlarni davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Prezident Sh Mirziyoyev 2024-yilga “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash-yili”, deb nom berishi jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta‘minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishini ta‘minlash va biznesni yanada rivojlantirishdan iborat ekan, ularning o‘z oldiga katta marralarni qo‘yishlari va qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishlari uchun sharoit, keng imkoniyatlar yaratib berish kerak. Ana shunda Prezidentning, “...albatta, hayot bor ekan, uning yutuq va quvonchlari, tashvish va muammolari ham bo‘lishi tabiiydir. Ammo inson va xalq aql-zakovati, halol mehnati, mustahkam irodasi bilan har qanday sinovlardan munosib o‘tishga qodir”[7.], deb ta‘kidlagani ayni haqiqatga aylanadi.

O‘zbekistonda yoshlar muammolari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Shu sababli ham, mamlakatning barcha sohalardagi islohotlar ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarga tayaniladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 23 dekabrda Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida ta‘kidlaganidek, “bugun ma‘naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma‘naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!”[8]. Shu boisdan ham, Yangi O‘zbekistonda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, bu yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishga kengroq jalb etish vazifasi ustuvor masalalardan biriga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mustaqilligining 32-yiliga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// <https://daryo.uz/k/2023/08/31/shavkat-mirziyoyevning-ozbekiston-mustaqilligining>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-361 sonli qaror// <https://lex.uz/docs/6172044>
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi// lex.uz/docs/6445145.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.–Toshkent:O‘zbekiston, 2021.–B.16.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz bir-yiliga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// <https://president.uz/uz/lists/view/5484>
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.– B.34.
7. 2024-yil — Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash-yili//<https://e-gov.uz/uz/news/2024-jil-yoshlar-va-biznesni-khllab-khuvvatlash-jili-1190>.
8. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2023-yil 23 dekabr, 267-son.

AXBOROT-MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI TA'LIM-TARBIYA VA TARG'IBOT-TASHVIQOT ASOSIDA KURASHISHNING IMKONIYATLARI

Suvanov Ilhom Abdixalilovich,
*Falsafa doktori (PhD), Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, Ilmiy kotibi*

Annotatsiya: mazkur maqolada axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot asosida kurashishning imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, bugungi kundagi yoshlar ongiga ta'sir qilayotgan tahdidlarga qarshi kurashishda texnologiyalarning o'rni tahlil qilgan.

Kalit so'zi: axborot, mafkura, tahdid, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, targ'ibot texnologiyalari, “ommaviy madaniyat”, illatlar, axloq, zararli g'oyalar.

Axborot-mafkuraviy tahdidlar keng qamrovligi va uzoqni ko'zlovchi xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda uning quyidagi

ko‘rinishlari ko‘zga tashlanmoqda: milliy qadriyatlarni kamsitish, milliy axloq qoidalarini inkor qilish, mo‘tadil qarashlarni pisand qilmaslik va bularning o‘rniga muayyan mafkuraviy markaz yo‘rig‘iga yurish, kosmopolit qoidalarni maqtash, yot va begona g‘oyalarni, dunyoqarashni mutlaq haqiqat sifatida targ‘ib qilish. Diqqat qilinsa, ijtimoiy ongda zararli maqsad-muddaolarni, tuyg‘u va fikr-mulohazalarni hosil qilish axborot-mafkuraviy tahdidlarning negizini tashkil qiladi.

Shuningdek, “axborot-mafkuraviy tahdidlarning bir ko‘rinishi bo‘lgan g‘oyaviy tahdidlar inson ma‘naviy olamida yot g‘oyalar, qarashlar va maqsad-muddaolarni shakllantirishga intiladi. Bugungi kunda g‘oyaviy tahdidlarning quyidagi ko‘rinishlari namoyon bo‘lmoqda: axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, egotsentrizm, individualizm, “ommaviy madaniyat”, milliy davlatning taraqqiyot modeliga ishonchsizlik uyg‘otish, milliy nizolar keltirib chiqarishga urinish, iqtisodiy tanglik joriy qilish, qo‘shni davlatlarni bir-biriga qayrash, yoshlar ongini zaharlash. Bundan ko‘zlangan maqsad rivojlanayotgan davlatning moddiy va ma‘naviy boyliklariga egalik qilishdir. Chunki, g‘oyaviy tahdidlar oxir-oqibatda davlatni inqirozga olib keladi, nega deganda, buning natijasida, fuqarolarda xudbinlik, loqaydlik, manfaatrastlik, hasad, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik kabi ijtimoiy-axloqiy illatlar kelib chiqadi”.[1]

“Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish asosan ikki yo‘nalishda – ta‘lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot yo‘nalishida olib borilmoqda.

1. Ta‘lim yo‘nalishi. “Ta‘lim” arabcha “o‘rgatish, o‘qitish, ilm berish, ma‘lumot”, degan so‘zlardan olingan bo‘lib, 1) bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi; 2) ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo‘yicha egallanadigan, olinadigan ma‘lumot va ko‘nikmalar majmui; 3) tarbiya, odob-axloq; 4) ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riq, o‘rgatuv, degan ma‘nolarni ifodalash uchun ishlatiladi”.[2] Shunga ko‘ra, jahonda kechayotgan mafkuraviy kurash, dunyoning mafkuraviy manzarasi va shunga o‘xshash boshqa mafkuraviy jarayonlarning borishi haqida insonlarga bilim berish asosida ularning qalbi va ongiga axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi tura olish ko‘nikmalarini singdirishga qaratilgan jarayonga aytiladi.

“Hozirgi davrning shiddatli ta‘siri chinakam ma‘naviyatli va ma‘rifatli odamgina inson qadrini bilish, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy mafkurasini aniqlashi, erkin va obod jamiyatda yashashi, davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olish mumkin shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, o‘z xalqining o‘mishi bilan bir qatorda boshqa xalqlar tarixini hurmat qilish, qadrlash ham o‘z mafkurasini

anglash bilan bog‘liq, chunki o‘zlikni anglash tor ma’nodagi tushuncha emas. Biz o‘zimizni hamisha mustaqil millat – o‘zbek xalqi sifatida his etib kelganmiz va shu bilan faxrlanamiz. Darhaqiqat, o‘zligini anglay olgan millat yoshlari ikkinchi bir millatni mafkurasini hurmat qiladi”. [3]

O‘z mafkurasini anglash jarayoni nafaqat o‘ziga xos shaxsiy-individual xususiyatlarini, balki Vatanga, oilaga, el-yurtga bo‘lgan mehr-muhabbat bilan bog‘liq hodisalardir. Shuningdek, shaxsning o‘z-o‘zini anglashi ham milliy o‘zligini anglashga olib keladi. “Milliy o‘ziga xoslik va g‘ururning shakllana borishi o‘z-o‘zini anglash orqali namoyon bo‘ladi. O‘zini anglamagan o‘zligini hamda milliy mafkurasini ham bilmaydi. O‘zligini bilish esa, ma’naviy-axloqiy mas’uliyatning zarur sharti hisoblanadi. Bu jarayon mamlakatning mustaqil taraqqiyoti mafkurasi bilan bog‘liq omillardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, u yoki bu etnos, xalq, millat tarkibining yosh nuqtai nazardan yangilanib borishi, ya’ni, yangi avlod vakillarining shakllanishi, o‘rta avlod bilan yuqori avlod o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblik, muvozanatning bo‘lishi nafaqat ruhiy “psixologik” jihatdan, balki, siyosiy-mafkuraviy nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga egadir.

Uchinchidan, millat yoki xalqning ruhiy-psixologik holati, uning mafkuraviy psixologiyasidagi o‘zgarishlar va yangilanishlarni muvozanatda bo‘lishida yoshlarni o‘zidan oldingi avloddan qanday siyosiy-ruhiy holatlarga asoslanishi hamda siyosiy tajriba, saboq nuqtai nazardan ham ahamiyatli ekanligini qayt etish lozim”. [4]

Umuman olganda, axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashga qaratilgan axborot-mafkuraviy ta’lim turli ta’lim vositalarini qo‘llash orqali: maktabgacha ta’lim; umumiy o‘rta ta’lim; professional ta’lim; oliy ta’lim muassasalarida olib boriladi.

Shuningdek, axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda tarbiya omilini ham unutmazlik joiz. “Tarbiya” arabcha rivojlantirish, parvarish qilish, o‘stirish, o‘rgatish, ilm berish, degan so‘zlardan olingan bo‘lib; 1) insonlarga ta’lim, odob-axloq va shu kabilarni o‘rgatib, singdirib, ularni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish; 2) insonlarning kasb-hunar, mehnatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilatlar kabilarnng o‘zini anglatish uchun ishlatiladi”. [5]

Aynan ta’lim-tarbiya va ma’rifat jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi. Shuning uchun uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish talab etiladi. Tarbiyada tanaffus bo‘lmasligi

kerak. Tarbiya nafaqat ta'lim tizimida, balki, oilada, mahallarda ham yo'lga qo'yilishi kerak. Zero, "milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni beqiyosdir. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Vatanimiz hududida mavjud bo'lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon – u g'alaba yoki mag'lubiyat bo'ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo'ladimi – barcha-barchasi xalqimiz bosib o'tgan murakkab tarixiy yo'lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o'rganishimiz zarur. O'tmishdagi yutuq va g'alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlardan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o'zining taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladi".[6] Shunga ko'ra, "g'oyaviy tarbiyalash deb, ularning ongi va tafakkuri tizimida shu yo'nalishdagi dunyoqarashni, falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy va boshqa tamoyillarni muayyan mafkura asosida maqsadli shakllantirish jarayoniga aytiladi. Mafkuraviy tarbiya esa, inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashi shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayondir. Ular bir-biridan ajralmas qismlardir. G'oyaviy tarbiya mafkuraviy tarbiya orqali zohir bo'ladi".[7]

Barkamol farzand sog'lom oilaviy muhitda voyaga yetadi. Bunga erishish uchun – birinchi navbatda, ma'naviy targ'ibot-tashviqot ishlarini ota-onalar ongi, ularning farzandlariga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yo'naltirmoq lozim. Ma'naviy targ'ibot-tashviqotda ulug' ajdodlarimizning hayot yo'li, qoldirgan merosini bir yoqlamalikka berilmay, to'g'ri va haqqoniy aks ettirmog'imiz darkor. Lekin, bunda faqat o'tmishdagi siymolar bilan cheklanib qolmay, bugungi kun qahramonlari, ilg'or zamondoshlarimizdan o'rnak olish ham muhim ahamiyatga ega. Toki, ular yoshlar uchun tom ma'noda ibrat namunasi bo'lsin. Shunday ekan, hozirgi davrda yoshlarning dunyo miqyosida ma'naviy-mafkuraviy xurujlarning ob'ektiga aylanib qolishi sabablarini o'rganish, bartaraf etish barcha davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, yoshlarga doir siyosat yo'nalishi bir qancha rivojlangan davlatlarda XX asrning 60-70-yillarida mustaqil soha sifatida shakllandi. Biroq, 1985-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Samarali yoshlar siyosatini shakllantirishning asosiy qoidalari to'g'risida" rezolyusiya qabul qilinganidan so'ng bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb yetdi. Har bir mamlakatda o'ziga xos, davlat qurilishi va boshqaruv tizimiga mos ravishda yoshlar siyosatini yuritishning

turli mexanizmlari va tizimlari qaror tora boshladi.

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyat ma'naviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari hamda targ'ibotchi-tashviqotchilar uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bu boradagi muhim vazifalar tarkibiga kiradi. Ma'naviy targ'ibot-tashviqotda keng qamrovlilik, uzluksizlik, bosqichma-bosqichlik, me'yoriylik, shaxsiy ibrat singari tashkiliy tamoyillarga amal qilingan taqdirdagina, ko'zlangan samaraga erishish mumkin.

Umuman olganda, g'oyaviy tarbiya: oila, mahalla, ijtimoiy-ommaviy institutlar, ma'muriy-siyosiy tashkilotlar, mehnat jamoalarida olib boriladi.

Xalq qalbi va ongiga axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash quvvatini singdirish ikki – ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot qilish usullari orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiya usulida o'qitishda ko'rgazmalilik, uzluksizlik, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, tarixiy-mantiqiy izchillikni ta'minlash usullaridan keng foydalaniladi.

“Targ'ibot” arabcha “targ'ib – xohishni, qiziqtirishni kuchaytirish; rag'batlantirish” degan so'zdan olingan bo'lib 1) chuqur tushuntirish yo'li bilan biror g'oya, ta'limotni va shu kabilarni yoymoq, kishilarning ongiga singdirmoq; 2) tushuntirish yo'li bilan biror ishga chaqirmoq, da'vat yetmoq degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi”. [8] Shunga ko'ra, g'oyaviy targ'ibot, deb milliy yuksalish g'oyasini barcha aholi qatlamlarining orasida yoyishga, ular ongiga singdirishga qaratilgan ishlar, targ'ib ishlariga aytiladi.

“Tashviqot” arabcha “tashviq – qiziqish, xohishni kuchaytirish” so'zidan olingan bo'lib, “biror narsaga yo'llash, yo'naltirish, chaqirish maqsadidagi gap-so'z, hatti-harakat, undamoq, da'vat qilmoq”, degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi”. [9] Shunga ko'ra, ya'ni, g'oyaviy tashviqot deb ommaga mafkuraviy yoki boshqa jihatdan ta'sir ko'rsatish maqsadida yozma va og'zaki ravishda qilinadigan ishlar, tadbirlarga aytiladi.

“Targ'ibot-tashviqot ishlarini keng qamrovlilik, maqsadga yo'naltirilganlik, ishonchlilik, asoslanganlik, ilmiylik asosida olib boriladi”. [10]

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish omillari sirasiga targ'ibot-tashviqot ishlaridan tashqari axborot xavfsizligi masalasi ham kiradi. Informatsion tahdidlar insonning ijtimoiy ongini noto'g'ri shakllantirish va shu tariqa o'zligiga ega bo'lmagan olomoni tarkib toptirishni ko'zlaydi. “Bugungi kunda informatsion tahdidlar asosan Internet vositasida chetdan turib uyushtirilmoqda va uning asosiy ko'rinishlari quyidagilardir: davlatning milliy siyosatini atayin tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, kichik muammoni

katta (yirik) muammo sifatida tasvirlash, muxoliflarni gij-gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko'rsatish, milliy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish, yoshlarni chalg'itish. Informatsion tahdidlar – ba'zida axborot xuruji deb ataladi – shaxsni ikkilantiradi, uni muammolar girdobiga tashlaydi. Natijada, fuqarolarning ijtimoiy ongi zaharlanib, jamiyatda ijtimoiy xastalik vujudga keladi".[11]

Masalaning jiddiyligi shundaki, kompyuter viruslari bilan bir qatorda insoniyatning sof madaniyati, ma'rifati, odob-axloqi uchun butunlay zid bo'lgan "ma'naviy-axloqiy" viruslarni ham "xaker"lar orqali yoshlar ongiga uzatmoqda. Bunday g'oyaviy mafkuraviy viruslarni tarqatuvchi "xakerlar" to'g'ridan to'g'ri inson ongini, inson qalbini, o'zligini izdan chiqarishga yo'naltirilgan. Maqsad – yoshlarni ruxiy ma'naviy qashshoq qilish, mafkuraviy imunitetni yo'qqa chiqarish, intellektual salohiyatini yo'qqa chiqarish, shaxsni shaxs sifatida rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik, buning zamirida odamlar, xalqlar, millatlar o'rtasidagi ezgulik, insoniylik va o'zaro do'stlik, qardoshlik munosabatlari o'rniga yovuzlik, o'zaro dushmanlik urug'larini sepishdan iborat".[12]

Bizningcha, bugungi kundagi ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy vazifalaridan biri axborot-mafkuraviy tahdidga munosib javob berishdan iboratdir.

Bunda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratish lozim:

- axboriy-mafkuraviy ta'sirlarning milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy-huquqiy, siyosiy, sotsiologik, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy jihatlari, uning xalq odatlari, an'analari va qadriyatlarni shakllantirish hamda boyitishdagi o'rni va ahamiyati bo'yicha targ'ibot yo'nalishlarini kuchaytirish;

- dunyodagi mafkuralarning uyg'unlashishi va kurashish jarayonlarini o'rganish, monitoring o'tkazish, mafkura sohasida, ayniqsa, ilmiy omilni hisobga olgan holda, umuminsoniy va mintaqaviy muammolarni belgilash va ularni hal qilishga yordam berish;

- O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlik uchun mafkuraviy tahdidga qarshi samarali kurash yo'llari xususida ilmiy asosda tavsiyalar ishlab chiqish;

- yosh avlodni tarbiyalash jarayonlariga kuchli turtki berish uchun, birinchi navbatda, tegishli tashkiliy tuzilmalar, bolalar – yoshlar birlashmalari harakatlarini yaratish;

- milliy g'oyani shakllantirish ma'nosida bolalar va o'smirlar uchun o'quv-metodik, ilmiy ommabor va badiiy adabiyotning yangi turkumini ishlab chiqish hamda joriy etishni foaliyatning muhim yo'nalishi deb hisoblamoq kerak. Mavjud adabiyotlarni har tomonlama ekspertiza qilish asosida xalqning boy ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajribasiga uning progressiv an'analari va urf-odatlari, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, badiiy adabiyotlar nashr etishga erishish va hakoza.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар” фани бўйича маъруза матни. – Термиз, 2016. – Б. 90.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. 4. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 27-28.
3. Қудратов А. Глобаллашув жараёнида миллий қадриятлар ва мафкура // “Глобаллашув шароитида тинчлик ва барқарорликка таҳдид солувчи ғоявий, мафкуравий ва ахборот хуружларига қарши курашишнинг замонавий усулларини яратиш” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Тошкент, 2019. – Б. 120.
4. Қудратов А. Глобаллашув жараёнида миллий қадриятлар ва мафкура.... – Б. 120.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 678.
6. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б. 288.
7. Яхшиликков Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – таракқиёт стратегияси. – Тошкент: Фан, 2017. – Б. 383.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 6.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 21.
10. Яхшиликков Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – таракқиёт стратегияси. – Тошкент: Фан, 2017. – Б. 384.
11. Жўраев Т. Миллий давлатчилик ва хавфсизлик. – Тошкент: Академия. 2007.– Б. 113.
12. Жўрақўзиев Б. Глобал интернет тармоғи ёшлар онгига таъсир кўрсатувчи восита сифатида // Spientifip Journal Impapt Faptor (SJIF 2022=5.016). Volume 3 | ISSUE 4 | 2022. – P. 1341.

KITOBXONLIK – MA’NAVIYAT ASOSI

Pyos Quvondiqov,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Yangier filiali dotsenti, falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada kitobxonlik madaniyatining ahvoli, uning kechagi kuni, buguni va ertasi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mustabid tuzum, jamoatchilik fikri, kutubxona, kutubxonashunoslik, mutoala madaniyati, internet-kafe, mafkuraviy poligon, immunitet.

Albatta, kompyuter, planshet –yaxshi. Nabiralarimiz, bolalarimizga odamning havasi keladi. Bu narsalar – zamon talabi hozir. Lekin madaniyat yoshlikdan, insonni bolalar bog'chasida, maktabda kitob o'qishga o'rgatishdan boshlanadi[1].

Shavkat Mirziyoev

Mustabid tuzum davrida mafkuraviy manfaatdan kelib chiqib hattoki ma'naviy tarbiyada ham “qo‘shib yozish” odat bo‘lganini hozir hayratlanib xotirlaymiz. Ha, haqiqatdan ham ko‘p-yillar mobaynida mafkuraviy tazyiq ostida sovet xalqining g‘arb mehnatkashlaridan ustunligini sanab, shulardan biri sifatida “dunyoda eng ko‘p mutolaa qiladigan” xalq ekanligimizdan maqtanardik, g‘ururlanardik. Mana, shuncha-yillar o‘tib endi mulohaza qilib qarajak, bu kommunistlar o‘zlari qurgan jamiyatning mafkuraviy qiyofasini jahon afkor ommasi oldida shunday ko‘rsatishdan manfaatdorligining bir belgisi ekan xolos. Sotsializm tuzumi kapitalizmdan o‘zining ma'naviyatli xalqi bilan ham ajralib turishi kerak ekanda, chog‘i. Statistika organlari ham ushbu ko‘rsatkichni asoslaydigan raqamlarni topganiga ham qoyil qolish kerak. Ko‘plar ana shu gipnozga ishongan va kishi boshiga kitob mutolaa qilish bo‘yicha sho‘rolar mamlakati jahonda birinchi o‘rinni egallab kelyapti, degan fikrni singdirardi.

Kommunistlar bilan o‘sha paytlarda hech kim bu borada tortishib ham o‘tirmagan, chunki buning befoydaligini muxoliflar yaxshi bilishgan. Bu ko‘rsatkichning nimalar hisobiga bo‘lganini mulohaza qilish mumkin, chunki o‘sha paytlarda tez-tez o‘tadigan partiya tadbirlarining materiallari millionlab nushalarda ko‘paytirilar va butun sotsializm lageri degan makonda tarqatilar edi. Tarqatilgan va majburlab sotilgan adabiyotlarni kommunistlar kishi boshiga taqsimlashib, mana, bizda jon boshiga o‘rtacha kitob mutolaa qilish falon darajada deb, maqtanardilar.

Ana shunday sun‘iyliklarni ko‘rganlar bor, bilganlar bor. Jamoatchilik fikrini e‘tiborga olmay xaspo‘shlash oxir-oqibat katta ma'naviy o‘prilishlarga sabab bo‘ldi, kommunistlar haqiqat deb yurgan narsalar sarob ekanligi mustaqillik-yillarida o‘z isbotini topdi. Erki cheklangan, adolatdan umidi uzilgan kishi loqaydlashib qolishini mustabid tuzumning intixosi yaqqol ko‘rsatdi. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq xalqimizning azaliy qadriyatlarini tiklashga, uni ma‘nan yuksaltirishga alohida e‘tibor qaratdilar. Uning nutqlarida, uchrashuvlarida fuqarolarimizning adolatsizlikdan egilgan qaddini tiklashga qaratilgan g‘ururli chaqiriqlar yangrab turardi. “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida

saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, minerologiya, kimyo, astronomiya, me‘morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma‘naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi” deganlar iftixor bilan.[2]

Ta‘kidlanganidek, ana shu merosning hammasi xazinalarimizda, shuningdek, dunyodagi turli manbalarda o‘z tadqiqotchisini kutib yotibdi. Ularning hammasini axborot resurs vositalariga yuz foyiz joylashtirish mushkul, qolaversa, ushbu jarayonning boshlanganiga ham ko‘p vaqt bo‘lganicha yo‘q. Demak, hozircha biz manbalarimizni xalqimizga tanitish, etkazish, ulardagi haqli g‘ururni to‘la uyg‘otish uchun an‘anaviy kitobxonlikni yangi bir pog‘onaga ko‘tarishimiz lozimga uxshaydi.

Biz hozir muammoning nazariy tomonlari haqida fikr yurityapmiz, chunki ushbu xazinalar kalitini ochish ancha tayyorgarlik ko‘rgan kishilarga, ya‘ni maxsus bilim va mutaxassislikka ega bo‘lishni taqozo etadi. Masalan, arab alifbosida bemalol o‘qish, yozish va ilmiy mulohaza yuritish talab etiladi. “Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi” deb, merosni o‘rganishga kecha ham, bugun ham chorlanayotgan ekan, bu vazifani izchillik bilan amalga oshirish joizdir. Merosni o‘rganish ham aslida “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” deb belgilangan milliy g‘oyamiz tamoyillari taqozo qiladigan vazifalarimizdandir. Mamlakatimizda maqsad qilingan, Konstitutsiyamizda alohida ko‘rsatib o‘tilgan ijtimoiy davlat qurish muddaosi komil inson tamoyili ustuvorligini taqozo etadi.

Kitobxonlik yoki mutolaa madaniyati (ruslar ana shu muammoni “kultura chteniya” degan istiloh bilan belgilaganlar, ya‘ni “mutolaa qilish madaniyati”) jahonda anchadan beri o‘rganib kelinayotgan fandir. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida kutubxonalardan foydalanish, uning kishilarga ma‘naviy ta‘sirini asoslash hamda mutolaa sotsiologiyasini o‘rganish XX asr o‘rtalarida boshlanganligi ma‘lum. Shuni ham ta‘kidlash joizki, Amerikaning Filadelfiya shtatida 1876-yilda kutubxonalar assotsiatsiyasi (ALA) tashkil etilgan. Ushbu tuzilma o‘z vazifasini kitobxonlarni, ya‘ni mutolaa qiluvchilarni kutubxonalarga ko‘proq jalb etishda deb bilgan. Yana bir qiziqarli ma‘lumot shuki, mutolaa muammosi anchadan buyon insoniyatning diqqat markazida bo‘lib kelayotgan jarayondir.

Ingliz tilida kutubxonashunoslik bo‘yicha tayyorlangan bibliografik ko‘rsatkichda 1903 – 2004-yillar mobaynida himoya qilingan uch mingdan ortiq dissertatsiyalarning 150 tasigina mutolaaning u yoki boshqa bir muammolariga bag‘ishlangandir[3]. Yuz-yildan ortiq vaqt ichida shuncha ilmiy ish bevosita mutolaa madaniyatiga bag‘ishlangani kimlargadir ko‘p, kimlargadir kam bo‘lib tuyulishi mumkin, lekin bir narsa aniqki, mutolaa, ya‘ni

kitob o‘qish muammosi kishilarning, olimlarning va kutubxonashunoslarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan hamda, adashmasam, keyingi-yillarda ushbu masalaga nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda esa Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan olg‘a surilgan “Besh tashabbus”ning biri aynan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgani muhimdir. Ana shu ma‘naviy tashabbus tufayli hozir mamlakatimizda kitobxonlik harakati keng quloch yozmoqda va uning shakli va mazmuni kengayib, chuqurlashib bormoqda.

Birinchi Prezident Islom Karimov xalqimizning azaldan kitobxon, mutolaatalab xalq bo‘lganligini g‘urur bilan ta‘kidlab, “Alpomish” dostoni, uning qatag‘on qilingani va ziyolilarimizning jasorati bilan u saqlab qolinganligini hikoya qilgan edilar. Alpomishning vatanparvarligini, xalqimiz ana shu dostonlar timsolida tarbiyalanganligini ta‘kidlar ekan:”Ishonamanki, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodlarga etkazadi. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch engi olmaydi”[4] degandilar. Mana, bugun xalqimiz o‘z dostonlarini, mutafakkirlarimizdan qolgan meroslarni to‘liq matnda erkin mutoala qilishdek baxtga muyassar bo‘lib turishibdi. Yoshlarimiz ana shu imkoniyatlar o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilmaganini unutmashliklari kerak.

Yuqorida ma‘naviy qadriyatlarimizga oid asarlardan birining qatag‘on qilinishi bilan bog‘liq so‘zlar yoshlar uchun o‘ziga xos chaqiriq, mutoalaga chorlov, albatta. Tariximizni, ajdodlarimiz merosini o‘rganishning ahamiyati-yil sayin oshib boraveradi, yangi avlodlarni o‘ziga chorlayveradi. Bu shubhasiz axborot asri uchun xos bo‘lgan hamda rivojlanishning yorqin yo‘liga tushib olgan bizning mamlakatimiz uchun ishonchli va istiqbolli yo‘ldir. Prezident Shavkat Mirziyoev 2023-yil 22 dekabrda ma‘naviyatchilar bilan uchrashuvda shunday dedi: “Chindan ham mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruxida tarbiya topgan etuk kadrlar suv bilan havodek zarur. Lekin ularni kim tarbiyalaydi? Albatta, o‘zimiz tarix saboqlari, zamon talablari asosida tarbiyalashimiz zarur”[5]

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangier filiali axborot resurs markazi xodimlari bilan filial kunduzgi bo‘limi 4 bosqichida ta‘lim olayotgan 50 nafar talabalarni tanlab oldik. Maqsad ularning mutolaaga ehtiyojlari darajasini aniqlash edi. O‘tkazgan tadqiqotimiz natijasi shuni ko‘rsatdi. Ularga “Hozirgi vaqtda o‘z bilimingiz va saviyangizni oshirish manbasi nimada deb o‘ylaysiz?” degan savol tarqatildi. Ushbu savolga talabalarning 33 nafari o‘z saviyalarini oshirish manbasini internetdan foydalanishda, 12 nafari badiiy-adabiy asarlarni mutolaa qilishda, deb javob berdilar. Qolgan talabalar aniq

javoblari yo‘qligini bildirdilar. Bu natijani biz jami o‘zbekistonlik talabalarga xos bo‘lgan ko‘rsatkich deyish da’vosidan yiroqmiz. Lekin kichik bir natija ham natija va unda ham ma’lum bir ma’no-mohiyat aks etadi. Axborot-resurs markazlari, yana ham aniqrog‘i, internet tizimi yoshlarni tobora o‘ziga jalb etayotgani va ular barcha narsalarni, shu jumladan, mutolaani ham internet orqali amalga oshirishga ustuvorlik berishayotgani ko‘rinib turibdi.

Mutolaa madaniyatini o‘rganishni davrning o‘zi talab qilmoqda. Avvallari bu masalani maxsus o‘rganish unchalik muhim hisoblanmagan, ushbu masalani o‘rganish shunday xulosa qilish imkonini bermoqda. Xorijda ushbu masalaga oid muammolarni o‘rganishga har xil yondoshuvlar mavjud. Masalan, Amerikada bu muammoni jiddiy o‘rganishayotgani ma’lum, chunki 80-yillarda mamlakat aholisining kitob o‘qishdan ko‘ra ommaviy ravishda “tomoshabin millatga” aylanib ketayotgani haqida tashvishlar bildirilgan va bunga eng yuqori doiralarda ham e’tibor qaratilgandi. Mana, hozir aynan butun jahonda ham ushbu jarayon, ya’ni mutolaa qiluvchilar “internet iste’molchilari”ga aylanib ketishayotgani borasida tashvishlar ortmoqda.

Bu jarayon O‘zbekistonni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Olimlar matbuotda chiqishlar qilishmoqda, yoshlarning kitob o‘qishdan ko‘ra ko‘proq internet-kafelarda qolib ketishayotgani, uydagi kompyuterlaridan faqat shu maqsadlarda foydalanishayotgani haqida tashvish bildirmoqdalar. “Milliy tiklanish” gazetasining o‘tgan-yilgi aprel sonlarining birida “Bolalar kitobni ko‘p o‘qiydimi yoki internetni?” deb nomlangan maqola chop etilgandi. Ana shu maqolada muxbir viloyatlarda, shahar va tumanlarda bo‘lganligi va kitob do‘konlarining bor yoki yo‘qligi bilan qiziqqanligini hikoya qiladi. Viloyat markazlarida izlansa, bitta-ikkita kitob do‘konlarini topish mumkinligini, lekin shaharlarda, ayniqsa tumanlarda kitob do‘konlarini topish amri-maholligini tashvishlanib yozgandi.

Ushbu maqolada muallifga suhbatdosh bo‘lgan jurnalist Farhod Norbo‘taev internet-kafelar faoliyatini maxsus o‘rganib chiqqanini va unda mijozlar (asosan yoshlar) har soatga o‘rtacha 800-1000 so‘mdan haq to‘lashayotganini aytadi. Maqola muallifi o‘rganganlarini mulohaza qilib, har bir ota-ona bir oyda internet-kafeda o‘tirgan farzandining 90-100 ming so‘mlik “istagini qondirayotgani”ni ta’kidlaydi va agar o‘sha bolalar har oyda 5-7 ming so‘mni badiiy kitoblar sotib olishga sarflab, mutolaa bilan shug‘ullansalar, ham oilaga iqtisod, ham yoshlarning ma’naviy yuksalishiga imkon tug‘ilar edi, deya achinish bilan ta’kidlaydi muallif.

Albatta, hozir mutolaaning shakl-shamoyilini bundan 30-40-yillar avvalgisi bilan tenglashtirishga intilishning o‘zi unchalik to‘g‘ri emasdir balkim. G‘arb olimlari mutolaani ixtisoslashtirishni, bolalar, kattalar, ta’lim muassasalari va hokazo yo‘nalishlarda alohida tadqiqotlar olib borishni,

uni auditoriya talablari bilan bog'lashni hamda bu boradagi mutaxassislarni ixtisoslashtirishni taklif qilmoqdalar.

Albatta, bu takliflarda jon bor. O'zbekistonda ham kitobxonlikning asl mohiyatini, ya'ni ota-bobolarimiz bir paytlar navoiyxonlik, bedilxonlik qilib, baxshilarni chorlab alpomishxonlik, go'ro'g'lixonlik qilgan paytlar bo'lgan, bir kishi kitob o'qisa, o'nlab kishilar unga tinglovchi bo'lgan. Keksalar ana shunday davralarning ta'sirchanligi kuchli bo'lganini, eshitganlar o'z hishayajonini bevosita shu erda ifoda qilish, mulohazasini bildirish imkoniyatiga ega bo'lganligini xotirlaydilar. Xalqimizga xos chechanlik, maqol va matallarning yuzaga kelishi aynan ana shunday kitobxonlik, dostonxonlik davralarida paydo bo'lgan, kitobxonlik, hamkorlikdagi mutolaa kishilarni birlashtirgan, muloqot qilishga, bilganini o'rtoqlashishga o'rgatgan, avlodlar va ajdodlar o'rtasidagi rishtalarni mustahkamlash vositasi bo'lgan.

XXI asr axborot asri deb nom oldi. Chetdan qaraganda hamma hamma narsadan boxabarday, lekin ana shu boxabarlik qanchalik asosli va asossiz ekanligini isbotlash qiyin, chunki axborotni qabul qilayotganlarning mafkuraviy immuniteti turlicha. Bunga sabab kishilarning, ayniqsa yoshlarning bilib-bilmay internetdan u yoki bu ma'lumotlarni o'zboshimchalik bilan olishi, unga mute bo'lib qolishi, natijada dunyoqarashining, ma'naviyatining o'tmaslashib borishiga olib kelmoqda. Mutolaa avvalo jonli muloqot, o'qiganini o'rtoqlashish, bir-biriga gapirib berish, baxslashishdan iborat. Kitobdan o'qigan narsasini gapirib berishgina uni bilimga aylantiradi va xotiraga muxrlyadi. Yoshlarimizning xotirasida milliy qadriyatlarimiz muhrlanishi uchun har birimiz qayg'urishimiz va mutoalaning xalqimiz uchun qadriyat bo'lganligini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Mirziyoev Sh. To'la asarlar to'plami. 1-tom. 86 bet.
- [2] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008. 30-31 b
- [3] Vaneev A.N. Stanovlenie peterburgskoy shkolo' bibliotekovedeniya G'G' Istoriya bibliotek. – Vo'p. 5. – SPb, 2004. – S. 23, 30
- [4] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008.-34 b
- [5] Mirziyoev Sh.M. "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak". (Prezidentning Respublika Ma'naviyat va marifat kenashining kengaytirilgan majlisidagi nutqidan. 2023-yil 22 dekabr. O'zA.
- [6].Molodej nezavisimogo Uzbekistana(sotsiologicheskoe issledovanie). T.: 2010. –s. 49
- [7] Molodej nezavisimogo Uzbekistana(sotsiologicheskoe issledovanie). T.: 2010. –s. 56-57

JAMIYAT MUHITIDA MA'NAVIY TARBIYANING ZARURATI

Ahmedova O'g'ilxon Nomozovna

Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi v.b.dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya Mazkur maqolada jamiyat muhitini takomillashtirishning ma'naviy masalalasi globallashuv jarayonlari shaxs tarbiyasi va jamiyat taraqqiyoti uchun dolzarblik kasb etishi tadqiq etilgan. Dunyo shiddat bilan yuksalib borayotgan texnokratiya vaqtida shaxs dunyoqarashi va ma'naviyatining yuksalishi birdek muhim ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Jamiyat, muhit, ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, tarbiya-ta'lim, islohotlar, ijtimoiy muhit, taraqqiyot.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari qadam qo'yimoqda. Buning uchun yangi davr nuqtainazardan tarbiyaning innovatsion shakllarini tizimli isloh qilishga ehtiyojni shakillantirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'бири bilan aytganda, "Hammamiz yaxshi tushunamiz, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz"[1.267.] Bu esa jamiyat uchun iqtisodiyot qanchalik muhim bo'lsa, ma'naviyat ham shunchalik muhim ekanligini bildiradi.

"Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi"[2.] Inson ongini va jamiyat mentalitetini o'zgartirish jarayoni juda uzoq davom etadi. Bu o'zgarish jarayonlarida katta ma'naviy va moddiy harajatlar talab qiladi. Buning uchun jamiyat tub islohotlarining natijadorligi bilinmaydi. Jadidchi Abdurauf Fitrat ta'kidlaganidek, "Haqiqatan ham, tushkunlik va xarobligimizning sabablaridan biri ilmsizlik va harakatsizlikdir"[3.28.]. Jamiyat taraqqiyotini belgilashda ma'naviy tarbiya masalasi muhim hisoblanadi. Bunda xushyorlik va sezgirlik, qat'iyat va mas'uliyatni yo'qotmaslik o'ta muhim masala bo'lib, jamiyat a'zolari tomonidan o'zibolarchilikka tashlab qo'yilsa, muqaddas qadriyatlarga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ming-yillik milliy-etnik asoslarga ega ma'naviyat, tarixiy xotiradan ayrilib, oxir-oqibatda umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolish holatlari ko'p

uchraydi. Bunda jamiyatdagi demokratik islohotlar negizida ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash, sharqona mentalitetdan kelib chiqqan holda milliy urf-odat va an'analarning ma'naviy jihatlari jamiyat uchun ijobiy sifatlar ekanligini ta'minlash asosiy vazifaga aylanadi.

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, "Avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim" [4.] Bizningcha bu bilan ta'lim va tarbiyani rivojlantirishning strategik texnologiyalariga ehtiyoj yanada ortadi.

Demak, tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi. Bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtira olamiz.

Shu o'rinda "muhit" inson mavjud bo'lgan holat va joyni anglatib, u insonni o'rab turgan va unga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi shart-sharoitlar majmuidir. Demak, aynan muayyan muhitda ma'naviy ideal shakllanadi va qaror topadi. Tadqiqotchilar tomonidan, "ijtimoiy muhit", "tabiiy muhit", "geografik muhit", "sun'iy muhit", "siyosiy muhit", "iqtisodiy muhit", "ma'naviy muhit", "axloqiy muhit", "ilmiy muhit" kabilar alohida o'rganilgan bo'lsada, jamiyat muhitining to'laqonli qiyofasi avvalo ijtimoiy muhit orqali belgilanadi.

Ijtimoiy muhit insonni o'rab turgan va uning ongi hamda xulqiga faol (bevosita va bilvosita, stixiyali va ongli) ta'sir o'tkazuvchi barcha ijtimoiy shart-sharoitlar, (atrofdagi odamlar, ijtimoiy guruh, qatlamlar, jamiyatdagi tartib-qoidalar) faoliyat va aloqadorliklarni belgilashda xizmat qiluvchi falsafiy kategoriyadir. Ularning mikro (kichik), makro, mezo (o'rta) va mego (katta) darajalari mavjud. Ular ichida muhim o'rin tutadigan ijtimoiy muhit qismlaridan biri oila muhitidir"[5.32.].

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot dasturi, uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqni moddiy va ma'naviy yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o'lmas merosni chuqur o'rganish, anglash, qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan cho'qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Chunki, ertangi kun, kelajak yoshlar qo'lida, yoshlar aynan shunday oziqlangan zaminda voyaga yetgan taqdiridagina komil insonlar bo'lib, haqiqiy tayanch va suyanchga, yengilmas ma'naviy kuchga aylanib, jahon maydonlarida har qanday

ma'naviy sinovlarga tayyor tura oladi.

Demak, jamiyat muhitida ma'naviy tarbiyaning zarurati tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan iborat hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Inson kamoloti irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay, balki butun hayoti davrida uni qurshab olgan voqelik ta'sirida orttirgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi. Shubhasiz, tarbiya odamning ko'zi, sochi, terisining rangiga, uning badani tuzilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin jismoniy taraqqiyotga ta'sir etishi mumkin. Chunki maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi. Insonning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali, uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin. Bu esa ma'naviy tarbiyaning fundamental asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон. 2022.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги **“Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”**ги 1059-сон Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. www.lex.uz.

3. Одоб-ахлоқ китоби. Жаид намояндалари: М.Беҳбудий ва бошқа. Тошкент. Янги аср.

4. www.uza.uz. 29.12.2020. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

5. Қаххорова М.М. **Маънавий идеал ва жамият ижтимоий-маънавий муҳити**. Oriental Journal of Social Sciences Vol.1 (1), PP.30-36, 22 May, 2021.

ABDURAHMON TOSHKANDIY IJODINING TURKISTON MA'NAVIY-AXLOQIY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLARGA TA'SIRI

Asatulloev Abrorxon Asatulloevich

Falsafa fanlari doktori (PhD)

Guliston davlat pedagogika institute

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz Abdurahmon Toshkandiylga Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitning ta'sirini ko'rish barobarida Toshkandiylning Turkiston diyorida milliy axloqiy masalalariga bo'lgan munosabati va undagi jarayonlarga ta'sirini ko'ramiz.

Kalit so'zlar: Ma'rifat, maorif, san'at, matbuot, "Al-Isloh", bank munosabati, mustamlaka hudud, mardikorlik, siyosiy mojaro, axloq masalalari.

Ma'rifat tarqatish asosan uch sohada tezkorlik bilan rivojlanib bordi. Bular - maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim shaklini yaxshilash), san'at (ma'naviy adabiyot, teatr) va matbuot. Asosiy maqsad millatni, bir jihatdan, ilm-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi jihatdan, xalqning axloqiy salohiyatini oshirish va mana shu jihatlarning birlashuvi natijasi o'laroq o'zligini, o'z qadrini tushungan ilmli insonni tarbiyalash edi. Turkiston ma'rifatparvarlari tomonidan mana shu niyatni ro'yobga chiqarish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Xususan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayol-qizlarning bilimli, har tomonlama yetuk axloq-odob namunasi bo'lishlari uchun ilm-ma'rifat egalari ichida say-harakatlar boshlandi. Holbuki, oiladagi farzand tarbiyasi, ya'ni barkamol avlod tarbiyasi ko'pincha onalar bilan bog'liqligi barchaga ma'lum bo'lib qolgan edi. Aytib o'tish kerakki, peshqadam, o'qimishli ayollar qizlar maktablarini ochib maktabdorlik qilib qolmay, balki axloqiy-tarbiyaviy risolalar ham ijod qilish bilan kelgusidagi ma'rifatli onalarni tarbiyalash jarayoniga hissa qo'shdilar. Shu jihatdan Sankt-Peterburgda 1898-1899-yillarda ketma-ket ikki bora chop qilingan "Muosharat odobi" ("Turmush odobi") risolasi o'sha paytda muhim ahamiyatga molik edi. "Agar xotun o'qigan bo'lsa, o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak-shubhasiz biladi. Bolalarini esa go'zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo'ladi va nihoyat Alloh taoloning amriga muvofiq hayot kechiradi"[1;16], - deyilgandi risolada. Bunda ayol-qizlarning oiladagi o'rni, oilaviy yumushlari, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, farzand tarbiyasi, xonadonni yuritish, nikoh va muhabbat haqida mazmunli tushunchalar aytib o'tiladi. Shu bilan birga uy xizmatchilari bilan munosabatda bo'lganda insof va adolatga amal qilib, ularning ham xo'jayinlari kabi inson ekanliklarini unutmagan holda ish olib borishlari kerakligi bildirib o'tiladi, oilaning farovon hayot kechirishi uchun yordam beradigan oqilona nasihatlar keltiriladi.

Abdurahmon Sayyoh chop etgan Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotni yoritgan maqolalardan biri “Shavkati va davlati davomli buyuk hukmdor va sevimli imperatorimiz hazratlarining Turkiston o‘lkasidan g‘animga qarshi ko‘ksilarini tutib turgan qahramon askarlarga ko‘mak uchun ishchi so‘rashlari haqida bir-ikki xayrihohona so‘z”[2;462-469] nomli maqoladir.

Abdurahmon Sayyoh Turkiston o‘lkasida bo‘lib o‘tayotgan siyosiy mojarolarga e‘tiborsiz qarab tura olmaganligini, u nashr etib turgan maqolalarda o‘z asosini topgan. Maqolalar siyosiy tuzumni ma‘qullash ma‘nosida yozilganligi jurnalning bekor qilinishi mumkin bo‘lgan qismatidan havotirlangan holda nozik siyosiy yo‘l tutganlaridan bo‘lsa kerak.

Abdurahmon Sayyohni ijodini o‘rganish davomida 1917-yil 1 apreldan boshlab, hurriyat haqida ko‘plab maqolalarni nashr etganiga guvoh bo‘lamiz. Shu mazmundagi maqolalardan biri “Yashasin hurriyat”[3;812-817] nomli maqola bo‘lib, unda hurriyatni ikki qismga ajratib izohlanadi. Birinchisi, malakiy hurriyat, ikkinchisi, diniy hurriyat. Bu yerdagi malakiy hurriyat davlat, millat erkinligi ma‘nosida bo‘lsa, diniy hurriyat esa, dinni mahkam tutib, uni bid‘at va xurofotlardan holi qilib, uni zamon saodatiga xizmat qilishini dalillashdan iborat deb izohlaganlar. Shu nashrdagi Ibrohim Tohiriyning “Hurriyat”[3;818] nomdagi maqolasida “Millatlar haq hurriyatni ilmlar va maorif nuri barakasida toparga musharraf bo‘lurlar”, deb hurriyatni talqin etadi. Shu sabab muallif maqolasida Samarqand, Xo‘jand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi madrasalardagi ta‘lim jarayoniga alohida urg‘u berishni ta‘kidlaydi. Shu bilan birga inson huquqi va davlat huquqi qonunlarini hamma tushunishini ta‘kidlab o‘tadi. Abdurahmon Sayyoh esa jurnalning bir qator (1916-yil, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 16) sonlarida “Diniy hurriyat” nomli maqolalarni nashr qilgan.

Abdurahmon Sayyoh maqolalarida insonlarning kelajak orzu-umidlari haqidagi qarashlari axloqiy g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq tarzda ma‘naviy-falsafiy jihatdan tahlil qilinib, inson o‘z ruhiyatini to‘g‘ri tarbiyalashi orqali jamiyat muammolarini hal qilishi va hayot haqiqatini anglab yetishi mumkin degan xulosalarini ijtimoiy bilish nazariyasi sifatida e‘tirof etilgan. Uning ta‘limotidagi insoniylik, insonparvarlik masalalarida islom dini bilan uyg‘unlikning umuminsoniy ma‘naviy xarakteri alohida ahamiyatga ega deb hisoblangan. Shu bilan bir qatorda, insonni himoya qilishda yoki uning huquq va erkinliklarini kafolatlashda inson irodasi, ongi, ma‘naviy yuksakligi axloqni amaliyotda namoyon qiluvchi fazilatlar deb baholanishiga urg‘u berilgan va ularning amaliy hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lganligi asoslangan. Umuman, bu ma‘rifatparvar dunyoqarashi shakllanishida: islom dini, tasavvuf va Sharq hurfikrlilik falsafasi ta‘siri tahlil qilingan.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi jadid ma‘rifatparvarlarining axloq

masalalarini ilgari surishda Abdurahmon Sayyoh ham Markaziy Osiyo tarixini mufassal yoritish maqsadida jurnalda bir qator tarixiy maqolalar nashrini tizimga soladi. Islom tarixiga oid maqolalarda ilk Islom davridan to tadqiq etilayotgan vaqtgacha muddatni o'z ichiga olgan bo'lib, Abdurahmon Sayyoh bunda islom olamida mashhur shaxslar hayoti va ijodiy faoliyatiga alohida e'tibor qaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Togan Zeki Velidi, 1999: *Hatıralar: Türkistan ve Diğer Müslüman Doğu Türklerinin Millî Varlık ve Kültür Mücadeleleri* [Reminiscences: National and Cultural Struggles of Turkestan and other Muslim Eastern Turks], Istanbul: Türkiye Diyanet Vakfı, 3rd. ed. 150 p.
2. Ал-Ислож. – Тошкент, 1916. – № 15. – 480 б.
3. Ал-Ислож. – Тошкент, 1917. – № 7. – 840 б.

AJDODLAR SABOG'INING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIDAGI O'RNI

Choriyeva Dilorom Abdumuminovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi

O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha

Muvofiqlashtiruv-chi-metodik markazi bo'lim mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar ta'lim-tarbiyasida ajdodlar sabog'ining o'rni ochib berilgan bo'lib, asosan, hadislar, mutafakkirlar, allomalar asarlari asosida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar. Vatanparvarlik, ta'lim, yoshlar, tarbiya, mafkura, jamiyat, davlat, manfaat, millat, ma'naviyat, ma'naviy qadriyatlar, yurtga muhabbat, sadoqat, fidoyilik.

Ta'lim-tarbiya barcha davrlarda insoniyatning eng muhim dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Jamiyat taraqqiyoti barcha davrlarda insonlarning odobi, tarbiyasi, xulqi va ma'naviy kamolot darajasiga bog'liq bo'lgan. Qaerda ma'naviy-ma'rifiy, ahloqiy fazilat yuksak bo'lib, ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlar oqilona yo'lga qo'yilgan bo'lsa, u yerda jamiyatning ijtimoiy adolat me'zonlari tez rivojlanganligi tarixdan ma'lum. Tarbiyaviy ishlar, yuksak odob-ahlok me'yorlari kecha va bugun o'ylab topilgan narsa emas. Ular insoniyatning ming-yillik tarixi, ota-bobolarimizning necha-

necha-yillar davomida, ajdodlar tajribasiga suyangan holda kelajagimiz bo‘lgan yoshlarga ma’naviy axloqiy meros sifatida o‘rgatilib kelinadi.

Insoniyat paydo bo‘libdiki, eng dolzarb, eng mashaqqatli va eng qiyin vazifa – yoshlar masalasi bo‘lib kelgan. Mutafakkir va allomalar, ziyolilar jamiyatning rivoji, tinchligi va xotirjamligini yoshlar tarbiyasi bilan bog‘lagani bejiz emas. Tarbiya masalasi qadriyat, an’ana bilan bog‘liqlikda hal etishga harakat qilingan bo‘lsa, o‘sha joyda rivojlanish bo‘lgan. Yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik bo‘lgan joyda inqiroz va o‘pirilishlar sodir bo‘lgan.

Shu boisdan, o‘tmish olimlarining, mutafakkirlarining ma’naviy meroslarining yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati hozirgi kunda ham beqiyosdir. Xususan, hadislar, ajdodlar pand-nasihatleri, buyuk allomalar o‘g‘itlari yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda ahamiyati kattadir. Jumladan, farzandlar ta’lim-tarbiyasi haqida hadislarda: «Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilinglar», deyilgan (Imom Muslim rivoyati).

Shuningdek, ota-onalarga g‘amxo‘rlik, ularni e’zozlash, hurmat qilish, haqlarini ado etish har bir farzandning zimmasidagi vazifasi ekani qayta-qayta ta’kidlanadi. Ularga itoatsizlik katta gunoh hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida texnika yutuqlari bilan turli xalqlarning madaniyati aralashib ketayotgan bir davrda, goho xalqimizga yod bo‘lgan, ota-onaga nisbatan noloyiq ham munosabatlar paydo bo‘lish hollari kuzatilmoqda. Bu salbiy holatning oldini olish uchun hadislarning imkoniyatidan ham keng foydalanishimiz mumkin. Shu orqali, ota-ona mavqei, farzandlik burchi, yoshlarni turli nomaqbul yo‘llardan asrab qolish mumkin.

Jumladan, butun dunyoda “Hujjatul Islom” unvoni bilan ulug‘lanib kelayotgan Imom Abu Homid G‘azzoliy asarlari Islom dini mohiyatini teran tafakkur va idrok etish, tushunish bilan birga farzandlar ta’lim-tarbiyasi borasida ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Imom G‘azzoliyning «Ihyou ulumud din» kitobida bunday deyiladi: «Bola – ota-ona qo‘lidagi omonat. Uning qalbi turli naqsh va rasmlardan xoli. Qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo‘laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o‘rgatilsa, saodatli bo‘ladi. Ota-onasi hamda odob, ta’lim-tarbiya bergan ustozlar uning savobiga sherik bo‘ldi. Agar yomonlikka undalsa, halok bo‘ladi».[1]

Farobiy o‘z asarlarida ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor qaratadi. U axloqiy hususiyatlar insonda faqat an’analar orqaligina emas, shuningdek bilim va tarbiya orqali vujudga kelishini ta’kidlaydi. Uning fikricha ta’lim-tarbiya insonning tabiat hodisalaridan o‘z maqsadlari uchun foydalana bilishi va bu yo‘lda boshqa kishilar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi, jamiyatning haqiqiy a’zosi bo‘lib yetishuvi, uning ichki tartib-qoidalarini to‘g‘ri o‘rganib, jamiyat talablariga javob bera oladigan bo‘lib yetishishi uchun zarurdir.

Farobiy ta'lim-tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; - nazariy fazilatni, ma'lum hunarni egallashi uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.[2]

Farobiyning fikricha, ta'lim-tarbiya ishini boshlashdan avval tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xislatlarini o'rganish lozim. Biror vazifaga tayinlashdan oldin insonning xohish, ixtiyor, iroda kabi hislatlarni, nimaga qobiliyati borligini aniqlamay turib, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Olim o'zining baxt saodatga erishuv to'g'risidagi asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan bilim o'rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat – o'simliklar va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.[3]

Sharqda "Olimlar boshlig'i", G'arbda esa "Olimlar podshosi" nomi bilan tanilgan Abu Ali ibn Sino matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruxshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etib, dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olimdir. Shu asarlarga asoslanib aytish mumkinki, Ibn Sino birinchi navbatda ma'rifatparvar sifatida ko'zga tashalanadi. U o'zining asarlarida insonlarni bilimli, ilmi, ma'rifatli bo'lib, har bir masalaga aqliy, ilmiy yondoshishga, rostgo'y, vijdonli bo'lishga, fan va madaniyatni egallashga chaqiradi.

U odamlarni ilm yo'lidagi qiyinchiliklardan cho'chimaslikka, dadil sobitqadam bo'lishga undab shunday deydi: "Odamlarning botiri kelajakdagi ishdan, mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilish qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir. Ibn Sino o'z ijodlari orqali odamlarni san'at, fan, ma'rifatni o'rganishga chaqiradi. San'at, fan, ma'rifat bilan shug'ullanuvchilarni qoralaydiganlarga qarshi chiqib, ularni johillar deb ataydi va ularni dunyoda hech narsani ko'ra olmaydigan ko'r bilan tenglashtiradi va shunday deydi: "Quyosh ko'rlarga ko'rinmay berkinganidek, bu johillarga ham dunyoda to'g'ri yo'l belgilari ko'rinmay qoladi".

Bundan tashqari, Ibn Sino yoshlarga otalarcha nasixat qiladi va har bir ishda mulohaza bilan fikr yuritishni, o'ziga do'st, sirdosh tanlashda ehtiyot bo'lishni o'qitirib, "Siringni barchaga aytishdan ehtiyot bo'l. Chunki mulohazakor degan so'z ehtiyotkor bo'lish degandan boshqa narsa emas. Agar siringni saqlasang u sening asiringdir, agar oshkora bo'lsa, sen siringning asiri bo'lib qolasan" deydi.[4]

Ibn Sino ma'rifatni targ'ib qila turib juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan o'tkizadi. Olim qanchalik qiynalsa ham birinchi navbatda odamlarga nafi tegadigan ishlarni qilishga urinib, o'z fikr-mulohazalarini xalqqa yoyishga

harakat qildi. U o‘z asarlari orqali odamlarda ilm-ma‘rifatga nisbatan hurmat va intilish uyg‘ota olganligi uchun ham buyuk olimning insoniyat jamiyati oldida qilgan xizmati cheksizdir.

Abu Ali ibn Sinoning asarlarida ham yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo‘lishi haqida bayon qilingan. Jumladan, «Yosh bola boshlang‘ich ta‘lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg‘ul bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasb-hunar va san‘atga moyilligiga qarab, uni shunga yo‘llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so‘zlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o‘rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega».[5]

Ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy esa, tarbiya haqida kuyinib bunday degan: «Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga javoban: birinchi – uy tarbiyasidur. Bu Onalarning vazifasidur. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasidur. Bu Otalar, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur. Yoshlar tarbiyasini – hayot-mamot masalasi, deb ta‘riflagan mutafakkir naqadar haq ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Chunki tarbiyasi mo‘rt yoshlardan jamiyat, mahalla yoki oila uchun hech qanday naf yo‘q. Yoshlarning hayotda adashishi, tuzatib bo‘lmas xatolari tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xato yoki befarqlikning achchiq in‘ikosidir deb, farzandlar tarbiyasida onalarning o‘rni juda muhimligini ta‘kidlab, onalarni bilimli bo‘lishga chaqiradi.

Xulosa qilib aytganda, farzandlarni komil inson qilib tarbiya qilishda ajdodlar tavsiyasi, pand-nasixatlari, o‘gitlariga amal qilishimiz zarur. Shuningdek, xalqning boy milliy, ma‘naviy-tarixiy an‘analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ko‘proq ishlab chiqib amalga joriy etish darkor. Ana shunda yosh avlodni aqlli, axloqli, erkin fikrlovchi va jismoniy baquvvat, qobiliyatli bo‘lib o‘sishlariga imkoniyat yaratgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy. «Ihyou ulumid din», –T.: O‘zbekiston», 2019, B.512.
2. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi. –T, 1996, 128-bet.
3. Abu Nasr Farobiy. Risolalar. –T.: Fan, 1975, 71-72 betlar.
4. Irisov A. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi. –T.: Fan, 1980, 144-bet.
5. Muhammad Atiya. Islomiy tarbiya va uning falsafasi., –T., 197-bet.

TA'LIM VA ADABIY MEROS MASALASI

Yusupov Kuanishbay Baltabayevich

*falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Nukus filiali dotsent vazifasini bajaruvchi,*

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq mutafakkirlarining yoshlarning ma'naviy ta'rbiyasiga tasiri, ularning asarlarida berilgan vatanparvarlik, yaxshilik, iymon masalalarining falsafiy tahliliga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar. ta'lim, qoraqalpoq mutafakkirlari, taraqqiyot, ma'naviyat, milliy istiqlol.

Ta'lim insonning har tomonlama rivojlanishini ta'minlab, jamiyatdagi mavqeini mustahkamlar ekan, unga jamiyatning ijtimoy- iqtisodiy rivojlanishi jarayonining ahamiyatga molik shart-sharoiti sifatida qarash mumkin. Ta'lim, avvalo inson iste'dodi va imkoniyatini ochish va fanda kuchaytirishga yo'naltirilgan. Chunki, jamiyat taraqqiyoti, uning iqtisodiy, ilmiy-texnik salohiyatining o'sishini ta'limsiz tasavvur etish aslo mumkin emas. Ta'limoldidagi bunday va boshqa dolzarb vazifalarini hal qilish maqsadida 1997-yil avgustda Oliy Majlisning birinchi chaqiriq XI sessiyasida «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi va 2020-yil 23-sentyabrdagi yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Bu hujjatlar O'zbekistonda ta'limtizimini rivojlantirishning yo'nalishlarini belgiladi. Ta'lim sohasining bugungi kundagi dolzarbligi haqida hurmatli prezidentimiz Sh.Mirziyoyev quydagicha fikrlarini bildiradi: "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz".[1]

Ta'lim bo'yicha milliy dastur qabul qilinganiga oz fursat bo'lmasada, jamiyatimizda sezilarli darajada o'zgarishlar, siljishlar bo'lganini guvohimiz. Modamiki shunday ekan, jahon miqyosida bu dastur «Yangi O'zbekiston strategiyasi» deb nomlanadi.

Albatta, biz bu o'rinda dasturni va uni amaliyotga tadbiq etishni har tomonlama izohlash maqsadidan yiroqmiz. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi ekanligi va uning gumanizatsiya, gumanitarizatsiya, demokratlashtirish tamoyillarini yakdil amalga oshirayotganligini tasdiqlamoqchimiz xolos.

Darhaqiqat, o'quvchi va o'qituvchi, talaba orasidagi munosabatlarni sinchiklab o'rganish talaba yoshlarda ijobiy dunyoqarashni, faol fikrlash,

ijodkorlik madaniyatining shakllanishi, kuchayishi kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyatli masalalaridan biri sifatida avvalo, ma'naviy, odob-axloq tarbiyasiga yuqori darajada e'tibor berish bilan xarakterlanadi. Nihoyat, insonda bilimlar, kasb, vatanparvarlik, ma'naviyat, urf-odat va madaniy merosga, ota-bobolarga, buyuk avlodlarga hurmat jamlangan taqdiridagina, uning barkamol rivojlanishiga zamin hozirlanadi. Zero, Prezidentimiz o'zining har bir so'zlagan nutqlarida millat fikri, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng oliy namunalarini darsliklarda aks ettirish masalasini o'rta qo'ygan edi. Bu borada ko'pgina amaliy ishlar qilinganini ham aytib o'tish joiz. Shuningdek, uning bitmas-tuganmas buloq ekanligini nazarda tutsak, hali amalga oshirish zarur bulgan ishlar bisyor.

Bu masala juda ko'p aspektli, ko'p qirrali maxsus tadqiqotni talab qiladi. Bizning fikrimizga ko'ra, XIX asr qoraqalpoq shoirlari, ijodkorlari Berdaq, Ajiniyaz, Kunxojarlar ijodi milliy g'oyamizning qoliplashish va rivojlanish asoslari sifatida xizmat qilishini ozgina ta'riflab berishni lozim topdik.

Bu bo'yicha hurmatli birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning «Milliy madaniyat va ma'naviyatning qaror topishiga, qoraqalpoq xalqining klassik shoirlari Berdaq, Ajiniyaz bobolar ijodiy meroslarining to'la tiklanishiga, aziz xotiralarining ulug'lanishiga yo'l ochib berdi» [2] deb ko'rsatishini bosh qilib olar ekanmiz, ularning asarlarini, bu asarlarga fikrlarni eski mafkuraviy yondashuvlardan butunlay toza holda tiklash va xalqimizga taqdim qilish zarurligi o'z-o'zidan ma'lum. Shunday ekan, Berdaq asarlarini o'rganishdan, avvalo, uning siyosiy mazmunini birinchi o'ringa quyadigan ilgari sovet tuzumi ideologiyasining mezonlari jamiyat hayotining barcha sferalarini tubdan o'zgartirib, ularda xaqiqatni tiklashga qaratilgan beg'araz ruhiyati bilan hech ham bir-biriga mos kelmaydi.

Berdagning dunyoqarashi haqiqatga, o'z xalqi yuragining urishiga yo'naltirilgani, demak, shoirning el dardi bilan yashab, ijod bilan shug'ullangani ma'lumdir. Shu sababli ham u «Berdimurat xalqni, xalq Berdaqni, Yolg'izidek ko'rar, jondan yaxshiroq» deb odilona xulosa qiladi. Shu bilan birga «Berdimurat tinglab, so'zingni ko'rgil, Yurgan yo'llaringdan izingni ko'rgil» deb shoir doimo o'zligini anglash yo'lida doimo o'ziga-o'zi hisob berib yashashni xalqqa xizmat qilish yo'lidagi vazifasi, hayotining ma'nosi deb tushunadi. «Yozdim so'zni mudom ulug' xalq uchun» degan fikrlari ham yuqoridagi fikrlarini tasdiqlaydi.

Albatta bularning shoir asarlarida o'zak liniyani tutishi va amalga oshirilishi insonning qalbini zabt etib, unga ruhiy kuch-g'ayrat bag'ishlashini chevarligi bilan bog'liq ekanligi turgan gap.

Bu birinchi. Ikkinchidan badiiy asarga munosabat, odatda unga xos bizni qurshab turgan olamni badiiy obrazli boshqarishning, o'zlashtirishning

umumiy va turgun tomonlarining o‘zaro ta‘sirini, birligini hisobga oladi. Asoson adabiyotning, uning tur va janrlarining haqiqatni ko‘rsatib berish imkoniyatlari so‘z bilan fikrni bildirishning alohida quroli bilan bog‘liq. Bu tomondan badiiy adabiyot san‘atning boshqa turlaridan fikrning chukurligi va faolligi jihatdan ajralib turadi. Shu sabab ham badiiy adabiyotda ilmiy, falsafiy-analizlik fikrlarining ko‘rinishi taajjub emas. Balki, shuning uchundirki, Berdaq asarlari tadqiqotchilarining qay biri bo‘lsa ham uning asarlari qoraqalpoq xalki turmushini chuqur va obrazli tasvirlab berishi jihatidan chuqur ijobiy xarakterga ega ekanligiga shubhalanmaydilar. Hattoki, Berdaq asarlarini xalq uchun katta bilim markazi, o‘zi yashagan zamondagi qoraqalpoq xalqining xayoti haqida alohida bir entsiklopediya deb baho berishlar xam bor. [3;4]

Shuningdek, shoir dunyokarashining manbayi u yashagan davrning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy axvoli bilan birga Fizuli, Novoiy, Maxtumquli va uzi bilan zamondosh qorakalpoq shoirlari-Ajiniyaz, Kunxuja, O‘tesh va h ekanligi tasdiqlanadi. Berdaq o‘zining «Bermadi», «Bu-yil», «Soliq», «Bo‘lmadi», «Bo‘lg‘an emas» va boshqa asarlarida o‘zi yashagan davrdagi mehnatkashlarning boshidagi qiyinchiliklarning asosiy sabablarining biri sifatida jamiyatda belgilab qo‘yilgan nizomlarga amal kilishning qupol buzilishi va uning inson erki bilan mas‘uliyatining munosabatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini aytib o‘tadi. Ba‘zi bir olimlarimizning fikrlariga ko‘ra, Berdaqning «Xalq uchun» she‘ri uning dunyoqarashining rejasi, dasturi, mazmuni desa arziydi. Shoir bu she‘rida xalqning boshiga tushgan og‘ir munosabatlardan chiqishning, erkin yashashning umuman jamiyatni tiklashning birdan-bir yo‘lini xalqning o‘zidan chiqqan mardlarning ijodiy faoliyati bilan bog‘laydi. Uning bu fikri «Menga kerak» she‘rida ochib beriladi,

«Bellarini maxkam bog‘lagan,
Ot chopib yovdan qo‘riqlagan.
Xalq g‘omini uylagan
Asl botir kerak menga»

Uning bu fikri «Kerak» she‘rida yanada oydinlashadi.

«Qo‘liga qurol saylagan,
Xalq g‘amini o‘ylagan,
El g‘amxo‘ri menga kerak»

Berdaq xalkning obod, farovan, erkin yashashini odil podshoh bo‘lish bilan bog‘laydi. Shu bilan birga u o‘z davrining bilimli kishisi sifatida ko‘pgina manbalarga ega bo‘lib, o‘zi yashagan davrgacha odil podshoh masalasining muammo bo‘lib kelayotganligini va uning oddiy xalqqa jabrdan boshqa narsa emasligini aytib o‘tadi.

Umuman, Berdaq asarlaridagi adolat masalasining tez-tez ko‘tarilishi alohida diqqatga loyiqdir. Bu masala so‘zsiz mahsus tadqiqotlarni talab kiladi. Biz aytmoqchimizki, adolat, tenglik, masalasidagi Berdaqning fikrlari o‘zi yashagan zamondagi halqning adolatsizlikka chidap bo‘lmasligi haqidagi hayqirig‘idir. Buning qanchalik haqiqat donalarimizning «Xalq yo‘qchiliqqa chidashi mumkin, lekin adolatsizlikka chiday olmaydi» degan dono fikrlarni o‘qiganimizda yana ham yaqqolraq tushunamiz.

Berdaqning ijodida shaxsning jamiyatdagi roliga alohida e‘tibor qoratilgan desak xatolashmaymiz. Lekin bu gumanizm Berdaqni mavhum xarakterga ega emas, insonning iqtisodiy, siyosiy va xuquqiy manfaatlari bilan chuqur bog‘liq xolda qararladi. Bu masalada u doimo umuminsoniy ahloqning tamoyillarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. O‘zining halol mehnati bilan kun kechiryotgan insonlarni ulug‘laydi, uni uning va unga uxshagan kishilarning mehnati orqasidan boyip ketganlardan ustun qo‘yadi. Ahir birovning mehnati natijasiga egalik qilish boshqa birovning baxti hisobidan rohatlanish emasmi?

Shuningdek, shoir och-yalong‘ochlarga doimo yordam qo‘lini chuzishni, g‘ariblarga, beva-bechoralarga, yetim-esirlarga yordamlashishni xaqiqiy insoniylikning belgisi deb tushunadi. «Siylasang g‘arib-etimni, chin azamat bo‘ladirsan»

Shu bilan bir qatorda Berdaqning gumanizmi insonning o‘z baxti uchun in-tilishlari, kurashishlari bilan to‘la. Masalan, bu qismatga, ko‘rgiliklarga chidab to‘ro lmoy, tenglikka intilishda mard, bardoshli bo‘lishni nasihat qilishida yakkal seziladi.

«Kuchingni yig‘ yoshingdan»

«(Jigerli) bo‘l yoshdan bolam».

Berdaq asarlarining yana bir jixati shundaki, u aqlu-fikrga uning kuchiga ishonadi, ma‘rifatni ulug‘laydi. «Izlar edim» she‘rida u:

«Navoyidan savod ochdim,

Fizuliydan durlar sochdim

Chechanlarni izlar edim», deb yozadi.

Shuningdek «Men ma‘rifat izlar edim» deydi. Ma‘rifatni, o‘y-fikrning kuchini, qudratini ulug‘lash qoraqalpoq adabiyotining klassigi, shoir Ajinizada xam yaqqol ko‘rinadi. U bularning barchasi insoniyot hayotining barcha

jabhalari uchun juda zarur ekanligini o‘zi yashagan davrning savodxon kishisi sifatida yaxshi tushundi. Shu bilan birga bu uning fikr doirasining, butun turmush tarzining birdan-bir elementiga aylandi. Fikrimizning dalili sifatida shoirning Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasini tugatgandan keyingi faqat korakalpoq xalqi orasidagina emas, balki boshqa xalqlar, masalan, uzoq hududlarda yashayotgan qozoqlar orasida xam bir necha-yillar davomida jon jaxdi bilan maktablar ochib, ustozlik qilishini misolga keltirib o‘tsak bo‘ladi.

Shoirning hunarni, ilmni ulug‘lashi shundayki, ularni mevali bog‘qa o‘xshatadi. Buning ustiga Ajiniyozda ilmning inson manfaati uchun zarurligini ollohning buyrug‘i bilan tushuntirish bor. Ya‘ni, har bir inson uchun ilmga intilish, ilmli bo‘lish farz sanaladi. Bu dunyo qarash azaldan inson amaliyotida tasdiqlangan muqaddas dinimizning olamni o‘zicha bilishlik yuklamaga ega ekanligiga, uning gumanistik potentsialiga borib taqaladi. Shunday ekan, milliy g‘oya manbalarini, chuqur ma‘nosini tushunishda bu va bunga uxshash dunyo qarashlarning o‘rni va roli beqiyos desak xatolashmaymiz. Axir Ajiniyoz asarlarining ruxida savodxonlik, bilimdonlik inson jamiyatining ijtimoiy iqtisodiy, madaniy rivojlanishini ma‘lum darajada belgilovchi faktor sifatida tushuntirishlar mavjud.

Ajiniyoz asarlari mehnatning yaratuvchanlik roli, xalk manfaati, Vatan ko‘rki g‘oyalarini ulug‘lanishi bilan xam ajralib turadi. Masalan, u Vatanga muxabbat tuyg‘ularini yurtdan yiroqda bo‘lishning, undan yiroqlanishning naqadar azobli ekanligini «Elidan ayrilgan devona bular» deb izohlasa, «Yaxshi» she‘rida tug‘ulgan yerning qadriga yetishga aloxida urg‘u beriladi.

«Gina qilib yurtni tashlab ketgandan,
Qadring bilmas yerda xizmat etgandan,
Yot yurtlarda musofirlik chekkandan
Urrib-so‘kib, xo‘rlasa xam yurt yaxshi».

Shuningdek Ajiniyoz asarlari insonlarning birgalikda ishlash, jamoatda qayg‘u-shodlikni bo‘lishish g‘oyalariga to‘la. Bu uning xalqlar, millatlararo totuvlikni ulug‘lash bilan bog‘lanadi. Misol tariqasida Ajiniyozning qozoq kizi Mengesh bilan aytishuvi misol bo‘la oladi. Unda Ajiniyoz qozoq, qoraqalpoq xalqlarining qardosh ekanligini o‘z tushunchasi darajasida aytishi bilan birga:

«Qoraqalpoq qozoq bilan teng yurt,
Ko‘rmasdan-bilmasdan sirtidan etma mazoq!»
deb Mengeshni qaytarib tashlaydi. Ajiniyoz:

«Bu zamonning koʻrki-odam bolasi,
Shu odamning koʻkka yetar nolasi»,

deb insonning kuchini, qudratini, olamni oʻzgartirish, qayta qurish imkoniyatini ulugʻlaydi. Bu belgili darajada komil inson gʻoyasi bilan tutashtiriladi.

Berdaq, Ajinyoz zamondashi qoraqalpoq adabiyoti klassiklarining biri Kunxoʻja ijodi xam shunday gʻoyalarga toʻla. U taniqli demokrat shoir, gumanist, oʻz xalqi va Vatanini cheksiz sevuvchi patriot sifatida asarlarida doimo oʻz xalqining orzu-armonlari, ezgu-niyatlarini kuylaydi. Asosan, mehnatkash xalqning baxtga erishishi uchun talablarining qanoatlantirilishini, jamiyatning moddiy va maʼnaviy boyliklarining boʻlinishidagi har kimning mehnatiga loyiq tenglik bilan bogʻlaydi. Busiz insoniyat xam yakka baxtning joyiga tushmaydiganligini Kunxoʻja oʻzining «El bilan» sheʼrida:

«Osmonga ucharsan boʻlsa qanoting,
Shod boʻlursan, shodon boʻlsa elating,
Xalqing bilan boʻlsa tilak- muroding
Safo sursang uzoq safo yoʻl bilan»

deb yozadi. Shoirning bu joydagi fikri:haqiqiy vatan farzandi uchun uning shaxsiy baxti, shaxsiy quvonchi, shodligi yetarli emas. Xalqning baxti va shodligigina uni baxtli, quvonchli eta oladi.

Albatta, milliy mafkurani yaratish va rivojlantirish jarayonida Berdaq, Ajinyoz va Kunxuja ijodining oʻrni va roli yuqorida aytilganlar bilan cheklanmaydi. Masalaning etik, estetik, huquqiy, tarixiy va boshka taraflarini hisobga olmaganning oʻzida ijtimoiy-falsafiy aspektda tadqiq etishni talab etadigan qoraqalpoq mutaffakirlarning ijodi va ijtimoiy ong hamda undagi mafkuraviy, ijtimoiy-psixologik komponentlar, maʼnaviyat kabi koʻpgina dolzarb masalalar bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab taʼlimini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yigʻilishidan. 28.01.2022.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yoʻlida. Toshkent, 1998. 6 tom. 268-bet.
3. Seytov P.D. Filosofiyagʻa kirisiw Nukus.,1993 63-bet.
4. Alewov. Oʻ. Qaraqalpaqstanda taʼlim-taʼrbiyaliq oylawdinʻ qaʼliplesiwi haʼm rawajlaniw, Nukus, 1993, 339-bet.

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIGA MA'NAVIY TARBIYANING TA'SIRCHANLIGI MILLIY AXBOROT ORQALI

Jurakulov Jamol Komilovich

Renessans ta'lim universiteti

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi dotsenti,

PhD

Annotasiya: maqolada ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborot orqali ekanligi, ta'lim va tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalari va axborotni qayta ishlash, axborot almashinuvi yangi demokratik ta'lim va tarbiya jarayonida ma'naviy tarbiyaning milliy axborot tasirchanligi imkoniyatlar xaqida fikir muloxaza yuritimiz.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, milliy, axborotning shaxs, davlat va jamiyat, axborotlashtirish xususiyatlari, milliy axborot.

Ta'lim va tarbiya jarayonida axborot oqimi hayot va madaniyat sharoitlarini, xulq-atvor stereotiplarini, fikrlashimizni tubdan o'zgartirib, jamiyatdagi barcha sohalariga inqilobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborot orqali ekanligini anglashimiz, ta'lim jarayonida milliy axborotni sezilarli yutuqlar ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda “ma'naviy tarbiya” nomining paydo bo'lishiga olib keldi. Aksariyat olimlar qarashida milliy ma'naviy tarbiya jamiyatini asosiy mahsuloti axborot bilan bog'lansa samarali deb takidlaydilar. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bizning eramizning boshidan beri insoniyat tomonidan to'plangan ma'lumotlar ikki baravar ko'paygan, birinchi marta 1750-yilda, ikkinchi marta XX asr boshlarida, uchinchi marta 1950-yilda. 1950-yildan boshlab dunyoda ta'limning umumiy miqdori har 10-yilda ikki barobar, 1970-yildan boshlab har 5-yilda va 1991-yildan boshlab ikki baravar ko'paydi. Demak, bugungi kunda dunyoda ta'lim hajmi 250 ming barobardan ortiq oshgan. Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborot orqali singdirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amerikalik sotsiolog D.Bellning ta'kidlashicha, axborotlashgan jamiyat, avvalo, ma'lumotlilik darajasi va malakasiga ko'ra, millat elitasini shakllantiradigan jamiyat. Tadqiqotchi axborotni jismonan iste'mol qilinmaydigan va eskirmaydigan “jamoaviy mahsulot” sifatida talqin qilib, industrial jamiyatda inson hayotiy faoliyatidagi mutlaqo yangi mahsulot bo'lgani uchun unga nisbatan o'sha davrda muomalada bo'lganidan o'zgacha

me'yor va mezonlarni qo'llash kerakligiga e'tibor qaratadi. [1]

Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborot orqali jamiyatda kompyuter texnologiyalari va axborotni qayta ishlash bo'yicha konsalting, ilmiy axborot va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi professional guruhlar vujudga keldi. Yangi ilmiy va kasbiy yo'nalishlarning paydo bo'lishi kadrlar tayyorlashning alohida tizimini talab qiladi. Bu tizim nafaqat jamoatchilikni xabardor qilish davrining voqeligi va o'qitish mazmuniga, balki usul va vositalarga ham mos kelishi kerak. Axborotning shaxs, davlat va jamiyat hayotidagi o'rni juda muhim. Axborot insonni atrof-muhitga moslashtirishga qaratilgan aloqa jarayonining natijasidir. [2] Endilikda ijtimoiy muhitda yangi axborot jamiyatini yaratish maqsadi muloqot jarayoniga o'ziga xos xususiyatlar va ta'limda o'zgarishlarni olib keldi.

Axborotning qimmatliligi shaxsning sub'ektiv xulq-atvoriga ega ekanligi bilan izohlanadi. Agar inson maqsadiga yerishsa, u holda foydalanilgan axborot e'tiborga olinmaydi va o'z qiymatini yo'qotadi. Shuni ham yodda tutish kerakki, qadriyatlar turlicha. Axborotlashgan jamiyat rivojlanishining muhim qismi sifatida quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: maqsadga erishish uchun axborotni tanlash imkonini beruvchi axborotning qiymati; ma'lum bir vaziyatga bo'lgan ehtiyojni belgilaydigan ma'lumotlarning foydaliligi; ma'lum vaqt davomida ma'lumotlarning buzilishi. [3] Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborot kishilarning asosiy resursi, asosiy qadriyatiga aylansa ta'limda ma'naviy tarbiya milliy axborotning samarasi ortadi.

Yapon olimi Y.Ma'suda "Axborotlashgan jamiyat insoniyatning eng ulkan yutuqlaridan biri, -deb yozadi. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hayotning o'ziga xos ijobiy o'zgarishiga olib keladi. Axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar o'zgaradi. Bu jamiyat sinfsiz va ziddiyatsiz bo'lib, uni kichikroq davlat apparati boshqaradi." Hozir va kelajakda yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish jamiyat oldida turgan eng muhim vazifadir. Axborot madaniyatiga ega bo'lgan bilimli shaxs zarur axborotni topa olishi, baholay olishi va undan unumli foydalana olishi, axborotni saqlashning an'anaviy va avtomatlashtirilgan texnik vositalaridan foydalana olishi kerak.[4]

Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborotning tasiri shaxs xulq-atvori, axborot bilan ishlash qobiliyati va

ko'nikmalarini aks ettiradi, o'z axborot maydonini va xatti-harakatlarini tartibga solish va tahlil qilish imkonini oshiradi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi. Fuqarolarning davlat organlari bilan aloqasini elektron platforma orqali aloqaga o'tkazish, ya'ni davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi – bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bizdagi eng asosiy og'riqli muammolardan biri-korruptsiya illatiga barham beradi.[5] Jamiyat taraqqiyotining turli sohalaridagi tub o'zgarishlar axborot va axborot xizmatlari bilan chambarchas bog'liq. Ta'limni axborotlashtirish jarayoni iqtisodiy, texnologik, siyosiy va madaniy rivojlanish imkoniyatlarini keng ochib beradi. O'zbekistonda qator Sharq mamlakatlari kabi qaror topadigan jamiyatning modeli jamoaviylik va undan kelib chiqadigan milliy axloqqa asoslanadi. Shu sababli axborotlashgan jamiyat rivojida ma'naviy tarbiya, milliy-axloqiy masalalarni tadqiq qilish dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilmoqda".[7]

Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligini oshirish milliy axborot orqali, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari XXI asrda jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim yo'nalishlardan biridir. Ularning ta'siri nafaqat inson hayotiga, balki insoniyat jamiyatining barqaror va faol rivojlanishiga ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlangan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish" [8] muhim ahamiyatga ega. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi zamonaviy yutuqlar hayotimizda "global axborot jamiyati" deb ataladigan yangi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarning vujudga kelishiga olib keldi.

J.Yaxshilikov fikricha, "Hamma narsaning yaxshi va yomoni bo'lganidek, buqulayliklar bilan birga internetdansa marali vamaqsadli foydalanuvchilardan tashqari undan vaqtni bekorga o'tkazish, turli ko'ngilochar hamda behayo saytlardan foydalanuvchilar ham ko'payib bormoqda".[9]

O'zbekiston xalqining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotida demokratik islohotlar chuqurlashib, jamiyatni umumiy o'zgartirish jarayoni uchun

zarur shart-sharoitlar barqarorlashtirilmoqda. Axborot almashinuvi yangi demokratik imkoniyatlarga, barqaror siyosiy, ijtimoiy va demokratik jarayonlarni qaror toptirishga yo‘l ochadi. So‘z erkinligi, matbuot erkinligi, fikr plyuralizmi va mustaqil xususiy ommaviy axborot vositalarining paydo bo‘lishi O‘zbekiston axborot makonidagi demokratik jarayonlarning natijasi ta‘lim va tarbiya jarayoniga ma‘naviy tarbiyaning ta‘sirchanligi milliy axborot orqali amalga oshirishning imkonini boyitadi.

Axborotlashgan jamiyat turli g‘oyalar va ta‘limotlarni, bilimlarni, turli sivilizatsiya va qadriyatlarni tahlil qiladi, odamlarning tafakkurini kengaytiradi, muayyan g‘oyalarga e‘tiborni qaratadi, ularni chuqurroq anglashga yordam beradi. Iqtisodiyot davlatning tayanchi bo‘lsa, uning milliy ruhi, ongi qalbidir. Jamiyatdagi ijtimoiy institutning o‘ziga xos turi bo‘lgan ommaviy axborot vositalari davlat qalbi orqali butun organizm uchun zarur bo‘lgan oziq moddalarni, fuqarolarning birligi hamda umumiy maqsad va manfaatlarini targ‘ib qiladi. Busiz mustaqil davlatning kelajagini bashorat qilish qiyin. Ayni paytda O‘zbekiston nafaqat iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan, balki strategik, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy, ta‘lim tarbiya jihatdan ham jahon hamjamiyatining e‘tiborini tortmoqda.

Ommaviy axborot vositalari orqali odamlar ijtimoiy normalarni, axloqiy va axloqiy qadriyatlarni idrok etadilar, hayotiy tamoyillarni shakllantiradilar. Ommaviy axborot vositalari jamiyatda kechayotgan jarayonlarni yoritish orqali jamoatchilik fikrini shakllantiradi. U jamoatchilik fikrini shakllantiradi va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy rivojlanish va jamiyat talablariga muvofiq qadriyatlarni shakllantiradi, axborot sohasidagi axborot ehtiyojlarini ta‘minlaydi. Shuning uchun ham ommaviy axborot vositalari faoliyati va axborotni ishlab chiqarish, iste‘mol qilish va tarqatishdagi axborot munosabatlariga ijtimoiy mas‘uliyat yuklanadi.

Ta‘lim va tarbiya jarayoniga ma‘naviy tarbiyaning ta‘sirchanligini oshirish shaxsning axborot madaniyatining shakllanishi uning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta‘minlaydi. Ta‘lim va tarbiya jarayoniga ma‘naviy tarbiyaning ta‘sirchanligi milliy axborot orqali samaradorligini oshirish bugungi zamonda ommaviy axborot vositalari shaxs va davlat hayotida asosiy o‘rinda turishini xisobga olib ijtimoiy tuzilmada axborot jamiyatning muhim ijtimoiy quroli hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligini milliy axborot orqali targ'ibot qilish, ijtimoiy jihatdan ta'sirchan video roliklarni ajdodlarimiz o'g'itlari, ma'noli so'zlarini, hayotiy rivoyat shaklida ta'lim oluvchilarga yetkazish ma'naviy tarbiyaning tasirchanligini oshiradi, ta'lim olishga qiziqish imkonini zamonaviy yo'l bilan oshirishga xizmat qiladi. Ma'naviy tarbiyani ta'lim oluvchining qiziqishlariga qarab yondoshish ta'limda tarbiyaning samaradorligini oshishi va tajribalarning samaradorligi ortishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. Пер.с англ. В. Л. Иноземцева. – М.: Academia,1999. – 956с.
2. Уэбстер Ф. Теории информационного общества. – М.: Аспект-пресс, 2004. – 400 с.
3. Килимова Л.В. Рол информационных технологий в саморазвитии личности: научное издание. – Курск, – 63 с.
4. Masuda Y. Managing in the information Society: Releasing synergy Japanese style. Oxford, 1990. P. 44.
5. Зиновева Н.Б. Информационная культура личности: Введение в курс / под ред. И.И. Горловой. – Краснодар, – 135 с.
6. <https://strategy.uz/index.php?news=787>
7. Karimova G.A. O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat shakllanishining milliy-axloqiy jihatlari Fan doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2020. –b.5.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Muraajotnomasi. 24.01.2020-yil. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
9. Yaxshilikov J.Ya, Muhammadiev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. В 503-504.

MA'NAVIY TARBIYANING SAMARALI VA TA'SIRCHAN USULLARI: EMPIRIK TAJRIBALAR ASOSIDA

Tursunov Akmal Raxmatullayevich
*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti Konchilik fakulteti
"O'zbek va chet tillar" kafedrası dotsenti.*

Annatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda empirik tajribalar asosida ta'sirchanligini oshirish, jamiyat manfaati yo'lida o'zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodini baxshida etishga tayyor turgan yetuk insonlar, uddaburon yoshlar, fidoiy bo'lib yetishmoqdalar. Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining bizgacha qoldirgan boy ma'naviy merosini o'qish va ularga amal qilishdan iboratdir.

Kalit so'zlari: Vatanparva, sharq, tadqiqot, jarayon, g'oya, meros, fidoiy, yetuk, yaxshilik, barkamol, qobiliyat, qonuniyat, istiqlol, ajdodlarimi.

Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming-yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan.

Shavkat Mirziyoyev.

Inson qobiliyatini bilim va tajriba bilangina oshiradi. Bilim ozuqadir. Aql va qalb u bilan oziqlanadi. Insonning qadri ilm bilan yuksaladi. Tarbiya – bu juda katta ilm. Tarbiya ilmini egallagan inson ahloqan go'zal bo'ladi. Buyuk bobokolonimiz Alisher Navoiyning:

Elga sharaf bo'lmadi johu nasab,

Lek sharaf keldi hayovu adab.

ya'ni, insonga nasl-nasabi va boyligi emas, hayo va odobi shon-sharaf keltiradi, degan hikmatli so'zlari juda ham ibratlidir. [1]

Ilm, ma'rifiy makon va zamon mavzusini yoritishda qonun va adolat – ustivorligi bo'yicha Amir Temur bobomizning Oqsaroy peshtoqiga yozdirgan "Adolat – davlatning asosi va hukmdor shoiridir" so'zlariga amal qilgan holda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklif va tavsiyasiga ko'ra ta'lim-tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan rejalashtiriladigan ulkan ishning bir qismi ekanligini anglatish kerak. Yuqoridagi talablarga muvofiq tarbiyani jamiyatning maqsadi hamda vazifalaridan kelib chiqib

tashkil etish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022--yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoniga ko‘ra 2022-2026-yillarga mo‘jallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi umummilliy dasturi qabul qilindi. Dasturda 7 ta yo‘nalishni o‘z ichiga olgan 100 ta maqsad belgilab olindi. Ushbu yo‘nalishdan 5-chi ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yo‘nalishida “Yangi O‘zbekiston – ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasiga asosiy e‘tibor qaratilgan. [2]

Empirik bilishning eng asosiy kurinishi - ilmiy dalil. Shundan kelib chikkan holda har kanday ilmiy tadkikot ilmiy dalillarni tuplash, sistemaga solish va umumlashtirishdan boshlanadi. Empirik bilish nuqtai nazaridan ilmiy dalil (fakt) deganda;

a) borliqda kuzatiladigan holat, borliyning biron-bir ko‘rinishi yoki uni anglash;

b) biron-bir hodisa, jarayon haqidagi chinligi isbotlangan bilim;

v) kuzatish va eksperiment jarayonida hosil chilingan empirik bilim nazarda tutiladi. Ilmiy dalilning ahamiyati olimlar tomonidan ko‘p bor e‘tirof kilingan.

Ilmiy dalillar. Ular xosil kilingan bilimlarni induksiya yo‘li bilan umumlashtirish orkali xosil buladi. Ilmiy dalillar ayrim xossa, xususiyat, munosabatlarining tadkikot obyektiga xos ekanligini, ularning kay darajada umumiy va barkaror ekanligini ifodalaydi. Bunday ilmiy dalillar, tushunchalar, terminlar, diagrammalar, sxemalar, grafiklar, rasmlar, matematik modellar shakllarida namoyon bo‘ladi.

Empirik bilim turli yo‘nalishdagi empirik qonuniyatlarda o‘z ifodasini topadi. Empirik qonunlar kuzatilayotgan obyektga talluqli narsaqva hodisalar o‘rtasidagi umumiy aloqadorliklarni ifodalaydi. Empirik qonuniyatlar kuzatish va eksperiment natijalarini umumlashtirish, yakka xususiyatlar tahlili asosida umumiy bilim hosil qilishni anglatadi. Bu bilim faqat u yoki bu g‘oyani tasdiqlashi mumkin b o‘ladi

O‘zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma‘naviy zaminlarini mustahkamlash uchun yosh avlodga dunyo standartlari talabi darajasida bilim berishimiz suv va havodek zarurdir.

Demak, oldimizda turgan eng muhim va dolzarb muammolardan biri - O‘zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroni, har bir millat, elat kishilarini va ularning farzandlarini barkamol insonlar qilib tarbiyalash, mustaqil respublikamizning ongli fidoiysiga aylantirishdan iboratdir.

Chunki, jamiyat manfaati yo‘lida o‘zidagi barcha bilim, qobiliyat va

iste'dodini baxshida etishga tayyor turgan yetuk insonlar, uddaburon yoshlar, fidoiy bo'lib yetishmoqdalar. Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining duru javohiriga teng ma'naviy meroslari dasturilamal bo'lishlari kerak. Abu Nasr Forobiy, Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Ismoil Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Firdavsiy, Amir Temur, Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli va shular singari boshqa aql egalarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko'rilsa tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi. O'zining o'tmish madaniy merosini chuqur bilmagan va e'zozlamagan shaxs, o'z shajarasini, avlod-ajdodlari bosib o'tgan yo'lni, milliy istiqlolimiz, erkimiz va ozodligimiz yo'lida jasorat ko'rsatgan Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi va boshqa buyuk zotlar, xalq nomlarining tub mohiyatini ilg'ay olmaydilar.

Ijobiy axloqiy xislatlarni tarbiyalab yetishtirish oddiy ish emas. U kunlab, oylab,-yillab va hatto o'n-yillab oliy maqsad yo'lida sabr-toqat, chidam va qat'iyatlilik, irodaviy sifatlarni safarbar etishimizni taqozo etadigan insoniy vazifamizdir. Hozirgi vaqta Respublikamiz rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularning ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaviy fan texnika asoslarini chuqur o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasining ertangi hayoti, istiqboli nazarda tutilib, ko'plab yoshlarimiz Germaniya, Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSH, Olmoniya singari horijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilishi fikrimizning isbotidir.

Respublikamizda ta'lim to'g'risidagi Qonunni hayotga joriy etish, ta'lim-tarbiyani, sog'liqni saqlash ishlarini, umumiy tibbiyot muammolarini zamonaviy talablar darajasida olib borish, maktablarni milliyashtirish, o'rta maxsus bilim yurtlari va oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida o'tkazish borasidagi ishlar ham madaniy-ma'naviy taraqqiyotimizda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti uchun bo'lgan ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Barchasining zaminida yosh avlodga oilada, umumiy ta'lim maktablarida, xalq ta'limi tizimining boshqa tarmoqlarida beriladigan ta'lim-tarbiya yotadi.

Umuman olganda, o'sib kelayotgan yosh avlodni zamonamiz ruhiga mos, barkamol inson bo'lishlari uchun, tarbiyaning tarkibiy qismlari (aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik tarbiya va politexnik ta'lim) ga yangicha nigoh tashlash va o'sha ta'limni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqmoq lozim.

Yusuf Xos Hojib o‘z asarlarida bilimni yuksak qadrlaydi. Bilim va bilimdonlikni his eta olmoq, uni tushunmoq darkorligi, bilimdon bo‘lish asosan tarbiya bilan chambarchas bog‘liqligi, bola qanchalik erta tarbiya qilinsa, shuncha yaxshiligi haqida yozadi: «*Agar kimda bo‘lsa aql, ilm, zehn, uni madh etib sen, tugal er degin, ziyod bo‘lsa kimda o‘quv, uquv, aql, bilim, yomon va kichik bo‘lsa ham maqtagin*». degan ezgu fiklari orqaqi bayon etgan,

Amir Temur Axloqi husniya - yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida insonlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan, balki yetti o‘lchab bir kesgan.

Imom Al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik-mana shu to‘rt xislatni Olloh Taolo senga bergan bo‘lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham, zarari yo‘qdir» - degan edi. [3]

Demak, barkamol inson tarbiyasining yetakchi bo‘g‘inini tarkibiy qismi-axlokiy tarbiya-insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi mukammallikka erishtiruvchi vositadir. Abdulla Avloniy ta‘kidlaganidek insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg‘on kitobdir. [4]

Xulosa o‘rnida inson tomonidan yaratilgan ja‘mi moddiy va ma‘naviy ne‘matlar, jamiyatning xayoti uchun zarur bo‘lgan ja‘mi narsalar qadriyat hisoblanadi. Fan ijtimoiy ongning maxsus shakli, insonning olam haqidagi bilimlari majmui. Ilmiy bilimlar, fan jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotining eng muxim omili bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2020. – b. 458.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Yettinchi jild. Hayrat ul-abror. -T “Fan”: 1991. - 392 bet.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 bet.
4. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrid Tosh:O‘zb.1990,94-bet.

O'SMIRLIK DAVRIDA MA'NAVIY TARBIYANING MANTIQUIY MASALARI

Pirnazarov Nurnazar

Qoraqalpoq davlat universiteti doktranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlarning o'tish davrida yuzaga keladigan ma'naviy to'siqlarini falsafiy tahlil qilishga harakat qildik. Chunki o'smirlik davridagi yuz beradigan tashqi va ichki omillar kelajak avlodning oldiga juda kata ma'suliyat va ahamiyatli qarorlarni qabul qilishni talab qiladi, jumladan ma'naviy sohada ham.

Kalit so'zlar. ma'naviyat, ta'rbiya, osmirlik davri, o'z-o'zini tashkil qilish, model.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limning etakchi vazifasi yoshlarni ma'naviy tarbiyalashdir. Ma'naviy tarbiyaning eng dolzarb muammosi o'spirinlik davrida yuzaga keladi, bu uning ma'naviy dunyosining ambivalentsiyasi bilan bog'liq. Bunday ikki dominantlik o'spirinning rivojlanishida ham dunyoviy ma'naviyat tomon borishi va uning rivojlanish vektorining "qorong'u" salbiy ma'naviyat yo'nalishi bo'yicha siljishi uchun teng imkoniyatlarni nazarda tutadi, bu o'spirinning ommaviy madaniyat tomonidan taqdim etilgan utilitar qadriyatlarga yo'naltirilishi bilan bog'liq.

Yuqoridagilar o'smirning ma'naviy tarbiyasi mantig'ini asoslashga bag'ishlangan tadqiqotni amalga oshiradi. O'smirlik davrida ma'naviy tarbiya mantig'ini ishlab chiqish uchun asos, yaxlit yondashuvga muvofiq tadqiqot protseduralarining ma'lum bir ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, ma'naviy tarbiyaning protsessual modelini ta'kidlash uchun ushbu hodisaning tarkibiy modeli asos bo'ldi.

Gumanitar ta'lim paradigmasi kontekstida ma'naviy ta'limni tahlil qilish o'spirinning xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'spirinning ma'naviy tarbiyasining tarkibiy tarkibini belgilaydigan mazmunli xususiyatlarni aniqlashtirishga imkon berdi: qiymat jihatidan semantik komponent o'spirinning qiymat-semantik sohasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilishga qaratilgan, aks ettiruvchi komponent ichki dunyodagi qarama-qarshiliklarni hal qiladi, empatik sohadagi qarama-qarshiliklarni hal qilishga yordam beradi.

O'zaro munosabatlar, o'z-o'zini tashkil qilish komponenti ma'naviy o'zini takomillashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishni aktuallashtiradi. Tizimni tashkil etuvchi komponent qiymat – semantik hisoblanadi, chunki u o'spirinning ma'naviy hayotining yo'nalishini belgilaydi, uning ma'naviy qadriyatlarga yo'nalishini ta'minlaydi.

O'smirning ma'naviy tarbiyasi dinamikasini aniqlash uchun uning mezon

asoslari muhim bo'lib, ularning ajralib chiqishi tarkibiy qismlarning o'ziga xos xususiyatlari va o'spirinlik davrida ma'naviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Shunday qilib, qiymat-semantik komponentning mezonlari umuminsoniy qadriyatlar haqidagi bilim, haqiqat, yaxshilik va go'zallik qadriyatlariga hissiy munosabat, qadriyatlarni o'zlashtirishga bo'lgan munosabat tabiati; empatik-o'z harakatlarini hissiy aks ettirish qobiliyati, his - tuyg'ularini boshqarish, samarali hissiy javobgarlik; refleksiv komponentning mezonlari avtonomiya darajasi, ularning harakatlarining sabablarini tushunish, muammolarini hal qilishga e'tibor berish; ma'naviy harakatni amalga oshirish, axloqiy xatti-harakatlar, ma'naviy o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyati o'zini o'zi tashkil qilish komponentining mezonlari.

Ma'naviy tarbiya mezonlari o'spirinning ma'naviy rivojlanish dinamikasini aniqlashga va o'spirinning ma'naviy rivojlanish mantig'ini – qarama-qarshi ma'naviy hayotdan uyg'un ma'naviy dunyoga aks ettiruvchi ma'naviy tarbiyaning protsessual modelini yaratishga imkon berdi.

O'smirning ma'naviy tarbiyasining protsessual modelini tuzishda biz I.A.Solovtsovaning xulosalariga tayandik, u ma'naviy tarbiya jarayonining eng muhim xususiyatlari sifatida mantiq, bosqichlilik, nochiziqlilikni (o'z-o'zini rivojlantirishning ichki manbalarini izlash) ta'kidlashni taklif qiladi. Ushbu xususiyatlarning har birini o'spirinning ma'naviy tarbiyasi kontekstida ko'rib chiqing. I. A. Solovtsova ta'kidlaganidek, gumanitar pedagogik paradigmadagi maqsad ta'lim jarayonining eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotchi ta'kidlaganidek ma'naviy tarbiya qadriyatlar, madaniyat, ma'naviy tarbiya sub'ekti va boshqalarga yo'naltirilgan ko'p hissiy jarayon sifatida qaralishi mumkin. Biz I.A.Solovtsovaning fikricha, inson o'zining ma'naviy rivojlanishida nafaqat qadriyatlarga, balki antitseniyaga ham e'tibor qaratishi mumkin. Shunga ko'ra, ma'naviy rivojlanish vektori yuqoriga emas, balki pastga yo'naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, I.A.Solovtsovning ta'kidlashicha, ma'naviy tarbiya "+" belgisi bilan ham, "-" belgisi bilan ham bo'lishi mumkin. Bunday holda, yo'nalish insonning qiymat yo'nalishlari bilan belgilanadi. O'smir qadriyatlar tizimi qarama-qarshi bo'lganligi sababli, bu yoshda uning ma'naviy dunyosining antinomikligi eng aniq namoyon bo'ladi, bu uning rivojlanishida ham dunyoviy ma'naviyat, ham qorong'ulik yo'lida borish imkoniyatiga tengdir.

Ushbu xulosalar o'spirinning ma'naviy tarbiyasining bosqichma-bosqich modelini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Ma'naviy tarbiyaning eng muhim xususiyati bu o'quv jarayonining bosqichidir. O'smirning ma'naviy tarbiyasi bosqichlarini ajratib ko'rsatish tartibini tanlash biz tomonidan yaxlitlikni rivojlantirish darajalari g'oyasiga asoslangan tizimli yaxlit yondashuv doirasida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, biz tizim o'z rivojlanishida

individual elementlarning paydo bo'lishidan, ularning guruhlanishidan, barcha elementlarning yagona tizimga birlashishi va yaxlitligi, o'z-o'zini harakatlantirish kuchlari faollashganda bosqichlardan o'tishi haqidagi uslubiy qoidadan kelib chiqamiz [2].

O'smirning ma'naviy tarbiyasining mazmuni va tuzilishini aniqlash asosida, uning yosh xususiyatlari va eksperimental ish natijalarini hisobga olgan holda, biz ma'naviy tarbiyaning besh bosqichini ajratamiz.

Amorfning birinchi bosqichi tizimning amorfligi, uning elementlarining xilma-xilligi, ular orasidagi barqaror aloqalarning yo'qligi, mavjud tuzilish haqida gapirish imkoni bo'lmaganda tavsiflanadi. Tizim o'zini tasodifiy, oldindan aytib bo'lmaydigan tarzda tutadi, uning atrof-muhit sharoitlariga bog'liqligi katta.

Ushbu bosqichda ma'naviy tarbiyaning tarkibiy qismlari, masalan qiymat ma'nosi, empatik, aks ettiruvchi va o'z-o'zini anglash tarqoq. O'smir qiymat toifasi haqida tor fikrga ega, ma'naviy qadriyatlarga munosabat neytraldir, ammo umuminsoniy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish tufayli izchil qadriyatlar tizimi qurila boshlaydi. Empatik qobiliyatlar kam rivojlangan, o'spirin boshqasini tushunish zarurligini, tor g'oyalar va quvonch, qayg'u, rahm-shafqat toifalarini ko'rmaydi, bu boshqasiga nisbatan hissiy munosabatni aks ettiradi. Yuqorida aytilganlarning barchasi o'spirinning qimmatli semantik dialogga qodir emasligiga olib keladi. Ushbu bosqichda bo'lgan o'spirinda, aks ettirish paydo bo'lishiga qaramay, o'z-o'zini anglash qobiliyati hali rivojlanmagan, bu o'z-o'zini takomillashtirishga ehtiyoj yo'qligini belgilaydi. O'z-o'zini amalga oshirish komponenti rivojlanmagan, chunki o'spirin hali o'z harakatlarining ma'nosini tushunmaydi.

Ushbu bosqichdagi neoplazma-bu o'smirning qiymat-semantik sohasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilishni ko'rsatadigan izchil qadriyatlar tizimi. Parchalanishning ikkinchi bosqichi tizimdagi elementlar guruhlari o'rtasidagi aloqalarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi, unda "tuzilish bo'laklari" hosil bo'ladi, sabab-oqibat munosabatlari o'rnatiladi, tizimning xatti-harakatlari muayyan vaziyatlarda oldindan aytib bo'ladi, ammo beqaror bo'lib qoladi.

Rivojlanishning parcha-parcha bosqichida bo'lgan o'spirin ma'naviy qadriyatlarni tushunishga harakat qiladi, ba'zi hollarda ularga e'tibor qaratadi. U ba'zi harakatlarining ma'nosini va ularning sabablarini aniqlashga qodir. O'smir qadriyatlarning izchil ierarxiyasini rivojlantirdi. Ba'zi hollarda, o'spirinning ahvoli to'g'ri tanlov yoki qilingan harakatlar haqidagi shubhalarni o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan, o'spirin o'zini yaxshiroq tushunadi, ba'zi xatti-harakatlari haqida mulohaza yuritadi, o'z muammolarini qiymat-semantik sohada shakllantiradi, bu esa o'spirin o'zini

takomillashtirish zarurligini birinchi marta anglashiga olib keladi. Shuning uchun, biz ushbu bosqichda birinchi marta o‘spirin o‘zini, xatti-harakatlarini baholash, ularning oqibatlarini anglash qobiliyati sifatida o‘zini anglay oladi, deb ta’kidlash huquqiga egamiz. Ma’naviy tarbiyaning empatik tarkibiy qismi aktuallashtirilmagan, chunki o‘spirin hali ma’naviy rivojlanishda boshqa muhim, uning tushunchasi va rolga ehtiyoj sezmagani. Biroq, parchalangan bosqichdagi o‘spirin ba’zi hollarda boshqa odamga rahm-shafqat, hamdardlik ko‘rsatadi. O‘smir ruhiy harakatni faqat kattalar rahbarligi ostida amalga oshirishi mumkin. Ushbu bosqichning neoplazmasi-o‘zini takomillashtirish ehtiyojining paydo bo‘lishi. Ushbu bosqichda o‘spirinning ichki dunyosidagi qarama-qarshiliklar hal qilinadi.

Uchinchi bosqich situatsion tizimning deyarli barcha elementlari o‘rtasida aloqalar mavjudligi bilan ajralib turadi, uning ichki tuzilishi quriladi, tizimning xatti-harakati yanada barqaror bo‘ladi, ya’ni hayotning aksariyat holatlaridagi tendentsiyalar darajasida o‘zini namoyon qiladi. Bu “yaxlit yaxlitlik” darajasidir, ammo tizim hali ham beqaror, uning tuzilishi yuqori ehtimollik bilan tashqi ta’sirlar bilan yo‘q qilinishi mumkin. Umuman olganda, o‘spirin ko‘p holatlarda uning xatti-harakati va harakatlarini belgilaydigan qadriyatlarning ichki ierarxiasini rivojlantiradi. O‘zini va hayot yo‘lini aks ettirish va tushunishning yuqori qobiliyati o‘spirinning ma’naviy o‘zini o‘zi rivojlanishiga yordam beradi. O‘quvchi rivojlangan empatik qobiliyatlarga, shuningdek quvonch, qayg‘u, tajriba va boshqa hissiy namoyishlar toifalari haqida keng g‘oyalarga ega. U o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa qadriyatlarning qadriyatlarini qabul qilishga qodir, bu qiymat-semantik muloqotga bo‘lgan ehtiyojni yangilaydi. Yuqorida aytilganlarning barchasi o‘smirning ma’naviy harakatni rejalashtirish va amalga oshirishga qodirligiga olib keladi. Biroq, ushbu bosqichda o‘spirin hali o‘zini takomillashtirish qobiliyatini rivojlantirmagan.

Vaziyat bosqichining neoplazmasi boshqasini tushunish zarurati va muhim boshqasi bilan qiymat-semantik dialog. Ushbu bosqichda bo‘lgan o‘spirin munosabatlardagi qarama-qarshiliklarni hal qiladi.

Tizim rivojlanishining to‘rtinchi bosqichi yaxlitlik-bu tizim elementlari o‘rtasidagi aloqalar barqarorlashganda, ierarxik tuzilishga joylashganda, tizimning xatti-harakati barqaror va avtonom bo‘lib qolganda, optimal izchil yaxlitlik darajasi. Bu tizimning o‘z-o‘zini rivojlantirish bosqichidir, bu erda uning rivojlanishining ichki omillari kuchayadi va tizim o‘z tuzilishining elementlari sifatida o‘zlashtirilgan muhitni o‘z ichiga olgan tashqi muhit fonda yo‘qoladi.

O‘smir barcha hayotiy vaziyatlarda yo‘naltirilgan barqaror qadriyatlar ierarxiasiga ega. O‘smir o‘zini va uning imkoniyatlarini yaxshi biladi,

shuningdek boshqasiga e'tibor qaratadi, mustaqil ravishda ma'naviy harakatlarni rejalashtiradi va amalga oshiradi. O'smir o'zini, boshqa odamlar orasida o'z o'rnini, hayotiy istiqbollarni tushunadi va ma'naviy jihatdan o'zini rivojlantiradi. O'quvchi o'z muammolarini mustaqil ravishda aniqlay oladi, rivojlanish maqsadlarini shakllantiradi, imkoniyatlarga mos vositalarni tanlaydi va ma'naviy o'z-o'zini rivojlantirish natijasini kuzatadi. Ushbu bosqichning neoplazmasi butun ma'naviy ta'lim tizimining ajralmas xususiyati bo'lib, ma'naviy o'zini takomillashtirish qobiliyati rivojlangan. O'smirning ma'naviy hayoti qiymat-semantik sohada, ichki dunyoda va boshqasi bilan munosabatlar sohasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilish orqali uyg'undir. O'smirlarni kuzatish va tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish bizni o'smirning ma'naviy rivojlanishining yana bir, "salbiy" bosqichini ta'kidlash zarurligiga olib keldi. Ma'naviy ta'limni o'rganishda biz T.I.Vlasova, I.A.Solovtsovaning insonning ma'naviy dunyosining antinomikligi haqidagi xulosalari bilan bog'liq bo'lgan "ijobiy" va "salbiy" yaxlitlik mavjudligini taxmin qildik [3, 4]. Shu bilan birga, biz I.A.Solovtsovaning xulosalariga amal qilamiz, unga ko'ra ma'naviy tarbiya ikki tomonlama, qarama-qarshi hodisa bo'lib, uning har bir namoyon bo'lishi o'ziga xos "teskari aks ettirish" ga ega, bu uning niyatlilik bilan bog'liq. Ma'naviy sohaning yorqin va qorong'i tomonlari bor degan fikrga asoslanib, biz o'smirning ma'naviy tarbiyasi bosqichlari ham "qorong'u ma'naviyat"da o'z aksini topgan deb taxmin qilingan. Biroq, diagnostika tajribasi davomida o'smirlik davrida faqat bitta salbiy bosqich - amorf bosqichning "aks etishi" xarakterli ekanligi aniqlandi. Amorf salbiy bosqich o'spirinlarda qiymat toifasi, qadriyatlar tizimi qarama-qarshi bo'lganligi, ular moddiy qadriyatlar va qarama-qarshiliklarga (kuch, vosita sifatida jismoniy kuch, pul va boshqalar) yo'naltirilganligi, harakatlarning motivlari o'zlari uchun foyda sifatida belgilanishi bilan tavsiflanadi. Empatik qobiliyatlar kam rivojlangan, o'spirin boshqasiga rahm-shafqat va hamdardlikka qodir emas, u qiymat-mazmunli muloqotga muhtoj emas. Shu sababli, o'spirin konformist bo'lib, uning aniq fikri yo'q. Ushbu bosqichda o'spirinda mulkka zarar etkazish, sinfdoshlarini haqorat qilish kabi ijtimoiy harakatlar paydo bo'lishi mumkin. O'smirning ushbu bosqichga mansubligini belgilaydigan asosiy xususiyat-bu uning antikaga intilishi, qarama-qarshi ma'naviy hayot, bu biz tomonidan "qorong'u" ma'naviyat tomon "siljish" ning boshlanishi sifatida belgilanadi.

Amorf salbiy, amorf, qismli, situatsion va yaxlit bosqichlarning tabiiy o'zgarishi bo'lgan o'spirinlarning ma'naviy tarbiyasi mantig'i o'spirinning ma'naviy rivojlanish dinamikasi bilan bog'liq. Antinomik ma'naviy dunyo bilan bog'liq holda, uning rivojlanish vektorini "qorong'u" salbiy ma'naviyat tomon aks ettiruvchi va o'spirinning antitsenlarga intilishi bilan tavsiflangan bosqich aniqlandi va asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Solovtsova, I.A., *Moral Education in the Orthodox and the Secular Pedagogy: Methodology, Theory, Technology: Monograph [Text]* / I.A. Solovtsova. – Volgograd, 2006. – 248 p.
2. Власова, Т.И. *Духовно ориентированное воспитание школьников. Учебнометодическое пособие [Текст]* / Т.И. Власова – Ростов-на-Дону, 2010
3. Uli, P. N. R. (2021). Development of a Person's Spirituality in Dialogue with Another. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(1), 133-135.

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA MA'NAVY SOHADAGI AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHATLAR STRATEGIYASI

Musaev Maqsud Tursunpo'latovich

*Samarqand viloyati IIB Samarqand shaxar
bo'yicha ichki ishlar organlari faoliyatini
muvofiqlashtirish boshqarmasi
7-son ichki ishlar bo'limi boshlig'i*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki ishlar organlarida ma'naviy sohadagi amalga oshirilayotgan islohatlar strategiyasi haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada mamlakatimizda ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish va sohani sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, xavfsizlik, barqarorlik, globallashuv, ma'naviyat, mafkura, taxdid, xatar, tapg'ibot, ma'rifat, samaradorlik, axloq, odob.

Bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, dunyo miqyosida globallashuvning shiddatli avj olishi hamda tahlikali vaziyatni vujudga kelishi tinchlik va barqarorlikka nisbatan taxdid va xatarlarni tobora kuchaytirmoqda. Ana shunday murakkab sharoitda ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan ishlarni zamon talablari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar xodimlariga hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat asosida singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrof va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib

chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida jamiyatni ulug‘vor maqsad sari birlashtirishda ichki ishlar organlari xodimlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashni taqoza etmoqda. Mana shunday murakkab va taxlikali vaziyat ichki ishlar organlari xodimlarida bugungi zamon talablari asosida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish va uni yangi bosqichga ko‘tarishni hayotiy zaruratga aylantirmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 2023-yil 22 dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida mamlakatimiz hayotidagi g‘oyat muhim masalalarni muhokama qilish va ular yuzasidan zarur yechimlar topish maqsadida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida ma’naviyat va ma’rifat masalasiga alohida e’tibor qaratib o‘tilgan edi.

Bu haqda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: **“Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!”**[1]. Binobarin, ichki ishlar organlari xodimlari o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz, emas albatta. Zero, bugungi kunda globallasuv sharoitda dunyoda sodir bo‘layotgan siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va g‘oyaviy kurashlar keskinlashayotgan bir sharoitda mafkuraviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik ichki ishlar organlari xodimlarida yuksak vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish, millatning urf-odat va an’analarini mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, bu borada mamlakatimizda ichki ishlar tizimini tubdan isloh etish va sohani yangi bosqichga olib chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifani amalga oshirishda ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy-ma’rifiy sohada dunyoqarashini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida turli taxdidlar kuchayib borayotgan hozirgi zamonda ichki ishlar organlari xodimlarida vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg‘usini shakllantirish hamda yuksak axloqiy-ruhiy fazilatlarini yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Shu o‘rinda, yurtga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilish, bilim va tajribasini vatanga baxshida etish, har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarga sodiq, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg‘unchi g‘oyalarga murosasiz kurashuvchi, iymon-e’tiqodi va irodasi mustahkam, ma’naviyatli

va fidoyi, ajdodlarimiz va mardlik ko'rsatib halok bo'lgan xodimlarning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ular qalbida davlat va xalqimizning xavfsizligini ta'minlashda shaxsiy daxldorlik va yuqori mas'uliyat hissini shakllantirish davlatimizning asosiy strategik vazifasi hisoblanadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash[2] muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda "2022-2026-yillapga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tapaqqiyot strategiyasi"ning ustuvor yo'nalishlaridan biri "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish"[3] asosiy vazifa etib belgilangan. Xususan, mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha amaliy natijalarga erishilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar xodimlarning zamonaviy qiyofasini yaratishga qaratilgan dasturiy hujjat Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining II yo'nalishi "mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish"ning 17-maqsadi: "Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish", deb nomlanib, unda "Ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo'naltirish" vazifasi belgilangan[4]. Zero, mazkur holatda bu xodimlarning o'z vakolatlarini bajarish jarayonida faqatgina professionalizmning o'zi yetarli emasligini, balki ma'naviy va ma'rifiy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Shu o'rinda, ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviyati haqida fikr yuritganda eng avvalo, har bir xodim o'zini xalq vakili sifatida ona Vatani cheksiz sevadigan o'z yurtiga fidoyi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini vijdonan, imon-e'tiqod, sadoqat, ishonch, halollik, dovyuraklik, beg'arazlik bilan himoya qilishga qodir bo'lgan jasoratli insonlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-6196 sonli Farmoniga 1-ilova "Ichki ishlar organlari tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning II yo'nalishida "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, xodimlarni uzluksiz tayyorlash,

qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarador mexanizmini joriy etish” 9 bandi – “quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash belgilangan edi.

Xususan, **“Vatanga va xalqqasadoqat bilan xizmat qilish-oliy burchimiz”** konseptual g‘oyasi asosida xodimlarni tarbiyalashni takomillashtirish chora-tadbirlari, ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy maqsadi va vazifalari, har bir hududiy ichki ishlar organida jasorat va vatanparvarlik g‘oyalari aks ettiruvchi ma’naviy-ma’rifiy burchaklarni (xonalarni) tashkil etish, mafkuraviy ishlarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari, shu jumladan tarbiyaviy ishlar, targ‘ibot-tashviqot ishlari, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-huquqiy himoya va madaniy tadbirlar, ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish mexanizmlari” belgilangan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021-yil 2 apreldagi PQ-5050-sonli qarorida ichki ishlar xodimlarni har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarga sodiq, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg‘unchi g‘oyalarga murosasiz kurashuvchi, iymon-e‘tiqodi va irodasi mustahkam, ma’naviyatli va fidoyi, ajdodlarimiz va mardlik ko‘rsatib halok bo‘lgan xodimlarning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ular qalbida davlat va xalqimizning xavfsizligini ta‘minlashda shaxsiy daxldorlik va yuqori mas‘uliyat hissini shakllantirish[5] bugungi kunning eng muhim vazifasi sifatida belgilangan. Mazkur qarorga ko‘ra, Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi» tasdiqlandi[6].

Mazkur konsepsiyada ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning ma’naviy salohiyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash kabi ulug‘ maqsadlar o‘z aksini topgan.

Shuningdek, konsepsiya ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkilotish, sohadagi ishlarning ustuvor yo‘nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan. Konsepsiyada ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan barcha xodimlar va harbiy xizmatchilarning umumiy dunyoqarashi, siyosiy ongi, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, kasbiga nisbatan sadoqat va yuqori mas‘uliyat hislarini oshirish bilan bog‘liq vazifalar belgilab berilgan. Shu bilan birga, konsepsiya milliy va xalqaro huquq normalari asosida ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning ma’naviy salohiyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg‘ularini mustahkamlash

bilan bog‘liq faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi.

Shu bilan bir qatorda, ichki ishlar organlari xodimlarining harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ulari, ma‘naviy sifatlari va intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongu-shuuriga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish, xodimlarning ma‘naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish, faol hayotiy pozitsiyasi, intellektual salohiyatini, Ona Vatan taqdiriga bo‘lgan mas‘uliyatini mustahkamlash, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularni fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini sadoqat va fidoyilik bilan vijdonan bajarishga yo‘naltirish bo‘yicha ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etishni ifodalaydi. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasida ichki ishlar organlarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar «Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish - oliy burchimiz!» konseptual g‘oyasi asosida tashkil etilib, unda davlat mustaqilligini himoya qilish, huquq-tartibotni mustahkamlash, jamoat xavfsizligini ta‘minlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev: **“xalqimiz Yaratgandan, avvalo, tinchlik-xotirjamlikni so‘raydi. Shundan so‘ng, o‘z uyim, boshpanam bo‘lsa, oilam, bola-chaqam bilan sog‘-salomat yashasam, deydi. Biz xalqimizning ana shunday orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun ikkita masalaga, ya‘ni ichki ishlar va sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishga katta e‘tibor qaratayapmiz”**[7], - deya ta‘kidlagani bejiz emas. Zero, yurtimizda o‘tgan qisqa davr mobaynida ichki ishlar tizimi tubdan isloh qilinib, el-yurtimizning ishonchi va mehrini qozongan, tom ma‘nodagi xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligini teran anglashimiz lozim.

YOSHLAR MA‘NAVIY VA ESTETIK TARBIYASIDA YUSUF XOS XOJIB ASARLARINING FALSAFIY AHAMIYATI

Abdullayeva Marhabo Uskinbayevna,
*Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi
Huzuridagi Ijtimoiy ma‘naviy tadqiqotlar
Instituti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig“ (“Saodatga yo‘llovchi bilim“) asari XI asr adabiyoti va san‘ati, tarixining nodir namunasi. Unda o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy hamda ma‘naviy-axloqiy masalalari badiiy tarzda talqin qilingan, unda

turkiy xalqlarning tarixi, ilm-fan va madaniyati, urf-odati-yu, an'analari, turmush tarziga xos qadriyatlari borasida batafsil ma'lumot keltirilgan. Maqolada mana shular xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Yusuf xos Hojib, "Qutadg'u bilig", yoshlar, ma'naviyat, estetika, tarbiya, falsafa, ahloq, odob, Qoraxoniylar, turkiy xalqlar, tarix, madaniyat, ilm-fan, urf-odatlar.

Yusuf Xos Hojibning 1069-70-yillarda yozilgan "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") asari O'rta asrlarda, ayniqsa, VI-XI asrda tarixda Buyuk turk hoqonligi nomi bilan mashhur bo'lgan davlatning davomchilari bo'lgan Qoraxoniylar sulolasining mustahkam qaror topishiga xizmat qilgan va ushbu davlat boshqaruv nizomnomasidir. Nomidan ham anglash mumkinki inson ma'naviyati, ahloqi va aql zakavotini saodatga yetaklovchi falsafiy yo'riqnoma. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") asari XI asr adabiyoti va san'ati, tarixining nodir namunasi. Unda o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy-axloqiy masalalari badiiy tarzda talqin qilingan, unda turkiy xalqlarning tarixi, ilm-fan va madaniyati, urf-odati-yu, an'analari, turmush tarziga xos qadriyatlari borasida batafsil ma'lumot keltirilgan. Yusuf Xos Hojib asarni yozishni Bolosog'unda boshlagan va Qashqarda tugatgan hamda Qoraxoniylar hukmdori bo'lgan Tavg'och Bug'roxonga taqdim yetgan. Tavg'och Bug'roxon esa muallifni taqdirlab, uni "Xos Hojib" ("Eshik og'asi") unvoni bilan sharaflagan. Shundan keyin shoir Yusuf Xos Hojib nomi bilan mashhur bo'lgan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") asari o'sha davrdagi endi rivojlanib kelayotgan islom adabiyotining debochasi bo'lish bilan birga, balki uni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tardi. Bu asar nafaqat turkiy xalqlarning adabiyoti va an'analari, balki qardosh xalqlarning, jumladan, forsiy adabiyotga xos tajribalarni ham ijodiy o'zlashtirgan tarzda yaratilgan. Bundan ko'rinib turibdi-ki, adib bir qancha turki va forsiy tillarni bilgani holda adabiyotga yangi tilda ijod qilishni ham olib kirgan.

"Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") asarida jamiyat va davlat qurilishi masalalari, shuningdek, komil insonga oid va ilm-ma'rifat targ'iboti masalalari to'rta ramziy timsol, ya'ni, Adolat timsolida - Kuntug'di, Baxt timsolida - Oyto'ldi, Aql va idrok ramzida - O'gdulmish hamda Qanoat timsolida - O'zg'urmish nomli qahramonlari orqali ifoda etilgan.

"Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") nomli asarning muqaddimasida bitilishicha, ushbu kitob o'z davridayoq keng tarqalgan va mashhur bo'lgan. Asar har bir mamlakatda va xalqlarda turlicha nomlangan. Masalan, Chin (Shimoliy xitoy)liklarda uni "Adab ul-muluk" ("Hukmdorlar odobi"), mochin (Janubiy xitoy)liklarda esa "Oyinul-mamlakat" ("Hukmdorlik

qonun-qoidalari”), Sharqiy xitoyliklarda “Ziynat ulumaro” (“Hukmdorlar ziynati”), eronliklarda “Shohnoma”i turkiy (Turkiy “Shohnoma”), ayrimlarda, “Pandnomai muluk” (“Hukmdorlar pandnomasi”), turonliklarda “Qutadg‘u bilig”, ya’ni “Saodatga yo‘llovchi bilim” deb nomlangan.

Muallif “Qutadg‘u bilig” dostonini yaratar ekan, u o‘z oldiga qoraxoniylar davlatini rivojlantirish, hokimiyatini mustahkamlash, qoraxoniy hukmdorlar bo‘lmish Tavg‘achxon hamda Yeloqxonlar o‘rtasida mavjud ixtiloflarni bartaraf qilish, hukmron doiralardagi turli ijtimoiy tabaqalarga bo‘lgan munosabatni belgilash, ma’rifat hamda obodonchilikni yaratish, yaxshi xulq-atvor va odobni targ‘ib etish singari maqsadlarni qo‘ygan. Bular bilan Yusuf Xos Hojib o‘sha davrning yirik ma’rifatparvari hamda donishmandi sifatida gavdalanadi.

Mazkur asarning ramziy qahramonlari bo‘lmish Kuntug‘di (adolat), O‘gdulmish (aql), Oyto‘ldi (baxt) va O‘zg‘urmish (qanoat) timsollari o‘sha davrdagi inson ma’naviyati va ma’rifati ucnun qanchalik muhim bo‘lgan bo‘lsa, bugungi avlod ucnun ham juda muhim hisoblanadi. Har bir komil insonda ushbu hislatlarning barchasi bo‘lishi lozimligini muallif ta’kidlar ekan, bahsli masalalar yuzasidan ham u ilm, axloq-odob, adolat va insoniylik doirasida fikr yuritadi. U podshoh-u, amaldorlardan tortib to dehqon-u hunarmandlargacha, umuman jamiyatdagi hamma toifalarning burch va huquqlari haqida o‘z mulohazalarini bildiradi. Borliq to‘g‘risidagi bilimlarga to‘xtalarkan, Yusuf Xos Hojib, bilim bilan yechilmaydigan masala, bilishi mumkin bo‘lmagan jumboq yo‘qligini, bilim bilan osmonga ham yo‘l ochiliishini ta’kidlaydi, bilish uchuninson tinmasdan o‘rganishi lozimligini uqtiradi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida insonning kamoloti masalasi asosiy masala bo‘lib hisoblangan. Ushbu asarda insonning hayotda, umuman jamiyatdagi o‘rni, burch va vazifalari borasidagi muammolar o‘ziga xos talqinda bayon etilgan. Mutafakkir asarning an’anaviy boshlanmasidan so‘ng insonning haqiqiy toleyi - bilimda ekanini bayon qiladi. Yana bir qator boblarda ham ilmu-zakovatning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritish bilan bir qatorda, ular uchun alohida boblarni ham bag‘ishlangan. Lekin adib faqat ilm-ma’rifatning ahamiyatinigina ko‘rsatibgina qolmay, u bilim va zakovatning haqiqiy amaliyotdagi o‘rnini ham mohirona yoritadi.

Bilimni buyuk, o‘quvni ulug‘ bil,

Bu ikkisi tanlangan bandasini ulug‘laydi.

Zakovat qaerda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘ladi,

Bilim kimda bo‘lsa buyuklik oladi.[2, Б-11]

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida insonni kamolotga

yetkazishning yana bitta va eng muhim jihati - uni axloqan kamol toptirish, deb hisoblaydi. Mutafakkir o‘z axloqiy qarashlarini, fikrlarini, ya’ni ijtimoiy munosabatlarni, jamiyatdagi barcha tabaqalar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni amaliy faoliyatga tayanib yoritadi. Olim insonning haqiqiy kamolotga yetishida tafakkur va axloqiy jihatdangina emas, balki jismoniy jihatdan ham sog‘lom bo‘lishi lozimligiga katta e’tibor qaratadi.

Xulq go‘zal bo‘lsa, barcha xalq sevadi,
Xulqi to‘g‘ri bo‘lgan kishi to‘rga chiqadi.[4,Б-36]

* * *

Bolaga otaning mehnati singgan bo‘lsa,
So‘ng u bolaning xulq-atvorida bilinadi.
Ota bolani nazoratda tutsa,
U yaxshi, ezgu bo‘ladi.[3,Б-19]

Mutafakkir ushbu jumalari orqali oilada ota o‘giti, ota ibratiga va otaning amaliy ishlari oila a‘zolari uchun, uning ayniqsa farzand tarbiyasidagi o‘rni muhimligini ta’kidlaydi. Bu bugungi yosh avlod tarbiyasiga befarq yoki bo‘lmasa vaqt topaolmaydigan ota- onalar ucnun ibrat sifatida ko‘rsatishga va e’tirof etishga arziydi.

O‘g‘il-qiz kichikligida nimani o‘rgansa,
To qarib o‘lmaguncha unutmaydi.[4,Б-51]

Demak har bir yaxshi fazilatlar yoshligidan to‘g‘ri singdirilsa va amalda to‘g‘ri ko‘rsatib berilsa bu narsalar inson to umrining oxirigacha unutilmasligini hozirgi vaqtdan X asr oldin aytib isbot qilib bergan. So‘z isboti bilan bo‘lgani kabi mutafakkirni yana bir jumlasini eslamay o‘tmaslikning iloji yo‘q.

Kishi ikki narsa tufayli qarimaydi,
Biri — ezgu xulqi, biri — ezgu so‘zi.
Mendan senga kumush, oltin qolsa,
Ularni sen bu so‘zga teng tutmagil! [4,Б-31]

“Qutadg‘u bilig” asarida ijodkorning o‘g‘il-qizlar tarbiyasi, odob-axloq, halollik, kishilikning ulug‘ hislatlari, chin insoniylik, komil inson haqidagi teran falsafiy qarashlari, kishining ma’naviy dunyosi badiiy shaklda bayon etilgan. Ulug‘ mutafakkirning falsafasi o‘rta asrlardagi Sharq falsafiy qarashlarining eng yuqorisisida turadi.

“Qutadg‘u bilig” – baxtu saodat haqidagi kitob. Asarni o‘qib, undan ibrat olgan, undagi ko‘rsatmalarga doim amal qilgan insonlarga saodatning eshiklari ochiladi. Bu borada adib shunday deb yozadi:

Kitab ati urdum «Qutadg‘u bilig»,
Qutadsu, o‘qig‘liqa tutsu elig.[2,Б-6]

Ma'nosi (Kitobga «Qutadg'u bilig» deb ot qo'ydim, Baxtga eltsin, o'qigan kishining qo'lidan tutsin).

Adib o'z asarida turkiy xalqlarning badiiy-estetik tafakkuri qudrati va kuchini ko'rsatib berolgan. Asar voqealari unchalik murakkab tuzilmagan. Ular ramziy keltirilgan qahramonlarning hayotiy faoliyatlari va ular o'rtasidagi o'zaro suhbatlar asosiga qurilgan. Yuqorida biz dostonidan olingan parchalarni keltirdik. Ulardan ma'lum bo'ladiki, Kuntug'di nomli podsho o'zining adolati, qonunni ustuvor qo'yganligi, yurtda osoyishtalik, farovonlikni ta'minlaganligi bilan shuhrat qozongan. Oyto'ldi nomli yana bir dono yigit bu dovrug'ni eshitib, podsho eshigiga xizmat uchun keladi. Ular mamlakatni birgalikda boshqarib, butun xalqni idora qilishadi. Mamlakatning ravnaqi va daxlsizligi faqat xalqi bilandir. Xalqning qanday bo'lmog'i mamlakat boshqaruvchisiga mutloq bog'liqdir. "Qutadg'u bilig"da mamlakat sardori – hukmdor "elig" yohud "bek" deb yuritilgan. Alohida ta'kidlash lozim-ki, qadimgi turklarda Vatan degan tushuncha shu Vatandagi xalq bilan birga, uyg'unlikda tasavvur etilgan. Mazkur tushuncha "el" so'zida ifodalanadi. Bu so'z faqat xalqni emas, balki o'lka, mamlakat, yurt va davlat (saltanat) tushunchalarini ham ifodalagan. Uning "kun" so'zi bilan hamohang kelishi "yurt", "mamlakat", "el-u xalq", "Vatan" tushunchalariga teng keladi. Bu o'z navbatida yosh avlodni insonparvar, vatanparvar bo'lishiga zamin yaratadi, qolaversa, bunda Vatan ravnaqi, uning istiqboli unda yashovchi xalq g'ami bilan yashash ibrati yotadi. Bugungi davrimizda shu oddiy xalq uchun jonkuyar ison, el dardi eng birinchi ekanligini tushunib yetuvchi rahbarlarimiz bu kabi asarlarni ko'proq o'qishi va bundan ibrat olishi kerak.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, "Qutadg'u bilig" X-XI asr pandnomasi shunday falsafiy, didaktik ruhdagi asardir. Yusuf Xos Hojib o'z dostonida ilmu-ma'rifatni, adolatni, insonparvarlikni, halollik, mehr-oqibatni tarannum etgan hamda bu asar bugungi kun yoshlari uchun ham ibrat maktabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig (Nashrga tay. Q. Karimov). Yulduzcha. T.: 1971.
2. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig (nasriy bayon muallifi B.To'xliev). Yulduzcha T.: 1989.
3. Fitrat. Qutadg'u bilig. "Tanlangan asarlar". (nashrga tay. H.Boltaboev). 2-jild. T.: Ma'naviyat. 2000.
4. B.To'xliev. "Qutadg'u biligning poetikasi masalalari". "O'lmas obidalar" to'plami. Yulduzcha. T.: 1989.
5. B.To'xliev. Bilim - ezigulik yo'li. Yulduzcha . T.1997.
6. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'qituvchi. T. 1976;

TALABALARDA TAYANCH MA'NAVYI-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI TO'G'RISIDA

Malikova Dildoraxon Qobilovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Yoshlar masalalari, ma'naviyat va ma'rifat”

bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda talaba yoshlarimizda “Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi” asosida rivojlantirilayotgan 10 ta tayanch ma'naviy axloqiy fazilat-kompetensiyalarning kognitiv asoslarini bilish tarbiya jarayonini texnologik takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu fazilatlar mazmunini qisqacha sharhlangan.

Kalit so'zlar: Manaviy-axloqiy tarbiya, tolerantlik, Vatanga sadoqat, mafkuraviy immunitet, innovatsion fikrlash, ma'suliyat, millatlararo totuvlik.

Har bir O'zbekiston fuqarosining kuchli ma'naviyatli Shaxs bo'lishi – Yangi, kuchli O'zbekistonni barpo qilishning ma'naviy-mafkuraviy shartidir. Ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama sog'lom shaxsni shakllantirish, jahon talablari darajasiga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish – maktabning eng muhim burchidir. Shu maqsadda 2019-yil 31 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1059-sonli qarori qabul qilindi. Konsepsiyaga muvofiq, tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bunda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va OTMlari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishi va ular orasida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyaning ilmiy-metodik uzviylikini yangi darajaga ko'tarish nazarda tutilgan. [1]

Professor M.Quronov o'zining “O'zbek xarakteri va milliy g'oya” risolasida: “Milliy tarbiya orqali inson o'z va boshqa millatlarning qalbiga kirib boradi, bundan har bir millat, demak, butun insoniyat yutadi, boyiydi, insonparvarlashadi. Odam-odam bilan, millat-millatlar bilan tirik.

U o'z manfaatlarini o'zgalarning manfaatlari bilan muvofiqlashtirib yashaydi, boyiydi. O'zbek xalqi o'z tarixida ana shunday muvofiqlikning milliy an'analarini, urf-odatlarini ijod qildi. Mehmondo'stlik – o'zbekning butunjahon e'tirof etgan fazilatiga aylangan. Milliy odob-ahloq me'yorlari ana shu birlikni mustahkamlovchi “o'zbekchilik” sifatida xizmat qilib keldi” deydi. [2]

Bugungi kunda talaba yoshlarimizda “Uzluksiz ma'naviy tarbiya

Konsepsiyasi” asosida rivojlantirilayotgan 10ta tayanch ma’naviy axloqiy fazilat-kompetensiyalarning kognitiv asoslarini bilish tarbiya jarayonini texnologik takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu bois ushbu fazilatlar mazmunini qisqacha sharhlaymiz.

Vatanga sadoqat - Vatan va uning farzandi bo‘lgan insonlarning shaxsiy manfaatlari o‘zaro uyg‘unlashib ketadi. Vatanga sadoqat, uning manfaati yulida qayg‘urish, ajdodlar merosiga sadoqat, milliy ma’naviyatdan bahramandlik, bashariyatga hurmat, kelajak oldida mas’ullik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Haqiqiy vatanparvar insonlar o‘z manfaatlarini Vatanning takdiridan, millati, xalkining milliy qadriyatlaridan, orzu-istaklaridan ayri holda tasavvur qila olmaydi.

Sadoqat [3] (arab, do‘stlik, birdamlik; samimiylik) - insonga xos eng ezgu ma’ny-axloqiy hislatni ifodalovchi tushuncha. Sadoqat “samimiylik”, “vafodorlik”, “sodiqlik”, “do‘stlik” so‘zlariga ma’nodosh hisoblanadi.

Vatanparvar -(forscha-g‘amxo‘rlik qiluvchi) o‘z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlarini uchun jonbozlik ko‘rsatuvchi. Vatanparvarlik - vatanparvarlarga xos ish, hatti-harakat, xislat.

Talabalarning vatanga sadoqat kompetensiyasini shakllantirishda shakllantirishda hayotiy xalqchil misollardan foydalanish o‘ta muhim ahamiyatga egaligini anglatadi. Zero “Vatan - inson tug‘ilgan uy, mahalla, qishloq, tuman, viloyat, mamlakat. Vatan- keng ma’noda butun bashariyat uchun Yerni anglatadi, tor ma’noda inson yoki u mansub xalq uchun ato etilgan muayyan xududdir. Shunday ekan, har bir inson mana shu “vatanlar” ravnaqi, kelajagi uchun ma’sul, ya’ni uning tarixini o‘rganib, xulosalar chiqara bilishi, buyuk ajdodlarining ibratlariga to‘la hayotlari, boy ilmiy-ma’naviy meroslaridan habardor bo‘lishi, kelajak avlodga bekamu ko‘st yetib borishda jonbozlik ko‘rsatishi, vatanning moddiy va ma’naviy jihatdan taraqqiy etishga munosib xissa qo‘shishi zarur. Vatanparvarlik insonlarning haqiqiy etiqodiga aylansagina, loqayd bo‘lishidan qaytaradi. Zero, loqaydlik ma’naviyat kushandasidir. [5]

Mafkuraviy immunitet [6]– shaxs ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi. Mafkuraviy immunitet - ma’naviy illatlar, ichki va tashqi tahdidlar, buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va mafkuralarga nisbatan shakllantiriladigan “Saralash”, “Himoya” va “Qarshi kurash” tizimidir. Mafkuraviy immunitetni ziddi - himoyasizlik, qadriyatlar tizimiga e’tiborsizlik, an’analarga befarqlik, urf-odatlarini bilmaslik, begona g‘oyalarga nisbatan mayldor, kurashuvchan emas, qarshi kurash tizimi sust kabilarda namoyon bo‘ladi.

Mas'uliyat [7]– arabcha javobgarlik, hisob berishlik. Biror ish xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo‘lgan javobgarlik. Mas'uliyat yuklamoq. Mas'uliyatni o‘z ustiga olmoq. Mas'uliyatni sezmoq. Mas'uliyatga tortmoq.

Mas'uliyat – burch, ijtimoiy ma'noda jamiyat va boshqalar oldidagi ma'naviy qarzdorlik, ma'muriy jihatdan ijtimoiy tartibga solishning turli me'yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo'lishi. Mas'uliyat davlat xizmatchisi maqomining muhim ko'rsatkichi bo'lib, u, o'z navbatida, shaxsning davlat va jamiyatidagi o'rni va rolini tavsiflaydi, uning davlat va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydi.

Tolerantlik (lot.tolerantia – chidam, sabr-toqat), bag'rikenglik – o'zgarlarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lish.

Talabalarning vatanga sadoqat kompetensiyasini shakllantirishda shakllantirishda hayotiy xalqchil misollardan foydalanish o'ta muhim ahamiyatga ega.

Buning misoli sifatida siyosiy fanlar doktori professor Narzulla Jo'raevning “Ma'naviyat - odam va olam xaloskori” kitobida shunday deyiladi: “O'zbek xalqining bag'rikengligi millat mentalitetiga xos fazilatdir. Xalqimizning hayotga katta ishtiyoq bilan yondashuvi, tabiat va jamiyatga xos barcha qadriyatlarga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lishi turli el va ellvtlar vakillari, maslagi va xarakteri, g'oyaviy qarashlari rang-barang bo'lgan fuqarolar bilan muloqotlarga kirisha olishi hamda bu munosabatlarni mustahkamlay bilishi milliy fazilatga aylangan.” [8]

Bu esa O'zbekiston fuqarolarini bir-biriga yaqinlashtirdi. Ma'naviy yakdilligini ta'minladi.

Millatlararo totuvlik - millatlararo ahillik, xalqaro do'stlik, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha.

Huquqiy madaniyatlilik - fuqarolarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarni egallab olishi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi tushunchalarini talqin qila olishi hamda ulardan to'g'ri foydalana olishidir.

Mehnatsevarlik [9] - ma'naviy fazilat sifatida shaxsning ishchanligi, mehnatni, ishni xush ko'rishi va umuman, insonning mehnatga munosabatini ifodalovchi tushuncha. Uning natijalari erishilgan yutuq, qo'lga kiritilgan hosil yoki mahsulotning mikdori va sifati bilan o'lchanadi. Mehnatsevarlikning ziddi yalqovlik, dangasalik, tanballik, boqimandalikdir.

Mafkuraviy immunitet - yot g'oyaviy «kasallik»larga qarshilik

ko'rsatuvchi qobiliyat. Talabalarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda hayotiy xalqchil misollardan foydalanish o'ta muhim ahamiyatga ega. Buning misoli sifatida falsafa fanlar bo'yicha falsafa doktori (pHD) Otabek Bozorovning qo'yidagi fikri misol bo'la oladi: "Yot g'oyalar bug'doyzorda o'sgan sassiq va zaharli o'tlarga o'xshaydi. Masalan, bug'doy ekib sug'oramiz. Ana shu suvdan begona- yovvoyi usimliklar ham bahramand bo'ladi. Agar o'sha begona o'tlarni o'z vaqtida yulib tashlamasak, bug'doyga solingan o'g'itlardan ham baxra oladi. Tabiiyki, ekinimiz pishib, xosilini yig'ib olgan vaqtimizda, o'sha begona – sassiq va zararli o'tning mevasini ham birgalikda yig'ib olamiz. Natijada, shu bug'doydan tayyorlangan un ham sassiq va zaharli bo'ladi. Maqsadimiz mazali taomlar tayyorlash edi. Ammo begona o'simliklarga qarshi o'z vaqtida kurashmaganimiz uchun, maqsadimizga erisha olmadik. Xatto sog'lig'imizga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, betob bo'lib qolishimizga sabab bo'ladi. Bunday g'oyalar bizning jamiyatimizga mutloqo kerak emas." [10]

Innovatsion fikrlash – yangicha fikrlash. Innovatsiya [11] - (inglizcha – kiritilgan, yangilik, ixtiro) 1. Texnika va texnologiyalarning yangi turlari (avlodlari)ni joriy etish maqsadida iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar. 2. Ilg'or texnika va texnologiya, boshqarish va boshqa sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanilishi. 3. Muayyan tilda, asosan uning morfologiya sohasida eng so'nggi davrlarda paydo bo'lgan yangi hodisalar (til birliklari). Innovatsion fikrlash - innovatsion rivojlanish "innovatsion inson"ni, "innovatsion fikrlash" ni talab etadi. Innovatsion inson keng ma'nodagi ibora bo'lib, u mamlakat har bir fuqarosining ijtimoiy hayotda, iqtisodiy taraqqiyotda, fan va texnologiyalar rivojlanishida ro'y berayotgan o'zgarishlarning faol tashabbuskori, yaratuvchisi bo'lishini va bu o'zgarishlar uning hayotiy prinsiplarining ajralmas qismi bo'lib qolishini anglatadi.

Tadbirkorlik (inglizcha – enterprise, enterprising, ruscha - предпринимательство) – foyda olish maqsadida fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z tashabbusi asosida mustaqil faoliyatidir. Tadbirkorlik - tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo'rqmaslikdir. Tadbirkorlikning ziddi – tadbirsizlik, tadbirkorlikka qiziqmaslik, iqtisodiy bilimlarga befarqlik, boqimandalik, tadbirkorlikni bilmaslik, rivojlanishga loqaydlik, umidsizlik, intilishning yo'qligi, apatiya (befarqlik), noshudlik, maqsadsizlik kabilarda namoyon bo'ladi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasining IV bosqichida O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar o'rtasida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish orqali tayanch

kompetensiyalarni rivojlantirish milliy xarakterni modernizatsiya qilish orqali kuchli ma'naviyatli, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarni tarbiyalab yetishtirishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov M. "O'zbek xarakteri va milliy g'oya", "Ma'naviyat", Toshkent.: 2005.-3b
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent -2010. B.500.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati A.Madvaliev tahriri ostida "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 444-445-bet.
4. Irgash Daminov, "G'oyalar: ezgulik va yovuzlik", "Ma'naviyat" Toshkent-2018, 8bet
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati "Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati" . G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T.: 2010 -B 292.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliev tahriri ostida "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. B.555
7. Narzulla Jo'raev, "Ma'naviyat- odam va olam xalokori", "Ma'naviyat", Toshkent-2018, 24-25 betlar
8. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent -2010. B.375.
9. Otabek Bozorov, "Milliy g'oya va targ'ibot samaradorligi", Ma'naviyat, Toshkent-2018, 7-8 betlar
10. "O'zbek tilining izohli lug'ati A.Madvaliev tahriri ostida "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 212-bet.

YOSHLARNI FAOLLIGINI OSHIRISHDA PR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qalandarov Muhiddin Naqliddin o'g'li,
*Strategik tahlil va istiqbolni belgilash
oliy maktabi tinglovchisi,*

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar tushunchasiga yondashuvlar va ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi bo'yicha ilmiy kategoriyalar mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, faollik shakllari keltirilgan holda yoshlar faolligini oshirishda PR texnologiyalarni qo'llash va ularni ishlab chiqishda ta'sir etuvchi omillarga to'xtalib

o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, faollik, ijtimoiy-siyosiy faollik, huquqiy madaniyat, siyosiy faollik, ijtimoiy-siyosiy faol yoshlar, PR, PR texnologiyalar.

Hozirgi kunda globallashuv sharoitining salbiy va ijobiy jihatlarini o‘rganish yoshlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquqiy va ma‘naviy madaniyatini yuksaltirish, kelajakda yetuk barkamol insonlar qilib tarbiyalash davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biridir.

Jahon mamlakatlarida yoshlar tushunchasiga nisbatan turli xil yondashuvlarning mavjudligi ma‘lum. Xususan, BMTning ixtisoslashgan tashkiloti YUNESKO 17 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lganlarni yoshlar qatlamiga kiritadi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida 16 yoshdan 30 yoshgacha (ba‘zan 35 yoshgacha) bo‘lgan aholi vakillari yoshlar sifatida e‘tirof etiladi. Shuningdek, MDH davlatlarining aksariyatida 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar yoshlar hisoblanadi, lekin Ukrainada 14-35[1], Qozog‘istonda 14-29[2] yoshlilar ushbu toifaga kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasida esa 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar yoshlar hisoblanadi[3].

Yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligining fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi muhim omil sifatidagi o‘rni va ahamiyatini tahlil etishda eng avvalo, unga oid bo‘lgan ilmiy kategoriyalarni o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xususan, bunda “faollik”, “siyosiy faollik”, “ijtimoiy-siyosiy faollik”, “huquqiy faollik” kabi siyosiy-huquqiy kategoriyalarning mazmun va mohiyatini hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik masalalarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

“Ijtimoiy-siyosiy faollik” tushunchasini tadqiq etishda “Faollik” tushunchasi shu darajada keng mazmun kasb etganki, ayrim hollarda undan foydalanish izoh talab etadi. Bundan tashqari, “faol” atamasi harakatchan, serg‘ayrat, rivojlanuvchi degan ma‘nolarni anglatadi. “Faollik” tushunchasi asosan “faoliyat” tushunchasining sinonim sifatida ham qo‘llaniladi. Insonning faolligi atrof muhitni o‘z ehtiyojlari, qarashlari, maqsadlariga muvofiq o‘zgartirish qobiliyati sifatida alohida mazmun-mohiyat kasb etadi. Tegishli adabiyotlarda shaxs faolligining bir qator belgilar bo‘yicha farqlanishi haqida so‘z boradi[4]. Bu boradagi yondashuvlarni umumlashtirgan holda faollikning quyidagi shakllarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- “faollik” va “faoliyat” tushunchalarining mohiyatan yagonaligidan dalolat beruvchi faoliyat shakli;
- insonda o‘z ichki munosabati vujudga kelgan, uning individual tajribasi aks etgan faoliyat sifatidagi faollik;
- atrof muhitni o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat sifatidagi faollik;

➤ shaxsiy ahamiyatga molik faoliyat: insonning o‘z shaxsiyatini namoyon etish ko‘rinishidagi faolligi hamda o‘zini o‘ragan muhit bilan o‘zaro ta’sirga kirishish mahsuli sifatidagi faollik.

Bundan tashqari, iqtisodiy faollik, g‘oyaviy faollik, madaniy faollik kabi tushunchalar mavjudligini o‘zi uning yo‘nalishlari, sohalari xilma xil ekanligini bildiradi. Faollik sohalari insonlar, shaxslar yoki muayyan ijtimoiy guruh qatlamlar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ajralib qolmagan. Faollik ana shu ijtimoiy qatlamlar, xususan yoshlar ongi, dunyoqarashi, xulq-atvori, hayotiy maqsad va intilishi ularning milliy g‘oyaviy qiyofalari bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Shunda yoshlar faolligi, faol yoshlar, yoshlarning ijtimoiy faolligi, siyosiy faol yoshlar atamasi ishlatiladi.

“Ijtimoiy-siyosiy faollik” deganda, ijtimoiy foydali (ijobiy), ongli, iqtisodiy, siyosiy, madaniy faoliyat tushuniladi. Ijtimoiy faollikning boshqa bir turi - siyosiy faollik ham amalda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, “huquqiy madaniyat” tushunchasidan kelib chiqib, siyosiy faollikka yoshlarga tabiatan xos bo‘lgan siyosiy-huquqiy xususiyat sifatida yondashish mumkin. Bu siyosiy-huquqiy xususiyat huquqiy va siyosiy muhit bilan insonning o‘zaro aloqasi jarayonida shakllanadi hamda uning siyosat va huquqiy tartibga solish sohasida faol ish olib borish qobiliyatini ifodalaydi. Shuning uchun ham siyosiy-huquqiy faollik – bu faoliyatning qizg‘inlik va ayni vaqtda yoshlarning huquqiy madaniyati va siyosiy madaniyati darajasini aks ettiruvchi omil sifatida amal qiladi. Bu haqida “huquqiy bilimlarsiz huquqiy madaniyat bo‘lishi mumkin emas”[5] deb, aytilgan. Shuningdek, yoshlar siyosiy-huquqiy faolligi shakllanish jarayonining mazmuni o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: 1) huquqni bilish (informatsion jihat); 2) huquqqa bo‘lgan munosabat (nisbiy jihat); 3) qonuniy xulq-atvorga qarab mo‘ljallanish (tartibga solish jihati); 4) o‘z qonuniy xulq-atvorining zarurligini anglab yetish (kognitiv jihat).

Yoshlar faoliyatini rivojlantirish, ularni bilimli, harakatchan, davlat manfaatlaridan kelib chiqib o‘z manfaatlarini shakllantiradigan, o‘zaro uyushgan yoshlar guruhlarini tashkil etish maqsadida tegishli tashkilot va jamoatchilik institutlari tomonidan PR texnologiyalarini qo‘llash muhimdir. Ingliz olimi Sem Blek ta’biri bilan aytganda “PR (Public Relations) - o‘zaro hamfikrlik, haqiqat hamda mutloq axborotga ega bo‘lishga asoslangan uyg‘unlikka erishish ilmi va san’ati”dir[6].

PR orqali yoshlarga ta’sir o‘tkazishning o‘ziga xos vositasi bu ularning fikrini o‘rganish bo‘lib, u quyidagilarni bajaradi.

Birinchi, yoshlar fikrini o‘rganish va uni kuzatish. PR orqali yoshlarning fikrini o‘rganish va faqat shu yo‘l bilan unga samarali ta’sir ko‘rsatish mumkin. Agar yoshlar fikri o‘z vaqtida o‘rganilmasa, unda ijobiy maqsadga

erishilmaydi.

Ikkinchisi, *yoshlar harakatini kuzatish*. Demak, yoshlarning nafaqat fikrini o‘rganish, balki, harakatini ham kuzatib borish muhimdir. Yoshlar bilan ishlashda tashkilot piarmenlari yoshlarning u yoki bu harakatlarida o‘zini qanday tutadi, shuni aniqlab olishi kerak.

Yangi vaziyatlar vujudga kelgan, ijtimoiy kayfiyatlar o‘zgargan sari yoshlar o‘zini qanday tutmoqda, piarmenning fikricha qay tomonga o‘zgarmoqda, shuni oldindan bilishi taqozo etiladi.

Uchinchisi, tashkilot bilan yoshlar o‘rtasida ikki tomonlama manfaatni ta’minlash. Bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama manfaatni ta’minlab, natijada yoshlar bilan hamkorlikni ravnaq toptirish zarur. Ushbu jarayonda hamkorlik ikkala tomon uchun ham foydali bo‘ladi.

Yoshlar bilan ishlash borasida PR texnologiyalarni samarali ishlab chiqish va amaliyotda joriy etish uchun quyidagi xususiyatlarga e’tibor qaratilishi lozim.

-Jumladan, yoshlar fikrini o‘rganish:

-Davlat tomonidan qadriyatlarga mutanosib harakatlar dasturini ishlab chiqish;

-kerakli axborotlarni tanlash, saralash, tizimlashtirish va o‘zaro manfaatli taklif va loyihalar ishlab chiqish;

-OAV bilan hamkorlikni kuchaytirish;

-internet tarmoqlari orqali yoshlar fikrlarini va hohish istaklarini o‘rganib borish maqsadida so‘rovnomalar tashkil qilish;

-hokimiyat vakillari, ziyolilar va jamiyatning nufuzli shaxslari faoliyatidan foydalangan holda ular bilan yoshlar o‘rtasida aloqani shakllantirish lozim.

Bundan tashqari, yoshlar deganda mamlakat aholisining eng yosh va tez o‘zgaruvchan va saloxiyatini tashkil etuvchi, o‘zining ijtimoiy tarkibi jixatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan qatlam tushuniladi. Ular ijtimoiy hayotda, shunchaki oddiy kuzatuvchi sifatida ishtirok etmasliklari uchun, ular avvalo faoliyatda bo‘lishlari kerak bo‘ladi. Faoliyat orqali yoshlar o‘zlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini anglab boradilar. Ijtimoiy-siyosiy faollik nuqtayi nazaridan yoshlarni o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga ko‘ra shartli ravishda ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Siyosiy-ijtimoiy faol yoshlar.

2. Siyosiy-ijtimoiy hayotdan uzoq, faol bo‘lmagan yoshlar.

Shuningdek, “siyosiy faollik” tushunchasini keng va tor ma’nolarda talqin etish mumkin. Keng ma’noda uni yoshlarning davlat va jamiyat qurilishi, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga munosabati, mas’uliyati

nuqtayi nazaridan talqin etish mumkin. Tor ma'noda, uni siyosiy ishtiroki va siyosiy munosabatlar nuqtai-nazaridan yoshlarni jamiyatning siyosiy hayotida bevosita yoki bilvosita munosabatini ifoda etadi.

Yoshlarni, bugungi kunda shartli ravishda “siyosiy faol” va “faol bo‘lmagan” guruhga bo‘lish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

1. siyosiy o‘zgarishlarni aniq idrok etgan;
2. demokratik jarayonlarga o‘z hissasini qo‘shayotgan;
3. qonunlar qabul qilish, uni hayotga tadbiq etishda befarq bo‘lmagan;
4. mustaqillikni mustahkamlash, vatan, el-yurt va xalqning taqdiri va istiqboli uchun qayg‘urayotgan;
5. muayyan siyosiy partiya yoki ijtimoiy xarakatlar bilan o‘z faoliyatini bog‘lagan, shunga ehtiyoj sezgan;
6. ijtimoiy zararli illatlar ko‘rinishlari bilan murosa qilolmaydigan yoshlarni siyosiy faol qatlam deyish mumkin.

Xulosa o‘rnida yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligi tushunchasi va uning mazmun mohiyati o‘ziga xos tarzda shakllangan bo‘lib, o‘z tarkibiga “faollik”, “ijtimoiy faollik”, “siyosiy faollik”, “iqtisodiy faollik” kabi kategoriyalarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash va davlat manfaatlaridan kelib chiqib yoshlar bilan muloqotni to‘g‘ri tashkil etishda, ularni davlat ravnaqi yo‘lida xizmat qilishlarida PR texnologiyalardan foydalanish samarali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Закон Украины “О содействию социальным становлению и развитию молодежи в Украине” 1993 г.
2. Закон Республики Казахстан “О государственной молодежной политике в Республике Казахстан” от 7-июля 2004 года № 581.
3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 16-sentyabr, 2016-y.
4. Anufriyev V.V. Социальный статус и активность личности. - М.: Изд-во МГУ, 1994.- С.36.; Кожевников С.Н. Социально-правовая активность личности и условия ее деятельности: Автореф. дис. док. юрид. наук. - М., 1992. - 46 с
5. Mamatov X. Huquqiy madaniyat, uning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni. -Toshkent: YURIST-MEDIA MARKAZI, 2008. - B.40.
6. Blek S. Public Relations. Chto eto takoye? – S.17

O'QUVCHI YOSHLARNI IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI TAHDIDLARGA OGOHLIK RUHIDA TARBİYALASHGA PEDAGOGIK YONDASHUV

G'oziqulov Davron Nuriddin o'g'li

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
Universiteti Tarix fakulteti 4-boqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchi yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlarga qarshi ogohlik ruhida tarbiyalashga pedagogik yondashuvning muhim hodisa ekanligi va bu yondashuvning amaliy ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Transmilliy korporatsiya, davlat ta'lim standarti, tajriba-tadqiqot ishlari, ta'lim portali, Prezident ta'lim muassasalari agentligi, Prezident maktablari, kompetensiyaviy yondashuv, politsentrizm.

Bugun axborot xurujlari orqali o'z g'oyalarini singdirish va jamiyat a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni o'z izmiga solish ko'p kuzatilayotgan holat bo'lib qolmoqda. Axborot xurujlari bugungi kunda globallashuv jarayoniga qo'shilgan har bir davlat va jamiyat uchun potensial yoki real darajada xavf tug'diradi. Chunki axborot orqali o'sha mamlakat yoshlari ongini manipulyatsiya qilish, o'zlarining g'arazli maqsadlariga shu yo'l bilan erishmoqchi bo'layotgan kuchlar mavjudligi sir emas. Axborot xurujlarini bugungi kunda davlatlar (jumladan chet el davlatlari), turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tashkilotlar, rasmiy va norasmiy sotsial guruhlar, alohida shaxslar uyushtirishi mumkin. Shuning uchun axborot urushlari, axborot-psixologik xavfsizlik kabi mavzularda butun dunyo olimlari keng baxs va mushohadalar olib borishmoqda[1].

Axborot oqimining ortishi, axborot urushlari va axborot terrorizmi kabi masalalarning ko'tarilishi, jamiyatda ommaviy axborot vositalari o'rningining ortishi, mehnat faoliyatini texnik axborotlashtirish usullarining keng qo'llanilishi tufayli ko'plab ilmiy va ilmiy-amaliy adabiyotlarda axborot xurujlarining amalga oshish usullari o'rganilmoqda[2].

Ayniqsa so'ngi 2-3-yil ichida ijtimoiy tarmoqlarning jadal taraqqiyoti bilan jurnalistikaning qiyofasida ham qandaydir o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Yorqin misol bundan 2-yil oldin ham "Ijtimoiy media" degani hozirgidek ommaviy, ko'p quloqqa chalinadigan kalima hisoblanmasdi. Hozir esa normal zamonaviy jurnalistikani ijtimoiy media-bloglar va albatta Ijtimoiy tarmoqlar "Facebook", "Twitter", - "Odnoklassniki"... Va boshqalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Global ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tezlashishi mavjud muammolarni

milliy-mintaqaviy emas, balki global miqyosda hal qilish holatidir. Bu jarayonda birorta jamiyat o‘z-o‘zini izolyatsiya qila olmaydi. Globallashuv jarayoni jamiyatning ochiq tizim holatida bo‘lishini xohlaydi hamda shuni ta‘minlaydi. Globallashuv jarayonlari bir vaqtning o‘zida ijtimoiy-madaniy muhitda yutuqlarga (birgalikda tinch-totuv yashash falsafasiga asoslanadigan makon) va bir qator muammolar (jamiyatda ijtimoiy muvozanatning bo‘lishi, tizim bifurkatsiyaga uchrashi, ana‘naviylik va madaniy innovatsiyalarning ustuvorligi)ga uchraydi. Buni tizimlarda katta va kichik buzilishlar deb atash mumkin. Bu borada U.Astafiyevaning yozishicha, madaniyat rivojlanishi “harakatning maxsus mantig‘ini o‘z ichiga qamrab oladi, bunda tizim o‘zining muhim xususiyatlarini yo‘qotmaydi”[3].

Global ijtimoiy-madaniy jarayonlar xalqlar va madaniyatlar integratsiyasini ta‘minlashi kerak bo‘lsa, global boshqaruv usuli qo‘llanishi bilan insoniyat tarixida yangi ma‘naviy paradigmasiga asos solmoqda. Endilikda global madaniy qadriyatlar zamoni va boshqaruv shakllari hukmron bo‘lgan davr keladi. Milliy-madaniy tuzilish sivilizatsiyalarning asosi sifatida global sivilizatsiyalarga singib boradi.

Keyingi paytda an‘anaviy madaniyatlarning global ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan ziddiyati kuzatilib, an‘anaga nisbatan zo‘ravonlik holatlari uchramoqda. Global makonda bunday tajovuzkorlik ham virtual, ham real voqelikda amalga oshirilmoqda. Shu ma‘noda xalqlar, millatlar va madaniyatlarning o‘ziga xosligi, o‘ziga mos ijtimoiy amaliyot qo‘llashga qaratilgan faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki “milliy-madaniy mentalitet va badiiy-estetik faoliyat o‘z mohiyatini saqlab qoladi, madaniy o‘ziga xoslikni namoyon qilish uchun qolgan kanallar, ular orqali milliy o‘zlikni anglash jarayonini amalga oshirib, tashqi dunyoga munosabat bildiradi”. Shubhasiz, aynan madaniy shakllar va amaliyotlarning xilma-xilligini ta‘minlash ijtimoiy-madaniy rivojlanish parametrlarini belgilaydi.

Zamonaviy nuqtayi nazardan biri shundaki, ziddiyatli vaziyatni hal qilish uchun uning ko‘zgu versiyasi – “qarama-qarshi politsentrizm”dan farqli o‘laroq, mamlakatlar, xalqlar va madaniyatlarning ko‘p qutbli birlashmasi g‘oyasini amalga oshirish zarur. Bu jarayonda insoniyat manfaatlar koordinatsiyasiga va ayni paytda mavjud bo‘lgan texnogen hamda an‘anaviy jamiyatlarning qadriyatlarini bir-biriga bog‘lashga tayanib birlashishi mumkin. Bu yerda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan madaniyatlararo muloqot g‘oyasi bo‘lib, u har ikki madaniyat uchun o‘zaro tushunish va tenglikni tan olishga intilishida yorqin namoyon bo‘lmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga keldik:

- yoshlarimizni ma‘naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish zarur;

- turli qarash va fikrga ega bo'lgan yoshlarning o'ziga xos orzu-
intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq
farovonligi, komil inson, yagona Vatan tuyg'usi, adolat - qonun ustuvorligida,
xalq roziligi, jaholatga qarshi ma'rifat, innovatsion taraqqiyotni ta'minlash
barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish,
milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash kerak;

- ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka
tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish darkor.

Buning uchun, avvalo:

- ommaviy axborot vositalarida milliy ma'naviyatimiz aks etgan
ko'rsatuvlar, seriallar, kino va badiiy filmlar namoyishini omma e'tiboriga
taqdim qilish;

- internet tizimidan foydalangan holda milliy saytlar ko'paytirish hamda
yoshlarbop ruknlarni ochish va ular orqali milliy g'oyalarni singdirib borishni
ta'minlash;

- jamiyatda ma'naviyatni takomillashtirish mavzuida ilmiy loyihalar
joriy etish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash zarurdir.

Zamonaviy gumanitar sohada xavfsizlik konsepsiyasini yaratishga
bo'lgan harakat aynan shu zaruratdan kelib chiqadi. Zero, global ijtimoiy-
madaniy jarayonlarda ma'naviyatni saqlash va xavfsizlik o'zbek xalqiga
butun hayoti davomida rivojlanib kelgan asosiy ma'naviy-axloqiy prinsiplar,
me'yorlar, an'analar, turmush tarzi, milliy o'ziga xoslik va madaniy o'ziga
xoslikni himoya qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи
нашр. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2022. – 307 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом
этириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 33 б.

3. Астафьева О.Н., Захарова О.А. Информационно-коммуникативная
компетентность личности в условиях становления информационного
общества. Сб.м-лов междунар. науч. конф. “Судьба России: вектор перемен”
8-10 июля 2007.// URL:www.uralveltsin.ru/usefiles/media/Astafieva.

4. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. – Тошкент:
Ўзбекистон, 2018, – 74 б.

5. Nargis Qosimova. “Internet jurnalistikaning texnologik asoslari” / Т.: “ART
PAPER BUSINESS”. 2012

6. Швецова А.В., Норманская А.В. Массовая культура как проблема
современного общества: общетеоретический анализ // Вестник МГУКИ. 6 (74)
2016. С.52

ALPOMISH DOSTONI - MA'NAVIY TARBIYANING SAMARALI OMILI SIFATIDA

Boboraxmatova Malika Ulug'bek qizi
Nizomiy nomidagi TDPU 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Milliy dostonlarimiz, ayniqsa, “xalqning qahramonlik qo‘shig‘i” deb nisbat berilgan “Alpomish” dostoni xalqimiz boyma’naviy-ma’rifiy me’rosining ajralmas va nodir qismi hisoblanadi. O‘zib kelayotgan yosh avlod ma’naviy tarbiyasida, ularni vatanparvarlik, jasurlik, adolatparvarlik tuyg‘ulari hamda ma’naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashda mazkur doston muhim rol o‘ynaydi. Shulardan kelib chiqqan holda ushbu maqolada “Alpomish” dostonining bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek folklori, doston, Alpomish dostoni, folklor, obraz, badiiyat, ta’lim, tarbiya, ma’naviy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, baxshichilik, jasurlik, to‘g‘riso‘zlik, matonat, urf-odat.

Bugungi globalashgan, axborot oqimi tezlashgan va yana ularning salbiy ta’sirlari kuchayib borayotgan bir davrda kelajak egalari hisoblanadigan yosh avlod vakillarini har jihatdan yetuk, har bir sohada yurt, jamiyat rivoji uchun jahondagi o‘z tengdoshlari bilan bellasha oladigan, ajdodlariga munosib avlod qilib, o‘z xalqining asriy an’analarini davom ettiradigan yoshlar sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Aytish mumkinki, tarbiya masalasi o‘z navbatida ma’naviyat, ma’rifat kabi tushunchalarni o‘z zahirida aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik –bu bilimsizlikdir” degan sharqona g‘oyani ilgari surdilar [1]. Darhaqiqat, zakiylik, bilimdonlik, axloqlilik o‘zbek xalqining tomir-tomirlariga singib ketgan. Qarangki, yoshlar tarbiyasi masalasi butun bir insoniyat tarixida eng ustuvor masala sifatida e’tirof etiladi, hattoki, bu qadim tariximiz sahifalarida ham o‘z aksini topgan. O‘zbek xalqining yagona bir xalq bo‘lib, bir millat sifatida nom chiqarishida u bilan hamnafas bo‘lib, xalq vakillarining o‘zga xalqlardan ajralib turuvchi jihatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi xalq og‘zaki ijodi deb atalmish ajoyib va bebaho bir merosi borki, bu manba orqali xalq vakillari o‘zining asriy orzularini kelajak avlod vakillariga yozuv paydo bo‘lmasidan ilgari bayon qilib, uzoq tarixga muhrlagan holda bugungi kunda ham boyitib, sayqallab bormoqda. O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi yurtdoshlarimizning turmush tarzi, yashash sharoitlari va ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, otadan o‘g‘ilga, ustozdan shogirdga, ajdoddan avlodga o‘tib, doimiy ravishda sayqallanib, mukammallashib, tobora an’anaviylashib

boravergan va nihoyat, kasbiylik (professionallik) kasb etgan hamda jonli ijro orqali bizgacha yetib kelgan. O‘zbek folklorining eng yirik janrlaridan biri dostonlardir.

“Doston” so‘zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta’rif va maqtov ma’nolarini va qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash ma’nolarini anglatadi. Doston so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: “Doston – qissa, hikoya. Xalq qahramonlari haqida nazm va nasrda aytilgan epik asar, og‘izdan-og‘izga o‘tib yurgan ma’lum mashhur sarguzasht hikoyalar, gap-so‘zlar ta’rif-tavsiflar”dir[2].

Xalqimiz tarixiy me’rosi tarkibiga kiradigan har bir doston o‘ziga yarasha xususiyatlari, ajralib turadigan tomonlari, turfa xil syujeti, foydalanilgan qochirimlar, o‘xshatishlari bilan farqlanadi. Ammo ularning barchasi yoshlarni vatanparvarlikka, odamiylikka, mardlik va jasurlik kabi tuyg‘ularni shakllantirishga undaydi. Bu jarayonda albatta, asar qahramonlari ular xoh salbiy, xoh ijobiy bo‘lsin asosiy vazifani bajaradi. Tinglovchi yoki mutolaa qiluvchi qahramonlar yordamida doston muhitiga sho‘ng‘iydi va ulardan ta’sirlanmay qolmaydi. Hattoki, biz salbiy deb bilgan obrazning ham qaysidir miqdorda ijobiy ta’siri bo‘ladi. Chunki, dono xalqimiz har bir holatdan yaxshilik izlovchidir.

Xalqimiz boy ma’naviy-ma’rifiy merosi tizimida alohida o‘ringa va mavqega ega bo‘lgan manbalardan biri – shubhasiz Alpomish dostonidir. Asardagi qahramonlarning bir-biriga o‘xshamagan xarakterlari kishini tafakkur qilishga, odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtini, oilasi, qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘sti, or-nomusini, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzlardan saqlashga, ma’naviy-axloqiy pok bo‘lishga o‘rgatadi.

Adabiyotshunos olim O.Madayev qayd etganidek, “Alpomish” dostonida shaxsning har tomonlama komil inson bo‘lib tarbiyalanishi, jismoniy va ma’naviy yetuklikka intilishi, ota-ona, turmush o‘rtoq, aka-singil, farzandga mehr-muhabbatli bo‘lishi, Vatanga, xalqqa sadoqat ruhida balog‘atga yetishi bosqichma-bosqich o‘zining mukammal ifodasini topgan”[3].

“Alpomish” dostoni – bu O‘zbekistonning Boysunidan tortib, Qoraqalpog‘istonning Qo‘ng‘irotigacha, Jizzaxning Zominidan tortib, Qashqadaryoning Dehqonobodigacha bo‘lgan kengliklarida yashab, kuylab kelgan Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan Shoir, Shoberdi baxshi kabi yuzlab baxshilarning jozibali va tenggi yo‘q kekirdak ovozi va do‘mbirasi torlarida ming-yillar davomida yangrab kelgan san’atdir[4].

Darhaqiqat, “Alpomish” dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma’naviy boyligimizning yorqin namunasi bo‘lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik

chuqur ekani, xalqimiz qanday muhitda shakllanib, rivojlangani, qiyinchiliklarni qanday yengib chiqqanini yorqin tasvirlab beradi. Biz Alpomish timsolida ma'naviy barkamol, axloqan pok, vijdonli o'zbek o'g'lonlarining qiyofasini ko'ramiz. Dostonda har bir qahramon o'zining go'zal xislatlari bilan bugungi kun yoshlariga namuna bo'la oladi. Unda sevgi, muhabbat, ona Vatanga muhabbat tuyg'usi bilan uyg'unlashib ketgan. Bugungi kun yoshlari ushbu asardan beqiyos darajada tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan fazilatlarni olishlari mumkin. Masalan, doston bosh qahramonlaridan biri bo'lgan, o'zbek qizlariga iffat-u odobda namuna bo'la oladigan obraz – Barchinoy obrazi bo'lib, o'ziga xos xarakteri va tarbiyasi bilan o'quvchilar qalbida mustahkam joy oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Barchinoy Alpomish bilan unashtirilgan bo'lsa-da o'zining oriyati, g'ururi, oilasi sh'nini ustun bilib, hamma qatori Alpomishni ham kurashga chorlaydi. Ikkinchi tomondan uning qalbida Alpomishning yengib chiqishiga nisbatan to'liq ishoch bor edi. Dostonni o'qir ekanmiz turli xil qiyin vaziyatlarda Barchinoyning teran aqli, mulohazali fikri bilan barcha davr yoshlariga o'rnak bo'la olishiga amin bo'lamiz. Bunga misol qilib Alpomish yetti-yil tutqunlikda qolganida Barchinoyning sabr bilan yoriga vafo qilishi, Surhayil kampirning o'g'illariga rad javobini berishligi, aql-farosat bilan to'rt shartni o'ylab topib bajara olmasliklariga ko'zi yetib albatta, og'ir vaziyatdan chiqishga urinishini keltirib o'tish mumkin.

Dostonda biz yana haqiqiy do'st siymosini Qorajon misolida ko'rishimiz mumkin. Alpomish va Qorajonning bir-biriga bo'lgan ishonchi, sadoqati va mehri bugungi kun yoshlari uchun ham o'rnak bo'larli darajada ahamiyatga ega[5].

Asarning asosiy g'oyasi "Alpomish" xalqimizning ilk pedagogik tamoyillarini o'zida badiiy ifoda etishida ko'rinadi. Bu birinchi fazilat. Maqsad yoshlarni haqiqiy inson qilib tarbiyalash, haqiqiy inson bo'lsa, mard, jasur, bir so'zli, o'z maqsadiga intiluvchi shaxs bo'lishi kerak. Ota-onaga, elga, xalqiga xurmat, xalqini birlashtirish xizmati, elni so'raydigan erkak bo'lsa, odil bo'lishi kerak, ilimli bo'lishi kerak. Ayollar esa, avvalo, uy xizmatini yaxshi bilishi kerak, eriga vafodor, sadoqatli, nozik didli, o'z farzandlarini sevuvchi bo'lishi, eng yaxshi fazilatlar egasi bo'lishi kerak. Mana shu fazilatlarning hammasi "Alpomish"da bor.

O'zbek xalq dostonlarining tarixiy-madaniy ahamiyati tengsizdir. U xalqimizning o'ziga hos badiiy tarixidir. Unda xalqimizning asrlar bo'yi qilgan orzu-umidlari, porloq kelajak haqidagi o'y-fikrlari mujassamlashgan. Demak, doston va dostonchilikdan maqsad mehnatkash ommaning kayfiyati va ruhiyatini kuylash, shu ruh va kayfiyatga mos idealdagi "burungilar" sabog'i orqali baxshi bilan yuzmayuz turgan tinglovchilar doirasining

“ko‘nglini botir qilish”, ularni yanada ezgulik va olijanoblikka yo‘llashdir. Dostonlarni yosh avlodga singdirish, ta’lim jarayonida qo‘llash esa ma’naviy barkamol avlod shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining salmoqli qismini egallagan dostonlar va ushbu dostonlarning gultoji hisoblangan “Alpomish” dostonining har bir qahramoni u xoh ijobiy xoh salbiy qahramon bo‘lsin, ular asl o‘zbek yoshlarining tarbiyasiga ta’sir qilib, o‘zida xalqimizning asriy an’analarini saqlab, kelajak avlod vakillariga yetkazishda dasturul amal vazifasini bajarishda davom etaveradi.

Xalq qalbida “Alpomish” singari ulug‘ asar yashar ekan, demak, shu xalq farzandlari qalbida ham odamiylik, adolatparvarlik, erksevarlik, mardlik, oilaga sadoqat, sevgi, mehr-muhabbat, murosa-yu madora kabi ijobiy fazilatlar hech qachon yo‘qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 29-декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси//Халқ сўзи, 2020 йил, 30 декабрь.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси, Ж.1. А-Д, Мирзаев. – Тошкент: 2006.
3. Madayev O, Sobirova B. Xalq og‘zaki ijodi (akademik litseylar uchun). Toshkent, 2003.
4. Yo‘ldoshev Q. “Alpomish” talqinlari yoki doston badiiyati hamda millat ma’naviyati haqida ayrim fikrlar. - Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
5. Алпомиш. Достон. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар: Ҳоди Зарифов ва Тўра Мирзаев. –Тошкент: Фан, 1999. –820 б

ISHCHI ISHLAR XODIMLARINI MA’NAVIYATINI OSHIRISH YO‘LIDA

Ro‘ziyeva Gulsanam Sultonmurodovna
Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi mayor

Bugungi kunda dunyo miqyosida tahlikali vaziyatni vujudga kelishi xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, bugungi kunda tobora avj olayotgan mafkuraviy tahdidlar kuchayotgan bir vaqtda har qanday qanday rivojlanayotgan jamiyat va davlat o‘zining tinchligini asrash hayotiy zaruratga aylanmoqda. Zero,

dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi taxdid va xatarlarni vujudga kelmoqda. Mana shunday murakkab va taxlikali vaziyatda ichki ishlar organlari xodimlarida bugungi zamon talablari asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar tizimini tubdan isloh etish va sohani yangi bosqichga olib chiqish, xodimlarining ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini yuksaltirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar organlari xodimlari qalbi va ongiga hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat asosida singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrof va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu o'rinda, «2022-2026-yillapga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tapaqqiyot strategiyasi»ni ustuvor yo'nalishlaridan biri "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish"[1] asosiy vazifa etib belgilangan. Xususan, mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 2 apreldagi PQ-5050-sonli qarorida ichki ishlar xodimlarni har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarga sodiq, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg'unchi g'oyalarga murosasiz kurashuvchi, iymon-e'tiqodi va irodasi mustahkam, ma'naviyatli va fidoyi, ajdodlarimiz va mardlik ko'rsatib halok bo'lgan xodimlarning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ular qalbida davlat va xalqimizning xavfsizligini ta'minlashda shaxsiy daxldorlik va yuqori mas'uliyat hissini shakllantirish bugungi kunning eng muhim vazifasi sifatida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu qarorga ko'ra, Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi» tasdiqlangan edi[2].

Mazkur konsepsiyada ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning ma'naviy salohiyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg'usini yanada mustahkamlash kabi ulug' maqsadlar o'z aksini topgan.

Konsepsiyada **“Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish - oliy burchimiz”** konseptual g'oyasi asosida xodimlarni tarbiyalashni takomillashtirish chora-tadbirlari, ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy

ishlarning asosiy maqsadi va vazifalari, har bir hududiy ichki ishlar organida jasorat va vatanparvarlik g‘oyalarini aks ettiruvchi ma’naviy-ma’rifiy burchaklarni (xonalarini) tashkil etish, mafkuraviy ishlarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish mexanizmlari” belgilangan edi.

Shuningdek, konsepsiya ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, sohadagi ishlarning ustuvor yo‘nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan. Konsepsiyada ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan barcha xodimlar va harbiy xizmatchilarning umumiy dunyoqarashi, siyosiy ongi, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, kasbiga nisbatan sadoqat va yuqori mas’uliyat hislarini oshirish bilan bog‘liq vazifalar belgilab berilgan. Shu bilan birga, konsepsiyaning asosiy mazmuni sifatida xodimlarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish, faol hayotiy pozitsiyasi, intellektual salohiyatini, Ona Vatan taqdiriga bo‘lgan mas’uliyatini mustahkamlash, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularni fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini sadoqat va fidoyilik bilan vijdonan bajarishga yo‘naltirish bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish ifodalangan. Shunindek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2023-yil 22 dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida mamlakatimiz hayotidagi g‘oyat muhim masalalarni muhokama qilish va ular yuzasidan zarur yechimlar topish maqsadida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida ham ma’naviyat va ma’rifat masalasiga alohida e’tibor qaratilgan edi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: **“Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!”**[3]. Binobarin, Prezidentimiz fikriga ko‘ra, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan **millat fidoyilari — uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari** jasorat bilan maydonga chiqib, xalqimizni ozodlik va ilm-ma’rifat uchun kurashga chorlagan. Prezidentimiz o‘z nutqida: biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Mana, bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turganligi odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar borligiga e’tibor qaratar ekan, bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu boradagi savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shartligini ta’kidlab o‘tgani ayni haqiqatdir. Zero, bugungi zamon talabi ichki ishlar organlari xodimlari o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat

va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishni taqoza etmoqda. Xulosa qilib aytganda, bugun mamlakatimizda xalqchil ichki ishlar organlari tizimini yaratish – *bosh g‘oyaga*, “*Vatan va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz*” konseptual g‘oyasi ichki ishlar organlari xodimlarining harakat dasturiga aylanib bormoqda.

Foydalanigan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» тўғрисидаги Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелдаги ПК-5050-сон қарори. <https://lex.uz/ru/docs/5353841>
3. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.

YOSHLARDA VATANPARVARLIK RUHINI YUKSALTIRISH VA VATANPARVARLIK PRINSIPLARINI SHAKLLANTIRISH

Saparov Bobir Xudayberdievich
Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi
maxsus sikl boshlig‘i

Annotatsiya: Zamonaviy globallasuv sharoitida maqolada yoshlarni tarbiyalash va tarbiyalash jarayoni, ularning vatanparvarlik tuyg‘usining mazmuni va mohiyati batafsil ko‘rib chiqilgan. Bugungi sharoit va keng imkoniyatlar yoshlarning har tomonlama etuk va malakali mutaxassis bo‘lishiga qaratilgan va ularning yagona maqsadi bu Vatan tinchligi va osoyishtaligi uchun qaratilgandir.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, globallasuv, demokratiya, islohot, ta’sir ta’lim, tarbiya, tinchlik, jamiyat, inson, sababchi, tarkibiy funktsional, fazoviy, individual.

Xalq va millat dunyoqarashini shakllantirish, ta’lim-tarbiya, axloq normalarini vujudga keltirish, barkamol insonni tarbiyalashda ma’naviyat va ma’rifat masalalari alohida o‘rin tutadi. Islom siyosiy ilmining asoschisi sifatida e’tirof etilgan va insoniyat siyosiy fani xazinasiga qo‘shgan hissasi evaziga “Muallim us-soniy” nomini olgan Abu Nasr Forobiy siyosiy qarashlari negizini “inson-davlat-ma’naviyat” deb bejizga aytilmagan. Shu

bilan bir qatorda Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev o‘z nutqlarida, yosh avlod o‘rtasida mustahkam hayotiy mavqeni shakllantirish, taqdir uchun mas‘uliyat hissini shakllantirish, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va o‘qitish ishlari samaradorligini oshirish muhimligini bir necha bor ta‘kidlagan [1]. Jadidchilik harakati namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot,-yo mamot yo najoty halokat yo saodat-yo falokat masalasidir” deb aytgan fikrlari bejizga aytilmagan. O‘zbekiston istiqbolli va istiqbolini ta‘minlaydigan, Vatan taraqqiyoti, xalqning farovon turmushini yaratishga xizmat qiladigan milliy o‘zlikni anglash g‘oyasi nihoyatda zarurdir.

Mustaqil mamlakatimizda kechayotgan islohotlar samarasi o‘laroq, jamiyatimizning barcha jabhalarida munosib yutuqlar qo‘lga kiritilayapdi. Sharqda Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da «Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» g‘oyasi yoshlar madaniyatini shakllantirish, vatanparvarlik ruhiyatini oshirishning ustivor yo‘nalishi sifatida amal qilgan. Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston», Ibn Sinoning «Hay Ibn Yakzon o‘g‘li», Amir Temurning «Tuzuklari», Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarlari, Alisher Navoiyning «Hamsa» dostonida davlat boshqaruvida adolat mezoniga rioya qilish, fuqarolarning qonunlarni bilishi va hurmat qilish bilan birga yoshlarda vatanparvarlik ko‘nikmalarini oshirishning ahamiyatiga ham alohida urg‘u berilgan berilgan. Qadimgi yunon faylasuflari Suqrot, Demokrit, Aflotun, Arastu, Polibiy, sitseron kabi mutafakkirlar ham davlat tizimi to‘g‘risida munosabat bildirib bevosita yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishning g‘oyaviy va nazariy asoslarini ishlab chiqish siyosiy boshqaruvda odamlarning birgalikda yashashida omil sifatida amal qilishini asolaganlar [3].

Vatanparvarlik jumlasini jahondagi barcha halqlarning donishmand va solih farzandlariga xos tuyg‘udir. Ular bu haqda qo‘yidagi fikrlarni aytishgan: sitseron (Rim voizi va faylasufi). Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh aqrabolar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan so‘zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo‘lsa, qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanar ekan?» [8].

XIX-XX asrda jadidchilik harakati vakillari Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fayzulla Xo‘jaev ma‘rifat to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirib, vatanparvarlik masalalarini ham tadqiq etish orqali o‘z g‘oyalarini ilgari surganlar [4]. Millatparvarlik va vatanparvarlikning yorqin ko‘rinishi ma‘rifatparvarlik g‘oyasi namoyondalarining faoliyatida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lgan. Jumladan, M.Behbudiy milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy-siyosiy qaramlik va qoloqlikdan chiqish muammolarini biladigan zamonaviy bilimga ega savodli kadrlar bo‘lishi zarurligini ta‘kidlab, «Islohni maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki

millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi» [5], deydi.

Aholining tinch, osuda va farovon hayot kechirishini ta'minlash ana shu sa'y-harakatlarning tub mohiyatini tashkil etadi. Tinchlik, osoyishtalik avvalo oiladan, mahalladan boshlanadi. Shu ma'noda, yurtimizdagi har bir aholi yashash joylarida ichki ishlar xodimlari, uchastka nozirlari, mahalla faollari, jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida fuqarolarni ogohlikka da'vat etuvchi tadbirlar o'tkazib kelinayotir. Bugun O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi"-deb alohida ta'kidlab o'tdi. Biz Yangi O'zbekistonni bunyod etishda sog'lom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san'at va sport bo'yicha salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish borasida ham yangi tizim yaratamiz [1]. Bugun yoshlarni o'qitish, ularga kasb sirlarini o'rgatish bilan birga ularda sadoat va vatanparlik hissini rivojlantirish ham ta'lim-tarbiya jarayonining muhim vazifasi hisoblanadi.

Yurtimizda, yoshlarning ma'naviy madaniyatining ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda, uning mohiyatini belgilovchi omillarni aniqlash ijtimoiy-madaniy yuksalishda o'zaro uyg'unlikni ta'minlash, ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo'lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan tafakkur imkoniyatlarini kengaytirish, erkin va tanqidiy fikrlash, faoliyatni maqsadga yo'naltirish, kelajakka mo'ljal olish kabilarga erishish maqsadida 2017-yil "Kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Prezident Qarori e'lon qilindi va u bosqichma-bosqich tizimli amaliyotga joriy qilinmoqda. Chunki kitob bilim manbai bo'lib, u shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantiruvchi eng muhim omildir. 2017-yildan 30- iyun sanasini Prezidentimiz tashabbusi bilan "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" degan shior keng tarqalib, "Yoshlar kuni" deb e'lon qilinishi, yoshlarni ta'lim tizimining barcha bosqichlaridagi islohotlar, oliy ta'lim tizimida o'qish imkoniyatlarining-yildan-yilga kengayib borayotganligi, zamonaviy va diniy bilimlar uyg'unligini ta'minlash jarayoni yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgandir.

Ma'lumki, "milliy o'z-o'zini anglash – har bir millat (elat)ning o'z-o'zini real sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning egasi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda

ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishga milliy o‘z-o‘zini anglash deyiladi” [7]. Shu bilan birga, yoshlarda milliy mafkura hissasini uyg‘otish ham juda muhimdir. Milliy mafkura, jamiyatning maqsadlari va intilishlari, qiziqishlari va ehtiyojlarining ifodasidir, u shaxs hayotiga ma‘no beradi, mazmunini boyitadi insonning mavjudligi, uning jismoniy va ma‘naviy kuchlarini yuqori darajaga erishishga safarbar qiladi. Chuqur mafkuraviy ishonch, mamlakat taqdiri va kelajagi uchun eng yuqori fuqarolik javobgarligi, axloqiy poklikni shakllantiradi.

Vatanparvarlik va fuqarolik madaniyatini, yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim omildir. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosining bartaraf etishda bizning buyuk allomalarimiz sharqona g‘oyalari va yurtimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar juda muhimdir. Shu bilan birga, umumta‘lim muassasalarida pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biri bu o‘quvchilar va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni barcha yo‘nalishlarda harbiy xizmatga tayyorlash va o‘z vazifalarini bajarish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallashdir.

Vatanparvarlik har doim nafaqat jamiyatning ma‘naviy sohasida, balki uning faoliyatining barcha asosiy yo‘nalishlarida - mafkura, siyosat, ma‘daniyat, iqtisodiyot va boshqalarda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Barcha xalqlar orasida vatanparvarlik har doim asosiy toshlardan biri bo‘lib kelgan, jamiyatning turli qatlamlarini birlashtirishga yordam beradi.

Ta‘lim va tarbiya yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Vatanparvarlik nafaqat o‘z mamlakati va ma‘daniyati bilan faxrlanish hissi, balki uning manfaatlarini himoya qilishga, uning rivojlanishida ishtirok etishga va uning gullab-yashnashiga hissa qovshishga tayyorlikdir. Shu sababli, endi yurtimizdagi oliy ta‘lim muassasalarida nafaqat bilim berishga, balki talabalarda shaxsiy fazilatlarini, shu jumladan vatanparvarlikni rivojlantirishga intilmoqda. Bu turli xil tadbirlar bo‘lishi mumkin, masalan, mamlakat tarixi va ma‘daniyatini targ‘ib qilish, har xil ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda ishtirok etish, vatanparvarlik tanlovlari, festivallar, sport tadbirlari va boshqalar. Bularning barchasi yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishga yordam beradi va shu bilan ularning fuqarolik majburiyatlariga bo‘lgan munosabatiga, o‘z mamlakatini rivojlantirishda ishtirok etishiga va unga hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga ta‘sir qiladi. “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma‘rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a‘zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma‘rifat, yuksak ma‘naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri

yo‘ldan adashish bo‘ladi” [2].

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari qayta tiklash, milliy qayta tiklashda ulardan foydalanish nafaqat xalqimiz, millatimizning tarixiy-madaniy paradigmasi, balki erkin va farovon Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, yoshlarni yuksak vatanparvarlik hisini oshirishga xizmat qiladi. Albatta, har qanday xalq yoki millatning ma‘naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odatlar va urf-odatlar, hayotiy qadriyatlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu munosabat bilan, ma‘naviy meros, madaniy qadriyatlar, eski tarixiy yodgorliklardan paydo bo‘ladi. Uzoq tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonida shakllangan o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari ham umuminsoniy qadriyatlarni ifodalaydi [6].

Vatanimiz mustaqilligining ma‘naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an‘ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, insonlar, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga xalqiga, ona yurtiga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksakdarajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” deb ta‘kidlaganlar.

Shunday qilib, milliy asosda yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash qadriyatlar bizning davrimizning eng muhim vazifasidir. Mamlakatning milliy o‘ziga xosligini, madaniyati va an‘analarini saqlab qolish va mustahkamlash, o‘z navbatida, butun jamiyat rivojiga foydali ta‘sir ko‘rsatadi.

Turli yoshdagi bolalar vatanparvarlik tushunchasini boshqacha qabul qilishadi. Yosh bolalar vatanparvarlikni, o‘z oilalariga bo‘lgan muhabbat deb bilishadi. O‘smirlar uchun vatanparvarlik bilan bog‘liq mamlakatga, uning ma‘daniyatiga, tarixiga va millatiga bo‘lgan muhabbatdir.

Shuning uchun madaniy dasturlar, tarixiy joylarga tashrif buyurish va boshqa yo‘naltirilgan usullar, bolalarning yoshga bog‘liq afzalliklari va qiziqishlari yaratishda yordam berishi mumkin va shu bilan birga, vatanparvarlikni rivojlantirishga turtki bo‘ladi.

Vatanparvarlikni tarbiyalash boshqa mamlakatlar madaniyati va urf-odatlarini hurmat qilishni o‘z ichiga olishi kerak. Bolalarga bag‘rikenglik, ochiqlik va hurmatni o‘rgatish ham muhimdir.

Yoshlarda o‘z mamlakatlari bilan kuchli aloqani shakllantirish va muhim ahamiyatga ega bo‘lish o‘z mamlakatining kelajakdagi rahbarlari va vatanparvarlarini yaratish vositasi, sog‘lom muhitni hurmat qilish, Yoshlar bizning ekologik vaziyatimiz bevosita ekanligini tushunishlari kerak odamlarning salomatligi va farovonligi bilan bogliqlik.

Yoshlar o‘rtasida vatanparvarlikni tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri bu ta‘limdir. Milliy o‘zlikni anglash va uni yoshligidan singdirilishi kerak. Yoshlar ma‘daniy qadriyatlar va g‘oyalarni shakllantirishlari uchun o‘z mamlakatining an‘analari ham juda muhim. Ta‘limdagi tadbirlaridan foydalanish kerak va ularning tarixi, ma‘daniyati va tiliga hurmatni oshirish kerak. Tarixiy joylarga ekskursiyalarni tashkil etish, milliy ko‘rgazmalar, o‘qish va milliy adabiyot va she‘riyat, musiqiy asarlarni o‘rganish, milliy ma‘daniyatning kompozitsiyalari onglatish orqali ham yoshlarni vatanparvarlik hissini oshirish mumkin. Bundan tashqari, yoshlarni ijtimoiy hayotga kiritish va faoliyatda faol ishtirok etish oshirish lozim. Harakatlar, munozaralar va uchrashuvlar yoshlarga o‘z tashabbuslarini va tegishli bo‘lish tuyg‘usini namoyon etishga imkon beradi.

Yoshlarga har sohada o‘zlarini namoyon qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Har bir yosh avlodni yuksak ma‘naviyatli, ona-Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy an‘analarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ongi va shuurini zararli yot g‘oyalardan himoyalashga alohida vazifa sifatida qaralmoqda.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni oiladan boshlamoq kerak. Chunki oila jamiyatning bir bo‘g‘inidir. Shunday ekan, jamiyatga kerakli kadrlarni oila yetkazib beradi. Oilada bola ulg‘ayadi, o‘sadi. Ana shu voyaga yetish jarayonida oila maktabining o‘rni beqiyos. Oilaga, ota-onaga, yaqinlarga bo‘lgan muhabbat, hurmat keyinchalik bir butunlik sifatida Vatan so‘zida mujassamlashadi. Shunday ekan, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar yoshlarni ma‘naviy yuksalishiga zamin yasaydi.

Oilada bolalarimizga ertaklar aytayotganimizda ham milliy ertaklardan, afsonalardan, rivoyatlardan foydalanishimiz u yerdagi qahramonlarning mardlik, jasurlik, o‘z vatanini hech narsaga alishtirmaslik, uni bir parcha tuprog‘ini ham muqaddas bilish lozimligini ajdodlarimiz ma‘naviy meroslaridan foydalangan holda uzviy olib borishimiz vatanimiz kelajagini mevasini yaratadi. Xususan, Shiroq, To‘maris, Alpomishlarning jasoratlari milliy qadriyatlarimizning, an‘analarimizning, asrlar osha bizga yetib kelgan urf-odatlarimizning saqlanib, bardavom bo‘lishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usining barq urishida ta‘lim va tarbiyaning uzviyligi muhim o‘rin tutadi. Bunda, oila, maktabgacha ta‘lim muassasalari, maktab va oliy o‘quv yurtlari faoliyatida uzviylik tamoyilining tatbiq etilishi

vatanparvarlik tuygʻusining yanada takomillashuviga olib keladi. Vatanga muhabbat tuygʻusi – bu jamiyatdagi maʼnaviy shakllanishning chuqur ildizini ochib beruvchi oʻziga xos kalitdir. Zero, insoniylikning eng muhim fazilati kishining Vatanga boʻlgan muhabbati bilan belgilanadi.

Ulugʻ ajdodlarimizdan meros boʻlib kelayotgan ona-Vatanga muhabbat tuygʻusi farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam eʼtiqod va muhabbatning inʼikosidir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab kelajagimiz egalari boʻlgan yoshlarga eʼtibor kuchaytirildi. Yurtimizda amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar kelajagimiz egalarini Vatanga, milliy istiqlol gʻoyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, har bir oilada oʻgʻil farzand tugʻilganda ota-ona bilan bir qatorda yurt – Vatan ham suyunib, shodu xurram boʻlar ekan. Chunki oʻgʻil farzand nafaqat ota-onasi, oilasini, balki butun xalqini, Vatanini himoya qiladigan oʻgʻlon hisoblanadi. Yurtimiz tinchligi va barqarorligini saqlashda, mamlakatimiz hududini himoya qilishda harbiy xizmatchilarning xizmatlari beqiyosdir.

Vatanparvarlik bu-yurtimizda mavjud boʻlgan saloxiyat va boyliklarni ishga solish, ulardan oqilona foydalanish, oʻz kuch imkoniyatimizga, ota-onalarimizdan qolgan bebaho meros, milliy urf-odat va anʼanalariga suyanish, qadriyatlarni tiklash, bir birimizga yelkadosh boʻlish ehtiyojini har tomonlama tushunib etish demakdir.

Yoshlarda faol pozitsiya va oʻzining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, masʼuliyatni his etish, qatʼiy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qatʼiyatli boʻlishga oʻrgatish yuqorida sanab oʻtgan maqsadlarga erishishni kafolatidir. Yoshlarda vatanparvarlik darajasi koʻrsatkichlarini pedagogik tahlil qilish va baholashda sevimli xalqning shon-sharafi, qadr-qimmatini, maʼdaniyati va anʼanalariga ehtiyotkorlik bilan qilingan munosabatda ovz ifodasini topadi.

Vatanparvarlik Oʻzbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta oʻzgartirish yoʻlidagi qiyinchiliklarni yengib oʻtishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq soʻzi. 2020
2. Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, Ezgulik Va Bunyodkorlik Milliy gʻoyamiz poydevoridir. 2021.
3. Abdurauf Fitrat. Rahbari Najot. – Toshkent: Sharq, 2000
4. Aristotel. Politika. M.. 1911. S. 1,5. sitseron. Dialogi. –M.: 1996. S.20., Pravovoe gosudarstvo, lichnost, zakonnost: Pravovoe gosudarstvo: istoriya idey i sovremennost/

prof. V.S. Nersesyans. – M.: 1997. – S. 5.

5. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. -T.: Ma’naviyat, 1999.- B. 228.

6. Falsafa: qomusiy lug‘at: (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). –T.: “Sharq” nashriyot-matbuot aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004.

7. Sayfullayev B., Rustamov V. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. 2016.

8. Utchenko S.L. sitseron i yego vremya. - Moskva, Misl, 1972

IV.G‘OYAVIY KURASH: TARIXI, METODOLOGIYASI, MUAMMO VA YECHIMLARI.

JADID FALSAFASI

Qiyom Nazarov,
falsafa fanlari doktori,
professor

Prezidentimizning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" deb nomlangan nutqi bu soha rivojida ulkan ahamiyatga molik tarixiy hujjat bo'ldi.

Ayni paytda, mazkur ma'ruza ma'naviy hayotimizda, jumladan jadid bobolarimiz merosini o'rganish va ularning tajribasini bugungi kunimizda qo'llash borasida yangi bosqichni, bu jabhadagi yanada chuqur islohotlar davrini boshlab berdi.

Ma'ruzani ana shu serqirra va dorilamon jarayonning metodologik asosi sifatida anglash va tushunish, ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot-tashviqot ishlarimizni uning asosida tashkil etish zarurati bugungi kun, yangi davr talabiga aylanmoqda.

Ma'naviy jarayonlar dialektikasi. Ma'lumki, ma'naviy hayot sohalari va ularda ro'y beradigan voqea-hodisalarning bir-biri bilan uzviy bog'liq holda va o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'lishi ushbu sohaning muhim qonunlaridan biridir.

Bu jihatdan, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida jadid bobolarimiz merosiga nisbatan munosabatning yangi bosqichga ko'tarilayotganini ma'naviy hayotimizda ro'y berayotgan yangilanishlar va islohotlar jarayonidan ayru tasavvur qilib bo'lmaydi.

Aksincha, keyingi-yillarda ma'naviyat sohasiga e'tibor nihoyatda kuchaygani va u davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangani, bu borada yangi faoliyat tizimi shakllangani ana shu jarayonning tobora kengayib va mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

"Yoshlarga e'tibor va biznesni qo'llab-quvvatlash-yili", deb nom berilgan 2024-yilda ma'naviyat sohasi, jumladan jadidlar merosi va jadidchilik harakatiga e'tiborning yanada ortishi esa bu borada amalga oshirilayotgan ilohotlardagi bevosita ishtirokimiz va mas'uliyatimizning o'ziga xos muhim mezonlarini belgilaydi.

Bularning barchasi mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir" degan tamoyil

asosida amalga oshirilayotganining yaqqol isbotidir. Aynan ana shu tamoyil ma'naviy hayotimizdagi islohotlar dialektikasi hamda jadidlar g'oyasi va falsafasi, ularning ma'rifiy va adabiy merosiga bugungi kundagi yangicha munosabatning tamal toshini belgilaydi.

Bu jihatdan, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida jadidlar merosi va uning ahamiyatiga e'tibor tobora kuchayib borayotgani, jadidchilik harakati, uning g'oyasi, falsafasi va amaliyotiga alohida ahamiyat berilayotganining asosiy sabablari nimada?

Ma'lumki, biror bir mamlakatda yashaydigan xalqning yuksak darajadagi mustaqillik tafakkurining butun jamiyat rihiyatida to'liq shakllanishi va mustahkamlanishi nisbatan uzoq davom etadigan, bu borada tizimli ishlarni amalga oshirishni talab qiladigan murakkab siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlar bilan bog'liq evolyutsion jarayondir.

Bu borada insoniyat tarixida isbotlangan haqiqatlardan biri shuki, bir necha marta istibdod domiga tushgan va uzoq-yillar mustamlaka bo'lib yashagan biror bir xalqning yaxlit va yuksak darajadagi mustaqillik tafakkuri bir-yil, hatto bir necha -yilda ham to'la-to'kis shakllanib va o'z-o'zidan mustahkamlanib qolmaydi.

Chunki davr o'tadi, odamlar qoladi... Bu jarayonda xalqimizning "Tog' o'zgaribdi desa ishon, ammo odamlar o'zgaribdi desa ishonma" degan hikmati turli evrilishlar va yangilanishlar, inkor va vorislik ananalari asosida ro'y beradigan uzluksiz ijtimoiy voqelik sifatida amal qiladi.

Shuning uchun ham mustaqillik tafakkurini yanada mustahkamlash va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirish o'tkir zaruratga aylangan hozirgi davrda jadid falsafasi yangi O'zbekiston jamiyatiga xos istiqlol ruhi va mustaqillik tafakkurini mustahkamlashning muhim manbasi va omillaridan biri sifatida namoyon bo'layotgani shubhasiz.

Bugungi yangilanish davri, xuddi jadidlar zamonidek, xalq tafakkurining ijtimoiy zarurat sifatida yangilanishini, fuqarolarning to'la-to'kis islohotchiga aylanishini talab qilmoqda. Jadid g'oyasi va falsafasi, bizdan bor-yo'g'i 100-yil ilgari halqimizning keng qatlamlari vakillarining yangicha tafakkurga ega bo'lgani va bugungi avlodda ham ular ruhi saqlanib qolayotganiga yaqin tarix, o'tgan XX asr guvohlik berib turibdi. Ijtimoiy sotsionika qonunlariga ko'ra ushbu vorisiylikni yana qayta jonlantirish, unga yangi va zamonaviy ruh va kuch bag'ishlash imkoni bor.

Shu bilan birga, bugungi kunda muttasil va tadrijiy tarzda yangilanib borayotgan davrga mos yangi jadidlarga, xalqni islohotchiga aylantirishga ko'mak beradigan va fuqarolarni yangilanishlarga tayyorligini

ta'minlaydigan faol ziyolilarga ehtiyoj tobora kuchayib bormoqda. Bu jihatdan Davlatimiz rahbarining “Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, degan so‘zlari har birimiz uchun jiddiy chaqiriq ekanini teran anglashimiz lozim.

Jadid g‘oyasi va falsafasi, jadidchilik harakati va amaliyoti ana shunday jasoratli ziyolilar uchun nafaqat asosiy tayanch manbalardan biri, balki bugungi tafakkur yangilanishi jarayoni uchun muhim zaruriy qo‘llanma, har birimiz uchun esa ibrat namunasi va ma‘naviy mas‘uliyat hissini mustahkamlash omili bo‘lishi zarurligi davr talabiga aylandi.

Bu nuqtai nazardan, jadidlarning konseptual g‘oyalari hozirgi o‘zgarishlar amaliyotining ma‘naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlarning genetik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ular siyosiy dasturlar umuminsoniy xususiyatlarni tarannum etuvchi, erk va ozodlik, adolat va mustaqillik g‘oyalarini olg‘a surdi. Bu esa jadidchilar mustaqilligimiz uchun g‘oyaviy asos bo‘la oladigan tamoyillarni ilgari surganligidan darak beradi.

Tarix taqazosi. Jadidlarning tarix sahniga kelishi aslo tasodif emas, balki xalqlarimiz asrlar davomida yashab kelayotgan ulkan hududdagi ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy-ma‘rifiy jarayonlarning o‘ziga xos tarixiy inikosi, o‘sha davr ma‘naviy hayotining fenomenal hodisasi edi. Prezidentimiz ma‘ruzasida alohida ta‘kidlangan quyidagi fikr ushbu sohadagi davr taqazosini anglashning falsafiy-metodologik asosini belgilaydi: “Tarixdan ma‘lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san‘at namoyandalari, ma‘naviyat va ma‘rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma‘rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslaylik.”

Yurtimizda jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi sabablari, uning jamiyat hayotida o‘ynagan roliga ob‘ektiv baho berish va to‘g‘ri tavsiflash uchun tarixiy sharoitlar, ijtimoiy-siyosiy omillar qay darajada ta‘sir kuchiga ega bo‘lganligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nuqtai nazardan, xalqimizning ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy va madaniy taraqqiyotida XIX asrning so‘nggi va keyingi yuz-yillikning boshlanish davri g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy shakllarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Turkistonda o‘sha paytda turli ma‘naviy-g‘oyaviy va mafkuraviy oqimlar – qadamchilar, jadidchilar, islohotchilar, bedilxonlar, mashrabxonlar,

shuningdek, Markaziy Osiyo, islom tarqalgan hudular, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo'lgan tafakkurning turli shakllari hamda ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo'nalishga ega bo'lgan «Chig'atoy gurungi» kabi ancha yetuk yig'inlar, ular ilgari surgan ma'rifiy ta'limotlar, nazariyalar mavjud edi.

Shuni ham alohida ta'kidlash zarurki, Turkistondagi jadidchilik o'zining O'rta va Yaqin Sharqdagi, Qrim, Qozon, Ufa va Ozarbayjondagi qardoshlari, mashhur "Al nahda" harakati va "Tajdid" g'oyasi, o'sha davr allomalari Said Ahmadxon, Jaloliddin Afg'oniy, Butrus al-Bustoniyy, Jurjiy Zaydon, Muhammad Abdu, Abdurahmon Kavokibiy, Javod Husaynzoda, imom Rizouddin ibn Faxriddin, Shayx Musa Jorulloh, Ismoilbek Gaspirali va boshqalar nomi bilan bog'liq diniy-islohcilik, ma'rifatchilik jarayonlari bilan o'zaro ta'sirda shakllandi va kamolga yetdi.

Bu serqirra jarayonda istilo ostida ezilgan xalqlarning uyushishi, birlashishi va ozodlik uchun kurashish g'oyasi asosida jadidchilik g'oyasi va falsafasi, ma'rifatchilik mafkurasi vujudga keldi. Jadidlar asoslab bergan milliy mafkura va ularning g'oyaviy maqsadlari, ayniqsa, ular amalga oshirishga uringan vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan insonparvarlik va milliy ongini uyg'otish, tarbiyalashga chaqiruvchi dunyoqarash tarzida namoyon bo'ldi. Hayotda ro'y berayotgan turli ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni o'rganish, milliy falsafa va xalqning yangilanishi lozim bo'lgan dunyoqarashini jahon taraqqiyoti talablari nuqtai nazaridan yondashish ko'plab chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish borasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Muhammad Sharif So'fizoda, Saidrasul Aziziy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi alloma bobolarimiz katta yutuqlarga erishdilar.

Jadid g'oyasining negizi inqilob bilan emas, balki istiloh va islohot yo'lidan borib, ilm-ma'rifatni, iloji boricha keng ko'lamda yuksaltirish orqali taraqqiyotga erishishdan iborat edi. Buning sababi, Turkiston o'zining, hatto, eng ilgarigi taraqqiyotidan ham ancha orqada qolib ketgan, rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy sohada vujudga kelgan va kelayotgan raqobatlariga dosh bera olmay, mustamlakaga aylanayotganligida edi. Millatparvar va taraqqiyparvar jadidlar bunday vaziyatni teran anglaganliklari uchun Turkistonni jahon sivilizatsiyasi tizimidagi rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishning birdan-bir yo'li xalq ongini yangilash, ilm-fan, maorifni taraqqiy ettirish, deb bilar edilar.

Turkiston jadidlari mamlakatni qoloqlik, tarqoqlik, savodsizlik botqog'idan faqat ma'rifat orqali qutqarish mumkinligini yaxshi tushunib yetganliklari uchun, dastlab asosiy sa'y-harakatlarini yangi usuldagi

maktablarni tashkil qilish, ularning mazmun va shaklini takomillashtirishga qaratdilar. Jadidchilik fenomeni shu davrdagi sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo‘jaligining rivojlanishi, ma‘naviy hayotdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning bir qancha yo‘nalish va bosqichga ega bo‘lgan g‘oyaviy manbalari borligini e‘tirof etish zarur. Jadidlarining ma‘rifatparvarlik g‘oyalari ularning ma‘naviy merosida o‘z aksini topdi. Jadidlar yangi maktablar tizimini takomillashtirish uchun darsliklar yaratdilar, asarlarida jamiyat ma‘naviy hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi illatlarni yoritdilar va ularni bartaraf etish yo‘llarini izladilar.

Garchand ular ijodida bevosita ontologiya yoki gnoseologiyaning umumnazariy masalalari kamroq uchrasa-da, o‘sha davr hayoti va millat taqdiri bilan bog‘liq ko‘plab falsafiy muammolar jadidlarning diqqat markazida turgan, bu borada qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Aslida ham butun falsafa tarixi faqat ontologiya va gnoseologiya tarixidan iborat emas. Balki muayyan alloma yoki faylasuf yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ular mansub millat va Vatanda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar, xalq hayoti va kelajagiga daxldor masala va muammolarning yechimlarini izlash bilan bog‘liq g‘oya va nazariyalarning kashf etilishi hamda ularni amaliyotga qo‘llash jarayonlari ham bu tarixning eng muhim qismidir.

Bugungi kunda jadid falsafasiga xos ayni shu jihatlar, ya‘ni davr da‘vatiga nisbatan hozirjavoblik, xalq tafakkurini va hayotini yangilash, bu yo‘lda ilm-ma‘rifatning kuchi va ta‘sirini oshirish hamda zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan yangi avlodni shakllantirish zarurati zimmamizdagi o‘tkir mas‘uliyat, eng muhim vazifalarimizga aylandi.

Jadid falsafasining mohiyati. Ma‘lumki, jadid falsafasi ma‘rifatparvarlik g‘oyasi va uning amaliyotida yaqqol ko‘zga tashlangan dunyoqarash sifatida namoyon bo‘lgan edi. Ushbu falsafani qadimgi Yunonistonda shakllangan va kamolga yetgan, hozirgacha G‘arb tafakkurini belgilab kelayotgan va bizning ko‘pchiligimiz asoslanadigan ontognoseologik filosofiya tamoyillari nuqtai nazaridan to‘la to‘kis tavsiflash qiyin.

Ya‘ni, jadid falsafasini ko‘proq qadimgi Yunoniston va Rim, keyinroq esa G‘arb falsafasining tarkibiy qismi hisoblanadigan “Ontologiya”, “Gnoseologiya”, “Antropologiya”, “Dialektika”, “Sofistika” “Etika”, “Estetika” kabilar, ular bilan bog‘liq falsafiy kategoriyalar va tushunchalar tizimiga asoslanib tahlil qilish kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Negaki, metodologik jihatdan jadid falsafasi ota-bobolarimiz keyingi yuz -yilliklarda e‘tiqod qilib kelgan ananaviy islom tafakkuri hamda Farobiydan boshlanadigan ilmi hikmatga asoslanadi va uning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi namoyon bo‘lish shakllaridan biridir. Ya‘ni ushbu falsafaning mazmun mohiyatini va ahamiyatini aniq-tiniq tasavvur qilish

uchun Farobiyning falsafani “Hikmat ilmi” deya tavsiflagani va undan keyingi islom falsafasida ana shu yondashuv keng yoyilganini nazardan qochirmaslik lozim.

Alloma bobomizning falsafaga nisbatan qo‘llagan «Falsafa – ilmi hikmatdir» degan lo‘nda va sermazmun ta’rifi, u tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy katoriyalar, tushunchalar va tamoyillar tizimi o‘sha davrdan boshlab butun islom olami ilm ahli orasida mashhur bo‘ldi va e’tirof etildi. O‘lis asrlar qa’ridan kelayotgan ushbu jarayonda nafaqat “Hikmat ilmi” atamasi, balki uning tarkibiy qismi bo‘lgan “Javhar” va “Oraz”, “Vahdat ul-vujud”, “Vahdat ul-mavjud”, “Vahdat ul-vojib”, “Vahdat ul-mumkin”, “Vahdat ul-shuhud”, “Olami Kubro” va “Olami sug‘ro”, “Ofoq” va “Anfus”, “Vuqufi zamoniy”, “Qazo” va “Qadar” kabi ko‘plab falsafiy- ontologik tushuncha hamda tamoyillari necha asrlar ilgari shakllangan va xalqimiz tafakkuriga singib ketgan. Xuddi shunday “Aql” va “Naql”, “Aqliy bilim” va “Naqliy bilim”, “Anal haq”, “Aql al-faol” kabi “Hikmat ilmi”ga xos falsafiy- gnoseologik tushuncha va tamoyillar ham milliy falsafamiz tarixi, jumladan jadidlar tafakkurida o‘z o‘rniga ega bo‘lganligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Ilmi hikmat shakllanishining dastlabki davrida ishlab chiqilgan tushuncha va ta’riflar unutilmadi, aksincha butun Arab xalifaligi mamlakatlari ilm-fanida keng miqyosda qabul qilindi. Xalifalik tarqalib ketganidan keyin esa, asrlar davomida ko‘plab Sharq mamlakatlari, islom tarqalgan hududlarda keng qo‘llandi va e’tirof etib kelindi. Insoniyat tarixidagi yangi falsafa – “Ilmi hikmat” yaratilganidan 200-yil o‘tib alloma Yassaviyning o‘z falsafiy devoniga “Hikmat” nomini bergani ham bejiz emas. O‘z navbatida bu, Ilmi hikmat sifatida falsafa sohasiga kiritilgan tushuncha va ta’riflarning nafaqat ilm-fanda, balki xalq orasida ham ma’lum va mashhur bo‘lgani, o‘z davrining eng yetuk allomalaridan biri, mashhur faylasuf bobomiz Hoja Ahmadning “Hikmat” iborasini o‘z devoniga nom sifatida tanlagani esa, aslo tasodif bo‘lmaganidan dalolat beradi.

Alohida ta’kidlash joizki, Qadimgi Yunon falsafasidan keyin jahonning biror bir mintaqasida undan tomomila farq qiladigan va ayni paytda uning ko‘plab ananalarini davom ettirgan, nihoyatda o‘ziga xos tushunchalar va kategoriyalar, tamoyillar tizimiga ega bo‘lgan, keng hududda tarqalgan va qator oqimlar, o‘nlab yo‘nalishlarni qamrab olgan, asrlar davomida sayqallanib va zamonalar osha takomillashib kelgan Ilmi hikmatdek o‘ziga xos va yaxlit falsafiy ta’limotlar majmui shakllanmagan.

Farobiydan boshlangan ushbu serqirra falsafaning keyingi rivojida Al Kindiydan Al Beruniygacha, Ibn Sinodan al Arabiygacha, Nasafiydan Ibn Rushdgacha, Umar Xayyomdan Ulug‘bekkacha va ulardan keyingi ko‘plab Sharq allomalari, jumladan jadidlar falsafasiga oid qarashlar va ta’limotlarda

ham ilmi hikmatning izlari va ta'siri yaqqol sezilib turadi.

Bugungi kunda istiqlol sharofati bilan oyoqqa turayotgan "O'zbek falsafasi" yo'nalishida yaratilayotgan asarlar ham ana shu merosga, Ilmi hikmat g'oyalari, uning tushuncha va tamsoyillariga tayanishi zarurligi davr talabiga aylanganining eng asosiy sabablaridan biri ham ana shunda...

Jadid falsafasida shu asosda asrlar davomida sayqal topgan sharqona qadriyatlar, xalqimizning ma'naviy qiyofasi, tafakkuri va turmush tarzi, mentaliteti, urf-odatlari, an'analari, bag'rikenglik tamoyillari, barqarorlik va bunyodkorlikka intilish kabi xususiyatlarini ifodalaydigan falsafiy tamoyillar, tushuncha va kategoriyalar tizimi ham o'z aksini topgan.

Bu falsafiy tizim xalqimiz hayotida mavjud bo'lgan ma'naviy me'yorlar va mezonlar haqidagi tushunchalar asosida shakllangan va ularga mos keladigan umuminsoniy falsafa hamda jamiyatimiz tafakkurida aks etgan milliy qadriyatlar, turli g'oyalar va ideallarda namoyon bo'lmoqda.

Davr ehtiyoji. Prezident ma'ruzasida bugungi kunda jadidlar merosi va jadidchilik harakatining falsafiy masalalariga doir keng qamrovli tadqiqotlar olib borish, maxsus ilmiy izlanishlarni tizimli yo'lga qo'yish zarurligiga alohida ahamiyat berilgani bejiz emas.

Xolbuki, ushbu sohada izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari jadid falsafasi, adabiyoti va maorif tizimini atroflicha o'rganmoqda, bobolarimiz merosi tadqiqiga alohida e'tibor bilan qaramoqda.

Bu borada AQShning Kolumbiya, Michigan universitetlarida, Yevroosiyo milliy universiteti, Turkman jahon tillari milliy institutida jadid adabiyoti namoyandalari, adabiy siymolari hayoti va ijldi, jadidchilik harakatining g'oyaviy asoslarini aniqlash va ularning o'zbek jadid nasri, dramaturgiyasi, she'riyatida aks etishi, o'zbek jadid she'riyati morfologiyasi masalalari tadqiqi yo'lga qo'yilgan.

Anqara va Eje universitetlari, Qozon federal universiteti, Xakas davlat universiteti, Boku davlat universiteti, jadidchilik falsafasi va mafkurasi, uning tarixiy va siyosiy masalalariga e'tibor qaratilmoqda.

Anqaradagi Hoji Bayram valiy universiteti va Ozarboyjon Fanlar akademiyasi Adabiyot institutida jadid matbuoti va noshirlik faoliyati, jadid atamashunosligi masalalariga doir tadqiqotlar olib borilgan va bir qator ijobiy natijalarga erishilgan.

Kaliforniya universiteti va Karlton kollejida jadidlar davrida yangi maktablar ochilishi, gazeta-jurnallar chop etilishi bilan bog'liq mavzularga ko'proq diqqat qilingan.

Tokio xorijiy tadqiqotlar universtiteti, Michigan va Eje universitetlarida

jadidlarning teatr san'ati orqali xalqni uyg'otish, ma'rifatli qilish, sahna orqali mavjud muammolarni gavdalandirish, jadid teatri va san'ati, o'zbek jadid dramasi va she'riyatiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Istiqlol sharofati bilan mustaqillik-yillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasining Falsafa va huquq instituti "Falsafa tarixi" bo'limida, O'zFAning Til va adabiyot institutida, O'zbekiston Milliy universitetining "Falsafa tarixi" kafedrasida bu borada ilmiy izlanishlar olib borilgan. Hozirgi davrda O'zbekiston milliy universiteti, Samarqand, Buxoro va Xorazmda faoliyat ko'rsatayotgan universitetlarda, O'zFAning Til va adabiyot institutida ushbu yo'nalishda tadqiqotlar davom etmoqda, dissertatsiyalar himoya qilinmoqda.

Ayni paytda, hozirgi davr jadid falsafasidek milliy asosdagi yaxlit g'oyalar tizimining ilmiy, metodologik va amaliy jihatlarini, zamonaviy ta'sirini har tomonlama tahlil qilish, uning bugungi kundagi ahamiyati va undan foydalanish imkoniyatlarini to'la-to'kis ochib berish nihoyatda muhim bo'lib, bunday tadqiqotlarga e'tibor va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda ayni shu ehtiyoj:

birinchidan, jadid bobolarimiz falsafiy merosini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan har tomonlama va chuqur o'rganish, ayni shu asosda o'zbek falsafasini yangi davr talablari darajasiga chiqishiga erishish;

ikkinchidan, shu asosda Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida xalqimizning jadidlar orzu qilgan zamonaviy dunyoqarashi va islohotchilik tafakkurini shakllantirish;

uchinchidan, yangiliklarga labbay deb javob beradigan yangi jadidlar avlodini tarbiyalash va islohotchi ziyolilar safini yanada kengaytirish, shu asosda yangi islohotchi yoshlar avlodini voyaga yetkazish;

to'rtinchidan, ushbu jarayonning kreativ va sotsionik tamoyillarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish yo'llari va imkoniyatlari to'g'risida taklif va tavsiyalar tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish zaruratini davr talabiga aylantirdi.

Bu jihatdan, yuqorida qayd etilgan jihatlarni tadqiq etish, bu boradagi xorij va milliy tajribani umumlashtirish, davlat tashkilotlari va fuqarolik institutlari uchun hujjatlar, tahliliy materiallar, ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish uchun bir necha kishilik "Aql markazi" sifatida "Jadid falsafasini o'rganish ilmiy markazi"ni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Prezidentimiz ma'ruzasida "Jadid" nomli yangi gazeta chop etilgani, uning elektron versiyasini tashkil etilishi, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi bunyod etilishiga doir fikrlar bu boradagi

qadamlarning bardavom bo‘lishidan dalolat beradi. Bu esa o‘z navbatida, jadid mutafakkirlarining xalq tafakkurini va jamiyatni yangilashda falsafiy tamoyillar, milliy g‘oya va ma’naviy omillarga tayanish sohasidagidagi merosini o‘rganish va bugungi amaliyotga qo‘llashda yangi davr boshlanayotganini anglatadi.

Xullas, Yangi O‘zbekiston barpo etilayotgan hozirgi davrda, milliy taraqqiyot uchun kurashgan, istiqbolimizning g‘oyaviy va amaliy manbalarini yaratishda eng samarali bosqich bo‘lgan jadidchilikning falsafiy asoslarini xolisona tahlil qilish, o‘rganish va xalqimizga yetkazib berish mutaxassislar oldida turgan eng muhim vazifalardan biriga aylandi.

MAFKURA SOHASIDA BO‘SHLIQ BO‘LMAYDI

To‘rayev Shavkat Nishonovich

*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i,
falsafa fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc),*

Tez sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan shiddatli va ayni paytda o‘ta murakkab zamonda yashamoqdamiz. Bu davrda xalqni birlashtirish va jarayonlarni tartibga solishi mumkin bo‘lgan “G‘oya”, “Mafkura” hamda “Ma’naviyat” sohaslarida alohida tizimli ishlarni tashkil qilish globallashuv davri taqozosi ekanligidan dalolat beribgina qolmay, yagona himoya vositasi ekanligini tushunib yetish lozim. Binobarin, jamiyatda ma’naviy va mafkuraviy jarayonlarni yangicha tarzda tashkil etib, kishilar orasida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasa, butun jamiyat mafkuraviy tahdidlar qurboniga aylanib qolishi mumkin.

Jahondagi mavjud murakkab vaziyat tufayli hozirgi davrning mafkuraviy tahdidlari tuzilishi yanada kengayib ulgurdi. “Zamonaviy mafkuraviy tahdid” omili hozirgi vaqtda: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy sohalarni, ya’ni insoniyat jamiyati hamda hayotining barcha sohaslarini qamrab olishi, yer shari uchun ham global tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, inson ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsatishni o‘zining asosiy quroli qilib olgan mafkuraviy tahdidlar, avvalo, inson ongi, tafakkuri va xulq-atvoriga havf-xatar solishdan tashqari ruhiyatida ham yetarlicha muammolarni yuzaga keltirib chiqarmoqda.

Mafkuraviy tahdid muayyan jamiyat a'zolarini yagona maqsad va muddaolardan adashtirib, milliy mentalitetga mos kelmaydigan yot g'oyalar, fikrlar, qarashlar, va g'arazli maqsadlarni chetdan turib eksport qilish jarayonida o'zini yanada yaqqolroq namoyon qiladi. Uning o'ta xavfli jihati shundan iboratki, birinchi navbatda, jamiyatning "ma'naviy soha" sini barbod qilishga qaratiladi. Chunki, aynan ma'naviy soha har qanday jamiyatning o'tmishi, mavjudligini, yashovchanligini ta'minlaydigan asosiy ildizi hisoblanadi.

Tasavvur qiling, bugun biz ma'naviyat deb ataydigan insoniy fazilatlar o'zining qonuniyatlarini o'zgartirmoqda. Eng qizig'i uning o'zgartirilishiga o'zimiz ham xayrixoh bo'layotganga o'xshab qolyapmiz. Men yaqinda o'tgan asrning 40-yillarining oxirida suratga olingan filmdan bir lavhani ko'rdim. Unda bir dasturxon atrofida o'tirgan millatimiz vakillari, asosiy qismi qizlar bo'lgan davrada hamma pivo ichib o'tiribdi. Hattoki, qiz pivoni bittasini qo'lga olib ikkinchisini "oling dada" deb otasiga uzatayapti. Bu lavha bizning diyorimizda xuddi odatdagi hayotiy voqealar singari aks ettirilgan. Aslida bu millatning o'zligidan ayirish bilan bog'liq mafkura edi.

Bu holni o'sha davrning majburiy singdirilgan mafkurasini deb qabul qilish mumkin. Ammo bugungi ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zbek auditoriyasiga berilayotgan manzarani nima deb atash mumkinligini ham bilmaysan kishi. Birgina "Tik-Tok" tarmog'i bugun deyarli aksariyat foydalanuvchilarning sevimli tarmog'iga aylanib bo'ldi. Unda berilayotgan lavhalar (*eng qizig'i o'zbek ijrochilari tomonidan o'zbek tilida ijro etiladigan*) tarmoq istemolchilarining hammasini o'ziga rom etib bo'ldi. Afsuski hech kim bir-biriga "hoy to'xta, buni ko'rma deb aytmayapti". Aksincha "buni ko'rma", "bu noto'g'ri", "biz bunday emasmiz" demoqchi bo'lganlarni "jonga tegdi ma'naviyatchilar" deb iddao qilishyapti. Xuddi shu asnod, bizga yot bo'lgan mafkuralar, turli usullarda yopirilib kirib kelmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Darhaqiqat, bugun mafkuraviy tahdidlarning turli xil usul va vositalari ishlab chiqilmoqda. Kishi xayoliga kelmaydigan oddiy bolalar o'yinchog'idan tortib, ustimizdagi kiyimlar, oziq-ovqat mahsulotlari, qo'shiqlar, kliplar, mutfilm, kinofilm va ijtimoiy tarmoqda "trend", "mem", "shallenge" lavhalarining har birida muayyan tarzda katta yoki kichik bo'lsa-da, millat o'zligi va ma'naviyatiga ta'sir etuvchi g'oya va mafkura bilan ishlov berilgan bo'ladi. Buning havfli tomoni shundaki, mafkuraviy tahdid targ'ibotchilari o'z maqsadlari yo'lida sarflaydigan katta miqdordagi mablag'lar – rivojlanish bosqichiga kirgan davlatning jamiyat a'zolariga qaratiladi va ularni yo'ldan adashtirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan

olib borilayotgan mafkuraviy kurashlar ba'zi millatlarning tarixiy ildizi va milliy o'zligini yo'qotishga qaratilganini sezish qiyin emas. Bunda e'tibor hududlarni egallash emas, inson ongini egallashga yo'naltirilgan. Bu davrda shaxsning "o'ziga xoslik inqirozi" kabi ijtimoiy-psixologik muammo dolzarb muammolardan biriga aylanadi.

Bu shaxsning jamiyat a'zolaridan ajralib turishiga nisbatan amalga oshiradigan xatti-harakatlari bo'lib, misol tariqasida inson o'zining alloh tomonidan unga ato etilgan tanasi va hatto uning jinsiga nisbatan ham o'zgarish kiritish orqali qalb hotirjamligiga erishish mumkinligi singari g'oyalar ishlab chiqilib, turli xil mexanizmlar orqali uzluksiz ravishda yer yuzi aholisiga singdirilmoqda. Bir qaraganda uncha xavf tug'dirmaydiganga o'xshaydigan bu illatlar asrlar davomida shakllanib kelgan oilaga nisbatan qarashlarning keskin o'zgarishida ham ko'rish mumkin. Masalan, statistik ma'lumotlarga ko'ra 2023-yilning 10 oyi davomida mamlakatimizda ajralishlar soni 41583 tani tashkil etib, so'nggi 5-yilda sezilarli ko'paygani kuzatildi. Jumladan, 2018-yilda 32,3 mingta oilaviy ajrimlar qayd etilgan. E'tibor berilsa, keyingi 5-yilda ajrimlar soni 10 mingtaga ko'payganini ko'rish mumkin. Bu aynan tashqaridan kirib kelayotgan mafkuraviy ta'sirning alomatlari ekanini ko'rish, anglash qiyin emas.

Bugun ijtimoiy hayotimizda boshqalardan ajralib turish uchun harakat qilayotgan yoshlarimiz o'zining dunyosiga quloq solsa, ikkinchi tomondan, ular ijtimoiy tarmoqlar belgilab bergan ijtimoiy rollarni bajaruvchi qo'g'irchoqqa aylanib bormoqda. Kundalik hayotimizda bola uyda o'smir, o'g'il, katta aka va maktabda u berilgan vazifalarni sidqidildan bajarishi kerak bo'lgan o'quvchi. Va aynan shu vaqtda o'smir haqiqatan ham – "Men kimman?" – degan savolga ishonchli javob topishni xohlaydi. O'smirlik – bu inson uchun o'zini namoyon qilish juda muhim bo'lgan yosh hisoblanadi. Hozirgi sharoitda, aksariyat hollarda bu imkoniyat ijtimoiy tarmoqlar tomonidan "o'ziga xos" tarzda taqdim etilmoqda. Bunga qo'shimcha ravishda, bu yerda inson o'zi uchun "ideal" – qanday bo'lishni xohlayotgani haqidagi tasavvurni yaratish nisbatan oson. Bu tasvirni atrofdagilarga virtual muhitda taqdim etish real hayotdan ko'ra ancha osonroq.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy tarmoqlardagi profillar yoshlar tasavvurida "ideal o'zlik" sifatida qabul qilishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Eng yomoni ular insonni faqat iste'molchiga aylantirib qo'yishi har qanday davlat va jamiyatning voyaga yetib kelayotgan avlodlarini virtual jihatdan qaram qilib tarbiya qilayotganini tushunib yetmaydi. Chunki, bugunning aksariyat yoshlaridan tortib keksalarigacha ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilgan axborotlarni to'g'ridan-to'g'ri is'temol qiluvchiga aylanib uni rost yoki yolg'on ekanligi to'g'risida fikr ham yuritmay qo'yishi inson ongini ortiqcha

ishlamasligiga olib keladi. Uning miya faoliyatiga asta-sekinlik bilan-yillar davomida ta'sir etish orqali, ongi va tafakkuri qaramlikka yuz tutadi.

Jamiyat a'zolari orasidagi baxt va saodat kabi tushunchalar o'rnini shaxsiy manfaatlar jamoanikidan ustunligi va moddiy farovonlikni ma'naviy farovonlikdan ustun turishi to'g'risidagi qarashlarning inson tafakkurida ildiz otayotganini anglash uchun atrofga yaxshilab nazar solish kifoya. Yashashdan maqsad esa, hayotdan eng yuqori darajada lazzatlanishdan iborat bo'lib qoldi. Ruhiiy-ma'naviy qadriyatlar, insoniylik, mehr-muruvvat, ezgulik, savob, beg'araz yordam ko'rsatish kabi oliy tushunchalar asta-sekinlik bilan hayotga bir bora kelish va lazzat olish hissiga o'z o'rnini bo'shatib beryapti. Insonlar o'rtasidagi munosabatlar faqat foyda va zarar qonuni asosiga qurilmoqda. Ko'ngilxushliklarning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan turlari mavjud bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar orqali lahza sari ma'lumotlar joylanadi. Bu esa nafaqat qaysidir millat balki, insoniyatni yo'ldan ozdirishi mumkin bo'lgan mafkuraviy va ma'naviy tahdidga aylandi. Bu tahdidning ko'lami shunchalik kattaki, u o'z domiga millatlarni, hattoki davlatlarni tortib ketishi hech gap emas. Bundan ogoh bo'lish, ta'bir joiz bo'lsa unga qarshi kurashish lozim.

Bugun mafkuraviy tahdidlarga e'tiborsizlik millatning, yurtning kelajagiga e'tiborsizlik hisoblanadi. Jamiyatimizda mafkuraviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Binobarin davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi.

Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti!

Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim".

O'zbekiston ham zamon bilan hamnafas holda taraqqiyotning yuksak cho'qqilari sari oldinga intilmoqda. Ana shunday murakkab tahlikali davrda ham bizning yurtimizda ma'naviy rivojlanishning o'ziga xos paradigmalari shakllandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqimiz ayniqsa, yoshlarimizni siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ruhiy, diniy, axloqiy jihatdan yetuk barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan tashqari yoshlarda tahlil etish va voqea hodisalarga to'g'ri munosabat bildira oladigan, ularni turli tahdidlardan

himoya qiladigan o‘ziga xos strategik dasturlar yaratildi va ular bugun amaliyotda o‘z natijalarini bermoqda.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar «inson» hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini o‘zgartirish uchun amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan islohotlar zamirida bitta tamoyil «Inson qadri uchun» g‘oyasi yotadi. Ushbu tamoyilning hayotiy haqiqatga aylanayotgani bugun yangi O‘zbekistonda yashayotgan xalqimizning ertangi kunga bo‘lgan ishonchi, hayotdan rozi bo‘lib yashashlari uchun qilinayotgan harakatda ham o‘z ifodasini topayotgani hech kimga sir emas.

Albatta, ushbu olib borilayotgan ishlarni to‘laqonli amalga oshirish, uni O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarga birdek yetkazib berish mushkul vazifa. Ammo bizning ma‘naviy-ma‘rifiy siyosatimizda imkoni yo‘q, deb qarab turish tan olinmaydi. Bu esa, olib borilayotgan islohotlarni O‘zbekistonning markazidan tortib uning chekka hududlariga ham yetib borishi, natija berishi siz-u bizning birdek daxldor ekanligimizni anglatadi. Binobarin, ushbu jarayonlarda fuqarolar o‘zining daxldor ekanligini his qilib harakat qilishi yoki qilmasligi islohotlarning natijasini belgilab beradi.

Bunda yana bir xususiyat, demokratik huquqiy, adolatli jamiyat barpo etayotgan davlatda yoshlarning jamiyatda tutgan pozitsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Eng asosiysi, jamiyat a‘zolari manfaatini birinchi o‘ringa chiqarish hamda shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘ymaslik orqali erishish mumkin. Binobarin, biz hozir shunday yo‘ldamiz. Ana shunday ishlarimizning dasturilamali bo‘lgan Yangi O‘zbekiston davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “xalqimizni yorug‘ kelajakka chorlab va yangilanishga safarbar qilib, umumiy maqsadlar yo‘lida birlashtirib turadigan yaxlit ma‘naviy asos va mezonga aylanib bormoqda”.

NAVOIY “HAYRAT UL-ABROR”IDAGI HAMDLARDA EZGU G‘OYALAR TALQINI

Ziyoda G‘AFFOROVA,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya *Ma‘ruzada buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibiga kirgan birinchisi doston bo‘lmish “Hayrat ul-abror”dagi hamdlar tahlil etiladi. Hamdlarning asar g‘oyaviy-badiiy mohiyatidagi ahamiyati, dostonidagi*

o‘rni, hamd boblar kompozitsiyasi va bu boradagi shoir mahorati yoritiladi.

Kalit so‘zlar *Alloh, Muhammad (s. a. v.), Navoiy, “Xamsa”, doston, bob, hamd, na‘t, munojot, shifoat.*

1. Alisher Navoiy asarlari – milliy ma’naviyatimiz, qolaversa, umumbashariy tamaddunning eng mo‘tabar durdonalari yanglig‘ g‘oyat aziz va qadrli. Bu badiiy yodgorliklardagi purma‘no g‘oyalar va insonni ma‘nan boy etishga qaratilgan jihatlarning targ‘ibi borasida qilingan ishlardan ko‘ra amalga oshirilmagan ishlar – ko‘proq.

2. Sho‘ro zamonida Navoiy ijodidagi hamdlarni o‘rganish amalda taqiqlangan mavzulardan biri hisoblanar edi. Shuning uchun uning “Asarlar” I 15 jildligi tarkibidagi hamd va na‘t g‘azallar, dostonlarning hamd va na‘t boblari qisqartirilgan. Istiqlol davrida Navoiy ijodining ahamiyati yanada ortdi. Uning dunyoqarashi, har bir fikri, nuqtayi nazari, hayot va taraqqiyot, olam va odam, dunyo va oxirat haqidagi tasavvurlari – bugungi kunda yanada qadrli.

3. Navoiy o‘zbek tilida eng ko‘p hamd bitgan shoir. Uning hamdlari an‘ana talabi uchiningina yaratilmagan. Shoir dunyoqarashida Allohga munosabat asosiy o‘rin tutadi. Badiiy adabiyotda bevosita Alloh taoloning ta‘rifu tavsif etilishi “hamd” deyiladi. Hamdlarning aksariyatida shoir Alloh taolo kulli mavjudotning yaratuvchisi ekenini badiiy til bilan ta‘riflaydi.

4. Hamdlar, shartli ravishda, ikki turga, ya‘ni tavhid hamd va munojot hamdga bo‘linadi. Agar asosiy maqsad Alloh taoloning sifatlarini ta‘riflashdan iborat bo‘lsa, bunday asar yoki uning bir parchasi “*tavhid*” deyiladi. “*Munojot*” esa yalinish, yolvorish ma‘nolarini anglatadi. Munojotda muallif to‘g‘ridan-to‘g‘ri Alloh taologa murojaat etib, unga iltijolar qiladi. Undan bilib-bilmay qilgan gunohlarini kechirishini, qiyomat kunida payg‘ambarimiz Muhammad (s. a. v.) shifoatidan umidvorlik qiladi va hokazo.

5. Musulmon Sharqi dostonchiligida barcha asarlar Allohning madhi bilan boshlangan. Navoiy ham “Hayrat ul-abror”da shu an‘anaga amal qilgan holda asarni Alloh hamdi bilan boshlab, bu mavzuga bir necha maxsus boblar bag‘ishlagan.

6. Doston umumiy kirish bo‘lmish “Basmala”, ya‘ni “Bismillohir rahmonir rahim” ifodasining harfma-harf talqini boshlanadi. Keyin shoir qat‘iy simmetriyaga amal qiladi. Ya‘ni beshta hamd va beshta na‘t bob bitadi. Hamdlarning birinchisi, ya‘ni dostonning 2-bobi tavhid hamd. Unda Alloh taolo har taraflama ta‘rifu tavsif etiladi. 3 – 6-boblar esa – munojot. Ularda shoir lirik qahramoni Yaratganga tavalloyu iltijolarini aks ettiradi.

7. “Hayrat ul-abror”ning birinchi bobida “Bismillohir rahmonir rahim”(“Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman”)ning ta‘rifi

keltirilgan. U shunday boshlanadi:

*Bismillohir rahmonir rahim,
Rishtag‘a chekdi necha durri yatim.*

*Har dur anga javhari jondin fuzun
Qiyamat aro ikki jahondin fuzun [1,7].*

Bu parchani taniqli navoiyshunos, professor Muslihiddin Muhiddinov mana bunday tahlil etadi: “Ana shunday durlar tizilgan marjonning ipi esa “jahonu jon” rishtasidir. Agar bularni biz marjonning xususiyati deb qabul qilsak, uning fazilati boshqa holatda namoyon bo‘ladi. Kimki shu marjonni tasbih etib, ko‘ngil bilan Haq yo‘liga ishtig‘ol (harakat) qilsa, ganji baqoni (abadiylik xazinasini) qo‘lga kiritadi” [4,405].

Bob davomida “Bismillohir rahmonir rahim”ning har bir harfiga alohida-alohida sharh berilgan.

*Istabon, ey xasta Navoiy, navo,
Bo‘yla safarg‘a qilur ersang havo,*

*Yo‘l yomonu yaxshisidin yema g‘am,
“Bismilloh”, – degil-u, qo‘yg‘il qadam [1,10], –
deb tugatadi shoir bobni.*

8. Dostonning ikkinchi bobi Xoliq hamdiga bag‘ishlanib, u butun olamlardagi har bir zarra Allohga hamd aytishi e’tirofi bilan boshlangan:

*Hamd angakim vojibi bizzot erur,
Homid aning zotig‘a zarrot erur [1,10].*

Shoir Alloh sifatlarini bayon etar ekan, har birining isboti uchun badiiy-mantiqiy dalil-isbotlar ham keltiradi:

*Lutfi bila borchag‘a mavjudluq,
Qahridin-o‘q bo‘lg‘usi nobudluq [1,13].*

Dostonning 4-bobi – ikkinchi munojotdan iborat. Unda shoir Allohdan unga imon hamroh etishini so‘ragan:

*Ul nafas imon manga hamroh qil,
Ko‘nglum aro mahvi sivalloh qil [1,19].*

9. “Navoiy asarlari lug‘ati”da “*shafolat*” so‘zi “*o‘rtada turib vosita bo‘lish*” [2,693] degan ma‘noni anglatadi. Asarning 5-bobi bo‘lib kelgan uchinchi munojotda shoir Allohdan payg‘ambar (s. a. v.) shafolatidan nasib aylashini iltijo qiladi va o‘zini osiy banda yanglig‘ uning ko‘ziga uchratishini munojot qiladi:

*Istasa ul qavm xalosini ham,
Ko‘ziga uchrat meni osiyni ham* [1,23].

10. “*Munojot*” so‘ziga “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da “*y a l i n i sh*”, “*y o l v o r i sh*” [3,354] deb ta‘rif berilgan.

Munojotda lirik qahramon Allohdan najot so‘rab, yolvoradi, iltijolar aylaydi, undan bilib-bilmay qilgan gunohlaridan kechishni, qiyomat kunida mag‘firat etilishini, jannat nasib aylashini so‘raydi. Shu tariqa munojotda shoir o‘z dardini ko‘proq ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Dostondagi oxirgi, ya‘ni to‘rtinchi munojotda Allohning bandalari jurm bilan noma qaro bo‘lsalar, ularni nomalarini oqqa aylaytirish u Zot uchun oson ishligi aytiladi:

*Jumla jahon ahli xato qilsalar,
Jurm bilan noma qaro qilsalar,*

*Nomani oq aylamak oson sanga,
Kim yo‘q o‘shul amrda nuqson sanga* [1,24].

Bu munojotda shoir o‘z gunohlari ko‘pligini mana bunday qalamga olgan:

*Garchi gunahning hadu poyoni yo‘q,
Aylamasang rahm ham, imkoni yo‘q* [1,26].

So‘nggi munojot yakunida shoir muddaosi bayoni ifodalangan. Lirik qahramonga hur va jannat havasi emas, u uchun Allohning o‘zi bo‘lsa, bas:

*Bo‘lsa navo birla bori muhtaram,
Aylama mahrum Navoiyni ham.*

*Ermas anga hur ila jannat havas,
Sen anga bo‘lg‘ilki, anga ushbu bas* [1,26].

11. Navoiy “Hayrat ul-abror” boshida o‘zigacha bo‘lgan davr she’riyati an’analariga muvofiq ravishda hamd va na’t bitgan. Asarning oxiridan oldingi 62-bobida doston tuzish an’anasiga zid ravishda yana munojot bitadi. Bu shoirning o‘ziga xos tajdidi, ya’ni novatorligi hisoblanadi. Bobda lirik qahramon, jumladan, dostonda kalomining cho‘zilganidan ham kechirim so‘ragan bo‘ladi:

*Yorab, agar bo‘ldi kalomim uzun,
Mundin ham jurm qilibmen fuzun [1,311].*

Bob yakunidagi mana bu baytlarda shoir lirik qahramoni Allohning rahm qilishi karam ko‘rsatishiga umidvorlik qiladi:

*Har nechakim, jurmum erur pech-pech,
Lekin erur rahmating olinda hech.*

*Kamlilik ila necha manga bo‘lsa bim,
Sen karam aylakim, erursen karim [1,312].*

Demak, doston “*Basmala*” ya’ni “*Bismillohir rahmonir rahim*” ifodasining batafsil, ya’ni harfma-harf tahliliga bag‘ishlangan bob bilan boshlanib, munojot bob va unga ilova qilingan hikoyat bob juftligi bilan yakun topadi.

12. “Hayrat ul-abror” hamdlarining tahlili Navoiy bu borada o‘ziga xos yo‘l tutgani, hamdlar asar g‘oyaviy-badiiy mazmun-mohiyati bilan chambarchas bog‘liqligi, “Xamsa”dagi har bir doston hamdlarning o‘rni va ahamiyati bo‘yicha alohida-alohida tadqiq etilishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 7. – Тошкент: Фан, 1991.
2. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. Ж. 2. – Тошкент: Фан, 1983.
4. Мухиддинов М. Кўнгил ҳайратлари. – Тошкент: Tamaddun, 2021.

YOSHLARDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIY TARG‘IBOTNING AHAMIYATI

Elmuratova Umida Farxadovna

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti,

Jabborova Setora Nuriddin qizi

*Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat
instituti MTF 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik-yillarida alohida e‘tibor qaratilgan va intensiv islohotlar olib borilayotgan yoshlar siyosatiga e‘tibor qaratiladi. O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mehanizmi hamda huquqiy targ‘ibotning o‘ziga xosliklari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, zamonaviy shart-sharoitlar, ma‘naviy yuksalish, yangi tartibot, ishsizlikka qarshi kurash, uchrashuvlar, modernizatsiyalash.

Mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir vaqtda yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish, ularni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash jamiyat oldidagi muhim masalalardan biridir. Huquqiy demokratik davlat qurish va jamiyat taraqqiyotining rivoji o‘sib kelayotgan avlod ta‘lim darajasi xususan, huquqiy savodxonlik darajasiga ham bog‘liqdir. Zamonga mos ta‘lim-tarbiyani tashkil qilish yoshlarda pozitiv fikrlash va tartiblashtirishni yuzaga keltiradi.

Yoshlar masalalariga qaratilgan islohotlar mustaqillikka erishgan davridayoq boshlanganligini, Respublikamizda demografik o‘sish tabiiy ko‘payish hissasiga to‘g‘ri kelishini hisobga olib, Yoshlar bilan ishlashda huquqiy aktlarni ishlab chiqilishi va boshqaruv tuzilmalarining tadbiq qilinib takomillashtirilayotganligini qayd qilish lozim.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan fuqarolarga tegishli davlat siyosatining asosiy negizini belgilab berdi va unga tegishli qonunlarni rivojlantirish hamda tizimga solish uchun asos deb e‘tirof etildi. Bugungi kunda Respublikamizda huquqiy demokratik davlar barpo etish va fuqarolik jamiyatini shaxslantirish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlar o‘z ma‘naviy olamini yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, har tomonlama yetuk

qobiliyatli bo‘lib tarbiyalanish hissini rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi.

Bugun davlatimiz rahbari mening ortimda O‘zbekiston yoshlari turibdi, deya mamlakatimizning o‘tib kelayotgan yosh avlodlariga yuksak ishonch bildirmoqda.

2024-yilda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha yoshlar dasturlari ishlab chiqildi. 2024-yilda hududlarda yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha 8 ta yo‘nalishda ustuvor vazifalar yo‘l xaritasi ishlab chiqildi.

Islohotlar natijasida vazirlik, idora va tashkilot rahbarlariga 144.738 nafar alohida e‘tiborga muhtoj yoshlar biriktirilib, ular har oyda kamida bir marotaba yoshlar bilan uchrashib muammolarini hal qilish orqali hayotda o‘z o‘rnini topishlari va kasb-hunarga o‘qitish natijasida bandligini ta‘minlash choralari tashkil qilib berishlari belgilandi.

Islohotlar ta‘sirida yoshlar bandligi dasturi doirasida jami 412.528 nafar yoshlar, jumladan, 190.529 nafar ishsiz, 221.999 nafar maktab bitiruvchilari bandligini ta‘minlashga, targ‘ibot va tushuntirishlar orqali 696 ming nafar norasmiy sektorda band bo‘lgan yoshlar o‘z o‘zini band qilish orqali rasmiy sektorga o‘tkazish choralari ko‘rilishi, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan va ko‘makka muhtoj bo‘lgan 189.593 nafar yoshlar muammolari yechim berish borasida faoliyat yuritilmoqda.

Shuningdek, yoshlar yetakchisi tavsiyasi asosida beriladigan yordam turlari transformatsiya qilinishi davom ettirilishi belgilab berildi. Bunda asosiy e‘tibor yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish va islohotlarga dahldorlik hissini oshirishga qaratilmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj 272.750 nafar yoshga yoshlar daftari tizimi orqali amaliy yordam ko‘rsatish davom ettirilishi hamda yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni keskin kamaytirish maqsadida jinoyatchilikka moyilligi bor yoshlar ro‘yxati shakllantirildi. Ular bilan manzilli ishlashga qaratilgan harakatlar rejasi tizimli ishlashi yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, bugungi kunda barcha maktablarda Qalqon jamoatchilik guruhlari tashkil etildi va o‘quvchilarning o‘qishga muntazam qatnashishi nazorati tashkil etilmoqda. Bu borada jinoyat sodir etishga moyil yoshlar harbiy vatanparvarlik oromgohlariga jalb etilishi ham tartiblashtirildi.

Qayd etish kerakki, 2024-yil 1-martdan boshlab besh tashabbus olimpiadasi doirasida tanlov va musobaqalarni mahalla va maktablarda tashkil etish ham yo‘lga qo‘yildi. Professional ta‘lim muassasalariga qo‘shimcha ravishda korxonalar va tashkilotlar tizimida o‘tkazish amaliyoti joriy etildi. Bu borada Toshkent to‘qimachilik va yangi sanoat institutida O‘zbekistonda birinchi bo‘lib – “DUAL-TA’LIM”ga – haftaning 3 kunida oliygohda ta‘lim olish, haftaning qolgan 3 kunida esa mutaxassisligi bo‘yicha korxonalar yoki

tashkilotda ishlash yo‘lga qo‘yildi.

O‘znavbatidaiqtidorliyoshlarbilanishlashmexanizmihammodernizatsiya qilinmoqda. Bu jarayonga 4,6 mln nafar yoshlar qamrab olinishi belgilab berilgan. Jumladan, Ibrat farzandlari YOU TUBE platformasi orqali 1,2 mln, Ibrat akademiy mobil ilovasi orqali 1,1 mln, Uzchess loyahasiga 580 ming, volanterlik va liderlik loyihalariga 543 ming, intellektual o‘yinlarga 1,1 mln nafar yoshlar keng jalb qilish ishlari boshlandi. Bularning natijasida hududlarda jami 989 ta yoshlar infratuzilmalari barpo etilmoqda.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish iqtidorlarni ro‘yobga chiqarish uchun qo‘shimcha zarur sharoitlar, jumladan, 280 ta maktab, 247 ta sport maydonchasi, 105 ta yoshlar sayilgohi, 93 ta yoshlar ijod ko‘chasi, 11 ta kreativ park, 80 ta kutubxona, 59 ta book kafe, 34 ta kibersport klubi, 6 ta disko maydon, 1 ta sanoat zonasi, 3 ta yoshlar markazi, 70 ta boshqa turdagi ob‘ektlar barpo etish boshlandi.

Ushbu tizim orqali 2024-yilda jami 15 mlndan ortiq yoshlar qatlamini qamrab olishga urg‘u qaratilmoqda. 2024-yilda orttirilgan tajriba asosida yanvar oyidan mahallalarda yangidan xatlov ishlari amalga oshirdi.

Yangi davr va jamiyatga mos yoshlarning muammo hamda qiziqishidan kelib chiqib ular bilan individual ishlash boshlandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan bunday xayrli tashabbus va islohotlarning tub negizida bir maqsad turibdi, u ham bo‘lsa, Vatanga muhabbatli, sadoqatli, O‘zbekiston farzandi ekanidan faxrlanadigan avlodni tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. “Yoshlargaoiddavlat siyosatito‘g‘risida”giQonun.15.09.2016.(Hujjat26.01.2022 sanasi holatiga) <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022&action=compare>
3. <https://yoshlar.gov.uz>;
4. <https://kun.uz>;
5. <https://www.gazeta.uz>;
6. <https://lex.uz>;
7. <https://strategy.uz>.

MILLIY DAVLAT SUVERENITETINI MUSTAHKAMLASH G'OYASINI UMUMMILLIY HARAKATGA AYLANTIRISH ZARURATI

Hamroyev Sanjar Samiyevich,
*falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
Toshkent kimyo-texnologiya instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida milliy davlat suverenitetini mustahkamlash g'oyasini umummilliy harakatga aylantirish zarurati hamda bunda davlat va jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohadagi faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: milliy davlat suvereniteti, globallashuv, tahdid, umummilliy harakat, g'oya.

Dunyo hamjamiyati bugun misli ko'rilmagan o'zgarishlar qurshovida yashamoqda. Bu o'zgarishlarning tub zamirida globallashuv shiddatining ta'siri benihoya katta bo'lmoqda. Ayniqsa, internet va axborot texnologiyalari rivoji milliy davlatlar suvereniteti xavfsizligi masalasiga oldingidan ham jiddiy yondashuv kerakligini anglatmoqda. Chunki, endi rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiy qilgan mamlakatlarga, ayniqsa, texnik va texnologik «qaram»ligi ularning milliy davlat suverenitetini cheklanishiga olib kelmoqda. Bu e'tirof etilgan xalqaro huquq normalarining buzilishi bo'libgina qolmay, jahon liderligi uchun keskin kurashda xalqlar, millatlar kelajagini savol ostiga qo'ymoqda va dunyoning barqarorligiga putur yetkazmoqda. Bunga qarshi kurash uchun milliy davlatlar oldida o'z suverenitetini mustahkamlash g'oyasini umummilliy harakatga aylantirish zarurati turmog'i kerak.

Ma'lumki, «g'oya deganda, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr, nazarda tutiladi. G'oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiradigan, muayyan bir maqsad sari yetaklaydigan ruhiy, aqliy kuchga aylanadi. Turli diniy aqidalar, falsafiy ta'limotlar, ilmiy qarashlar, badiiy asarlarning negizida muayyan g'oyalar yotadi. Ijtimoiy-siyosiy harakatlarning maqsadlari ham g'oyalarda aks etadi»[2].

O'z kelajagini suveren, tenglar ichida teng holda, farovon ko'rmoqchi bo'lgan davlat borki o'z taraqqiyot yo'lini tarixdan olingan saboqlar asosida, xatolarga qayta qo'l urmaslik orqali qurishga harakat qiladi. Buning uchun millat ta'lim va tarbiyasiga berilgan o'z vaqtidagi e'tibor kelajakda ham samarasini bermasdan qolmaydi, albatta. Chunki millatning ertasi bo'lmish yosh avlod vakillari qay darajada yuksak tafakkur egasi bo'lsa, shu darajada

yuz berishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni oldindan ko‘ra oladi va kerakli choralarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham bugun dunyo tan olgan rivojlangan davlatlar taraqqiyot yo‘liga nazar tashlasak, buning zamirida o‘z vaqtida ko‘rsatilgan ta‘lim-tarbiyaga e‘tibor yotganligini guvohi bo‘lamiz. Qolaversa, tarixda sodir bo‘lgan aksar siyosiy inqiloblarning harakatlantiruvchi kuchi yosh avlod vakillari, talabalar bo‘lganligi e‘tiborlidir. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, 1925-yil bahorida Shanxay shahridagi talabalarning namoyishini ingliz politsiyasi o‘qqa tutgani, keyinchalik Xitoyda xorijiy bosqinchi davlatlarga qarshi kuchli harakat boshlanishiga turtki bo‘lib, Xitoy suverenitetini tiklash jadallashgan edi[1]. O‘zbekiston tarixida ham jadidlar faoliyatining tashkilotchilari aksar yoshlar bo‘lganligini ular tuzgan «Yosh Buxoroliklar», «Yosh Xivaliklar» kabi harakatlar nomidan bilishimiz mumkin va bu keyinchalik inqilobiy vaziyatni yuzaga keltirgan edi. Shuning uchun ham dunyo siyosatida «gegemon» bo‘lish istagidagi davlatlar, avvalo, mana shu ijtimoiy qatlamni turli usullar bilan o‘z g‘oyalariga ergashtirishga harakat qilishlari bejiz emas. Bir paytning o‘zida yoshlar qatlami milliy davlat suverenitetini mustahkamlashning ham faol ishtirokchilari yoki buning aksi sifatida tanazzulning sababchilari ham bo‘lishi mumkinligini zinhor yoddan chiqarmaslik lozim. Bir vaqtlar Jadid mutafakkirlarimiz ham ana shunday tajribani o‘z boshidan kechirganligi katta ibrat maktabi bo‘lishi darkor.

Milliy davlatlar muvaffaqiyati, avvalo, ulardagi tinchlik, barqaror hayot, milliy qadriyatlarga egalik tuyg‘usi bilan o‘lchanadi. Ana shunday barqarorlikni saqlashda jamiyatdagi insonlarning davlat hokimiyatiga nisbatan ishonchi juda muhim rol o‘ynaydi. Agar bu ishonchga darz ketsa mamlakat ichki ziddiyatlar girdobiga qolib, suvereniteti ham xavf ostiga qolishi mumkin. Shuning uchun ham milliy davlat suverenitetini mustahkamlash g‘oyasini umummilliy harakatga aylantirish uchun xalqparvar hokimiyat shakllanishi darkor. Umummilliy harakat deganda, millati, tili, dini, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa ajralib turadigan xususiyatlaridan qat’iy nazar muayyan makonni o‘z Ona Vatani deb hisoblovchi fuqarolar jamoasining ijtimoiy-siyosiy faolligi nazarda tutiladi. Albatta ushbu umummilliy harakatni teran, puxta ishlab chiqilgan, barchani o‘ziga jalb qila oladigan va safarbar etadigan g‘oyagina tashkillashtira oladi. Buning uchun quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratish lozim:

Birinchidan, millatni asrash masalasini davlat siyosatida har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylantirmoq darkor. Zero, bugun ba’zi Yevropa xalqlarini tashvishga solayotgan masala ham shu. Chunki tug‘ilish ko‘rsatkichining pastligi, aholi orasida qariyalarning ulushi ko‘pligi, «ommaviy madaniyat»ga asoslangan turmush tarzi, migrantlar oqimi kabi omillar Yevropa kelajagini so‘roq ostida qoldirmoqda. Shunday ekan milliy davlatlar o‘z siyosatida

millat genofondini, milliy ma'naviyatini saqlab qolish choralarini inobatga olishi talab etilmoqda. Lekin davlatning millatni asrash borasidagi siyosati «shovinizm» sifatida baholanmasligi zarur;

Ikkinchidan, o'z-o'zini anglashdan milliy o'zlikni anglash tomon harakat qilish;

Uchinchidan, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi konsepsiyasini milliy va jahon standartlari asosida qayta ko'rib chiqish;

To'rtinchidan, milliy davlat suverenitetini mustahkamlash g'oyasini umummilliy harakatga aylantirishda din omilining ham o'rni borligini yodda tutmog'ligimiz zarur. Tarixdan ma'lumki, qaysi hukmdor markazlashgan davlat tuzgan bo'lsa, yoki o'z hokimiyatini mustahkamlagan bo'lsa, avvalo, uning tag zamirida diniy mafkura yotganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, imperator Konstantin Rim imperiyasida xristian mafkurasi yordamida hokimiyatni jilovlagani, Usmoniylar imperiyasining islom mafkurasiga tayanganligi, Xitoyda konfutsiy ta'limotining imperator xonadoni tayanchi bo'lganligiga o'tmish guvoh. Shuning uchun din insoniyatni birlashtirib turuvchi, qolaversa ularni junbushga keltiruvchi juda «nozik» ijtimoiy ong shakli bo'lganligi sababli ham u bilan har qaysi davlat hisoblashishga majbur. Buning uchun davlatlar o'z hududlarida istiqomat qiluvchi turli din vakillariga tegishli sharoitlarni yaratib berishi, ularni kamsitishga yo'l qo'ymasligi o'ta muhim vazifalardandir. Natijada din yordamida milliy davlat suverenitetini ham saqlab qolish imkoniyati yuzaga keladi. Ayniqsa hozirgi diniy ekstremizm va fundamentalizm g'oyalarining milliy davlatlar suverenitetiga tahdidlari saqlanib qolayotgan bir davrda «g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat» tamoyili asosida harakat qilishlik muhim ahamiyat kasb etmoqda;

Beshinchidan, globallasuv sharoitida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari jamoatchilik fikrini shakllantirayotgan kuchli axborot manbaiga aylandi. Ushbu media makon omilidan milliy davlat suverenitetini mustahkamlashda unumli foydalanish zarurdir. Shuning uchun ham davlat jamiyat birligiga xizmat qiladigan g'oyalarni ommalashtirishga bosh qosh bo'lishi zarur. Bunda yuqoridagi vositalar yordam beradi. Albatta, bunda axborotning sifatiga, ishonchliligi va yetkazilish tezligiga katta ahamiyat berish kerak bo'ladi. Shunda jamiyat turli yolg'on-yashiq, millat birligiga rahna soluvchi axborotlarni ajrata oladi.

Oltinchidan, milliy davlat suverenitetini mustahkamlash konsepsiyasini ishlab chiqish. Bu ushbu masalaga tizimli yondashuvni tashkil qilishi barobarida globallasuvning barcha tahdidlariga munosib javob qaytarish va xavf-xatarlarni bartaraf etish usullarini o'zida ifoda etishi kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: «Bugungi kunda yoshlarni asosan, chet el andozalari, g'oyasizlik tamoyillari va ijtimoiy

fanlar tizimi qariyb yo‘qotilgan ta’lim ta’sirida shakllantirish tarafdorlarining ko‘pchiligi yaqin kelajakda ushbu avlodning asl qiyofasi, davlat va jamiyatga munosabati qanday bo‘lishi haqida yaxlit tasavvurga ega emaslar, deb o‘ylayman. Biz hali-hamon g‘oyasizlikka asoslangan ta’lim va gumanitar fanlar tizimi ta’siridan «xalos» bo‘lgan kelajak avlodi bilan yashaganimiz va ishlaganimiz yo‘q, ya’ni u bilan bevosita yuzma-yuz kelganimiz, muloqotga kirishganimiz yo‘q»[3]. Chindan ham g‘oyasizlik hayotda hech qanday maqsadsiz yashash, shunchaki kelib-ketish demakdir. G‘oyasiz inson bamisoli bo‘m-bo‘sh quti kabidir. Uni faqat chang va g‘uborgina to‘ldiradi, xolos. Shunday ekan g‘oyasizlikka yo‘g‘rilgan ta’lim ham juda xavfli hisoblanadi. Uning «chang va g‘ubor»larini ketkazish uchun qancha avlod yo‘qotiladi, buni hech kim aytolmaydi. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek biz hali g‘oyasizlik ta’limini olgan avlod bilan uchrashmadik, shuning uchun ham amaliyotda hali o‘z tasdig‘ini topmagan tizim asosida milliy ta’limni yo‘lga qo‘yish juda katta tavakkalchilikdir. Chunki buning ortida oz emas, ko‘p emas 36 milliondan ziyod turli millat vakillarining hayoti va suvereniteti turganligini esdan chiqarmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lafasov M. Jahon tarixi. T.: TURON-IQBOL, 2008. – B.98.
2. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2013. – B.418.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B.233.

JAMIYATDA “UCHINCHI RENESSANS”NI BARPO QILISHDA MILLIY UYG‘OQLIKNING DOLZARBLIGI

Elmuratova Umida Farxadovna

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti,

Qadamboyev Temur

*Toshkent to‘qimachilik va yengil
sanoat instituti MTF 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarni “Uchinchi Renessans yaratuvchilari sifatida tarbiyalashda Turkiston jadidlari misolida analitik tahlil havola qilingan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning amalga oshirgan islohotlariga tayanib, yoshlar

ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi jihatlar havola qilingan.

Kalit so'zlar: renessans, ma'naviy barkamollik, savodxonlik, ta'lim islohotlari, millat, milliy uyg'oqlik,

Insoniyat tarixida global masshtabdagi jamiyatlar tartiblashishi va rivojlanishiga ta'sir etgan "Renessans"¹ davrlari sanoqlidir. Bu borada asrlar davomida ilm vakillari ko'plab tahlillar va ilmiy munozaralar havola qilganlar [1].

Zamonaviy O'zbekiston sarhadlari qadimgi sivilizatsiya o'choqlari bo'lishi bilan birgalikda Ilk Renessans – dunyoviy ilm-fan va madaniyatning yirik markazlaridan biri sifatida e'tirofga sazovor bo'lgan. Bir tomondan, xalqning ilm va madaniyatni egallashi oliy qadriyat darajasiga ko'tarilganligi orqali jamiyatdagi ma'naviy muhit tartiblashganligi, ikkinchi tomondan, xalqning moddiy ehtiyojlarini munosib qondirishda Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan qadimiy shaharlarimizdagi Sharq va G'arbni bo'g'lovchi savdo-sotiq maskan (bozor)lari, karvonsaroy (mehmonxona)lar, sarroflik cheki xizmatlari (pul ayirboshlash, zamonaviy bank xizmati), sardobalar (beminnat suv ta'minoti) va boshqalar o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazgan. Xalqparvar va adolatli rahbarlar tomonidan amalga oshirilgan bunday izchil islohotlar o'z davrining mukammal savdo logistikasini yaratilganligini ham ko'rsatadi (Somoniyalar, Qoraxoniylar, Amir Temur va Temuriylar davri).

Renessans davri jamiyatiga xos faktorlarni 2 ta yirik guruhga ajratish o'rinlidir: 1) inson ma'naviy barkamolligini ta'minlashga qaratilgan omillar (hulq-odob stereotiplarining aniq me'yorga ko'ra shakllanishi, savodxonlikni oshirishga qaratilgan ommaviy tafakkurning shakllanishi, ilmni va ilmlilarning jamiyatdagi darajasi ulug'ligiga bo'lgan e'tibor hamda ilm olish harakatida turli qiyinchiliklarni yengib o'tish immunitetining shakllantirilganligi, ilm shaxsiy manfaatlar uchun emas, avvalo xalq manfaatlariga yo'naltirilganligi va h.k.);

2) inson moddiy ta'minotini tartibli amalga oshirishga qaratilgan omillar yetakchilik qilganligini qayd etish mumkin. Buning natijasida jamiyatda

¹ "Renessans" fransuzcha "qayta tug'ilish" degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o'rta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans nomi bilan atalgan mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan. Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mes o'zining "Musulmon Renessansi" nomli fundamental asarida Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to'g'risidagi ilmiy qarashlar va tadqiqotlarini havola qilgan. https://archive.org/stream/renaissanceofisl029336mbp/renaissanceofisl029336mbp_djvu.txt

barchaning teng huquqliligini ta'minlash masalalari, insonlarning o'zaro bir-birini rozi qilishi, ya'ni inson manfaatlari oliy qadriyat maqomini qo'llash imkoniyatlarini ko'ramiz.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, xalqaro hamjamiyat tomonidan 1990-yildan boshlab havola qilinayotgan "Inson kamoloti indeksi" tarkibidagi indikatorlar mazmuni IX – XII hamda XIV asrlarning so'nggi choragi – XV asrlarda yashagan buyuk mutaffakkir ajdodlarimiz asos solgan "Renessans davri" tafakkur maxsullariga mutanosibdir.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni "Uchinchi Renessans" orqali barpo qilish davlat siyosatida dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev *"Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik"*, deya ta'kidlagan edi [2].

Ushbu maqolada tarixiy tahlillarni "Uyg'onish" tushunchasi orqali havola qilish lozim ko'rildi. Jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirishda bizga eng yaqin davr oralig'idagi harakatlar 1 asr muqaddam Turkiston jadidlari tomonidan boshlangan bo'lib, mustamlaka siyosati va mustabid tuzum ta'sirida uni amalga oshirishga yo'l qo'yilmadi. Millatparvar yetakchilar xalq ko'z oldida tahqirlandi va batamom qatag'on qilindi.

"Milliy uyg'oqlik" avvalo xalqqa va jamiyatga qanday ta'sir o'tkazishini anglash ahamiyatlidir. Shu o'rinda, Turkiston jadidlarining yirik namoyondalari – Mahmudxo'ja Behbudiy (Samarqandda) va Munavvarqori Abdurashidxonov (Toshkentda) larning millat va jamiyat ravnaqini ta'minlash yo'lida amalga oshirgan islohotlari bugungi kunimizda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganligini ta'kidlash mumkin.

Jumladan, M.Behbudiyning 1913-yil 30-iyulda "Samarqand" gazetasida nashr qilingan "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" nomli maqolasida millat taraqqiyotini ta'minlovchi unsurlar hamda tanazzulning asl sabablari xalqchil va tahlillarga tayangan holatda havola qilingan edi [3]. Bundan 110 yil avval yozilgan mazkur maqola bugungi kunda ham dolzarblik kasb etishi bilan ahamiyatli sanaladi. Jadid yetakchilarining har bir g'oyasi nafaqat o'z davri muammolarini teran ko'ra bilishlariga, shu bilan birgalikda taraqqiyot istagidagi har qanday jamiyatni isloh qilishga dasturilamal bo'la olishi bilan qimmatlidir.

Xususan, M.Behbudiy quyidagicha munosabat bildiradi: *"Millatlar taraqqiyig'a bir necha sabablar bo'lib, tub sababi – ulamo ila ag'niyoning hamiyat va g'ayratlaridur. Taraqqiy qilg'on va endi taraqqiy qilguvchi millatlar ahvolig'a diqqat qilinsa, mazkur ikki sinf muhtaramni o'z*

millatlarig‘a so‘z va aqcha ila xizmat etganlari favran hozir bo‘lur.”

Demak, jamiyatdagi yetakchi ilm namoyondalari va iqtisodiy sarmoyadorlar millat va jamiyat ravnaqi yo‘lida hamfikir va hamqadam bo‘lishlarini ta’kidlab, millatning axloqi (tarbiyaviy masalalar), ta’limi, ilmiy yutuqlarga yo‘nalganligi hamda zamonaviy tadbirkorlik, hamkorlikka e’tiborni kuchaytirishga chaqirgan. Xalqni befarqlik, boqimandalik va ilmsizlikdan himoyalash borasida bir qator innovatorlik faoliyatini ham namoyon etgan. Masalan, uning “Xaq olinur, berilmas”, “Ikki emas, to‘rt til darkor” nomli maqolalarida xalqni “uyg‘oqlik”ka chorlovchi, millatni ahvolini yomonlashuviga ta’sir etayotgan omillar va uni bartaraf qilishga qaratilgan aniq ishlangan taklif, rejalar, g‘arb jamiyatlari allaqachon rivojlanish yo‘liga o‘tganliklari tahlillarini havola qilgan edi. Ular tomonidan tashkil qilingan yangi uslubdagi maktablar, matbuot, teatr va yoshlarni xorijda o‘qitish tashabbuslari qisqa vaqt ichida samarali natija berganligini millatimiz unutmagan yo‘q.

Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish yo‘lida odimlayotgan Yangi O‘zbekiston sharoitida “sifatli ta’lim – manfaatli ilm – samarali tadbirkorlik” integratsiyasini amalga oshirish ehtiyoji yuqori bo‘lib, uni ta’minlashda Jadid mutafakkirlarimiz tomonidan ilgari surilgan Vatan ravnaqi yo‘lidagi teran fikr va tashabbuslarini jamiyatda keng targ‘ib etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Grant, E.A. “Source Book in Medieval Science”. Cambridge. Harvard University Press. 1974. P.587-590. <https://www.hup.harvard.edu/catalog.php?isbn=9780674823600;> “The Beginning of the European Renaissance”. / IJRD.Vol:5, Issue:7, July 2020. P.104-107. <file:///C:/Users/User/Downloads/II.10.InternationalJournalofResearchandDevelopmentVol7.2020.pdf>
2. Mirziyoyev Sh.M. Uchinchi Renessans nima degani?// <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/17/renaissance/>
3. Behbudiy M. Millatlar qanday taraqqiy etarlar? Tanlangan asarlar to‘plami. T.2. “Akademnashr”. T.: 2015.

ONLAYN MUHIT: MUAMMO VA YECHIMLAR

Munira Kaxarova,

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i*

Bugungi bolalarning kun tartibini internetsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ularning hayotiga ilk yoshidanoq kirib kelmoqda. Bunga ota-onalar o‘zi yo‘l qo‘yib bermoqda. Oilalarda onlayn muhit shakllanib, bolalar bilan ota-ona o‘rtasidagi munosabat va muloqotlar ham vertuallashmoqda.

Ho‘sh, bolamizning qo‘liga telefonni berdik, lekin undan qay maqsadda foydalanishni vaqtida o‘rgata oldikmi? O‘rgatish texnologiyalari ishlab chiqildimi? Shu sababli ular internetning tarmoqlaridan o‘zicha o‘rganib, o‘zlashtirmoqda. Demak, bugungi kunda internet “muallim”lari faollashgan. Bizning tarbiyachi muallimlarimiz internet muallimi bo‘la olmayapti. Bolalar uchun internet platformalari yaratilmadi. Shu o‘rinda, Davlat rahbari raisligida 5 fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda: darslardagi davomatga, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilarga alohida e‘tibor qaratilishi zarurligi va bunda ota-onalar va mahalla raislarining mas‘uliyati oshirilishi ta’kidlandi. “Maktab – ota-ona – mahalla” zanjiri asosida elektron muloqot platformasini ishga tushirilib, bolalarning doimiy onlayn nazorati o‘rnatish vazifa qilib belgilandi. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar har tomonlama g‘oyaviy-mafkuraviy tahlil qilinib, ularning zararli ta’siridan himoyalanih va ijobiy tomonidan foydalanish choralari ko‘rilishi zarurligi topshiriq qilindi. Shuningdek, ota-onalar uchun farzand ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha xalqchil tilda qo‘llanmalar tayyorlanishi maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi.

Mazkur yig‘ilishda – **“Bu tashabbuslar yo‘lga qo‘yilsa, maktab ta’limi bo‘yicha ota-onada mas‘uliyat, o‘qituvchida majburiyat, o‘quvchida ishonch, ta’lim va tarbiyada sifat, mahallada esa nazorat bo‘ladi”**, – dedi Davlat rahbari.

Internet – eng ommaviy, tezkor ma’lumot olish manbai bo‘lib, u realvaqt rejimida cheksiz norasmiy muloqat vositasi hisoblanadi. Shuningdek, u, ko‘ngilochar o‘yinlar, filmlar, musiqa, videoo‘yinlar, reklama va tijorat, intellektual, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish hamda masofaviy ta’lim imkonini beradi.

Demak, bugun bolalar internetda qanday o‘yinlarni o‘ynashayapti? Tahlillarga ko‘ra bizni ko‘zimizga beozor manzara bo‘lib ko‘rinayotgan “Kontr”, “Dota”, “Jeta”, “Kontr strayk”, “Varkraft”, “Boy bez pravil” (Qoidasiz janglar), “BloodRayne2” (Qonli yomg‘ir), “Left4Dead” (O‘limga

mahkum etilgan), “Farcry” (Uzoqdan taralgan chinqiriq) o‘yinlari nafaqat yurtimiz farzandlarini, balki butun dunyo bolalarini o‘ziga rom etmoqda. Natijada, “Bola – bola”, “Ota – o‘g‘il”, “Ona – qiz”, “Jamoat – jamoat” emas, “Bola – kompyuter” o‘yinlari yetakchisiga aylanmoqda. Bunda bola 3-4 soat “shuter” o‘ynaydi. Shuncha vaqt tana a‘zolari harakatsiz o‘tiradi. Asablari taranglashib, ko‘zlari qizarib, ham jismonan ham ruhan zo‘riqib chiqadi. Bir soat o‘zini eng zo‘r kallakesar killerdek tutadi. O‘yin ichida ochiqchasiga odam o‘ldirmoqda. O‘yin yakunida u g‘olib yo mag‘lub bo‘ladi. Ko‘zlari, qulog‘i va ongi shu bilan qotib bormoqda. Agarda u odam o‘ldirolmasa diqqinapas bo‘ladi. Natijada, bolalar kompyuter o‘yinlaridagi kabi odamlar hayotini tuganmasdek his qila boshlaydi. Har qanday ziddiyatli holatlarni faqat kuch bilan hal etish mumkin deb qaraydi. Shuningdek, o‘yin qahramonlari kabi hech qanday havfdan qo‘rqmaslikni, hayotda hamma narsaga onsonlik va kuch bilan erishish mumkinligi, odamlarga beshavqat munosabatda bo‘lish kerakligi o‘rganadi.

Mazkur xolatlarda ota-ona nima qilishi kerak?

Birinchiidan, bolangiz bilan internetda nimalar qilayotgani to‘g‘risida gaplashing. U biror foydali ish yoki asosan yangiliklar, chat va yozishma, jarayon bilan mashg‘ulmi? U siz va o‘rtoqlaridan ko‘ra internetni afzal ko‘rmayaptimi? Bir kunda necha soatini internetga bag‘ishlayapti? Boshqa yumush, vazifalarini tashlab qo‘ymadimi? Bularni yaxshiroq o‘rganishingiz zarur.

Ikkinchiidan, internet orqali bolangizni kuzating. Horiganmi, zardalilik, bezovtalik, gaplashgisi kelmaydigan kayfiyatdami? Boshi, yelkasi og‘rimayaptimi? Uyqusi buzilmayaptimi, jismoniy harakatsizlik, ishtahasizlik ko‘rinmaydimi? Maktab psixologi, murabbiysi bilan bolangizning o‘qishlari, o‘rtoqlari bilan munosabati haqida surishtiring. “Ichimdagini top”, odamovi bo‘layotganini sezsangiz, mobil telefonidan internetga kirayotgan bo‘lsa, bu masalaga yanada jiddiy qarashingiz kerak.

Uchinchiidan, farzand bilan tergovchidek emas, samimiy do‘stdek gaplashishga erishing. Bolangiz bilan u yecha oladigan biror muammo haqida suhbatlashing. Mana shu muammo sizni bezovta qilayotganini tushuntiring. Bolangiz sizga ishonsin. U sizni “meni jazolash uchun tergayapti”, degan fikrga bormasin. Masalan, kimdir uning profilini buzib kirib, muammo chiqarayotgan bo‘lsa, unga buning sababini ko‘rsating. Internetda o‘zini qanday himoyalashini o‘rgating. Bilmasangiz mutaxassisga murojaat qiling.

To‘rtinchiidan, bolangizga ijtimoiy tarmoqdan hujum bo‘lganmi yoki uni real hayotda biror joyga uchrashuvga taklif qilishganmi? O‘sha begona shaxs haqida u qanday ma‘lumotlarga ega? Xavf-xatarlardan ogohlantiring. Nimalar qilishni va qilmaslikni uqtiring. Bu haqda farzandingizni ham

tinglang, qo‘shimcha ma‘lumotlarni saytdan olib o‘rganing. Uning tarmoqdagi o‘rtoqlari, tanishlari ro‘yxatini, qanday xabarlar aylanayotganini tekshiring. Zarur bo‘lsa, bu ma‘lumotlardan nusxa oling. Ertaga bu ma‘lumotlar huquq tartibot organlariga murojaat qilganingizda kerak bo‘lib qolishi mumkin. Agar bolangiz sizdan nimalarnidir yashirayotganini sezsangiz, mutaxassislar bilan bog‘laning. Ular sizga qaerga, qanday shaklda murojaat qilish mumkinligini aytadi.

Beshinchidan, uydagi kompyuteringizga antivirus dasturini va maxsus pochta filtrlarini o‘rnatting. Faqat litsenziyalangan dasturlardan, ishonchli manbalardan foydalaning. Hech qachon shubhali va notanish adreslardan yuborilgan jo‘natmalarni ochmang. Farzandingizga internetga kirishga ruxsat berishdan oldin uni viruslar, zararli dasturlar, xavfli saytlar, internet firibgarlari, xavflar to‘g‘risida ogohlantiring. Internetga kirish va foydalanish vaqti, u kiradigan saytlarni aniq belgilab bering. Shuningdek, kuniga 30 daqiqadan ortiq kompyuter o‘ynashi sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetishi haqida har kuni tushuntirib boring. Masalan, ko‘rish qobiliyati pasayib ketishini anglating.

Oltinchidan, begona ma‘lumot paydo bo‘lsa, tezda sizga murojaat qilishni ayting. Onlayn tanishlari bilan sizersiz yoki biror katta kishi yonida bo‘lmasa, uchrashmaslikni tushuntiring. Uning kimlar bilan muloqot qilayotganini bilib yuring. Bolangizga internetda qo‘pol, haqoratli so‘zlarni yozmaslikni, o‘qimaslikni o‘rgating. Siz o‘rnatgan qoidalarga farzandingiz amal qilayotganini nazorat qiling. Talablarni uning yoshidan kelib chiqib qo‘ying.

Yettinchidan, tobe bo‘lgan bolalarga birdaniga kompyuter o‘yinlarini o‘ynashni cheklash mumkin emas. Aksincha kompyuter o‘yinlari o‘ynash vaqtini har kuni kamaytirib borish bilan tobelikdan halos qilinadi. Raqamli dunyoda farzandingiz xavfsizligini ta‘minlang. Har bir bola tarbiyasida ma‘sul ekaningizni unutmang! Internetdan bolalar uchun mo‘ljallangan mantiqiy fikrlashga undaydigan o‘yinlarni topib, ularni birga o‘ynang. Oilaviy qadriyatlar aks etgan filmlar qidirib, ularni farzandlaringiz bilan birga ko‘ring. Bolalar va yoshlar bilan ularning yoshiga mos keladigan va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi kerak bo‘lgan mavzularda muntazam, samimiy va ochiq muloqotni tashkil eting.

Moskva davlat universitetining psixologiya fakulteti Internetni rivojlantirish jamg‘armasi xodimlari tomonidan o‘tkazilgan “Rossiya bolalari onlaynda” nomli tadqiqotiga ko‘ra, har beshinchi maktab o‘quvchisi kuniga 5 soatdan ko‘proq vaqtini internetda o‘tkazadi va so‘rovda qatnashgan har o‘ninchi o‘smir internetda yashashini ta‘kidlaydi. Maktab o‘quvchilarining 90% dan ortig‘i ota-onalari, o‘qituvchilari yoki yaqin atrofdagi boshqa

oqsoqollar nazoratisiz internetga kirishadi. Kasperskiy laboratoriyasi tadqiqotchilari esa, boshlang'ich ta'limdagi bolalarning 93 foizi o'z smartfoniga egaligini aniqladi. O'smirlar esa busiz bir qadam ham bosa olmaydi. So'rovda qatnashgan bolalarning deyarli 80 foizi ushbu gadjetsiz uddalay olmasligiga bildirgan. Shuningdek, ushbu laboratoriyaning bolalar internet xavfsizligi bo'limi rahbari Andrey Sidenko: "Internet bolalarning kundalik hayotining bir qismiga aylangani uchun, ota-onalari bilan janjallari kamaygan. Avvallari bunday nizolar har uchinchi oilada bo'lar edi" – deydi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, Rossiyada har uchinchi bola Internetda zo'ravonlik videolariga duch kelmoqda. Ko'pincha bu 7-10 yoshdagi bolalar internetni faol o'rganishni boshlaganlarida sodir bo'ladi. Aksariyat hollarda bu tasodifan sodir bo'ladi. Ammo ba'zi bolalar ota-onalariga yoqmaydigan videolarni ataylab tomosha qilishlarini tan olishdi.

Indoneziyadagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, bolalarning 20 foizi, ya'ni har beshinchisi internet orqali begonalardan bezovta qiluvchi xabarlar yoki hatto to'g'ridan-to'g'ri tahdidlarga uchramoqda. Shu sababli internetda sarflangan vaqtini ota-ona belgilab berishini mutaxassislari ta'kidlamoqda. Ya'ni, kichik maktab yoshi – kuniga 1 soatdan ko'p bo'lmagan, katta maktab yoshi – kuniga 3 soatdan oshmasligi kerak.

Amerikaning Common Sense Media mustaqil tashkiloti tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, COVID-19 pandemiyasidan keyingi ikki-yil ichida bolalar (8–12 yosh) va o'smirlar (13–18 yosh) ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi avvalgi to'rt-yilga qaraganda tez o'sgan. 8 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar kuniga o'rtacha besh yarim soat ekran va internetda o'tkazadilar. O'smirlar uchun bu ko'rsatkich kuniga sakkiz yarim soatdan oshadi.

O'smirlarning 79 foizi ijtimoiy tarmoqlar va onlayn videolardan kamida haftasiga bir marta foydalanishini aytib, ularning 32 foizi "YouTube"siz yashashni istamasligini bildirgan. O'rtacha kunlik ekran vaqti qora tanli va ispaniyalik/latiniyalik bolalar hamda kam ta'minlangan oilalardagi bolalar orasida eng yuqoriga ko'tarildi. Bu o'smirlar kuniga 6,5dan 7,5 soatgacha internetda ko'ngilochar videolar ko'rib bilan vaqt o'tkazishgan. Boshqa bir so'rovda esa 12 yoshgacha bolalari bo'lgan ota-onalarning 71 foizi farzandlarining ekran oldida juda ko'p vaqt o'tkazishidan xavotirda ekanliklarini aytishgan.

Farzandingizni internetdan ortiqcha foydalanishi quyidagi xavflarni keltirib chiqaradi:

- **Uyqusi yetarli bo'lmaydi.** Mediadan foydalanish uyquga xalaqit beradi. Yotoqxonasida televizor, kompyuter yoki mobil qurilma bo'lgan bolalar va o'smirlar kech uxlaydi. Ekranlardan ogohlantiruvchi kontent

uyquni kechiktirishi yoki buzishi va ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- **Semirib ketadi.** Haddan tashqari internetdan ko'p foydalanish semizlik xavfini oshiradi. Kuniga 1,5 soatdan ortiq 4 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan bolalarda semirib ketish uchun xavf omilidir.

- **O'rganish va ijtimoiy ko'nikmalardagi kechikishlar.** Ota-onalari va oila a'zolari bilan kam muloqot qilish oqibatiga bolalar internetga berilib ketib, ularda diqqat, fikrlash, til va ijtimoiy ko'nikmalarda kechikadi.

- **Maktab faoliyatiga salbiy ta'sir.** Bolalar ko'pincha uy vazifasini bajarish o'rniga internetda ko'ngilochar videolar va o'yinlar o'ynaydi. Bunday ko'p vazifalilik ularning maktabda o'qishiga va bilim olishga salbiy ta'sir qiladi. Bilim darajasi pastlab ketadi.

- **Xulq-atvor muammolari.** Internetdagi zo'ravonlik mazmuni bolalarning xulq-atvori bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin, chunki ular ko'rgan narsalaridan qo'rqib, sarosimaga tushadilar yoki o'yin qahramonlariga taqlid qilishga harakat qiladilar. Ularda odob-axloq qoidalariga rioya qilish xolati buziladi.

- **Xavfli xatti-harakatlar.** Ijtimoiy tarmoqlardagi o'smirlar ko'pincha xavfli xatti-harakatlarni ko'rsatadi, masalan, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, jinsiy xatti-harakatlar, o'z-o'ziga shikast yetkazish yoki tartibsiz kiyinish va ovqatlanish kabilarni hayotida qo'llashi mumkin. Natijada bolalar o'rtasida taqlid kuchayadi. Nega men buni qila olmayman? Qabilida kundalik tartib qoidalari o'zgaradi.

Har-yili "Xavfsiz internet kuni"ni 170 ga yaqin mamlakat nishonlaydi va bu tadbirlar orqali butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarni qamrab olishga erishadi. Shu o'rinda, internet bo'yicha Yevropa strategiyasi bolalarga yaxshiroq va xavfsizroq onlayn muhitni yaratishga yordam berish uchun moliyalashtirish, muvofiqlashtirishda bir qator qo'shimcha chora-tadbirlarni taqdim etdi. Ularning asosiy vazifasi voyaga yetmaganlar, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida xabardorlikni oshirish hamda raqamli savodxonlikni oshirishdan iborat. Shuningdek, mazkur islohotlar bolalarni internetdagi jinsiy zo'ravonlik materiallaridan asrashga qaratilgan.

Hullas, internet tarbiya va ta'limning ulkan imkoniyatlari maydoni. Faqat undan to'g'ri foydalanish kerak. Har bir ota-ona farzandini mustaqil fikrlovchi, dadil, uddaburon, chuqur bilimli, qat'iyatli, mehribon bo'lishini istaydi. Bu esa o'z o'zidan bo'lavermaydi. Tarbiya, ya'ni har kuni buning uchun nimadir qilish kerak degani.

Bola o'qish, yozishni kitob, daftarda o'rganadi. Xulq, odob, kuchli xarakterni boshqalar misolida, namunasida o'rganadi. Ota-ona unga birinchi namunalardir. Agarda ota "Ovqatlanishdan oldin qo'lingni yuv", deb o'zi

qilmasa, bolangizni qancha urishmang, ong ostida otaga taqlid qolaveradi. Chunki eshitilayotgan talab va u ko‘rayotgan hayot orasida ziddiyat paydo bo‘ladi. Bu ziddiyat unda tushunmovchilik va qarshiikni keltirib chiqaradi. Har bir oilada o‘z tarbiyaviy tushunchalari, muhiti bor. Shuning uchun boshqalarda qandayligini kuzatib, o‘rganib borish kerak.

Bolalarning ta‘lim va tarbiyasida biz ma‘naviy va ma‘rifiy uyg‘onmas ekanmiz, farzandlarimizni o‘zgarar uyg‘otadi. Natijada ma‘naviyat va ma‘rifatdan yiroqlashgan jamiyatning shakllanishiga sababchi bo‘lib qolamizni anglashimiz kerak. Ma‘naviyatdan yiroqlashgan qalblarni yovuzliklar egallaydi, shuni unutmaylik!

HUQUQIY TARG‘IBOT-TALABALARDA HUQUQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Pirnazarov G‘ulom Nurboboyevich

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa

doktori (PhD), dotsent.

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda huquqiy targ‘ibot orqali huquqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini ilmiy tadqiq etishning dolzarbligi, kompetensiya, huquqiy kompetensiya tushunchalarining mazmun mohiyati, jahon va o‘zbek pedagogikasidagi tasnifi va tavsifi, huquqiy kompetensiyaning kompetensiyalar tizimida tutgan o‘rni borasida fikr-mulohaza va tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: huquqiy targ‘ibot, huquqiy kompetensiya, kompetensiya, ko‘nikma, malaka, huquqiy bilim, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik

Globalashuv jarayoni tezlashayotgan bir paytda talabalarda huquqiy kompetensiyani shakllantirish, ularni takomillashtirish va o‘qitish masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda. Bugungi kunga kelib huquq ta‘limiga doir turli interfaol usullar amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Talabalarda huquqiy kompetensiyalarni nitegrativ asosda rivojlantirishga katta ehtiyoj seziladi.

Respublikamizda ham huquqiy fanlarni o‘qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslandi. Boshlang‘ich ta‘limdan boshlab, oliy ta‘limga qadar huquqqa doir o‘quv materiallari mazmunini takomillashtirish, talabalarlarda huquqiy kompetensiyani shakllantirish, uning natijasida huquqiy savodxonlikni oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Qonunlar mohiyatini o‘qitish va ularni targ‘ibotini to‘g‘ri tashkil qilish

orqali bo‘lajak mutaxassislarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1], – deb ta’kidlanishi huquq ta’limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o‘z haq-huquqlarini anglaydigan erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo‘yadi. Shu ma’noda talabalarda oliy ta’lim muassasalarida huquqiy-ma’naviy tadbirlarni to‘g‘ri tashkil qilish, huquqiy kompetensiyani rivojlantirish orqali huquqiy savodxonlikni to‘la shakllantirish, qonunga bo‘ysunish ko‘nikmasini rivojlantirishga zamin yaratish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun huquq ta’limiga doir o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish zarurati mavjud.

Bugungi pedagogikada kompetensiyaviy yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsiy, kasbiy va pedagogik kompetensiyalar qatorida huquqiy kompetensiyani rivojlantirishga ham alohida e’tibor qilinmoqda. Oliy ta’limda talabalarning huquqiy kompetensiyani rivojlantirishda bu borada ayrim tushunchalarga izoh berish zarurati mavjud. Bu borada huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, huquqiy kompetensiya tushunchalari o‘zaro farqli va aloqadorlikka ega.

“Huquqiy kompetensiya” tushunchasi oliy ta’lim tizimi kompetensiya yondashuvi metodologiyasiga o‘tgandan keyin faol qo‘llanila boshlandi. Huquqiy kompetensiyaga ega bo‘lgan shaxs mehnat bozorida ko‘proq talabga ega, professional sohada harakatchan va martaba o‘shishiga ishonishi mumkin. Biroq, “huquqiy kompetensiya” tushunchasining o‘zi akademik o‘qituvchilar tomonidan “kompetensiya”, “kasbiy kompetensiya”, “kompetensiyalar” tushunchalariga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Jumladan N.Gromova talabalarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishning jamoatchilik bilan aloqalarning uzoq muddatli rivojlanishiga ta’siri, kelajakda universitet bitiruvchilarining ham, umuman davlatning ham kasbiy farovonligini ta’minlashni[2] takidlab o‘tgan. O.Kolotkina esa talabalar o‘rtasida huquq sohasidagi universal kompetensiyalarni shakllantirishning bir qator yo‘nalishlarini shakllantiradi, ularga quyidagilar kiradi:

turli xil huquqiy manbalardan zarur huquqiy ma’lumotlarni qidirish va tahlil qilish qobiliyati;

huquqiy sohada ishbilarmonlik aloqalarini o‘zlashtirish;

o‘z-o‘zini tashkil qilish va yo‘nalish vektorini aniqlash qobiliyati huquqiy o‘z-o‘zini rivojlantirish[3]. D. Raven kompetensiyani professional funksiyalarni samarali bajarish uchun maxsus qobiliyat deb biladi[4]. T.

Sorokina kompetensiyani nazariy va amaliy tayyorlik va mehnat qobiliyatining simbiozi deb biladi. Pedagogik ishlarni tahlil qilish “kompetensiya” atamasini ma’lum bilim va ko‘nikmalarni (nazariy, uslubiy va amaliy daraja) egallash jarayonida shakllangan talaba shaxsining o‘ziga xos xususiyati sifatida ko‘rsatishga asos berdi. Ushbu bilim va ko‘nikmalar o‘qituvchining maqsadli ta’siri ostida kompetensiyalarga aylanadi va shaxsning yagona sifati — kompetensiyani shakllantiradi.

Pedagogika fanida huquqiy kompetensiya deganda insonning hayotda yuzaga keladigan muammolarni huquqiy yo‘llar bilan samarali hal qilish qobiliyati tushuniladi[5]. Darhaqiqat, shaxs huquqiy jamiyatda yashashi uchun u zarur huquqiy bilmilarga ega bo‘lish bilan birga huquqiy kompetensiyaga ham ega bo‘lishi, uni hayoti davomida ko‘llashi, atrofidagilarni ham bunga chorlashi zarur.

Umuman, “Kompetensiya” va “huquqiy kompetensiya” tushunchalarini o‘zaro bog‘lab, biz quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarning mavjudligiga e’tibor qaratdik. Birinchidan, agar kompetensiya shaxsning umumlashtiruvchi xususiyati bo‘lsa (shu bilan birga, shaxs, fuqaro, professional sifatida), unda kasbiy kompetensiyaning o‘ziga xos turi hisoblangan huquqiy kompetensiya shaxsning sof shaxsiy xususiyatidir. Ikkinchidan, huquqiy kompetensiya nazariy (bilim) va amaliy (faoliyat) elementlarni aynan huquqiy sohada sintez qiladi (shaxs o‘zining shaxsiy, shaxsiy, huquqiy tajribasini, shuningdek, huquq sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini qo‘llay oladi. Individual hayotda ham, huquqiy xatti-harakatni ham namoyon qilish uchun kasbiy ishda “kompetensiya” ning umumiy tushunchasiga nisbatan yuridik va boshqa kasbiy kompetensiyalarning nisbati juda katta farq qilishi mumkin. Masalan, ma’lum miqdordagi huquqiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan talaba ularni amaliy vaziyatda amalga oshirishi mumkin bo‘lgan holatlar. Uchinchidan, huquqiy kompetensiyaning shakllanishi kasbiy ta’lim jarayonida maqsadli pedagogik ta’sir jarayonida sodir bo‘ladi (ham yuridik, ham yuridik bo‘lmagan o‘qituvchi, iqtisodchining huquqiy kompetensiyasi va boshqalar.). “Kompetensiya” tushunchasi shaxsning umumiy amaliy, kasbiy va hayotiy tajribasiga taalluqlidir, chunki uning shakllanishi va rivojlanishining manbai shakllanishning butun axborot muhiti (kasbiy va korporativ muhit, iqtisodiy va siyosiy voqealar, shaxsiy hayot sharoitlari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar.)ni tashkil etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, oliy ta’lim tizimida fanlarni o‘qitish mobaynida talabalarning huquqiy bilimi va ko‘nikmasini boyitib borish nazarda tutiladi, biroq huquqiy kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmay kelinmoqda. Shu ma’noda, talabalarda huquqiy kompetensiyani rivojlantirishning innovasion, informasion, interfaol

usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish bugungi ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, zero talaba bo'lajak mutaxassisi sifatida har qanday sohada faoliyat yuritmasin qonun talablariga muvofiq ish tutmas ekan, xodimning faoliyat jamiyat va davlatga foydali bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. –14-b.
2. Gromova N. S., Oboskalov D. A., Menshikova O. A. Pravovaya i finansovaya gramotnost molodeji: problemy i puti sovershenstvovaniya // Teoriya i praktika mirovoy nauki. – 2022. – № 8. – S. 10-12.
3. Kolotkina O.A. Osobennosti vybora metodik provedeniya prakticheskix zanyatiy po teorii gosudarstva i prava so studentami ochno-zaочноy formy obucheniya // Yuridicheskiye nauki. Teoriya i praktika mirovoy nauki. – 2023. – № 7. – S. 47-50.
4. Raven D. Kompetentnost v sovremennom obshchestve: vyavleniye, razvitiye i realizatsiya / D. Raven. – M.: Kogito – Syentr. – 2002. – 394 s.
5. Morozov, A. V. Aktualnyye problemy razvitiya pravovoy kompetentnosti sovremennykh spetsialistov v oblasti zdavooxraneniya v usloviyax poslevuzovskogo obrazovaniya / A. V. Morozov, V. A. Anuchkin. - Tekst: pryamoy // Pedagogika: traditsii i innovatsii: materialy I Mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii (Chelyabinsk, oktyabr 2011 g.). - T. 2. - Chelyabinsk: dva komsomolsa, 2011. - S. 118-121.

ILK UYG'ONISH DAVRI FALSAFASI VA SINERGETIKA: O'Z-O'ZINI TASHKILLASHTIRISHNING TARIXIY ILDIZLARI

Rizayev Ilhom Imomaliyevich

falsafa doktori (PhD)

TATU Samarqand filali Gumanitar va ijtimoiy

fanlar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada o'z-o'zini tashkillashtirishning ilk uyg'onish davrida kuzatilgan tarixiy ildizlariga ishora qilinib, o'z-o'zini tashkil qilish tamoyillari va shaxslararo munosabatlarning ahamiyati ta'kidlangan. Shuningdek, buyuk mutafakkir va olimlarning islom madaniyati rivojiga qo'shgan hissasiga e'tibor qaratilib, ularning yetuk jamiyat haqidagi ta'limotlarida sinergetik tushunchalarining dolzarbligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: sinergetik tahlil, tizim, o'z-o'zini tashkillashtirish, islom, hamkorlik, buyuk ajdodlar, sharq olimlari.

Obyektni yaxlit tizim sifatida sinergetik tahlil qilishning nazariy asoslari XX asrning 70-yillarida shakllangan deb hisoblash maqsadga muvofiq. Chunki aynan shu davrga kelib, sinergetika ilmiy tadqiqotning alohida metodi sifatida nazariy jihatdan asoslab berildi [1]. Shunday bo'lsada, sinergetik qarashlarning kurtaklari uzoq-yillarga borib taqaladi.

O'z-o'zini tashkillashtirish ildizlarini Sharq falsafasining ajralmas qismi bo'lgan islom dunyosida ko'plab uchratishimiz mumkin. "Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida "muhaddislar sultoni" deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo'tabar zot merosining gultoji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami – "Al jome' as-sahih" kitobi islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomondan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana o'n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda" [2].

Imom Buxoriy hadislarida insonning tug'ilishidan boshlab, voyaga yetishi kamol topishiga qadar bo'lgan barcha masalalar qamrab olingan. Shu bilan birga o'z-o'zini tashkillashtirishning asosi bo'lgan o'zaro hamkorlik munosabatlari ham ko'zga tashlanib turadi. Shunday hadis keltiriladi: "Yarimta xurmo sadaqa qilib bo'lsa ham o'zingizni do'zax otashidan saqlangiz, agar shuni ham topolmasangiz, odamlarga shirin so'z aytingiz!" [3]. Bu ayniqsa so'nggi-yillardagi pandemiya sharoitida yaqqol ko'rinib qoldi. Chunki sistemaning muayyan qismi, elementlari o'z funksiyalarini bajarolmay qolganda, boshqa a'zolar kompensatorlik tamoyili asosida tizim faolligini saqlab turadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, ona zaminimizda buyuk ajdodlarimiz Yusuf Xos Xojib, Axmad Yassaviy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, At-Termiziy, G'azzoliy, Aziziddin Nasafiy, Bahovuddin Naqshband singari ko'plab allomalarimiz inson va yetuk jamiyat xususida butun bir konsepsiya yaratib qoldirishgan desak xato bo'lmaydi. Ularning ilmiy merosida, jamiyat haqidagi qarashlarida bugungi kun falsafasi tadqiq etayotgan ko'plab muammolar uchraydi. Jumladan sinergetikaning ko'pgina elementlarini ham uchratishimiz mumkin. O'z-o'zini anglash, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini baholash, kabi o'z-o'zini tashkillashtirish unsurlarini, bundan tashqari, ijtimoiy tizimda barqarorlik va beqarorlik holatlari, tartibsizlik va tartibot xususida ham ajdodlarimiz ilmiy falsafiy fikrlarini bayon etib qoldirishgan. Sharq allomalari fanning qaysi sohasida ijod etishidan qat'i nazar ularning ta'limotida inson kamoloti va jamiyat fozilligi

masalasi doimiy e'tiborida bo'lgan.

Sharq falsafasida ijtimoiy tizim muammosi bilan chuqur ilmiy-falsafiy darajada shug'ullangan mutafakkirlardan biri shubhasiz Abu Nasr Forobiydir. Forobiy falsafasida komil inson, ideal jamiyat haqidagi g'oyalar yetakchi mavqega ega hisoblanadi. Uning qarashlarini ham tahlil qiladigan bo'lsak, inson va jamiyat masalalariga munosabatida sinergetika elementlarini namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Xususan, u insonning baxt saodatga erishuvi haqida fikr bildirar ekan, "Baxtga erishish yo'li fazilatli ishlarning mohiyatini anglash va ularni yuzaga chiqarish vositalarini bilishdan iboratdir. Inson o'z imkoniyatlarini (demakki o'z-o'zini) anglagandagina o'zining bilimlari va qobiliyatlarini joriy etish imkoniyatiga ega bo'la oladi" [4]. Bu yerda sinergetikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini yuzaga chiqarish tamoyillarini ko'rishimiz mumkin. Mutafakkir kishilarning o'z-o'zini tashkillashtirishini, komillik va baxtu saodatliligini ularning o'zidan, aql, tafakkur, ixtiyor, fazilat va quvvatlaridan izlaydi. Uning fikricha, yetuk jamiyatda komil inson muhim fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Birinchi navbatda, jamiyat a'zolari o'zligini anglab, kamol topishidagi ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni o'zlashtirishi kerak. Forobiy jamiyat qiyofasini tadqiq etib, bunda u bilim va axloqiylikning uyg'unlashuvini ko'radi. Fazilat tushunchasiga ta'rif berib, shunday yozadi: "Odamni yaxshi ishlarni qilishga va go'zal xulq sohibi bo'lishga da'vat etuvchi ichki (axloqiy) sifatlar fazilatlar deb ataladi" [5]. Kishilar faoliyatidagi bu uyg'unlik undagi eng oliy maqsad - baxt-saodatga erishishga asos bo'lib xizmat qiladi. Uyg'unlik, biragalikdagi faoliyat va hamkorlik tushunchalari, sinergetikaning fundamental tushunchalari ekanligi bizga ma'lum.

Hamkorlik, birgalikdagi faoliyat masalalari Farobiyning fozil jamoa, ideal jamiyat haqidagi qarashlarida ham ko'plab uchraydi. Jumladan, "Fozil jamoa o'zining mukammalligi, yashash qonuniyatlari bo'yicha borliqqa qiyos qilinadi. Borliqda turli qismlar, narsa va hodisalar o'rtasida uyg'unlik, hamjihatlik va hamkorlik sababi avvalgi faoliyatining natijasi ekan, xuddi shuningdek, jamiyatda ham turli toifalar o'rtasidagi hamjihatlik va mutanosiblikka hukmdor faoliyati, namunali ishlari orqali erishiladi. Mukammal jamiyatda har bir tabaqa, yaxlit ijtimoiy tizimning ajralmas qismi sifatida, o'zining muayyan funksiyalariga ega bo'lib, ushbu vazifalarni qay darajada bajarishi qolgan qismlarga ham ta'sir o'tkazadi" [5], deydi Forobiy (Forobiyning ideal jamiyatidagi fozillik jamiyatning o'z-o'zini tashkillashtirishida muhim rol o'ynasa, johillik aksincha). Ushbu qarashlarni sof sinergetik qarashlar deb baholashimiz ham mumkin. Murakkab tizimlar, ular faoliyatining bir-biriga bog'liqligi, ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalalari sinergetikaning markaziy muammosi hisoblanadi.

Forobiy nuqtayi nazariga ko‘ra, jamiyatning baxt-saodatga erishish bu muvozanat va barqarorlik nisbati hamda yetuklik namunasidir. Vaholanki, jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi muvozanat buzilsa, u vayronkor bo‘lishi, xunuk oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu esa tartibsizlikni keltirib chiqaradi. Tartibsizlikning yuqori nuqtasida bifurkatsiya holati kelib chiqadi va ijtimoiy tizimdagi muvozanatning butunlay o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Kishilarni murakkab tuzilma sifatida bir necha qismlardan iborat ekanligini ta‘kidlar ekan, Forobiy ushbu qismlarning holati ham bir-biriga ta‘sir o‘tkazishini aytib o‘tadi. Uning fikricha, “Inson ruhiga huddi uning vujudiga o‘xshash, sog‘lomlik va xastalik xosdir. Ruhning sog‘lomligi shunda ifodalanadiki, uning ichki holati va turli qismlari o‘rtasida uyg‘unlik natijasida barqarorlik vujudga keladi. Buning natijasida inson doim fazilatli, oliyjanob ishlarni qiladi va go‘zal xulqlar sohibi bo‘la oladi. Ruhning xastaligi shunda ifodalanadiki, ruhning ichki holati va qismlari o‘rtasida muvozanat buzilgan bo‘ladi, shu tufayli odam doim razil ishlarni, xunuk xatti-harakatlarni qilishga odatlanib qoladi” [5].

Yana bir buyuk ajdodimiz, dunyo ilm fani taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan alloma Abu Ali ibn Sinodir. “Shayx-ur Rais” nomi bilan mashhur buyuk mutafakkir qarashlarida sinergetik unsurlarini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Risola fil-ishq” asarida “Olam negizida ishq yotadi” [6], - deb ta‘kidlaydi. Bunda attraktor tamoyiliga murojaatni ko‘rishimiz mumkin, ya‘ni muhabbat barcha jonli va jonsiz mavjudotlarni o‘z atrofiga jalb qilib, olamdagi tartibotni saqlashga (regulyatsiya) xizmat qiladi.

Ibn Sinoning ushbu va shu kabi ko‘plab boshqa g‘oyalari sinergetik mazmunga ega bo‘lish bilan bir qatorda bugungi kunda ham nihoyatda ahamiyatli deb hisoblaymiz. Chunki yoshlarni axloqan yetuk qilib tarbiyalashda, ularning ma‘naviy olamini boyitishda ushbu fikrlardan unumli foydalanish o‘z samarasini beradi. Binobarin, milliy tarqqiyot yo‘limiz ham buyuk ajdodlarimizning shu kabi g‘oyalaridan ozuqa oladi.

Jamiyat va inson muammosini har tomonlama keng tahlil qilgan, ko‘plab ilmiy-falsafiy g‘oyalarni ishlab chiqqan mutaffakkirlardan biri bu Jaloliddin Rumiidir. Rumiining falsafiy qarashlarida markaziy muammo bu ijtimoiy tizimning yadrosi bo‘lmish insonning o‘z-o‘zini bilishi, o‘z-o‘zini anglashi muammosi hisoblanadi. U insonni borliqning kichik bir qismi, mikroborliq sifatida tahlil qilib, borliqni, xususan, jamiyatni anglash uchun inson avvalo o‘z borlig‘ini bilib olmog‘i lozimligini ta‘kidlaydi. “Ichingdagi ichingdadur” asarida Rumiining quyidagi fikrlarini uchratish mumkin, “Inson Tangrining usturlobidir. Usturlob falakning ko‘zgusi bo‘lgani kabi, inson borlig‘i Ollohning ko‘zgidir. Shunday ekan, o‘zini bilgan Xudosini ham biladi” [7]. Demak, insonning o‘z-o‘zini anglashi, uning olamni va

yaratuvchini anglashi uchun asos bo'lishi ushbu asarda ta'kidlanmoqda. Najmiddin Komilov ushbu asarga baho berar ekan, "Fihi mo fihiy" asari botiniy ilmlar bayonnomasi, o'z-o'zini, o'zlikni va ilohni tanish kitobidir, Rumiyning o'zi esa, tasavvuf va falsafani qo'shib, inson ruhi dialektikasini ochgan ulug' mutafakkirdir" [8],-deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari Rumiyni qarashlarida inson borlig'ini ruh va jism birligidan tashkil topganligini e'tirof etilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. "Agar danakni chaqib, mag'zini eksang, unmaydi. Agar qobig'i bilan tuproqqa qadasang, unish hodisasi sodir bo'ladi. Danak mag'zini ruhu, qobig'ini jism deb olinsa, demak inson bolasi biron maqsadga erishish uchun har ikki asosga suyanishi lozim" [7]. Ushbu qarashlarda sinergetikaning markaziy muammosi, o'zaro hamkorlik, uyg'unlik muammosini ko'rishimiz mumkin.

Yana bir misol, "Amir chodir tikishni buyursa, (xizmatkorlarning) biri ip tayyorlaydi, boshqasi mix qoqadi, biri bo'z to'qisa, yana biri tikadi. Bu harakatning ko'rinishidan turli-tuman bo'lsa ham ma'no jihatdan birdir. Chunki ularning barchasi bir ish qilmoqdalar demakdir. Dunyoga ham diqqat bilan qarasang, shu holni ko'rasan. Hamma narsa Tangriga qulligini bajo keltiradi" [7]. Bunda o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizim funkcionalligini ta'minlash uchun elementlarining o'zaro hamkorligi ya'ni kooperatsiya tamoyili kuzatiladi. Amir esa attraktor vazifasini bajarishi yaqqol ko'rinib turibdi. Shu bilan birga Rumiyni, yaxshiroq e'tibor berilsa, borliqlardagi barcha tizimlarda ayni hol mavjudligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikka erishganimizdan so'ng ilmiy hamjamiyat tomonidan boy ma'naviy merosimizni qayta tiklash, ularni shakllanib kelayotgan yosh avlodga yetkazib berish, kelajagimiz egalarini tarbiyalashda ulardan keng miqiyosda foydalanish samarali va muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов Б. Р., Тураев Б. О. Научное предвидение как высшая форма опережающего отражения действительности./Предвидение как форма научного познания. – 1985. – С. 59.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 38.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy Al-jome' as-sahih. 4 jild. - T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. – B. 90.
4. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.: Янги Аср Авлоди, 2019. – Б. 182.
5. Фараби. Социально этические трактаты. - Алма-ата.: Наука, 1973. - С. 75-76.
6. Серебряков С.Б. Трактат Ибн Сины (Авиценны) о любви. – Тбилиси.:

Мецниереба, 1976. – С. 186.

7. Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир - Т.: Янги аср авлоди, 2013. - Б. 11-23.

8. Комилов Н. Тасаввуф. - Т.: 2013. - Б. 5.

YOSHLARNI MA'NAVIY TARBIYALASHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, global o'zgarishlar davrida axborot qudratli qurolga aylangan bir davrda, dunyo miqyosida mafkuraviy-g'oyaviy tahdidlarni targ'ibot va tashviqot etishda axborot asosiy omil vazifasini o'tayotganligi ochib berilgan.

Kalit so'zlari: globallashuv, jamiyat, internet, kommunikatsiya, g'oya, ma'naviyat, mafkura, intellektual, axborot, kompyuter, xuruj, tahdid, ekstremizm, "Ommaviy madaniyat", demokratiya, texnologiya.

Kirish (Introduction).

XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, yuksak texnologiyalar va internet zamoni, jahon maydoni va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asri sifatida tarixga kirmoqda. Axborot tizimlarining rivojlanishi uning xavfsizligini ta'minlashni ham kun tartibiga olib chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Axborot-kommunikatsiya tizimlarining keng qo'llanilishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi, albatta, o'z navbatida axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rishni hayotning o'zi taqozo etmoqda"[1]. Bu esa o'z navbatida, taraqqiyotning ijobiy va salbiy jihatlari bilan bog'liq bo'ladigan jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Ayni paytda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti oqibatida ommaviy axborot vositalarida matn, tasvir va ovoz orqali ifodalanadigan mazmun endilikda raqamli shaklga o'tkazildi. Yangi texnologiyalar tufayli bir qancha to'siqlar – nashr etish uchun ketadigan vaqt,

tegishli moliyaviy xarajatlar, gazetalarni tarqatishning geografik chegaralari kabi to‘siqlarni yengib o‘tishga muvaffaq bo‘lindi. Qog‘oz sivilizatsiyasi o‘rnida elektron sivilizatsiya rivoj topdi. Shu tariqa esa insoniyat hamda inson faoliyati turli sohalarining globallashtirishida ommaviy axborot vositalari ko‘p asrlik taraqqiyoti 1986-yilda internetning paydo bo‘lishiga zamin hozirladi. Natijada, internet jahon axborot tizimi yoki bir-biri bilan uzluksiz bog‘langan tarmoqlar birlashmasi sifatida insonlarga cheksiz yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Bugungi kun yoshlarining bir qator ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet orqali turli ma’lumotlarga ega bo‘lishi, ularni o‘zlaricha tahlil qilishi, salbiy oqibatlarini esa chuqur anglab yetmasligi natijasida yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolish bilan bog‘liq holatlar kuzatilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Global o‘zgarishlarning muhim xususiyatlaridan biri kishilar ongi, ichki dunyosi va qalbini egallash uchun kurashning kuchayganligida ko‘zga tashlanadi. Muayyan mamlakat yoki mintaqada hukmronligini qo‘lga kiritishga qaratilgan harbiy yurishlar, iqtisodiy iskanja kabi harakat shakllari o‘rnini endilikda ko‘proq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tizimi orqali yoshlar ongini mafkuraviy-ma’naviy jihatdan zabt etish egallamoqda. Hozirda axborot texnologiyalarini rivojlantirish maqsadida, ayrim davlatlar tomonidan katta mablag‘lar ajratib kelinmoqda. Nemis tadqiqotchisi L.Nefedovning ta’kidlashicha: “Bugun tadqiqot va rivojlanishga investitsiya qilinayotgan mablag‘larning uchdan biri axborot texnologiyasiga yo‘naltirilmoqda”[2]. Darhaqiqat, hozirda axborot g‘oyaviy ta’sir o‘tkazishning kuchli vositasiga aylanishga ulgurdi. Aksariyat mafkuraviy markazlar o‘zlarining g‘arazli maqsadlariga erishishda axborotdan foydalanmoqda. Globallashtirish va yangi xalqaro axborot tartibi shakllanayotgan bir sharoitda deyarli to‘rt asr avval mashhur ingliz faylasufi Frensis Bekon tomonidan aytilgan “Kimki axborotga egalik qilsa, u dunyoga egalik qiladi”[3], degan so‘zlari yangicha mazmun kasb etmoqda.

Bizning fikrimizcha, global o‘zgarishlar davrida axborot qudratli qurolga aylangan ekan, dunyo miqyosida mafkuraviy-g‘oyaviy tahdidlarni targ‘ibot va tashviqot etishda axborot asosiy omil vazifasini o‘tayotganligi haqiqatdir. Bugungi kunda axborot vositasida yoshlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratilayotganligi bunga qarshi choralar ko‘rishni taqozo qiladi. Binobarin, har qanday axborot xurujlari bevosita axborot qurollari yordamida amalga oshirilmoqda. Global o‘zgarishlar davrida ayrim yetakchi davlatlar bevosita va bilvosita axborotdan buzg‘unchi hamda vayronkor qurol sifatida foydalanishga intilmoqda. “Oqibatda, axborot oqimining tezlashuvi

hamda intensivlashuvi natijasida universal texnologiyalar bilan bog‘liq umumbashariy jarayonlar jadallashib, ta‘sir doirasi ham kengayib bormoqda. Mislsiz ilmiy kashfiyotlar, universal texnologiyalar hamda axborot tarqatishning globallashuvi dunyoda yuz berayotgan mafkuraviy jarayonlarga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda”[4].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy qarashlarida esa ma‘naviyat va uning targ‘iboti globallashuv sharoitiga mos talablar asosida yanada takomillashtirilmoqda. Shu bilan birgalikda mutaxassislar axborot qurollari tushunchasi ostida biror xalq, millatning mentaliteti, madaniyati, ma‘naviyati, diniganisbatan rahna soluvchi davlatning informatsion, texnologik, harbiy infratuzilmasiga destruktiv tarzda salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalarni muayyan tizimi yotishini ta‘kidlaydi. Bu haqda AQSh Markaziy razvedka boshqarmasi generali Allen Dallesning fikriga ko‘ra, “Inson miyasi, odamlarning ongi o‘zgaruvchanlikka moyildir. Tartibsizlik, palapartishlik urug‘larini sochish orqali biz ularning o‘ziga sezdirilmagan holda asl qadriyatlarni unutib, soxta qadriyatlarga ishonishlariga erishishimiz mumkin. Insonlar ongi uchun ularning bolalik va o‘smirlik chog‘laridanoq kurashish, yoshlarni o‘zlari o‘ylab topgan soxta qadriyatlar quliga aylantirish, qolaversa, har bir millat orasida o‘z maslakdoshlarimizni topish hamda ularning saflarini kengaytirish orqali asta-sekin bo‘ysunishni istamagan har qanday mag‘rur xalqni ham bosh egishga majbur qilamiz, aks holda esa misli ko‘rilmagan fojealarga giriftor etamiz”[5], -deya ta‘kidlagan edi. Mazkur fikrlar axborot tahdidlari orqali har qanday jamiyat va davlat miqyosidagi barqarorlikka rahna solinishi mumkin, degan xulosani beradi.

Bizning nazarimizda, global o‘zgarishlar davrida ijtimoiy sohada vujudga kelayotgan dolzarb masalalar, millatimiz ma‘naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning ongi va ichki dunyosini turli zararli g‘oya ta‘siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratish davr talabidir. Jahon miqyosida kechayotgan global o‘zgarishlar davrida odamzod tafakkurining yuksak va yorqin namoyoni bo‘lgan ilm-fanning ilg‘or yutuqlari turli davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi chegaralarni ochib berayotgan bir vaqtda ayrim siyosiy kuchlarning g‘arazli niyatlari mafkuraviy qurol vazifasini ham o‘tayotganligi, insoniyatni yanada ogohlikka da‘vat etishga chorlayotganligi sir emas. Bu kabi g‘arazli niyatlardan yoshlarning ongu tafakkuri, ma‘naviy olamini asrab-avaylash muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada xalq va vatan manfaatiga xizmat qiluvchi, bashariyat tarixining barcha davrlarida yurt va millat taqdirida hal qiluvchi, buyuk maqsadlar

yo'lida birlashtiruvchi bunyodkor kuch, odamzodning yuksak fazilatlarini o'zida mujassam etgan bebaho boylik bo'lmish ma'naviyatning o'rni beqiyosdir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Xozirgi davrda jozibador g'arb madaniyatining yoshlar ongiga osonlik bilan kirib kelishi ayon bo'lib bormoqda. Bunda OAV, internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni katta, albatta. Ular, o'z navbatida, virtual voqelikni shakllantirib, undan foydalanuvchilarda madaniyatning yangi ko'rinishi – kibermadaniyatni qaror toptirmoqda. Virtual voqelik va kibermadaniyat kishilarning fe'l-atvorini osonlikcha dasturlashtirish imkoniyatini beryapti, ya'ni yoshlar ongi, ichki dunyosi va qalbini egallashning qulay vositasiga aylandi.

Shu jihatdan, hozirgi kunda O'zbekiston aholisining aksariyati internet tarmog'idan foydalanadi. Global tarmoqning ijobiy jihatlari bilan birga uning salbiy oqibatlar ham mavjud bo'lib, u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- real muloqotning virtualga aylanishi;
- ko'ngilochar saytlarga ro'ju qo'yish oqibatida vaqtning boy berilishi;
- kompyuterda ko'p vaqt o'tirishning salomatlikka salbiy ta'siri;
- noxolis ma'lumotlarga ishonish holatlarining ko'pligi;
- pornografik saytlar orali axloqsizlikning targ'ib qilinishi;
- psixologik manipulyatsiya qiladigan saytlar (sektalar, terroristlar va hokazo) orqali turli g'arazli maqsaddagi guruhlariga qo'shib ketish holatlari.

Biz ayni vaqtda bitta haqiqatni anglashimiz lozim: axborot hajmining o'sishi haqiqiy bilimlar hajmining o'sishini anglatmaydi. Ulkan axborot makonida ma'no-mazmunini yo'qotish muammosi nihoyatda o'tkirlashadi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda uyum-uyum "axborot axlatlari" borligini e'tirof etish ham o'rinli. Garchi ijtimoiy tarmoqlar axloqiy jihatdan betaraf vosita sanalsa-da, undan shu vaqtga qadar to'plangan madaniy merosni saqlash maqsadida ham, unga putur yetkazish maqsadida ham foydalanish mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tarmoqlaridagi erkinlik kompyuterga qaramlikni kuchaytiradi, bugungi kunda bir qancha davlatlarda bunday kishilarni majburiy davolash yo'lga qo'yilmoqda.

O'z navbatida, yoshlarni axborot texnologiyalaridan unumli va o'rinli foydalanishga o'rgatish masalalariga alohida e'tibor berish lozim. Zero, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda o'ta muhim o'rin egallaydi. Inson bola tarbiyasiga oid xulq-atvor ko'nikmasi, hayot tamoyillari, fikrlash va olam manzarasini ko'proq, aynan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'rganish imkoniyatiga ega

bo'ladi. Ayrim ota-onalar farzandining kompyuter qarshisida bo'lgan vaqtda hech qanday xavotirga o'rin yo'q, deb o'ylaydi. Biroq virtual olamda ham ularni muayyan xavf-xatarlar va tahdidlar kutib turgan bo'lishi mumkinligini inobatga olmaydilar. Maqsad – bolani internetdan ajratib qo'yish emas, balki uning kamol topishi uchun mukammal vositalar yaratishdan iboratdir.

Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini aytib o'tish zarur: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin, tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim"[6], deya ta'kidlagan edi.

Ayni paytda, axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim olish, o'rganish, dunyoqarashni kengaytirishning qulay vositasidir. Bu esa internetning milliy segmentida o'zimizning maqsad-muddaomizga mos axborotlarni ko'paytirishni taqozo qiladi. Albatta, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda internet tarmog'idan foydalanish o'zining samarasini berishi tabiiy. Shu jihatdan qaralganda, global tarmoqning quyidagi ijobiy jihatlari ham mavjud:

- eng ommaviy, tezkor ma'lumot olish manbai;
- real vaqt rejimida cheksiz norasmiy muloqot vositasi;
- ko'ngilochar o'yinlar, filmlar, musiqa, video o'yinlar manbai;
- reklama va tijorat uchun eng qulay vosita;
- intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- masofaviy ta'lim olish imkonini beradi.[7]

Ayni vaqtda, ijtimoiy tarmoqlar bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratish bilan birgalikda inson hayotining deyarli barcha jihatlarigadaxlqilmoqda. Ushaxsgao'z bilimlarini oshirish, professionalizmini yuksaltirish, ehtiyoj va mayllaridan kelib chiqqan holda hordiq chiqarish, xalqaro va ichki siyosatda sodir bo'layotgan voqealarni kuzatib borish, siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning faol sub'ekti bo'lish, birja o'yinlarida qatnashish, badiiy asarlar yaratish, ko'rgazmalar uyushtirish, taqdimotlar o'tkazish, zarur narsalarni xarid qilish imkonini beradi. Aynan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet tarmog'i tufayli kutubxona, muzeylar, kartina ko'rgazmalari kabi madaniyatning an'anaviy institutlarida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari,

internet tarmoqlarining sharofati bilan virtual kutubxonalar, virtual muzeylar, virtual ko‘rgazmalar, virtual munozara klublari, elektron do‘konlar, elektron axborot agentliklari, ta‘lim portallari paydo bo‘ldi. Internet hukumatlar, davlat rahbarlari, turli vazirliklar va tashkilotlar, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari faoliyatining fuqarolar uchun shaffof bo‘lishiga xizmat qildi. Internet millionlab kishilarga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini berdi, uning erkinligini kengaytirishga xizmat qildi.

Fikrimizcha, bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada samarali tashkil etish, davlat va jamoat birlashmalari axborot xizmatlari, mediatuzilmalar ishini faollashtirish, soha mutaxassislarini esa bilim va ko‘nikmalarini muttasil oshirib borish hozirgi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda zamon talabiga aylandi. Buning natijasida dunyoda nafaqat axborotlashgan jamiyat yuzaga keldi, balki jahon hamjamiyatida global o‘zgarishlar ham tezlashib ketdi. Aslida, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bu ijobiy ko‘rsatkichdir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, har qanday mafkuraviy, ma‘naviy va axborot tahdidlariga qarshi kurashda muhtaram Prezidentimizning asarlari dasturulamal vazifasini bajarishi kerak. Jumladan, “Besh muhim tashabbus” va “Harakatlar strategiyasidan-taraqqiyot strategiyasi” buning yorqin misoli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, global o‘zgarishlar davrida, jamiyatda axborot tahdidlariga qarshi samarali kurashish omillaridan *biri* aholida, ayniqsa, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish bo‘lsa, *ikkinchisi* – mamlakatda yangi texnologiyalarni egallash va uni barcha sohalarga keng joriy etish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishdir. *Uchinchidan*, turli xil ma‘naviy tahdidlarning oldini olishda yoshlarda internetdan olinayotgan ma‘lumotlarni ajrata bilish savodxonligini shakllantirish, ulardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berib borish, axborot xurujlariga nisbatan zamonaviy ko‘rinishdagi targ‘ibot ishlarini olib borish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kerak. Shundagina ma‘naviy tahdidlar va axborot xuruji yoshlarni yo‘ldan og‘dira olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B. 46.
2. Nefiodow L. Zusammenhang zwischen information, Ethik und Religion// Mensen B. (Hrsg.) Globalisierung. St. Augustin, 1998. – P. 216-224.
3. Qo‘chqorov R., Tojiboyeva D. Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. –

Toshkent, 2015. – B. 110.

4. Tashmetov T.X. Yoshlarni yot va zararli g‘oyalardan himoyalashda axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish texnologiyalari. –Toshkent: O‘zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi, 2021. –B. 9.

5. Safarov M., Baxt E. Sabablar va oqibatlar. Informatсион urush va undan maqsad. Qonun himoyasida. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasining bosh prokuraturasining ommabop yuridik jurnali, 2005. –B. 12.

6. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 25.

7. Quronov M. Ezgu g‘oyalar ro‘yobi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2011. 144-b.

HOZIRGI DAVR YOSHLAR DUNYOQARASHIDA MA’NAVIY-MAFKURAVIY XURUJLARNING OLDINI OLISH ZARURIYATI

Yuldasheva Matluba Munavarovna

falsafa fanlari nomzodi, Qo‘qon davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, globallashuv jarayonida mafkuraviy-ma‘naviy tahdidlarning namoyon bo‘lishi va ularning oldini olish yo‘llariga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, globallashuv, ong, immunitet, buzg‘unchi, mafkura, g‘oya, jamiyat, inson, tahdid, tajovuz, bunyodkor, vayronakor, din.

Hozirgi davrda insoniyat rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri bu globallashuv jarayonining kuchayib borishidir. Bizga ma‘lumki, turli ko‘rinish va shakllardagi ma‘naviy tahdidlar, asosan, yoshlarga qaratilmoqda. Albatta, buning asosiy sababi yoshlarning jamiyatdagi eng faol qatlam ekani, turli g‘oyalar, ta‘sirlarga beriluvchanligi bilan izohlanadi. Ayni paytda, yoshlar ongini zabt etish har qanday mafkuraviy kuch uchun strategik ahamiyatga ega. Zero, mamlakatning istiqboli aynan yoshlarning ehtiyoji, manfaatlar va ulardan kelib chiquvchi maqsadlari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: “Bunday tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg‘ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir”[1], – deb ta‘kidlaydi.

Umumiy ma‘noda, globallashuv bu zamonaviy ilmiy texnika taraqqiyoti asosida, texnika, texnologiyalar hamda xalqlar orasida aloqalarning

rivojlanishi negizida butun jahonda yagona siyosiy, iqtisodiy makonning shakllanish jarayonidir.

Ma'lumki, har qanday jamiyatda yoshlar qatlami muhim o'rin tutadi. SHuning uchun yoshlar qatlami falsafa, tarix, siyosatshunoslik, sotsiologiya, axloqshunoslik, estetika, antropologiya, tibbiyot, huquqshunoslik, pedagogika, demografiya va boshqa fanlarning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Hozirgi davrda yoshlarning dunyo miqyosida ma'naviy-mafkuraviy xurujlarning ob'ektiga aylanib qolishi sabablarini bilish uchun, eng avvalo, ularning jamiyat sotsial strukturasi tutgan o'rni, "yoshlar" kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy mazmunini aniqlash muhim metodologik ahamiyatga ega.

Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "globallasuv" atamasi bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no – mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishi va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda"[1].

Bu jarayon mintaqalar, inson va jamiyat faoliyatining ko'pgina sohalarini qamrab olmoqdaki, ongli ravishda uning siyosiy oqibatlari keyingi o'ringa surilib, asosan iqtisodiy jarayon tarzida talqin qilinmoqda. "Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, – deb yozadi I.A.Karimov, – har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz"[1].

Globalashuv jarayoni boshqa jihatdan insonga mafkuraviy-ma'naviy tahdid o'tkazishning o'tkir quroliga aylanib bormoqda, bu tahdid inson erkinligini bo'g'ish, fikriy mutelikni qo'llab-quvvatlash; turli-tuman jozibador shiorlar orqali uning ruhiyatiga mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar ko'rinishida daxl qilmoqda, xalqlarning milliy va diniy ildizlariga xavf solmoqda, eng xavfli, yot g'oya va zararli qarash-larni yoshlar qalbi va ongiga singdirishga urinmoqda. "Nega deganda, in-soniyatning ko'p ming-yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qad-riyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi"[1].

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin ijtimoiy-siyosiy

hayotimizda tub o'zgarishlar ro'y berdi, xalqimiz tabiati va dunyoqarashiga yot bo'lgan mustabidlik mafkurasi barham topdi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, o'z umrini o'tab bo'lgan eski mafkura o'rnida yangi ijtimoiy munosabatlarni, xalqning asl maqsad-muddaolarini ifoda etuvchi ilg'or va bunyodkor mafkura shakllanmas ekan, jamiyatda g'oyaviy vakuum – bo'shliq yuzaga keladi. Bunday bo'shliq ilg'or, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur g'oyalar bilan to'ldirilmasa, uni xalq hayoti uchun yot va begona bo'lgan mafkuraviy ta'sirlar egallab olishi mumkin. Shuning uchun barkamol avlodni chetdan keladigan yot va zararli g'oyalarga qarshi tura oladigan, mafkuraviy immuniteti kuchli yoshlar etib tarbiyalash bugun har birimizning burchimizga aylanmog'i kerak.

Bizga ma'lumki, g'oyaviy bo'shliq eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida oldin hukmronlik qilib kelgan mafkura o'tmishga aylangach, taraqqiyot talabalariga mos ravishda uning o'rnini bosadigan ilg'or g'oyaviy tizimning hali shakllanmagan holatidir. Bunday sharoitda turli xil mafkuralar ushbu hududga o'z ta'sir doirasini o'tkazishga urinadi. Tabiatda ham, jamiyatda ham vakuum, bo'shliq bo'lishi mumkin bo'lmaganidek, mafkura sohasida ham bo'shliq vujudga kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Darhaqiqat, "e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, jamiyat hayotining barcha sohalarida savdo-sotiq munosabatlari ustuvor bo'lmoqda, "emak va tomoshalar" shiori ostida insonlarda iste'molchilik ruhiyati avj oldirilayapti, "insonning hamyoni qaerda bo'lsa, uning qalbi ham o'sha erda" degan halokatli g'oya singdirilmoqda. Molparastlik va xudbinlikning shu tariqa hammabop qadriyat sifatida tiqishtirilishi esa ma'naviyatni qashshoqlantirib, madaniy gegemoniya o'rnatish uchun qulay zamin yaratishi tabiiydir"[3].

Ayniqsa, butun dunyoda, jumladan, informatsiya olamida, globallashuv jarayoni kechayotgan hozirgi paytda, ya'ni lo'nda qilib aytganda, jahonning bir chekkasida sodir bo'layotgan voqealar va harakatlarning tez tarqalib ketayotganini hisobga olganda, bu masalaning ahamiyati va dolzarbligi yanada ortib bormoqda,[2] degan edi I.A.Karimov.

Mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu g'oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada aholida yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarga oq-qorani ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. Jamiyat, millat o'z g'oyasida mustahkam tura olsa, g'oyaviy tahdidlardan qo'rqmasa, bunday millatni engish mumkin emas. Aksincha, jamiyat ichida g'oyaviy parokandalik, bo'linishlar bo'lsa dushmanlarga, ularning yot mafkuralariga yo'l ochib beradi. Bunday millatni engish, mustamlaka qilish oson kechadi. Shuning uchun barqarorlik va xavfsizlik jamiyatning ongligiga, anglangan

to'g'ri tushuncha va bilimlarga faol amal qilishga, fikriy, g'oyaviy birligiga, bular esa xavfsizlik ma'rifatiga tayanadi.

“Immunitet” so‘zining ma’nosi “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha berilgan: (lotincha-biror narsadan xalos, ozod bo‘lish, qutilish, -organizmning doimiy ichki barqarorligini saqlash, uning turli xususiyatlari va ta’siridan himoyalinishi, qarshilik ko‘rsatishi, rezistentligi) “Falsafa qomusiy lug‘atida”da – mafkuraviy immunitet-shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi”[4], deyiladi.

Shunday qilib “Mafkuraviy immunitet – ma’naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, buzg‘unchi xarakterdagi g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo‘l keladi”– deb ta’rif beriladi falsafiy qomusiy lug‘atida. Immunitet, o‘z navbatida odamni to‘g‘ri yo‘ldan “ozish”dan, turli yo‘llarga adashib, keyin pushaymon bo‘lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa parokandalikdan, parchalanishlardan, sinfiy yoki mahalliy bo‘linishlardan asrab qoladi. Demak, mafkuraviy immunitet – davlat va millatning ma’naviy birligi, ma’naviy sog‘lomligini himoya qiluvchi g‘oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov “Farzandlarimiz yuragida ona-Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur” ligi haqidagi fikrni alohida ta’kidlaganlar.

Xulosa qilib aytganda, mafkuraviy kurashlar kuchaygan bugungi kunda yoshlar qalbida ona-Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o‘lmas ruhi bo‘lgan ona tilimizga, ota-bobolarimizdan meros muqaddas dinga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishimiz zarur. Zero, yurtboshimiz aytganlaridek, biror bir kasallikni davolashdan oldin inson organizmida avvalo unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham yoshlarimiz qalbi va ongida zararli g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantira olsak, turli aldovlarga uchmaydigan, o‘z yurti, Vatani va xalqi uchun fidoiy insonlarni tarbiyalay olamiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
3. Аббосхўжаев О., Умарова Н., Қўчқоров Р. Мафкура полигонларидаги олишувлар. – Тошкент: Академия, 2007.
4. Худойбердиев Х. Мафкуравий иммунитет // Фалсафа қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004.

OILA – DAVLAT IJTIMOIIY-SIYOSIY BARQARORLIGINING ASOSI

Saydaliyeva Nigora Zaynitdinovna.

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Sharq falsafasi va madaniyati” kafedrası
dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.*

Annotatsiya: Maqola globallashuv davrida yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy tarbiya masalalarining dolzarb masalalariga, yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasida oilaning beqiyos o‘rni, turli tahdidlarga qarshi milliy qadriyatlar va an’analarning zamonaviy talab, ehtiyojlarga uyg‘un holda tizimli, ilmiy asoslangan holda maktab, mahalla uzviy birligida amalga oshirishga bag‘ishlangan va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya, oila, mahalla, milliy qadriyatlar, globallashuv.

Zamonaviy dunyoda yirik tektonik geosiyosiy, geoiqtisodiy, geoijtimoiy o‘zgarishlar kechmoqda. Hozirgi murakkab globallashgan dunyoda insoniyat hayotida muayyan bir davr o‘z xotimasiga yetib, yangi davr boshlanayotganini ko‘rsatadigan misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda, butun insoniyat taqdiriga bevosita ta’sir etuvchi murakkab va keskin muammolarni yechish zarurati vujudga kelmoqda. Shuning barobarida yoshlar dunyoqarashini, tafakkur tarzini to‘g‘ri shakllanishi nafaqat bugungi kunda ularning ijtimoiy siyosiy jarayonlardagi o‘rnini belgilaydi, yuzaga kelayotgan murakkab jarayonlarni to‘g‘ri anglash, baxolash, tahlil qilish, nafaqat xulosalar chiqarish, balki pragmatik qarorlar qabul qilishlarni, mamlakat istiqbolini qanday bo‘lishini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhim” ekanligini ta’kidlab o‘tadi [2]. Darxaqiqat, masalaning behad jiddiyligi va dolzarbligi atrof tabiatda sordir bo‘layotgan inqirozli ahvolda, siyosiy bo‘xronlarda, ijtimoiy va iqtisodiy krizis vaziyatlarida ham, kichik bir oilaning bola tarbiyasi bilan bog‘liq muammolarida ham har qadamda ochiq-oydin namoyon bo‘lmoqda.

Butun dunyoda globallashuv jarayoni rivojlanib, chuqurlashib borayotganligi sharoitida milliy ma’naviyatga qarshi yuzaga kelayotgan ko‘plab zamonaviy tahdidlar yosh davlatlarning milliy qadriyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Begona g‘oyalarning mamlakatga kirib kelishi va fuqarolar o‘rtasida tarqalishi katta xavf, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi

mumkinligini e'tiborga olib, ma'rifatparvar olim, jadidchilik harakatining yorqin namoyandasi Fitrat "Ovrupo jahongirlari"ning Sharqqa nisbatan o'tkazgan siyosatini shunday izohlagan edi: "Sharqning axloqini buzmoq, ko'nglini diniy va milliy muqaddas vatandan sovutmoq, sharqlilar orasinda ayriliq va yovliq solib, bir-birlariga qilich chekturmak, sharqlini ishsiz, yalqov, och va yalang'och qilib, o'zlariga qul etib olmoq, yuvosh-yuvosh sharqlining qo'lindan yer va qimmatli narsalarini turli hiylalar bilan tortib olmoq. Sharq xalqini turli yo'llar bilan sekin-sekin yo'q qilmoq. Ingliz va fransuz jahongirlari tomonidan Xitoy, Hind va Misrda ochilgan fohishaxona va mayxonalar, yuborilgan to'plar va misyuxnerlar, ochilg'on maktablar barisi shuning uchundir. Rossiya Nikolay hukumati bizning Turkistonimizda ham shul tadbirlarni ko'rmadimi?" [1].

Hozirgi kunda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan g'arbning siyosiy kuchlari va harakatlari sirasiga tajovuzkor millatchilik, shovinizm, radikalizm, neofashizm, fundamentalizm, diniy ekstremizm, neokommunizm kabi ko'plab g'oyalarni kiritishimiz mumkin.

Mafkuraviy tahdidlar o'z mohiyatidan kelib chiqib, eng avvalo, inson ongi, tafakkuri va xulq-atvoriga xavf-xatar solib, inson ongi va qalbini buzg'unchi g'oyalar bilan zaharlashga harakat qilmoqda. Buesa, o'z navbatida, mamlakatda mafkuraviy xavfsizlikni kuchaytirish chora-tadbirlariga jiddiy e'tiborni qaratishni talab qiladi.

Mafkuraviy tahdidlarning xavfli jihati shundaki, u birinchi navbatda jamiyatning ma'naviy sohasini buzib tashlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Chunki ma'naviy tafakkur, ma'naviy salohiyat jamiyat taraqqiyotini, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy omillardan biridir.

"Ommaviy madaniyat" degan niqob ostidagi axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm, kosmopolitizm, gedonizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming-yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar yurtning taraqqiyoti, vatanning ravnaqini o'ylagan har bir fuqaroni tashvishga solmasdan qo'ymaydi.

Aynan shunday xavf-xatar va tahdidlarni oldini olishda oila fenomeni muhim ahamiyatga ega-ki, uni asrab-avaylash va mutahkamlashni davlat siyosti darajasigacha ko'targan davlat o'z kelajagining tinchligi va farovonligini ta'minlagan bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz

yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”[4], degan ta’kidi, yurtimizda yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishga alohida e’tibor berilayotganining dalolatidir.

Tarbiya –inson tug‘ilgan kundan boshlanib to umrining so‘ngiga qadar davom etadigan uzoq muddatli tabiiy jarayondir. Farzandlar inson naslining davomchisi bo‘lishi bilan birgalikda oilaning mustaxkam zanjiri xisoblanadi. Oilaga esa barkamol avlodni tarbiyalovchi maskan deya tarif beramiz.

Taniqli ma’rifatparvaradib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqlixissaqo‘shgan, o‘zasarlarida o‘zbek xalqining eng yaxshian’analari, ta’lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks etgan pedagogik olimdir. “Rivojlanishning yuksak pog‘onasi tomon odimlagan har bir mamlakat, avvalo, yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratadi. Sababi, farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u jamiyat, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan buyuk ijtimoiy ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog‘liq. Rasuli akram nabiiy muxtaram sallolohu alayhi vasallam afandimiz: “Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindadur, xasbi axloqidandur.”, demishlar va adib ta’kidlaganidek: Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq va axloqimizni rivojlantirmoq lozim.

Bola tarbiyasi eng muqaddas dargoh-oiladan boshlanadi. «Oila tarbiyasi» ko‘p qirrali tushunchaga ega bo‘lib, uning mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi aks etadi, boshqacha aytganda, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham oila tarbiyasi milliy-ma’naviy qadriyatlarning, milliy tarbiya usullarining o‘zi bilan kifoyalaniq qololmaydi. Binobarin, oila tarbiyasi zamonaviylik tamoyillariga uzviy bog‘liq holda sof milliy mezonlar doirasida qolib ketishi mumkin emas va shubhasiz, jamiyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida, ayniqsa, bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga o‘tish va keng miqyosdagi islohotlar davrida milliy-ma’naviy, madaniy mezonlar bilan birga ular bilan chambarchas bog‘liq holda umuminsoniy qadriyatlarga ham katta ehtiyoj seziladi[3].

2022-yilgi ma’lumotlarga qaraganda, O‘zbekistonda 5 miliona yaqin oila mavjud. Har bir oila o‘ziga xos olam. Uning avloddan-avlodga o‘tib kelayotan an’analari, rasm-rusmlari, axloqiy-ma’naviy qadriyatlari bor. Zero, oilada shaxs inson sifatida shakllanadi, yashashni, mehnat qilishni o‘rganadi, har tomonlama barkamol, iymon-e’tiqodi butun insonlar sog‘lom muhitli oilalarda tug‘ilib, voyaga yetadilar. Ma’lumki, sharq xalqlari farzand tarbiyasiga o‘ta mas’uliyat bilan qarab kelganlar va ularni voyaga yetishida xalq an’analariga qat’iy rioya qilishgan. Eng avvalo mehnat tarbiyasiga katta

e'tibor berishgan. Oilada hech bir farzand mehnatsiz qolmagan, ota-ona o'z farzandlariga kasb sirlaridan saboq berganlar, natijada bolalarda mehnatga hurmat va malaka paydo bo'la boshlagan. Ota-ona, qarindosh-urug' va umuman insonlar mehnatini qadrlash ko'nikmasi avvalo, oilada tarkib topgan. Yoshlikdan el- yurtga foydasi tegadigan mehnat faoliyatiga yo'naltirish ham mafkuraviy ahamiyatga egadir. Ota-onalar farzandlarining maktabda, oliy o'quv yurtlarida olayotgan bilimlariga, kasb tanlash madaniyati, ehtiyoji shakllanishiga befarq qarashlari mumkin emas.

Ota-onalar bilishi, amal qilishi lozim bo'lgan yana bir muhim masala farzandlariga berayotgan tarbiya davr ruhiga, zamon imkoniyati va ehtiyojlariga, davlat belgilagan rejalar tizimiga qay darajada mos kelishini yaxshi tasavvur etish bo'lmoqda. Yosh avlodni kelajakka ishonch hosil qilish uchun avlodimiz ma'naviy-axloqiy merosini chuqur o'rganib, o'z faoliyat, iste'dod va qobiliyatini hayot yo'nalishini yurt, xalq, davlat maqsadi bilan uyg'unlashtirish lozim[5].

Ota-onalar farzand tarbiyasida asrlar davomida shakllangan an'analar, bu boradagi umuminsoniy qadriyatlarga tayanganida, davr ruhi va ehtiyojlarini e'tiborga olganida, yaxshi natijalarga erishadilar. Bu ishning samarasi ko'proq tarbiyaning maqsadi va usullariga bog'liq bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni, yo'nalishi, usullari esa o'zgarib, yangilanib, takomillashib turadi. Bunga har bir konkret tarixiy davrning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, mafkuraviy ehtiyojlari ham ta'sir etadi. Umuman olganda, oilada amalga oshiriladigan tarbiyaning mazmunini farzandlarda o'z ota-onasidan, oilasi, ajdodlari, tug'ilib o'sgan o'lkasi, vatani, millati, xalqi, tili, dini, an'analardan g'ururlanishi hissini uyg'otishdan iborat.

2024-yil, 5 fevral kuni ijtimoiy sohadagi ustivor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilishda "maktab-ota-ona-maxalla"zanjiri g'oyasi ilgari surildi, va bola tarbiyasi xar zamonlarda jamiyat uchun eng muxim masala ekanligi ta'kidlandi.

Mavzuning ahamiyatliligini inobatga olgan holda quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

1. Maktab psixologlarining ota-onalar bilan tizimli aloqasini o'rnatish;
2. Mahallada joriy etilgan psixologlarga o'z xududi bo'yicha sotsiologik so'rovnomalar, kuzatuv olib borish ko'nikmasini o'rgatish, maktab bilan aloqasini o'rnatish;
3. Bolalarning gadjetlarni tinimsiz ishlatishi natijasida yuzaga kelayotgan (50 yaqin) kasalliklar xaqida OAVda tibbiyot va ruxshunos mutaxassislarining ilmiy asoslangan ko'rsatuvlarini namoyish etish, mavzuga doir roliklar yaratib, reklamani o'rniga namoyish etish;
4. Bolalar adabiyotini yaratish masalasida ularning yosh xususiyatini

inobatga olish, ta'lim-tarbiya jarayonida ertaklarning nihoyatda kuchli vosita ekanligini xisobga olgan holda, ertaklar panoramisini kengaytirish- "Turkiy xalqlar ertaklari", "Sharq xalqlari ertaklari", "Turk xalqi ertaklari", "Markaziy Osiyo xalqlari ertaklari", "G'arb xalqlari ertaklari", "Xitoy xalq ertaklari" va boshqalar. Nashr etiladigan ertaklarni yuqori sifatli, illustratsiyali, rangli, texnologik (pazl, maskalar, rebuslar) va mobil ilovalari bilan chiqarish. Ular asosida multfilmlar yaratish;

5. Maktablarda tashkil etiladigan mavzular bo'yicha tadbirlarga oliy ta'lim muassasalarining nomdor stipendiantlari, magistrantlarini jalb etish;

6. Oliy ta'lim muassasalarining pedagogika va psixologiya yo'nalishi magistratura, doktorantura tizimida ilmiy mavzularni davr talabi va extiyojidan kelib chiqib, yosh bolalar psixologiyasining amaliy jihatiga e'tibor bergan holda, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, MMTV bilan kelishilgan holda ishlab chiqish;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat. Sharq siyosati. Buxoro; Navqiron Buxoro. 1992. – B. 8.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T: O'zbekiston, 2017. – B. 27.
3. Najmidinova K. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. Toshkent. «Adolat». 2016 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. Xalq so'zi., iyul, 2017 y.
5. Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirish va sog'lom avlodni tarbiyalash muammolari: f.f.d. dis. Toshkent Davlat agrar universiteti. – Toshkent, 1998. 270-bet.

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINI BARKAMOL AVLOD BO'LIB TARBIYA TOPISHIDA MA'NAVIYATNING ROLI

Abdixamedov Abbos Abilatibovich,
*Toshkent viloyati IIBB JXX Probatsiya
boshqarmasi bo'lim boshlig'i, podpolkovnik*

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda yoshlarni ma'naviy tarbiyasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquqiy ongi va madaniyatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: Yoshlar, jinoyat, huquqbuzarlik, yoshlar bandligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

Ertangi kunimiz egalari bo'lgan yoshlar bilan ishlash – biz uchun hayot-mamot masalasi, xayfsizligimiz masalasi.

Shavkat MIRZIYOEV

Inson yaralibdiki, yaxshilik sari intilishga, yaxshi amallari bilan insonlar ko'nglidan joy olishga harakat qiladi. Albatta, ba'zida esa xotirjamlik va saxovatni hamsog'ib qoladi. Ko'pinasalar ni o'rganadi. Muhimi, o'rganishlari ichida asosiysi ilm bo'lib qoladi. Ma'rifatli, saodatli bo'lib, jaholatga qarshi o'z ilmi bilan kurashganlar oramizda minglab topilishi mumkin. Ilmsiz taraqqiyot bo'lmaydi – jaholat saodatmand etmaydi. **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, “Jaholatga qarshi – ma'rifat”ni qurol qilgan ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma'naviy meros o'ziga xos najot qal'asi, himoya qo'rg'oni vazifasini o'taydi.** Shu bois ushbu ulug'vor qadriyat barcha olimu fuzalolar tomonidan ulug'langan, muqaddas va mo'tabar kitoblarda yuksak ne'mat sifatida e'tirof etilgan.

Dunyoda ko'plab shavfqatsizliklarni ham ko'rishimiz mumkin. Ba'zan oilalarda kelib chiqayotgan turli norizoliklar, bir-biriga bo'lgan mehrsizliklar, bularning barchasi insoniyatga va uning kelajagiga juda katta ta'sir qiladi. Asosiy sabab farzandlarga berilayotgan tarbiyaning e'tibordan chetda qolayotganligidandir. Kitob, turli hadislar, ma'naviy intilishlarning yo'qligidandir.

Inson har qanday salbiy illatga avvalo o'zi kurashmog'i lozim. Dunyo yaralabdiki, u ikki tomon bilan o'lchanadi. Yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, jaholat va ma'rifat. Mana shu ikki jihat teng kurashadi. Ularning qay birining g'olib bo'lishi bevosita insonning o'ziga, ichki kuchiga bog'liq. Agar har bir inson o'z irodasiga ishonsa, kuchiga tayansa, sabr qilsa hamisha g'alaba qozonadi, ya'ni yomonlik ustidan g'alaba qozonadi. Jaholatga qarshi kuch topishga intiladi. Bu esa insonga tom ma'noda kuch bag'ishlaydi. Intilishini kuchaytiradi. Shuning uchun har bir inson jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashmog'i uchun avvalo, ajdodlar merosini anglamog'i, ularni o'rganmog'i lozim.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.[2]

Shu bilan birga, jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga

berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo‘shilib qolish holatlari hamon uchramoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish maqsadida Prezidentimizning 03.05.2019-yil kuni PQ-4307-son Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida qarori qabul qilinib, qaror asosida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar hamda ijro etish mexanizimi tasdiqlandi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohatlarni davomi sifatida, Prezidentimizning 2021-yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori qabul qilindi.[3]

Qarorda, Ma’naviy xavfsizlik masalasi millatning mavjudligini belgilovchi vazifalar, axloqiy qadriyatlar orqali jamiyat va uning madaniyatini saqlashga qaratilgan yaxlit ijtimoiy tizimlar faoliyatini namoyon etadi.

Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globalashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba’zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda. Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo‘lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o‘ylab yashash zarur.

Yuksak ma’naviyatli, chuqur bilimga ega, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol topadigan avlodni tarbiyalash turli ma’naviy tahdidlardan himoyalangan yangi avlodni yetishtirish demakdir.[4].

“Umuman olganda, har qanday jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rolni ushbu jamiyatning kelajagi bog‘liq bo‘lgan yosh avlodning sog‘lom va barkamol rivojlanishi o‘ynaydi. Shuning uchun islohotlarimizni kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish masalalarida biz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan g‘ayratli, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan yoshlarimizni o‘zimizga tayanch deb bilamiz. Hozirgi darvda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar umumiy aholining taxmiman 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 64 foizini tashkil etadi.

Shu sababli yoshlarning tarbiyasiga, kamolotga yetishiga huquqlarini himoya qilishga e'tiborni qaratish davlat siyosatining ustivor yo'nlislaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"

Davlatimiz rahbari faqat jazo qo'llash tahdidi bilan emas, avvalo, aholi ongiga jinoyatga qo'l urmaslik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, Vatanga sadoqatli bo'lish, atrofdagi insonlarga yuksak hurmatda bo'lish kabi fazilatlarini singdirish lozimligi, bunda ommaviy axborot vositalari, radio-televideniye, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar matbuot xizmatlari yanada faollik ko'rsatishi zarurligini ta'kidladi.

Tahlillarga ko'ra, qotillik jinoyatlari uchun hukm qilinganlar ko'p hollarda nosog'lom muhitda tarbiya topgan bo'lib chiqadi. Ularning 20 foizga yaqini ota-onasiz, uchdan bir qismi to'liqsiz oilada (ota yoki onasiz) o'sgan.

Har beshinchi holatda oilaning to'liqsizligi ota yoki onaning sudlangani bilan bog'liq bo'lmoqda. Ota yoki onaning jinoyat yo'liga kirishi bolaning ham shu yo'ldan borishiga turtki bo'luvchi asosiy omillardan biri sanaladi.

Bu jarayonda Prezidentimizning "Agar jamiyat tanasi iqtisod bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga kirishar ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat", degan purma'no fikrlari biz uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilishi lozim.

"Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchilarni va taniqli ziyolilarni biriktirish, milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish, uning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirish, yoshlarni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatish, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirish kabi takliflar olg'a surildi. Demak, bugungi davr targ'iboti shaxs bilan jamiyat, jamiyat bilan davlat, o'tmish bilan bugun, bugun bilan kelajak, demokratiya bilan milliy davlatchilik, milliylik bilan umuminsoniylik, axloq bilan huquq, iqtisod bilan siyosat, ma'rifat bilan ma'naviyat masalalarini o'ziga xos hamda umumiy jihatlarini keng xalq ommasiga tushuntirish, ular orasidagi uyg'unlikni tahlil etishga qaratilgan, yangi jamiyatning yangi mezonlarini o'z vaqtida aniq, to'g'ri ilg'ab olishga yo'naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, bizning asrimizga kelib masofa bilmas, hudud bilmas voqelikka aylangan terrorizm, diniy ekstremizm, giyohvandlik, separatizm kabi tashqi tahdidlar, zo‘ravonlik, axloqiy buzuvchilik, ommaviy madaniyat, egotsentrizm, kosmopolitizm, korrupsiya, jinoyatchilik, millatchilik, loqaydlik singari ichki mafkuraviy-g‘oyaviy tahdidlar siyosiy, ma‘naviy targ‘ibot-tashviqot ishlarini keng jamoatchilik orasida yanada kuchaytirish, uning ko‘lamini, ilmiyligini, hayotiyligini oshirishni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Halq so‘zi gazetasi, 2023-yil 12 aprel, 72-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3 may kunidagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26 mart kunidagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31 dekabr kunidagi “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-1059-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18 yanvar kunidagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 23-son qarori.
6. J.Xasanboev, M.Turopova va O.Xasanboeva. “Ma‘naviy ahloqiy tarbiya asoslari” metodik qo‘llanma. G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa‘nat nashriyoti. Toshkent -2000 y.

MILLATLARARO MUNOSABATLARDA BAG‘RIKENGLIKNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIRI

Meyliyev Ulmas Farmonovich – MTTDMQTMOI

*“Ijtimoiy fanlar” kafedrasida
katta o‘qituvchisi*

Ma‘naviy tarbiya – yuksak ma‘naviyatni tarbiyalash vositasi, muayan shaxs, jamoa, muayan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkomollik, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy yetuklik kabi sifatlarni shakillantirishga qaratilgan amaliy ta‘lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tarbiyadir.

Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan ma‘naviy

xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadiryat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadiryat va abadiy qadiryatlardir.

«Tahdid» tushunchasi, uning shakllari vaildizlari birmuncha mukammalroq ravishda S. Otamuratov tomonidan o'rganilgan. U: «Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, bu tushunchaning maqomiga aniq javob qaytarish murakkab masala. Chunki uni real holatda faqat qurol vositasidagi ko'rinishini aniq tasavvur etish mumkin. Boshqa barcha holatlarda ko'zga ko'rinmas, mavhum, zimdan amal qiladi. U zimdan shakllanadi va asta-sekinlik bilan yuzaga chiqib boradi hamda barqarorlik va taraqqiyotga salbiy ta'sir o'tkaza boshlaydi. Uning ana shu ta'siri moddiy borliq sifatida namoyon bo'lgandagina uni sezish, anglab yetish va ko'rish mumkin bo'ladi» [1], – degan fikrni ilgari surgan hamda unga quyidagicha ta'rifni bergan. «...Tahdidga moddiy kuch, omil va nazariy jarayon sifatida qarash mumkin. Qachonki u moddiylik asosida (qurol, vosita ko'rinishida) yuzaga keladigan bo'lsa, kuch darajasida namoyon bo'ladi. Ma'naviyat, g'oya va mafkuralar ko'rinishida yuzaga kelgan tahdidlarning barchasi ong va dunyoqarashga joylashgan bo'lsa, u asta-sekin moddiylikka aylanadi. Bu tahdidning nazariy jarayon sifatidagi jihati hisoblanadi» [2]. Xullas, bu ta'rifda «tahdid» ning moddiy borliq, nazariy jarayon va omil sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlangan.

Shunday qilib, «tahdid» ning yuzaga kelishida «xavf-xatar» voqea va jarayonlarda barqarorlikning amal qila boshlashida yetakchi omil vazifasini bajaradi. «Xavfsizlik» ning mavjudligi esa «tahdid» ni yuzaga kelmasligini ifoda etadi, uning barqarorlik holatiga tushib qolishi, «xavf-xatar» ning yuzaga kelishi va uning rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri «tahdid» ning yuzaga kelishiga olib keladi.

mafkuraviy tahdidlardan biri «ommaviy madaniyat» niqobidagi tahdidlardir. Ushbu tahdidlarning asl mohiyatini aniqlashdan oldin, «ommaviy madaniyat» ning tushunchasini to'liq anglab yetish va uning asosiy xususiyatlarini o'rganish lozim. Zero, bugungi kunda dunyoni standart holatga keltirish, shu asosda jahon tizginini o'z qo'lga olishni istagan ayrim manfaatparast kuchlar o'zlarining axloqsizlikni targ'ib qiluvchi, millatlar milliy madaniyatini yemirishga va insonning ma'naviy begonlashishiga olib keluvchi jarayonlarni osongina mamlakat ichkarisiga kirgizish uchun «ommaviy madaniyat» ni niqob qilib olishgan. Aynan mafkuraviy tahdidlarning mazkur ko'rinishi «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi mafkuraviy tahdidlar deyilib, u doimo qo'shtirnoq ichida yoziladi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shunday fikr kelib chiqadiki, ommaviy madaniyatdan salbiy maqsadlarni amalga oshirish uchun, shuningdek, undan salbiy illatlarning yuzini bекitadigan niqob sifatida foydalanganda, u, albatta, qo'shtirnoq ichida yoziladi.

«Ommaviy madaniyat» (ing. «mass culture») tushunchasiga falsafa va jamiyatshunoslik fanida XX asr oʻrtalarida burjua madaniyatini ifodalovchi tushuncha sifatida paydo boʻlgan deb qaraladi. Shuningdek, ommaviy madaniyat zamonaviy madaniyatni ishlab chiqarish va isteʼmolchilikni tavsiflash uchun ishlatiladigan jarayon sifatida ham oʻrganilgan. Ushbu madaniyat jamiyatni bir tizimga (standart) solish va nisbatan osonroq qoʻlga olib boshqarishni asosiy maqsad qilib oladi. Ushbu jarayonda ishlab chiqarish mahsulotlariga alohida eʼtibor qaratilib, ular bir xil (standartlashtirilgan) holatga keltiriladi, hamda omma ongiga yetkaziladi. Bizningcha, “ommaviy madaniyat”ning muhim belgisi bu inson faoliyatini uzluksiz absurd xatti-harakatga yoʻnaltirish, undagi koʻngilxushlik, lazzatlanish tuygʻusini junbushga keltirishi bilan xarakterlanadi.

“Ommaviy madaniyat” iborasi XX asrning ikkinchi yarmidan qoʻllana boshlangan boʻlsa-da, uning ijtimoiy-tarixiy ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ontologik nuqtai-nazardan “Ommaviy madaniyat”ning tarqalishi makon va zamonda turlicha kechgan. Qadim davrlarda ham “ommaviy madaniyat”ni tarqatish bilan shugʻullanilgan. Oʻsha zamonlarda bu ish bilan band boʻlgan maxsus xufiya idoralari tashkil etilgan. Shuningdek, savdogarlar, sayyohlar, olimlar ham bu ishga jalb qilingan. Ayrim hollarda “ommaviy madaniyat” urush, bosqinchilik, zoʻravonlik, majburlash yoʻli bilan oʻzga yurtlarda joriy etilgan.

Ommaviy madaniyatning vujudga kelishi muammosi ilmiy izlanuvchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar uning vujudga kelishini XIX asrning oxirlarida xalq maorifini rovojlantrish, sanʼat va adabiyotda yuz bergan keng koʻlamli oʻzgarishlar bilan bogʻlaydilar[3]. Ikkinchi guruh tadqiqotchilar uni XX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan ilmiy-texnika inqilobi natijasida aholi ijtimoiy turmush darajasini tobora oshib borishi va madaniyat yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengayishining natijasi deb, hisoblaydilar[4].

Ommaviy madaniyatning vujudga kelishi masalasiga bu ikki yondashuvning asosini aholi guruhlarining turmush darajasi va maʼnaviyatida yuz bergan oʻzgarishlar tashkil etadi. Lekin uni aholining savodsizligini tugatish toʻgʻrisida qabul qilingan qonun[5]yoki ommaviy kommunikatsiya vositalari (radio, kino, televidenie, internet va h.k.)ning vujudga kelishi natijasi sifatida qarash bizningcha toʻgʻri boʻlmasa kerak. Chunki tarixda aholining turmush darajasi va madaniyatini rivojlanishiga kuchli taʼsir etgan oʻzgarishlar yoki kashfiyotlar (teatrning vujudga kelishi, kitob bosish stanogining kashf etilishi va h.k.) juda koʻp boʻlgan. Shu bois, XIX asrning oxiridan - XX asrning oʻrtalarigacha boʻlgan davr mobaynida fan va texnika rivojlanishida, sanʼat va adabiyotda qoʻlga kiritilgan yutuqlar ommaviy madaniyatni vujudga kelishi jarayonini yakunlaganligi, deb qayd etishimiz mumkin.

“Ommaviy madaniyat”ning dastlabki ko‘rinishi bir butun holda muqaddas xarakterga ega an’anaviy madaniyatdan mohiyatan sayoz va xordiq chiqarishning g‘ayrioddiy turlarini targ‘ib qiluvchi madaniyat turi ajralib chiqqan davrlarda paydo bo‘lgan. Masalan, “Ommaviy madaniyat”ning rivojlanishi qadimgi shahar-davlatlar nomi bilan bog‘liq bo‘lib, jumladan, qadimgi yunoniston, rim va Bobilda tomoshalar, ko‘zboyliq‘ichlar, ko‘cha qo‘shiqchilari va raqqoslari misolida ko‘ngilxushlik qilish turi keng yoyilgan edi[6].

Ommaviy madaniyat fenomen sifatida jamiyatda ommalashib tarqaluvchi jarayonlarni vujudga keltiradi. Masalan, millatlar kelajagiga ijobiy ta’sir qiluvchi jarayonlar, ya’ni mamlakatlarning o‘lmas va bebaho qadriyatlarining tarqalishi bilan birga, jamiyat uchun salbiy ta’sirga ega bo‘lgan hodisalar ham ommaviylik asosida tarqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Otamuratov S. Globalashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik (siyosiy-falsafiy tahlil). Ikkinchi nashr. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – B. 258-259.
2. O‘sha joydan.
3. Vvedenie v kulturologiyu. –M., 1996. –S. 63.
4. Kulturologiya teoriya i istoriya kulturы. –M., 1996. –S.54-55.
5. 1870-yilda Buyukbritaniyada majburiy umumiy savodxonlik to‘g‘risida qonun qabul qilingan. Vvedenie v kulturologiyu –M., 1996. –S. 63.
6. Chumakov A.N. Metafizika globalizatsii. Kulturno-sivilizatsionnyy kontekst. 2-ye izd., ispravl. i dopoln. M. Prospekt 2017. - 496 s.

ZAMONAVIY AXBOROT MAYDONIDA EKSTREMIZM VA TERRORIZM G‘OYALARIGA QARSHI KURASH MUAMMOLARI

Ergashev Axror Shuxrat o‘g‘li
*RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy
tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi*

Annotasiya. Ushbu maqola zamonaviy axborot maydonida shakllangan mediatexnologiyalar, ularning maqsadi va jamiyat ongiga ta’sirini ochib berishga qaratilgan. Afsuski, mediatexnologiyalardan ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qilishda ham foydalanilmoqda. Zamonaviy mediatexnologiyalar ta’sirida oldindan kutilgan ijtimoiy media xulq atvorni shakllantirish bugun ko‘pchilik OAV (ommaviy axborot vositalari)ining maqsadiga aylanib bormoqda.

Kalit soʻzlar. Mediatexnologiya, ekstremizm, terrorizm, media xulq atvor, OAV.

Zamonaviy axborot maydonida ekstremizm va terrorizm kabi destruktiv gʻoyalarga qarshi kurash faqat jinoyat-huquq qonunchiligi bilan cheklanmasligi lozim. Zero, zamonaviy global jamiyatdagi transformasion jarayonlar, shuningdek, AKTning (axborot-kompyuter texnologiyalari) rivojlanishi butun dunyoda yosh avlodning integrasiyalashuv mexanizmlariga salbiy taʼsir koʻrsatdi va ularning ekstremistik gʻoyalarga, turli terroristik tashkilotlar tomonidan taklif qilinayotgan soxta qadriyatlar va xulq-atvor modellariga nisbatan immunitetini susaytirdi. Mobil uyali aloqa vositalari va Internet tarmogʻi turli ekstremistik oqimlar uchun oʻzgacha fikrlovchilarga nisbatan zoʻrovonlik va nafratni targʻib qiluvchi vositalarga aylanib bormoqda. Turli ekstremistik harakatlar va terroristik guruhlar ommaviy global tarmoqlar orqali yoshlarning hali toʻliq shakllanib ulgurmagan ongiga taʼsir koʻrsatmoqda, oqibatda ekstremistik oqimlar shu yoshlar hisobiga doimiy yangilanib bormoqda va bu deyarli barcha mamlakatlarning milliy xavfsizligiga tahdid solmoqda.

Oʻzbekistonda mamlakatning xavfsiz rivojlanishiga katta eʼtibor qaratilmoqda. “Oʻzbekiston – 2030” Strategiyasi boʻyicha amalga oshirish belgilangan 5 ta ustuvor yoʻnalishdan bittasi mamlakatni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish ishlarini davom ettirish ekanligi taʼkidlangan [4].

Albatta, xavfsizlik juda keng tushuncha. Zamonaviy axborot maydonida ekstremizm va terrorizm gʻoyalari qarshi kurash ham umumiy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Shu sababli bu kurashning samaradorligi ekstremizm va terrorizm gʻoyalari yoshlar oʻrtasida tarqalishi sabablari va tarqatish usullarini chuqur oʻrganishni ham taqoza etadi.

Ekstremizm va terrorizm gʻoyalari targʻib qilishda AKTidan foydalanish samaradorligining darajasi texnik vositalarning zamonaviy kommunikasiya jarayonidagi ustunligi bilan belgilanadi. Bunday internet-resurslar puxta ishlangan nazariy bazaga va axborot-psixologik taʼsirning hamda foydalanuvchilar ongini manipulyatsiya qilishning keng vositalariga ega boʻlib, mazmuniy va metodologik jihatdan agressiv xarakter kasb etadi.

Turli mamlakatlar ekspertlari tomonidan oʻtkazilgan sosiologik tadqiqotlarning koʻrsatishicha, “OAV (ommaviy axborot vositalari) fuqarolarning ongi va xulq-atvoriga juda ulkan axborot-psixologik taʼsir koʻrsatadi. OAV tobora kuchayib borayotgan mobilizatsion imkoniyatga ega boʻlgan oʻta muhim ijtimoiy-siyosiy kommunikativ institutlardan biri hisoblanadi. Ekstremistik va terroristik mavzu eng yirik nashrlar, televizion va elektron OAVning kundalik axborotlarida oʻz aksini topmoqda” [3, b. 58]. Ularning intensivligi va qisqaligi auditoriyada reaktiv deb ataluvchi

media xulq atvorni shakllantiradi “organizmning qandaydir tashqi omillarga oldindan aytish mumkin bo‘lgan reaksiyasini shakllantiradi” (2, b. 62). Xulq atvorning bunday modelini shakllantirish OAV xabarlariga ko‘nikmani hosil qilish orqali amalga oshiriladi. Bu organizmning o‘ziga xos individual orttirilgan moslashuvchanlik reaksiyasi bo‘lib, maqsadga yo‘naltirilgan xabar bilan unga nisbatan barqaror reaksiya o‘rtasidagi aloqani aks ettiradi.

Ma‘lum bir ijtimoiy-siyosiy muhim voqeaga nisbatan reaksiya sifatida reaktiv media xulq atvorning aks etishiga OAV ta‘siri ostida shakllangan yoki ma‘lum trendlarga taqlid tarzidagi xulq atvorni, OAV tomonidan singdiriladigan xulq atvor modelini ongsiz ravishda ko‘chirib olishni, televizor yoki Internet ma‘lumotlarini ko‘rgan, radio eshitgan yoki gazeta o‘qigandan keyin insonning keskin o‘zgaradigan harakatlarini, ma‘lumotlarni notanqidiy qabul qilish va ular ta‘sirida o‘zining shaxsiy pozitsiyasi va fikridan voz kechish kabilarni kiritish mumkin [3, b. 186].

Jamiyatga taqdim etilayotgan asosiy ekspressiv ma‘lumotlar va tashvishli axborotlar, odatda, oldindan rejalashtirilgan barqaror natija beradi: bunday media xulq atvorni modellashtirish va kutilgan natijani olish mumkin. Masalan, 2022-yil iyul oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasida yuz bergan voqealarning ayrim chet el OAV tomonidan biryozlama talqin qilinishi namoyish qatnashchilari orasida oldindan rejalashtirilgan xulq atvorning shakllanishiga va oqibatda to‘qnashuvlar va fojiaiy holatlarga ham olib keldi. Yoki boshqa bir misol sifatida Z.Prilepin, S.Mixeyev, M.Smolin kabi rossiyalik siyosatshunos va tarixchilar tomonidan O‘zbekistonga nisbatan aytilgan avantyuristik fikrlar o‘zbek mediamaydonida jamiyatdagi barqaror millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka xavf soluvchi media xulq atvorning shakllanishiga olib kelganligini aytish mumkin.

Ayrim chet davlatlar ba‘zan terroristik xav-xatarlarni OAVda yoritish paytida, shu jumladan, o‘zining geosiyosiy manfaatlarini ta‘minlash maqsadida axborot maydonidan ommaning ongini manipulyatsiyalash maqsadida foydalanadi. Bugun bu texnoogiyalardan faoliyatning boshqa sohalarida ham “virusli mediamarketing” sifatida foydalanilmoqda [2, b. 63].

Bu jarayon ramziy ma‘noda “virus ekish” degan nom oldi: axborot xuddi virus singari butun boshli auditoriyani zaharlaydi, har bir auditoriya o‘zidan keyingi tanishlar ayditoriyasi uchun virusni tarqatuvchiga aylanadi. Yangi mediamaydonlarni (chatlar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar) jalb etish natijasida auditoriya kengayib boradi, axborotdagi ekspressivlik va dekorativlik uning boshqa mediamaydonlarda ham tezlik bilan keng tarqalishini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sharoitda ayniqsa yoshlar o‘rtasida ekstremistik g‘oyalar tarqalishining odini olishga qaratilgan proflaktik tadbirlar tizimini yaratish ehtiyoji mavjud. Yoshlar bilan ishlashga faqat

ta'lim tashkilotlari emas, balki keng jamoatchilikni, ayniqsa maxsus xizmatlar vakillarini jalb qilish va yoshlarda destruktiv xulq atvorning paydo bo'lishini ilk bosqichlarida aniqlash va bunday o'quvchilarning har biri bilan individual yondoshuv asosida shug'ullanish lozim. Bu esa psixolog va pedagoglar, maxsus xizmatlar va vakolatli organlar vakillarining kvalifikatsiyali yondoshuvini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жилавская И.В. Медиаповедение личности. Материалы к курсу: учеб. пособие. – М.: РИЦ МГГУ им. М.А. Шолохова, 2012. – 91 с.
2. Петренко М.В. Роль современных СМИ в борьбе с террористическими угрозами // Научное обозрение. Сер. 2: Гуманитарные науки. 2017. № 4–5 (август–октябрь).– С. 56–63.
3. Меркурьев В.В., Ульянов М.В. Стратегия противодействия терроризму и экстремизму в Российской Федерации: состояние, проблемы и перспективы // Известия Юго-Западного государственного университета. 2016. № 2 (65). – С. 182–194.
4. “O‘zbekiston – 2023” Strategiyasi: asosiy g‘oyalar. https://www.norma.-uz/uz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_-_2030_strategiyasi_asosiy_goyalar

DESTRUKTIV VA TOTALITAR SEKTALARNING G‘OYAVIY - MAFKURAVIY TAHDID VA UNI O‘RGANISH METODOLOGIYASI

Kuranov Umid Muxammadovich

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada destruktiv va totalitar sektalarning g‘oyaviy - mafkuraviy tahdid va uni o‘rganish metodologiyasi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada missionerlik destruktiv va totalitar sektalar faoliyati geosiyosat nazariyasiga ko‘ra g‘oyaviy-mafkuraviy ekspansiyaning bir turi sifatida mafkura poligonlarida tobora kuchayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: missionerlik, ma'naviyat, mafkura, ma'rifat, sekta. destruktiv, totalitar, targ‘ibot.

Globalashuv sharoitida destruktiv va totalitar sektalar faoliyati mafkura

poligonlarida g'oyaviy-mafkuraviy ekspansiyaning bir turi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida turli dinlar va konfessiyalar orasidagi eng asosiy to'sqinlik bevosita destruktiv va totalitar sektalarning harakatlari oqibatida sodir bo'lmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: **“Ekstremistik va terroristik tashkilotlar soxta g'oyalarini asl diniy qadriyatlar sifatida talqin qilish orqali inson huquqi va erkinliklarini oyoq osti qilish, insoniyatning diniy, madaniy-ma'rifiy merosiga jiddiy zarar yetkazib, dinlar orasiga nifoq solishga hamda dinlararo munosabatlarga putur yetkazishga harakat qilmoqda”**[1]. Zero, bugungi kunda u yoki bu dinni bayroq qilib dunyoviy tartibotga qarshi yo'naltirilgan radikal harakatlarga qarshi kurash olib borish ko'p qirrali benihoya ziddiyatli fenomen ekanligini inobatga olish zarur. Zamonaviy dunyoning diniy manzarasi bugungi kunda murakkab va ko'p qirrali xodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda destruktiv va totalitar sektalar geosiyosiy kuchlar ko'magida xavfli qurol sifatida, o'zga din vakillari e'tiqodiga paxna solmoqda. Ayniqsa, mazkur hapakatlari gegemonlik va mustamlakani, bosqinchilik hamda kuchli davlatlarning kuchsiz davlatlarga nisbatan siyosiy bosimini amalga oshirishda namoyon bo'lmoqda.

Destruktiv va totalitar sektalarga xos bo'lgan belgilar orasida eng ko'p xarakterlisi shundan ikkita ya'ni: ichki tuzilish va mafkuraning noaniqligi hamda tashkilotning oddiy a'zolari aldash kabi holatlar mavjud. Destruktiv va totalitar sektalarning tashkilotdagi asosiy qoidalari kultlar o'zlarini yoki ularning rahbarlarining alohida maqomga ega ekanligiga ishonishadi, ammo, ushbu usullar ularni jamiyatdan yoki oila doirasidan uzilishiga hamda bir biriga ularni qarama-qarshi qo'yadi. Sektalar o'zlarining haqiqiy tabiati va maqsadlarini potentsialdan sir saqlagan holda yashirish orqali turli aldamchi usullardan foydalanishga harakat qiladilar.

Buzg'unchi sektalarni ongni nazorat qilishning quyidagi mezonlarini belgilovchi R.Liftonning fikrini keltirib o'tamiz. R.Liftonning fikriga ko'ra: “Atrof muhitni nazorat qilish, tasavvufiy tuyg'ularni manipulyatsiya qilish, tozalik talablari, e'tirofqa sig'inish, muqaddas bilim, voqelikni lingvistik modellashtirish, ta'limot insondan muhimroq” tamoyili, borliqning taqsimlanishi muhim ahamiyat kasb etadi[2]. Zero, ushbu fikrlarning har birini xolis tushunish an'anaviy va noan'anaviy shakllarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Taklif etilayotgan mezonlar ancha shartli va ularga nisbatan qo'llanilishi mumkin an'anaviy shakllardir.

Destruktiv va totalitar sektalarning buzg'unchi ekanligini quyidagi omillarga e'tibor qaratish joiz. Bunda sektalar faoliyatida sub'ektning konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini buzish, jismoniy va ruhiy

salomatlik uchun xavf to'g'irsida, sektaning haqiqiy maqsadlarini yashirish, inson ongi va xatti-harakatlarini nazorat qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu o'rinda destruktiv va totalitar sektalar avtoritar tashkilotlarning alohida turi sifatida moddiy mablag' yig'ishga alohida e'tibor qaratishi kuzatilgan. Bu haqda Rossiyalik ilohiyotshunos A.Dvorkin sektalarni mazkur jihatalari bo'yicha ularni beshta xususiyat bilan ajralib turishini qayd etib o'tadi. Jumladan:

Ishga qabul qilish vaqtida aldash;

Tashkilot a'zolarining ongini manipulyatsiya qilish;

Sekta a'zolari hayotining barcha jabhalarini tartibga solish;

Tashkilot a'zolarini ekspluatatsiya qilish;

Rahbarlarni va tashkilotni o'zini mutlaqlashtirish (ilohiylashtirish) [3]. Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak, sanab o'tilgan belgilar orasida bironta dindorlik belgisi mavjud emasligini ko'rish mumkin. Tajriba shuni ko'rsatadiki, destruktiv va totalitar sektalar diniy sohada faoliyat olib borishi shart emasligini anglatadi.

Hozirgi kunda, dunyo hamjamiyatini noan'anaviy dinlarning faoliyati tashvishga solmoqda. Zero, dunyo miqyosida noan'anaviy dinlarning ijtimoiy namoyon bo'lishi bip qator muammolarni keltirib chiqarishga zamin yaratyapti. Ayni paytda insoniyatning ko'p asrlik tarixi shunday dalolat beradiki, dindan niqob sifatida foydalanish, dindagi g'oyalarni vayronkoplik ruhida talqin etish insonlar boshiga ko'plab kulfatlar keltirganini ko'rsatadi. Zamonaviy voqelik dindan g'arazli maqsadlar yo'lida foydalanishda davom etishi barobarida, u o'ta nozik tus va xatarli ko'rinishlar olayotganidan guvohlik beradi[4]. Diniy ongning bunday hodisalari noan'anaviy dindorlikning turli shakllari bilan ifodalanishi diniy va psevdodiniy sektalar tomonidan yaqqol namoyon bo'ladi.

Din niqobi ostida faoliyat ko'rsatadigan destruktiv va totalitar sektalar yangi a'zolarini tashkilotga jalb etishda ular to'g'risida olingan ma'lumotlarni nazorat qilishadi. Sektalar o'zlarini makkorna puxta uylangan rejalar bilan yangi a'zolariga ruxiy bosim o'tkazish ularni qo'rqitish orqali boshqa usullarga asoslanib, shaxsni axloqsiz tarzda o'ziga bo'ysundirib, tashkilot a'zolarini saqlab qolishga intilishadi. Noan'anaviy diniy tashkilotlar missiонерlik faoliyati va xayriya ishlarini amalga oshirishda o'zlarini tashkilotchilik "qobiliyati"ni namoyon etishadi. Albatta bu tendensiyalartashkilot a'zolarining huquqlarini poymol etib, «ongni nazopat qilish» usuli orqali ularning salomatligi va ruhiyatiga zapap etkazadi. Aksariyat missiонерlar o'z xizmatlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun mahalliy aholining tili, urf-odatlarini va munosabatini puxta o'rganishga harakat qilishadi. E'tiborli jihati

ishsizlar, hayotda o'z o'rnini topa olmagan ma'naviy dunyoqarashi sayyoz, shaxsiy va oilaviy hayotdagi ruxiy qiyinchiliklarga giriftor bo'lgan, din to'g'risida xolisona fikri shakllanmagan, axloqi g'ur insonlar destruktiv va totalitar sektalar targ'iboti qurboniga aylanishi tobora oydinlashmoqda.

Bugungi kunda destruktiv va totalitar sektalarning ta'sip dapajas tobora kuchayib borishi har qanday mamlakat uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. O'rganilgan tahlillarga ko'ra, destruktiv va totalitar sektalarning rahbarlari tomonidan fuqarolar ayniqsa, yoshlarni shaxsiy va oilaviy ishlariga apalashish holatlari kuzatilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda global iqtisodiy tanazzul jarayonlarining chuqurlashuvida din orqali ta'sir ko'rsatish kuchaymoqda.

O'tmishdan ma'lumki, ijtimoiy - siyosiy sohada xususan, diniy hayotda ro'y berayotgan jarayonlarga yetarli e'tibor bermaslik bir qator salbiy holatlarni keltirib chiqarishga zamin yaratgan. O'z navbatida mazkur holatni huquqiy jihatdan tartibga solmaslik va boshqarmaslik jiddiy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy nizolarga olib kelishi oqibatida milliy manfaatlarni amalga oshirishda hamda milliy xavfsizlikni mustahkamlashga tahdid solishini anglash lozim.

Globalashuv sharoitida moddiy va moliyaviy qudratga ega destruktiv va totalitar sektalar ayrim mintaqalarda hukumat siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatishga intilayotganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar davrida missionerlik harakatlari davlatdagi siyosiy jarayonlarga tobora o'z ta'sirini ko'rsatish orqali jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda.

AQShning "Taym" jurnali tomonidan taraqqatilgan xabarga ko'ra aksariyat missionerlarning asosiy vazifasi bu Yevangeliyani tarqatishdan iborat bo'lishi kerak. Aynan, xorijdagi faoliyatni amalga oshirishda missionerlar yangi mamlakatlarda faoliyat yuritishi uchun ular tilshunos, o'qituvchi, tibbiyot xodimi yoki qishloq xujaligi sohasiga oid mutaxassislar bo'lishlari talab etilgan[5].

Hozirgi kunda AQShning o'zida 100dan ortiq missionerlarni tayyorlovchi maxsus maktab, o'quv kursi va malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari faoliyat yuritishi ham muholiflarning masalaga jiddiy yondoshuvining ifodasidir. O'tgan asrning oxirlarida faqat AQShning o'zida dunyo davlatlari bo'yicha AQSh manfaatlarini o'zida ifoda etgan uning maqsadlarini amalga oshishi uchun qulay sharoit yaratish maqsadida dunyoning hamma burchaklarida 53 mingdan ortiq yetuk missioner-da'vatchilar ish yuritgan.

Missionerlar muayyan hududda o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda muhim rayonlarni belgilab olishadilar. Global darajada missionerlik loyihalarida alohida mamlakat yoki mintaqa e'tiborga olinadi"[6]. Ayniqsa, turli nodavlat notijorat tashkilotlar ko'rinishida dunyo miqyosida faoliyat ko'rsatayotgan

missionerlik harakati zamiriga e'tibor qaratilsa, muayyan mintaq va huddudga o'z ta'sirini o'tkazayotgan "ayrim" siyosiy kuchlar mazkur belgilangan xududda yashovchi xalqlarning bir-biridan ajratish orqali o'zlarining "asil" maqsadlarini kuzlayotganligini kuzatish mumkin.

Dunyoning bir qator olimlari tomonidan o'tkazilgan "strategik tadqiqotlari" natijasiga ko'ra, missionerlik oqibatida dunyo global miqyosida turli konfliktida va qat'iy geosiyosiy bosimda ekanligini ta'kidlashadi. Missionerlik strategiyasida dunyo miqyosidagi muammolarning ataylab bo'rttirib ko'rsatish, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning sovuqlashtirishga bo'lgan urinishni ma'lum bir siyosiy maqsadga yo'naltirilayotganligini anglash qiyin emas. Ko'pgina sektalar fuqarolar uchun haqiqiy xavftug'diradi: ularni o'z joniga qasd qilishga, tibbiy yordam olshidan va bolalarni maktabga yuborishdan bosh tortishga undaydilar[7].

Shu tariqa, missionerlik ta'siri ostida har qanday xalq va millatning madaniy ildiziga tahdid solish orqali o'ta radikal millatchilik kayfiyatlarini vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada, mazkur harakatlar oqibatida dunyoda global miqyosda etnik va millatlararo mojarolarning tobora avj olishi har qanday xalq va millatni mentalitetiga raxna solish orqali ma'naviy tubanlik girdobiga yetaklamoqda. Missionerlik harakati zamirida "ayrim" siyosiy kuchlar o'zining gegemonligini o'rnatish maqsadida g'oyaviy-mafkuraviy, geosiyosiy, madaniy jihatdan ustunlikka erishishga intilayotganligi namoyon bo'lmoqda.

Global iqtisodiy inqiroz davrida missionerlik harakati dunyoning nochor va endigina rivojlanayotgan davlatlari taraqqiyotiga go'yoki, "iqtisodiy" yordam ko'rsatish bahonasida qashshoqlik, ochlik, nochorlikni bartaraf etish maqsadida "maqsadli" yordamni tavsiya etishga alohida e'tibor qaratishmoqda. Natijada, horijdan yo'naltirilayotgan "maqsadli" iqtisodiy yordam ta'sirida rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tengsizlik tobora keskin tus olishi oqibatida bir qator tahlikali vaziyatlar vujudga kelmoqda. Xalqaro miqyosda dindan "yumshoq kuch" vositasi sifatida foydalanib, siyosiy, madaniy va gumanitar ta'sir zonalarini kengaytirishga urinishlar kuzatilmoqda[8].

Bugungi kunda global iqtisodiy inqiroz davrida dunyoda siyosiy gegemonlik qilishga intilish tobora kuchaymoqda. Bir necha asr oldin koloniyalashtirish xristianlikning shoriga aylangan bo'lsa, hozirda "jahonga kirib borish"[9], aynan missionerlik harakatlari oqibatida tobora kuchayotganligi kuzatilmoqda. Axborot-tahliliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, diniy sohaga bevosita daxldor ushbu global hodisalarning tobora chuqurlashib qamrovi kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Missionerlik xarakati va uni oqibatlari haqida fikr yuritganda biz bu

mavzu bo'yicha bir hinduning ajoyib so'zlarini iqtibos sifatida keltirib o'tishni joiz deb hisobladik. Bu haqda mahalliy amerikalik hindu shunday deydi: «Donolar (miccionerlar) biz ularning dinini qabul qilishimiz mumkinligini aytishdi, lekin biz bu dinni (xpistianlikni) tushunishga hapakat qilganimizda, oq tanlilar orasida biz tushunishimiz uchun juda ko'p din bopligini aniqladik. Oq tanlilas ulas haqida hech qachon kelisha olmadilas. Avvaliga bu bizni juda bezovta qildi, toki biz oq tanli odam o'z dinini o'z qonunidan ko'pa jiddiyroq qabul qilmasligini va ikkalasini ham qo'l ostida ushlab tupishini, faqat begonalar bilan muomala qilishda yordamchi vosita sifatida foydalanishiga guvoh bo'ldik. Albatta, bu bizning hayot tarzimizga mos emas edi. Biz qonunlarimizga bo'ycundik, dinimiz bilan yashadik. Aslida biz hech qachon faqat o'zimizni aldaydigan oq tanli odamni tushunmadik»[10].

Bugungi kunda missionerlik faoliyatida ijtimoiy munosabatlarga ta'sir o'tkazuvchi sektalar xaqida fikr yuritganda "Iegova guvohlari" sektasi yodga keladi. Sekta ta'limotida 1936-yildan buyon Xochdan xristianlikning ramzi sifatida foydalanish taqiqlandi. Sektada oqim a'zolari Isoni Xochga oyoq-qo'llari bilan emas, balki ustunga mixlab qo'yilgan (lot. *crux simplex*) deb hisoblashadi. "Yangi dunyo talqini"da yunoncha *σταυρός* (stavros) so'zi "qiynoq ustuni" sifatida tarjima qilingan. "Iegova guvohlari" sektasi Xochni e'zozlashni ular go'yoki, but-sanamlarga sig'inish deya hisoblashadi.

"Iegova guvohlari" sektasi 1961-yildan e'tiboran tashkilot a'zolariga bemorni davolashda qon quyish taqiqlandi. Sekta ta'limotiga ko'ra, bemorga qon quyish, qonni iste'mol qilish kabi gunoh ekanligini qayd etishadi. Tashkilot ta'limotiga ko'ra, bemorga qon quyishni ta'qiqdashdan maqsad, oqim a'zolarining turli kasallikka chalinishni oldini olish chorasi ekanligini ta'kidlashgan. Vaholanki, sekta rahbariyati tomonidan bemorlarni qonsiz davolash tibbiyotning yangi usuli ekanligi to'g'risidagi yolg'on fikrlarni ilgari surishi kuzatilgan. Mazkur holat natijasida juda ko'p sekta a'zolari bevaqt vafot etishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, sekta mafkurasida davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, hamda ko'plab milliy vatanparvarlik ramzlarini olqishlash, ijro etish, armiya va boshqa harbiy qushinlarda xizmat qilish, harbiy tashkilotlarda ishlash, maktab va harbiy oliy o'quv yurtlarida harbiy tayyorgarlikdan o'tish, zo'ravonlik asosida kuchini ko'rsatish, jangovar san'at va sport turlari boks, karate bilan shug'ullanishga ro'xsat etilmaydi.

Sekta ta'limotida o'z a'zolariga bir necha bor 1914, 1918, 1925, 1941, 1945, 1975, 2001 va 2012-yillarda "qiyomat qoyim" bo'lishi muqarrar ekanligini alohida ta'kidlansada ushbu ilgari surilgan yolg'on bashorat amalga oshmadi. Mazkur yolg'on aqida natijasida sekta ta'limotiga nisbatan tashkilot a'zolari o'rtasida ishonsizlik ko'chayishi oqibatida oqim a'zolari sektani tark eta boshlagan. Sekta tomonidan yolg'on g'oyalarga asoslangan

aqida va g'oyalarni targ'ibot qilish bevosita jamiyat xavfsizligi hamda mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikka jiddiy tahdid solishini anglash lozim.

Ajablanarli tomoni "Iegova guvohlari" sektasi o'zining diniy ta'limotini doimiy tarzda o'zgartirib turadi. Mazkur o'zgarishlar tashkilot tomonidan kiritilib, sekta a'zolarining yagona ishonadigan narsasi bu tashkilotga bo'lgan e'tiqodidir. Shu tariqa, o'zga har qanday narsalarga bo'lgan ishonch tashkilot tomonidan osongina o'zgartirilishi mumkin. Sekta ta'limotida tashkilot faoliyatiga zid keladigan tarix oqim a'zolari xotirasidan butkul o'chirib tashlanadi. Ayniqsa, sekta ta'limotida "**Tarixni boshqarish bugunni boshqarishdir, bugunni boshqarish kelajakni boshqarish degan shior**" muhim o'rin tutadi.

"Iegova guvohlari" sektasi a'zolari jamoat joylarda, fuqarolarning xonadonlariga bevosita tashrif buyurish orqali faoliyat ko'rsatishi aniqlanmoqda. Sekta a'zolari oqimga yangi a'zolarini jalb etish maqsadida o'zining 86 usulidan iborat metodlariga egadir[11]. "Iegova guvohlari" ta'limotida sekta o'z a'zolariga bir qator bayramlarni nishonlash qa'tiyan taqiqlanadi. Tashkilot a'zolari Xristianlikdagi asosiy bayramlar Rojdestvo, Pasxa kabi diniy bayramlarini nishonlanashdan bosh tortishadi.

Shuningdek, oqim a'zolari diniy bayramlar bilan bir qatorda, dunyoviy va davlat miqyosidagi bayramlarni ham nishonlashni rad etishadi. Ayniqsa, sekta a'zolari dunyoviy bayramlar 31 **dekabr** (yangi-yil), **8 mart** (xalqaro xotin qizlar bayrami), **9 may** hamda o'zlarining to'g'ilgan kunlarini nishonlash sekta ta'limotida rad etiladi. Sekta ta'limotiga kura, ushbu bayramlarni xristianlikka mutlaqo aloqasiz ekanligini alohida ta'kidlashadi.

Tashkilot a'zolari mazkur bayramlarni kelib chiqishini majusiylikka aloqador ekanligini e'tirof etishadi. Shu o'rinda, sekta ta'limotiga ko'ra, oqim a'zolarining mazkur bayramlar bilan o'z a'zolarini tabriklash ham taqiqlanadi. Shular qatorida Rojdestvo, yangi-yil kabi bayramlar uchun suvenir (esdalik sovg'a)lar sotish yoki sotib olish mumkin emas. Ayniqsa, o'zga diniy tashkilot va cherkovlar tomonidan xamkorlikda tashkil etiladigan ibodat marosimlari va tadbirlarida hamda aksiyalarda qatnashish tashkilot qonunchiligida rad etiladi. Shu bilan birga, o'zga din vakillarining diniy marosimlarida qatnashish, jumladan marhumga janoza o'qishda ishtirok etish ham taqiqlanadi. Dafn marosimlarida aytiladigan motam va aza qushiqlari, faryod kutarish nomaqbul hisoblanadi. Mazkur holat oqim a'zolarining fikriga ko'ra, marhumlarning keyingi qayta tirilish jarayonida e'tiqodning kuchsizligidan dalolat berishi mumkinligini ta'kidlashadi.

"Iegova guvohlari" sektasi tashkilot a'zolariga oliy ta'lim olishni ham rad etishadi. Tashkilot qonunlariga kura, oliy ta'lim olish go'yoki, shaytonni quroli sifatida baholanadi. Shu o'rinda, sekta qonunlariga ko'ra, oqim

a'zolarini oliy ta'limga ega bo'lishi Iegova ta'limotini olishda ularning ongini chalg'itishi mumkin. Sekta doirasida oqim a'zolarini mansab pog'onasiga ko'tarilishda to'siqinlik qilishi va "o'z ma'naviyatiga" raxna solish uchun zamin yaratishi mumkin. Destruktiv va totalitar sektalar ta'limotida «aql» so'zi ahmoqona fikrlar va inson ichidagi kuchlarga ma'nodosh sifatida u insonni xudo va haqdan uzoqlashtiradi. Sektalarda «dunyo» so'zi oqim faoliyatiga zid bo'lganligi uchun jaholat deya hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida geosiyosiy kuchlar muvozanatining tobora o'zgarishi, ayrim rivojlangan davlatlarning o'z demokratiyasini "eksport" qilish orqali dunyoga hukmronlik qilish maqsadida ochiqdan-ochiq da'vogarlik qilishga bo'lgan harakatlar misolida namoyon bo'lmoqda. Eng yomoni, bunday ma'naviy tahdidlar zamirida insonni o'zi tug'ilib o'sgan yurtidan, xalqidan voz kechishga, vatanparvaplik, yurtga sadoqat tuyg'ularidan mahrum etishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: **"Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda"**[12], - deya ta'kidlashi ayni haqiqatdir. Zero, buyuk o'tmish va shonli tarixga ega Yurtimizni mustaqilligiga rahna soluvchi destruktiv va totalitar sektalar tahdidlaridan muntazam ogoh, sezgir, xushyor bo'lishni bugungi davr va zamon taqoza etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шавкат Мирзаёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент: «O'zbekiston» нашриёти. 2021.Б- 328.
2. Lifton R. The Future of Immorality and Others Essays for a Nuclear Age. – N.Y.: Basic Book, 1989. Цит. по: Хассен С. Противостояние сектам и контролю над сознанием. – М.: АСТ, 2006. – С. 288
3. Дворкин А. Изучение религий и сект в современной России. Международная научно-практическая конференция «деструктивные и псевдорелигиозные организации, секты и культы: вызовы и пути решения»Ямало-Ненецкий автономный округ, город Салехард 27 – 28 сентября 2017 год. <https://yanao.ru/upload/iblock/946/alpynr5yhez2p1oe1rtddulc6pdgbr7p.pdf>
4. Муҳаммадсидиқов. М. Африка давлатларида дин омилнинг этник ва миллатлараро зиддиятлар юзага келишига таъсири. Ижтимоий фикр-инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2015. №2 (70). – Б. -90.
5. Time. IV 1960. p.36.
6. Хасанбоев Ў. Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. "Тошкент ислом университети"нашриёт матбаа босмахонаси. Т-2014. Б-111.
7. Воат Алексей Александрович. Современные технологии сети интернет в деятельности деструктивных культов. Международная научно-практическая

конференция «деструктивные и псевдорелигиозные организации, секты и культы: вызовы и пути решения» Ямало-Ненецкий автономный округ, город Салехард 27 – 28 сентября 2017 год. <https://yanao.ru/upload/iblock/946/alpynr5yhez2p1oe1rtddu1c6pdgbr7p.pdf>

8. Шавкат Мирзаёев. Янги Ўзбекистон тараққийёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston» нашриёти. 2021.Б- 328.

9. «Азбука преподавания прав человека» (подготовлена ООН в качестве средства образования в области прав человека. – http://www.un.org/russian/hr/abc/ch3_12.html.

10.Т.С. Mc Luhan, Yeryüzüne Dokun Kızılderili Gözüyle, Çev. Ece Soydam, Ankara, 1994, s 136.

11. Волков Е.Н. Методы вербовки и контроля сознания в деструктивных культах. // Журнал практического психолога.- М., 1996.№ 3

12. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. <http://www.uz.uz/oz/politics/millatlararo-d-stlik-va-amzhi-atlik-khal-imiz-tinchligi-va-f-24-01-2017>

NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI IJODIDA URUSH MAVZUSI VA G‘OYAVIY KURASH IFODASI

Nodira Ibrohimova,

*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Nobel mukofoti sovrindorlari, jumlada nemis millatiga mansub adiblarning fashizmga qarshi kurashi tilga olinadi. Ularning asarlaridagi erk g‘oyalari, urushga nisbatan pozitsiyalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Nobel, urush, yozuvchi, erk, g‘oyaviy kurash, nemis, fashizm.

Nobel mukofoti – eng katta adabiy mukofot. Har bir davlatning o‘nlab milliy mukofotlari, xalqaro mukofotlari bor, lekin Nobel mukofoti eng nufuzlisi hisoblanadi. Alfred Nobelning vasiyatiga ko‘ra, moddiy tarafdin quvvatlanib, 1895-yilda tatbiq etilgan quyidagi besh yo‘nalish bo‘yicha mukofotlar mavjud: fizika, kimyo, fiziologiya va tibbiyot, adabiyot, jahonda tinchlik o‘rnatish ishlari bo‘yicha harakatlar uchun.[5]

Nemis yozuvchilari orasida urush va fashistlar rejimining ko‘plab muxoliflari bo‘lgan [1]. XX asrda adabiyot bo‘yicha urushdan keyingi to‘rtta Nobel mukofoti sovrindorlari Germaniyada tug‘ilib o‘sgan. 1946-yilda

mukofot 1942-yildan beri Uchinchi Reyxda romanlari ta'qiqlangan «Cho'l bo'risi», «Siddxarta» va «Munchoq o'yini» romanlarining muallifi Herman Hessega berildi. 1966-yilda adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti 75 yoshli nemis yahudiy shoiri Nelli Saksga nasib qildi, uning oilasining aksariyati Xolokostda o'ldirilgandi. Taqdirlash marosimida Shvetsiya akademiyasining vakili shunday dedi: «Saksning kitoblarida dahshatli haqiqat, ommaviy qirg'in lagerlari va o'lim zavodlari haqida hikoya qilinadi, ammo yozuvchi fikri nafratdan ustun turadi».

1999-yilda 72 yoshida mukofot o'tmishi ziddiyatli yozuvchi «Qalay baraban»ning muallifi Gyunter Grassga berildi. 1944-yilda 17 yoshli Grass 10-SS Panzer diviziyasiga qabul qilingan va 1945-yil aprel oyida Berlin jangida qatnashgan. Keyinchalik, 2006-yilda bergan intervyusida, yozuvchi SS harbiy tuzilmalarida xizmat qilganida, harbiy janglar qilmaganini va bitta o'q ham otmaganini aytgan.

«Gitler hokimiyat tepasiga kelganida men olti yoshda edim, urush boshlanganda - 12, tugashi - 17 yoshda edim», - deydi Grass. «Men boshqa mafkuralarni bilmasdim - shunisi yagona edi. Bu, darvoqe, Stalin yoshlar tashkilotlarida ham bo'lgan. Biz Germaniyaning g'alabasini ta'minlaydigan mo'jizaviy qurolni ixtiro qilishlariga ishonдик». Grass har doim o'z e'tiqodlarining urushga qarshiligini ta'kidlagan va hayotining so'nggi-yillarida bir necha bor zamonaviy siyosiy vaziyatdan xavotirini bildirgan, insoniyatni uchinchi jahon urushi boshlanishidan ogohlantirgan.

Nemis yozuvchisi, tarjimon, senariynavis, adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati Geynrix Byoll universitetga kirishni rejalashtirgan, ammo 1939-yilda Germaniya armiyasiga chaqirilgan. Nemisshunoslik va klassik filologiyani o'rganishni urushdan keyingi vaqtga qoldirishga to'g'ri keldi. U Fransiyada xizmat qilgan, tifdan aziyat chekkan va Germaniyadagi almashinuv bo'linmalariga o'tkazilgan. Sovet Ittifoqi, Ruminiya va Vengriyada bo'lgan. 1945-yil bahorida G'arbiy Germaniyada amerikaliklar tomonidan asirga olingan. Urushdan keyin u Kyolnga qaytib keldi va u yerda uzoq-yillar rafiqasi va qarindoshlari bilan yashadi. Bu vaqtda Byoll vayron bo'lgan uyni ta'mirlash bilan birga yana yozishni boshlaydi. O'qishni davom ettirdi. 1951-yilda Geynrix urushdan keyingi ko'plab nemis yozuvchilari bilan uchrashdi. 1972-yilda u Nobel mukofoti bilan taqdirlandi va Ikkinchi jahon urushidan keyin ushbu mukofotni olgan uchinchi nemis yozuvchisi bo'ldi. Byoll SSSRda asarlari juda mashhur bo'lgan birinchi nemis yozuvchisi edi. Adibning saksondan ortiq roman, hikoya, hikoya va maqolalari rus tiliga tarjima qilingan. U sovet tuzumini tanqid qildi, SSSRdan chiqarib yuborilgan Aleksandr Soljenitsin va Lev Kopelevga yordam berdi, shundan keyin Rossiyada Byollning asarlari taqiqlandi. Ular faqat qayta qurish boshlanishi

bilan qayta tiklandi.

Urushning ma'nosizligi g'oyasi yozuvchi tomonidan "Qayerda eding, Odam Ato?" romanida keng tasvirlangan. (1951). Ammo shuni ta'kidlash joizki, G.Byoll urushni xandaqda emas, balki vayron bo'lgan shahar va kasalxonalarda ko'radi. Shu sababli, yozuvchi romanda urushning dahshatli, g'ayritabiiy ma'nosizligini, birinchi navbatda, harbiy operatsiyalarni tasvirlash orqali emas, balki, nemis askarlarining hayoti orqali ochib beradi. Urushning ma'nosizligi haqidagi g'oya xuddi shu bobdagi ko'prik qurilishi bilan bog'liq hodisa orqali ham ochib beriladi. Ko'prik dastlab partizanlar tomonidan portlatilgan, keyin nemis askarlari tomonidan tiklangan. Ular uni strategik obyekt sifatida, juda ehtiyotkorlik bilan, belgilangan muddatlarga rioya qilgan holda quradilar va keyin yana portlatadilar. Hamma narsa taverna egasi Syuzan xolaning ko'z o'ngida sodir bo'ladi, uning uchun bu qizg'in faoliyat haqiqiy bema'nilikdek tuyuladi. Takroriy, o'zgarmas surat monoton urushning ma'nosizligi va maqsadsizligi tuyg'usini yanada kuchaytiradi. Ammo romandagi urushning ma'nosizligi va bema'niligining eng yorqin misoli, ehtimol, uning yakuniy sahnasidir. O'z irodasiga qarshi Gitler armiyasining askariga aylangan va urushning so'nggi kunlarida qochib ketgan arxitektori Feynxals romanning so'nggi bobida vafot etadi. Feynxals uyidan bir necha oy uzoqda edi, lekin nemis qurollari tomonidan vatandoshlariga qarata otilgan oxirgi o'qlardan biri uni uyi ostonasida mavh etdi. G'arbiy nemis realist yozuvchilari urushni ma'nosiz jang deb ta'riflab, "buyuk" maqsadlar yo'lida qahramonlik haqidagi afsonani ham parchalab tashlaydilar. Urushning degerotizatsiyasi Byollning urushning ma'nosizligi haqidagi konsepsiyasining asosini tashkil etdi. Borchert va Shnurre bilan bir qatorda yozuvchi ochiq satirik usullarni ham qo'llagan: ataylab yozilgan oddiy, kundalik suhbat intonatsiyasi har qanday qahramonlikni aniq yo'q qiladi. Biroq uning asarlarida urushning qahramonligini kuchaytiruvchi ramziylik ham keng qo'llanilgan. [4]

Umuman olganda, romandagi urush muhiti har qanday buyuklikdan butunlay mahrum. G.Byoll qahramonlari nemis askarining qahramonligi haqidagi afsonani rad etib, fashizm bilan til birlashtirishning hammualliflari va qurbonlari sifatida namoyon bo'ladi. Ammo jabrlanuvchining pozitsiyasi hech qachon yozuvchining oqlash maqsadlariga xizmat qilmagan. Kristian Linder ta'kidlaganidek, "Byoll hech qachon qahramonlarini na o'zining, na boshqalarning oldida reabilitatsiya qilishga urinmagan" [2]. Romanda urushni kundalik o'ziga xosligi, sinchkovlik bilan yozib olingan tafsilotlari bilan, butun ma'nosizligi va g'ayriinsoniyligi bilan tasvirlagan Byoll uning jinoiy mohiyatini, odam o'limining absurdligini ko'rsatadi. "Qayerda eding, Odam Ato?" romanida askarlar frontga, frontdan kasalxonaga, kasalxonadan boshqa frontga tashlanadi. Urush odamlarni aralashtirib yuboradi, ular ajralish uchun

uchrashadilar. Geynrix Byollning boshqa yirik asarlarida ham urush retrospektiv tarzda yuzaga keladi.

Urush davri adabiyoti nafaqat o‘sha-yillardagi tarixiy hayotning g‘ayrioddiy ta’sirchan manzarasini yaratdi, inson taqdirlarining bitmas-tuganmas rang-barangligini ifodaladi, balki bizni siyosiy, falsafiy, axloqiy va boshqa muammolarning qayg‘uli qa’riga botiradi. [3] Vatan, urush, o‘lim, muhabbat, dushmanga nafrat, harbiy birodarlik, g‘alaba orzusi, xalq taqdiri haqidagi o‘ylar – urush haqidagi adabiyotning asosiy motivlari. Ularning ko‘pchiligi chinakam durdona asarlar bo‘lib, kelajakda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligi, ajdodlar jasoratlarining haqiqiy dalili, urushni bilmagan avlodlar uchun ajoyib ibrat bo‘lishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Krimmer E. Representation of War in German literature. – Cambridge, UK: “Cambridge University Press”, 2000.
2. Linder, Chr. Das Schwirren des heranfliegend - en Pfeils. Heinrich Böll. Eine Biographie. Berlin : Matthes & Seitz, 2009. S. 321.
3. Нобел военного времени. Как Вторая мировая война повлияла на открытия и достижения. TASS: <https://tass.ru/spec/nobel>
4. Ю. И. Авраменко. Идея бессмысленности войны в романе Генриха Бёлля «Где ты был, Адам?»: взгляд реалиста XX века. Вестник Челябинского государственного университета. 2010. № 22 (203). Филология. Искусствоведение. Вып. 46. С. 5–8.
5. Qudrat Muhammad. Nobel olgan adiblar. – T.:“Ma’naviyat”, 2002.

YAQIN SHARQDA DAVLATLARIDA ZAMONAVIY SIYOSIY- IJTIMOIY JARAYONLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Jo‘rayev Axadjon Ilyosjon o‘g‘li
*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yaqin Sharqdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning xususiyatlari, nazariy jihatlari, globallashuv sharoitida ijtimoiy-ma’naviy muhitning yoshlar ongiga ta’siri jarayonlari haqida so‘z yuritiladi, shuningdek, Yaqin Sharq mamlakatlarida so‘nggi-yillarda sodir bo‘lgan siyosiy voqealar oqibatlari aniqlanadi va tahlil qilinadi, mintaqadagi geosiyosiy vaziyatning asosiy tendentsiyalari va “Arab bahori”dan keyingi o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: Yaqin Sharq, “Arab bahori”, Suriya, Tunis, geosiyosat, hokimiyat, maʼnaviy tanazzul, siyosiy jarayonlar.

Yaqin Sharq globallashgan zamonaviy davrda jahon siyosatining geostrategik ahamiyatga molik mintaqalaridan biri ekanligi soha mutaxassislariga yaqindan maʼlum. Bugungi kunda ushbu mintaqadagi kuchlar nisbati va hattoki unga taʼsir koʻrsatish mexanizmlari ham tobora yangi xususiyat kasb etib kelmoqda. Tabiiyki, geografik, energetik, mafkuraviy va diniy omillar Yaqin Sharqqa boʻlgan geosiyosiy qiziqishning oshib borishi sabablaridan boʻlib, mintaqani “katta oʻyinlar” girdobiga tortishga olib kelmoqda. Alohida qayd etadigan boʻlsak, bu mintaqada jahonda neki muammo boʻlsa, barchasini oʻzida mujassam qiladi. Chunki, unda etnik va diniy muammolar, chegara va qochoqlar, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar, terrorizm, ekstremizm va separatizm, uyushgan jinoyatchilik, tashqi kuchlarning geosiyosiy raqobati kabi dolzarb muammolar bir-biri bilan bogʻlanib ketgan.

Bugungi kunda bir qator tadqiqotchilar Yaqin Sharq mamlakatlarida birin-ketin sodir boʻlgan siyosiy jarayonlar xususida hali hanuz bahs-munozaralar olib borishadi. Ushbu hodisalarda “boshqariladigan beqarorlik” texnologiyasi yetarli darajada qoʻllanilganini taʼkidlash mumkin. Bu hodisalarni gʻarb OAV “arab bahori inqilobi” deb atasa, boshqalari “arab bahori va qishi”, “arab uygʻonishi”, “panarab inqilobi” kabi tushunchalar bilan nomlashadi (1).

“Arab bahori” tushunchasining paydo boʻlishi xususida turli xil munozaralar va bahsli holatlar mavjudligini koʻrish mumkin. Baʼzi bir tadqiqotchilarning fikriga koʻra, bugungi “arab bahori” va “arab uygʻonishi” kabi tushunchalarni oʻrganishda arab jamiyatlaridagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning oʻziga xos tarixiy xususiyatlarini tahlil qilish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Arab olamidagi hodisalarni tadqiqotchilar ommaviy tartibsizliklarning uchta toʻlqini sifatida baholashadi. Birinchi toʻlqin 1914-yilda sodir boʻldi va “Buyuk arab inqilobi” nomi bilan ataldi. Sharif Husayn rahbarlik qilgan ushbu inqilobning oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, uning asosiy moʻljali arab dunyosida Usmonlilar imperiyasini tugatishga qaratilgan edi.

Ushbu toʻlqin ikkita asosiy hodisa bilan muvofiq keladi - global va mintaqaviy. Birinchi jahon urushi asosiy global hodisa hisoblansa, Usmonlilar imperiyasining tugatilishi asosiy mintaqaviy hodisa edi. Britaniya imperiyasi tomonidan qoʻllab-quvvatlangan ushbu inqilob toʻlqinining asosiy sababi Usmonlilar imperiyasini mintaqada mavjudligini yoʻqotish hisoblangan (2).

Ikkinchi toʻlqin XX asrning 50-60-yillarida sodir boʻldi va aynan 1959-yilda fransuz yozuvchisi Jak Benua Meshin tomonidan “arab bahori” atamasi foydalanildi. U oʻzining 1959-yilda nashr etilgan “Un Printemps Arabe” nomli maqolasida Yaqin Sharqda sodir boʻlgan arab voqealarini

tasvirladi va ularni 1848-yildagi “millatlar bahori” yoki “xalqlar bahori” nomi bilan mashhur Yevropa inqiloblari bilan bog‘lashga harakat qildi (3). Xuddi birinchi to‘lqin singari ikkinchi to‘lqinga ham asosiy global va mintaqaviy hodisalar muvofiq keladi. Asosiy global hodisa ikkinchi jahon urushi hisoblansa, asosiy mintaqaviy hodisa arab dunyosining markazida Isroil davlatiga asos solinishi edi. Ushbu davrda Isroil davlatining “sionizm”iga qarshi o‘laroq “arabizm” shiori asosiy o‘rinni egalladi.

Arab voqealarining uchinchi to‘lqini 2010-yil 17-dekabrda Tunisda yosh savdogar yigit Muhammad Buazzaziyning Sidi-Buzid shahar maydonida namoyishkorona norozilik bildirishi natijasida boshlandi. Bu esa mamlakat yoshlari hayotida chuqur ma’naviy inqirozning yaqqol ko‘rinishi edi. Shundan so‘ng norozilik to‘lqinlari Misr, Liviya, Suriya, Iroq, Bahrayn, Yaman, Iordaniya, Marokash, Jazoir, Ummon, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Sudan, Mavritaniya va boshqa arab mamlakatlariga yoyilib ketdi. Shu tariqa Yaqin Sharq mamlakatlarida ommaviy tartibsizliklarning ketma-ket avj olishi “arab bahori” degan atamaning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. (4)

Agar “arab bahori” arafasidagi arab mamlakatlarining ijtimoiy iqtisodiy ko‘rsatkichlariga e’tibor bilan qaraladigan bo‘lsa, quyidagi manzarani ko‘rish mumkin bo‘ladi:

Arab mamlakatlari aholisining yarmidan ko‘pini 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etgan; yoshlar va ayollar o‘rtasida dunyo miqyosidagi eng yuqori darajadagi(37%) ishsizlik mavjud edi; Misr, Tunis va Iordaniyadagi 30% oliy ma’lumotlilar ishsiz bo‘lgan; yoshlarning har beshtasidan biri boshlang‘ich maktabni tugatmagan va 50 millionga yaqin katta yoshdagilar (aholining 1/8) savodsiz bo‘lgan, ularning 2/3 qismi ayollarni tashkil etgan. (5)

Shunga qaramay, mazkur tarixiy voqea butun mintaqaning qiyofasini o‘zgartirib yubordi: Yaqin Sharqdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar dinamikasiga ta’sir ko‘rsatgan, hattoki, mintaqa geosiyosiy xaritasida o‘zgarishlar bo‘lishiga olib kelgan muhim voqea “Arab bahori” hodisalari hisoblanadi (6).

Ilmiy doiralarda mamlakat yoki ma’lum mintaqa ichidagi ijtimoiy tartibsizlik, o‘zaro nizolar va boshqa turdagi ixtiloflarga umumiy nisbat berilib “xaos” atamasi ishlatiladi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlarda “boshqariladigan xaos”, ya’ni “boshqariladigan beqarorlik” tushunchasi keng ravishda qo‘llanilmoqda. Boshqariladigan xaos – umumiy ma’noda, tartibsizlikni keltirib chiqarish yoki tartibsizlik vujudga kelganda uni nazorat qilish va o‘z manfaatlari doirasiga moslashtirish texnologiyasi sifatida tushunilishi mumkin (7).

Zamonaviy konfliktlarning Yaqin Sharqdagi oqibatlarini ko‘p qirrali va

ular gumanitar, iqtisodiy, siyosiy, geostrategik, ijtimoiy-ma'naviy aspektlarni o'z ichiga oladi. "Suriyaning o'zida xuddi oynadagidek "arab bahori"ning salbiy va ijobiy tomonlari, ya'ni: aholining etnik bo'linishi o'z aksini topdi va konfessiyaviy mansubligi, mintaqadan tashqari kuchlarning aralashuvi, BMTning kuchsizligi, arab davlatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik, demokratik tuzilmalarning zaifligi, Isroilning tajovuzkorligi, Misr, Saudiya Arabistoni, Qatar, Eron, Turkiyaning gegemonlik intilishlari, transmilliy, mintaqaviy va mamlakat ichidagi terrorizmning kuchayishi, Katta Yaqin Sharqning qayta formatlanishi va h.k.", - deya qayd etadi V.S. Yagya (8).

Ko'pchilik tahlilchilar sodir bo'lgan voqealarning o'z-o'zidan, tartibsiz ro'y berganligi va ularni globallashuvning zamonaviy jarayonlari bilan bog'liqligiga va "arab bahori"ning kutilgan mevalari kutilgan natijani bermaganligini ishora qiladilar, ya'ni "arab bahori": birinchidan, ushbu mamlakatlardagi elitalarni tubdan o'zgartira olmadi, ikkinchidan, korrupsiya ustidan g'alaba qozana olmadi, uchinchidan, mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni yaxshilay olmadi va to'rtinchidan, mazkur mamlakatlarda erkinlik darajasini oshira olmadi.

Darhaqiqat, Tunisni hisobga olmaganda, hech qanday demokratik islohatlar tuzumlar qulashi bilan bo'shliqni to'ldirmadi va aksincha, zo'ravonlik yanada kuchaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jacques Benoist-Méchin. Un Printemps Arabe (An Arab Spring), Paris: Albin Michel, 1959.
2. Mehmet Sahin, '1950-1960 Arab Revolutions and the 2011 Arab Spring: Similarities and Differences', in New World Order, Arab Spring and Turkey, B. Senem Cevik- Ersaydi and Bora Baskak (eds.), Ankara: Ankara University Center for the Study and Research for Political Psychology, 2012. – P. 3-5 .
3. The Arab Spring. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arab_Spring
4. Арипов Шавкат "Араб баҳори"нинг кутилган мевалари кутилган натижаларни бердимми? // "Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations", 2021 – В.495
5. Крылов А.В., Федорченко А.В., Торин А.И. «Арабская весна»: итоги и перспективы» (круглый стол в МГИМО) // Вестник МГИМО-Университета. 2012, № 4 (25). СС. 296-299
6. Манойло А.В. Специфика цветных революций "Арабской весны" // Тренды современного политического процесса, 2013. – С. 32.
7. Подгорнова Н.П. "Арабская весна" в странах Магриба. – М.: 2014. –Б. 4
8. Сундиев И. "Управляемый хаос" Социальные технологии в массовых беспорядках // Dictum et factum, 2014. – С. 95

9. Ягъя В.С. Международные аспекты арабского кризиса // Арабский кризис и между народные последствия / Под общ. ред. А.М. Васильева. Отв. ред. А.Д. Саватеев, Л.М. Исаев. – М.: ЛЕНАНД, 2014. – С. 176-238.

KOINOTDAGI SABAB-OQIBAT MUNOSABATLARINING MOHIYATI VA TABIATI

Jumaniyozova Sabohat Bekturdiyevna

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
yetakchi mutahasisi*

Annotatsiya: Koinot tushunchasida sabab va oqibat o'rtasidagi munosabatning o'zaro bir-biriga bog'liligini o'rganadi. Sabablilik ma'lum bir jarayon mavjudligini anglatadi, uning qismlari va holatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir voqealarning ma'lum bir vaqtinchalik tartibida uzatiladi. Bundan tashqari, sabab-natija aloqasi bo'lmasa, u holda organik bir butun sifatida dunyo mavjud emas, faqat tashqi (ya'ni tasodifiy) bog'langan elementlarning ma'lum bir to'plami mavjud. Va agar dunyodagi hamma narsa bir-biriga bog'langan, o'zaro bog'liq bo'lsa, uzluksiz o'zaro ta'sirda bo'lsa, unda sababiylik mutlaqdir, uning mavjudligi o'zgarmas ob'ektiv zaruratdir. Ushbu maqolada sabab va oqibat o'rtasidagi munosabatining mazmun-mohiyati, shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy-madaniy hodisa kontekstida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sabab va oqibat, antrop, zaruriyat, tasodifiylik, tabiat, etnogenez, qadriyat, koinot, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi, vaqt.

KIRISH

Butun dunyoni hisobga olgan holda, bu organik birlikni ta'minlaydigan sabab-natija munosabatlarining tabiati haqidagi savolni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bir paytlar buyuk Aristotel "donolik - bu ma'lum sabablar va tamoyillar haqidagi fan", deb ta'kidlagan. [1.67s] Aristotel ushbu bayonotdan so'ng, sabab-oqibat munosabatlarining tizimli kontseptsiyasini chuqur ishlab chiqdi va bugungi kunda ham juda muhimdir. Aristotel sabablarning to'rt turi borligini ta'kidladi:

1. "Causa formalis" – narsaning tuzilishi, yoki ideal mohiyati;
2. "Sabbii materiallar" - narsa tuzilgan substrat;
3. "Causa finalis" - narsaning mavjud bo'lgan maqsadi;
4. "Causa eficiyens" - harakatlantiruvchi sabab.

Dunyoning birligi haqidagi g'oyalarning dastlabki asosi - sabab-natija

munosabatlarining mavjudligini tan olish, yaxlitlik tuzilishi tufayli. [2.9s] “makon” va “vaqt” toifalarini ifodalovchi qismlarining o‘ziga xosligi va birgalikda mavjudligi.

Darhaqiqat, inson amaliyotida qayd etilgan empirik fakt nafaqat zaruratning, balki tasodifning mavjudligidir. Tasodifiylik qayerdan keladi? Ehtimol, bu dunyo strukturasi murakkab tabiati va uning o‘ziga xos uslubi - o‘ziga xos tarkibiy o‘ziga xosliklari tufayli uning quyi tizimlarining atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirining boshqacha tabiati mavjud bo‘lgan Koinot bilan bog‘liqdir. Bog‘lanishlarning bir xillik darajasiga qarab quyi tizimlarning tuzilishi doimiy va diskret bo‘lishi mumkin (A.A. Bogdanov terminologiyasida “birlashtirilgan” va “noaniq” [3.246s]). Tuzilishning diskretligi mavjud bo‘lgan joyda sabab-oqibat munosabatlarining uzilishi muqarrar (buning empirik isboti mikrokosmosdagi ob’ektlar va jarayonlarning xususiyatlaridir).

Sabab va oqibat o‘rtasidagi munosabat ikki shaklda bo‘lishi mumkin. Birinchisi, zaruriy ya’ni Zaruriyat - bu hodisaning determinizm darajasining ifodasi bo‘lib, qat’iy belgilangan oqibatning ichki muqarrarligini ko‘rsatadi. Ikkinchisi tasodifiydir. Tasodifiylik - mustaqil sabab-oqibat jarayonlarining kesishishi natijasida ma’lum bir ta’sirning tashqi (ma’lum shartlar oraliq’i uchun) sababini ko‘rsatadigan hodisaning determinizm darajasining ifodasidir.

Shu bois tasodifiylik haqida insonning koinot haqidagi cheklangan bilimlari bilan izohlovchi yondashuvlar mavjud. Bundan tashqari, u bilvosita ya’ni har doim ham aniq amalga oshirilmasa ham dunyo elementlarining ko‘pligi va hamma narsa uzluksiz rivojlanish va o‘zgarishda bo‘lganligi sababli fanning boshqa darajasiga fundamental erishib bo‘lmazligi to‘g‘risida taxminga asoslanadi. Va bunday yondashuv voqelikni ancha soddalashtiradi va empirik faktlarga, insoniyat mavjudligining olib borilgan barcha tajribasiga zid bo‘ladi. [4.60s] Muammoning mohiyati ancha chuqurroqdir, chunki uni faqat asl nusxaga yoki borliq tuzilishiga murojaat qilish orqali hal qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Zamonaviy ilm-fanda koinotning tuzilishi va uning ishlash mexanizmlari haqidagi faktlarni tubdan farqli talqinva tahlil qilish mumkin.

Bugun olimlar tomonidan koinotdagi sabab-natija munosabatlarining murakkabligi quyidagicha izohlanadi.

- butun dunyo (har bir element, quyi tizimning shartliligi Jahon tizimi, ya’ni. Butun); •
- elementning ichki tizim shartliligi, Dunyoning quyi tizimi; .
- boshqa elementlar, quyi tizimlar bilan mahalliy o‘zaro aloqador.

Shunday qilib, o'ziga xos ko'p o'lchovli sabab-ta'sir zanjirlari paydo bo'ladi, ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan va kesishgan (shu bilan tasodifiyligni keltirib chiqaradi), tizimli dinamik butunlik doirasida bir-birini o'zaro mustahkamlovchi yoki o'zaro kompensatsiya qiladi. Dunyo va har qanday. uning o'ziga xos real bo'lish tartibi bilan belgilanadi.

Dunyo o'zining mohiyati bilan shartlangan mumkin bo'lgan (virtual) holatlar tizimi sifatida ifodalanishi mumkin. Har bir bunday holat koinot bo'lib, o'z-o'zidan izchil va aniq. Koinotning ishonchi uning rivojlanishida (potentsialdan haqiqatga o'tish) doimiy ravishda o'sib bormoqda, chunki dunyoning ushbu rejimiga xos bo'lgan imkoniyatlarni tobora to'liqroq "o'chirish" - ba'zilarini joylashtirish va boshqalarni rad etish. Bu yerda ikkita mumkin bo'lgan talqin mavjud:

Birinchisi, taxmin qilish mumkinki, Dunyo aslida mavjud bo'lgan.

Ikkinchisi, taxmin qilish mumkinki, Dunyo koinotlar ansambli bo'lib, ulardan faqat bittasi haqiqatda mavjud va qolganlari (va hatto bu olamning variantlari) ham mumkin, ya'ni. virtual mavjud.

Agar inson faqat jismoniy-energiya darajasiga bog'langan bo'lsa, unda u koinotning boshqa elementlari kabi uning tuzilishi bilan qat'iy belgilangan bo'lar edi, ammo Aql egasi erkinlikka ega, ya'ni. ong hodisasining belgilangan o'ziga xosligi tufayli o'z taqdirini o'zi belgilash qobiliyati. Koinot doirasida inson indeterminizm tashuvchisidir, chunki ma'lum bir o'ta tizimli omil (berilgan fizik-energetik olamga nisbatan, ya'ni dunyoning berilgan haqiqiy holatiga nisbatan mos kelishish mumkin) sifatida ishlaydi.

Dunyodagi sabab-natijaga bog'liqlik tabiati haqidagi savol muqarrar ravishda vaqt muammosini - tizimni yaratuvchi universal omilni keltirib chiqaradi. [5.53s] Bo'lish, o'z sifatini saqlagan holda o'z holatlarini (boshlanish nuqtasi Yagona, meon kabi) o'zgartirishning vaqtinchalik ketma-ketlikda bo'lishni anglatadi. Harakat bor joyda vaqt bor, hayot bor.

Aristotel to'g'ri ta'kidlaganidek, harakat o'lchovi bo'lib, «dam olishning ham o'lchovi bo'ladi, chunki har bir dam o'z vaqtidadir».[6.153s] Vaqt - harakatning mavhum shakli sifatida, shu jumladan dam olish momenti sifatida nafaqat koinotning, balki dunyoning atributidir.

Bundan tashqari, A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasiga ko'ra, bo'lishi mumkin bo'lmagan hodisalar, sabab-oqibat munosabatlari bir vaqtning o'zida deb hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kvant mexanikasining noaniqlik printsiplariga ko'ra, «kattalik tartibi elementar zarrachalarniki bilan bir xil bo'lgan juda kichik fazo-vaqt mintaqalarida fazo va vaqt g'alati tarzda yo'qoladi, xususan: Bunday kichik vaqtlar uchun endi «avvalgi» va «keyinroq» tushunchalarini,

shuningdek, sodir bo'layotgan jarayonlarni to'g'ri belgilash mumkin emas.

Shunday qilib, keling, koinotdagi sabab-natija munosabatlarining tabiati bilan bog'liq masalalar doirasini ko'rib chiqishning asosiy muhim belgilari:

-“Sabab” atamasi ushbu dissertatsiya tadqiqotida o'zaro bog'langan ma'nolarning aristotel-gegelcha klassik talqinida tushuniladi, ya'ni. qanday - «causa formalis», «causa materialis», «causa finalis», «causa efficiens»;

- hodisalar (sabab va oqibatlar) - o'ziga xos yaxlitligi, global fazo-vaqt bilan dunyoning mavjudligi;

-olamni mohiyatiga ko'ra shartlangan va rejimlardan birining dolzarbligi bilan bog'langan mumkin bo'lgan (virtual) holatlar yig'indisi sifatida tasvirlash mumkin;

-Yagona tizimli dinamik yaxlitlik doirasida bir-birini o'zaro mustahkamlovchi yoki o'zaro kompensatsiya qiluvchi (shuning bilan tasodifiylikni keltirib chiqaradigan) bir-biri bilan chambarchas bog'langan va kesishuvchi sabab zanjirlarining o'ziga xos “to'rlari” mavjud;

Olamdagi sabab-natija munosabatlarining murakkabligi quyidagilar bilan bog'liq: 1) dunyo yaxlitligi; 2) elementning ichki tizim shartliliigi, dunyoning quyi tizimi; 3) boshqa elementlar, quyi tizimlar bilan mahalliy o'zaro aloqalar;

-dunyo o'zining haqiqiy holatida - olam o'zaro ta'sir tizimidir; .

- harakat bor joyda vaqt bor;

- kvant mexanikasi qonunlaridan kelib chiqadigan bizning Koinotning kuzatuvchanligi va dunyoning boshqa rejimlarining kuzatilmasligini bu (“Everet”) koinotlarning virtual (ya'ni tizim-axborot) mavjudligi sifatida talqin qilish mumkin;

- aql, xususan, uning o'ziga xos ifodasi - inson ongi dunyoning organik mavjudligining ikki darajasini bog'laydi: tizim-axborot (uzluksiz) va fizik-energetik (diskret), Aql tashuvchisi - Inson faqat jismoniy va energiya darajasiga bog'langan emas, shuning uchun olamning boshqa elementlari kabi uning tuzilishi bilan qattiq belgilanmagan, u nisbatan o'zini o'zi belgilash qobiliyatiga ega.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, butun dunyo, koinot, shuningdek, atom yoki har qanday zarracha va hatto fizik maydonlarni tizim deb hisoblash mumkin. Arastu to'g'ri ta'kidlaganidek, “kosmos paydo bo'ladigan va yo'q bo'lib ketadigan narsa emas, balki uning holatlaridir”. [7.295s]

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, agar biz tabiatning barcha ob'ektlari bir-biriga bog'langanligidan kelib chiqadigan bo'lsak va bu bog'liqlik tabiati vaqt va makonda o'zgarib turadigan ob'ektlarning mohiyati

bilan belgilanadi. Shu bois tizimning biron bir qismining xususiyatlari mutlaq va fundamental emas, balki nisbiydir, chunki ular o‘zaro belgilanadi. Tizim elementlarining o‘zaro ta’sirining umumiy muvofiqligi uning butun tuzilishini belgilaydi. Bu erda ob’ektiv ravishda koinotning cheklovlari va uning asosiy tuzilishini tashkil etuvchi barqarorlik darajalari bilan bog‘liq bo‘lgan bunday o‘zgaruvchanlikning ba’zi cheklovlari borligini taxmin qilishimiz mumkin. Tabiyatning gultoji hisoblangan insonganing hayotini tizimli tashkil topishda sabab va oqibatning belgilari katta mohiyatga ega. Shuning uchun ham inson tabiatida sabr-toqat tuygusi shakllangan va unga berilgan qisqagina umrda sabrli bo‘lishiga intiladi. Chunki hayotini go‘zal bo‘lishida ulug‘ zotlar xususiyatlaridan hisoblangan sabr-matонат muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bogdanov A.A. Tektologiya. V 2 kn. M., 1989. Kn.2. S.246.
2. Na etu obuslovlennost spravedlivo ukazivayet, v chastnosti G. Veyl. - Sm.: G. Veyl Matematicheskoye myshleniye. M., 1989. S.9.
3. Aristotel. Metafizika // Aristotel. Soch. V 4 t. M., 1976. T.G. S.67.
4. Sm. kritiku etogo podxoda, dannuyu K. Popperom, naprimer: Popper K.R. Kvantovaya teoriya i raskol v fizike. Iz Postskriptuma k «logike nauchnogo otkryitiya». M., 1998. S.60.
5. Aristotel. Fizika // Aristotel. Soch. V 4 t. M., 1981. T.Z. S.153.
6. Ob etom aspekte vremeni’sm., naprimer: Averyanov A.N. Sistemnoye poznaniye mira. M., 1985. S.53-56.
7. Aristotel. O Nebe // Aristotel. Soch. V 4 t. M., 1981. T.Z. S.295296.

DUNYONING GEOPOLITIK MUVOZANATI, KECHAGI NAZARIYALAR BUGUN AMALIYOTDA... YOHUD ROSSIYADAGI SHOVINISTIK G‘OYALAR MOHIYATI

Xasanov Zuxriddin Avaz o‘g‘li
*mustaqil tadqiqodchi,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat
markazi yetakchi mutaxassisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘tgan asrning oxirlari va yangi asrning dastlabki o‘n-yilliklarida geopolitika sohasida ilgari surilgan nazariyalar, hamda ularda Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning bugungi kundagi aksi,

rossiyada rivojlanib borayotgan shovinistik g'oyalarning tub mohiyati, millatlarni va davlatlarni manipulyatsiya qilish bo'yicha Rossiya imperialistik g'oyalari va undan saqlanish shartlari haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar. Sivilizatsiya, g'arb va sharq, geosiyosat, yangi dunyo tartibi, mustamlakachilik, shovinizm, madaniy ta'sir, yumshoq kuch, Yovroosiyo.

Tarixiy tadrijiylik biron-bir sivilizatsiyaning o'z taraqqiyoti cho'qqisiga chiqishi uning madaniy ta'sir doirasi bilan belgilanadi. Sivilizatsiyalar qadimda ma'lum bir mintaqadan chiqmaganligi, ta'siri ham shunga yarasha bo'lganligini ko'rish mumkin. Ammo bugungi kunning ikki yirik sivilizatsiyasi: taraqqiy etgan, aholisining katta qismi nasroniylardan iborat bo'lgan — G'arb hamda o'ziga xos madaniy birliklardan iborat bo'lgan yirik Sharq madaniyati dunyoni ko'plab mintaqalarini qamrab oldi.

Ilgari tsvilizatsiya deganda faqat madaniy yaqinlik tushunilgan bo'lsa ingliz olimi Samuel Xantington o'zining "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi, yangi dunyo tartibi" nomli asarida uni rivojlanish, deb qabul qilish hamda bugungi dunyoning yangi tartibiga sabab bo'layotgan unsur, deb qarash taklifi bilan chiqdi. U o'z nazariyasi bilan bugungi kunda sivilizatsiyaga asoslangan jahon tartibi yuzaga kelayotgani, madaniy o'xshash jamiyatlar bir-biri bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, jamiyatlarni bir sivilizatsiyadan boshqa sivilizatsiyaga o'zgartirishga bo'lgan urinishlar muvaffaqiyatsizlikka uchrayotgani haqidagi fikrlarni ilgari suradi.

Bizning hududimizda qadimdan o'ziga xos sharqona turkiylik va islom dini madaniyati shakllangan. Bundan tashqari Markaziy Osiyoda xalqlarni birlashtiruvchi sharqona tarixiy birlik omilining ham mavjudligi mintaqani to'laqonli sharq sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligidan dalolat beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmida nafaqat mintaqadagi davlatlar, balki, deyarli butun g'arb sivilizatsiyasiga taalluqli bo'lmagan davlatlar ham mustamlaka iskanjasiga tushib qoldilar.

Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya imperiyasi kabi yirik mustamlakachi davlatlar g'arb tsvilizatsiyasini boshqa hududlarga yoyishga harakat qildilar. Ammo ularning geopolitik istaklari ham mavjud bo'lib, bu istaklar ular uchun madaniylikni yoyishdan ancha muhimroq oliy maqsad sanalar edi.

XX asr boshlarida dunyoda yangi tartiboti tarkibiga kommunistlar kelib qo'shildilar. Ular sobiq SSSR hududida industriallashuvni madaniy inqilob bilan hamohang olib bordilar. Natijasida insonlar o'rtasida g'arblashuv bir vaqtning o'zida zamonaviylashuvni anglatadi, degan noto'g'ri tushuncha shakllandi. Lenin boshchiligidagi bolsheviklar sobiq Ittifoqning g'arbiy hududlari bilan birgalikda o'ziga xos sharqona madaniyatga ega bo'lgan millatlarni ham g'arb g'oyalari asosida sovet madaniyatini yaratish bo'yicha

assimlyatsiya qilishga harakat qildilar.

Rejaga asosan, huddi Amerika xalqi shakllangani singari rus tili muhitidagi sovet millati shakllanishi kerak edi. Ammo bu g'oya o'zini oqlamadi. Sivilizatsiyalar vaqtinchalik imperiyalardan ancha bardoshliroq ekanligini isbotladi. Milliylik, milliy ruh tushunchalari yagona sovet madaniyati g'oyasidan ustun chiqdi. Sobiq ittifoq tarkibidagi davlatlar o'z mustaqilligini ana shu ikkita milliylik va yagona madaniy mushtaraklik tamoyili asosida yo'lga qo'ydilar. Ammo XXI asrda - "yangi davr" dunyo tartibotida yangi imperiya talvasalari vujudga kelishi bilan boshlandi.

Yaqinda ommaviy axborot vositalari orqali rus shovinist siyosatchisi Zaxar Prilipinning O'zbekistonni bosib olish haqidagi yoki tarixchi Mixail Smolinning o'zbeklar qozoq, qirg'iz va ozarbayjonlar kabi xalqlar o'tmishda bo'lmagan halqlar, deb davo qilishi rossiyaning bugungi kundagi siyosiy elitasi mafkurasiga berilgan chizgidir.

Ukrainaning qarshi xujumi katta muvaffaqiyatlarga erishmagan, Rossiya Ukraina bilan mudofaa chizig'ini mustahkamlab olgan bir paytda yangragan ushbu fikrlarning tag-zamirida davlatlarni shantaj qilish, o'zining g'arbga qarshi davolarini mustahkamlash borasida g'oyaviy asoslar yaratish, oxir-oqibat Rossiyaning "qonuniy hududlari"ni qaytarish haqidagi fikrlar yotibdi.

Rossiyaning siyosiy elitasi intilayotgan Yovroosiyo birligi g'oyasi, albatta, birinchi navbatda Ukraina, so'ngra Markaziy Osiyosiz bo'lmaydi. Shu o'rinda aytib o'tish joyizki, Rossiya gvardiyasi ofitseri "Справедливая Россия" siyosiy partiyasi markaziy kengashi a'zosi Zaxar Prilepinning Qozog'iston, Qirg'iziston yoki Ozarbayjonga emas, aynan O'zbekistonga nisbatan bu so'zlarni aytishi bejizga emas.

Bu esa bugungi Rossiyaning o'z geopolitik yo'lini topa olmayotganligini dunyo geosiyosatida yakkalanib qolayotganligiga asosiy sabab bo'layotgan eski iperiyachilik g'oyalaridan soqit bo'la olmayotganligi bilan bog'liq holda yuz bermoqda. Rossiyaning Ukrainagi harakatlari bundan buyon Rossiyaning tashqi siyosatda qattiq kuchdan keng foydalanishi va xalqaro huquq meyyorlariga amal qilib o'tirmasliklarini ko'rsatib qo'ydi. Bu dunyo davlatlari nigohida bugungi Rossiyani qo'pol geosiyosiy imdjini shakllanishiga, dunyo avtakratiyasini ilhomlantishiga sabab bo'ldi.

Xo'sh, bu siyosiy tafakkur Rossiyada qanday yuzaga keldi?

Avvalroq, Ittifoq parchalangach, Rossiya g'arb dunyosiga mansub davlat, binobarin, u G'arbning bir qismi bo'lishi kerak, degan g'oya tarafdorlari Rossiyaning sobiq Prezidenti B.Yelsin boshchiligida hokimiyat tepasida g'arb davlatlari bilan iliq munosabatlarni yo'lga qo'yish orqali inqirozga yuz tutgan iqtisodiyotini tiklashga harakat qildilar.

Jumladan, dastlab, G'arbdan kirib kelgan investitsiya oqimi tufayli Rossiya iqtisodi oyoqqa tura boshladi, ammo Rossiya tashqi siyosatda o'zini SSSR davlati mavqei me'rosxo'ri, deb bilishda davom etdi. Rossiyaliklarning katta qismi hali ham dunyoda yetakchi davlatda istiqomat qilishlariga ishonishar edi.

1991-yilda SSSR parchalanishi bilan tuzilgan MDH rus siyosatchilarining nazdida nisbatan erkinroq davlatlardan iborat Rossiya boshchiligidagi ittifoq bo'lishi kerak edi. Ammo bu strategiya o'zini "oqlamadi". Mustaqil davlatlar, ayniqsa, Ukraina Rossiya tomonidan MDHda Rossiyaning ustunligi mavqeini mustahkamlash, rus tilini o'qitish foizini oshirish, malakali kadrlarni Moskvada o'qitish va kadrlar tayyorlash tizimini "Markazdan" olish, hamdo'stlik mamlakatlarida rus OAVlar namoyishini yo'lga qo'yish kabi g'oyalarga ochiqchasiga qarshi chiqdi.

O'tkan asrning 90-yillari oxiri va 2000-yillarning boshlarida hamdo'stlikdagi davlatlarning Moskva ta'siridan qochish va ishonchsizlik asnosidagi munosabatlar MDHni byurokratik xalqaro tashkilotga aylantirib qo'ydi. Natijada bugunga kelib 9 ta davlatgina MDH tarkibida qoldi. Rossiyaning MDH doirasida yaqin qo'shnilarni birlashtirish geopolitik strategiyasi barbod bo'ldi. Bundan tashqari kecha "Varshava" harbiy bloki tarkibida bo'lgan Sharqiy Yevropa davlatlari Rossiyada ulug' imperiyachilik g'oyalari paydo bo'lmasdan NATO quchog'iga otilishdi. Bu esa Rossiyaliklar tomonidan SSSR parchalanishidan keyin Rossiya tashqi siyosatidagi eng katta muvaffaqiyatsizlik sifatida qabul qilindi.

Bu o'rinda Amerika va boshqa G'arb siyosiy doiralarining ham aybi — NATOning geostrategik kengayishi va Rossiya chegaralari tomon yaqinlashishi Rossiya siyosatida aksil ta'sir berishi hisobga olinmaganligi bo'ldi. Amerikalik geosiyosatchi Z. Bjezinski ta'kidlaganidek, bu davrda Rossiyadagi g'arbparast siyosatchilar ham "Qo'shma Shtatlar jamiki Yevrosiyo bo'ylab, davlatlararo munosabatlarni qayta tashkil qilishga erishmoqni ko'zlaydi. Buning oqibatida ular qit'ada bironta ham yetakchi davlat bo'lmasligini, aksincha, ko'pgina o'rtacha, nisbatan barqaror va quvvati ham o'rtamiyona davlatlar bo'lmog'ini xohlashadi. Biroq bu davlatlar ayrim-ayrim olganda ham, hammasini qo'shib olganda ham, albatta, Qo'shma Shtatlarga qiyosan olganda ancha zaifroq bo'lmoqlari shart", deb hisoblashmoqda edi. Bunday mulohazalarni olg'a suradigan Rossiya siyosatchilari hamavaqt ham xato qilgan deb bo'lmaydi.

Tashqi siyostda bunday muvaffaqiyatsizlik tufayli Rossiyada bugungi kunga qadar rivojlanib kelgan revanshizm kayfiyati yuzaga keltirdi. Rossiyaning Davlat dumasi hatto 1996-yilning boshida Sovet Ittifoqining tugatilishi yuridik jihatdan noqonuniy harakat bo'lgan deb e'lon qildi.

Rossiyaning tashqi siyosatida “Yaqin qo‘shnilar” strategiyasi barbod bo‘lgandan so‘ng rus siyosatchilarining yangi elitasi Rossiyaning geostrategik maqsadlari yo‘lida ikki xil tanlov qarshisida qolidilar.

Biri: g‘arb bilan munosabatlarni tiklab, imperiyachilik sarqitidan voz kechish, davlatni moderinizatsiya qilish, NATO ni kengayishiga monelik qilmasdan sobiq ittifoqdan ajralib chiqqan davlatlar ayniqsa Ukrainaning (chunki bu davlat Rossiya uchun Geosiyosiy muhim ahamiyatga ega, Rossiya uchun Yevropa darvozasi) mustaqilligini tan olish bo‘lsa, ikkinchisi: g‘arb bilan qarama-qarshilikka kirishish, Sobiq Ittifoq “me‘rosini” tiklash, NATO ga qarshi blok yaratish oqibatida g‘arbning ilmiy texnik hamda siyosiy institutsional yutuqlaridan mosuvo bo‘lish edi.

Albatta, Rossiya elitasi uchun birinchi yo‘lni tanlash o‘z geosiyosiy “buyuk”ligidan voz kechishni anglatar edi. Shu sababli Rossiyaga sobiq ittifoq chegaralarigacha kengayish uchun kuchli g‘oyaviy asos kerak edi. Buni qarangi, bu asos oldindan Rossiyada bo‘lgan. Rossiya davlati faqat rus millatining g‘oyasini anglatmasligi, undan kattaroq tushunchad mamlakatlar va mintaqalarda mavjudligini asoslaydigan “Yevrosiyo” g‘oyasi hatto Sovet Ittifoqi davrida ham mavjud bo‘lgan. Bu haqida Z. Bjezinski shunday ta’riflaydi: “Bu mo‘ljalni belgilab beruvchi atamalar ko‘proq madaniyat sohasi va hatto mistika bilan bog‘liqdir. Bu qarashga ko‘ra, geopolitik va madaniy jihatlardan olganda Rossiya to‘laligicha Ovro‘pa mamlakati emas va to‘laligicha Osiyo mamlakati ham emas. Shuning uchun ham uni busbutun holda Yevrosiyo davlati, deb qaragan ma’qul. Bu xususiyat faqat unga xos. Bu — Markaziy Ovro‘pa bilan Tinch okean oralig‘idagi juda katta hudud ustidan g‘oyatda noyob nazoratning Rossiyaga meros bo‘lib qolganidir. Bu nazoratni Moskva o‘zining to‘rt asr mobaynida sharqqa siljishi natijasida barpo etgan. Ana shu siljish oqibatida Rossiya ko‘pdanko‘p rus bo‘lmagan va ovro‘pali bo‘lmagan xalqlarni o‘ziga singdirib oldi va bu yo‘l bilan siyosiy va madaniy jihatdan yaxlit individuallik kasb etdi.

Muallif fikrini bungungi kun holatidan kelib chiqib tahrirlaydigan bo‘lsak, rus propagandasi tomonidan bunday g‘oyalarning ilgari surilishi o‘tgan asrda ham mavjud bo‘lganligi ammo bugun uni amalga oshirish uchun Moskvada ishtiyoq ortganligini tushunishimiz mumkin. Bu g‘oyaning maqsadi aniq ammo usul va vositalari yashirindir. Amalda bu g‘oya asosida Rossiya Sharq va G‘arb madaniyati o‘rtasida joylashib ikkita madaniyatning qorishmasiga aylangani, unga ta’sir ko‘rsatgan g‘arbdagi slaviyan xalqlaridan tortib sharqdagi turkiy mug‘ul va xitoy kabi etnik birliklar ham rassiya tarkibida bo‘lishi kerakligini oqlayotgandek.

Chunonchi Prezident V.Putinning joriy-yilning 8 fevral kuni amerikalik mashxur jurnalist T.Karlsonga bergan intervyusida Ukraina

va Rossiya tarixi haqida soʻz ochdi. Unga koʻra qadimgi Ukraina Rus davlatchiligidan ajralib chiqqanligi, Polsha-Litva davlati tarkibida Yevropa Markazlari tomon tortilganligi, polyaklar tomonidan oʻnlab-yillar aholisining katta qismini polshalashtirilganligi va u yerdagi millatlar aslida rus xalqining bir qismi boʻlganligini, shuningdek, 1922-yil bolsheviklar SSSRni shakllantirishni boshlagani va shu paytgacha umuman mavjud boʻlmagan Sovet Ukrainasi yaratilganini taʼkidladi. Bu esa huddi tarixchi Smolinning Oʻzbeklar qozoq, qirgʻiz va ozarbayjonlar kabi millatlar oʻtmishda boʻlmagan deb davo qilishiga oʻxshab ketadigan siyosiy retorikani eslatadi. Baayni, Kremlning bugungi qarashlari, gʻoyaviy intilishlarida yakdillik kasb etayotganligidan dalolatdir. Rossiyalik siyosatchilar, ziyoli qatlam vakillarining har bir fikrini etiborga olishimiz lozimki, chunki ularning tag zamirida rus geopolitik maqsadlari yotadi.

Aslida, Yevroosiyo oʻziga xoslik yoki “Yevroosiyolik madaniy tip” nazariyasi orqali Rossiya Yevroosiyoning markazi va qoq yuragi ekanligi va boshqa davlatrni nazorat qilishni Oltin oʻrda va Mugʻullardan meʼros qilib olganligini, ingliz geosiyosat maktabi asoschisi X.Makkinder falsafasi bilan aytganda dunyoning geosiyosiy va harbiy-stretegik maʼnodagi markazi Yevroosiyo qitʼasi, uning markazi esa “jahonning yuragi” hisoblangan “Heartland” – Rossiya ekanligiga xar bir rus siyosatchisi ishonadi. Oʻzlarining gʻoyalarini shu yoʻsinda asoslashga urinishda boshqa millatlarning tarixini boʻgʻib koʻrsatishga harakat qiladilar. Jurnalist Sherzodxon Qudratxoʻja taʼkidlaganidek, “...rossiyalik koʻplab soxta olimlar va siyosatchilar tarixni monopollashtirib olgan”lar va boshqa rusiyzabon millatlarni manipulyatsiya qilishda undan foydalanmoqdalar.

Ammo, Sobiq ittifoq tarkibida boʻlgan Ukraina, Oʻzbekiston kabi davlatlar Rossiya Markazida boʻlishi kerak boʻlgan Yevroosiyo gʻoyasiga qarshi chiqib oʻz tarixi va madaniyatini targʻib etishni rivojlantirdilar. Rossiyaning Amerikaga qarshi yoʻnaltirilgan Yevrosiyo koalitsiyasiga oʻxshagan biron-bir aksilalyansni barpo etish, bu aksilalyans orqali Amerikaning Yevrosiyodagi ustivorligini kamaytrish boʻyicha maqsadlariga “toʻgʻanoqlar” paydo boʻlgan edi. Bugungi Ukrainadagi urush ana shu “toʻgʻanoqlar”dan birini bartaraf etish uchun olib borilgan Rossiyaning qattiq kuch siyosatidir.

Shuni ham inkor etmasligiz kerakki, Rossiya Urush orqali hamdoʻstlik davlatlariga oʻz kuchini koʻrsatib qoʻymoqchi va Rossiyaga qarshi har qanday harakatlardan ogohlantirmoqda.

Ikkinchi “toʻgʻanoq”ni bartaraf etish uchun esa Rossiya tomonidan boshqa yoʻl tanlandi. Z.Bjezinskining taʼkidlashicha, Markaziy Osiyoda faqat Oʻzbekistongina Rossiya bosimlaridan eng holi boʻlgan hamda

eng mustaqil siyosat yuritadigan davlat. Ammo bugungi kunda Rossiya strategik bosim vositalarini yaratib mamlakatga bosim o‘tkazishda ulardan foydalanib ham ko‘rmoqda. Chunonchi, Prilipen va Smolin kabilarning fikrlarini shaxsiy qarashlari, deb e‘lon qilgan Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi o‘zbekistonlik jurnalist Sherzodxon Qudratxo‘janing davlat tilini har bir fuqaro bilishi kerakligi to‘g‘risidagi fikriga “millatchilik” deya baho berdi. Bunday siyosiy prinsial ikki xil standartlashtirish mamlakatlar o‘rtasiga sovuqchilik tushirishdan boshqa narsaga xizmat qilmaydi albatta.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyodagi Qozog‘istondan tashqari barcha davlatlarda ishsizlik muammosi borligidan unumli foydalanib, Rossiyada bo‘lib turgan mexnat migirantlaridan o‘z davlatlari va jamiyatiga ta’sir vositasi hamda harbiy resurs sifatida foydalanishga harakat qilinmoqda. O‘zbekistonni Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga tortishga, “Gaz ittifoqi” kabi ittifoqdan foydalanish orqali tranzit va iste‘molchi davlatga aylantirish bo‘yicha ta’sir vositalari yaratilmoqda. Bunday tuzoqlardan qochish muammolarni vaqtida bartaraf qilish uchun esa siyosiy iroda va milliy mustaqillik ongi talab qilinadi.

Yangi davrda biz yangi tahdidlarni ongli anglashimiz lozim. Bugun O‘zbekiston — yoshlar mamlakati. Mamlakat aholisining 60 foizidan ortig‘ini yoshlar tashkil qilmoqda va ularning ko‘pchiligi rus madaniyatini emas yevropa va sharq madaniyat tilini o‘rganishmoqda. Biz bugun, Prezidentimizning ta’biri bilan aytganda, xar qanday dushmanga qarshi tura olamiz. Bizdan talab qilinadigan yagona ish bu birlikni ta’minlashdir. Bugungi kunda bizda tanqis bo‘layotgan yagona narsa shu.

Foydalilgan adabiyotlar

1. Samuel Xantington “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi, yangi dunyo tartibi”. Yangi asr avlodi. 2023-y.
2. Bjezinski Zbignev “Buyuk shaxmat taxtasi”. Tirilish. 2022-y.
3. Bjezinski Zbignev “Украинский шанс для России”. Алисторус. 2015-y.
4. Xelford Makkinder “Географическая ось истории”. Neoclassic. 2023-y.

O'QUVCHILARDA HUQUQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Atamuradov Xasan Yuldoshevich

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Maktabgacha ta'lim metodikasi

kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada o'quvchilarning huquqiy savodxonligini rivojlantirish tamoyillari, umumiy o'rta ta'lim tizimida huquqiy bilim va ko'nikmalarni tizimli rivojlantirish orqali savodxonlik darajasini oshirish usullari, texnologiyasi, interfaol usullarini ishlab chiqish borasidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: huquq, qonun, bilim, ko'nikma, savodxonlik, tushuncha, huquqiy ong, huquqiy faollik

Demokratik jamiyatda huquqning asosiy ustuvor yo'nalishi aynan fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy faolligini rivojlantirishdir. Noqonuniy faoliyatni oldindan bostirishning asosiy usuli bu har bir fuqaroning huquqiy ongini tarbiyalashdir. Maktab yoshidagi yoshlarning huquqiy savodxonligi va huquqiy ongini oshirish jarayoni va yoshlarning maktab ta'limi ko'plab mutaxassislarning ushbu muammo bo'yicha tadqiqotlarining asosiy ob'yekti hisoblanadi.

Huquqiy bilim qonunga bo'lgan ehtiyojni anglashni nazarda tutadi; asosiy huquqiy talablarni tushunish, yuridik shaxslarning harakatlarini ularning qonuniyligi va noqonuniyligi nuqtai nazaridan baholash; huquqni rivojlantirish qonuniyatlari to'g'risida g'oyalarning mavjudligini angaltadi. Huquqiy bilim huquqiy ongning yadrosidir, chunki u holda qonun nuqtai nazaridan xulq-atvorni, ayniqsa ziddiyatli vaziyatlarda to'g'ri tanlash mumkin emas.[1]

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy g'oyalari umumiy ta'lim muassasalarida huquqiy ta'limning tuzilishi va mazmuni konsepsiyasida belgilangan. Yagona o'quv-uslubiy majmua doirasida huquqiy ta'limning har bir bosqichi uchun o'quv-uslubiy materiallar tayyorlandi. Ular orasida o'qituvchilar uchun uslubiy mazmundagi darsliklar va kitoblar, amaliy topshiriqlar, huquqiy muammolar to'plamlari, antologiyalar, shuningdek audio va video materiallar mavjud. Huquqiy islohotlarga ko'ra, huquqiy ta'lim o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bir qator kitoblar nashr etiladi, biroq o'quvchilar uchun innovatsion, interfaol usulda chop etilgan nashrlar va elektron platformalar yetarli emas. Metodik qo'llanmalarning yordami bilan o'qituvchi o'z auditoriyasini tahlil qilish asosida mustaqil ravishda huquqiy ta'limning to'liq darsini ishlab chiqishi mumkin, ya'ni: maktab o'quvchilari

va ularning ota-onalarini ushbu sohada eng ko'p tashvishga soladigan muammolar, mintaqa mentaliteti. Ushbu konsepsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi zamonaviy o'quvchilarni huquqiy tarbiyalashning asosiy maqsad va vazifalari konsepsiyaning maqsad va vazifalari bilan deyarli bir xil ekanligi bilan izohlanadi.

Huquqiy ta'lim tizimi o'quvchilarga huquqning barcha asosiy tushunchalarini to'liq o'zlashtirishga imkon beradi. Uning maqsadi qonunlarni to'g'ri idrok etish va ularni talqin qilish ko'nikmalarini egallashdir. Shuningdek, o'quvchilarga qonunchilik jarayonida ishtirok yetish bo'yicha yempirik tajriba orttirish, shuningdek, amaldagi maktab qonunlari va qonunlariga tuzatishlar kiritish bo'yicha loyihalarni yaratishda ishtirok etish, huquq himoyachisi rolida o'zlarini sinab ko'rish, huquqiy matnlarni tahlil qilish va ularga konstruktiv tanqid qilish, munozaralarda qatnashish imkoniyati beriladi va zamonaviy jamiyatning dolzarb masalalari bo'yicha munozaralar ushbu sohadagi bilimlarning past darajasi bilan ajralib turadi. Shu munosabat bilan yoshlar orasida noqonuniy xatti-harakatlar soni vaqt o'tishi bilan kamaymaydi. Ushbu muammoning sababi aniq – maktab o'quvchilari va o'quvchilar o'rtasida yuqori sifatli huquqiy ta'limning yo'qligi bilan bog'liq.

Huquqiy ta'lim bolani alohida shaxs ichida fuqaro sifatida to'g'ri joylashtirish va jamiyatda to'g'ri ishlash qobiliyati uchun individual ko'nikmalarni shakllantirish sharti hisoblanadi. Maktabgacha huquqiy ta'limni tashkil qilishda o'qituvchi o'rta maktabda huquq fanini shuningdek, "Tarbiya fani" ni turli yo'nalishlarda o'qitish orqali huquqiy savodxonlikni rivojlantirishi kerak, bu ma'lum bir ta'lim muassasasining profiliga, o'quvchi sinfiga va o'quvchining individual o'quv dasturiga bog'liq. Ta'lim tizimi doirasida huquqiy xulq-atvorga, huquqning turli sohalarida, ayrim qonunlarda, qiyosiy huquqshunoslik sohalarida huquqiy bilimlarning ilg'or darajasiga, huquqiy vaziyatlarni nazariy tahlil qilish qobiliyatiga, o'z huquqlarini ijtimoiy va keng miqyosda amalga oshirish qobiliyatiga doimiy ehtiyoj mavjud.

Hatto maktab huquqiy ta'limni o'qitishda ham o'qituvchilar amal qilishi kerak bo'lgan asosiy tamoyil – bu o'quvchilarni ortiqcha yuklamadan ozod qilish va qonunlarni me'yor bo'yicha taqsimlash, tushuntirish va izohlash zarur. Bolalarga fuqarolik jamiyatining tuzilishi, jamiyatdagi xulq-atvor normalari va keyingi huquqiy ta'limning ahamiyati to'g'risida oson hazm bo'ladigan shaklda fundamental asos berish muhimdir. O'qituvchi o'z o'quvchilarida qiziqish uyg'otishi, shuningdek ularni huquqiy ta'limning ahamiyati to'g'risida mustaqil xulosaga undashi kerak. Vakolatli o'qituvchi maqsadli sinf uchun mavzuning dolzarbligi asosida materialni taqdim etishi kerak. Asosiy dastaklar – bu hayotiy tajriba, yaqin muammolar va bo'ysunish

qulayligi. Maktab yoshdagi bolalarga huquq asoslarini o‘qitishda empirik tajriba yo‘qligi sababli, to‘g‘ri yechim o‘quv dasturini bosqichma-bosqich va jamoaviy modernizatsiya qilish bo‘ladi.

O‘quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish uchun quyidagi tamoyil va tavsiyalarga e‘tibor berish zarur:

№	Amalga oshiriladigan ishlar	Natija
1.	O‘quvchining o‘z huquqlarini bilishga bo‘lgan qiziqishini saqlab qolish uchun har xil turdagi guruh ishi, jamoaviy ish va individual yondashuvdan foydalanish kerak;	Bunda o‘quvchi haq-huquqlarini bilish hayot uchun zarur ekanini anglaydi.
2.	Huquqiy vaziyatning o‘yinlari va savdo, va boshqa masalalarda odamlar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar haqidagi xayoliy, rolli va boshqa o‘yinlar;	Bunda o‘quvchi huquqiy munosabatlarning hayot uchun zarur ekanini ko‘z bilan ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi, tushuncha hosil qiladi.
3.	Huquqiy manbalar bilan ishlash sifati, ijodiy loyihalar, jamoaviy shartnomalar, aqliy hujum va boshqa ko‘plab qiziqarli yondashuvlardan tizimli foydalanish	Huquqiy munosabatlarda to‘g‘ri yo‘l tutishga o‘rganadi.

Aslida, “Tarbiya” fani orqali ham o‘quvchilarda huquqiy savodxonlikni ko‘tarish mumkin. Bundan tashqari, boshqa ekspertlarning fikriga ko‘ra, asosiy intizom «fuqarolarning huquq va erkinliklari»darsi bo‘lishi kerak. Ammo, ularning optimistik umidlariga asoslanib, ushbu fikrlarning har biri maktab dasturlarini amalga oshirishda o‘z o‘rniga ega, shuni ta’kidlaymizki, bu ularni xatolardan ozod qilmaydi va ular bir tomonlama emas. Maktab yoshlarining huquqiy tarbiyasi va tarbiyasi ularning huquq va erkinliklarini o‘rganish bilan cheklanib qolmasligi kerak.

Ta’limning nazariy va amaliy tabiati juda ko‘p nazariy bilimlarni o‘z ichiga oladi va o‘quvchi ularni hayotda amalga oshirish ko‘nikmalariga yega bo‘ladi. Maktablarda huquqshunoslik bilan shug‘ullanadigan o‘qituvchilar va o‘qituvchilar huquqshunos o‘qituvchilar va oliy ta’lim darajasida o‘qitilgan huquqiy ma’lumotga ega o‘qituvchilar bo‘lishi kerak. Darhaqiqat, maktablarda oddiygina pedagogik ma’lumotga ega bo‘lmagan o‘qituvchilar bor.

Hozirgi vaqtda huquqiy ong va huquqiy savodxonlik muammolari nafaqat yoshlarni, balki barcha toifadagi fuqarolarni qamrab oladigan mamlakatimiz jamiyati uchun ayniqsa dolzarbdir. Xususan, barcha umumta’lim muassasalarida “TARBIYA” fani bir xil saviyada o‘qitilmaydi,

barchasi maktab yoki ma'lum bir bosh o'qituvchi qaysi dasturni tanlashi va rivojlantirishiga bog'liq. Huquqiy xarakterdagi o'quv materiallari ko'pincha maktabda tarix o'qituvchilari tomonidan o'qitiladigan «fuqarolik huquqi» va «ijtimoiy fanlar» ga kiritiladi. Ixtisoslashgan maktablarda va tabiatshunoslik yoki fizika-matematika yo'nalishidagi sinflarda bu muammo birinchi navbatda qisqartma ostiga tushadi. Yuqori sifatli ta'lim olgan o'rta maktab o'quvchilari, albatta, kichik, o'rta va hatto katta (asosiy bo'lmagan) sinf o'quvchilari, shuningdek, aholi uchun huquqiy ta'limda muhim yordam ko'rsatishi mumkin. Garchi juda erta ixtisoslashuv va kasbga yo'naltirish bo'yicha tanlab olingan bolalarning iste'dodi va istaklariga to'g'ri kelmasligi mumkin. O'quv jarayonini tashkil etish, shuningdek, soatlarning qisqarishi va o'quvchi bilan tanishish imkoniga ega bo'lmagan bir qator fanlarning umumiy ta'lim dasturidan chiqib ketishi bilan birga bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktab o'quvchilarida huquqiy savodxonlikni rivojlantirish uchun huquq fanining o'zi yetarli emas, buni bugun umumta'lim tizimiga joriy etilgan yangi "Tarbiya" fani asosida ham rivojlantirish mumkin. O'quvchi sinfdan-sinfga o'sib borgan sari uning huquqiy munosabatlari doirasi ham kengayib ketaveradi, bunday paytda unga orttirilgan huquqiy savodxonlik bazasi yordam beradi. Buni inobatga oladigan bo'lsak, "Tarbiya" fani doirasida huquqiy savodxonlikni imkon qadar rivojlantirish, o'quvchilarda huquqiy tarbiyani yuksaltirish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pevsova Ye. A. Pravovaya kultura i pravovoye obrazovaniye v Rossii na rubeje XX-XXI vekov / Rossiyskiy fond .pravovoy reformy. Proyekt «Pravovoye obrazovaniye v shkole». Seriya «Pravovoye obrazovaniye: teoriya i praktika».- M.: Izd-vo «Novyy uchebnyk», 2003.-416s.

2. Morozov, A. V. Aktualnyye problemy razvitiya pravovoy kompetentnosti sovremennykh spetsialistov v oblasti zdravooxraneniya v usloviyax poslevuzovskogo obrazovaniya / A. V. Morozov, V. A. Anuchkin. - Tekst: pryamoy // Pedagogika: traditsii i innovatsii: materialy I Mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii (Chelyabinsk, oktyabr 2011 g.). - T. 2. - Chelyabinsk: dva komsomolsa, 2011. - S. 118-121.

3. Verbiskiy A. A. Poznavatel'naya aktivnost lichnosti v obrazovanii (psixologo-pedagogicheskiy aspekt) // Sbornik nauchnykh trudov. - M., 1986.

“O‘ZBEK MILLIY RUHI”NI KAMOL TOPTIRISH ASOSLARI

Xusanova Nigora Qavul qizi

Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti

kichik ilmiy xodimi

O‘zbekiston Milliy universiteti

tayanch doktoranti

Annotasiya: Ushbu maqolada, O‘zbekistonning ertangi kelajagi bo‘lgan millat bolalarini “**O‘zbek milliy ruhi**” asosida ya’ni – tarixdan to bugungacha ajdodlar tomonidan avlodlarga meros bo‘lib keluvchi qadriyatlarni asrash, tarixiy haqiqatni unutmashlik, milliy o‘zlikni anglash orqali kishilarda vatan, vatanni sevishtirish, ulug‘lash va uning taqdiriga dahldorlik kabi hislatlarni o‘zida mujassam etuvchi – **o‘zbek millat ruhi** asosida kamol toptirish to‘g‘risida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: “**O‘zbek milliy ruhi**”, tarixiy haqiqatni unutmashlik, milliy o‘zlikni anglash, milliy o‘zlik, zamonaviy tahdidlar.

Dunyoda globallashuv jarayoni kechayotgan bir paytda turli xarakterdagi geostrategik va geopolitik intilishlar jamiyat a‘zolari o‘rtasida turli xil qarashlar yoshlar hayoti, ongiga tobora sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda. Tashqi va ichki kuchlar orqali siyosiy kuchlar va davlatlar tomonidan nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy-ma’naviy sohada oshkora va pinhona harakatlar bilan jamiyat a‘zolari o‘rtasida turli xil ko‘rinishdagi tahdid va xavf xatarlarni yuzaga keltirayotgani hech kimga sir emas. Bu borada davlat rahbari Sh.M.Mirziyoev “Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba’zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda” [1] degan ta’kidlari bugungi kunda ko‘rinmas kuchlar tomonidan vujudga keltirilayotgan turli xil ichki va tashqi tahdidlardan ogoh bo‘lishlik va himoya choralari kuchaytirish zarur ekanligidan dalolat beradi. Amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar “inson” hayotini, dunyoqarashini hamda ijtimoiy turmush tarzini o‘zgartirish uchun amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan islohotlar zamirida bitta tamoyil “Inson qadri uchun” g‘oyasi yotadi. Ushbu tamoyilning hayotiy haqiqatga aylanayotgani bugun yangi O‘zbekistonda yashayotgan xalqimizning ertangi kunga bo‘lgan

ishonchi, hayotdan rozi bo‘lib yashashlari uchun qilinayotgan harakatda ham o‘z ifodasini topayotgani hech kimga sir emas. Albatta, “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi” [2] maqsadi ham orzusi ham shundan iborat.

Kelajak avlod qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash hamda yosh avlod ongida bolaligidanoq vatanga muhabbat va “O‘zbek milliy ruhi” g‘oyasi asosida voyaga yetishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shunda g‘araz niyatli kuchlar globallashtirish davrida g‘oyaviy ta‘sir etuvchi usullardan foydalanishi ko‘pchilik uchun notanish bo‘lgan “Zamonaviy tahdidlar” kishilar ongini qalbini egallashga qaratilgan tahdidlardan himoyalashni ijtimoiy-ma‘naviy asoslari ishlab chiqish har qachongidan muhim. Shuningdek, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning reallikdan virtuallik darajasini yuqori cho‘qqisiga olib chiqish va chegarasiz virtual makonda insonlar ongi va qalbini boshqarishga qaratilgan harakatlar orqali amalga oshirish natijasida kishilarning kundalik munosabatlari ham virtuallashishi jamiyat a‘zolarining munosabatlari virtuallashuvi natijasida jamiyatdan begonalashuv tahdidi inson uchun muhim axborotlarni asosan virtual tarmoqlar va OAV orqali qabul qilish jarayonida bolalar ruhiyatiga yetkazishi mumkin bo‘lgan jarohat va zararlarni hisobga olmasdan uzatilayotgan material va lavhalar kun sayin ortib bormoqda. Misol tariqasida, Samarqandda yuz bergan mudhish qotillik – ota o‘z farzandini horijda ishlab yurgan turmush o‘rtog‘i bilan o‘zaro kelishmovchilik tufayli uch nafar farzandini pichoqlashi to‘g‘risidagi xabar yohud turmush o‘rtog‘i bilan o‘zaro nizo tufayli ming azobda dunyoga keltirgan uch nafar farzandi, birinchi ikki nafar farzandini to‘qqiz qavatli binodan pastga uloqtirib, so‘ngra o‘zi hali yoshga ham to‘lmagan chaqalog‘i bilan birgalikda ko‘p qavatli binoning sakkizinchi qavatidan o‘z joni qasd qilgan ona, o‘g‘il o‘z onasini pichoqlashi, aka-uka nizolari yoki ota va o‘g‘il o‘rtasida nizolar, talim dargohlaridagi o‘zaro kelishmovchiliklar, o‘qituvchi o‘quvchi nizolari, o‘quvchi o‘quvchi nizolari, ota-ona va ta‘lim muassasasidagi vaziyatlar, maktabgacha ta‘lim muassasalaridagi hali aqlini tanib ulgurmagan bolalar bilan bog‘liq ko‘ngilsiz holat to‘g‘risidagi xabarlar jajji hali hayotning past balandini tushunishga ham ulgurmagan, hali atrof muhitdagi voqea hodisalarni tushunib ulgurmagan shaxsiy munosabati hali shakllanmagan deb o‘ylayotgan farzandlarimiz ruhiyatida hadik uyg‘otayotishi mumkinligini o‘ylab ko‘rish kerak. Albatta, bu ko‘z ilg‘amas muammolar oqibati ertangi kun egalari millat bolalarining ruhiyatiga ta‘siri kelgusida og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarishi xavfi mavjudligidan darak beradi.

Bugun ushbu muammolarning kelib chiqish qaysi davrdan boshlanadi yoki qaysi sohalarning ortda qolayotgani tufayli degan savolga javob berar

ekanmiz, uning tub negizida ta'lim-tarbiya va oiladagi nosog'lom muhitning mavjudligi tufayli degan to'xtamga kelishimiz tabiiy. Xo'sh, bugun tarbiyaning birinchi bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalarida ahvol qanday? O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tubdan isloh qilish va O'zbekistondagi chekka-chekka hududlardagi bolalarni ham maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmoqda.

Bugun, asosiy vazifa sifatida yuklatilgan aqlan yetuk, jismonan sog'lom ruhiyati mustahkam bolalarni tarbiyalab berish biz tarbiyachi va ablatlata ota-onalarda qolmoqda. Shu o'rinda "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo, biz yashayotgan 21- asrda bu masala haqiqatan ham hayot mamot masalasiga aylanib bormoqda" davlat rahbarini ta'kidlari bu vatanning kelajagi shu farzandlar qo'lida ekanligi va uni barkamol shaxs qilib tarbiyalash orqaligina erishish mumkinligini ko'rsatadi. Bundan tashqari tarifda istiqlol yo'lida o'zini fido aylagan jadidilardan biri Fitrat tarbiya xususida shunday deydi "Agar saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf, nomus va e'tibor kerak bo'lsa, tezroq avlod tarbiyasi usullarini bilib olib, shu usul va qoidalar asosida tarbiyalashimiz lozim" degan fikrni bildirgan bo'lsa P.F.Lesgaft "Bog'cha yoshidagi davr shunday davrki, unda shakllanajak xarakter-hislatlarimiz belgilanadi va sifatlarimizning asoslari yuzaga keladi" degan tarifdan ma'lum bo'ladiki bolaning ruhiy holati va o'ziga bo'lgan ishonchi bog'chada kamol topadi.

Barchaga ma'lumki, bizda bolalar tarbiyasi aksariyat ota-onalar tomonidan yo'l qo'yiladigan hatolardan biri bolada yoshligidan "qo'rquv" hissini uning ruhiyatiga o'zimiz bilgan va bilmagan holda joylab borish. Bola kichik yoshidan taqiqlar va mumkin bo'lmagan ko'rsatmalarni to'g'ri tushunib yetmaydi va hech bir ishdan tap tortmaydi. Chunki unda hali qurquv tushunchasi shakllanmagan bo'ladi. Shu bois biz uni xavf xatarlardan himoya qilish maqsadida ko'pincha qo'rqitishni qurol sifatida foydalana boshlangach, bolada qo'rqoqlik, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik xadiksirovchi va o'ta emotsiyaga beriluvchan bola shaxsi shakllanadi. Bu jarayon oddiy oiladagi ko'rinishlari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin: Bolani uxlatish uchun "bo'ji kelyabdi, seni olib ketadi uxlamasang", mumkin bo'lmagan ishlarni qilmoqchi bo'lsa "babu ham qiladi", sovuq suv o'ynama bo'lmasa doktor kelib ukol qilib ketadi degan ohangdagi tahdidlar asosida mittigina bolakay atrofdagi barcha voqea hodisalarga qo'rquv hissa bilan yondasha boshlaydi. Ta'lim jarayoni ham xuddi shunday bolalar maktabgacha yoshdagi davrda o'yinqaroq va energiya juda ko'p bo'lib uni tinch holatda tartib bilan saqlash uchun uni gap, biror bir buyum yoki jazo chorasi orqali doimiy hukmronlikni saqlangan muhitda tarbiya topgan bolalar jamiyatda bo'ladigan xoh ijobiy xoh salbiy voqea hodisalarga e'tibor bermaydigan va munosabat bildirmaydigan

manqurt sifatida voyaga yetishiga sabab bo'lishi mumkin.

Raqamli axborot asri tufayli bog'chada tarbiya oluvchi bolalar bilan bog'liq nohush voqea hodisalar tezda barcha ommaviy axborot vositalari orqali birdek xabar topmoqda. Tarbiya berish jarayonidagi bolajonlarga nisbatan beriladigan tan jaraohati deysizmi yoki ruhiy bosimlar tufayli ularning yoshligidanoq psixologiyasi jarohatlanishiga sabab bo'lmoqda.

Bugun maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati xususiy sektorlar faoliyati uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi. Lekin, bu faqat daromad manbasi sifatida emas balki, vatan xalq oldidagi ma'suliyat hissini mavjudligini to'la qonli anglagan holda malakali kadrlar faoliyatini ham yo'lga qo'yishni to'liq anglashi lozim. Bu uning davlat oldidagi vazifasi bo'lsa kelajak avlod oldidagi javobgarlik burchi sifatida yondashmog'i lozim. Globallashuvning shiddatli to'lqinlari barcha millatlarining milliy qadriyatlari, ta'lim tarbiya, oila va farzand to'g'risidagi qarashlarning shiddat bilan o'zgarib borishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu millatlar qatorida O'zbekiston ham bor. Bugun oilaviy munosabatlardagi qarashlarning o'zgarib borishi masalari o'zbekistonni ham chetlab o'tmayapti. G'arbdagi "Noan'anaviy oila" to'g'risidagi tushunchalarni kerib kelishi uchun qanchadan qancha mafkura mashinalari kecha-yu kunduz o'z faoliyatini olib bormoqda. Misol tariqasida shu kecha kunduzda **Rossiya** Prezidenti yangi qonunlarni qabul qilish jarayonida V.Putinning rus xalqiga murojaatida shunday deyiladi "Biz haqiqatan ham bu yerda, mamlakatimizda, Rossiyada "ona" va "ota" o'rniga "ota-onaning 1 raqami, 2 raqami, 3 raqami" bo'lishini xohlaymizmi? Siz allaqachon aqldan ozganmisiz? Biz haqiqatan ham bog'cha va maktablarimizda boshlang'ich sinflardan boshlab tanazzulga va yo'q bo'lib ketishga olib keladigan buzuqliklarning joriy etilishini xohlaymizmi?" degan iborasi bugun rus xalqi orasida mem darajasiga ko'tarildi. Xitoy davlatida esa bolalarni virtual tahdidlardan va "ommaviy madaniyat" girdobidan asrab qolish maqsadida mamlakatning o'zining shaxsiy ijtimoiy tarmog'i mavjudligi hamda kichik yoshdagi bolalarda telefon va gadjetlardan foydalanishda qat'iy qoidalarining mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Bundan tashqari ota yoki ona farzand tarbiyasida yetarlicha kamchilik va xatoga yo'l qo'ygan taqdirda ushbu bolalarni davlat o'z himoyasiga olishi to'g'risidagi ma'lumotlar ertangi kuni aynan bolalar qo'lida ekanligi davlat to'laqonli anglab yetganini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda, Xitoyda bola tarbiyasida tarbiyachilarga nisbatan qat'iy talablar mavjudligi ya'ni yosh chegaralari, maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarning o'qish davridagi uzviy hamkorligi, bog'chadagi har bir xonalarda xitoy xalqi ana'ana va qadriyatlari ruhida tashkil etilishi, bolalarni o'ziga bo'lgan ishonchini tarbiya toptirishda kuzgulardan unumli foydalanish, nutq madaniyati, qaddi qomat masalasi, tozalik gegiyenasisi

masalalariga jiddiy e'tibor berilishi tarbiyalanuvchi bolalarning avvalo ruh tarbiyasiga alohida e'tibor berilishiga va kelajakda o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori bola davlat ravnaqi uchun xizmat qiluvchi faol pozitsiyali fuqaro bo'lib yetishiga sabab bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Yaponiya ta'lim tizimida asosiy e'tibor to'rt jihatga e'tibor qaratiladi.

- Yapon milliy qadriyatlari,

- Axloqiy tarbiya,

- Jamoa bo'lib ishlash,

- Atrof muhitga bo'lgan muhabbat va hurmat kabi masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi. Tajribalar o'rganish davrida bolalarni har tomonlama qamrab olishga yetarlicha muhit shakllantirilganidan so'ng bola tarbiyasida qo'lingdan kelmaydi emas balki sen bunga qodirsan senga ishonaman degan ishonch asosida kamolga yetadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bolalarni o'zbek millat bolalarini ruhiyati bilan bog'liq yo'l qo'yilgan xato kamchiliklarni oldini olishda hali kech emas.

Bugun O'zbekistonning ertangi kelajagi bo'lgan millat bolalarini **“O'zbek milliy ruhi”** asosida ya'ni – tarixdan to bugungacha ajdodlar tomonidan avlodlarga meros bo'lib keluvchi qadriyatlarni asrash, tarixiy haqiqatni unutmaslik, milliy o'zlikni anglash orqali kishilarda vatan, vatanni sevish, ulug'lash va uning taqdiriga dahldorlik kabi hislatlarni o'zida mujassam etuvchi – **o'zbek millat ruhi** asosida kamol topgan bolalar qo'lida bo'lishi lozim. Masalan, biz uchun oddiy ko'ringan tarixdan saqlanib qolgan va bizgacha yetib kelgan O'zbekona axloq odob qoidalari asosida voyaga yetgan yurt bolalarini tarbiyasida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Salomlashish,

- Jamoat ichida o'zini tutish qoidalari,

- O'zaro hurmat pozitsiyasi,

- Ovqatlanish,

- Bola shaxsiy mustaqilligi, (kiyinish, ovqatlanish va tozalik ishlarini amalga oshirishda)

- Tozalik qoidalari,

- Mehnatga o'rgatish,

- Jamoa bo'lib ishlash,

- Ta'limdagi izlanuvchanlik,

- Milliy muhitni saqlab qolish,

- Oila munosabatlari,

- Milliy qadriyatlar va an'analar

- Ruh tarbiyasi (ishonchni kamol toptirish),

- Imon e'tiqod mustahkamligi,

- Vatan oldidagi sadoqat hamda iroda mustahkamligi kabilarni yoshga oid tushuntirish, ko'rsatish hamda muntazam takrorlash orqali erishiladi.

Xulosa o'rnida biz bolalarni qo'rquv orqali ota ona yoki ta'lim muassasasi bolani itoatkor ushlab turishi mumkin. Ammo, uning ruhiyatida jarahot qoldiradi. Ruhiyati jarohatlangan bolalarni ertangi kunga tarbiyalab berishga esa bizning haqqimiz yo'q. Zero "Suyilmagan bolalar suya olmaydigan kattalarga aylanadi" B.Pak. Shunday ekan Imom Buxoriy rivoyat qilganidek "Hech bir ota-ona o'zining farzandiga yaxshi tarbiya va odob o'rgatishdan ortiq hadya qilolmaydi". Shunday ekan biz ko'zlagan "Uchinchi Rennisans poydevori" ni yaratishda o'zbek milliy ruhi asosida kamol topgan bolalar bilan birga yaratish mumkinligini unutmazlik zarur. Zero, ruhiyati sog'lom bolalardan ma'naviy-ruhi sog'lom bolalar kamol topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19 yanvardagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari" yuzasidan videoselektor yig'ilishi

2. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/01/19/selector>.

MULTIKULTURALIZM: MUSBAT VA MANFIY QUTBLAR

Yakubov Sobirjon Salimovich,

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada G'arb mutafakkirlari tomonidan taklif etilgan multikulturalizm siyosatining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Jahonda migratsiya jarayonining kuchayishi, global miqyosda avj olgan g'oyaviy kurashlar millatlararo munosabatlarni tartibga solishning maqbul usullarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu jihatdan multikulturalizmning musbat va manfiy qutblarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. Multikulturalizm, migratsiya, muhojirlar, madaniy plyuralizm, milliy mahdudlik, etnik nizolar, zamonaviy gettolar, bag'rikenglik, murosa falsafasi.

G'arbda Ikkinchi jahon muhorabasidan keyin amalga kiritilgan multikulturalizm siyosati tufayli milliy ixtiloflar barham topgandek edi.

Ammo endilikda ma'lum bo'lmoqdaki, G'arbning farovon mamlakatlarida o'n-yillar avval mahalliy aholi va muhojirlar o'rtasida rasman tafriqa, tabaqalanish yuzaga kelgan ekan.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida to'kin hayot orzusida badavlat yurtlarga borgan ko'p sonli muhojirlar yillar o'tsa-da yangi jamiyatga moslasholmadi. Bugun hatto ularning farzandlari jon koyitib o'qigisi, o'zi yashayotgan mamlakat tilini o'rgangisi yo'q.

Ikkinchi jahon muhorabasidan keyin Ovrupoga "uchinchi dunyo" davlatlaridan muhojirlar oqib keldi. Kunfayakun bo'lgan iqtisodiyotni tiklash uchun arzon ishchi kuchi suv bilan havodek zarur edi. Shu bois Osiyo va Afrikadan kelgan mehnatkashlar quchoq ochib kutib olindi. Iqtisodiyotni oyoqqa turg'azish vazifasi o'z yo'liga, ammo murakkablashib borayotgan milliy munosabatlarni zudlik bilan tartibga solmasa bo'lmas edi. O'sha kezlarda Kanada etnik ixtiloflarni bartaraf etish borasida multikulturalizm siyosatini taklif qildi.

O'tgan asrning 60-yillari Kanada tarkibidagi farangzabon Kvebek muzofotida mustaqillik kurashi avj oldi. Markaziy hukumat ayirmachilarning shashtini tushirish uchun oshig'ich ravishda multikulturalizm siyosatini e'lon qildi.

Multikulturalizm – muayyan mamlakatda yashayotgan millat va elatlarga o'z madaniyati, tili hamda an'analarini saqlab qolish uchun teng imkoniyat yaratish demakdir. Bu g'oya avvalo madaniy plyuralizm tamoyiliga tayanadi. Unga ko'ra, biron bir etnik guruh boshqasidan ustun bo'lishi mumkin emas. Yana Kanada misolida izohlasak, hukumat ko'p millionli anglosaks madaniyati vakillariga ham, bir siqimgina qolgan hindularga ham milliy o'ziga xosligini asrab-avaylash uchun birdek sharoit yaratib berdi. Shu yo'l bilan parokanda bo'layozgan davlat qutqarib qolindi.

Millatchiligi uchun kattagina tovon to'lagan Germaniya, qirg'indan yurak oldirib qo'ygan Buyuk Britaniya va Fransiya ham shu siyosatni ma'qul ko'rdi. Tez fursatda bu g'oya bahri muhit ortidagi "sehrli diyor"ga ham yetib bordi.

Bugun AQSH irqchilik illatidan butkul xalos bo'lgandek. Ammo yaqin-yaqingacha ham bu mamlakatda zanjilarni kamsitish ayb sanalmas edi – afroamerikaliklarning saylash huquqi cheklangan, ular jamoat transportida oqtanlilar bilan yonma-yon o'tirolmas, alohida mavzalar – gettolarda istiqomat qilar edi.

Multikulturalizm g'oyasi yoyila boshlagan kezlari Kolumb ochgan diyor ana shunday noraso muhitda yashar edi. Tolerantlik siyosati esa jamiyatning eski yarasiga malham bo'ldi. Federal hukumat qoratanlilar, hindular va

kam sonli elat vakillariga ta'lim bo'yicha kvota ajratdi, ijtimoiy himoyani kuchaytirdi. Multikulturalizm nazariyotchilarining g'oyalari birin-ketin ro'yobga chiqib bordi.

Oksford universiteti professori Uill Kimlika davlat kam sonli elatlarning tili, dini va an'analarini muhofaza qilmoqqa mas'ul deb hisoblaydi. Unga ko'ra, moddiy yordam, siyosiy dastak va imtiyozlar berish orqali jamiyatdagi tengsizligu ziddiyatlarni bartaraf etish mumkin [6].

Kanadalik faylasuf Charlz Teylor ham bag'rikenglik siyosati ixtiloflarga barham berishiga qat'iy ishonadi. Olimning uqtirishicha, ishboshilar millati, tili va e'tiqodidan qat'i nazar, barcha fuqarolar dardiga quloq tutishi lozim. Faylasuf, shuningdek, kam sonli millatlarga ona tilida ta'lim olish imkonini yaratish kerakligiga urg'u beradi [2].

Fikr ahli necha asrdan buyon turli e'tiqod va elat vakillari totuv hayot kechiradigan odil jamiyat qurish haqida bosh qotiradi. Multikulturalizm g'oyasi shu jihatdan ko'pchilikni rom etgan bo'lsa ajab emas. Turli elatlar yagona makonda ahil-inoq yashasa, biron millat gegemonlik qilib qardoshining burnini qonatmasa, hatto kam sonli etnik guruhlar o'z odat-an'analariga emin-erkin rioya qilsa, olam guliston bo'lgani shu emasmi?! Biroq odamzod o'ylab topgan boshqa nizomlar kabi multikulturalizm ham kamchiliklardan xoli emas va, tabiiyki, bu g'oyaga tish-tirnog'i bilan qarshi bo'lganlar-da bor.

Muxoliflar multikulturalizmni neomarksizmning bir ko'rinishi deb hisoblaydi. Xususan, ingliz faylasufi Brayan Barri ushbu g'oya yaxlit jamiyatni parokanda qilib yuborishi mumkinligidan ogohlantiradi. Olimning fikricha, jamiyatda muayyan millat madaniy jabhada yetakchi mavqega, ya'ni "tenglar ichra birinchi" maqomiga ega bo'lishi lozim. Aks holda, kam sonli elatlar faqat o'z tili va madaniyati bilan cheklanib qoladi, oqibatda jamiyat avtonom guruhlariga bo'linib ketadi [1].

Multikulturalizm madaniy fundamentalizmga yo'l ochadi degan xavotirlar ham yo'q emas. Yevropa Tahlil markazi direktori, professor Julian Lindli-French ham bu borada murosasiz. Olimning kuyunchaklik bilan yozishicha, migratsiya G'arb mamlakatlari boshiga kulfat yog'diradi, bag'rikenglik siyosatidan tub aholi aziyat chekadi [3].

Ilm ahli multikulturalizm borasida ko'pdan buyon tortishayotgani rost, ammo ehtiyotkor arboblarning ushbu munozaralarga aralashmay kelayotgan edi. Bu an'anani 2010-yilda Germaniya kansleri Angela Merkel buzdi. Potsdamda o'tgan siyosiy mashvaratda olmon hukumati yetakchisi Germaniyada multikulturalizm g'oyasi chippakka chiqqanini aytdi [4]. "Temir xonim" ko'p sonli muhojirlarning yashash tarzidan qoniqmayotganini yashirib o'tirmadi.

Sobiq kanslerning qayd etishicha, muhojirlar jamoasi faqat o‘z qobig‘iga o‘ralib qolgan, olmon tili va madaniyatini o‘rganish, oliy ta‘lim olib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish yo‘lida g‘ayrat ko‘rsatmayotir.

Keskin bayonotdan jur‘atlangan Buyuk Britaniya bosh vaziri Devid Kemeron ham multikulturalizm g‘oyasi sarob bo‘lib chiqqanini tan oldi. Qirollikda aqidaparastlik kuchayganiga-da bag‘rikenglik siyosati sabab bo‘lganiga tagdor ishora qildi. Ingliz jamiyatida umummilliy madaniy qadriyatlarga ehtiyoj kuchli, dedi ingliz hukumati rahbari [5].

Siyosiy yetakchilarning xavotirlanganicha bor. Kuzatuvlarga qaraganda, G‘arb mamlakatlarida muhojirlarning zamonaviy gettolari vujudga kelayotir. Bag‘rikenglik siyosatidan bearmon foydalangan ayrim etnik guruhlar yashayotgan mamlakati madaniyatiga bepisand munosabatda ekanidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Binobarin, oradan necha o‘n-yil o‘tsa-da, G‘arb jamiyati hali-hamon afrikalik hamda osiyoliklarni “o‘zimmiki” deya qabul qilishga tayyor emas. Jamiyat hamon “biz” va “ular” deya ikki qutbga bo‘linib kelayotir.

Ko‘hna qit‘ada millatchilikni bayroq qilgan harakat va guruhlarining faollashib qolgani tashvish uyg‘otmay qo‘ymaydi. Boz ustiga, ayrim yuqori martabali amaldorlar migratsiya borasida tishli-tig‘li bayonotlar bilan radikal guruhlar tegirmoniga suv quymoqda. Taassufki, murosasiz bayonot berib elektorat olqishini olayotgan ayrim siyosatchilar ushbu xatti-harakati bilan ijtimoiy barqarorlikka raxna solayotganini unutib qo‘ymoqda.

Dunyoning hali u-hali bu shahrida yuz berayotgan to‘qnashuvlar muhojirlarga nisbatan cheklov siyosatidan naf yo‘qligini, aksincha, keskin choralar vaziyatni yanada mushkullashtirishini ko‘rsatayotir. Bu jihatdan Ovrupo Kengashi sobiq prezidenti Herman van Rompeyning mulohazasi jo‘yali tuyuladi. Yigirma yetti davlatni yagona tug‘ ostiga birlashtirgan Ittifoqning inobatli arbobi migratsiya jarayonini to‘xtatib bo‘lmaydi deb hisoblaydi. Van Rompeyning eslatishicha, bir zamonlar millionlab ovrupoliklar – irlandlar, olmonlar, polyaklar, yahudiylar, italyanlar ochlik, qashshoqlik va qirg‘inlar sabab o‘z yurtidan bosh olib ketib o‘zga ellarda jon saqlagan. Urushdan keyin ovrupoliklarning ko‘kragiga shamol tegdi, mamlakatlar asta-sekin oyoqqa turib oldi. Endi murod hosil bo‘lgach, musofirlarga o‘gaylik qilish insofdan emas.

UNESCO 1995-yilda Bag‘rikenglik deklaratsiyasini qabul qilgan. Ushbu hujjatda o‘zga millatlarning tili, e‘tiqodi va madaniyatiga hurmat ko‘rsatish nainki insoniy burch, qonuniy majburiyat ekani belgilab qo‘yilgan. Madaniyatlar mujodallasini madaniyatlar muloqotiga aylantirish vaqti keldi. Kemaga tushganning joni bir – ovrupoliklar muhojir birodarlari bilan bir

tanu bir jon bo‘lib harakat qilsagina muqarrar ijtimoiy larzalarning oldini olish mumkin.

Bizningcha, multikulturalizm siyosati bundan keyin ham insoniyat koriga yaraydi. Buning uchun esa xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, uni isloh etish lozim. Madaniy jabhada muayyan millat “tenglar ichra birinchi” maqomiga ega bo‘lib, barcha etnik guruhlarni jipslashtirgani ma’qul. Bu jihatdan olmon faylasufi Osvald Shpengler yuz karra haq: turfa millat hamda madaniyatlarni ilg‘or va qoloq deya tabaqalashga hech kimning haqqi yo‘q. Alqissa, bugun muqoyasa emas, bir-birini anglash va tushunish zamonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brian Barry. Culture and Equality. An Egalitarian Critique of Multiculturalism. Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 2001. P. 300
2. Charles Taylor. The Politics of Recognition. Princeton: Princeton University Press, 1992.
3. Линдли-Френч Дж. Великая иммиграционная катастрофа. <https://www.globalaffairs.ru/articles/velikaya-immigracziionnaya-katastrofa/>
4. Merkel says German multicultural society has failed. <http://www.bbc.co.uk/news/world-europe-11559451>
5. Multiculturalism: Mr. Cameron’s crude caricature solves no porblems. // “The Guardian”. 6 February 2011.
6. Will Kymlicka. Multicultural Citizenship: A Liberal Theory of Minority Rights. Oxford: Clarendon Press, 1995.

ZAMONAVIY JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PR TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Qalandarov Muhiddin Naqliddin o‘g‘li,
*Strategik tahlil va istiqbolni belgilash
oliy maktabi tinglovchisi,*

Annotasiya: Ushbu maqola PR texnologiyalar tushunchasi va mohiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Public Relations atamasi uning belgilari va mezonlari tahlil qilindi. PR faoliyatining maqsadi PR sub’yekti va ob’yekti o‘rtasidagi munosabatlarni ishonchli ma’lumotlar asosida takomillashtirish va mustahkamlashdir. Buning uchun jamoatchilik bilan ishlovchi mutaxassislar PR kompaniyalarni tashkil etish va o‘tkazish zarurdir. PR texnologiyalarining asosiy vazifasi bu jamiyat taraqqiyotiga ijobiy qilishdan

iboratdir.

Kalit soʻzlar: PR, PR-texnologiyalar, jamoatchilik fikri, reklama, mohiyat, xodisa, jarayon, fikr, texnologiya, boshqarish, taʼsir, faoliyat, aloqa, maʼlumotlar, PR-faoliyat.

Davlat boshqaruv yoʻlini va oʻz kelajagini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishni maqsad qilar ekan, eng asosiy urgʻu jamiyatdagi fuqarolarning huquq va erkinliklarini taʼminlash va jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda hokimiyat boshqaruvini shakllantirishdan iboratdir. Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda fuqarolarning huquqiy madaniyati va siyosiy bilimlari oshib borishi natijasida ularning hokimiyat boshqaruvida qabul qilinayotgan normativ huquqiy hujjatlar tayyorlanishi va ijrosi taʼminlanishida jamoatchilik fikri inobatga olinishi bilan birga, ular tomonidan nazorat funksiyalari ham keltirib oʻtilmoqda.

Bugungi kunda jamoatchilik fikrini oʻrganish oʻzaro aloqalarda muhim meʼzon hisoblanadi. Albatta, jamoatchilik bilan aloqalar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Darhaqiqat mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyatida ham inson va uning qadrini taʼminlash turibdi. Oʻzbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi “Jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasida Maʼmuriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5185-son, 2018-yil 4-maydagi PF-5430-son “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarini rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2022-yil 25-apreldagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish koʻlamini kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-409-son qarori va sohaga oid boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonlari oʻz navbatida jamoatchilik bilan aloqalarning yanada takomillashishiga sabab boʻlmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi deyarli barcha idora va tashkilotlarning faoliyatlari jamoatchilik bilan aloqalar asosida rivojlanmoqda.

Bizga maʼlumki, jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalari PR (Public Relations) ommaviy ongga taʼsirining maʼlum bir oʻziga xos xususiyatiga ega. Jamoatchilik bilan aloqa vositalari optimistik kayfiyatga ega boʻlib, u kelajakka intilib doimiylik xususiyati bilan yashaydi, ular oʻrtasidagi qurilgan muvaffaqiyatli kommunikatsiyalar jamiyatning normal rivojlanishiga va odamlarni hokimiyatga nisbatan ishonchini shakllantirishga xizmat qiladi. PRning asosiy vazifalari odamlarga jamiyatda erkin harakat qilish, toʻgʻri maʼlumot olish va jamiyatning barqaror rivojlanishini belgilaydigan ommaviy ongni shakllantirishga yordam berishda xizmat qiladi [1].

Biz oʻtgan-yillar davomida jamiyatimizda oshkoralik va ochiqlik, soʻz erkinligi muhitida yashash va ishlashga asta-sekin oʻrganib boryapmiz. Xolis

va adolatli jurnalist hamda bloggerlarning tanqidiy chiqishlari eskicha qolipda ishlaydigan rahbarlarning faoliyatidagi xato-kamchiliklarni ko'rsatib, ularni ish uslubini o'zgartirish va mas'uliyatini oshirishga majbur qilmoqda. Bundan buyon har bir davlat organi o'z kundalik faoliyatida ommaviy axborot vositalari bilan yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur va shart[2].

Aslida PR nima va qanday vazifani bajaradi degan savollarga javob berish maqsadida mavjud xorijiy ilmiy ishlar va maqolalarni tahlil etish natijasida, turli olimlar tomonidan PRga nisbatan quyidagi ta'riflardan foydalanilgani o'rganildi:

Edvard Bernayz: PR – bu jamoatchilikni o'z yondashuvi va harakatlarini o'zgartirishga, shuningdek tashkilot va jamoatchilik fikrini uyg'unlashtirishga qaratilgan texnologiyadir;

M.E.Treyger: PR - umumiy g'oyalar yoki umumiy manfaatlarni aniqlash va haqiqat, bilim va to'liq xabardorlikka asoslangan o'zaro tushunishga erishish uchun ikki tomonlama aloqa o'rnatish;

Den Forrestol va Robert Dilenshnayder: PR - bu jamoatchilik fikriga ta'sir qilish uchun ma'lumotlardan foydalanish;

A.I.Chumikov: PR - bu loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ma'lum bir loyiha doirasida, shuningdek, loyiha ishtirokchilari va uning tashqi muhiti o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan axborot-tahliliy va protsessual-texnologik harakatlar tizimi;

V.A.Moisov: PR ijtimoiy-psixologik boshqaruvning bir turi bo'lib, unda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari (mamlakat, mintaqa yoki alohida tarmoqlar, korxonalar) va umume'tirof etilgan axloqiy me'yorlarga rioya qilish natijasida olingan aniq va to'liq ma'lumotlar asosida jamiyatni boshqarishdir;

V.P.Korolko: PR - bu axborotni boshqarishning maxsus tizimi bo'lib, menejment doirasida ijtimoiy ma'lumotlar asosida kerakli jamoatchilik fikrini maqsadli shakllantirish uchun axborot sharoitlarini yaratish, tayyor axborot mahsulotlari aloqa vositalari orqali tarqatish jarayonini nazarda tutiladi[3].

Davlat boshqaruvida jamoatchilik bilan aloqalarning o'rni mavzusini tadqiq qilishning dolzarbligi ushbu sohaning nisbatan yangiligi, yo'nalishda uchrab turgan muammolarga yangicha qarash bilan, shu jumladan, PR menejmentning yangi texnologiyalarini qo'llash orqali rivojlantirishni talab qilayotganligida ko'rinadi.

Muammo shundaki, siyosiy boshqaruvni amalga oshiradigan davlat organlarida jamoatchilik bilan aloqalarning yo'lga qo'yilganligiga nisbatan ko'p vaqt o'tmadi. Ayrim krizis vaziyatlarda aynan jamoatchilik bilan

aloqalarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, ushbu yo'nalishda ishlayotgan mutaxassislar malakasining yetishmayotganligi, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamining jadal sur'atlarda amalga oshirishni talab etilayotganligi va bunda davlat organlaridagi jamoatchilik bilan aloqalar bo'limlarining huquqiy maqomi va moddiy bazasining yetarli darajada yuksak bo'lishida ko'rinadi. Muammoli vaziyat ushbu muammoning qanday yechilishini o'rganishda ko'rinishi zarur.

Davlatning boshqaruvni amalga oshiradigan organlarda jamoatchilik bilan aloqalarning to'g'ri yo'lga qo'yilishining o'rni va roli qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini tushungan holda undagi muammolarni hal qilishning amaliy yechimini topish, shuningdek, amaliy ahamiyatini tushunish davr talabidir.

Shu munosabat bilan davlat va xo'jalik boshqaruvi sohasida ochiqlik va shaffoflikka asoslangan samarali qarorlar qabul qilish tizimini joriy etish, axborot olishda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi hisobdorligi, ochiqligi va mas'uliyatini ta'minlash zarur. Bu davlat va xo'jalik boshqaruvi apparatining samarali faoliyat yuritishi hamda jamiyatda adolatni qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hozirgi kunda hayotimizning barcha jabhalarida PR texnologiyalardan foydalanilmoqda. U hoh savdo-sotiq, bozor munosabatlari bo'lsin, hududlardagi iqtisodiy-ijtimoiy masalalar, siyosiy boshqaruv, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar va boshqa sohalarda fuqarolarning hayoti va farovonligi ularga bevosita bog'liqdir. Ijtimoiy munosabatlarda kirishishda aksariyat kishilar PRni reklama deb tushunishadi. Biroq PR bu reklamadan farq qiladi. Jumladan:

Birinchidan, ko'pgina ekspertlarning fikricha, PR reklamadan bevosita tijorat foyda olishni maqsad qilmagani bilan farq qiladi: reklama pullik, PR bepul.

Ikkinchidan, reklama ma'lum bir harakatni (sotib olish, ovoz berish) rag'batlantirishga qaratilgan ma'lum bir auditoriya uchun bir ob'yekt haqida ijobiy hikoyadir. Reklamadan farqli o'laroq, PR potensial iste'molchilarning tor doirasiga emas, balki eng keng jamoatchilikka etib boradi.

Uchinchidan, agar reklama mahsulot (shu jumladan siyosiy) yoki xizmatning ijobiy imidjini bo'yab tursa, u holda PR nafaqat mahsulotning (shu jumladan, siyosiy) ijobiy imidjini yaratibgina qolmay, balki birinchi navbatda mahsulot uchun yuzaga kelgan salbiy taassurotni tuzatadi.

To'rtinchidan, PR va reklama o'rtasidagi tub farq shundaki, u darhol foyda olish, «sotish va qochib ketish» tamoyili bo'yicha ishlash bilan mos kelmaydi. PR uzoq muddatli ta'sir uchun mo'ljallangan.[4]

Jamoatchilik bilan aloqalar, birinchi navbatda, fikr-mulohazalarni olish bilan bog‘liq: jamoatchilikdan tashkilotga va uni faqat ommaviy axborot vositalari yordamida xabardor qilish emas. PR texnologiyalar, shu jumladan xayriya, uzoq muddatli ijtimoiy dasturlardan foydalangan holda kompaniyaning ijobiy imidjini yaratish va saqlashga yordam beradi. Ko‘pgina xorijiy kompaniyalar PR texnologiyalari yordamida o‘z tuzilishining jozibali qiyofasini yaratishga katta e‘tibor berishadi. Keng ko‘lamli marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, ijtimoiy yo‘naltirilgan dasturlarning butun majmuasini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun jamoatchilik bilan aloqalar sohasida yuqori maoshli mutaxassislarni jalb qilishga katta mablag‘ sarflanmoqda. Va bu harakatlar o‘zini oqlamoqda. Ular kompaniya va tashkilotning reytingini oshirishga imkon beradi, umuman uning faoliyatiga ijobiy baho berishga, jamoat manfaatlarining paydo bo‘lishiga, shuningdek, hokimiyat organlarining barqarorlik va farovonlikka hissa qo‘shadi.

Jamoatchilik bilan munosabatlarning yana bir o‘ta muhim vazifasi- bu jamoatchilik haqidagi bilimlarga asoslangan ma‘naviy ehtiyojlarni shakllantirish va natijada ma‘naviy qadriyatlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantirishdir. Agar iste‘mol sohasidagi PR tavsiyalari hisobga olinmasa, tanqidiy vaziyat yuzagakeladi. Ma‘naviy ishlab chiqarish va ma‘naviy iste‘mol o‘rtasidagi bog‘liqlik nafaqat PR xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan reklama, balki ko‘p jihatdan tanqid bilan ham ta‘minlanadi. Tanqid ishlab chiqaruvchiga (boshqaruv sub‘yektiga) ham, iste‘molchiga (boshqaruv obyektiga) ham ta‘sir qiladigan jamoatchilik bilan aloqalar vositasiga aylanadi.

PR-texnologiyalar - bu muayyan ijtimoiy mavzuning muayyan muammosini hal qilish uchun ijtimoiy texnologiya hisoblanadi. Bu uning diskretligi va chekliligini bildiradi[5]. Tegishli ehtiyoj paydo bo‘lganda, PR texnologiyasi ishlab chiqiladi va amaliyotga tatbiq etiladi. Agar texnologiya to‘g‘ri ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan bo‘lsa, unda undan foydalanish vazifani hal qilishga olib keladi. Muammoni hal qilish PR texnologiyasi faoliyatining yakuniy nuqtasidir. Ushbu nuqtadan keyin texnologiya to‘xtaydi, chunki bunga ehtiyoj qolmaydi. Jamoatchilik bilan aloqalar xizmatlari davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni ta‘minlovchi institut sifatida fuqarolarning davlat boshqaruviga jalb etilishiga hissa qo‘shadi. Bu davlat organlarining jamoatchilik bilan aloqalar xizmatlarining yangi maqsadlari, vazifalari va yangi maqomini namoyon etadi.

Umuman olganda PR texnologiyalarni qo‘llashdan maqsad jamiyatdagi fuqarolar farovonligini ta‘minlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilgan holda ularni hayotning barcha sohalarda ko‘rsatilayotgan xizmatlar va qarashlar kesimida xohish-istaklarini ro‘yobga chiqarishdir. Ushbu jarayondan maqsad hokimiyatning xalq ustidan nazorati emas, balki xalqning hokimiyat

ustidan nazoratini shakllantirishdir. Ushbu jarayon samarali bo‘lishi uchun har bir shaxsning siyosiy va huquqiy bilimlarini kengaytirgan holda ularni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda faolliklarini oshirishdir.

Shunday ekan jamiyatning barcha jabhalarida jamoatchilik bilan aloqalar PR texnologiyalaring o‘rni beqiyos. Demak zamonaviy jamiyatlarda jamiyat barqaror xayotini ta‘minlashda jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalarini yanada takomillashtirish asosiy masalalardan biri xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Obuxova Yu.O., Yevseeva L.I., Tanova A.G. Новые технологии коммуникации в воспитании современного человека // Теория и практика общественного развития. 2017. № 12. С. 43-47.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga 2020-yil 29-dekabr Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
3. Ye.A.Savchenko i T.P.Makarova: Obrazovaniye. Nauka. Научные кадры. М., 2019 №3. С. 179.
4. Turgayeva A.S. Xrenova A.Ye. Politologiya. Uchebnoye posobiye. Moskva. 2005. С. 482.
5. Belov A.A. Teoriya i praktika svyazey s obshchestvennostyu-Rostov n/d: “Feniks”, 2005. – С. 205.

TOLERANTLIK TAMOYILI VA UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Normurodova Madinabonu Namoz qizi

*Termiz Davlat Pedagogika instituti
Tarix fakulteti Milliy g‘oya ma‘naviyat asoslari va
huquq ta‘limi yo‘nalishi 2- bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tolerantlik tamoyillari, uning ijtimoiy ahamiyati, butun dunyoda iqtisodiyotning globallashuvi va integratsiyalashuvi jarayonida tolerantlik tamoyillaring ahamiyati haqida, tolerantlik tushunchasining kelib chiqish tarixi, ushbu yo‘nalishning rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar, ijtimoiy- demografik omillarga tayangan holda bag‘rikenglikning bir qancha sohalari, uning rivoji uchun nafaqat respublikamizda, balki butun jahonda qilinadigan ishlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Tolerantlik, bag‘rikenglik, globallashuv, dunyoqarash, siyosiy bag‘rikenglik, madaniy bag‘rikenglik, diniy bag‘rikenglik, irqiy bag‘rikenglik, jo‘g‘rofiy bag‘rikenglik, tabaqaviy bag‘rikenglik.

Ona vatanimiz hurlik bayrog‘ini qo‘lga olib, mustaqillika erishganidan keyin jamiyatimiz hayotining turli sohalarida, barcha jabhalarida shiddat bilan ulkan o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda ma’naviy sohalarida o‘zgarish, yangilanishlar boshlandi. Bu holatlar ayniqsa ma’naviy hayotda tobora ko‘zga tashlana boshladi. Mamlakatimiz rahbari tomonidan ma’naviy - ma’rifiy ishlar tizimini shakllantirish va rivojlantirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirish rejalari tuzildi. Ayniqsa yosh avlodda vatanparvarlik, millatparvarlik, vatanni sevish, milliy ruhni shakllantirish, insonparvarlik kabi yuksak tuyg‘ularni uyg‘otish, ularda iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlikni singdirishda ta’lim tarbiyaga, qadimiy an’analarimiz, qadriyatlarimizga tayanish asosiy vazifa qilib belgilandi. Qachonki, umuminsoniylikni ta’minlovchi barcha omillarga ega bo‘lgan fuqarolari bor davlatgina mustaqil hamda jadal rivojlanish sari boraoladi. Bunda asosiy omil sifatida yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash kerakligini biz hozirgi kunning eng dolzarb masalalar sirasiga qo‘sha olamiz. Avvalambor biz tolerantlik tushunchasining mazmun - mohiyatiga e’tibor qaratishimiz kerak. Tolerantlik (lotincha, sabr - toqat) degan ma’noni anglatib, biz bundan o‘zgalarning turmush tarzi, xulq - atvori, odatlari, his - tuyg‘ulari dunyoqarashi, fikrlari, g‘oyalari hamda e’tiqodiga nisbatan toqatli bo‘lish, hurmat qilish [6] degan tushunchalarni anglashimiz mumkin. Ayni hozirgi kunda ushbu tolerantlik tamoyili muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyotning globallasuvi, integratsiyalashuv jarayoni, kommunikatsiyalarning keng miqyosda rivojlanishi, aholining ko‘chib kelishi, o‘zaro bog‘liqlik tolerantlikning ahamiyatini kuchaytirmoqda. Tolerantlik atamasi bag‘rikenglik bilan sinonim tushunchalar sifatida qaraladi. Tolerantlikni qo‘llab - quvvatlash maqsadida YUNESKO tashkiloti tomonidan 1995-yil 16-noyabrda “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiya” qabul qilinganini ko‘ramiz. Jamiyatdagi turli xalqlar, millat fuqarolari o‘rtasida tolerantlik munosabatini O‘zbekiston misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Tolerantlik, milliylik kabi tushunchalar o‘z - o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Xalqimiz uzoq o‘tmish davomida, turli hududlarda ko‘chib yurishlar, moddiy – ma’naviy madaniyat, iqtisodiy, ijtimoiy omillarning ta’siri ham bo‘lgan. Bu hodisalar xalqimizning olis o‘tmish tarixiga borib taqaladi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I. A. Karimov bu haqida shunday yozadi, “Agarki, mendan hozirgi kunda ma’naviyatimizni asrash uchun nima ish qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo‘yish kerak, deb so‘rasa, men avvalo, shu yurtda yashayotgan har qaysi insonni o‘zligini anglagan, qadimiy tarixiy va boy madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimizning merosini chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi tezo‘zgarayotgan hayot voqeligini ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha dahldorlik tuyg‘usi bilan yonishi zarur,

deb javob bergan bo‘lardim” [5] Bundan ko‘rishimiz mumkinki, zamonaviy dunyoda insonlar o‘rtasida, eng e‘tiborlisi kelajak tayanchi bo‘lgan yoshlar orasida bag‘rikenglik tamoyilini singdirishimiz uchun ma‘naviy boyliklarni asrash va undan oqilona foydalanish, intellektual yoshlar elita qatlamini shakllantirishimiz lozimdir. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishga qaratilgan chora -tadbirlarni belgilash va amalga oshirishni Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-noyabrda tasdiqlangan “ Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish” to‘g‘risidagi qarorda ham ko‘rishimiz mumkin. Bunda mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat va jamiyat o‘rtasida ta‘sirchan hamda samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, davlat organlari faoliyati bo‘yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mustahkam mexanizmlarini rivojlantirish”[3] vazifalari belgilangan.

Yurtimizda turli millatlar o‘rtasida totuvlik, hamkorlik o‘zaro hamjihatlik yo‘lida demokratik islohotlar amalga oshirilayotgani bunga yaqqol misol bo‘la oladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ham “ O‘zbekistonda mustaqil va kuchli davlat barpo etishdan eng muhim maqsad-inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari hurmat qilinadigan, asosiy qadriyat bo‘lgan adolatli jamiyat barpo etishini ko‘rmoqdamiz”[4] deydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023--yil 11-sentabrdagi 158-sonli farmoniga ko‘ra “ O‘zbekiston-2030 strategiyasi” qabul qilindi va asosiy 100 ta ustuvor vazifalar bajarilishi maqsad qilib olindi. 100 - vazifada bag‘rikenglikka oid ishlar o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, jamiyatda millatlararo totuvlikni mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik munosabatini rivojlantirishga doir vazifalar qo‘yilgan. Millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy ommabop maqolalar sonini 3 barobarga oshirish, do‘stlik jamiyatlari sonini 60 taga yetkazish hamda birodarlashgan shaharlar sonini 2 barobarga oshirish[2] kabi maqsadlar qo‘yilgan. Davlatimizda vijdon erkinligining kafolati asosiy qomusimiz bo‘lgan Konstitusiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasining 35-moddasida “ Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e‘tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”[1] deb keltirilgan. Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tolerantlik sivilizatsiyasi ilk bora G‘arb mamlakatlarida shakllangan degan qarashlar mavjud edi. Keyinchalik Yevropa va Amerikalik olimlarning aytishicha, ilk bag‘rikenglik etnik, diniy hamda madaniy jihatdan sharq mamlakatlarida shakllanganligi ma‘lum bo‘ldi. Lekin bu tamoyilni jadal rivojlantirishda G‘arb mamlakatlari ustunlik qildi. O‘zbek xalqining qon-qoniga saxiylik, xotamtoylik, mehr - muruvvat, islom dinining muqaddas kitobi Qur‘oni Karim, Hadisi shariflar orqali singib

kelgan. Bunga misol tariqasida Ikkinchi jahon urushidan keyin turli millatga mansub bo‘lgan 13 ta bolani o‘z qaramog‘iga olib tarbiyalagan Toshkentlik Shoahmad ota Shomahmudovlar oilasi bizga yaqqol misol bo‘la oladi. Hozirgi kunda ham O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 16 ta konfessiyalar do‘st -inoq yashab kelgan. Asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagan, xalqimiz azaliy bag‘rikengligini ko‘rsatib kelgan.

Bag‘rikenglikning jamiyat hayotidagi ahamiyati va inson kamolotidagi o‘rni haqida o‘z davrining buyuk allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat va Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarini, targ‘ibotlarini keltirishimiz mumkin. Beruniyning “ Hindiston” asarida xalqlar do‘st, ittifoq bo‘lib yashashlari lozimligi ta’kidlab o‘tilsa , Farobiyning “ Fozil odamlar shahri” asarida insonlar bir biri bilan hamkorlik qilishi afzal ko‘rilgan. Barcha manbalar insonlarni hamjihatlikka, ittifoq bo‘lib, hech qanday urushlarsiz tinch yashashga targ‘ib etadi[7]. Biz ijtimoiy -demografik omillarga tayangan holda bag‘rikenglikni bir qator sohalarga bo‘lib o‘rganamiz.

1. Siyosiy bag‘rikenglik - bunda siyosiy partiyalar, turli nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari o‘rtasidagi o‘zaro munozarali, toqatli bo‘lish nazarda tutiladi.

2. Madaniy bag‘rikenglik - Boshqa xalqlar madaniyatiga qiziqqonlik qilib urf- odatlarariga behurmatlik qilib qo‘ymasdan, o‘zga madaniyatlarga hurmat – e’tibor bilan qarashga targ‘ib etadi.

3 Diniy bag‘rikenglik - Turli dinga e’tiqod qiluvchi insonlar, konfessiyalar o‘rtasida hurmat ruhini singdirish hisoblanadi.

4. Irqiy bag‘rikenglik - Bunda o‘zlarini yagona “oliy irq” hisoblab, boshqalarga past nazar bilan qarash, terisining rangidan kelib chiqib munosabatda bo‘lishni oldini olishga qaratilgan soha.

5. Jo‘g‘rofiy bag‘rikenglik - Turli hududlarda, mintaqalarda istiqomat qiluvchi kishilarning bir-birlarini sharoitlarini kamsitmaslik, do‘stona munosabatga chorlovchi , yorug‘ olamda yashayotgan har bir inson uchun ona zaminning yerlari bir xildagi to‘shak, musaffo osmon esa hamma uchun moviy ko‘rpa ekanini eslatuvchi sohalardan biridir.

6. Tabaqaviy bag‘rikenglik - bu har bir zamonda ham eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanib kelingan. Uning asosiy vazifasi jamiyatning turli darajadagi tabaqalar o‘rtasida hurmat -etibor munosabatini saqlab qolishga qaratilgan.

7. Jinslararo bag‘rikenglik - bu holat gender tenglikda ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, qarama - qarshi jins vakillari o‘rtasida do‘stona munosabat uyg‘otishni tushunishimiz mumkin.

8. Yosh xususiyatlari aro bag‘rikenglik - Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l kabi xalq maqoli ushbu sohaga misol bo‘la oladi va bunda ko‘zlangan asosiy maqsad o‘zaro yosh xususiyatlari bilan farqlanuvchilar o‘rtasida kelishuvni yo‘lga qo‘yish [8].

Demak, xulosa tariqasida shuni aytishimiz mumkinki, har tomonlama yetuklikka erishayotgan davlatlar asosini o‘zligini anglagan yetuk shaxslar, yuksak g‘oyalarni ko‘zlovchi, intellektual salohiyatga ega yoshlar tashkil etadi. Shunday ekan hozirgi iqtisodiy globallashuv, integratsiyalashuv jarayonida yoshlar ongida tolerantlik ruhini singdirishimiz, o‘zgalar dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an‘analari va qadriyatlarini hurmat qiladigan, ilmiy hamda ma‘naviy salohiyati yuksak bo‘lgan intellektual yoshlarni tarbiyalashni o‘z oldimizga maqsad qilib olishimiz kerak. Ayni tarbiya jarayonida moziyga ko‘zgu tutib, ota -bobolarimiz qoldirgan merosdan o‘rnak olishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T “ O‘zbekiston” 2023 35-modda
2. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ 300-son 11.09.2023
3. O‘zbekiston Respublikasi VMsining “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjixatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori. № 723. Toshkent. 2020-yil 17 noyabr. / QHMMB: 09/20/723/1521 8.11.2020 y.
4. Образование и просвещение – пут к миру и созиданию. Выступление и.о. Президента РУз Ш.М.Мирзиёева на церемонии открытия 43-сессии Совета Министров ОИС. //Народное слово 2016 19 октября.
5. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch- T. Ma‘naviyat - 2008
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
7. D.B Axmadjonov “Bag‘rikenglik fenomeni ijtimoiy –madaniy muammo sifatida” Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali 2022-yil 7-son
8. Sh. A. Usmonov, A. A. Xoldaraliyeva “Talaba yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning psixologik tamoillari” Academic Research In Educational Sciences 2021. №7

MISSIONERLIK TUSHUNCHASINING SIYOSIY-MA'NAVIY KATEGORIAL MAZMUN-MOHIYATI

Tanimov Sharapadin Maulenbergovich

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada missionerlik tushunchasining siyosiy-ma'naviy kategorial mazmun-mohiyati va missionerlikga qarshi kurashning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining yangi ko'rinishlari haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada global miqiyosda xavfsizlik, barqarorlikka rahna solish maqsadida ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlikning g'oyaviy-mafkuraviy ko'rinishlari borasidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: transformasiya, mafkuraviy intervensiya, manipulyatsiya, ekspansiya, terrorizm, tinchlik, xavfsizlik, barqarorlik, geosiyosat.

Globallashuv sharoitida missionerlikni bugungi kundagi faoliyati hech bir mintaqada, hech bir davlat bunday tahdiddan holi emasligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, mazkur holat missionerlik mohiyatini aniq o'rganish, uni chuqurroq anglash orqali uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borishni taqoza etmoqda. Dunyo miqiyosida globallashuning tobora avj olishi missionerlar o'z targ'ibot faoliyatida yangi, zamonaviy usul va vositalardan foydalanishayotganligini namoyon etmoqda. Jumladan, internet, ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy tele, audio, video, radio va komp'yuter texnologiyalaridan keng foydalanayotganligini kuzatish mumkin.

Bu haqda, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Yangi tahdidlar", jumladan, "ommaviy madaniyat", missionerlik, prozelitizm xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, milliy va diniy qadriyatlarning yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda" [1].

Ayniqsa, mazkur uslublar orqali insonlarni xonadonlariga uyma-uy kirish orqali "Xushxabar" etkazish, ya'ni odamlarning dolzarb muammolari haqida suhbatlashish, ularning dardlariga qiziqish orqali o'zlariga xayrxohlarni jalb etishmoqda. Natijada insonlarni muammolar hal etish yo'llarini taklif qilib, o'z tashkilotlariga jalb qilish missionerlikdagi eng yaxshi samarador usullardan biri hisoblanadi. Shu orqali "moddiy" yordam berish bahonasida o'zlarini qarashlarini, ta'limotini singdirishga e'tibor qaratishadi.

Shu bilan birga, missionerlar o'z faoliyatini amalga oshirishda dastlab o'zlarini "beg'araz" yordam ko'rsatishini ko'z-ko'z qilib, asta-sekin asl

maqsadlarini amalga oshirishga harakat qilishadi. Aslida voqelik nuqtai nazaridan qaralganda missionerlar hech qachon, hech kimga beg'araz yordam ko'rsatmasligini anglash lozim. Missionerlikda tibbiy va ta'lim-tarbiya sohalariga maxsus kadrlarni yuborish mazkur faoliyatda eng qadimiy usullardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda bir qator missioner jamoalar ushbu usuldan samarali foydalanishayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa, albatta insonni ancha sergak bo'lishga da'vat etadi.

Jarayon nuqtai nazaridan avval ma'naviy, keyin siyosiy va iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlik mafkuraviy interventsyaning nozik va nisbatan arzon shaklida allaqachon ayrim davlatlar amaliyotiga aylangan. Shu tariqa, bugungi globallashuv sharoitida missionerlik geosiyosiy kuchlarning xavfli quroliga aylandi. Siyosiy va iqtisodiy ta'sir ko'rsatishda ifodalananayotgan missionerlik zamonaviy mustamlakachilik yoki vassallikni namoyon etmoqda. O'z navbatida siyosiy doiralar o'zlarining geosiyosiy maqsadlarini ko'zlab, nizo va kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishda missionerlikdan bevosita foydalanishmoqda. Bularning barchasi missionerlik harakatlarini siyosiy-ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil etishni taqoza etmoqda. Missionerlik harakatlari jamiyat hayotining barcha jabhalarini izdan chiqarishi, davlat boshqaruvida tartibsizlik va parokandalikni vujudga keltirishga zamin yaratmoqda. Mamlakatda bir-biriga qarama-qarshi guruhlarini shakllantirish orqali, millatlararo, dinlararo ziddiyatlarni to'g'irib, davlat miqyosida ayirmachilikni keltirib chiqarayotganligi bilan xarakterlidir.

Missionerlik va prozelitizm harakatlarini zamonaviy nuqtai nazardan tashkil qilish bilan bog'liq turlicha yondashuvlar mavjud. Rossiya ilohiyotshunos A.Dvorkin o'zining tadqiqotlarida "noqonuniy ravishda missionerlik faoliyatini olib borayotgan totalitar sektalarning tashkil etilishi va qo'llab-quvvatlanishlariga doir qarashlarida ta'kidlab o'tadi" [2]. A.Dvorkin fikriga ko'ra missionerlik harakati bilan shug'ullanayotgan sektalarning aksariyati muayyan shaxslar bilan bog'liq bo'lib, maxsus xizmatlar tomonidan moliyalashtiriladi. Ayniqsa Sharqiy Evropa hududlariga yopirilayotgan sektalarning maqsadlarida G'arbiy Evropa va AQSh siyosiy maqsadlarini bemalol kuzatish mumkin. Ayni vaqtda bu sektalar shu mintaqalar emas, umuman o'zga mintaqalar diniy missiyalarini yo'naltirish kabi murakkab strategiya asosida amalga oshiriladiki, oqibatda siyosiy mansublik izlarini berkitishga erishiladi. A.L.Dvorkin oxir-oqibatda bunga siyosiy kuchlar muvozanatini o'zgartirish yoki dunyoni qaytadan bo'lib olishning yangi shakllaridan biri sifatida qarash kerak degan xulosaga keladi. Bugungi kunda Rossiya va G'arb munosabatlaridan kelib chiqsak har ikki tomon o'zga hududda o'z siyosiy mavqeini mustahkamlashda missionerlikdan ham

unumli foydalanishga urinayotgani oydinlashadi. Missionerlik faoliyatini samaradorligini oshirishga nafaqat diniy idoralar, balki katta nufuzga ega siyosat arboblari ham alohida e'tibor qaratib kelgandi. Missionerlar asosan, "davlat va jamiyat miqyosidagi eng muhim faoliyat sohalari: ta'lim, tibbiyot, xayriya, ijtimoiy munosabatlarga alohida e'tibor qaratishmoqda. Davlat maktablari, jamoat tashkilotlari, kasalxonalaridagi faoliyatlari ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda" [3].

Bugungi kunda protestantlik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan yangi diniy tashkilotlar missionerlik harakatini butunjahon birdamligiga erishish maqsadida kelib chiqqanligini e'tirof etishadi. "Protestant tashkilotlari interkonfessionalizm printsipini tez-tez o'rta tashlash orqali barcha oqim va cherkovlarni birlashtirish g'oyasini ilgari so'rishadi" [4]. Mazkur g'oya dunyo miqyosida 1933-yildan amalga tatbiq etilgan bo'lib, hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Siyosatdagi transmilliy davlatni yaratish g'oyasining mavjudligi albatta davlatlar miqyosida transkonfessionilizm g'oyasi bo'lishiga zamin yaratadi. Zero, transchegaralash insonlarning erkin e'tiqod huquqi va erkinligini chegaralaydi. Transdavlat g'oyasi dunyoqarashni bir tomonga yo'naltirgan holda fuqarolarni vijdon erkinligi huquqidan mahrum etadi. Mazkur qarash rus tadqiqotchisi Nikolay Berdyaev fikrlarida ham o'z tasdig'ini topadi. U "interkonfessionilizm er yuzida tan olinishi mumkin, lekin interkonfessionistik xristianlik bu xristianlikdan farq qiladi. U bu hayot realliklariga javob bera olmaydi" [5] – deya, ta'kidlagan edi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, globallashuv jarayonlari missionerlik harakatlari uchun g'oyatda keng imkoniyatlarni ochib berdi. Natijada mazkur harakatlar milliy, diniy va milliy adovatlarni vujudga keltirish orqali dinlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarishga zamin yaratmoqda. Mazkur holat, jamiyatdagi tinch va osuda hayotga tahdid solish orqali mamlakat miqyosida tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishga zamin yaratayotganligi bu borada jiddiy fikrlashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. Ўзбекистон Республикаси Президенти вазифасини бажарувчи Шавкат Мирзиёевнинг Тошкентдаги симпозиумлар саройида Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи // "Халқ сўзи" газетаси, 2016 йил 19 октябрь.

2. Дворкин А. Сектоведение. Тоталитарные секты. Опыт систематического исследования. Издание 3-е, переработанное и дополненное. – Нижний Новгород. Христианская библиотека, 2012. – 813 с.

3. Колесниченко. Ю. Политические аспекты миссионерства в российском

обществе в переходный период: на примере Приморского края: диссертация ... кандидата **политических наук:** 23.00.02. – Владивосток, 2008. – 213 с.

4. Бердяев Н. О самоубийстве: Психологический этюд. – Москва: МГУ, 1992. – 24 с.

5. Бердяев Н. О самоубийстве: Психологический этюд. – Москва: МГУ, 1992. – 24 с.

TERRORISM VA UNING ZAMONAVIY SHAKLLARI

Ochilov Suhrob Ikrom o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston

Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq

ta‘limi yo‘nalishining 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo oldida turgan eng muhim vazifalardan biri terrorizm va uning oqibatlariga qarshi kurashishdir. Ushbu maqolada shu xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Aksiterror, fundamentalizm, genezes, legitimlik, zamonaviy terrorism, skaydjeking, global xavfsizlik.

Murakkab va ko‘pqirrali hisoblanmish, xalqaro hamjamiyatning turli manfaatlarini o‘zida namoyon etuvchi terrorizm hodisasi siyosatda va huquqda anchayin qarama-qarshi va bir xil ma‘no kasb etmaydigan tarzda ta‘riflanadi. Bu esa o‘z navbatida xalqaro va alohida olingan davlat miqyosida unga qarshi mavjud vosita va usullar yordamida samarali kurash olib borishni bir qadar qiyinlashtiradi.

Terrorizm so‘zining genezisiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ushbu ibora lotincha “terror” so‘zidan olingan bo‘lib, “qo‘rqinch”, “daxshat” degan ma‘noni bildiradi. Bu tushunchaga umumiy ta‘rif berib, uni qo‘rqitish siyosati, siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni zo‘ravonlik yo‘li bilan bartaraf etish kabi ma‘noda tushunishimiz ham mumkin. Bu ibora ilk bor ilmiy muomalaga Fransiyada XVIII asrda bo‘lib o‘tgan buyuk inqilob natijasi sifatida kiritilgan. Biroq vaqt o‘tib borishi bilan mazkur tushuncha mohiyati ijtimoiy hodisa nuqtai nazaridan yangicha shakl va mazmun kasb eta boshladi.

Bugungi kunda terrorism tushunchasi nafaqat yakka terrorchilar

haqida, balki noqonuniy qurollangan guruhlar tarkibiga kiruvchi jangari bo‘linmalar to‘g‘risida ham bormoqda. Ular o‘z oldilariga avvalgidan farqli o‘laroq zo‘ravonlik qilish, qo‘rqitish va har-xil talablar qo‘yishnigina emas, qurolli to‘qnashuvlar bilan erishiluvchi harbiy-siyosiy maqsadlarni ham qo‘yganlar[1].

Terrorizm avvalambor, siyosiy-huquqiy, tarixiy, ijtimoiy-psixologik va boshqa jihatlariga hamda juda ham murakkab, turli ko‘rinish va shakllarga ega bo‘lgan, milliy, mintaqaviy va xalqaro (global) xavfsizlik uchun borgan sayin jiddiy xavf tug‘dirib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy hodisadir. Biroq, huquqda va umuman olganda xalqaro munosabatlar tizimida ushbu hodisa borasida muvofiqlashgan yondoshuvning mavjud emasligi bugungi kunda davlatlar qonunchiligida ham terrorizmga berilgan yagona ta’rifning mavjud emasligidan dalolat beradi. Bu borada butunjahon Aksilkriminal va Aksilterror forumi boshqarmasi raisi, Rossiya Federatsiyasi davlat Dumasi deputati, armiya generali A. Kulikovning fikricha xozirda “terrorizm” tushunchasiga yuzdan ortiq tavsiflar bor.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida ilmiy doiralarida o‘tkazilgan tadqiqotlarda terrorizm tushunchasiga berilgan tavsiflar chuqur o‘rganilgan va natijada bu muammoni yana bir o‘ziga xos talqin qilinishiga olib kelgan. Misol tariqasida, D. Raximov o‘z monografiyasida xorijlik tadqiqotchilar “terrorizm” tushunchasiga bergan tavsiflarni tahlil qilgan holda “terrorizm - bu mafkuraviy asoslangan va muntazam tarzda insonlarni o‘ldirish, diversiyalar o‘tkazish, sabotaj qilish, o‘g‘irlik va boshqa inson hayoti va xavfsizligiga tahdid soluvchi zo‘rlik ishlatish bilan xarakterlanuvchi siyosiy kurashning taktikasi” degan tavsifni beradi[5].

Mutaxassislarning fikricha terrorizm tarixini unda qo‘llanilgan uslub va vositalardan, maqsad va yo‘naltirilganligidan hamda shakllanishi va taraqqiy etishi darajasidan kelib chiqqan holda quyidagi bosqichlarga shartli ravishda bo‘lish mumkin:

1. Antik yoki proterrorizm. Terrorizmning tarixi ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida uzoq o‘tmishga ya’ni antik davrlarga borib taqaladi. Antik terrorizmga tadqiqotchi Yu.Antonyanning fikricha qadimgi yaxudiy qabilalarining qurolli otryadlari bo‘lmish “Shilot sikariylari”ning o‘z yerlarini rimliklardan qo‘riqlash uchun olib borgan harakatlarini, eramizning 66-73-yillarida Falastinda tashkil topib faoliyat yuritgan sikariylar sektasi harakatlarini va Varfolomey tuni kabi voqealarni kiritish mumkin. Yaxudiy qabilalari terroristik uslublar bilan nafaqat rimliklardan balki o‘z qo‘shnilaridan ham himoyalangan.

2. Klassik terrorizm. Terrorizmning evolyutsiyasi ikkinchi bosqichi 1798-yilda “Fransuz akademiyasi lug‘ati”ga “susteme, regime de la terreur”

(terror tizmi, rejimi) tushunchasining kirib kelishi bilan boshlanadi. Ushbu davrlarda terrorizm Avstriyada karbonariylar, Italiyada garibaldichilar, Fransiyada yakobinchilarning ozodlik, revolyutsiya uchun olib borgan terroristik usuldagi harakatlar xususiyatlari bilan belgilanadi.

3. An'anaviy terrorizm. Bu bosqich o'ziga xos omillar ta'siri ostida shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Birinchidan, terrorchilarda ma'lum bir portlatish, garovga olish, o't qo'yish, zaxarlash va shantaj qilish kabi uslub va vositalar shakllandi. Ikkinchidan, terrorizm mafkuraviy jihatdan asosga ega bo'la boshladi va buni natijasida uning turlari va shakllari (chap va o'ng, siyosiy va ijtimoiy, milliy va revolyutsion va boshqa) paydo bo'ldi. Uchinchidan, terrorizm ijtimoiylashib bordi, ya'ni aholining turli tabaqalari orasidan o'z ijtimoiy bazasiga ega bo'la boshladi. To'rtinchidan esa, terrorizm institutlashib bordi va o'zining doimiy yacheykalari, organlari va tashkilotlariga ega bo'lib xalqaro miqyosga chiqdi.

4. Zamonaviy terrorizm. Terrorizm evolyutsiyasining yakuniy to'rtinchi bosqichi bo'lib, bunda zamonaviy terrorizm birinchidan, ommaviy xarakterga egaligi, ya'ni oldingi bosqichlarda aniq bir nishonga yo'naltirilgan bo'lsa bugungi kunda u ko'p insonga shikast yetkazish va qo'rqitishga yo'naltirilganligi;

ikkinchidan, terroristlar o'z faoliyatlarida zamonaviy kurash va qo'rqitish vositalari – ommaviy qirg'in qurollari, Internet va ommaviy axborot vositalari, transport vositalari hamda assimetrik kurash olib borish usullaridan foydalanayotganliklari bilan ajralib turishi;

uchinchidan zamonaviy terrorizm xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, qurolli mojarolar keltirib chiqarish orqali mintaqaviy hamda global xavfsizligiga putur yetkazishi mumkinligi bilan xarakterlanadi[2].

Zamonaviy terrorizmni boshqa davrdagi turlaridan ajratib turuvchi xususiyatlaridan yana biri bu uni yanada qat'iylashganligi va ko'proq insoniyatga qarshi yo'naltirilganligidir. Xususan, dastlabki bosqichdagi terroristik xurujlarning 80 foizi xususiy mulkga va faqat 20 foizi insonlarga qarshi yo'naltirilgan bo'lsa, 60-yillarga kelib bu ko'rsatkich 50 foizdan to'g'ri kelgan, 2000-yillarda o'tkazilgan terroristik xurujlar tahlili esa xurujlarning 70 foizi insoniyatga qarshi yo'naltirilganligini ko'rsatadi. 1995-yilda Tokio metrosida Aum Sinrikyo sektasi tomonidan laboratoriya sharoitlarida yaratilgan yuqori toksinli zarin gazini tarqatilishi (5500 fuqaroga shikast yetkazilgan), 2001-yil 11-mart AQSH voqealari (3000 ga yaqin fuqaro halok bo'lgan) zamonaviy terrorizmning ushbu jihatlarini ko'rsatadi[3].

Aksilterroristik strategiya besh asosiy tamoyilga asoslanadi, ya'ni

kishilarni terrorizmni rad etish yoki uni qo‘llamaslik zarurligiga ishontirish; terrorchilarni bosqinchilik faoliyatidagi vositalaridan mahrum qilish; davlatlar tomonidan terrorizmni qo‘llab-quvvatlamaslik; terrorizmni bartaraf etish bo‘yicha davlatlar imkoniyatini mustahkamlash; inson huquqlarini himoya qilish kabilardan iborat[4].

Umuman olganda, bugungi real vaziyat bizni terrorizmga qarshi qurash sohasida yanada ogohlikka chaqiradi va shu bilan birga bir qator amaliy vazifalarni bajarishimizni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Audrey Kurth Cronin Footnote. Terrorism, legitimacy, and the international system. Cambridge University Press // 05 January 2011.
2. BMTning «Xalqaro terrorizmning oldini olish chora tadbirlari to‘g‘risida» rezolutsiyasi. 1994-yil 9-dekabr.
3. BMTning “Global aksilterror strategiyasi”. 2006-yil 19-sentyabr.
4. Jozef N. Yumshoq kuch. Trust and Support // 2023. №. 13.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni. 2000-yil 15-dekabr. <https://lex.uz/docs/5013007>.
6. Р. Амирокова, Политический терроризм один из уровней политического экстремизма: Фан номзодлиги диссертацияси. – Черкесск: Карачеево-Черкесск давлат технологик университети. 2006; А.Бородин, Политические проблемы современного терроризма: Фан номзодлиги диссертацияси. – Москва: РФ Президенти қошидаги давлат хизмати академияси. 2001.
7. В. Шестаков. Террор – мировая война. – Москва: Олма-пресс, Образование, 2003, -9 б.
8. Р. Амирокова, Политический терроризм один из уровней политического экстремизма: Фан номзодлиги диссертацияси. – Черкесск: Карачеево-Черкесск давлат технологик университети. 2006; А.Бородин, Политические проблемы современного терроризма: Фан номзодлиги диссертацияси. – Москва: РФ Президенти қошидаги давлат хизмати академияси. 2001.

O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING MAFKURAVIY-MA’RIFIY OMILLARI

Paluaniyazov Bayram Yesemuratovich

*Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Taxiatosh tuman bo‘linmasi rahbari*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda O‘zbekiston ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning mafkuraviy-ma’rifiy omillari borasidagi fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada vayronkor g‘oyalarni global miqyosda kuchayotgan bir vaqtda har qanday rivojlanayotgan jamiyat va davlat o‘zining tinchligini asrashga alohida e’tibor qaratilayotgani ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, globallashuv, ma’naviyat, xavfsizlik, barqarorlik, mafkura, g‘oya, tahdid,

Dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayoni xavfsizlikni ta’minlash masalasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, globallashuv sharoitida taxlikali ko‘rinishga ega bo‘lgan vayronkor g‘oyalarni global miqyosda namoyon bo‘lishi mafkuraviy tahdid sifatida milliy ma’naviyatimizga raxna solmoqda. Zero, bugungi kunda tobora avj olayotgan ma’naviy tahdidlar kuchayotgan bir vaqtda har qanday qanday rivojlanayotgan jamiyat va davlat o‘zining tinchligini asrashga alohida e’tibor qaratmoqda. Zero, dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan globallashuvning avj olishi o‘z navbatida tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi taxdid va xatarlarni vujudga keltirmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: **“Bugun biz shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda yashamoqdamiz. Dunyo miqyosida manfaatlar kurashi, raqobat tobora avj olib, xalqaro vaziyat keskinlashib bormoqda”**[1], - deya ta’kidlagan edi. Zero, yovuz va buzg‘unchi vayronkor g‘oyalar ya’ni millionlab kishilarni shu g‘oyalar bilan avval miyasiga, keyin esa qo‘llariga qurol berilganidan keyin boshlangan. Vayronkor g‘oyalar odamlarni, millatlarni xonavayron qilib, ma’naviy tubanliklar girdobiga griftor etayotgan bo‘lsa, bunyodkor g‘oyalar esa, yuksaltirgan, yaxshilik g‘alabasini ta’minlagan. Shu o‘rinda, tarixdan ma’lumki, eng avallo, o‘z mamlakati milliy manfaatlarini uylab amalga oshirilgan islohatlar Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta’minlashga zamin yaratgan. Zero, bugungi globallashuv sharoitida O‘zbekiston Respublikasida ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash, xavfsizlik va barqarorlikka raxna soluvchi g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar va informatsion xurujlarni oldini olish davlat siyosatining asosiy strategik vazifasi hisoblandi. Dunyo tarixidan ma’lumki, har qanday davlat g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashga alohida e’tibor qaratib kelgan.

Buyuk sarkarda Amir Temur Movorounnaxrdagi tinchlik, xotirjamlikni ta'minlash orqali mamlakatni boshqarishda harbiy kuchning naqadar muhim ahamiyat kasb etishini chuqur his etgan. Bu borada Amir Temur o'zining qo'shinini tuzilishiga alohida ahamiyat qaratar ekan, o'z davlatini kuch-qudratini mustahkamlash uchun birinchi navbatda mamlakat harbiy qudratini yuksaltirish asosiy vazifa ekanligini chuqur anglagan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad Vatan ravnaqi, mamlakat taraqqiyot yo'lida yagona davlat barpo etish g'oyasi ustuvor vazifa hisoblangan edi. Sarkarda Amir Temur o'zining "Tuzuklari"da o'zi tuzgan qo'shinning tuzilishi, qurollanishi hamda o'zining harbiy san'ati haqida ham muhim ma'lumotlar berib o'tgan.

Sohibqiron tomonidan tuzilgan qo'shin o'zining strategik va taktik maxorati jihatidan eng mukammal va kuchli armiyalaridan hisoblangan. Shu bilan birga, Buyuk Sohibqiron Amir Temur o'z davlatida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda razvedka xizmatiga ham alohida e'tibor qaratgan. Bu xaqda A.Temur o'zining "Tuzuklari"da oltinchi toifa - ishonchli, to'g'ri e'tiqodli oqilxiradmand kishilarkim, davlat sirlarini ularga ochib, saltanat ishlari bo'yicha ulardin maslahat olishimga loyiq edilar. Bu toifa kishilar bilan sirdoshlik qilib, o'z maxfiy ishlarim va pinhoni sir-asrorlarimini o'shalarga topshirdim"[2],- deya alohida ta'kidlab o'tgan. Amir Temur saltanatidagi maxfiy xizmat to'g'risidagi aksariyat qimmatli ma'lumotlar uning zamondoshi Ibn Arabshoh tomonidan bizgacha yetib kelgan. Bu borada Ibn Arabshoh: "Razvedkachilar – chor atrofda bo'layotgan hodisalarni va ularning xabarlarini Temurga yetkazib, manzilu shaharlarni tavsiflaydilar. Ularning tekis va notekis joylarining suratlarini keltirib, uylari va daryolari o'rnini chizib ko'rsatardilar, shular orasida u joylarning yaqin yo uzoq, tor yoki kengligini, shaharlar va qishloqlarning nomlarini, manzil va pinhon joylarini, har bir joyning avliyo boshliqlari, amirlari, ulug'lari, fozillari, boylariyu faqirlarini, ularning har bir ism va laqabini, shuhrati va nasabini, hunari va vositalarini bayon qilar edilar. Natijada Temur o'z fikri bilan shu narsalarni yaqqol ko'rib, tafakkuri natijasida o'z yerlari bilan xorij joylar ustidan ham tasarruf yuritardi", deya alohida aytib o'tgan.

Amir Temur razvedkachilarni tanlashda juda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rgan. Ishonchli, to'g'ri e'tiqodli oqil kishilar toifasiga davlatning eng maxfiy sirlarini ishonib, muammolar yechimini topishda ular xizmatiga tayangan. Mazkur soha vakillari dunyoda bo'layotgan yangiliklar, sodir etilishi mumkin bo'lgan voqealardan Sohibqironni muntazam xabardor etib turgan. Razvedkachilar orasida turli yoshdagilar bo'lib, har biriga o'z darajasida muhim vazifa va topshiriqlar yuklatilgan. Ibn Arabshoh Amir Temur razvedkachilarini o'ta ziyrak va sezgirligiga qoyil qolib, ularni kamdan-kam xato qilishini aytib o'tadi. Belgilangan muhim topshiriq va vazifalarni

bajarish jarayonida bir vaqtning o‘zida bir razvedkachining o‘rnida boshqa bir razvedkachi ish olib borgan. Natijada, topshiriqlarni bajarish jarayonida uzviylik ta‘minlangan.

Amir Temur dunyoning turli mamlakatlarida savdogar, sayyoh, qalandar, munajjim, darvesh, folbinu jodugar niqobi ostida faoliyat ko‘rsatgan razvedkachilaridan yuksak bilim va sezgirlik talab etgan. Ayniqsa, razvedka borasida faoliyat ko‘rsatgan chol va kampirlar o‘zlarining o‘ta ziyrakligi bilan ajralib turgan. Eng muhim jihati chol va kampirlar fuqarolar bilan qiladigan muomalasida o‘z hikmati bahsida ikki muxolifni bir-biriga biriktirish yoki ikki dushmanni bir-biriga do‘st qiladigan darajada uddaburon kishilar sifatida taassurot uyg‘otishgan [3]. Shu bilan birga, sohibqiron harbiy yurishga jo‘nashdan ancha avval dushmanning qurolli kuchlari mudofaa inshootlari, u yerdagi ichki vaziyat haqida aniq va to‘la ma‘lumotga ega bo‘lish maqsadida maxfiy xizmatchilarini yuborib turgan. G‘anim to‘g‘risida zarur ma‘lumotlarga ega bo‘lgandan keyingina yurishga taraddud ko‘rilgan. Shu o‘rinda, jamiyatning milliy yuksalish bosqichida ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi ishlarni samarali tashkil etish va ma‘naviy xavfsizlikka qaratilgan tahdidlarni o‘z vaqtida anglash va ularni bartaraf etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga XX asrning oxiriga kelib ma‘naviy tahdidlarning kuchayib borishi bilan ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlash masalasi ustuvor vazifa sifatida e‘tibor qaratib kelinmoqda.

O‘z navbatida ma‘naviy xavfsizlik hozirgi vaqtga kelib, milliy xavfsizlikning alohida sohasi sifatida tadqiq qilinmoqda. Shu o‘rinda, ma‘naviy xavfsizlik masalasi millatning mavjudligini belgilovchi vazifalar qatoriga kiradi. U axloqiy qadriyatlar orqali jamiyat va uning madaniyatini saqlashga qaratilgan yaxlit ijtimoiy tizimlar faoliyatini namoyon etadi. Bu soha muntazam ravishda muolajaga muhtoj, deb o‘ylaymiz. Shunday ekan, mazkur jarayonlarni ilmiy nuqtai-nazardan o‘rganmasdan, uning nazariy uslublarini tatbiq etmasdan mudom shakllanib kelayotgan jamiyat qarashlari yaxlitligini va islohotlar samaradorligini ta‘minlab bo‘lmaydi[4].

O‘tmishdan ma‘lumki, mamlakatimizda ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlash masalasi hamisha dolzarb vazifa hisoblangan. Yurtimiz tarixi haqidagi ilk qadimiy manba hisoblangan “Avesto” asari, Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abulqosim Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk mutafakkir olimlarimizning ma‘naviy-axloqiy ta‘limotlari bu borada muhim manba hisoblandai. Shu bilan birga, jamiyatda ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlash yo‘lida kishilarni ilm-ma‘rifatga da‘vat etgan, g‘oyaviy dunyoqarashni boyitishga xizmat qiladigan asarlarida barkamol shaxsning ma‘naviy qiyofasi haqida falsafiy qarashlarni ilgari surgan

Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon[5] kabi jadid ma‘rifatparvarlarining asarlarini alohida ta‘kidlash zarur.

Shu o‘rinda, milliy g‘oya va milliy ma‘naviy xavfsizlik g‘oyalari insonlardan o‘z ona tili, qadriyatlari, urf-odat va an‘analariga, udumlariga mislsiz sadoqatini ko‘rsatib, har qanday ichki va tashqi taxdidlardan himoya qilishga qaratilgan bo‘lish kerakli talab etiladi. Buning uchun insonlarning ongu tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiyatida o‘z milliyligini asrash hamda tuyg‘ularini shakllantirish orqali milliy-ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, insonsiz millat – millatsiz inson bo‘lmaydi. Insonlar o‘zlarini or-nomusi, g‘ururi, faxri, iftixori, iymoni, e‘tiqodi, ona tili va urf-odatlarini, qadriyatlarini, an‘analarini asrab avaylash mas‘uliyati yuqori bo‘lsa, shundagina milliy-ma‘naviy xavfsizlik ham mustahkam bo‘ladi.

Shunday murakkab sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, yurtimizda mafkuraviy xurujlarga qarshi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar ta‘sirchanligini oshirish, mazkur sohadagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida jiddiy fikrlash taqozo etilmoqda[6]. Ayniqsa, bugungi tahlikali zamonda ma‘naviy tahdidlar ko‘chayib borayotgan bir vaqtda fuqarolarimizda sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirishda eng avallo, jamiyatimizda aniq maqsadga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv asosida ta‘sirchan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Globalashuv sharoitida mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olayotgani ogoh, sezgir va hushyor bo‘lishni talab etmoqda. Dunyo miqyosida yuz berayotgan eng xavfli yovuz illat mafkuraviy xurujlar o‘zga bir davlat fuqarolarining qalbi va ongini zabt etish, mafkurasidan voz kechtirish orqali “o‘zgacha” mafkuralarni insonlar ongiga singdirishda namoyon bo‘lmoqda. Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda ma‘naviy tubanlik ta‘siri oqibatida madaniyatsizlik, e‘tiqodsizlik kabi qator “ta‘limotlar” oshkora, ba‘zan esa yashirin tarzda namoyon bo‘lmoqda. Natijada milliy ruh, millatning o‘ziga xosligi va asriy qadriyatlarini zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda[7]. Zero, shaxs, jamiyat va davlatning ma‘naviy xavfsizligini to‘liq ta‘minlanmaganligi, jamiyatimizga turli buzg‘unchi g‘oyalarning kirib kelishi, ma‘naviy qadriyatlarimizni qadsizlanishiga va o‘z navbatida urf-odatlarimizning yo‘qolishiga olib keladi. Natijada turli ko‘rinishdagi tartibsizliklarni keltirib chiqaradi.

Bu haqda tarixshunos olim, professor I.Islomovning fikriga ko‘ra, “globalashuv jarayonlari ma‘naviy qadriyatlarni qadsizlantirish, millatlarning ma‘naviy-madaniy va tarixiy birligiga putur yetkazishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi bilan ham

tavsiflanmoqda[8], deya ta'kidlasa, siyosatshunos tadqiqotchi A.Eshmuradov tomonidan bildirilgan fikriga ko'ra, ma'naviy xavfsizlik milliy xavfsizlik tizimining negizi va uning tarkibiy qismi sifatida jamiyat, shaxs, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, harbiy, mafkuraviy, axborot, ilmiy, diniy va madaniy xavfsizlikni ta'minlashni o'z ichiga olgan ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish tizimlari majmuidir[9]. Xulosa qilib aytganda, shaxs, jamiyat va davlatning ma'naviy xavfsizligini to'liq ta'minlanishi, jamiyatimizga rahna soluvchi turli buzg'unchi g'oyalarning kirib kelishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси. <http://www.uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliyasy-28-12-2018>
2. Темур Тузуклари. Халқаро Амир Темур жамғармаси. “Шарқ” НМАК. Т.: 2005 йил. Б-92.
3. Мансур МУСАЕВ. Чолу кампир, савдогар, қаландар ва дарвеш никоби остидаги Амир Темурнинг “разведка” хизмати. Uza.uz.
4. Шу вақтга қадар жамиятнинг маънавий жараёнлари муайян яхлит тизимга бўйсундирилмаган эди. —профессор Тўлқин Алимардонов билан суҳбат. <https://xs.uz/uzkr/post/shu-vaqtga-qadar-zhamiyatning-manavij-zharayonlari-muajyan-yaxlit-tizimga-bojsundirilmagan-edi-professor-tolqin-alimardonov-bilan-suhbat>
5. Абдулла Қодирий. Тўла асарлар тўплами. Т.1. — Тошкент: Маънавият, 1996; Абдкрауф Фитрат. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. — Тошкент: Маънавият, 1998; Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. — Тошкент: Маънавият, 1996; Чўлпон. Асарлар 3 томлик. (О.Шарафуддинов таҳрири остида). Т.1. — Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1994.
6. Мусаев М. Миллий ғоя халқни бирлаштирувчи ва ҳаракатга келтирувчи куч. Янги Ўзбекистон газетаси. № 109 (898), 2023 йил 4 июнь.
7. Мусаев М. Миллий ғоя халқни бирлаштирувчи ва ҳаракатга келтирувчи куч. Янги Ўзбекистон газетаси. № 109 (898), 2023 йил 4 июнь.
8. Исломов И. Маънавий хавфсизлик. Монография. — Т.: Complex Print, 2023. Б-17
9. Эшмурадов А.Т. Жамиятда маънавий хавфсизликни таъминлашни такомиллаштириш технологиялари: Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. — Тошкент, 2020. — Б. 14.

GENDER TENGLIGI: G‘OYAVIY KURASH VA AYOL

Ismoilova Aziza Alisherovna o‘qituvchi

*Mehnat va ijtimoiy munosabatlar
Akademiyasi o‘qituvchisi,*

Sarvinoz Turg‘unova

*Mehnat va ijtimoiy munosabatlar
Akademiyasi 2 kurs talabasi.*

Annotatsiya. Gender tengligi butun dunyoda ahamiyatga molik masala hisoblanadi. Ayol – azaldan kuchli mafkurachi, g‘oyaviy rag‘bat beruvchi sanalgan. Shu bois, jamiyatda gender tengligi ta‘minlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy barqarorlik kuzatiladi. Demak, gender tenglik masalasi g‘oyaviy ahamiyatga ham ega hisoblanadi. Maqolada shunga oid masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mafkura, ayol, erkak, jins, siyosat, jamiyat, g‘oya, g‘oyaviy kurash, tenglik, ijtimoiy barqarorlik, oila, farzandlar, burch, mas‘uliyat, qonunlar, teng huquqlilik.

Odatda gender tengligi haqida gap ketsa, albatta ayollar huquqlarining erkaklarniki bilan tenglashtirish masalasi ko‘zda tutiladi. E‘tibor qilgan bo‘lsangiz, “erkaklar huquqlari ayollarniki bilan tenglashtirilsin”, degan jumlaning uchratilmaydigan. Aslida, ayollar huquqini ko‘tarish – erkaklar huquqlarini paymol etish yoki pastga tushirish, degani emas. Jismoniy jihatdan o‘z jins vakillari bo‘lganligi uchun azaldan kamsitilib kelingan ayol zotining huquqlarini erkaklar huquqlari darajasida ko‘tarish, degani. Bu masalalarning dunyo misolida ko‘tarilishi bejiz emas. Xotin qizlar sayyoramiz aholisining yarmini tashkil etadi. Gender tengligi masalasi ham inson huquqlariga oid bo‘lib, inson potensialini barqaror rivojlanish asosida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda teng darajada ro‘yobga chiqarishni ko‘zda tutadi. Bugungi kunda demokratik tamoyillar barcha davlatlarda rivojlanib bormoqda, inson oliy qadriyatga aylanib, uning huquqlarini ta‘minlash davlatning asosiy vazifasiga aylanib bormoqda. Zero, gender tengligi ayollar va erkaklar huquqlarini tenglashtirmasdan turib, inson huquqlari va erkinliklarini to‘la ta‘minlab bo‘lmaydi, degan kotseptual g‘oyaga asoslanadi. “Gender erkaklar va ayollarning ijtimoiylashuv jarayonida orttirilgan, jamiyat tomonidan modellashtirilgan va ijtimoiy institutlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan tafakkur, xulq-atvor xususiyatlari, turmush tarzi me‘yorlari va qadriyatlar tizimidir. Gender, birinchi navbatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy kontekst bilan belgilanadi hamda jinsga bog‘liq holda ayol va erkak haqidagi tasavvurlarni o‘zida mujassam etadi”. [4]

Afsus bilan e‘tirof etish lozimki, insoniyat bu tenglik darajasiga

yetishish uchun ancha uzoq masofa – asrlar,-yillarni bosib o‘tishiga to‘g‘ri keldi. Jamiyatlarda asosan xotin-qizlarga oila xizmatkori sifatida qaralib kelingan. Ularning o‘g‘il bolalar bilan teng ravishda ilm olishi, ijtimoiy faol munosabatlarga kirishishi, boshqaruv organlarida faoliyat yuritishi ma’lum ma’noda cheklangan, ayrim holatlarda esa ta’qiqlangan. Ayrim holatlarda xurofiy qarashlar ham gender tengligini ta’minlashga to‘siq bo‘lgan.

Xususan, turkman elida o‘n to‘qqizinchi asrga qadar “agar ayol kishi otni egarlasa, qiyomat-qoyim bo‘larmish, degan xurofiy qarashlar ustun bo‘lgan.

Arablarda islom dini yaralgunga qadar, johiliyat davri hukm surib, qizlarni tiriklayin ko‘mishgan. Hindlarda esa eri vafot etsa ayol ham tiriklayin gulxanda yoqilgan va bu sati udumi, deb atalgan. Xitoyda ham qiz farzand tug‘ilishini xosiyatsizlik sifatida qabul qilganlar.

1983-yilga qadar Yangi Zelandiya va Avstraliyada ayollar fuqaro sifatida tan olinmagan. Finlandiya va Norvegiyada 1907-yilga qadar, Daniyada 1915-yilga qadar, Rossiyada 1917-yilga qadar, Germaniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniyada 1918-yilga qadar va AQShda 1920-yilga qadar ayollarda saylash huquqi bo‘lmagan, ular siyosiy jarayonlardan mutlaqo chetlatilganlar.[3]

Gender tengligi haqidagi g‘oyalar yigirmanchi asrning oltmishinchi-yillarida vujudga kelgan va-yillar davomida bu g‘oya takomillashib kelgan.

Gender tushunchasining o‘zi alohida atama sifatida amerikalik olim, sotsiolog, psixiatr, psixoanalitik Robert Stollerning Stokgolmda bo‘lib o‘tgan psixoanalitiklarning kongressida ijtimoiy jins, ijtimoiylashuv, gender o‘zini anglash bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish bilan bog‘liq ma’ruzasidan so‘ng qo‘llanila boshlangan. Gap shundaki, Robert Stoller 1935-yilda biologik jins bilan ijtimoiy jins differensiyasini tahlil qilgan. U birinchi bo‘lib **sotsiomadaniy jins(gender)** va **biologik jins (sex)** tushunchalarini ajratib ko‘rsatib bergan. Demak, gender tushunchasi shaxsning ijtimoiylashuvi tushunchasining bir qismi, gender tenglik ta’minlanmasa, ijtimoiylashuv nomuvofiq tarzda amalga oshadi va ijtimoiy tenglik ham ta’minlanmaydi.

Har bir millatning ma’naviy taraqqiyoti uning ayol zotiga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi, degan edi Vilgelm fon Gumboldt. Sharq tamaddunida ayollarga munosabat o‘ziga xos tarzda shakllangan. G‘arbdan farqli o‘laroq, Sharqda ayollar ulug‘langanlar, ularga yor, do‘st va yaxshi maslahatchi sifatida qaralib, ular hatto davlat ishlarida ham ishtirok etganlar. Masalan arab tarixchisi ibn Battutaning yozishicha, turk hoqonlari “sulton va uning xotinining amri bilan”, deb imzo chekkanlar.

Qariyb o‘ttiz besh asr muqaddam yozilgan, yurtimiz tarixini aks ettiruvchi eng qadimiy manba hisoblangan “Avesto”da ta’kidlanishicha, ajdodlar amalida ayollar ulug‘langan, o‘t egalari ham ayollar bo‘lgan va ular olovning

doimiy yonishini ta'minlab turganlar. Qadimgi xalqlar tangrining qalb nuri deb sig'ingan olovni ham ayol sifatida tasavvur qilganlar va muqaddas olovni "o't ona" deb atashgan.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Saroy mulkxonim ko'pincha birga yurgan. O'ta ziyrak, tadbirkor Saroy mulkxonim saltanatni boshqarishda o'zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Naql qilishlaricha, Amir Temur Eronga qarshi yurish boshlaganda, Isfaxonning qamali ko'pga cho'zilib, qo'shin ozuqasi tugab qoladi. Amir Temur Samarqandga chopar yo'llab, Saroy mulkxonimga quyidagi mazmunda maktub jo'natadi: «Qo'shinning zahirasi tugadi, xazinadan zar yuboring». Saroy mulkxonim maktubning orqa tomoniga «Ulug' Amir, zaringiz tugagan bo'lsa, siyosatingiz ham tugadimu?» – deb yozadi va uni choparga tutqazadi.

Amir Temur maktubni olgach Saroy mulkxonimning kinoyali zamzamasini o'ylab-o'ylab nihoyat bir qarorga keladi: Lashkargohda so'yib yeyilgan jonliq suyaklarini yig'dirib, unga po'lat muhrni qizdirib tamg'a bostiradi, hamda muvaqqat pul o'rnida muomalaga kiritishga farmon beradi. Natijada, qo'shni shahar va qishloqlarda suyak pulga qo'shin uchun oziq-ovqat sotib olinadi. Tez kunda Isfaxon shahri taslim bo'lgach, suyak pullar zar bilan almashtiriladi...

O'zbekistonda bugun olib borilayotgan siyosatda ham gender tengligi ustuvor masala sifatida qo'yilganligi alohida e'tiborga sazovordir.

Prezidentimiz mustaqilligimizning 29-yilligiga bag'ishlangan nutqida shunday degan edi:

«Gender tenglik deb ko'p va balandparvoz gapiryapmizu, lekin o'qishga kirishda qiz bolalarning imkoniyatlari kam, zabardast yigitlarimiz ko'proq kiryapti. Ayniqsa, chekka qishloqlarda bilimli qizlar qolib ketyapti. Men nima uchun sirdaryolik qizimizga fan doktori unvonini berdim? Chunki uning ko'zida nur, ertangi kunga ishonchni ko'rdim. Bunday qizlar yurtimizda kam emas».

Haqiqatan ham gender tengligi borasida qilinadigan ishlar hali ko'p. Jamiyatimizda hali ham ayrim odamlarda eskicha xurofiy qarashlarning ildizlarini kuzatish mumkin. Shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik, nohaqlik, ularni kamsitish holatlari ham uchrab turadi. Aytaylik, ayollarni ishga qabul qilishda, rahbarlik organlariga saylashda mana shu kabi qarashlarni uchratish mumkin. Shuning uchun Konstitutsiyamizning 42-moddasiga "Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi" degan norma kiritildi.[1]

Ayollarga berilgan e'tibor kuchayib borar ekan, jamiyat ham barqaror rivojlanishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Lex.uz.
2. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida. <https://lex.uz/>
3. Gender tengligi: g‘oyadan qonunga qadar. Toshkent, Akademnashr -2021y. B.-26
4. Melnik T.M. Gender kak nauka. Posobiye. – Kiyev, 2004 – C. 10 – 29
5. Kalabixina I. Ye. Kratkiy ponyatiyniy slovar po gendernim issledovaniyam // Sotsialniy pol: ekonomicheskoe i demograficheskoe povedenie Uchebno-metodicheskie materialy po kursu. M., 1998.
6. S.Rahimov. “Gender tenglik: hali muammo ko‘p”. <https://uza.uz/>

G‘OYAVIY KURASHDA KONSTITUTSIYAVIY VATANPARVARLIKNING O‘RNI

G‘ofurova Dilafruz Murod kizi
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar
Akademiya o‘qituvchisi
Aziza Jumanova
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar
Akademiya 2 kurs talabasi

Annotatsiya. Har bir jamiyat barqarorligini saqlashda fuqarolarda vatanparvarlikni shakllantirish masalasi muhim omil hisoblanadi. Ma’lumki, vatanparvarlikning bir qancha ko‘rinishlari bo‘lib, ulardan biri – konstitutsiyaviy vatanparvarlikdir. Ushbu maqolada konstitutsiyaviy vatanparvarlik haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, konstitutsiyaviy vatanparvarlik, g‘oya, g‘oyaviy kurash, qonun, adolat, demokratiya, siyosat, ma’naviyat, fuqarolar vatanparvarligi, erkinlik, konstitutsiya.

Vatanparvarlik tuyg‘usi inson yaralishi bilan u bilan birga vujudga kelgan, desak yanglishmaymiz. Inson azal-azaldan o‘z tug‘ilgan makonini, hatto u g‘or, o‘tov yoki oddiy kulba bo‘lsa ham, qadrlab, avaylab-asrab kelgan. Millatlar vujudga kelgach esa, ular birlashib, o‘z milliy hududiga nisbatan qadr hissini tuyishgan, uni birgalikda asrab-avaylashgan, yovdan, begonalarning bosqinlaridan birgalikda himoya qilishgan. Bugungi kunda g‘oyaviy kurashlar davrida vatanparvarlik tuyg‘ulari muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, hozir ayrim g‘arbiy davlatlar vatansizlik, ya’ni

kosmopolitizm g'oyasini ham ilgari surishmoqda. Yer sayyorasi – umumiy uyimiz, degan ma'noda bir qarashda yaxshi g'oyaga o'xshaydi. Ammo, Vatan ostonadan boshlanadi, deyilganidek, inson avvalo o'z tug'ilib o'sgan yeru-makoniga, hudidaga, Vataniga mehr qo'ymas ekan, undan balandroq mehrlarni kutib bo'lmaydi. Bundan tashqari, har bir davlatda, har bir jamiyatda barqarorlikni, tinchlikni, rivojlanishni ta'minlash muhim siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan masaladir. Demak, har bir jamiyat barqarorligini saqlashda fuqarolarda vatanparvarlikni shakllantirish masalasi muhim omil hisoblanadi. Ma'lumki, vatanparvarlikning bir qancha ko'rinishlari bo'lib, ulardan biri – konstitutsiyaviy vatanparvarlikdir.

Dastavval, tushunchalarga to'xtalib o'tamiz.

Vatanparvarlik — bu fuqarolarning o'z ona yurtiga, o'z yashayotgan oshyoniga muhabbatini hamda sadoqatini bildiradigan tushunchadir. Vatanparvarlik faqat bir kishi uchun emas, balki barcha odamlar, xalqlar, millatlar, elatlar uchun umumiy bo'lgan, ko'p asrlar mobaynida sayqallanib-shakllanib kelgan umuminsoniy tuyg'u bo'lib, u ma'naviy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Tarixiy jihatdan oladigan bo'lsak, Vatanparvarlik odamlarning o'z Vatani, xalqi taqdiri bilan bog'liq tarzda ijtimoiy rivojlanish, mana shu odamlarning o'zlari yashayotgan go'shaning daxlsizligi hamda mustaqilligi, erkinligi yo'lidagi kurashlari jarayonida takomillashib, shakllanib kelgan histuyg'ularining jamlanmasi hamdir. Bu esa o'z Vatani o'tmishi va buguni bilan faxrlanishda, Vatan manfaatlarini har tomonlama himoya qilishda namoyon bo'ladi. Zero, Vatanni sevmoq iymondandir, deb ham bejizga aytilmagan.

Vatanparvarlikning bir qancha ko'rinishlari bo'lib, yuqorida ta'kidlaganimizday, konstitutsiyaviy vatanparvarlikning ham o'rni beqiyos. Bu tushuncha ilk marta g'arbda, XX asrning o'rtalarida Germaniya davlatida qo'llanilganligi qayd etiladi. Ya.V.Myuller - nemis siyosatshunos faylasufi hamda siyosiy g'oyalarning yetuk tarixchisi hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, konstitutsiyaviy vatanparvarlikning yagona va tugal falsafiy, huquqiy tavsiflangan ta'rifi yo'q.[3] Biroq, konstitutsiyaviy vatanparvarlik fuqarolarning davlatiga ishonchi ham davlat hokimiyatining manbai bo'lib xizmat qiladi, deya e'tirof etadi.[4]

Ya'ni, konstitutsiyaviy vatanparvarlik tushunchasi o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra demokratik tamoyillarga asoslangan Konstitutsiyaning tartib-qoidalari, belgilangan normalari, qadriyatlariga asoslanishi lozim.

Shuningdek, Germaniyalik yana bir siyosatshunos olim Dolf Shternbergning fikriga tayanadigan bo'lsak, "davlat qachonki o'z fuqarolarining Konstitutsiyada kafolatlangan erkinliklarini hamda mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etishga doir huquqlarini hurmat qilsa va amalda

ta'minlasagina muayyan odamlar jamoasi sifatida tirikdir. Nafaqat umumiy tarixiy o'tmish tufayli, balki shu holatda ham o'ziga xoslik hissi rivojlanib boradi".[5]

Yevropaning an'anaviy qoidalariga ko'ra, vatanparvarlik tuyg'ulari har doimo davlatning tuzilishiga muvofiq shakllangan. Dolf Shternberg yigirmanchi asrning 70-yillarida mana shu atamani oldinga suradi va uni ommaning diqqat-e'tiboriga havola etadi. Bu bilan u Germaniya Federativ Respublikasida Konstitutsiya mohiyatining oshib borayotganligini namoyon etadi. E'tirof etish lozimki, Germaniyada tartib-intizomga rioya etish, burchlarni ado etish borasida yetarlicha qadriyat shakllantirilgan. 2019-yilda Germaniyadagi Infratest dimap jamoatchilik fikrini o'rganish instituti aholi Konstitutsiyani qay darajada bilishini aniqlash uchun so'rovnoma o'tkazadi. Ushbu so'rovnomada respondentlarning 58 foizi Konstitutsiyani yaxshi bilishini, 30 foizi esa juda yaxshi bilishini e'tirof etgan. Demak, taxminan 88 foiz aholi Konstitutsiyani yaxshi biladi, deb xulosa qilish mumkin. Bu ham konstitutsiyaviy vatanparvarlikning bir ko'rinishidir. Ushbu fikrni aholining deyarli barcha qatlamlari qo'llab-quvvatlagan. Aksariyat fuqarolar uchun Konstitutsiya, eng avvalo, inson huquqlarini, uning qadr-qimmatini himoya qilish, undan so'ng tenglik hamda teng huquqlilik, yalpi faoliyat erkinligi, shuningdek, matbuot va so'z erkinligi hisoblanadi.

Xulosa qilsak, konstitutsiyaviy vatanparvarlik bugungi mafkuraviy-g'oyaviy kurashlarda muhim o'rin tutib, u umuminsoniy qadriyatlarga, Konstitutsiyada mustahkamlab berilgan inson huquqlariga hamda erkinliklariga asoslanadi. Konstitutsiyaviy vatanparvarlik jinsi, irqi, tili, e'tiqodi, dini, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, tegishli davlatdagi fuqarolarni birlashtiradigan falsafiy-huquqiy tushunchadir.

E'tirof etish lozimki, Yangi O'zbekistonda o'tkazilgan konstitutsiyaviy islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham har bir fuqaroning sha'ni, qadr-qimmatini, farovonligi, manfaatlari to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatadigan, demokratik, insonparvar, ijtimoiy, dunyoviy va huquqiy davlat barpo etish va uni mustahkamlash, adolatli, ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirib borish, mamlakatimizning barqaror tarzda rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy adolat, ozodlik, erkinlik va tenglik singari oliy qadriyatlarga, demokratiya g'oyalariga o'z sodiqligini ifoda etishdan iboratdir.

Konstitutsiyaviy vatanparvarlikni shakllantirishda xalqimizning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'lgan cheksiz hurmati, e'tiqodi va sadoqatini yuksak darajada shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2017-yil 30 iyul.
2. “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2018yil 15 - avgust,<http://www.president.uz/uz/lists/view/>
3. Myuller Ya.V. Spori o lemkratii: Politicheskiye idei v Yevrope XX veka. Institut ekonomicheskoy politiki imeni Ye.T.Gaydara.2014 g.
4. Yan-Verner Myuller, Konstitutsionniy patriotizm, izdatelstvo Prinstonskogo universiteta, 2008, str. 21.
5. Dolf Sternberger. Patriotismo constitucional. Frankfurt am Main/-1978. P 366.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Lex.uz.

KONSTITUTSIYANING MILLIY VA G‘OYAVIY AHAMIYATI

G‘ofurova Dilafruz Murod kizi

*Mehnat va ijtimoiy munosabatlar
Akademiyasi o‘qituvchisi*

Mahbuba Hakimova

*Mehnat va ijtimoiy munosabatlar
Akademiyasi 2 kurs talabasi.*

Annotatsiya. Har bir jamiyat barqarorligini saqlashda fuqarolarda vatanparvarlikni shakllantirish masalasi muhim omil hisoblanadi. Ma’lumki, vatanparvarlikning bir qancha ko‘rinishlari bo‘lib, ulardan biri – konstitutsiyaviy vatanparvarlikdir. Konstitutsiyaviy vatanparvarlikda davlat Konstitutsiyasining milliy va g‘oyaviy ahamiyati muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada mana shu haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, konstitutsiya tarixi, milliy ildizlar, g‘oya, g‘oyaviy kurash, qonun, adolat, demokratiya, siyosat, ma’naviyat, fuqarolar vatanparvarligi, erkinlik, konstitutsiya, Avesto, Temur tuzuklari.

Insoniyat yaralibdiki, o‘ziga xos umumlashma, ma’lum bir jamlik ichida amal qiladi. Albatta, bu jamlik yiriklashib, takomillashib, o‘ziga xos tizim asosida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Tizim degani – bu o‘ziga xos tartibot, intizomlar majmui degani. Demak, mana shu tartibotlar, ilk tashkil topgan

jamlikni boshqaruv asoslarini Konstitutsiyaning ilk ildizlari, deb aytish mumkin. Bunday tartibotlar boshqaruvni ma'lum bosqichlarga, darajalarga bo'ladi, ularga burch va mas'uliyat belgilaydi. Masalan, oddiy qabila boshlig'i ham qabilasini shunchaki boshqarmaydi, u qabila ahli oldida o'ziga xos burch va majburiyatlarga ega. Bu majburiyatlar qabilani, o'sha elni birlashtirish g'oyasiga asoslanadi. Bundan kelib chiqadiki, boshqaruv g'oyasiz bo'lmaydi. Buni boshqaruvning ilk ildizlaridan ko'rishimiz mumkin.

G'arb olimlarining e'tirofiga ko'ra, qadimgi Yunonistonda o'ziga xos ta'sis qonunlari ishlab chiqilgan bo'lib, qoida tarzida aholi o'rtasida amal qilgan. Shuningdek, afinadagi Solon va Klisfen qonunlarini ham bugungi Konstitutsiyalarning ildizi sifatida keltirish mumkin. Qadimgi Rimda qirol Serviy Tullius ham o'ziga xos boshqaruv qonunlarini ishlab chiqqan. Spartada afsonaviy Likurgga tegishli bo'lgan yozilmagan konstitutsiya ham amal qilgan. Tildan tilga o'tib kelgan «Buyuk Retra» (farmon)da shunday deyiladi: Xalq fila va obslarga bo'linsin, 30 kishi shohlar bilan birga Gerousiaga kirsin va odamlar vaqti-vaqti bilan Yevrotas daryosi bo'yida yig'in uchun to'planishsin. Taklif etilgan qarorni odamlar rad etmasagina qabul qilinsin. [5]

Biroq, bu qoida va qonunlarda o'ziga xos milliylik vag'oyalar aks etadi. Qonunlar, boshqaruv qoidalari asosan o'sha davlatning yetakchi g'oyalariga asoslanadi. Agar davlat insonparvar bo'lsa, konstitutsiya normalarida ham insonparvarlik tamoyillari aks etadi. Masalan qadimgi Xitoyda Konfutsiy ta'limotidagi milliy o'ziga xoslik konfutsiylik dini tomonidan qonunlashtirilgan. Konfutsiy o'z ta'limotida qadimgi Xitoy xalqining asrlardan kelayotgan an'analari, milliy qadriyatlarini, milliy qarashlari va g'oyalariga tayangan.

Masalan, Konfutsiy ta'limotida shunday deyiladi: «Qadimdan joriy etilgan marosimlar saqlanmas yoki ular bekor qilinar edi, unda hamma narsa aralashib ketadi, izdan chiqadi. Nikoh marosimini yo'q qiling-chi, unda er-xotinlik bo'lmaydi, bu bilan bog'liq katta-katta jinoyatlarga yo'l ochiladi yoki dafn etish va qurbonlik qilish marosimini yo'q qilingchi, unda bolalar vafot etgan ota-onalari xotirasi to'g'risida o'ylamay, tiriklarga esa xizmat qilmay qo'yadilar; Pin-Szin marosimini yo'q qilingchi - unda podshoh bilan amaldor o'rtasidagi farq yo'q bo'lib ketadi, kichik-kichik knyazchalar o'z boshimchalik qila boshlaydilar, natijada ta'qib etish va zo'ravonlik boshlanadi». [6]

Agar O'rta Osiyo tarixiga ham nazar tashlaydigan bo'lsak, bu yerda boshqaruv elni birlashtirish g'oyasiga asoslangan. Ma'lumki, bizning xalqimiz azaldan elchilik g'oyalariga suyanib kelgan va bu milliy qadriyatga aylangan. Xalqimiz azaldan o'zini eldan ayro ko'rmaydi, yutug'ini ham,

kamolotini ham el bilan birga tasavvur etadi. Shu ma'noda, qadimgi yodgorlik bo'lgan, Vatanimiz hududida dunyoga kelgan Zardo'shtiylik dinining muqaddas "Avesto" kitobida keltirilgan ma'lumotlarga suyanadigan bo'lsak, jamiyat butun bir ijtimoiy tuzum sifatida ko'rilganligining guvohi bo'lamiz. Boshqaruv jamoatchilik tuzilmalari sifatida urug'lar, mahallalarning azaliy tartiboti xususida ma'lumot keltiriladi. Jamiyat a'zolari esa "shoh, bosh vazir (u ayni paytda qo'mondon), vazirlar, bosh mu'bad (kohinlar sardori), qo'shin boshliqlari, sarbozlar, olimlar, mudarrislar, tabiblar, ustoz, muallimlar, voizlar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar, rais, bog'bonlar, dodgustir, mirob, kotib va shu singari ijtimoiy tabaqalarga" bo'linishi, ularning tavsifi bilan birgalikda xuquq va burchlari ham bayon qilinadi. [2]

Otashkada(ibodatxona) qoshidagi jamoat mahkamalarida rais, mubad(imom), dodgustir(qozi) kabilar rahbarligida jamoatchilik yig'ini o'tkazilgan va bu yig'inlarda nafaqat lokal vazifalar, balki butun el va yurt taqdiri bilan bog'liq muammolar ham ko'rib, qarorlar qabul qilingan. Shunday qarorlarga asosan harbiy xizmat bilan bog'liq, shuningdek, kanal qazish, ko'prik qurish kabi ommaviy safarbarlik ishlari amalga oshirilgan. Qaror bilan qonunlashtirilgan bunday tartibotlar qadriyatlashib, bugungacha kelayotgan "hashar" kabi milliy qadriyat tusini olgan. Shuningdek, nonni e'zozlash tartiblari ham milliy qadriyat darajasiga ko'tarilib, bu qoida hanuzga qadar amal qilib kelmoqda.

"Avesto"da keltirilishicha: "...Qachon-ki, egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinlaridan qo'padilar.....Qachonki, bug'doy un bersa, devlar nola chekadilar...Qachonki, bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'ladilar." [3] Yoki, Zaratushtraning iloh Axuramazdadan zaminni hammadan ham baxtiyor qiluvchi zot kim, deb so'ragan savoliga "Kimki uni yaxshilab haydasa va ziroatga tayyorlasa!.. Kimki g'alla eksa, u haqiqatni ekadi...",[4] degan javob beriladi. Bu yerda insonni mehnat ulug'laydi, degan g'oya ustuvorlik qiladi. Mehnat ham elni uyushtiruvchi, birlashtiruvchi asosiy vositalardan biridir.

Mehnatning ulug'lanishi ham Avestoda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Amir Temur ham o'z Tuzuklarida o'ziga xos boshqaruvining milliy ildiz va g'oyalarga tayanganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. U o'z davlatini boshqarishda o'n ikkita ijtimoiy-siyosiy guruhlarga tayanganligini, boshqaruvda raiyat bilan maslahatlashuvni keng yo'lga qo'yganligini, bu bilan insonparvarlik, adolatpeshalik, elparvarlik g'oyalarini ilgari surganligini bayon etadi.

Bugungi Konstitutsiyamiz ham ana shunday milliy ildizlar, millatparvar, xalqparvar tamoyillarga asoslanganligini uning muqaddimasidayoq ko'rish

mumkin: “Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi,

inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e‘lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib,

inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas‘uliyatimizni anglagan holda,

davlatchiligimiz rivojining uch ming-yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma‘naviy merosiga tayanib,

..., ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e‘lon qilamiz.”

Demak, har qanday davlat Konstitutsiyasi milliy-g‘oyaviy asoslarga ega bo‘lib, ushbu asoslar davlatni rivojlantirishga, jamiyatda barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Lex.uz.

2.R.Ikromov, N.Bekmirzayev.”Avesto”da qonun va inson huquqlari talqini. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021. B.- 7

3.T.Mahmudov, “Avesto “ haqida, Toshkent, “Sharq”, 2000 y., 37 b.

4.Mahmudov, “Avesto “ haqida, Toshkent, “Sharq”, 2000 y., 5 b.

5. <https://ru.wikipedia.org/>.The Late Medieval Balkans: A Critical Survey from the Late Twelfth Century ... — John V. A. Fine, John Van Antwerp Fine — Google Böcker. 2016 y.31.12dagi arxiv nusxasi. na Wayback Machine. Google Books. Retrieved July 12, 2013.

6.<https://elib.buxdu.uz/>

GENDER TENGLIGINING G‘OYAVIY AHAMIYATI

Ismoilova Aziza Alisherovna

o‘qituvchi Mehnat va ijtimoiy munosabatlar

Akademiyasi o‘qituvchisi

Kamola Abduvaliyeva

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar

Akademiyasi 2 kurs talabasi.

Annotatsiya. Gender tengligi butun dunyoda ahamiyatga molik masala hisoblanadi. Azaldan ayollar erkaklar bilan o‘z tengliklari uchun kurashib kelganlar. Jamiyatda gender tengligi ta‘minlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy barqarorlik kuzatiladi. Demak, gender tenglik masalasi g‘oyaviy ahamiyatga ham ega hisoblanadi. Maqolada shunga oid masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ayol, erkak, jins, siyosat, jamiyat, g‘oya, g‘oyaviy kurash, tenglik, ijtimoiy barqarorlik, oila, farzandlar, burch, mas‘uliyat, qonunlar, teng huquqlilik.

Bugungi kunda butun dunyoda gender teng masalasi asosiy masalalardan biri sifatida maydonga chiqqanligini yaxshi bilamiz. Gender tenglikni jinsiy tenglik deb ham atash mumkin. Chunki, erkak va ayol jinsining o‘rtasidagi teng haqida so‘z ketmoqda. Demak, gender tenglik – ikki xil jins6 ayol va erkaklar o‘rtasida teng huquqlilikni ta‘minlashga qaratilgan qonuniy-huquqiy munosabatlarni anglatadi. Ba‘zi olimlar gender tengligini dastlabki patriarxal, ya‘ni erkaklar boshqaruvidan keyingi ijtimoiy va jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi, deb hisoblashadi.[3]

Gender tenglik g‘oyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyat ravnaqini ko‘zda tutadi. Ma‘lumki, ko‘pgina davrlarda, xususan o‘rta asrlarda ayollar huquqlari erkaklarnikiga nisbatan anchagina cheklangan yuo‘lib, bu ayollarning oilada ham, jamiyatda ham kamsitilishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun ayollar goh yashirin, goh oshkora tarzda o‘z huquqlari uchun kurashib kelganlar. Masalan, XIX asr o‘rtalarida Amerika zavod va korxonalarida 10-12 soatlab og‘ir mehnat qilayotgan erkaklar bir qancha urinishlar, namoyishlar, ommaviy chiqishlardan so‘ng o‘z mehnat sharoitlarini yaxshilash borasida yaxshigina muvaffaqiyatga erishdilar. Ammo asosan ayollar mehnat qilayotgan fabrika va korxonalarda mehnatni yengillashtirish, ishchi-xodimalarning mehnatga haq olish huquqini himoya qilish bilan bog‘liq ishlar juda sustlik bilan borayotgandi. Ayollar arzimagan chaqa uchun bir kechayu-kunduzda o‘n olti soatlab mehnat qilardilar. Ular fabrika va zavod egalari uchun tayyor daromad manbai edilar. Ularning ish vaqtini qisqartirish va mehnat haqlarini oshirish biznes egalari daromadini o‘zlarining mo‘ljallaridan kamaytirardi.

Shu bois xotin-qizlar talablarini amalga oshirishga shoshilmasdilar, ularni qul misol ushlab turishni afzal ko‘rardilar.

O‘zbekcha aytganda, “pichoq borib suyakka qadaldi”. 1857-yilning 8 mart kuni Nyu-York shahridagi turli zavod fabrikalardan bir necha yuzlab xotin-qizlar norozilik namoyishi o‘tkazdilar va 10 soatlik ish kunini, quruq va yorug‘ ish joylari va sharoitini, erkaklar bilan barobar bo‘lgan ish haqini talab qildilar. Ular temir kostryul va boshqa idishlarni taqillatgancha, o‘z huquqlarini himoya qilishga qaratilgan shiorlarni ko‘tarib, Manxetten ko‘chasini to‘ldirib o‘ta boshladilar. Amerikalik jurnalistlar bu kundagi namoyishni “bo‘sh kostryullar marshi” deb ham atadilar.

Albatta, bu kabi namoyishlar keyingi-yillar ham davom etdi va ayollar va bolalar huquqlari ma‘lum ma‘noda yaxshilandi. Biroq, bugungi rivojlangan jamiyatda ham barcha davlatlarda gender tengligi ta‘minlangan, deb aytib bo‘lmaydi. Masalan, bugun Afg‘onistonda ro‘y berayotgan voqealar, ayollarning ishlash, ta‘lim olish huquqlarining cheklanganligi, ayollar huquqlari bo‘yicha kurashuvchilarga bo‘lgan jismoniy tajovuzlar, tengsizlikning hatto qonunlashtirilishi kabi masalalar butun dunyoni tashvishlantirmoqda.

BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, ayolning o‘rni va holati to‘g‘risidagi masala dunyoda global iqtisodiy-ekologik muammolardan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. «Gender tenglikka erishish, ayol va qizlar huquqi, imkoniyatini kengaytirish hozir yakuniga yetkazilmagan vazifa bo‘lib qolmoqda va ayni muammo bugungi kunda inson huquqlari sohasidagi ulkan muammo hioblanadi», — deydi BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish.[4]

Yana BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, erkaklar va ayollar ish haqidagi farq o‘rtacha 37,8% ni tashkil etadi (bu ko‘rsatkich mamlakatlar bo‘yicha juda katta farq qiladi — Buyuk Britaniyada 18,1% dan Angolada 59,6 % gacha) [5]

Shuningdek, gender tengligi masalasi bo‘yicha hisobotlarda keltirilishicha, biz rivojlangan, deb hisoblagan malakatlarda ham gender tengligi to‘liq ta‘minlanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Shvetsiya hamda Fransiyada erkaklarga nisbatan ayollarning ish haqi 31 foizga kamligi, Germaniyada bu ko‘rsatkich 49 foizni tashkil etishi qayd etilgan.

Shved olimlari ayolning jamiyatdagi o‘rniga an‘anaviy qarashlar va tug‘ilish darajasining iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini 17 ta mamlakatda o‘rganishadi va aniqlanishicha, ayolning o‘rni pastroq va tug‘ilish darajasi past mamlakatlarda (Germaniya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya), ayol va erkak faolligi teng darajaga ko‘tarilgan va tug‘ilishga nisbatan ijobiy munosabat shakllangan mamlakatlarga (AQSH, Shvetsiya, Norvegiya) nisbatan iqtisodiy o‘shish darajasi past ko‘rsatkichni tashkil qilgan.

Umuman olganda, jamiyatda ayollar va erkaklarning teng huquqliligini kafolatlash va bunga qonuniy asoslar yaratish, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha qonuniy choralar belgilash, jins bo'yicha kasitishga yo'l qo'yimaslik, normativ-huquqiy hujjatlarni gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish, nazoratni yo'lga qo'yish har qanday davlat oldidagi muhim vazifa sanaladi.

Dunyoda aholining yarmini, ya'ni ellik foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Gender tenglikda har bir millat o'z milliy xususiyatlari, diniy e'tiqodidan kelib yondashadi. O'zbekistonda ham gender tenglik masalasida qator ishlar amalga oshirildi. Buni xalqaro tashkilotlar ham qayd etishmoqda.

Xususan, mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash va ayollar huquqi, ularning ishlash, siyosiy-ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish borasida ham qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Respublika rahbarining xotin-qizlar huquqlarini, chunonchi, gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni turli zo'ravonliklar hamda jismoniy va ruhiy tazyiqlardan himoya qilish, iqtisodiy jabhada ham xotin-qizlar faolligini oshirish, ular tadbirkorligini rivojlantirish to'g'risidagi farmon va qarorlari fikrimizni tasdiqlagan holda, mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan muhim hujjatlar hisoblanadi. Konstitutsiyamizning 58-moddasida ham ayollar va erkaklar teng huquqqa egaligi haqida alohida kiritilgan, xotin-qizlarga ta'lim olish, kasbiy tayyorlanish, ish, mehnat uchun rag'batlanish va xizmat yuzasidan ko'tarilishda teng huquqiy imkoniyat yaratilishi shartligi ko'rsatilgan. [1]

Shuningdek, O'zbekistonda 2030-yilgacha gender tenglikka erishish bo'yicha strategiya qabul qilindi. Mazkur hujjatda 2030-yilga qalar yurtimizdagi xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qaror qabul qilish bilan bog'liq barcha darajalarda ayollarning to'liq va samarali ishtirok etishi va yetakchilik qilishi uchun teng imkoniyat yaratilishi belgilanib berildi. Bu hujjatda turli darajalarda qonun va hujjatlar, Davlat dasturlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi jarayonida albatta gender tenglik tamoyiliga amal qilinishi lozimligi masalasi ham qayd etilgan.[2]

Agar, ayollar ishtiroki jamiyat rivojini ta'minlaydi, degan g'oyaviy tamoyilga amal qilsak, mamlakatimizda ayollarga berilgan imtiyozlarni biz aslida jamiyat rivoji uchun berilgan imtiyozlar, deb aytsak bo'ladi. Masalan, birgina o'tgan-yilning o'zida xotin-qizlarga 14 foizda 33 milliongacha tadbirkorlik uchun kreditlar berildi, pensiya yoshidagi ayollarni ishdan bo'shatish ta'qiqlandi. Ayrim toifadagi xotin-qizlarga OTMga kirish uchun tavsiyanomalar berildi, Ishlaydigan ayollarga bolasini ovqatlantirish uchun tanaffuslar berildi, davlat hisobidan ularga kasb-hunar o'rgatilish keng yo'lga

qo'yildi, "Ayollar ro'yxati"ga kirgan ayollar va ularning bolalariga imtiyozlar berildi, og'ir ijtimoiy ahvolga tushgan xotin-qizlarga uy berildi, tashabbuskor xotin-qizlarga "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni berildi, 12 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga qo'shimcha ta'til belgilandi, ayrim xotin-qizlarning kontrakt puli davlat tomonidan to'lanadigan bo'ldi, 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni ishga olishda sinov davri qo'llanilmaydigan bo'ldi, hatto ayrim hollarda 53 yoshda pensiyaga chiqishlari mumkinligi belgilandi. Rahbar lavozimdagi xotin-qizlar ulushi 35 foizga yetdi. Bunday misollarni aytaversak, juda ko'p.

Demak, gender tenglik masalasi – davlatimiz siyosatida ustuvorlik ahamiyatini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Lex.uz.
2. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida. <https://lex.uz/>
3. Kalabixina I. Ye. Kratkiy ponyatiyniy slovar po gendernim issledovaniyam // Sotsialniy pol: ekonomicheskoe i demograficheskoe povedenie Uchebno-metodicheskie materialy po kursu. M., 1998.
4. S. Rahimov. "Gender tenglik: hali muammo ko'p". <https://uza.uz/>
5. <https://uz.wikipedia.org/>

NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYA VA TALABALARNING MA'NAVIY-MA'RIFIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISH

Viloyat Xudoyberdiyeva,

*Mehnat va ijtimoiy munosabatlar
Akademiyasi dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi.*

Annotatsiya. Mustaqilligimizning keyingi bosqichlarida xususiylashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy soha obyektlarida ham amalga oshirila boshlandi. Dastavval, chet eldagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan sheriklik asosida mamlakatimizda qo'shma oliy ta'lim muassasalari tashkil etilgan bo'lsa, oxirgi 3-4-yillar orasida respublikamizda xususiy ta'lim va tarbiya muassasalari ham paydo bo'la boshladi. Maqolada ushbu ta'lim muassasalarida yoshlarimizning ma'naviy

qiyofasini shakllantirishda tarbiya masalasiga ustuvor ahamiyat berish haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar. Oliy taʼlim muassasalari, bozor iqtisodiyoti, taʼlim va tarbiya, davlat mulklari, xususiy taʼlim, maʼnaviy makon, maʼnaviy tarbiya, talabalar, globallashuv, maʼnaviy qiyofa.

Barchamiz bilamiz-ki, mustaqilligimiz qoʻlga kiritilgach, sobiq sovet tuzumidagi davlat yakkahokimligiga asoslangan boshqaruv tizimidan voz kechildi. Bozor iqtisodiyotiga oʻtishning oʻziga xos oʻzbek modeli ishlab chiqildi. Bu modelning asosiy xususiyatlari shundan iborat edi-ki, iqtisodiyotda yetakchi boʻlgan “iqtisodiyotni rejalashtirish va markazlashtirish” tamoyili oʻz mavqeyini yoʻqotishi, “rejali iqtisod”dan uzilib, mulkchilikning xilma-xilligiga asoslanishi, raqobatchilikni yuzaga keltirish va shu asosdan ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatini oshirish, eksportni rivojlantirish, xususan, xom ashyo eksporti salohiyatini kamaytirib, tayyor mahsulotlarni sotish kabi masalalar yangi tuzumda asosiy oʻrin tutishi kerak edi.

Siyosiy sohada ham bir qator oʻzgarishlar amalga oshirildi va demokratiyaning asosi boʻlgan koʻppartiyaviylik tizimi yoʻlga qoʻyilib, yagona mafkura hukmron boʻlgan tizimdan chetlashildi.

Mustaqilligimizning dastlabki-yillaridanoq, davlat mulklari xususiylashtirila boshlandi, xususiy mulkdorlar sinfi yuzaga kela boshladi. Mustaqilligimizning keyingi bosqichlarida esa xususiylashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy soha obyektlarida ham amalga oshirila boshlandi. Dastavval, chet eldagi nufuzli oliy taʼlim muassasalari bilan sheriklik asosida mamlakatimizda qoʻshma oliy taʼlim muassasalari tashkil etilgan boʻlsa, oxirgi 3-4-yillar orasida respublikamizda xususiy taʼlim va tarbiya muassasalari ham paydo boʻla boshladi.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda qirqdan ortiq nodavlat oliy taʼlim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Oʻzbekiston hukumati 2026-yilgacha nodavlat oliy taʼlim tashkilotlari sonini kamida 50 taga, oliy taʼlim muassasalari sonini 200 taga yetkazishni rejalashtirmoqda. Bu “Yangi Oʻzbekistonning 2022–2026-yillarga moʻljallangan Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi prezident farmoni loyihasida koʻzda tutilgan.

Shuningdek, turli hamkor davlatlar ham Oʻzbekistonda oʻz nufuzli oliy taʼlim muassasalarining filiallarini ochishga qiziqish bildirishmoqda. Rossiya davlatining oʻzi mamlakatimizda 10ta oliy taʼlim muassasalari filiallarini ochishni rejalashtirgan.

Taʼlim va tarbiyani xususiylashtirish qanchalik toʻgʻri, degan savol tugʻiladi. Gap shundaki, taʼlim va tarbiya sohasidagi muassasalar xususiy boshqaruvga asoslanishining zamirida birinchi galda foyda olish turadi va

shu jihati bilan u ham iqtisodiy xarakter kasb etadi.

Yana bir tomoni borki, nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi endi ta'lim muassasalari orasida ham raqobatni vujudga keltiradi. Bu yaxshi albatta. Endi ta'lim muassasalari avvalo talabni o'rganadilar, shu asosda dasturlarini ishlab chiqadilar.

Bugungi kunda ko'pchilik chet tillarini o'rganishga qiziqish bildirmoqda. Chunki globallashuvning o'zi shuni toqazo etmoqda. Nodavlat ta'lim muassasalari ham albatta buni inobatga olishgan va ularning aksariyati chet tillarini o'qitish keng yo'lga qo'yilgan.

Talabalarga yaratilgan sharoitlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Inson borkim, qulay sharoitda ishlashga, qulay sharoitlarda o'qishga intiladi. Ota-onalar ham o'z farzandlariga har tomonlama qulaylik tug'dirishni istaydilar. Nodavlat ta'lim muassasalarining aksariyatida eng yuqori texnologiyalarga asoslangan sharoitlar yaratilgan. Demak hamma sharoit va imkoniyatlar bor. Xo'sh, ta'lim sifatichi? Bugungi kunda aksariyat nodavlat ta'lim muassasalari, jumladan Mehnat va ijtimoiy munosabatlar Akademiyasi o'qituvchilar ilmiy salohiyatini yuksaltirishga e'tibor qaratganlar. Professor-o'qituvchilar tanlov asosida ishga qabul qilinmoqda. Bu yaxshi, albatta.

Lekin yana bir tomoni borkim, ko'pgina o'quv muassasalarida kredit modul tizimi bo'lgani uchun asosiy e'tibor mutaxassislik fanlarini o'qitishga qaratilgan. Tarbiya bilan bog'liq ijtimoiy-gumanitar fanlar mavqeyi ancha tushib ketgan.

Ma'lumki, O'zbekistonda azaldan ta'lim tarbiya asosida berib kelingan. "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" – degan edi ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy. Prezidentimiz aytgan yangi ma'naviy makonni barpo etish, shuningdek, yoshlarimizning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda ta'lim tizimida tarbiya masalasiga ustuvor ahamiyat berish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Nodavlat ta'lim muassasalari har qancha sifatli ta'limni amalga oshirmasin, agar ular ta'limni tarbiya asosida bermasalar, bu milliy ildizlarimizdan uzilishga, ma'naviy qarashlarda bo'shliq paydo bo'lishiga olib keladi. Nodavlat ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi muhim ahamiyatga ega. Masalan, Vatanparvarlik tarbiyasi Xitoy pedagogikasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunda ular Vatan tarixi, milliy bayramlar, milliy qadriyatlarni o'qitish, musiqa darsida Vatan haqidagi qo'shiqlarni o'rgatishni asos qilib olishgan. Targ'ibot ishlarida ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalaniladi, anonim izohlar yozish ta'qiqlangan, davlat va fuqarolar o'rtasida ham, talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar internet

orqali yo‘lga qo‘yilgan. [2]

Shuning uchun nodavlat ta’lim muassasalarida tarbiya, ma’naviyat, milliy o‘zlikni mustahkamlashga oid ijtimoiy-gumanitar fanlarning yaxlit tizimini o‘qitish, talabalar o‘rtasida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan turli tadbirlar va targ‘ibot ishlarini amalga oshirish muhimdir. Zero, “Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining ahamiyati katta”, deb ta’kidlaydi Prezidentimiz.[1]

Hazrat Navoiy shunday degan ekanlar:

Menga ne yoru ne oshiq havasdur,

Agar men odam ersam, ushbu basdur.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2021 y. -B. 270.
2. Se Ilin, Kovrijnix O. A. Ob opitax patrioticheskogo vospitaniya studentov v Kitaye // Sotsialno-politicheskiye i kulturnie problemi sovremennosti: sbornik nauchnix trudov po materialam I Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii 31 maya 2016 g. Nijniy Novgorod: NOO «Professionalnaya nauka», 2016. C. 73–75.
3. Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar. O‘z.dav.nashr. Toyent -1951 y. “Farhod va Shirin” dostonisha so‘zboshi. B. - 495.
4. Shahlo Ahrorova. Ma’naviyat eng ta’sirchan va qudratli qurolimizdir. “Ma’naviyat” nashr. T.-2022y.

MUNDARIJA

№	Muallif, maqola mavzusi	
	KIRISH	3
I. O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI YANGI BOSQICHGA KO‘TARISH, IJTIMOYIY-MA’NAVIY MUHIT HOLATINI O‘RGANISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI		
1	Targ‘ibot kvintessensi – vatanparvarlik Mavrulov Abduxalil	7
2	Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyat tendensiyalariga bir nazar Muxammad Quronov	17
3	«Yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytishining dolzarb masalalari» Narzula Qosimovich Jo‘rayev	22
4	Ma’naviyat – taraqqiyot kaliti Sultonmurod OLIM	27
5	O‘zbekistonda missionerlik xavfini bartaraf etishning ma’naviy-axloqiy va g‘oyaviy-mafkuraviy mexanizmlari Musayev Mansur Tursunpo‘latovich, Xolbekov Berdimurod	38
6	Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini o‘stirishda targ‘ibotchilar vazifalari Ravshanbek Mahmudov	45
7	Ilm-fan, ta’lim va tarbiya - ma’naviyatning ustuvor masalasidir Usmonjon Bo‘tayev	49
8	Sharqda uyg‘onish ildizlariga qaytib... Baxtiyor Omonov	53
9	XX asrda natsizm mafkurasining asosiy g‘oyaviy tamoyillarini tahlili Ernazarov Dilmurod Zuxriddinovich	62
10	Ma’naviy xavfsizlik tizimi milliy xavfsizligi omili sifatida Eshmurodov Akbar Tolliboyevich	66
11	Yoshlartarbiyasida axborot olish madaniyatini shakllantirish Ruzieva Ruhsora	70
12	Tarbiya saodat masalasidir (ozodlik ham, obodlik ham o‘zi kelmas) Siddiqova Shoxida Isoqovna	73

13	Globalashuv jarayonida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning metodologik asoslari va zarurati Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich	77
14	Jamiyat hayotini erkinlashtirishda gender tenglikka amal qilishning o'rni Shuxrat Otaqulov	81
15	Fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini oshirishning ahamiyati Astanov Axunjon Raubovich	85
16	O'zbekistonda harbiy xizmatchilarning kasbiy va ma'naviy-axloqiy madaniyatini rivojlantirish mexanizmi Xolikov Yuldosh Tuychiyevich	89
17	Yangi qadriyatlar tizimining shakllanishi. Inagamova Feruza Xurshitovna	92
18	Ijtimoiy davlat barpo etishda davlat xizmatchisi ma'naviy qiyofasini shakllantirish borasida sharq mutafakkirlari qarashlari ahamiyati Maxbuba Xoliyarova Sottorovna	96
19	Ma'naviy merosimiz – bebaho boyligimiz Jo'rabek Xidirov	102
20	Jamiyat ma'naviy qiyofasi va ijtimoiy muhit bilan aloqadorlik Shahlo Ahrorova	104
II. IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIIY QARASHLARIGA TA'SIRI: MEDIATAHLIL METODLARI.		
21	Ma'naviy-axloqiy tarbiya – barqaror davlat va jamiyat poydevori Sarvarjon G'afurov	109
22	Yoshlar ijtimoiy-innovatsion faolligini oshirishda ijtimoiylashuvning ahamiyati Otamuratov Sarvar Sadullaevich	113
23	Sun'iy intellektning xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi ahamiyati G'oyibnazarov Shuxrat G'oyibnazarovich	116
24	Ommaviy axborot vositalarining yoshlar hayotiga ta'sirini tartibga solish yo'nalishlari Ravshanov Fazliddin	121

25	Ijtimoiy institutlar tizimida yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning vazifalari (falsafiy mediatahlil) Tuychiyev Berdikul Turakulovich, Xo‘jaxonov Islomxo‘ja Abdulloxon o‘g‘li	125
26	Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviy-axloqiy qarashlariga ta’siri: mediatahlil metodlari Sultonov Fozil Xojjiyevich, Akbarqulova Ziyodaxon Ummataliyevna	130
27	Sharq allomalarining axborot to‘g‘risidagi qarashlari transformasiyalashuvi Akbar O‘tamurodov	138
28	Yoshlarning innovatsion tafakkurni shakllantirish mexanizmlari Xudoynazar Qo‘chqorov	144
29	Mediamakon: Yoshlar ma’naviy – axloqiy qarashlaridagi salbiy o‘zgarishlar Hojiyev Farhod Jumaboevich, Sultonov Fozil Xojjiyevich	149
30	Yoshlar ma’naviyati va tarbiyasida axborotdan foydalanish masalalari Mirazimova Gulbahor, Germanova Tatyana Vitaliyevna	153
31	Texnogen sivilizatsiya sharoitida shaxs axloqi Avlakulov Aktam Mavlonkulovich	157
32	Ijtimoiy tarmoqlardagi milliy ma’naviyatga tahdidlar O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja	161
33	Ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarning asosiy yo‘nalishlari O‘razov Bobir Baxtiyorovich	164
34	Ommaviy madaniyatning jamiyatga ta’siri B.Qodirov J.Xidirov	167
35	Ma’naviy ekstremizm targ‘ibotchilari Abduhamidov Muhammadjon Abduhalim	171
36	Ijtimoiy tarmoqlar: bunyodkor va vayronkor g‘oyalar kurashi Madraximov Alisher Usubjon o‘g‘li	174
37	Ijtimoiy tarmoqlar va mediaolamning jamiyatga ta’siri Xurshid Serobov	179
38	Tik tok ijtimoiy tarmog‘ining bugungi yoshlar dunyoqarashiga ta’siri Shermatov Avazbek G‘ofur o‘g‘li	183

39	Internet axborot resurslaridan o‘rinli foydalanish madaniyatini shakllantirish Rasulov Azizkhon Mukhamadkodiroyevich	188
40	Medialar talqiniga yondashuvlar Ibraximov Barotjon Botirovich	194
41	Yoshlarda axborot psixologik xurujlarga qarshi immunitet shakllantirish masalalari Zulfiya Komilova	197
42	Virtual o‘yinlarga qaramlik va ularga qarshi kurash Xaydarova Dilorom Abduxamidovna	200
43	Yoshlar dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri Nazarov Ravshan Nazarovich	204
44	Talabalarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’siridan himoyalash Dilrabo Xudoyqulova, Yusupov Javohir	208
45	“Inson – jamiyat – davlat” iyerarxiyasida davlat xizmatchisi kasbiy ma’naviyatining roli Dilshod Ismoilov	212
46	Yoshlarni mafkuraviy manipulyatsiya ta’sirlaridan himoya qilish dolzarb masala sifatida Atavullayev Elyorbek Baxtiyor o‘g‘li	216
47	Ijtimoiy tarmoqlarda radikal g‘oyalar xavfi va unga qarshi kurash choralari Namozova Maftuna Shokir qizi	220
48	Chegara qo‘shinlari qism va bo‘linmalari dislokatsiyasini optimizatsiya qilish Razzoq Shaymardanov Nuraliyevich	225
49	Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri Ahmedov Husniddin Ixtiyorovich	228
50	Yoshlarning ma’naviy-axloqiy e’tiqodlarini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni: media tahlil Murtazina Diana Rahibovna, Murtazin Emil Rustamovich	232
51	Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishida mediatarbiyaning o‘rni. Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi	235
52	Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviy-axloqiy qarashlariga ta’siri: media tahlil metodlari. Qo‘qonboyeva Gulnoza	239

III. MA'NAVY TARBIYANING SAMARALI VA TA'SIRCHAN USULLARI: EMPIRIK TAJRIBALAR ASOSIDA

53	Inson ruhining injenerlari yohud uchinchi renessans lokomotivlari V. Qo'chqorov Baxtiyor Omonov	243
54	O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish va bu jarayonda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish masalalari Babajanova Diloram Babajanova	252
55	Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot asosida kurashishning imkoniyatlari Suvanov Ilhom Abdixalilovich	256
56	Kitobxonlik – ma'naviyat asosi Ilyos Quvondiqov	262
57	Jamiyat muhitida ma'naviy tarbiyaning zarurati Ahmedova O'g'ilxon Nomozovna	268
58	Abdurahmon toshkandiy ijodining turkiston ma'naviy-axloqiy hayotidagi o'zgarishlarga ta'siri Asatulloev Abrorxon Asatulloevich	271
59	Ajdodlar sabog'ining yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rni Choriyeva Dilorom Abdumuminovna	273
60	Ta'lim va adabiy meros masalasi Yusupov Kuanishbay Baltabayevich	277
61	Ta'lim va tarbiya jarayoniga ma'naviy tarbiyaning ta'sirchanligi milliy axborot orqali Jurakulov Jamol Komilovich	283
62	Ma'naviy tarbiyaning samarali va ta'sirchan usullari: empirik tajribalar asosida. Tursunov Akmal Raxmatullayevich	288
63	O'smirlik davrida ma'naviy tarbiyaning mantiqiy masalari Pirnazarov Nurnazar	292
64	Ichki ishlar organlarida ma'naviy sohadagi amalga oshirilayotgan islohatlar strategiyasi Musaev Maqsud Tursunpo'latovich	297
65	Yoshlar ma'naviy va estetik tarbiyasida yusuf xos xojib asarlarining falsafiy ahamiyati Abdullayeva Marhabo Uskinbayevna	301

66	Talabalarda tayanch ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning pedagogik mazmuni to'g'risida Malikova Dildoraxon Qobilovna	306
67	Yoshlarni faolligini oshirishda pr texnologiyalardan foydalanish Qalandarov Muhiddin Naqliddin o'g'li	310
68	O'quvchi yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlarga ogohlik ruhida tarbiyalashga pedagogik yondashuv G'oziqulov Davron Nuriddin o'g'li	315
69	Alpomish dostoni - ma'naviy tarbiyaning samarali omili sifatida Boboraxmatova Malika Ulug'bek qizi	318
70	Ishchi ishlar xodimlarini ma'naviyatini oshirish yo'lida Ro'ziyeva Gulsanam Sultonmurodovna	321
71	Yoshlarda vatanparvarlik ruhini yuksaltirish va vatanparvarlik prinsiplarini shakllantirish Saparov Bobir Xudayberdievich	324
IV. G'OYAVIY KURASH: TARIXI, METODOLOGIYASI, MUAMMO VA YECHIMLARI		
72	JADID FALSAFASI Qiyom Nazarov	332
73	MAFKURA SOHASIDA BO'SHLIQ BO'LMAYDI To'rayev Shavkat Nishonovich	340
74	Navoiy "Hayrat ul-abror" idagi hamdlarda ezgu g'oyalar talqini Ziyoda G'AFFOROVA	344
75	Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy targ'ibotning ahamiyati Elmuratova Umida Farxadovna, Jabborova Setora Nuriddin qizi	349
76	Milliy davlat suverenitetini mustahkamlash g'oyasini umummilliy harakatga aylantirish zarurati Hamroyev Sanjar Samiyevich	352
77	Jamiyatda "uchinchi renessans"ni barpo qilishda milliy uyg'oqlikning dolzarbligi Qadamboyev Temur, Elmuratova Umida	355
78	Onlayn muhit: muammo va yechimlar Munira Kaxarova	359

79	Huquqiy targ'ibot-talabalarda huquqiy kompetensiyani rivojlantirish omili sifatida Pirnazarov G'ulom Nurboboyevich	364
80	Ilk uyg'onish davri falsafasi va inergetika: o'z-o'zini tashkillashtirishning tarixiy ildizlari Rizayev Ilhom Imomaliyevich	367
81	Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich	372
82	Hozirgi davr yoshlar dunyoqarashida ma'naviy-mafkuraviy xurujlarning oldini olish zaruriyati Yuldasheva Matluba Munavarovna	378
83	Oila – davlat ijtimoiy-siyosiy barqarorligining asosi Saydaliyeva Nigora Zaynitdinovna	382
84	Yangi o'zbekiston yoshlarini barkamol avlod bo'lib tarbiya topishida ma'naviyatning roli Abdilxamedov Abbas Abilatibovich	386
85	Millatlararo munosabatlarda bag'rikenglikning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri Meyliyev Ulmas Farmonovich	390
86	Zamonaviy axborot maydonida ekstremizm va terrorizm g'oyalariga qarshi kurash muammolari Ergashev Axror Shuxrat o'g'li	393
87	Destruktiv va totalitar sektalarning g'oyaviy - mafkuraviy tahdid va uni o'rganish metodologiyasi Kuranov Umid Muxammadovich	396
88	Nobel mukofoti sovrindorlari ijodida urush mavzusi va g'oyaviy kurash ifodasi Nodira Ibrohimova	404
89	Yaqin Sharqda davlatlarida zamonaviy siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning o'ziga xos jihatlari Jo'rayev Axadjon Ilyosjon o'g'li	407
90	Koinotdagi sabab-oqibat munosabatlarining mohiyati va tabiati Jumaniyozova Sabohat Bekturdiyevna	411
91	Dunyoning geopolitik muvozanati, kechagi nazariyalar bugun amaliyotda... yohud rossiyadagi shovinistik g'oyalar mohiyati Xasanov Zuxriddin Avaz o'g'li	415

92	O'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish tamoyillari Atamuradov Xasan Yuldoshevich	422
93	"O'zbek milliy ruhi"ni kamol toptirish asoslari Xusanova Nigora Qavul qizi	426
94	Multikulturalizm: musbat va manfiy qutblar Yakubov Sobirjon Salimovich	431
95	Zamonaviy jamiyatni shakllantirishda PR texnologiyalarining o'rni Qalandarov Muhiddin Naqliddin o'g'li	435
96	Tolerantlik tamoyili va uning ijtimoiy ahamiyati Normurodova Madinabonu Namoz qizi	440
97	Missionerlik tushunchasining siyosiy-ma'naviy kategorial mazmun-mohiyati Tanimov Sharapadin Maulenbergenovich	445
98	Terrorizm va uning zamonaviy shakllari Ochilov Suhrob Ikrom o'g'li	448
99	O'zbekistonda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashning mafkuraviy-ma'rifiy omillari Paluaniyazov Bayram Yesemuratovich	452
10	Gender tengligi: g'oyaviy kurash va ayol Ismoilova Aziza Alisherovna, Sarvinoz Turg'unova	457
101	G'oyaviy kurashda konstitutsiyaviy vatanparvarlikning o'rni G'ofurova Dilafruz Murod kizi, Aziza Jumanova	460
102	Konstitutsiyaning milliy va g'oyaviy ahamiyati G'ofurova Dilafruz Murod kizi, Mahbuba Hakimova	463
103	Gender tengligining g'oyaviy ahamiyati Kamola Abduvaliyeva, Ismoilova Aziza Alisherovna	467
104	Nodavlat ta'lim muassasalarida tarbiya va talabalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirish Viloyat Xudoyberdiyeva	470

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

**ZAMONAVIY TARG'IBOT
TEXNOLOGIYALARI
VA MA'NAVIY-MA'RIFIY
ISHLAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING DOLZARB
MASALALARI**

2024-yil 28-mart ilmiy Anjuman materiallari

Noshir: Zayniev F.
Dizayner: Zayniev S.

Nashriyot raqami: AI № 298. 22.05.2017-yil

Bosishga 1.05.2024-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108. $\frac{1}{28}$

«Times New Roman» garniturasida.

Ofset bosma ushida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 15, Buyurtma № 26

Adadi 100 nusxa.

“THE COLORPACK” bosmaxonasida chop etilgan.

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Katta Qozirabad, 65

Telefon +998 91 242-12-23